O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

M.Q. PARDAYEV, A.N. XOLIQULOV,
T.I. YAHYOYEV

IQTISODIY TAHLIL

DARSLIK

SAMARQAND - 2024

UO‘K: 005.52(075)
S 96
KBK: 65.433ya73

M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev.
Iqtisodiy tahlil [Matn]: **darslik** / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “FAN BULOG’I” nashriyoti, 2024 - 403 bet.

Darslik korxonalarning moliyaviy hamda iqtisodiy salohiyatini aniqlashni tizimli o’rganishga, mamlakatimizda qabul qilinayotgan yangi qarorlarning korxonalar hamda davlat iqtisodiyotiga ta’sirini ma’lum darajada baholashga hamda korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish sohasidagi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Darslikda iqtisodiy tahlilning nazariy masalalari yoritilgan. Korxonalarning moliyaviy hamda iqtisodiy salohiyati baholash, aktivlar hamda passivlarning holat, harakat va samaradorlik ko’rsatkichlarini aniqlash va baholash, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hamda tezkor boshqaruv tizimini yaratishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Korxonalarning moliyaviy hamda iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish metodologiyasiga alohida e'tibor beriladi.

60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishimutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan bakalavrlar uchun, shuningdek, buxgalteriya hisobi, moliya, bank ishi, iqtisodiyot, menejment va marketing sohasidagi mutaxassislar uchun.

Taqrizchilar:
Tashnazarov S.N. – SamISI professori, i.f.d.
Aliqulov A. – SamDVMChBU professori, i.f.d.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - yanvardagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (6-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-753-56-5

© M.Q.Pardayev va boshq., SamISI. 2024 y.
© “FAN BULOG’I” nashriyoti. 2024 y.

MUNDARIJA

KIRISH.....9
I BOB. IQTISODIY TAHLILNING VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISH TARIXI 11
1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish elementlari va rivojlanish bosqichlari 11
1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi.....15
1.3. Iqtisodiy taxlil fanining O‘zbekistonda yaratilish tarixi.....18
1.4. Iqtisodiy tahlil va uning nazariyasi bo‘yicha qilingan ishlarningqisqacha tavsifi.....26
1.5. Moliyaviy tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi 29
1.6. Boshqaruv tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yichaqilingan ishlarning qisqacha tavsifi 30
1.7. Moliyaviy va boshqaruv tahlilii hamda uning metodologik asosiniyoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi.....31
1.8. Loyiha tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi 31
1.9. Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning shakli ekanligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari 32
1.10. SWOT tahlil va uning tahlil tizimidagi o‘rni 36
1.11.Tahlil fanining alohida sohalarining metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi.....38
1.12. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilning rivojlanishyo‘nalashlari 40
1.13.O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy tahlil maktablari.....41
II BOB. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, VAZIFALARI VA MAZMUNI.....44
2.1. Iqtisodiy tahlilning obyektiv zarurligi va mavzuning dolzarbligi.....44
2.2 Iqtisodiy tahlil predmeti ta’rifi bo‘yicha turli olimlar qarashlari.....47
2.3. Iqtisodiy tahlil fani predmetining ta’rifi.....57
2.4. Iqtisodiy tahlilning ob’ekti.....59
2.5. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari 60
2.6. Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi.....65
2.7. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o‘rni 75
III BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARINI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI.....80
3.1. Iqtisodiy tahlil metodining mazmuni bo‘yicha turli qarashlarningnazariy talqini.....80

3.2. Iqtisodiy tahlilning metodi bo‘yicha XXI-asrdagi olimlar fikrlari.....87
3.3. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi va ularning tasnifi 92
3.4. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tavsifi 94
IV BOB. IQTISODIY TAHLILDA QO’LLANILADIGAN AN’ANAVIY VA MATEMATIK USULLAR HAMDA ULARNING QO’LLANILISHI 98
4.1 Solishtirish usuli.....98
4.2. Muvozanat usuli.....100
4.3. Qayta hisoblash usuli 102
4.4. Farqlash usuli.....104
4.5. Zanjirli almashtirish usuli. 108
4.6. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli. 114
4.7. Indeks usuli.....115
4.8. Integral usuli 119
4.9. Kichik sonlardan foydalanish usuli 125
V BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROT MANBALARI VA IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH 128
5.1. Iqtisodiy tahlil va unda qo‘llaniladigan axborotlarningbir-biri bilan bog‘liqlik tamoyillari 128
5.2. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlartizimi 135
5.3. Korxonalarning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini takomillashtirish.....141
VI BOB. KORXONALARNING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINI IFODALOVCHI ASOSIY KO‘RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH USULLARI.....144
6.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni tahlil qilish usullari.....144
6.2. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi vaulardan samarali foydalanishni tahlil qilish usullari.....145
6.3. Asosiy fondlarning tarkibini, holatini va ulardan samaralifoydalanishni tahlil qilish usullari 146
6.4. Sanoat korxonalarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishiniva ulardan foydalanishni tahlil qilish usullari.....147
6.5. Mahsulot tannarxini tahlil qilish usullari.....147
6.6. Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash usuli 148
VII BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL QILISH USULLARI.....154
7.1. Moliyaviy holatni tahlil qilishning vazifalari 154
7.2. Korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash 156
7.3. Korxona moliyaviy holatini to‘liq baholash.....159

7.4. Qurilish korxonalari moliyaviy holatini xalqaro standartlarga mos baholash. 166
VIII BOB. BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI 178
8.1. Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari 178
8.2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar 183
8.3. Balans ma'lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligi 185
8.4. Balansni o'qish 193
8.5. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili 199
8.6. Buxgalteriya balansining vertikal tahlili 201
8.7. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili 204
8.8. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko'rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili 209
IX BOB . "MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDA HISOBOT"NING (2-son shakl) MAZMUNI VA UNI TAHLILGA TAYYORLASH YO'LLARI 214
9.1."Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot"ning tarkibiy tuzulishi 214
9.2."Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum" 214
9.3."Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi"niifodalovchi ko'rsatkich 215
9.4."Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)" 215
9.5. "Davr xarajatlari, jami"ko'rsatkich va uning tarkibi 215
9.6."Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)" ko'rsatkichi va uni aniqlash yo'llari 217
9.7."Moliyaviy faoliyatdan daromadlar 217
9.8."Umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar)" 219
9.9."Foyda solig'ini to'lashga qadar foyda (zarar)" 220
9.10."Byudjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumot"ning tarkibi va mazmuni 221
X BOB. KORXONANING TO'LOV QOBILIYATI VA LIKVIDLIGIN XAMDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI, IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TAHLILI 225
10.1. Likvidlik tushunchasi va ularning ta'rifi 225
10.2. Aktivlarning likvidlik nuqtai nazaridan turlari 226
10.3. Korxonalar likvidligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash vatahlil qilish yo'llari 227
10.4.Korxonaning likvidligini ta'minlashda qo'llaniladigan qo'shimcha ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari 229
10.5. Korxonalarning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni

aniqlash va tahlil qilish yo‘llari.....231
10.6. Korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati va uni tahlil qilish zarurligi.....235
10.7. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tasnifi.....236
10.8. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari 248
XI BOB. FIRMA VA KOMPANIYALARNING DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI 252
11.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda qanday ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin? 252
11.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi qaerdako‘rsatiladi va nimani ifodalaydi?.....252
11.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tuzilishi nimani ifodalaydi va qanday aniqlanadi? 253
11.4. Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsienti (Ks.im.) qanday aniqlanadi?.....253
11.5. Aylanma mablag‘larni immobilizatsiyalash koeffitsienti ($K_{mab.aym.im.}$)qanday aniqlanadi?.....253
11.6. O‘z mablag‘ini immobilizatsiyalash koeffitsienti ($K_{o‘zim}$)qanday aniqlanadi?.....254
11.7. Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti ($K_{j.m.}$)qanday aniqlanadi? 254
11.8. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti (Kkr.deb.n.) qanday aniqlanadi?.....255
11.9. Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ($K_{deb.kr.n.}$) qanday aniqlanadi?.....255
11.10. Muddati o‘tgan debitorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.d.k.}$)qanday aniqlanadi?.....256
11.11. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.kr.q.}$) qanday aniqlanadi?.....256
11.12. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat? 257
11.13. Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishyo‘llari 257
XII BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI.....264
12.1. Xo‘jalik subektiing pul mablag‘larini ko‘paytirish, ularning ko‘payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilnig muhimligi va asosiy vazifalari 264
12.2. Korxonaning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....268
12.3. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari..271
12.4. Pul oqimlarining bashoratlash.....276

12.5. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili 279
12.6. Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubi 280
12.7. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash. 287
12.8. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari 289
12.9. Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlili 290
XIII BOB. XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI .. 297
13.1. Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbaalari 297
13.2. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda 300
13.3. Xususiy kapital va uning o‘zgarishining tahlili 305
13.4. Xususiy kapitalning dinamik tahlili 307
13.5. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili 308
13.6. Moliyaviy leveridj ko‘rsatkichlarini tahlili 312
XIV BOB. KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI 317
14.1. Kreditga layoqatlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari 317
14.2. Kreditga layoqatlikning tavsifi 321
14.3. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari .. 322
14.4. Kreditga layoqatlikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o‘ziga xos jihatlari 328
14.5. Korxonaning ishonchligini baholash 340
14.6. Korxona raqobatdoshligining tahlili 343
14.7. Daromad tahlili 348
14.8. Kreditlarning muddatligi va maqsadligi bo‘yicha ishlatilishi tahlili 350
14.9. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlikni baholashda nazoratning davomiyligi 353
XV BOB. KORXONALAR IQTISODIY NOCHORLIGI (BANKROTLIGI)NI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH 358
15.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob’ektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari 358
15.2. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari.Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning xuquqiy normalari 362
15.3. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari 365
15.4. Bankrotlikni aniqlashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili 367
15.5. Iqtisodiy nochorlik havf-hatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari 375
15.6. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya,

tugatishning o‘ziga xos xususiyatlari 380
15.7. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari.....389
15.8. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish ..395
GLOSSARIY 398
ASOSIY ADABIYOTLAR.....402

KIRISH

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda har bir korxona, mulk shaklidan qat'iy nazar, erkin raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatadi. Raqobat, o‘z navbatida, har bir korxonani qandaydir o‘zining strategiyasi va taktikasiga ega bo‘lishni, shu yo‘l bilan raqobatga yengilib, sinib ketmaslikning faqat o‘ziga xos yo‘llarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bu esa har bir korxonada ishlab chiqarish, texnologik, tijorat kabi jarayonlarning sir saqlanishini, bu sirni boshqa sub'ektlarga oshkora qilmaslikni, undan o‘z manfaati yo‘lida foydalanishlikni talab qiladi. Bu esa o‘z navbatida, xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishiga faqat yuqorida keltirilgan dalillargina sabab bo‘lmasdan, balki mamlakatimizda xalqaro andozalar talabiga mos bo‘lgan «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» ishlab chiqilishi va ularning amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinishi ham tahlilda shunday tarzdagi tarkibning paydo bo‘lishiga olib keldi. Shuningdek, bugungi amaliyot korxonalarning boshqaruv hisobi va hisobotini hamda moliyaviy hisob va hisobotini yuritishni taqozo qilmoqda. Hisob va hisobotlar odatda, iqtisodiy tahlilning birinchidan, asosiy ma'lumotlar yetkazib beruvchi axborot manbalari bo‘lsa, ikkinchidan, axborotlar shunchaki axborot uchun emas, balki korxonani boshqarish va uning samaradorligini oshirish uchun tuziladi. Bu ham amaliyotga iqtisodiy tahlilning joriy qilinishini taqozo qiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy tahlil fanidan turli maktablar shakllandi. Sobiq Ittifoq sharoitida ushbu fan bo‘yicha tahlil maktablari yaratilgan edi. Ulardan biri professor I.T.Abdukarimov tamonidan asos solingan Samarkand maktabi bo‘lsa, hozirgi kunda professorlar Yo.A.Abdullaev, A.V.Vahabov va E.A.Akramovlar rahbarligidagi Toshkent moliya instituti maktablarini, dotsent A.X.Shoalimov va E. Ergeshevlar tomonidan yaratilgan Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetidagi tahlil maktablarini keltirish mumkin. Hozirgi kunda Toshkentda professor B.A.Hasanov, dotsent A.H.Shoalimovlar rahbarligida tahlilga oid bir qancha asarlar yaratildi va yaratilmoqda.

Iqtisoiy tahlil bo‘yicha mahsulotlarni asosan, shu maktab vakillari bermoqdalar. Hozirgi paytda iqtisodiy tahlilning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha barcha maktab vakillari bir to‘xtamga kelishgan. Iqtisodiy tahlilning uch guruhga (Iqtisodiy tahlil nazariyasi, Moliyaviy tahlil, Boshqaruv tahlili) bo‘linishi tan olindi va shunga binoan ish ko‘rilmoqda. Bularga oxirgi paytlarda nashr qilingan kitoblar, monografiya va risolalarning nomlariniham misol qilib keltirish mumkin. Bularning aniq nomlari adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Darslik, yuqorida ta'kidlanganidek, oliy o‘quv yurtlari va kasb hunar kollejlarida iqtisodiy tahlil fanidan dars beruvchi professor-o‘qituvchilariga,

magistrlar, bakalarvrlar talabalariga mo‘ljallangan. Undan mazkur fanga qiziquvchi boshqa mutaxassislar va keng kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin. Muhimi, har qanday fanning yaratilish tarixi ushbu fan nazariyasining tarkibiy qismi hioblanadi. Shu jihatdan ushbu ish nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega.

I BOB. IQTISODIY TAHLILNING VUJUDGA KELISH VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanish elementlari va rivojlanishbosqichlari

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zaruriyat tug‘ilishi lozim. Shu tufayli fanning shakllanishi biror kishi yoki vazirlikning ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, balki ob’ektiv jarayonga tayanadi.

Xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan buxgalteriya uchyoti va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan. Bu uchun esa ob’ektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Buxgalteriya hisobi bo‘yicha birinchi asar XV asrda Reguzda paydo bo‘ldi. Bunga misol qilib Vendrikt Katrulining 1458 yilda nashr qilingan “Savdo va xususiy savdogar” nomli kitobini keltirish mumkin. Buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan ikkinchi asar 1494 yilda Venetsiyada nashr qilingan Luka Pacholining “Schyotlar va yozuvlar haqida”gi kitobidir. Ushbu kitoblarda buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan. Shunday qilib hozirgi buxgalteri hisobi faniga o‘sha paytlarda asos solingan.

Bu fan xo‘jalik yuritishda asosiy dastak sifatida hamon qo‘llanilib takomillashib va zamonaviylashib kelinmoqda.

Barcha fanlar qatori buxgalteriya hisobi ham o‘z tarixi davomida takomillashib kelmoqda va birqancha boshqa fanlarning vujudga kelishi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, korxonalarning yiriklashuvi, xo‘jalik faoliyatining kengayishi iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini takomillashtirish zaruratini tug‘dirdi.

Shu bois, XVI - XVII asrlarda buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan kitoblar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda chop etildi. Shunday qilib buxgalteriya er qirrasining bir qismida emas, balki barcha mamlakatlarda keng yoyila boshladi.

Rassiyada buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan asarlar XVIII asrda paydo bo‘la boshlagan. Oldin chet el adabiyotlari rus tiliga tarjima qilingan bo‘lsa so’ngra rus olimlari ham bu fanga bag‘ishlangan asarlarni chop etishga kirishganlar.

Rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan asarlari XIX asrda paydo bo‘la boshlagan. Bunga V.S.Nemchinovning 1840 yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat “Hisob fani” asarini misol keltirish mumkin. Bu kitobda savdo korxonalari hisobi tizimi batafsil yoritilgan. Asta-sekinlik bilan buxgalteriya hisobining prinsiplari boshqa tarmoqlar bo‘yicha ham yozila boshlagan. 1861 yilda Klinchening “Qishloq xo‘jaligi buxgalteriyasi” 1863 yilda “Idora bilimi yo‘riqnomasi” kitoblari dunyoga kelgan. Bu asarlar XIX

asrda yaratilgan buxgalteriya hisobi bo‘yicha eng yirik asarlar hisoblangan edi. Bularning asarlar safini F.V.Ezerskiy o‘zining “Uch tizimli buxgalteriya” (1870y.), P.I.Reynbot “Fabrika schyotchiligi” (1875y.), A.V.Prokofev “Ikkiyoqlama buxgalteriya kursi” (1884 y.) kitoblari bilan kengaytirgan.

Shu davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq hisobga olishni talab qiladi. Ammo ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o‘rtasida erkin raqobatning vujudga kelishi buxgalteriya ma’lumotlarini chuqurroq o‘rganishni va uni to‘g‘ri tushintirish zaruratini tug‘diradi. Bu esa o‘z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo qiladi, chunki, “tijorat sirini” takomillashtirish borasidagi juda ko‘p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qoladi.

Korxonalarni to‘g‘ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo‘jalik faoliyatini chuqurroq o‘rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba’zi ko‘rsatkichlarga izoh berishni talab qildi. Bular esa o‘z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelish uchun ob’ektiv asos bo‘lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880 yillarda chiqa boshlagan “Schyotovodstvo” jurnalida paydo bo‘la boshlagan. Keyinchalik bu jurnalda juda ko‘p maqolalar buxgalteriya balansini tahlil qilishga bag‘ishlagan. Shunday qilib, tahlilning ba’zi elementlari mavjud bo‘lgan fan - “**Balansshunoslik**” fani paydo bo‘lgan.

Bu fanning balansshunoslik deb atalishiga asos bo‘lgan, chunki o‘sha paytlarda xo‘jalik faoliyatining natijasi asosan buxgalteriya balansida ifoda edilgan xolos. Balans ma’lumotlariga asosan korxonaning mablag‘i yoki ularning manbaining ma’lum muddatda o‘zgarishi aniqlanadi. Lekin shu o‘zgarishlar nima evaziga sodir bo‘layotganligi, ularga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatayotganligi korxona egasi uchun muhim bo‘lib bordi. Bu esa balansdagi ko‘rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltradi. Tahlilning ilk ko‘rinishi “Balansshunoslik” fani shu tariqa shakllana bordi.

Tahlil fanining vujudga kelishida va uning shakllanishida olimlardan V. Nemchinov, A. V. Prokofev, R.YA.Veysman, I.S.Arinushkin, P.N.Xudyakov kabilarning juda katta xizmatlarini ta’kidlash lozim. Bu mualliflar asarlari asosan kapitalistik korxonalarning murakkab faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Jumladan, 1883 yilda A.V.Prokof’evning “Ikki yoqlama buxgalteriya kursi” asari chop etilgan. Ammo bunda maxsus tahlilga bag‘ishlangan bo‘lim yo‘q bo‘lsada, biroq balans ko‘rsatkichlari faqat nazorat qilish uchun emas, balki tahlil qilish uchun ham kerak deb ta’kidlangan.

Revolyusiyaga qadar nashr qilingan asarlarga R.Ya.Veysmanning

“Hisobshunoslik kursi” kitobini kiritish mumkin. Bu kitobda balans talqiniga bag‘ishlangan maxsus qism bo‘lib, unda balansdagi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan. Bu kitobda muallif balansning aktiv va passiv qismlaridagi moddalariga izoh berib, ularning real va haqiqiy ekanligini isbotlashga uringan. Birinchi marta “Balans-netto” tushunchalari kiritilgan.

I.S.Arinu shkin 1912 yilda “Aksioner korxona balansi” kitobini chop etadi. Bu asar faqat balans moddalarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Unda balansning tuzilish tartibi, moddalarni baholash yo‘llari, xo‘jalik faoliyatini yaxshilash usullari yoritilgan. Shunday qilib XIX asr boshlarida xo‘jalik faoliyatini, jumladan buxgalteriya balansini tahlil qilish usullari vujudga keladi, ammo tahlil fani hali mustaqil fan sifatida shakllanmaydi. Shu tufayli tahlil fani eng avvalo buxgalteriya hisobi fanining bir qismi bo‘lib shakllanadi.

Kapitalistik ishlab chiqarishning taraqqiyoti krizis va raqobatni vujudga keltirdi. Bunday sharoitda har bir korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi “tijorat siri” muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda buxgalteriya balansi ma’lumotlari etarli bo‘lmasdan qoldi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko‘rsatkich-larni ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlilning ham ko‘lami kengaydi. Oldin faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo‘lsa endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo‘shilib “Hisobot tahlili” vujudga keldi. Bunda buxgalteriya balansidagi ko‘rsatkichlar bilan birgalikda “Foyda va zararlar” haqidagi hisobot ma’lumotlaridan ham foydalanildi.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o‘ziga xos tarixga va bir qancha nomlarga ega bo‘ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixi, bu bo‘yicha nashr qilingan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. (1.1-rasm).



1.1-rasm. Iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari

Shunday qilib tahlil fani vujudga kelguncha bir qancha evolyusion

yo‘lni bosib o‘tdi. Vaqt o‘tishi bilan balansdagi ko‘rsatkichlar ko‘payib, murakkablashib bordi. Natijada balansdagi ko‘rsatkichlarni qo‘shimcha ravishda o‘rganishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu esa o‘z navbatida buxgalteriya hisobi fani tarkibida **balansshunoslikni** vujudga keltirdi. Bunda balansning ayrim moddalariga izoh va tushuntirishlar beriladigan bo‘ldi.

Asta-sekinlik bilan balansning ayrim moddalariga izoh berish va tushuntirish uni to‘liq izohlash uchun etarli bo‘lmasdan qoldi. Natijada balans talqiniga bag‘ishlangan alohida bo‘lim vujudga keldi. Bunda balans moddalariga izoh to‘liq beriladigan bo‘ldi. Bu esa **balans talqini**ng vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Amaliyot shu darajaga borib etdiki, balansning bir davrdagi (oylik, choraklik, yillik) ma’lumotlarga izoh berish to‘liq xulosa chiqarish uchun etarli bo‘lmasdan qoldi. Endi ma’lumotlarni o‘tgan davrlar va boshqa davr ko‘rsatgichlari bilan qiyoslashni talab qildi. Bu esa o‘z navbatida **balans tahlili**ning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Asta-sekinlik bilan faqat balans ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ham boshqaruv xodimlarini qanoatlantirmasdan qoldi. Endi moliyaviy hisobotning barcha turlarini o‘rganishni taqozo qildi. Bu esa o‘z navbatida, **moliyaviy hisobotlar tahlili**ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyati faqat moliyaviy faoliyatlardan iborat bo‘lmasdan, boshqa faoliyat turlari bilan (iqtisodiy, texnik, texnologik va h.k.) shug‘ullanishini ham inobatga olishni taqozo qildi. Natijada korxonaning **moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini** o‘rganish lozim bo‘ldi va shu nomdagi fanning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Korxonaning moliyaviy xo‘jalik faoliyati, iqtisodiy, texnik, texnologik faoliyatlari hammasi korxonalarning ma’lum miqdorda iqtisodiy manfaatdorligini (foyda olishini) ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa ushbu tahlilni **iqtisodiy tahlil**, deb nomlanish zaruratini tug‘dirdi va keng qamrovli mukammal fan vujudga keldi.

XX-asrning oxirlarida rejali iqtisodiyot hukm surgan sharoitida iqtisodiy jarayonlar bilan birga ijtimoiy jarayonlarni ham qo‘shib olib borishni taqozo qildi. Bu esa, iqtisodiyotning nechog‘liq sotsial ahvoga ta’sirini bog‘lagan holda tahlil qilishni taqozo qildi. Bu esa, o‘z navbatida sotsial-iqtisodiy tahlilning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Nihoyat u fan sifatida shakllandi. Endigi vazifa bu fanga to‘g‘ri nom tanlashdan iborat edi. Bu borada, tahlil fanining tarixidan ma’lumki, ancha ijodiy tortishuvlarga ham sabab bo‘ldi. Bir guruh olimlar bu fanning nomini “Iqtisodiy tahlil” deb atashni tavsiya qilib, ushbu fanni korxonaning butun iqtisodiyotini o‘rgatadi deb asosladilar.

Ikkinchi guruh olimlar esa ushbu fanning nomini “Sotsial-iqtisodiy tahlil” deb atashni tavsiya qildilar. Bu tavsiyani ushbu guruh olimlar

korxonada ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu tufayli ushbu fan mazkur masalani bir mushtaraklikda o‘rganadi deb isbotladilar. Haqiqatda iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy (sotsial) jarayondan ajratib bo‘lmaydi. Bu ayniqsa mustaqil O‘zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki biz kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yganimiz hammaga ayon.

Biroq, ma’lum palla bo‘ldiki, juda ko‘p olimlar bu fanning nomini “Xo‘jalik faoliyati tahlili” deb atashni tavsiya qildilar. Bunday taklifga biz ham qo‘shildik. Chunki. barcha iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik jarayonlar xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘ladi. Shu tufayli “Xo‘jalik faoliyati tahlili” deyilsa, bu korxonaning barcha sohasini o‘z ichiga qamrab oladi va uni bemalol fanning nomini atashda qo‘llash mumkin degan xulosaga kelgan edik.

Ammo shuni ta’kidlash joizki mustaqillikning boshlarida ishlab chiqilgan ta’lim andozalarida “Xo‘jalik faoliyati tahlili” fani o‘rniga “Iqtisodiy tahlil” fani kiritildi. Lekin mazmuni oldingidek qolgan edi. Biroq ma’lum vaqt o‘tgan uning nomi “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”, deb nomlandi. Asta sekinlik bilan ularning turlari ham ko‘payib bordi. Masalan “Loyiha tahlili”, “Funksional-qiymat tahlili”, “Korxonalar iqtisodiy salohiyati tahlili”, alohida “Boshqaruv tahlili”, “Moliyaviy tahlil”, “Tizimli tahlil”, “Qiyosiy tahlil”, “SWOT tahlili”, shuningdek, har bir tarmoq korxonalari tahlilining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi tahlil turlari. Bugungi kunda yana “Moliyaviy hisobotlar tahlili” degan nom bilan fanning mazmuni ancha qisqartirilgan.

Bizning fikrimizcha, mustaqil davlatning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘liga mos fanlari ham bo‘lishi kerak. Ushbu nazariyaga asoslanadigan bo‘lsak, tahlilning hamma turlari va yo‘nalishlarni birlashtirgan holdi bitta yaxlit “**Iqtisodiy tahlil**” fanini yaratishni taqozo qiladi. Uning tarkibiga barcha tahlilga oid fanlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Tahlil fanining vujudga kelish tarixini ko‘z oldimizga yaqqolroq keltirish uchun shu sohaga bag‘ishlangan adabiyotlarni xranologik jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

1.2. Iqtisodiy tahlilning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi

XX - Asr boshlarida tahlilning ba’zi elementlari vujudga kelganligi to‘g‘risida tegishli ma’lumotlar berildi. Bu qo‘yidagi o‘sha paytlarda chop qilingan adabiyotlarda o‘z aksini topdi: 1880 yillarda R.YA.Veysman tomonidan “Курс счетоводства” kitobi chiqdi. Bunda maxsus bob “Разбор балансов”deb nomlanib maxsus tahlilga bag‘ishlangan. 1912 yilda I.S.Arinushkin o‘zining “Балансы акционерных предприятий” kitobini

chiqardi. Bunda esa balansning moddalari ancha chuqur talqin qilingan.

Jamiyat taraqqiyoti sotsialistik tuzumga o‘rgangandan keyin tahlil fani rejali iqtisodiyotga asoslangan ko‘rsatkichlarni va buxgalteriya balansidagi moddalarni batafsilroq o‘rganishga kirishdi. 1920 yillarda olimlardan P.N.Xudyakov “Анализ баланса” va “Популярные очерки балансоведения” (1929 y.), kitoblarini nashrdan chiqardi. 1925 yilda P.Gerstner “Руководство к изучению баланса”, 1926 yilda Galperin “Учебник балансоведения”, shu yilda A.P.Rudanovskiy “Построение баланса”, Z.P.Evzlin, “Балансы: как их составляют, разбирать и проверять” kabilarning olimlarning kitoblari chop etildi. Buxgalteriya balansiga bag‘ishlangan 1927 yilda I.G.Nikalaevning “Проблемы реальности баланса”, N.R.Veysman “Курс балансоведения”, 1928 yilda, N.A.Blatovning “Балансоведение”, N.A.Kiparisovning “Основы балансоведения”, “Построение балансов и анализ”, N.G.Filimonovning “Балансоведение и баланс”, (1929 y.) kitoblari chop etildi. Bu kitoblarda asosan balansning moddalarini tahlil qilish usullari ko‘rsatildi.

30 yillarga kelib tahlilning ko‘lami kengaya bordi. Tahlil qilish uchun faqat buxgalteriya balansi moddalari emas balki xo‘jalik faoliyatining boshqa ko‘rsatkichlari ham tahlil qilina boshlandi. Natijada tematik tahlil vujudga keldi va ba’zi mavzularga bag‘ishlangan adabiyotlar nashrdan chiqa boshladi. Bunga misol qilib N.E.Kolosovning “Основы экономического анализа” (1931 y.), A.P.Aleksandrovskiyning “Калькуляция и анализ работы предприятий” (1932 y.), “Расчеты по анализу предприятия” (1934 y.), N.R.Veysmanning, 1934 yilda chiqqan “Счетный анализ” shu yili nashr qilingan A.F.Masanovning “Баланс и анализ хозяйственной деятельности”, A.YA.Lokshinning “Анализ отчета”, B.K.Makshansevning “Анализ калькуляции в промышленности”, S.K.Taturning “Анализ отчета промышленных предприятий”, 1935 yilda chop etilgan M.X.Jebrakning “Принципы организации анализа себестоимости”, L.D. YAxninning “Основы технико-экономического анализа себестоимости в социалистических промышленных предприятиях”, G.N.Soromotinning “Анализ хозяйственной деятельности и баланса предприятий”, 1938 yilda chop etilgan. A.A.Afanasevning “Анализ отчета промышленных предприятий”, V.I.Stotskiyning “Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий”, kitoblarini keltirish mumkin.

1940 yillarga kelib “Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” fani fan sifatida to‘liq shakllandi. SHu fanga bag‘ishlangan yirik darsliklar vujudga keldi va oliy o‘quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o‘tila boshlandi. Bu xayrli ishda professorlardan S.K.Tatur, N.R.Veysman, I.A.SHolomovich, M.S.Rubinov, M.I.Bakanov kabi olimlarning xizmatlari katta. Jumladan, 1940 yilda S.K.Tatur “Анализ хозяйственной деятельности промышленных

предприятий”, 1949 yilda N.R.Veysman “Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий”, shu yili I.A.Sholomovich “Анализ хозяйственной деятельности промышленного предприятия”, M.S.Rubinov “Основы учета и анализа хозяйственной деятельности промышленного предприятия”, 1952 yilda M.I.Bakanov, I.A.Sholomovich bilan xamkorlikda “Анализ хозяйственной деятельности” nomli yirik darsliklar chop etildi.

1950 yillar ham tahlil fanining rivojlanishda asosiy bosqich bo‘ldi. Shu yillarda sanoat korxonalarida tahlil qilish fani yanada ravnaq topdi. Bunga nasabi zikr etilgan olimlar bilan birgalikda I.I.Poklod o‘zining “Экономический анализ профизводственно-финансовой деятельности промышленных предприятий”, S.B.Barngols “Оборотные средства промышленных предприятий” (1957 y.), I.V.Valuev “Баланс металлургического завода и его анализ” (1954 y.), G.G.Bro “Анализ баланса промышленного предприятий” (1957 y.), A.Sh.Margulis “Баланс промышленного предприятия”, F.M.Massarigin “Kak читать баланс промышленного предприятия” kitoblari bilan katta hissa qo‘shdilar.

60-70 yillarga kelib tahlilning alohida turlari vujudga keldi. 1976 yilda S.K.Tatur tahriri ostida Moskva Davlat univerisiteti olimlari “Виды экономического анализа, их место и роль в совершенствовании управления промышленным проивзодством” kitobini chop etdi. 1973 yilda B.I.Maydanchik “Сравнительный экономический анализ в машиностроении” kitobini, 1973 yilda V.I.Strajev “Оперативное управление предприятием, проблемы учета и анализа” kitobini, 1974yilda A.D.Sheremet “Комплексный экономический анализ деятельноти предприятия (вопросы методологии)” kitobini, 1968 yilda N.G.Chumachenko “Внутризаводской экономический анализ” kitobini chop etdilar. 70 yillarda xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fanining nazariyasi yaratildi. Bu ishga N.V.Dembinskiy o‘zining “Вопросы теории экономического анализа” (1973 y.), A.D.Sheremet “Теория экономического анализа хозяйственной деятельности” (1982 y), I.I.Karakoz “Основы теории экономического анализа” (1972 y.), 1976 yilda M.I.Bakanov va A.D.Sheremetlar A.N.Kashaev bilan hamkorlikda “Экономический анализ: Теория, история, современное состояние, перспективы”, 1988 yilda A.I.Muravyov o‘zining “Теория экономического анализа” kitoblari bilan katta hissa qo‘shdilar.

80 yillarning xususiyati shundaki, bu davrda iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo‘yicha xududiy maktablar vujudga keldi. Jumladan Moskvada M.I.Bakanov va A.D.Sheremet rahbarligidagi maktab. Bular “Теория экономического анализа” kitobini 1987, 1990 va 1993, 1994, 1995, 1997 yillarda qayta nashrdan chiqardilar. Minsk olimlaridan

V.V.Osmolovskiy, V.I.Strajev, L.I.Kravchen-ko, L.L.Ermolovich, YU.N.Busigin, N.A.Rusak xamkorlikda 1989 yilda “Теория анализа хозяйственной деятельности” darsligini yaratdi. Kievlik olimlardan I.I.Karakoz va V.I.Samborskiy hamkorligida 1989 yilda “Теория экономического анализа” degan darslik paydo bo‘ldi. Endilikda barcha mustaqil hamdo‘stlik davlatlarida, “Xo‘jalik faoliyati tahlilining nazariyasi”, mustaqil fan sifatida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilmoqda. Bu albatta xo‘jalik faoliyatini boshqarishda, uning moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta’minlashda eng muhim tadbirlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida, iqtisodiy tahlil ham yangilanish davrini boshidan kechirmoqda. Uning mazmuni rejaning bajarilishini tahlil qilishdan jahon andozalari talablariga javob beradigan ko‘rsatkichlarni o‘rganishga qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy mahsulotdan ichki yalpi mahsulot va shundan kelib chiqadigan ko‘rsatkichlar tizimiga o‘tish ko‘zda tutilmoqda.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning hozirgi zamonga mos usullarini o‘rganish uchun qo‘yidagi adabiyotlar tavsiya qilinadi: Bakanov M.I., Sheremet A.D., “Теория экономического анализа” - M.: Finansы i statistika, 1995; Savitskaya G.V. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: - Mn: IP Ekopespektiva, 1997.; Rusak N.A., Rusak V.A. Osnovi finansovogo analiza. Mn: OOO “ Merkavanne”, 1995; Petrov V.V. Kovalev V.V. Как читать баланс. M.: Finansi i statistika, 1994; Sheremet A.D. Методика финансового анализа предприятия. M.: IPO “MP”,1996; Krovchenko L.I. Анализ финанового состояния предприятия. Mn: PKF “Ekaunt”, 1994; Kovalev V.V. Фиансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности. M.: Finansi i statistika , 1996 ; Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari , T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998, 1999; Pardaev M.K. Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998; Voljin I.O., Ergashbaev V.V. Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998 va h.k.

1.3. Iqtisodiy taxlil fanining O‘zbekistonda yaratilish tarixi

Buxgalteriya xisobi fanining yaratilganligiga 500 yildan oshdi. Shu fan negizida “Iqtisodiy taxlil” fani xam vujudga kelganligiga xam 100 yildan oshdi. O‘zbekis-tonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlil fanining ham roli juda katta, chunki bu fanning amaliyotga tadbiq qilinishi iqtisodiy dastaklarning biri sifatida nomoyon bo‘lmoqda.

Mustaqil Respublikamiz o‘zining mustaqil fanlari-ga va har bir fan o‘zining yaratilish tarixiga ega bo‘lishi kerak. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani boshqa fanlar singari O‘zbekistonda ham o‘z tarixiga ega. Bu fan sobiq Ittifoq tarkibidagi boshqa Respublikalar singari O‘zbekistonda ham uning tarkibida shakllandi.

Iqtisodiy tahlilning O‘zbekistonda yaratilish tarixini taxminan besh bosqichga bo‘lish mumkin Bu quyidagi chizmada ifodalangan (1.2-rasm).

1 Davr		XX asrning60-yillari		Iqtisodiy tahlilning shakllanish davri
2 Davr		Shu asrning70-yillari		Sobiq ittifoq ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va iqtisodiy tahlil maktabi- ning shakllanish davri
3 Davr		Shu asrning80-yillari		Iqtisodiy tahlil maktabining yaratilishi va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash
4 Davr		Shu asrning 90-yillarningboshlari		Iqtisodiy tahlilning o‘zbek tilida yozilishi va vujudga kelishi davri
5 Davr		Mamlakatimizning mustaqillikyillari XXI-asrboshlarida		Iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari. Iqtisodiy tahlil bo‘yicha asarlarning ko‘plab vujudga kelishi va chop etilishi. Bu bo‘yicha turli qarashlarning paydo bo‘lishi
6 Davr		XXI-asrning 10-18 yillarida		Mamlakatni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilishi

1.2-rasm. O‘zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining yaratilish davrlari

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, I–davr XX-asrning 60-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu iqtisodiy tahlilning shakllanish davri bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilning II–davri o‘tgan asrning 70-yillariga, aynan Sobiq Ittifoq ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri bilan bog‘liqdir. III–davr 80–yillarga to‘g‘ri keladi. Bunda mamlakatimizda iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri bo‘lib hisoblanadi. IV–davr ham o‘tgan 90-yillarning boshlari iqtisodiy tahlilning o‘zbek tilida yozilishi va

vujudga kelish davridir. V–davr mustaqillik yillarining dastlab-ki yillariga to‘g‘ri kelib, iqtiosdiy tahlilning mamlakati-mizda rivojlanish yillarini boshidan kechirgan davrdir. Bu davr Moliyaviy tahlil bo‘yicha ko‘plab asarlarning vujudga kelishi va chop etilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tahlil

> Shu davrda iqtisodiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekistonning birinchi galda o‘ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga va buxgalteriya hisobi va hisobotining xalqaro standartlarga mos bo‘lgan “Iqtisodiy tahlil” fani shakllandi.

bo‘yicha turli qarashlarning paydo bo‘lishi ham Shu davrga to‘g‘ri keladi. 6-davr XXI-asrning 10-18 yillarda Mamlakatni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlil bo’yicha xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirilishi davri bo’lmoqda.

Ma’lumki O‘zbekistonda uzoq yillar mobaynida oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tahlil fani asosan markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiev) olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o‘qitilib kelindi. Ammo bunda o‘zimizga xos xususiyatlar aks etirilmagan edi. Bu esa 60 yillarga kelib O‘zbekistonlik olimlarni ham bu fan sohasida ijod qilishga da’vot etdi.

Markazdan chiqadigan darsliklarga muallif sifatida taklif qilinadigan bo‘lindi. Jumladan, 1966 yilda Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida chop etilgan “Matlubot kooperatsiyasi korxonalar xo‘jalik faoliyatining tahlili[1] nomli darslikning mualliflari tarkibiga Lvovlik O.R.Kmitsikevich, Novosibirskilik L.A.Falkovichlar bilan birgalikda Samarqandlik olim I.N.Toporovskiy ham taklif qilingan edi. Bu darslikda Respublikamizning ba’zi xususiyatlari birinchi marta o‘z ifodasini topdi.

Shu fan bo‘yicha masalalar to‘plamini yozishni Samarqndlik olimlar o‘z zimmalariga oladilar.1970 yildagi I.T.Abdukarimov, B.A.Zalesskiy va N.Toporov-skiylar tomonidan Moskvaning “Ekanomika” nashriyotida “Matlubot kooperatsiyasi korxona va tashkilotlari xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish bo‘yicha masalalar to‘plami” o‘quv qo‘llanmasi birinchi marta chop etildi[2]. Bu O‘zbekistonlik olimlarning Ittifoq olimlari o‘rtasidagi katta ishonchga sazavor bo‘lganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi. Bu o‘quv qo‘llanma chorak asr davomida Samarqandlik olimlar tomonidan bir qancha marta qayta ishlanib chop etilib kelindi[3]. Bunda Samarqand kooperativ instituti professori I.T.Abdukarimovning katta xizmatlarini e’tirof etish lozimdir.

---

[1] Кмицикевич.О.Р. и др. Анализ хозяйственной деятельности предприятий потребительской кооперации.-М:Экаономика,1966.

[2] И.Т.Абдукаримов и др. Сборник задач по анализу хозяйственной деятельности потребительской кооперации -М: Экаономика, 1968.

[3] И.Т.Абдукаримов и др. Задачник по анализу хозяйственной деятельности предприятий и организациипотребительской кооперации. -М: Экаономика, 1975.

Sobiq Ittifoq olimlari ichida xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo‘yicha O‘zbekistonlik olimlarning movqei uzluksiz oshib bordi. Shu fanga bag‘ishlangan qator monografiyalar, o‘quv qo‘lanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi.1968 yilda I.T.Abdukarimov tomonidan “Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili” Moskvaning ”Ekonomika” nashriyotida[4], 1971 yilda “Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili” o‘quv qo‘llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyotida,[5] 1973 yilda “Kooperativ savdoda foyda va rentabellik” nomli monografiyasi “Ekonomika” nashriyotidachop etildi[6]. Muallifning bu asarlari sobiq Ittifoq olimlari tomonidan yuksak baholanadilar.

Bu asarlar o‘quv qo‘llanma sifatida butun Ittifoqning barcha oliy o‘quv yurtlarida keng foydalanildi. Professor I.T.Abdukarimov kitoblarining xususiya-ti Shunda ediki, unda xamisha nazariya bilan amaliyot uyg‘unlashgan xolda yoritilgan. Shu tufayli deyarli barcha taklif va tavsiyalari amaliyotiga izchilik bilan qo‘llanilib kelindi.

Shunday qilib 1970 yillarda Samarqandda prof. I.T.Abdukarimov rahbarligida tahlil maktabi tarkib topdi. Bu maktab Ittifoq olimllari tomonidan tan olindi. Natijada Samarqand kooperativ instituti bazasida Shu fanning ravnaqiga, uning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan bir qancha Butun Ittifoq ilmiy-amaliy konferensiyalari o‘tkazildi.

70-inchi yillarnig ikkinchi yarmiga kelib taxlil-chilar safi O‘zbekiston miqyosida tanila boshlandi va kengaydi. Bu fan bo‘yicha o‘zbek tilida darsliklar paydo bo‘la boshladi. 1973 yilda “O‘qituvchi” nashryotida N.A.Xan tomonidan tayorlangan “Qishloq xo‘jalik korxonalari xo‘jalik faoliyatining analizi” nomli oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar chop etildi[7]. 1979 yilda O.Maxmudovning “Qishloq xo‘jalik korxonalarining xo‘jalik faoliyatini analiz qilish” nomli o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanmasi ham ana Shu nashryotda o‘zbek tilida chop etildi[8]. Bu darslik va o‘quv qo‘llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo‘yilgan ilk qadamlar edi.

Ammo Respublikamizda qishloq xo‘jalik institutlarizdan tashqaribarcha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida maxsus fanlar, jumladaniqtisodiy tahlil fani ham rus tilida o‘rganilar edi. Shu tufayli qishloqxo‘jaligidan tashqari sohalardan barcha asarlar rus tilida tayyorlandi va chopetildi. 1973 yilda prof I.T.Abdukarimov va dots. M.K.Pardaevlar tomonidan“Kooperativ savdoda mehnat ko‘rsatkichlarini tahlili” nomli kitobi Moskvaning

[4] И.Т.Абдукаримов. Анализ издережек обрашения в кооперативной тарговле.-М: Экаономика,1976.
[5] И.Т.Абдукаримов. Анализ розничного товорооборота в кооперативной торговле.-М: МКИ. 1971.
[6] И.Т.Абдукаримов Прибили и рентабильности в кооперативной торговле.-М: Экаономика,1973.
[7] Хан Н.А. Қишлоқ хњжалик корхоналари хњжалик фаолиятининг анализи.-Т: Њқитувчи,1978.
[8] Махмудов О. Қишлоқ хњжалик корхоналарининг хњжалик фаолиятини анализ қилиш.-Т: Њқитувчи,1979.

“Ekonomika” nashryotida chop etildi[9].

Bu bilan Samarqandlik olimlar tematik tahlilni rivojlantirish borasida yana bir qutlug‘ qadam qo‘ydi. 80-inchi yillar O‘zbekistonlik, ayniqsa Samarqandlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo‘ldi. I.T.Abdukarimov, M.K.Pardaev va A.A.Abdievlar hamkorligida “Xo‘jalik faoliyatining tahliliga» bag‘ishlangan to‘rt tomlik albom yaratildi. Bular Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga o‘quv qo‘llanmasi sifatida tavsiya qilindi va ular 1983 yilda Samarqand kooperativ institutida chop etildi. Bu albomning birinchi qismi “Iqtisodiy tahlilning nazoriy asolariga” bag‘ishlangan bo‘lib barcha mavzullar tegishli tizmalarda tushunarli qilib tasvirlangan[10]. Ushbu albomning ikkinchi tomi “Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil” nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalari xo‘jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan[11]. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko‘p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3 tomi “Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo‘jalik faoliyatining taxlili mavzusiga bag‘ishlangan[12]. Albomning 4-inchi tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan xisobot qabul qilingandan keyingi o‘tkaziladigan tahlil usullarini o‘z ichiga olgan. Bu “Moliyaviy xolatining tahlili” deb nomlangan va bunda barcha soha bo‘yicha moliyaviy holatining qanday ahvolda ekanligi to‘g‘risida xulosa qilishga bag‘ishlangan[13]. Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan.

Shunday qilib, Samarqand kooperativ instituti sobiq Sentrosoyuzga qaraydigan oliy o‘quv yurtlari ichida xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo‘yicha uslubiy markazga aylandi. Matlubot kooperatsiyasi tizimi uchun darslik va nomunaviy dasturlar Shu fan bo‘yicha prof. I.T.Abdukarimov boshchiligidagi olimlar maktabiga topshirildi.

1984 yilda I.T.Abdukarimov tomonidan “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” nomli darslik Moskvaning “Ekonomika” nashriyotida chop etildi[14]. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlarga va “Buxgalteriya uchyoti, nazorat va xo‘jalik faoliyatining tahlili” bo‘yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliyo‘quv yurtlariga tavsiya qilindi.Bu darslikni keng jamoatchilik va olimlar olami juda yaxshi kutib oldilar. Natijada 1989 yilda ushbu darslik aynan ana Shu nashriyotda

[9] И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев. Анализ показателей по труду в кооперативной тарговле.-М: Экономика

[10] И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев. Теоретические основы экономического анализа. / Альбомнаглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[11] И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Экономический анализ в кооперативной тарговле./ Альбомнаглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[12] И.Т.Абдукаримов, М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Анализ хозяйственной деятельности отдельных отраслей потребительской коперации. / Альбом наглядних пособий. Самарканд СамКИ, 1983.

[13] И.Т.Абдукаримов , М.К.Пардаев, А.А.Абдиев Анализ финансового состояние: /Альбом нагдядных пособий. Самарканд, СамКИ, 1983.

[14] И.Т.Абдукаримов. Анализ хозяйственной деятельности потребительной кооперации.-М: Эканомика, 1984. И.Т.Абдукаримов Анализ хозяйственной деятельности потребительной кооперации. 2-е издание-М: Эканомика,1989.

qayta ishlangan va to‘ldirilgan variantida qayta nashr qilindi[15].

Samarqandlik olimlar tahlilning yangi shakli kompelks tahlil usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada Ittifoq jurnallarida Shu bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar chop etildi va nihoyat 1983 yilda prof. I.T.Abdukarimov taxririda M.Q.Pardaev va YU.S.Sattarov-lar tomonidan tayyorlangan ”Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash” bo‘yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. Bu tavsiyani O‘zbek birlashuv boshqaruvi tomonidan amaliyotga tadbiq qilish uchun qabul qilindi. Kompleks tahlil bo‘yicha Samarqandlik olimlarning maqolalari Ittifoqda chiqadigan “Buxgalteriya uchyoti”[16], “Sovet matlubot kooperatsiyasi”[17] kabi jurnallarda chop etilishi ularning nufuzini yanada oshiradi. Natijada 1986 yilda o‘tkazilgan Butun ittifoq ilmiy-amaliy anjumanning asosiy mavzusi ana shu muammoga qaratildi. Ushbu anjumanning ilmiy-amaliy tavsiyasi sifatida 1986 yilda chop etilgan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, V.I.Abdukarimov, V.N.Abramovalarning “Matlubot kooperatsiyasida sotsial-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usuli” risolasi qabul qilindi[18]. Bunda mualliflar samaradorlikni komp-leks tahlil qilish va baholash usullarini ko‘tarib chiqdi.

Xo‘jalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom etadi. Endi bir tarmoqda emas, balki ko‘p tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va nixoyat 1990 yilda V.I.Abdukarimov tomonidan “Axborotlarni avtomatlashtirgan tizimi sharoitida ko‘ptarmoqli matlubot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baxolash masalalari” nomli monografiya Toshkentdagi “Mehnat” nashryotida bosmadan chiqdi[19]. Bu samarqandlik olimlarning kompleks taxlilini rivojlantirishdagi yana bir qutlug‘ qadam bo‘ldi.

90-inchi yillraga kelib axborotlarni avtomatlash-tirish masalalariga keng to‘xtaldi. Shu yillari xisob, taxlil, statistika va rejalar axbarotlarini avtomatlash-tirish bo‘yicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullaev, V.I.Abbdukarimov, N.A.Ibroximov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar tomonidan va turli nashryotlardan chop ettirdi[20]. Bu kishilarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilini avtomat-lashtirish uchun metodologik asos bo‘lib

---

[15] М.Қ.Пардаев, Ю.С.Саттаров. Методические рекоминдации по комплексной оценке эффиктивности труда в разничной торговле-Т: Узбекпотребсоюз, 1983.

[16] М.К.Пардаев.Эффективность труда в торговле и методика ее определения // Бухгалтерский учет, 9. 1978 с 37-43. Пардаев М.Қ Сровнительная аценка эффективности торговли // Бухгалтерский учет, 10. 1982 с.39-42 ва бошқалар.

[17] И.Т.Абдукаримов. Торговля: аценка эффективности. // Советская потребительская кооперация, 1976, 5 с.35-36.

[18] И.Т.Абдукаримов. и др. Методика определения социально-экономической эффективность в потребительской кооперации- Самарканд: СКИ, 1986.

[19] Абдукаримов В.И. Вопроси оценки эффективности многоотраслевой хозяйственной деятельности потребительской кооперации в условиях АСАД:-Т: Мехнат, 1990.

[20] Р.А.Абдуллаев ва бошқалар. Иқтисодий ахборотларни ЭХМ да ишлашини автоматлаштириш-Т: Њқитувчи,1990. Абдуллаев Р.А. ва бошқалар.

xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi Samarqandlik olimlarni o‘zbek tilida darslik yozishga da’vat etdi. Bunga raxbarlikni yana prof. I.T.Abdukarimov o‘z qo‘liga oldi va nihoyat 1989 yilda I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, A.A.Abidev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” mavzusida savdo vv matlubot kooperatsiyasi soxasi bo‘yicha birinchi marta o‘zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi “O‘qituvchi” nashriyotida chop etildi[21]. Bu darslikdagi ko‘p iqtisodiy atamalar o‘zbek tilida yozildi. Ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o‘qib yurgan talabalar uchun va o‘z ishini rus tilida yuritadigan mutaxasislar uchun o‘zbek tilidagi atamalarni tuShunish ancha qiyin kechdi. Shu tufayli bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida Samarqandlik olimlar “Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o‘zbekcha lug‘atini” ishlab chiqdi va 1990 yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992 yilda Toshkentning “O‘qituvchi” nashryotida chop etishga muvoffiq bo‘ldilar[22].

Olimlar namunaviy dasturlar ishlab chiqish borasida xam sezilarli ishlarni amalga oshirdilar. 1987 yilda I.T.Abdukarimov va M.Q.Pardaevlar xamkorligida “Savdo iqtisodi” mutaxasisliklari uchun “Xo‘jalik faoliyatining tahlili” bo‘yicha namunaviy dasturni Sentrosoyuzning o‘quv-uslubiy birlashmasi orqali chop etdilar[23].

1990 yilda esa “Buxgalteriya ucheti, nazorat va xo‘jalik faoliyati tahlili” mutaxasisligi bo‘yicha “Matlubot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish” fanining namunaviy dasturiniishlab chiqdi va Moskva Moliya Akademiyasi qoshida tuzilgan sobiq sovet ittifoqi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari vazirligining o‘quv-uslubiy birlashmasi tomonidan tasdiqlangan va nashrga tavsiya qilingan edi[24]. Bu namunaviy dastur xam I.T.Abdukarimov va M.Q.Pardaevlar tomonidan tayorlanadi va nashrdan chiqarildi. Ushbu dastur, O‘zbekiston Respublikasi sharoitiga moslashtirilib 1992 yilda o‘zbek tilida chop etildi. Xozirgi kunda xam ba’zi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan Shu namunaviy dasturlar o‘quv jaraenida qo‘lanilib kelinmoqda.

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi bo‘yicha ishlar qilinmoqda. Jumladan, prf. D.K.Kudbiev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, prof.X.A.Shodiev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash va tahlilqilish

[21] Абдукаримов И.Т. ва бошқалар.Матлубот кооперацияси хњжалик фаолиятини анализ қилиш.-Т: Њқитувчи,1989.

[22] Абдукаримов И. Т ва бошқалар. Савдога оид иқтисодий автоматларнинг русча-њзбекча луђати. Доц.М.Қ.Пардаев тахририда-Т: Њқитувчи, 1992.

[23] Абдукаримов И. Т, М.Қ.Пардаев. Анализ хозяйственной деятельность. Программа для кооперативных институтов по специальность 1729. Эканомика торговли.-М: ПУМК, 1987.

[24] И.Т.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев. Анализ хозяйственной деятельности потребительской кооперации. Программа для студентов вузов по спецальности 06. 08. “Бухгалтерский учет, контроль и анализ хозяйственной деятельности”. -М: УМО Минвуз СССР. 1990.

muammolari bo‘yicha ancha ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablag‘lar tahlili bo‘yicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.SH.Sattorov, matlubot kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablag‘lar taxlili bo‘yicha U.X.Xudoyberdievlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlilning nazariyasi va usullarini takomillashtirishda statistik olimlardan YO.Abdullaev[25] ham ancha xissa qo‘shdilar.

1981 yilda D.K.Kudbiev “Savdoda asosiy fanlardan samarali foydalanish tahlili” kitobini, 1990 yilda “Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari”, 1989 yilda “Kooperativ chakana savdoda asosiy fondalr samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish” kabi monografiya va o‘quv qo‘llanmalari chop etishga muvoffaq bo‘ldi[26].

So‘ngi paytlarda xalq xo‘jaligi taraqiyotida samaradorlik va intensivlik ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etdi. Buni inobatga olib 1990 yilda M.Q.Pardaev va Z.N.Qurbonovlar hamkorligida “O‘qituvchi” nashryotidan “Kooperativ savdoda samaradorlik va tahlili” mavzusida mognografiyasi[27], intevsivlik ko‘rsatkichlarining shu yil M.Q.Pardaev va Sh.U.Xaydarov hamkorligida “Kooperativ savdo korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini tahlil qilish” mavzusidagi o‘quv qo‘llanmalar chop etildi[28]. Bu sohaning rivojlanishiga X.A.Shodiev ham o‘zining salmoqli xissasini qo‘shdi[29]. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach o‘ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qiladi. Bozor iqtisodiyotiga bag‘ishlangan kitoblar ham paydo bo‘la boshladi. 1991 yilda I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev va Sh.U.Haydarovlar hamkorligida “Yangi xo‘jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar taxlili” risolasini chop etdi[30]. 1993 yilda Z.N.Qurbonov-niing “Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchyoti va iqtisodiy tahlil” monografiyasi “O‘qituvchi” nashryotida chop etildi[31]. Shu yili

---

[25] Ё.Абдуллаев. Региональной аспект статистического изучения эффективности обшественного производства.-Т: Фан. 1985. Ё.Абдуллаев. Сарвнителеьний анализ эффективности региональной экаономики.-Т: Мехнат, 1987.

[26] Кудбиев.Д.К. Проблеми анализа использования основних фондов в торговле,-Т: Ньзбекистон, 1990,Кудбиев.Д.К. Методические рекоминдации по комплекскому анализу и оценки эффективности использования основних фондов в кооперативной торговле.-М:1989.

[27] Пардаев.М.Қ. Қурбонов.З.Н. Анализ показателей эффективности и интефсификации в кооперативной торговле.-Т: Ньқитувчи, 1990

[28] Пардаев.М.Қ. Хайдаров Ш.К. Кооператив савдо корхона ва ташкилотларининг молиявий ахволини тахлил қилиш.-Т: РУМҚ, 1990

[29] Шодиев.Х.А. Қишлоқ хњжалик маҳсулотлари тайёрлашни такомиллаштириш: (интенсивлаш ва самарадорлик масалалари).-Т: Меҳнат,1989. Шодиев Х.А. Интенсивлаш ва самарадорликнинг њзаро алоқадорлиги.-Т: Њзбекистон, 1991

[30] Абдукаримов И.Т., Пардаев М.Қ. Хайдаров Ш.У. Анализ доходов в кооперативной торговле в условиях нового хозяйственного механизма.-М: МКИ, 1991

[31] Қурбонов З.Н. Бухгалтериский учет и экономический анализ в тарговле в условиях риночной экаономики.- Т: Ньқитувчи, 1993.

“Zarafshon” nashryotida muallifning “Savdoda intensivlik: moxiyati, ko‘rsatkich-lari va ularning oshirish yo‘llari” mavzusidagi kitoblari chop etildi[32]. Olimlar 1994-1999 yillarda taxlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolariga bag‘ishlangan bir qancha to‘plam va risolalar chop etishga muvoffiq bo‘ldilar[33]. Ushbu kitoblar, maqolalar to‘plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakillanayotgan sharoitida taxlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi muqarrar.

Mamlakatimizda 80-90-yillarning boshlariga kelib tahlil fanining rivojlanish sohasiga yangi-yangi iqtisodchi olimlar kirib kela boshladilar. Bunday iqtisodchi olimlardan R.Radjapov, A.S.Sotivoldiev, Yo.Abdullaev, O.Maxmudov, X.Shodiev, N.Xan, A.Shoalimov, B.Hasanov A.T.Ibragimov, A.Usanov, A.K.Ibragimov, B.A.Hasanov, A.Rizaqulov, O.Bobojonov, M.To‘laxo‘jaeva, N.Jo‘raev, O.Jumanov, M.Rahimov, A.Abduganiev, I.O.Voljin, V.V.Ergashboev kabilar «Iqtisodiy tahlil»ning turli qirralariga bag‘ishlangan asarlar yarata boshladilar.

1995-1999 yillarda O‘zbekistonda “Iqtisodiy tahlil” fanining asosiy sohasi bo‘lgan moliyaviy tahlilga bag‘ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga M.Q. Pardaevning “Moliyaviy tahlil metodologiyasi” (Samarkand 1997), A. Ibrohimovning “Moliyaviy tahlil” (T.: Mehnat, 1995) I.T.Abdukarimovning “Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari” (T.: “Iqtisodiyot va hukuk dunyosi” nashr uyi,1998,ikkinchi nashri 1999 yilda),I.O.Volji va V.V.Ergashboevlarning “Moliyaviy taxlil “ (T.: Iktisodiyot va xukuk dunyosi” nashr uyi, 1998),), M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning “Moliyaviy tahlil” (T.: “Iqtisodiyot va xukuk dunyosi” nashr uyi, 1999) kabi kitoblarni kiritish mumkin.

1.4. Iqtisodiy tahlil va uning nazariyasi bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida tahlilga oid adabiyotlar ham boshqa fanlar singari Davlat tilida o‘zimizning xususiyatlarimizni inobatga olgan holda nashr qilina boshlandi. Mazkur fanga oid adabiyotlar mustaqillik

[32] Пардаев М.Қ. Интенсификация в торговле: сушность, показатели и пути их повишения- Самарканд: Зарафшон, 1993.

[33] Бозор муносабатлари шаклланиши шароитида матлубот кооперацияси ривожланишининг социал-иқтисодий муаммолари- С., 1993: Актуальние проблеми учета, аудита и совершенстования финансово-кредитной сестеми в условиях развитя риночних отношений/ Материали международной НПК-С., 1994. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиетига ьтиш муаммолари ва матлубот кооперацияси-С., 1994: Повишения эффективности производства в услових рынка- Самарқанд, 1995: Пардаев М.Қ. Хьжалик фаолияти тахлилида қьлланиладиган усуллар,-Самарқанд: СамКИ, 1998. М.Қ.Пардаев. Иқтисодий тахлилнинг комплекс бахолаш усуллари - Самарқанд, СамКИ, 1998: У.Х.Худойбердиев, М.Қ.Пардаев, З.Н. Қурбонов Солиқлар учети ва тахлили-Самарқанд, СамКИ, 1995 ва х.к. Пардаев М.К. Молиявий таҳлил методологияси . Самарқанд, СамКИ, 1997; Абдукаримов И.Т. Молиявий ҳисоботни ьқиш ва таҳлил қлиш йўллари. Т: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1998 ; Пардаев М.К., Исроилов Б.И. Молиявий таҳлил. Т. Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 1999 ва ҳ.к.

yillarida asosan Samarqand va Toshkent oliy o‘quv yurtlari olimlari tomonidan yaratildi. Toshkentda ushbu fan bo‘yicha Toshkeng Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya instituti olimlari jonbozlik ko‘rsatmoqdalar. Samarkandda esa Samarqand iqtisodiyot maktabi olimlari salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Samarqand iqtisodiyot maktabi olimlari tomonidan yaratilayotgan tahlilga oid asarlar tahlilning turli qirralarini qamrab oladilar. Mamlakatimizda iqtisodiy tahlilning nazariyasi bo‘yicha birinchi darslik Samarqandda yaratildi. Bu o‘zbek tilida M.Q.Pardaev tomonidan yozilgan **“Iqtisodiy tahlil nazariyasi”** bo‘yicha darslik bo‘lib 2001 yilda nashrdan chiqdi (Samarkand, “Zarafshon” nashriyoti, 2001.- 272 bet.). Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oiy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash hay’atining 2000 yil 21 apreldagi 13-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan di.

So‘ngra iqtisodiy tahlil nazariyasi bo‘yicha bir qancha o‘quv qo‘llanmalar nashrdan chiqarildi. Bular jumlasiga Toshkent moliya instituti olimlari A.Vaxabov, A.Ibrohimov va B.Hakimovlar tomonidan nashr qilingan “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha o‘quv qo‘llanmani (T.: TMI, 2003. – 176 bet.) misol keltirish mumkin. Bir yildan keyin Toshkent iqtisodiyot universiteti olimlari A.X. Shoalimov va SH.A.Tojiboevalar tamonidan ishlab chiqilgan “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha ma’ruza matni nashrdan chiqdi (T.: TDIU, 2004.- 91 bet.). Ushbu kitob 2006 yilda yana o‘quv qo‘llanma sifatida qayta nashrdan chiqarildi. “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” bo‘yicha ma’ruza matninini 2004 yilda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti olimlaridan T.Q.Qudratov (Samarkand, SamQXI. 2004. – 107 bet.) ham nashrdan chiqardi.

Iqtisodiyo tahlil nazariyasiga oid masalalar ayrim darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ham qarab chiqiladigan bo‘ldi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin. A.Vaxabov, A.Ibrohimov, N.Ishankulovlarning “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” nomli darsligini (T.: Sharq, 2005.- 480 bet.), E.Ergeshevning “Iqtisodiy va moliyaviy tahlil” nomli darsligini (T.: “Konsauditinform-Nashr” nashriyoti, 2005.-346 bet.), M.Q.Pardaev rahbarligida B.A.Hasanov, J.I.Isroilov, M.E.Pulatov, O‘.T.Esanboev, A.N.Xolikulov-lar tomonidan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmani (T.: Cho‘lpon nashriyoti, 2012.- 400 bet.), M.Q.Pardaev, B.I.Isroilovlar tomonidan tayyorlangan “Moliyaviy tahlil” nomli albomni (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 1999.- 356 b.), M.K.Pardaev, B.I.Isroilovlar tomonidan tayyorlangan “Iqtisodiy tahlil” nomli o‘quv qo‘llanmani (1-kism. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2001.- 176 bet., 2-kism. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2001.- 256

bet.), M.K. Pardaev, I.T.Abdukarimov, B.I. Isroilovlar hammuallifligida tayyorlangan “Iqtisoiy tahlil” nomli o‘quv qo‘llanma (T.: Mehnat, 2004.- 556 b.) kabilarni kiritish mumkin.

Xullas, mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlilning o‘zimizga xos nazariyasi shakllantirildi. Uning predmeti, metodi, usullari, vazifalari, tarixi, qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi, xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar, omillarni hisoblash yo‘llari, iqtisodiy tahlilning turlari, shakllari kabi nazariy masalalarga aniqlik kiritildi. Bu borada fikrlarning xilma-xilligi, ayrim masalalar bo‘yicha olimlarimizning turli qarashlari, ular o‘rtasidagi munozaralarning mavjudligi ham ayon bo‘ldi.

Mamlakatimizda **iqtisodiy tahlil**ning bevosita umumetodologik muammolariga bag‘ishlangan asarlar ham mustaqillik yillarida yaratildi. Shuni e’tirof etish kerakki, mamlakatimiz olimlari iqtisodiy tahlilni uch qismga bo‘lib o‘rganish lozimligi xususida bir to‘xtamga kelishdi. Hamma adabiyotlarda iqtisodiy tahlil nazariyasi, moliyaviy va boshqaruv tahlili alohida-alohida qarab chiqilmoqda.

Aslida iqtisodiy tahlil yaxlit fan. Shu boisdan mazkur fanni yaxlit holda ham qarab chiqilishi lozimligi xususida ayrim fikrlar mavjud. Bular jumlasiga yuqorida nomlari keltirilgan M.K.Pardaev, B.I. Isroilovlarning 2 qismdan iborat “Iktisodiy taxlil” (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2001.- 1-qism - 176 bet., 2-qism – 256 bet), o‘quv qo‘llanmasini, M.K.Pardaev, I.T.Abdukarimov va B.I. Isroilovlarning “Iqtisoiy tahlil” nomli lotin alifbosidagi o‘quv qo’llanmasini (T.: Mehnat, 2004.- 556 bet.), Yo. Abdullaev, A.Ibroximov va M.Raximovlarning “Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob” (T.: Mehnat, 2001.- 320 bet.), M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilovlarning “Iqtisodiy tahlil” (T.: “O‘zR Soliq akademiyasi” nashriyot bo‘limi, 2017.- 534 bet.) o‘quv qo‘llanmasi kabi asarlarni kiritish mumkin.

Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida iqtisodiy tahlil bo‘yicha yetakchi olimlar (E.A.Akramov, I.T.Abdukarimov, Yo.A.Abdullaev, D.Q.Qudbiev, A.X.SHoalimov, E.Ergeshev, B.A.Hasanov, A.Ibrohimov, T.Q.Qudratov, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov kabilar) safiga yosh olimlar (M.E.Pulatov, O‘.T.Esanboev, A.N.Xolikulov, B.Hakimov, Sh.A.Tojiboeva kabilar) ham kirib kelmoqda. Bular uchun iqtisodiy tahlil bo‘yicha katta tadqiqot bazasi, ilmiy manba yaratildi, desak xato bo‘lmaydi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti olimlari tomonidan M.Q.Pardaev rahbarligida iqtisodiy tahlilning 6 jildlik asari yaratildi. Birinchisi, “Iqtisodiy tahlil nazariyasi”ga bag‘ishlangan. Ikkinchi jildida esa “Moliyaviy tahlil” masalalari qarab chiqilgan. Tanlangan asarlarning uchinchi jildi “Boshqaruv tahlili”ga bag‘ishlangan. To‘rtinchi jild bevosita “Loyiha tahlili” muammolarini o‘z ichiga olgan. Beshinchi jildda “Funksional qiymat tahlili” masalalari yoritilgan. Asarlarning oltinchi tomi

“Xususiy korxonalar iqtisodiy tahlili”ga bag‘ishlangan. Hozirgi kunda ushbu asarlar takomillashtirilib 10 jildlik asarlar ustida ish olib borilmoqda.

Bularning tarkibidan ham ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 80 dan ortiq oliy dargohlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy tahlil bo‘yicha maktab uchta oliygohda mavjudligini ko‘rish mumkin. Bular Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya institutidir. Deyarli barcha tahlilga oid asarlar ushbu oliy o‘quv yurtlari olimlari tomonidan nashr qilinmoqda.

1.5. Moliyaviy tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi

Mamlakatimiz olimlari iqtisodiy tahlilni uch qismga bo‘lib o‘rganmoqdalar. Birinchisi iqtisodiy tahlil nazariyasi bo‘lsa, ikkinchisi moliyaviy tahlil va uchinchisi, boshqaruv tahlilidir.

Iqtisodiy tahlil fanning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan **«Moliyaviy tahlil”** fanining ham tarkibiy tuzilishi shakllandi. Bu bo‘yicha ham mamlakatimizda birinchilar qatorida Toshkent moliya instituti va Samarqand kooperativ instituti olimlari tomonidan nashr qiliganligini qayd etish lozim. Bular jumlasiga 1995 yilda nashr qilingan A.T.Ibrohimovning “Moliyaviy tahlil” risolasini (T.: Mehnat, 1995.- 60 bet.), M.K. Pardaevning, ya’ni mazkur ish muallifining “Moliyaviy taxlil metoologiyasi” nomli uslubiy qo‘llanmasi (Samarkand, SamKI, 1996.- 155 bet.) kabilarni kiritish mumkin. M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlar o‘zlarining qo‘llanmasini takomillashtirib 1999 yilda hammualliflikda moliyaviy tahlil fani bo‘yicha birinchi bo‘lib uning albomini yaratdi va “Iqtisodiyot va huquq dnyosi” nashriyot uyidan bosmdan chiqarildi (“Moliyaviy tahlil”. Albom. T.: “Iqtisodiyot va huquq duyosi” nashriyot uyi, 1999.- 368 bet.). O‘zbek va rus tillarida I.O.Voljin va V.V. Ergashboevlarning «Moliyaviy tahlil” nomli kitobining nashr qilinishi (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1998.- 254 bet.) ham mazkur faning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. So‘ngra ushbu fan bo‘yicha bir qancha adabiyotlar nashr qilina boshlandi. Bular jumlasiga X.I.Axmadjonov, M.YU. Raximovlarning «Moliyaviy tahlil” nomli o‘quv qo‘llanmasini (T.: TMI, 2004.- 160 bet.), E.A.Akramovning “Analiz finansovogo sostoyaniya predpri-yatiya” (T.: 2000.-169 bet.), keyinroq takomillashtirilgan holda o‘zbek tilidagi “Korxonalarning moliyaviy holati tahlili” (T.: Moliya, 2003.- 224 bet.) kitobini, A.V.Vaxabov va A.T.Ibrohimovlarning “Moliyaviy tahlil” nomli darsligi (T.: Sharq, 2002.- 224 bet.), X.I.Axmadjonov, N.Ibrohimov, U.Nurmanov “Pul mablag‘larining hisobi va tahlili” (T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2009.) kabilarni kiritish mumkin. Shu tariqa moliyaviy tahlil fani ham mustaqillik yillarida o‘zining shakllanish va rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi.

1.6. Boshqaruv tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi

Iqtisodiy tahlilning tarkibiy tuzilishi bo‘lgan fanlardan biri **«Boshqaruv tahlil”** fanidir. Bu yo‘nalish bo‘yicha ham bir qancha asarlar nashr qilindi. Bular jumlasiga M.Q Pardaev rahbarligidagi bir guruh olimlar (A.X.SHoalimov, I.R.Pardaev, J.I.Isroilov) tamonidan yozilgan “Boshqaruv tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasini (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.- 328 bet.), Shu nom bilan Shu mualliflar tamonidan tayyorlangan ma’ruzalar kursini (Samarkand. SamDU. 2004.- 256 bet. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan 2005 yilda nashr qilingan ikki qismdan iborat ma’ruzalar kursi, 1-qism – 157 bet va 2-qism – 137 bet), Toshkent moliya instituti olimlari A.T.Ibragimov va M.YU.Rahimovlarning “Boshqaruv tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasini (T.: TMI, 2004.- 104 bet.), Toshkent iqtisodiyot universiteti olimlari A.X.SHoalimov, SH.A. Tojiboevalar tamonidan tayyorlangan «Boshqaruv tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmani (T.: TDIU, 2003.- 140 bet.), A.X.SHoalimov, SH.A. Tojiboevalarning “Boshqaruv tahlili” nomli ma’ruzalar matni (T.: TDIU, 2004.- 140 bet.) kabilarni kiritish mumkin. “Boshqaruv tahlili” bo‘yicha ma’ruza matninini 2006 yilda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti olimlaridan T.Q.Qudratov ham nashrdan chiqardi (SamQXI, 2005.-185 bet.- 12 b.t.).

Shuni alohida qayd etish lozimki, boshqaruv tahlili xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar axborotlaridan ichki foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangandir. Shu tufayli ushbu tahlil har bir korxona va sohaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish lozimligini taqozo qiladi. Ammo ushbu masala hamonboshqaruv tahlilida o‘z yechimini topa olgan emas.

Oxirgi paytlarda boshqaruv tahlilining o‘rniga ayrim tarmoq ahamiyatiga molik asarlar ham poydo bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy tahlilning umummetodologik masalalari yuqoridagi ikkita qismda (“Iqtisodiy tahlil nazariyasi” va “Moliyaviy tahlil”) yoritilishi va boshqaruv tahlili qismida esa shu tarmoq yoki sohaning o‘ziga xos xususiyatlari qarab chiqilishi lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, boshqaruv tahlilida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ish bajarish jarayonlari hamda ular bilan bog‘liq masalalar qaralishi darkor. O‘z navbatida, moliyaviy tahlilda tegishli axborotlarga (moliyaviy hisobotlarga) asoslangan holda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati bilan bog‘liq masalalarni qarab chiqishi lozim. Biroq, hozirgi boshqararuv va moliyaviy tahlil fanlarida ko‘rilayotgan masalalar ushbu talabga to‘liq javob beraolgan emas. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, hali iqtisodiy tahlilni, uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish borasida olimlarimiz va mutaxassislarimiz oldida hal qilinishi lozim bo‘lgan

ancha muammolar mavjud.

1.7. Moliyaviy va boshqaruv tahlilii hamda uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi

Hozirgi paytda iqtisodiy tahlilning metodik qismi birlashtirilib **“Moliyaviy va boshqaruv tahlili”** nomi bilan bir kurs sifatida o‘qitilmoqda. Bu borada ham bir qancha asarlar yaratildi. Bular jumlasiga Toshkent moliya instituti olimlari A.V.Vahabov, A.Ibrohimov va N.Eshonqulovlar tomonidan yaratilgan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” nomli darsligini (T.: “Sharq”, 2005.- 480 bet.), Z.A.Sagdullaeva, Sh.A.Rashidova, N.F. Ishankulovlar tamonidan nashr qilingan «Управленческий и финансовый анализ” nomli masalalar to‘plamini (Sbornik zadach. T.: TFI, 2004.- 73 bet.), Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiy tahlil maktabi tomonidan yaratilgan E.Ergeshevning “Iqtisodiy va moliyaviy tahlil” nomli darsligini (T.: “Konsauditinform-Nashr” nashriyoti, 2005.-346 bet.), M.Q.Pardaev B.A.Hasanov, J.I.Isroilov, M.E.Pulatov, O‘.T.Esanboev, A.N.Xolikulovlar tomonidan “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi (T.: Cho‘lpon nashriyoti, 2012.- 400 bet.), kabilarni kiritish mumkin.

Moliyaviy va boshqaruv tahlili bo‘yicha Samarqand maktabi olimlarining qarashlari bir muncha takomillashtirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy salohiyat, moliyaviy salohiyat tahlili, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining moliyaviy va iqtisodiy mustahkamligini baholash va tahlil qilish yo‘llarini, korxonalarning bankrotligi va raqobatbardosh-ligini baholash va tahlil qilish yo‘llari kabi masalalarni o‘qitish lozimligi asoslangan va o‘quv adabiyotlarida tavsiya qilingan.

1.8. Loyiha tahlil va uning metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilinganishlarning qisqacha tavsifi

Bozor munosabatlari sharoitida tahlilning korxonalar faoliyatinni rejalashtirishda, investitsiyalar samaradorligini oshirishdagi roli oshib bordi. Bularni inobatga olib o‘quv rejasiga **loyiha tahlili** fani kiritildi. Bu bo‘yicha ham Samarqand maktabi olimlari etakchilik qildilar. Jumladan M.K.Pardaev tomonidan qator ishlar nashr qilindi “Investitsiya loyihasining moliyaviy tahlili” nomli ma’ruza matni (Samarqand, SamKI, 2000. – 32 bet.), “Loyiha tahlilining mazmuni, predmeti, metodi va usullari”, (Ma’ruza matni. Samarqand, SamKI, 1999. – 18 bet.), “Pul oqimlarini diskontlashtirish va annuitetlar” (Ma’ruza matni. Samarqand, SamKI, 2000 - 22 bet.), “Loyiha xatarliligining tahlili” (Ma’ruza matni. Samarqand, SamKI, 2000. – 26 bet), Pardaev M.K. Shodieva G.M. bilan hammualiflikda “Loyiha tahlilida oila mulki” (Ma’ruza matni. Samarqand, SamKI, 1999. - 40 bet.), yana Shu muaalflarning “Loyiha tahlilida oila daromadlarini inflyasiya sharoitida

baholash va tahlil qilish usullari” (Ma’ruza matni. Samarqand, SamKI, 1999. - 21 bet.), Pardaev M.K. Abdiev A.A. bilan hammualliflikda “Loyiha tahlilidan seminarlar va masalalar to‘plami” (Samarqand, SamKI, 2000 - 19 bet.) kabilarni ta’kidlash mumkin. Bularni jamlab 2001 yilda M.Q. Pardaevning «Loyiha tahlili” kursi bo‘yicha ma’ruza matni (Samarkand, SamKI, 2001.- 171 bet.) chop qilindi.

Mazkur ma’ruzalar matni 2012 yilda “Yilning eng yaxshi ma’ruza matni” tanlovida umum mutaxassisik fanlar ichida 3-o‘ringa sazovar bo‘ldi va o‘quv qo‘llanma sifatida tan olindi. Buning natijasi “Ma’rifat” gazetasida 2002 yil 5 oktyabr sonida e’lon qilindi.

1.9. Funksional qiymat tahlili iqtisodiy tahlilning shakli ekanligi va uningo‘ziga xos xususiyatlari

Funksional qiymat tahlili (FQT)ning vazifalari va ahamiyati bozor munosabatlarining chuqurlashishi bilan yanada oshib boradi. Chunki FQT korxonalar va ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar)ning raqobatbardoshligini ta’minlash, sifatini oshirish va narxini arzonlashtirishning asosiy omillaridan biridir. FQTni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – korxonalarning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko‘rsatkichiga erishishdan iboratdir. Bunday natijaga erishishning o‘ziga xos xususiyati va afzalligi Shundaki, barcha muvoffaqiyatlarga iqtisodiy hodisa, jarayon va faoliyat sodir bo‘lmasdan oldin o‘rganilganligida nomoyon bo‘ladi. Bu holat tizimli (sistemali) ravishda tahlil qilish orqali o‘rganilganligi uchun mahsulotning yuqori sifati, ishning yuksak samaradorligi ta’minlanadi. Shu tufayli FQTdan iqtisodiy tahlilning eng samarali va ilg‘or shakllaridan biri sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahlilning mazkur shakli asosan mikro- iqtisodiyot darajasida qo‘llaniladi. Bunda ham aniq bo‘g‘inlarni, mahsulotni, jarayonni, faoliyatni obyekt qilib oladi. Masalan, biror mahsulotni ishlab chiqarish, yoki tovar harakatini boshqarish, yoki biror mutaxassis faoliyatini takomillashtirish, yoki biror xizmat sifatini oshirish kabilar FQTning ob’ekti bo‘lishi mumkin. Demak, FQTning qo‘llanilish doirasida qisqa va aniq maqsadlar ko‘zda tutiladi.

Ko‘rinib turibdiki, FQT hozirgi iqtisodiy vaziyatda o‘ta samarali tahlil shakllaridan biri sifatida baholanmoqda. Chunki uning har bir funksiyani vaqt va baho nuqtai nazaridan baholashda ahamiyati katta. Biroq, mazkur tahlil haqida bir qancha adabiyotlarning yaratilishiga qaramasdan, uning ta’rifi etarlicha hal qilinmagan. Bularni inobatga olib FQTning ta’rifini berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Shunday qilib, **FQT deganda, ishning, faoliyatning, mehnatning Shu**

jumladan xizmatning samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida, ularni tizimli ravishda, jarayonlar sodir bo‘lmasdan oldin, mantiqiy (evristik) yo‘l bilan, tahlil qilish orqali mahsulotni (ish, xizmatni) ishlab chiqarishda, unga sarflanadigan xarajatlarni va bajariladigan funksiyalarni kamaytirish evaziga uning foydaliligi va rentabelligini ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish jarayoni tushiniladi.

FQTda funksiyalarning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1.3-rasm).



1.3-rasm. FQTda o‘rganiladigan funksiyalarning o‘zaro bog‘liqligi

FQT bir vaqtning o‘zida tovar (ish, xizmat) ishlab chiqaruvchilar bilan birga iste’molchilar manfaatini ham ko‘zlab ish tutish imkonini beradi. Ishlab chiqaruvchilarning manfaati ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish evaziga ishning samaradorligini oshirishda nomayon bo‘lsa, iste’molchilarning manfaati esa tovarning sifatida, narxining arzonligida, undan uzoq muddat foydalanishda, uning mustahkamligida nomoyon bo’ladi. Bu bilan davlatning ham manfaati mushtaraklashadi, chunki tovar arzon va sifatli bo‘lsa, bu jahon bozorida ham o‘z xaridorlarini topadi. Shu orqali davlat o‘z nufuziga ega bo‘lish bilan birga, uning iqtisodiy qudrati hammustahkamlanadi. FQTni qo‘llash orqali hamma manfaatlar mushtarakligini va muvofiqligini ta’minlaydigan ko‘rsatkichlarga, tovarning (ish, xizmat) sifati, arzonligi, mustahkamligiga erishiladi.

FQT iqtisodiy tahlil tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lish bilan birga o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Uning o‘ziga xos xususiyatlari bevosita tabiatidan kelib chiqadi. Chunki mazkur tahlil o‘zining noan’anaviyligi, ilmiy tadqiqot-larga asoslanishi, uni amalga oshirishdi bir kishi emas, balki jamoa mehnati va tafakkur mahsulidan foydalanishi bilan farq qiladi. FQTning ushbu jihatlari uning o‘ziga xosligini belgilaydi. Bular quyidagilarda

namoyon bo‘ladi:

1. FQTda o‘rganilayotgan ob’ekt hali ishga tushmagan, faoliyat ko‘rsatmayotgan, loyihalashtirish, rejalashtirish bosqichida bo‘lishi mumkin. Shu tufayli FQT, aksariyat holda, iqtisodiy jarayon sodir bo‘lmasdan oldin o‘tkaziladi. Bu qo‘shimcha sarf bo‘ladigan nokerak funksiyalarni sodir bo‘lmasdan oldin bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi.

2. FQT davomida har bir tahlil qilinayotgan ob’ektda birorta xodisa yoki iqtisodiy jarayonning to‘liq sodir bo‘lishi uchun u qandayfunksiyalardan iboratligi va har bir funksiyaning vaqt yoki qiymati jihatidan qancha xarajat talab qilinishi taqriban aniqlanadi. Bunday tahlilda abstrakt tafakkur, “Fikrlar hujumi”, evristik tahlil kabi ilg‘or usullardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bu esa bitta nokerak yoki zararli funksiyani bartaraf qilish korxonaga qancha samara olib kelishi va ishlab chiqarilayotgan tovari (ish, xizmati) qanchaga arzonlashishi mumkinligini ko‘rsatadi.

3. Tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda bajariladigan barcha funksiyalar FQT qo‘llanganda beshta funksiyaga bo‘lib o‘rganiladi: bosh, asosiy, qo‘shimcha, nokerak va zararli. Tahlil qilinadigan ob’ekt faoliyatini rejalashtirish va loyihalashtirishda nokerak va zararli funksiyalarni bartaraf qilish yo‘llari ishlab chiqiladi. Bu esa xarajatning iqtisodiy jarayonlarning sodir bo‘lmasdan oldin bartaraf qilishini, qulay holda kamayishini ta’minlaydi.

4. Tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishda har bir asosiy va qo‘shimcha funksiyalarning qanday amalga oshirilishi belgilanadi. Imkoni boricha bu funksiyalar ham tejamli yo‘llar bilan mahsulot (ish, xizmat) sifatini, yaroqlilik muddatini, foydalanishga qulayligini oshiradigan darajada bajarilishini ta’minlaydi. Bu bevosita ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshiradi.

5. Eng muhim jihatlaridan biri, FQT samaradorligi oldindan aniqlanadi,chunki ta’kidlanganidek, oldindan aniqlangan nokerakva zararli funksiyalar sodir bo‘lmasdan, ularga mablag‘, vaqt yo‘qotilmasdan bartaraf qilinadi. Bu ham mazkur tahlilning o‘ta samarali iqtisodiy dastak ekanligidan dalolatdir. Shu tufayli FQTni amalga oshirishga ketgan xarajat o‘zining qaytimini bir qancha barobar qoplagan holda amalga oshirilishi mumkin.

6. FQTning yana bir muhim xususiyati, unda qo‘llaniladigan axborot manbai bo‘lib o‘tgan, sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonni ifodalovchi hisobotlar emas, balki bajarilishi lozim bo‘lgan, ko‘proq ilmiy va mantiqiy yo‘l bilan aniqlangan, hali sodir bo‘lmagan funksiyalar tizimi hisoblanadi. Bu ishning samarali boshlanishini ta’minlabgina qolmasdan xodimlarni ham tejamkorlikka va har bir ishga ilmiy jihatdan yondoshishga ko‘nikma hosil qilib boradi. Bu raqobat muhiti yaratilgan va erkin raqobat hukm surib turgan paytda o‘ta muhimdir.

7. Faoliyat ko‘rsatayotgan ob’ektlarda FQTdan foydalanish ko‘p hollarda biznes-rejani tuzishda qo‘llaniladi. Uning har bir ko‘rsatkichini asoslash uchun funkiyalarni tarkiblash (bosh, asosiy, qo‘shimcha, nokerak va zararli) tamoyiliga asoslanadi. Bu esa iqtisodiy ko‘rsatkichlarning reja bosqichida yaxshilanishini, iqtisodiy o‘sishni samarali yo‘llar bilan ta’minlash imkonini beradi.

8. FQTni o‘tkazish uchun jalb qilingan kadrlar (buxgalterlar, menejerlar, muxandislar, texnologlar) alohida malakaga ega bo‘lishi lozimligini taqozo qiladi. Ularning faoliyatini kooperatsiyalashtirish imkonini beradi. Bu jarayonning o‘zi ham iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim dastaklardan biridir.

9. FQTda tahlilning ham, tahlil qilinayotgan ob’ektning ham maqsadini, kutilayotgan natijasini, funksiyasini, mohiyatini, ta’sirini va aloqasini aniqlab olishni taqqozo qiladi. Ob’ektning maqsadida u orqali nimaga erishilishiko‘zda tutilsa, natijada Shu ob’ekt nimaga erishilganligi ko‘rsatiladi. Uning funksiyasida shu ob’ektning nima qilishi ko‘zda tutilsa, mohiyatida shu ob’ekt nima qila olishini ko‘rsatadi.

10. FQTda o‘rganilayotgan ob’ektning yaxshilanishi nimalarga ijobiy ta’sir qilishi va uning nimalarni o‘zgartira olishi hamda ushbu jarayonning nimalar orqali amalga oshirilishi ko‘rsatiladi. Shu tufayli FQTni amalga oshirish jarayonida ushbu jarayonlardan to‘g‘ri va aniq foydalanish lozimdir.

11. Korxonalar faoliyatini modernizatsiyalash diversifikasiya qilish va ularning faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilish masalalarini hal qilishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunki, bajariladigan funksiyalar aniq bo‘lgach, ularni qanday takomillashtirish mumkinligi, nokerak va zararli funksiyalarni olib tashlashni qanday amalga oshirish mumkinligi kabi masalalar o‘z yechimini topadi.

Shunday qilib, FQT ma’lum ma’noda eng ilg‘or iqtisodiy dastak sifatida namoyon bo‘lmoqda va fan olamiga, amaliyot ko‘lamiga kirib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz olimlaridan FQTga bag‘ishlangan quyidagi asarlar yaratildi. Bular jumlasiga M.Q.Pardaevning “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” nomli darsligida (Samarqand, “Zarafshon” nashriyoti, 2001. – 272 bet) FQT iqtisodiy tahlilning bir shakli sifatida ilk bor o‘zbek tilidagi adabiyotga kiritilgan edi. M.K.Pardaev va F.A.Zulunovalar tomonidan tayyorlangan “Funksional qiymat tahlili” nomli kitob (Samarqand: SamISI, 2007. – 12,1 b.t. – 194 bet.) ham FQTning o‘zimizga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda yoritildi. Ushbu fan alohida fan darajasiga ko‘tarildi. Magistrlar uchun M.Q.Pardaev, B.A.Hasanov, V.YU.Maxsudov, D.A.Zulunovalar hammuallifligida tayyorlangan “Funksional qiymat tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi (T.: CHo‘lpon, 2012. – 176 bet.) ham nashr qilindi.

So‘ngra ushbu fan bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom etib, M.Q.Pardaev va O.T.Astanaqulovlar tomonidan “Funksional qiymat tahlili” nomli monografiyasi (T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2013. – 220 bet) tayyorlandi va nashrdan chiqarildi. Mamlakatimiz olimlari ushbu keltirilgan asarlardan tashqari ko‘plab ilmiy maqolalar ham nashr qilindiki, ular mazkur fanning rivojlanishida nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ammo Shuni e’tirof etish kerakki, ushbu fan qanchalik samarali bo‘lmasin, mamlakatimiz iqtisodiyotida, ayniqsa korxonalar amaliyotida keng qo‘llanilmayapti. Xalbuki, xorijiy davlatlarda ushbu fandan amaliyotda foydalanish evaziga juda katta samaradorlikka erishilmoqda.

1.10. SWOT tahlil va uning tahlil tizimidagi o‘rni

Hozirgi sharoitda har qanday jarayonni tadqiq qilishda uning kuchli tomonlarini, imkoniyatlari, zaif tomonlari va tahdidlarini o‘rganish natijasida SWOT tahlilini ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylanib qoldi. Chunki, har bir jarayonni takomillashtirishda, uning samaradorligini oshirishda, tabiiyki, Shu holatlar bir vaqtning o‘zida mujassam bo‘ladi. Ularni bilmasdan, tahlil qilmasdan turib, u yoki bu jarayonni takomillashtirish borasidagi takliflar etarli darajada asoslanmagan hisoblanadi.

Hozirgi paytda SWOT tahlil usulidan foydalanish masalalari iqtisodiyotning barcha sohalarida qo‘llanilmoqda va u ko‘plab tadqiqotlar obyektiga aylandi. Bu borada bir qancha adabiyotlar ham nashr qilindi. Jumladan, M.Q.Pardaev[34], A.N.Xalikulov[35], M.E.Po‘latov, I.R.Bedikulova, O.M.Pardaev[36]lar asarlarida SWOT tahlil usulidan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

SWOT tahlilning kelib chiqishi ingliz tilidan olingan bo‘lib, tahlil qilinayotgan ob’ektning kuchli (Strengths – S), zayif (Weaknesses – W), imoniyatlari (Opportunities – O) va tahdidlardan iborat (Threats – T) so‘zlarining bosh harfidan tashkil topgan (SWOT). Buning o‘zbek tilidagi tarjimasining bosh harflari KZIT tahlili sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tahlilni amalga oshirishning bir qancha afzalliklari mavjud.

Birinchidan, ushbu tahlilda dalillar (faktlar) bilan birga mantiqiy tahlil usullaridan ham keng foydalaniladi.

Ikkinchidan, mahalliy sharoitning imkoniyatlarini, ichki va tashqi omillarning ta’sirini hisobga olishda cheklanmagan sabablarni keltirish mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, Shu tariqa ushbu tahlilda barcha mutaxassislar va

[34] Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. Самарканд, “Зарафшон” нашриёти, 2001.– 272 бет.
[35] Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н. Иқтисодиёт субъектларида омилли таҳлилни такомиллаштириш. Монография. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2014. – 202-217 бетлар.
[36] Пардаев М.Қ., Пўлатов М.Э., Бердикулова И.Р., Пардаев О.М., Маркетинг тадқиқотида статистик таҳлил.Ўқув қўлланма. Т.: “Фан ва технология” нашриёти. 2018. – 284-302 бетлар.

mutasaddilarning ham fikrlarini inobatga olish mumkin bo‘ladi va ularning tajribasi, ilmiy imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin bo‘ladi.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyati, korxonaning ahvolini chuqur tahlil qilish jarayonida nimalarga ahamiyat berish lozimligi ayon bo‘ladi. Kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, zayif tomonlarini bartaraf qilib, ularni kuchlantirish, imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va tahdidlarning oldini olish uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ham keng bo‘ladi.

Bulardan kelib chiqib, SWOT tahlil tushunchasining ta’rifini ishlab chiqish mumkin. Bizning fikrimizcha unga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **SWOT tahlil deyilganda, tahlil qilinayotgan obyektning kuchli va zayif tomonlarini, imkoniyatlari va tahdidlarini keng miqiyosda aniqlab beradigan tahlilning shakli tushuniladi.** Ushbu ta’rifda mazkur tahlilning o‘ziga xos jihatlari to‘liq ifodalangan va shu jihatdan uga qo‘yilgan nazariy talablarga ham javob beradi, deb o‘ylaymiz.

Shuni nazarda tutish kerakki, SWOT tahlilda korxonani rivojlantirishda uning kuchli (Strengths – S) va zayif (Weaknesses – W) tomonlarini bevosita mazkur korxonaning faoliyatiga bog‘liq. Ushbu tomonlarni korxona o‘z kuchi bilan boshqarishi mumkin. Ammo uning imoniyatlari (Opportunities – O) va tahdidlari (Threats – T) aksariyat holda tashqi omillarga bog‘liq. Ularni bashqarish va bartaraf qilishda ancha tadbirlarni qo‘llashiga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib korxona amalga oshirayotgan SWOT tahlilda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga tahdidlarni bartaraf qilish mexanizmlarini ham ishlab chiqishi lozim. Bu jarayon SWOT tahlildan keyingi bosqich bo‘lib hisoblanadi. Buning asosiy yo‘nalishlari quyida keltirilgan (1.4-rasm).



1.4-rasm. SWOT tahlil jarayonida sub’ektlarda aniqlanadigan yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi

Ko‘rinib turibdiki, SWOT tahlil boshqa tahlillar singari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asosiy axborotlar bazasini tayyorlab beradigan eng samarali mexanizmlardan biri ekan. Shu tufayli har qanday korxonaning strotegik rejasini ishlab chiqishdan oldin albatta SWOT tahlilni o‘tkazish

zaruriyat ekanligini inobatga olish lozim. Chunki korxonaning rivojlanish imkoniyatlari juda katta va keng bo‘lishi mumkin. Ammo ularni SWOT tahlil yo‘li bilan aniqlab olinmasa, Shu imkoniyatlarni hisobga olish va ulardan foydalanish o‘ta mushkul va murakkab.

Ko‘rinib turibdiki, korxonalar faoliyatida SWOT tahlildan foydalanish uning strotegik yo‘nalishini aniqlash va unga to‘liq erishish uchun tegishli kurash maydonini aniqlab berar ekan. SWOT tahlilning yana bir muhim jihati, tahlil qilinayotgan korxonaning barcha kuchli va zayif tomonlari, imkoniyat va tahdidlari tegishli jadvalga bandma-band kiritilib, barcha mutaxassi va mutasaddilarga tarqatiladi. Bunda har birining o‘rni belgilanadi va ular ushbu tahlil orqali nimaga, qachon va qayeda ahamiyat berish kerakligini biladi va tegishli vazifasini bajarish orqali korxona faoliyatining yaxshilanishiga o‘z xizmatlarini qo‘shib boradi.

SWOT tahlilning yana bir muhim xususiyatlaridan biri, uning iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi bilan ham xarakterlanadi. Jumladan, u ishlab chiqarish sohasida qanday foydalansa, xizmat ko‘rsatish sohasida ham xuddi shunday foydalansh mumkin. Hatto oilaviy hayotning ham hamma sohasida, biznesning barcha turlarida, strotegik rejalashtirishning hamma yo‘nalishlarida ham undan samarali foydalanish mumkinligiga amin bo‘ldik. Shu tufayli har bir mutaxassis ushbu tahlildan foydalanish yo‘llarini puxta o‘zlashtirib olishi lozim.

1.11.Tahlil fanining alohida sohalarining metodologik asosini yoritish bo‘yicha qilingan ishlarning qisqacha tavsifi

Mustaqillik yillarida **tahlilning alohida sohalari** bo‘yicha ham qalam tebratishlar davom etdi. Bu bo‘yicha ham yirik monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalar nashr qilindi. Bular jumlasiga M.K.Pardaev, I.T.Abdukarimov, B.I.Isroilovlarning “Korxonaning iktisodiy saloxiyati taxlili” monografiyalarini (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2003.- 256 bet.), B.I. Isroilovning «Mol-mulkni soliqqa tortish, soliq hisobi va uni tahlil qilish yo‘llari” o‘quv qo‘llanmasini (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.- 40 bet.), B.I.Isroilovning “Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari” nomli monografiyasini (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.- 20,5 b.t.), A.V.Vaxabov, A.T.Ibrohimov, U.K.Yakubovlarning “Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlilning xususiyatlari” nomli o‘quv qo‘llanmasini (T.: TMI, 2004.- 148 bet.), N. Xasanov, S. Najbiddinovlarning “Korxona moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish” kitobini (T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1999.- 224 bet.), N.Xasanov, L.Yugaylarning «Finansovoe ozdorovlenie predpriyatiya: metodi analiza i otsenki” nomli

monografiyasini (T.: Izd. dom “Mir ekonomiki i pravo”. 2001. – 192 bet.), M.M.Tulaxodjaevaning “Audit finansovogo sostoyaniya predpriya-tiya” nomli monografiyasi (T.: Izd. dom “Mir ekonomiki i pravo”. 1996. – 192 bet.), R.A.Isaev, B.A.Hasanov, A.I.Alikulovlar tomonidan nashr qilingan “Paxta tozalash korxonalari xo‘jalik faoliyati tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi (T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 220 bet), T.Sh.SHog‘iyosovning “Kompleks iqtisodiy tahlil” kitoblarini (T.: “Iqtisod-moliya, 2009.) kabilarni kiritish mumkin.

Samarqand maktabining olimlari mustaqillik yillarida korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahliliga oid kitoblarni ham nashrdan chiqarishga muvaffaq bo‘ldilar. Bular jumlasiga quyidgilarni kiritish mumkin. Olimlardan I.T.Abdukarimov, L.G.Abdukarimova va V.V.Smaginalar tamonidan tayyorlangan «Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия” nomli o‘quv qo‘llanmasini (Tambov. TGU, 2005. - 604 bet.), I.T.Abdukarimovning “Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari” nomli risolasini (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 1998.- 96 bet.), I.T. Abdukarimov., S.A.Ishoqova, A.T.Mardonovalarning “Moliyaviy menejment” nomli o‘quv adabiyotini (Samarkand, SamDU, 2001.- 78 bet.), I.T.Abdukarimov, L.G.Abdukarimova, V.V.Smaginalar-ning “Оценка и анализ собственных и привлеченных средств предприятия” o‘quv qo‘llanmasini (Tambov. TGU., 2004.-150 bet.), I.T. Abdukarimovning «Оценка и анализ финансового состояния предприятия” nomli kitobini (Tombov. 2001. – 75 bet.), I.T.Abdukarimov, V.V.Smaginalarning “Долгосрочные активы, методы их анализа и оценка” nomli o‘quv qo‘llanmasini (Tombov, TGU, 2002. – 124 bet.) Samarqandlik va Rossiyalik olimlar bilan hamkorlikda tayyorlandi. Bir qancha asarlar, jumladan: M.Q.Pardaev va J.I.Isroilovlar tomnidan tayyorlangan “Xususiy korxonalar faoliyati tahlilining nazariy va metodologik muammolari” nomli monografiyasi (T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2007. 164 bet.), J.I.Isroilovning “Tadbirkorlik sub’ektlarida tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tahlil qilish usullari” nomli uslubiy tavsiyasini (Samarkand. SVTICHTP, 2004. - 38 bet.), V.I.Isroilov va J.I.Isroilov lar tomonidan tayyorlangan “Foyda solig‘ining hisobi va tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasini (T.: Soliq akademiyasi, 2012. – 160 bet), Xolmo‘minov SH.R., Xakimov X.M., Boqieva I.A., Allaeva M.A., A.T. Mahkamboevlarning “Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili” nomli o‘quv qo‘llanmasi (T.: TDIU, 2004. – 112 b.), M.Q.Pardaev va A.N.Xalikulovlarning “Iqtisodiyot sub’ektlari omilli tahlilni takomillashtirish” nomli monografiyasini (T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2014. – 240 bet.), M.Q.Pardaev, M.E.Po‘latov, O.M.Pardaev, I.R.berdikulovalar tomonidan tayyorlangan “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” fanidan o‘quv qo‘llanma (T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2018. 448 bet.)

kabilar mamlakatimiz olimlari qalamiga mansub bo‘lib, iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

1.12. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilning rivojlanish yo‘nalashlari

O‘zbekiston Respubliki iqtisodiyotidagi modernizasiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish natijasida sodir bo‘layotgan keskin o‘zgarishlar, unga mos bo‘lgan boshqarish mexanizmlarini ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Bunday iqtisodiy mexanizmlardan biri bo‘lgan iqtisodiy tahlil ham tegishli yo‘nalishlarda modernizatsiyalanishi va takomillashib borishi kerak bo’ladi. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, iqtisodiy tahlil fani ham quyidagi yo‘nalashlarda takomillashishi lozim deb hisoblaymiz:

- hozir respublikamizda ko‘p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos holda rivojlanishi lozim;
- -O‘zbekistonda barcha sohalar, ayniqsa buxgalteriya hisobi bo‘yicha jahon andozalariga mos milliy standartlar tizimi qabul qilindi va amal qilmoqda. Bu esa xalqaro andozalarga mos iqtisodiy tahlil tizimini ham yaratilishini taqqozo qiladi. Bu barcha sohalar uchun bir xil metodologik asosga ega bo‘lgan **moliyaviy tahlilni** takomillashtirish lozimligini taqozo qiladi;
- mamlakatimizda shakllangan bozor munosabatlarining xususiyatlarini, iqtisodiyotdagi modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni joriy qilish jarayonlarini inobatga olgan holda va buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan kelib chiqib, **iqtisodiy tahlilning nazariyasini** takomillashtish maqsadga muvofiq;
- O‘zbekistonda makroiqtisodiy tahlil amaliy jihatdan obyektiv zaruratga aylandi. Ammo uning nazariyasi va metodologiyasi yaratilgan emas. Shu tufayli kelajakda **makroiqtisodiy tahlil**ning nazariy va metodologik asosi ishlab chiqilishi lozim.
- olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa halq xo‘jaligining muhim sohalari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishlari ham bugungi kunda kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardandir. Bundan kelib chiqib, **boshqaruv tahlilini**ng tarmoqlarga mos yo‘nalishlarini takomillashtirish maqsadga muvoqiq, deb hisoblaymiz;
- iqtisodyotga oid barcha o‘quv yo‘nalishlarida bakalavrlarni va mutaxasisliklar bo‘yicha magistrlarni tayyorlashda ushbu fanni o‘quv rejasiga kiritish, ushbu mutaxissisliklarga xos bo‘lgan iqtisodiy tahlilga oid o‘quv adabiyotlarini yaratish maqsadga muvofiq;
- hozirgi obyektiv zaruratdan kelib chiqib, iqtisodiyotning

rivojlanishini tizimli o‘rganishni ta’minlash maqsadida **tizimli tahlil**ning nazariy va metodologik asoslarini yaratish ham maqsadga muvofiq;

- korxonalarning strategik yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash uchun har birkorxonaning kuchli va zayif tomonlarini, imkoniyat va tahdidlarini to‘g‘ri aniqlashni va shunga asosan uni rivojlantirish bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yo‘lga qo‘yish uchun **SWOT tahlil**ning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini yaratish va takomillashtirishni taqozo qiladi;

- korxonaning rivojlanishini va samaradorligini oshirishda ular tomonidan bajariladigan funksiyalarni asosiy, yordamchi, qo‘shimcha, nokerak va zararli turlarga bo‘lib, har birini qiymat jihatidan baholashni yo‘lga qo‘yish uchun **funksional qiymat tahlilini** rivojlantirishni taqozo qiladi;

- hozirgi paytda juda ko‘plab yangi tarmoqlar, tadbirkorlik sub’ektlari paydo bo‘lmoqda. Bularning ham samaradorligi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga oladigan iqtisodiy tahlil usullarini yaratishni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida **alohida tarmoqlar faoliyati tahlilini** yaratish zaruratini tug‘diradi.

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan “Iqtisodiy tahlil” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Bu fanning kelajakda axamiyati keskin oshadi, chunki bozor munosabatlari sharoitida turli mulk shakliga ega bo‘lgan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganishni, tahlil qilishni va iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo qiladi.

1.13.O‘zbekistonda shakllangan iqtisodiy tahlil maktablari

Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy tahlilning bir qancha maktablari shakllangan. Ushbu maktablar va ularning namoyondalari quyidagi jadvalda keltirilgan (1.1-jadval).

1.1-jadval

O‘zbekistonda tahliga oid ilmiy maktablar namoyondalari

Iqtisodiy tahlil ilmiy maktablarining nomlari		**Ilmiy maktab namoyondalari**		**Iqtisodiy tahlilning qaysi yo‘nalishida ish olib borilishi**

Samarqand maktabi		I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, M.E.Po‘latov, B.I.Isroilov, J.I.Isroilov, A.A.Abdiev, A.N.Xalikulov, T.Q.Qudratov		Iqtisodiy tahlil nazariyasi, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Funksional qiymat tahlili, Loyiha tahlili, Xizmat ko‘r satish sohasi faoliyati tahlili, Turistik firmalar faoliyati tahlili, Mehmonxona xo‘jaliklari faoliyati tahlili, Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil, Soliqlar tahlili, Xususiy korxonalar faoliyati tahlili, Alohida tarmoqlar faoliyati tahlilikabilar.
Toshkent maktabi		A.H.SHoalimov, A.V.Vahabov A.T.Ibrahimov, M.Yu.Rahimov, B.A.Hasanov, N.Ishankulov, E.Ergeshev, Sh.R.Xolmo‘minov, R.A.Isaev, U.K.YAkubov, X.I.Axmadjonov		Iqtisodiy tahlil nazariy asoslari, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Funksional qiymat tahlili, Loyiha tahlili, Iqtisodiyot subyektlar moliyaviy holatining tahlili, Mehnat ko‘rsatkichlari tahlili, Paxta tozalash korxonalari xo‘jalik faoliyati tahlili, Alohida tarmoqlar tahlili kabilar.
Farg‘on maktabi		D.Q.Qudbiev, I.N.Ismanov		Asosiy vositalar tahlili.

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Samarqandning tahlil maktabida ilk bor “Iqtisodiy tahlil nazariyasi” fanini o‘zbek tilida nashr qilishga muvaffaq bo‘lgan. Mazkur maktab nomoyondalari “Xo‘jalik faoliyati tahlili” hamda “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanlaridan ham o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga muvaffaq bo‘ldilar. Xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilib,

ma’lum darajada samaradorlikka erishishga muvaffaq bo‘lgan “Funksional qiymat tahlili” ham Samarqand maktabiga mansub. Shuningdek, bozor munosabatlarida iqtisdiy mexanizmlardan biri bo‘lgan “Loyiha tahlili” ham ilk bor Samarqandlik olimlar qalamiga mansub bo‘ldilar. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti yo‘nalishidan kelib chiqib, “Xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati tahlili” ham Samarqandlik olimlar tomonidan tayyorlandi. “Turistik firmalar faoliyati tahlili” va “Mehmonxona xo‘jaliklari faoliyatining iqtisodiy tahlili” ham bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yoritildi. Bozor munosabatlarida marketing tadqiqotlari bozor subyektlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” fani ham ilk bor ushbu maktab nomoyondalari tomonidan tayyorlandi. Hozirgi sharoitda o‘ziga xos tarmoqlarning rivojlanishi “Alohida tarmoqlar faoliyati tahlili”ni yaratishni taqozo qildi. Bu borada ham ushbu maktabda ancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent tahlil maktabi “Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari”ni hamda “Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanlaridan o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda ham katta xizmat qildi. “Funksional qiymat tahlili” fanini Samarqandlik olimlar maktabi vakillari bilan hamkor-likda tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi. “Loyiha tahlili”dan ham o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda mazkur maktab olimlari salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar. “Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili” fanidan darslik ham mazkur maktab olimlari tomonidan yaratilgan. Hozirgi paytda “Alohida tarmoqlar tahlili” fanidan ham ayrim adabiyotlar tayyorlanmoqda.

Farg‘ona maktabi vakillari asli Samarqandning tahlil maktabida shakllangan. Ularning tahlilga oid adabiyotlari “Asosiy vositalar tahlili”ga bag‘ishlangan. Ushbu maktablarda ham yosh kadrlar tayyorlanib, tahlil maktabining yangi avlodi etishib chiqmoqda.

II BOB. IQTISODIY TAHLILNING PREDMETI, VAZIFALARI VA MAZMUNI

2.1. Iqtisodiy tahlilning obyektiv zarurligi va mavzuning dolzarbligi

Insonning kundalik yashashining mazmuni tahlildan iborat. Chunki har kuni erta tongda uyg‘onish bilan nima qilish kerak va nima qildim, degan savol aqli raso insonni cho‘lg‘ab oladi. Bu savolga javobni berish uchun odam o‘z faoliyatini xayolan tahlil qilib chiqadi. Kimki o‘zini chuqur tahlil qila olsa, u o‘ziga tegishli vazifalarni ham qo‘ya oladi va bashqalardan farq qilib boshlaydi. Shu tufayli tahlil inson hayotida muhim o‘rin egallar ekan. Ushbu holatni inobatga olib, mamlakatimizda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan keng qamrovli rivojlanish strategiyasi qabul qilinmadi. Mazkurstrategiyada ko‘zda tutilgan vazifalar hammaga (oddiy fuqarolardan tortib, hududiy va mamlakat rahbarigacha) tegishli va mos ravishda, uning hamma bandi hammaga daxldordir. Uning bajarilishida hech kim chetda tomoshabin bo‘lib qarab turishga haqi yo‘q. Hammaning vazifasi bor. Shu jihatdan har bir kishi mazkur yo‘nalishda qaysi masala menga tegishli va uni qanday bajarishim kerak, degan savolni o‘z oldiga qo‘yishi, bunga javob topish uchun o‘zini tahlil qilish, ya’ni o‘ziga befarq bo‘lmasligi kerak.

Iqtisodiy jarayonlar tahlili ham har bir iqtisodiy hodisani o‘rganishni taqozo qiladi. Shu tufayli mazkur fan bugungi kunda ham o‘ta dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Iqtisodiy tahlil fanining predmetini o‘rganishning zarurligi, bu bo‘yicha turli qarashlar mavjudligi, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlarga mos ta’rifini ishlab chiqish, korxonalarni boshqarishdagi o‘rni va vazifalarini ko‘rsatib berish, obyektiga aniqlik kiritish, ularning metodi va metodologik jihatlarini asoslash kabi bir qancha masalalarni nazariy jihatdan o‘rganishini mazkur fanning obyektiv zarurligini taqozo qiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida tadbirkorlikka asoslangan turli mulk shaklidagi korxonalarning vujudga kelishi, bir tomondan korxonalarning mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyat yaratib bersa, ikkinchi tomondan, ularning mas’uliyatini ham oshirdi. Korxonalarning iqtisodiy erkinligi va mas’uliyatining oshganligi o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Bu jarayon, eng avvalo, iqtisodiy tahlilning zarurligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, uni har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektda qanday tashkil qilish muammosini hal qilishda namoyon bo‘ladi.

Ammo adabiyotlarda iqtisodiy tahlilni tashkil qilish O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ifoda etgan holda etarlicha yoritilmagan. Shundan kelib chiqib, iqtisodiy tahlilni tashkil qilish masalalariga bugungi kun talabidan, ya’ni iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish holatidan kelib chiqib

yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, jamiyat hayotida erkin bozor munosabatlarining shakllanishi,iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish iqtisodiy tahlil bilan bog‘liq yangi-yangi muammolarni vujudga keltirdi. Ushbu muammolarning bir qismi hal qilindi, ammo hal bo‘lishi lozim bo‘lgan bir qancha guruh muammolar ham saqlanib qolmoqda. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mazkur fanni mamlakatimizda shakllangan iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanishning o‘ziga xos bozor munosabatlariga mos, uning nazariy va metodologik asosini hamda tarkibiy tuzilishini ishlab chiqish muammosi.
2. Ushbu fanning kimlarga kerakligini, ichki va tashqi foydalanuvchilar qaysi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishini asoslash va shunga mos ravishda mutaxassislarni tayyorlash muammosi.
3. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, islohotlarga, xususan davlat va nodavlat sektoriga mos mazmunan yangi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish muammosi.
4. Turli mulk shaklida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish muammosi.
5. Xizmat ko‘rsatish korxonalari, xususan turistik firma va kompaniyalar, mehmonxona xo‘jaliklari kabi xizmat ko‘rsatish sohasi sub’ektlari faoliyatini tahlil qilish muammosi.

Har bir muammoning mazmun-mohiyati va uni hal qilish yo‘llarini ko‘rib chiqish bugungi kunda o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki, respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar,iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanishda o‘ziga xos iqtisodiy dastaklar va Shunga mos fanlarning shakllanishini ham taqozo qiladi. Bunday fanlardan biri «Iqtisodiy tahlil» fani bo‘lib, uning tarkibi va mazmuni ma’lum darajada o‘zgartirilib, zamonaviylashtirilib, takomillashtirishni taqozo qiladi.

Albatta, iqtisodiy tahlil oldingi ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud edi-ku, uni yangidan shakllantirishga zarurat bormi, degan savolning tug‘ulishi mumkin. Bunga javoban shuni ta’kidlash joizki, ushbu fan oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida ham haqiqatda mavjud va uning nazariy va metodologik asosi yaxshi rivojlangan edi. Ammo uning maqsadi va mohiyati, ta’kidlanganidek, rejali iqtisodiyotga moslashtirilgan bo‘lib, bevosita rejaning shakllanishi va bajarilishiga xizmat qilishga qaratilgan edi. Uning mazmuni esa, ma’lum darajada, mafkuraviylashgan holda, eng avvalo, davlat manfaatini ifodalab kelgan. Chunki barcha mulk, uni tasarrufida bo‘lib, undan foydalanish bevosita

davlatning ixtiyorida edi. Odatda mulk kimga tegishli bo‘lsa, xo‘jalik faoliyatining natijalari ham shunga tegishli bo‘ladi.

Endilikda iqtisodiy vaziyat tubdan o‘zgardi. Davlatning mulkka va barcha iqtisodiy jarayonlarga egaligi barham topib, ko‘p mulkchilikka asoslangan, bozor munosabatlarini o‘zida ifoda etadigan, mazmun jihatidan yangi iqtisodiyot shakllandi. Bu esa shunga mos ravishda mazmun jihatdan yangi mazmundagi «Iqtisodiy tahlil» fanining shakllantirilishini taqozo qildi. Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish ham ushbu fanning tarkibi va mazmuniga ayrim o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo qiladi.

Endigi «Iqtisodiy tahlil» fani, eng avvolo, hech qanday mafkuraga tobe bo‘lmasdan, davlat manfaatini inkor qilmagan holda turli mulk egalarining (ish kuchi egasi, mehnat jamoasi, korxona va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning) manfaatlarini o‘zida aks ettirgan holda ifoda etilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat mazkur fanning maqsadi, vazifalari, tarkibi, unda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini, eng muhimi, uning mazmunini ham o‘zgartirishni taqozo qiladi.

Ushbu muammolarni hal qilish iqtisodiy tahlil fanining kimga kerakligi u bilan kim shug‘ullanishi, uning ob’ektiv zarurligini asoslashni taqozo qiladi. Iqtisodiy tahlilda korxona rahbari yoki menejeri, uning faoliyatini batafsil o‘rganishi lozim. Buning uchun esa ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Shu maqsadda iqtisodiy tahlilda o‘rganiladigan takomillashganko‘rsatkichlar tizimi va ularni bugungi kun talabidan kelib chiqib, baholash yo‘llari ishlab chiqilishi lozim.

Iqtisodiy tahlil fanining oldiga qo‘yilgan muhim vazifalarni to‘liq bajarish, uning bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot tamoyillariga mos kelishini ta’minlash, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish maqsadida mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarini axtarib topish yo‘llarini ishlab chiqish kabi muhim iqtisodiy ishlarni to‘g‘ri bajarish uchun uning predmeti, obyekti, metodi, turlari, shakli, uslublari kabi mazkur fanning nazariy asoslarini aniq belgilab olishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlil fanining hamon to‘liq o‘z yechimini topmagan bozor munosabatlariga xos nazariy muammolaridan biri uning predmetidir. Har qanday mustaqil fan o‘zining predmetiga ega. Fanning predmeti deganda, odatda, Shu fanda nima o‘rganilishi tushuniladi. Iqtisodiy taxlil fanining predmetiga keng ma’noda qaraydigan bo‘lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan ob’ekt (korxona, birlashma, kompaniya, aksiyadorlik jamiyati, konsern, korporatsiya kabilar) xo‘jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va h.k) o‘z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o‘ziga xos xususiyatga, o‘zi o‘rganadigan predmetga ega. Bu faqat shu fanga xos bo‘lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi

lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko‘rsatishi uchun asosiy shartlaridan biridir.

Iqtisodiy tahlil* fanining predmeti tom ma’noda ob’ektning xo‘jalik faoliyatidir. Ammo buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma’noda xo‘jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o‘rgatadi. Demak, har bir fanning, Shu jumladan iqtisodiy tahlil fanining o‘ziga xos va mos jihatini unga tegishli predmetni aniqlab olish lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni o‘z ichiga oladigan fan iqtisodiyotga oid fanlardir. Ammo iqtisodiy tahlil fani bu jarayonlarning sodir bo‘lish paytini emas, balki uning natijasi va kelajagini o‘rganadi. Obyektda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar, uning rejasida ko‘zda tutilgan ma’lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo‘lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug‘ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma’lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli xisobotlarda o‘z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan xisobotlarga, jamlangan hujjatlarda ifoda etilgan boshqa ma’lumotlarga asoslanadi.

2.2 Iqtisodiy tahlil predmeti ta’rifi bo‘yicha turli olimlar qarashlari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda innovatsion jarayonlardan foydalanish sharoitida, ushbu jarayonlarga mos iqtisodiy tahlil fanining predmetini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy tahlilning mazmunini to‘liq anglash va bugungi kun talabiga javob berishini baholash uchun ushbu muammoga tarixiy jihatdan yondoshishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti o‘z vaqtida sotsialistik tuzumga va rejali iqtisodiyotga moslashtirilib ishlab chiqilgan. Ushbu fanning predmetiga ilk marta ta’rif berilganda M.I.Bakanov va S.K.Tatur rahbarligidagi olimlar: «Xo‘jalik faoliyati tahlili predmeti deganda, korxonaning rejani bajarish jarayonida mehnat, moddiy va pul resurslaridan foydalanishni birinchi galda hisob ma’lumotlaridan o‘rganish tushuniladi»[37] deb ko‘rsatgan ekan.

O‘sha payt uchun ushbu ta’rif talabga to‘liq javob bergan. Chunki, iqtisodiyotni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha e’tibor rejaning bajarilishiga qaratilgan. Ammo bugungi kun nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, iqtisodiy tahlil predmetining ushbu ta’rifi ancha chegaralanganligi ma’lum. Unda faqat rejaning bajarilish jarayoni ko‘rsatilgan. Agar ushbu ta’rifga asoslanadigan bo‘lsak, korxonada rejani bajarishdan boshqa jarayon

[37] Курс анализа хозяйственный деятельности / Под ред. М.И.Баканова и С.К.Татура - М.: Госфиниздат 1959

bo‘lmaydigandek, faqat hisob ma’lumotlariga asoslanadigandek bo‘lib qoladi. Tahlil jarayonida nafaqat rejaning bajarilishi yoki hisob, balki barcha iqtisodiy jarayonlar va hisobot, reja hamda boshqa ko‘plab axborot manbalaridan foydalanish lozim bo‘ladi.

Bundan farqli o‘laroq o‘tgan asrning 60-yillarida A.Sh.Margulis tahririda chop etilgan kitobda: «Tahlilning predmeti korxona va birlashmalarning rejani bajarishga yo‘naltirilgan xo‘jalik faoliyatining reja, hisob va hisobotlarda ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimidir»[38] degan ta’rif beriladi.

Mazkur ta’rifda muallif iqtisodiy tahlilga ancha kengroq yondoshadi. Endi faqat korxonalar bilan cheklanib qolmasdan, ularning birlashmalari ham tahlil obyekti bo‘lishini, ma’lumotlar manbai esa faqat hisobda emas, balki reja, hisobotlarda ham ifodalanishini ko‘rsatilgan. Ammo bu erda ham xo‘jalik faoliyatini faqat rejaning bajarilishi bo‘yicha o‘rganishga asosiy urg‘u berilgan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ta’rif ham ma’lum ma’noda chegaralangan.

O‘sha paytlarda ham olimlarning iqtisodiy tahlil fani predmeti ta’rifini takomillashtirishga qaratilgan qarashlari davom etdi. 60-yillarning oxiriga kelib I.I.Poklad ushbu masalaga ancha aniqlik kiritib quyidagicha ta’rif berishga muvoffaq bo‘ldi: «Iqtisodiy tahlilning predmeti sanoat tarmog‘idagi korxona va ularning yuqori tashkilotlari (birlashma, firma, trest) xo‘jalik faoliyati bo‘lib reja, hisob, hisobot va boshqa axborot manbalarida ifodalanishidir»[39] deb ko‘rsatadi.

Ushbu ta’rifning oldingilardan afzalligi Shundaki, unda iqtisodiy tahlil korxona va birlashmalar bilangina emas, balki undan boshqa yuqori tashkilotlar faoliyatini ham o‘rganadi, degan g‘oyani olg‘a suradi. Shu bilan birga iqtisodiy tahlilni o‘tkazishda axborotlarni faqat reja, hisob va hisobotlardan emas, balki boshqa manbalardan ham olish mumkinligini ko‘rsatib bergan.

Ammo mazkur ta’rifda I.I.Poklad ham iqtisodiy tahlil fanining predmetini ma’lum darajada chegaralaydi. Xususan, iqtisodiy tahlil faqat sanoat tarmog‘idagi korxonalarda o‘tkaziladi degan nazariyani olg‘a suradi. Bundan qolgan tarmoqlarda iqtisodiy tahlil o‘tkazilmaydimi, degan tabiiy savol tug‘iladi. Boshqa mualliflar ta’riflarida iqtisodiy tahlil predmeti sifatida xo‘jalik faoliyatining ma’lum jihatlari ko‘rsatilgan. Bunda esa ushbu muhim jihat inobatga olinmagan.

Shu yillarda chop etilgan yana bir asarda N.T.Chumachenko: «Iqtisodiy tahlil predmeti korxonaning reja asosida amalga oshirilgan xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida asosli qarorlar qabul qilish uchun axborotlar oqimlarida

[38] Экономический анализ работы предприятий / Под ред. А.Ш.Маргулиса. - М.: Госфиниздат, 1960 - 6 бет.
[39] Поклад И.И. Теоретические основы экономического анализа работы предприятий. - М.: Финансы, 1969. -10 бет.

ifodalanishini tahlil qilishdir»[40] deb ko‘rsatadi.

Mazkur ta’rif bilan N.T. Chumachenko ushbu muammoni hal qilish yo‘lida bir qadam olg‘a ketgan. Unda iqtisodiy tahlil shunchaki tahlil uchun emas, balki «asosli qarorlar qabul qilish uchun» degan tushunchani kiritadi. Bu holat mazkur fan nazariyasining ancha rivojlanishiga, tahlilning esa xo‘jalikni boshqarishdagi rolining oshishiga olib keladi. Albatta, bu qarash o‘sha rejali iqtisodiyot sharoiti uchun juda ma’qul edi. Ammo o‘sha paytlarda hali xo‘jalik faoliyati faqat rejani bajarish bilan cheklanib qolmaganligini inobatga oladigan bo‘lsak, ushbu ta’rif ham mukammal emasligiga amin bo‘lamiz.

Bulardan tashqari ushbu ta’rifda «axborotlar oqimida ifodalanishini tadqiq qilishdir» deyilgan so‘zi ham iqtisodiy tahlil fanining predmetini qisman chegaralagan. Odatda xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlar tahlil qilinadi. Bularni tahlil qilish uchun esa axborotlar manbaidan foydalanildi. Bu ta’rifda ta’kidlanganidek, axborotlar tahlil qilinmoqchi. Odatda axborotlar emas, balki, ularga asosan xo‘jalik faoliyati tahlil qilinadi.

70-chi yillarda ham bu borada olimlar turli qarashlarni ilgari surdilar. Masalan, N.V.Dembinskiy iqtisodiy tahlil fanining predmetini soddalashtirib quyidagicha ta’rif bergan. «Iqtisodiy tahlilning predmeti deb korxonalar va xo‘jalik birlashmalari xo‘jalik faoliyatining reja, hisobot, hisob va boshqa axborotlarda ifodalanishiga aytiladi»[41] deyilgan. Xuddi Shunday ta’rif V.A.Raevskiy tahriridagi kitobda ham qayd qilingan[42].

Shunga o’xshash ta’rif A.I.Merkushev kitobida ham keltirilgan. Uning asarida «Iqtisodiy tahlilning predmeti – bu korxona va tashkilotlarning bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va rejani bajarishga qaratilgan ko‘p qirrali xo‘jalik faoliyatidir»[43] deyilgan.

Ushbu ta’riflarda ham tahlil fani predmetining asosini xo‘jalik faoliyati tashkil qilishi ko‘rsatilgan. Ammo N.V.Dembinskiyda ma’lumotlar qanday axborotlar manbaida ifodalanishi ko‘rsatib berilgan bo‘lsa, A.I.Merkushevda ushbu masala qoldirib ketilgan. To‘g‘ri, iqtisodiy tahlilning predmeti xo‘jalik faoliyati, lekin uning qaysi jihatini olish lozimligi A.I.Merkushev ta’rifida ko‘rsatilmagan. Agar ushbu masalaga kengroq yondoshadigan bo‘lsak buxgalteriya hisobi, boshqarish, audit, marketing kabi fanlarning ham predmeti xo‘jalik faoliyati, lekin, ularning qaysi jihati qanday fanlarda o‘rganish lozimligi aniq ifodalangan bo‘lishi lozim. Iqtisodiy tahlil xo‘jalik faoliyatining hamma jihatini o‘rganmaydi, balki sodir bo‘lgan iqtisodiy

[40] Чумаченко Н.Т. Экономический анализ и управление производством. - Киев: КИНХ, 1996. - 101 бет.
[41] Дембинский Н.В. Вопросы теории экономического анализа. - М.: Финансы, 1973. - 16-17 бетлар.
[42] Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объеденений). - М.: Финансы и статистика,1988. - 3 бет.
[43] Меркушев А.И. Анализ хозяйственной деятельности снобженческо-сбытовых организаций. М.: Высшаяшкола, 1979. - 15 бет.

jarayonlarning axborot manbalarida ifodalangan ma’lumotlariga tayangan holda, mazkur subyekt xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni axtarib topish va ulardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan jarayonlar o‘rganiladi.

Ayrim olimlar iqtisodiy tahlil fanining predmetini faqat bitta tarmoqqa bog‘lab qo‘yadilar. Bu borada I.I.Pokladning qarashlarini ko‘rib o‘tgan edik. Uning asarida iqtisodiy tahlil predmeti faqat sanoat korxonalari doirasida qaralgan bo‘lsa M.F.Dyachkov asarida esa faqat qurilish tashkilotlari bilan chegaralanib qoladi.

M.F.Dyachkov fikricha «Xo‘jalik faoliyati tahlili» kursining predmeti qurilish tashkilotlari va ularning yuqori bug‘inlaridagi xo‘jalik jarayonlari va xodisalaridir»[44]. Bu erda muallif iqtisodiy tahlil fanining predmetini uning obyekti bilan almashtirib yuborgan. U qayerda, qaysi sohada amalga oshirilmasin bir xil predmetga ega bo‘lishi lozim. Sohalar esa uning obyektini tashkil qiladi.

Shunga o‘xshash qarashlarni iqtisodiy tahlilning yirik nomoyondalari asarlarida ham kuzatish mumkin. Xususan, A.D.Sheremet tahririda chop etilgan iqtisodiy tahlil nazariyasiga bag‘ishlangan adabiyotda «Xo‘jalik faoliyati tahlilining bevosita predmeti ishlab chiqarish iqtisodi, uning texnik, tabiiy sharoiti va ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘liq tomonlaridir»[45] deyilgan.

M.N.Yankelevich yog‘ochsozlik korxonalarida iqtisodiy tahlil kursini yozgan. Ammo uning ham boshlang‘ich qismi Shu fanning nazariyasiga bag‘ishlangan. Uning fikricha: «Iqtisodiy tahlil predmeti korxonaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xalq xo‘jalik rejalarini bajarishga qaratilgan barcha faoliyat jarayonlari va ishlarini qamrab olgan ishlab chiqarish-xo‘jalik va moliyaviy faoliyatidir»[46]. Bu ta’rifda iqtisodiy tahlil iqtisodiyotning makro- yoki mikro- darajasida olib borilishi aniq ko‘rsatilmagan. Bunga o‘xshash qarashni N.A.Xan kitobida ham kuzatish mumkin. «Iqtisodiy analiz esa uchet va hisobot materiallari asosida ishlab chiqarish kuchlarining ahvolini va xo‘jalikni yuritishdagi iqtisodiy qoidalarni o‘rgatadi»[47] deyilgan. Bunda ham iqtisodiy tahlil fanining predmeti iqtisodiyotning qaysi bo‘g‘inida amalga oshirilishi aniq o‘z ifodasini topmagan. Shuningdek, ushbu qarashlarda axborot manbalari ham faqat

---

[44] Дьячков М.Ф. Анализ хозяйственой деятельности в строительстве. - М.: Финансы и статистика, 1987. - 11бет

[45] Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. / Под ред. А.Д.Шеремета. - М.: Прогрес,1982. - 15 бет.

[46] Янкелевич М.Н. Анализ хозяйственной деятельности дерево обработывающих предприятий. - М.: Леснаяпромышленность. - 1984. - 10 бет

[47] Хан Н.А. Љишлољ хўжалик корхоналарида хўжалик фаолиятининг анализи. - Тошкент, Ўљитувчи, 1978. -7 бет.

«uchet va hisobotlar» doirasida chegaralanib qolgan. Xolbuki, reja va boshqa axborot manbalari e'tibordan chetda qolib ketgan.

Ayrim omillarda iqtisodiy tahlilning predmeti iqtisodiyotning aniq bo‘g‘inida, ya'ni korxona darajasida olib borilishi e'tirof etilgan holda ushbu fanning predmetiga ta'rif berilgan. Xususan, M.B.Kovin va B.I.Maydanchiklar: «Iqtisodiy tahlil predmeti deb, xalq xo‘jaligining xo‘jalik hisobidagi bo‘g‘inida ishlab chiqarish sharoitlari va ularning yuqori natijaga kam (mavjud) resurslar bilan erishishga o‘zaro bog‘liq omillarining butun va ayrim ta'siri nuqtai nazaridan qarashga aytiladi»[48], deb ko‘rsatgan.

Mazkur mualliflarning iqtisodiy tahlil predmetiga berilgan ta'riflari ichida bitta muhim jihati Shuki, uning predmetida xo‘jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar ham inobatga olinishi ko‘zda tutilgan.

Shuni qayd qilish kerakki, ayrim olimlar iqtisodiy tahlil fanining predmetiga juda sayoz yondoshib, uni juda qisqa doirada chegaralab qo‘yganlar. Masalan, A.D.Sheremet, V.A.Protopopovlar mazkur masalaga bir tomonlama yondoshib «Iqtisodiy tahlilning predmeti xo‘jalik faoliyatining iqtisodiy tomonlaridir»[49] degan xulosaga keladilar. «Korxona xo‘jalik faoliyati iqtisodiy tomonlarini ishlab chiqarishning texnik, tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy taraqqiyoti va rahbar idoralarining xo‘jalik siyosatini o‘zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlari»[50], deb tushuntiradilar.

Ushbu ta'rifda iqtisodiy tahlil predmeti korxona iqtisodi fanining predmetiga o‘xshab qolgan. Bunda tahlilning o‘ziga xos faoliyat doirasi ochib berilmagan. Iqtisodiy tahlil predmetiga ko‘p olimlar juda ko‘p doirada yondoshib uni iqtisodiyotning makro- va mikro- darajasi uchun bir xil holatda ekanligida ko‘radi. Masalan, O.R.Kmitsikevich: «Iqtisodiy tahlilning predmeti deganda korxona, birlashma, tashkilot va xo‘jalik tarmoqlari xo‘jalik faoliyatida rejalarning bajarilish jarayonini, moliyaviy natijalarni reja, hisob va hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tizimida ifodalanishi va shu bo‘g‘inlardagi imkoniyatlarning (rezervlarning) mavjudligini aniqlash tushuniladi»[51] deb ta'rif bergan.

Bunda iqtisodiy tahlil tarmoq darajasigacha ko‘tarilgan. Demak, uning predmeti nafaqat qo‘yi, balki iqtisodiyotning yuqori makro- bo‘g‘inida, ham amalga oshadi deb ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Bizning tasavurimizda iqtisodiy tahlilning predmeti iqtisodiyotning qo‘yi bo‘g‘ini bilan chegaralanishi lozim. Chunki makro- darajani o‘rganish bilan makroiqtisodiy tahlil shug‘ullanadi.

---

[48] Ковин М.Б., Майданчик Б.И. Внутриотраслевой анализ эффективности работы предприятий и объединений. - М.: Финансы, 1997. - 4 бет.

[49] Шеремет А.Д., Протопопов В.А. Анализ экономики промышленного производства. - М.: Высш. шк., 1984,

[50] Ўша жойда. 20 бет.

[51] Кмицикевич О.Р., Фалькович Л.А. Анализ хозяйственной деятельности в потребительской кооперации. М.:Экономика, 1977, - 5-6 бетлар.

Bu tahlilning o‘ziga xos sohasidir.
Bunday fikrni N.M.Zavarixin ham qayd qilib quyidagicha yozadi. «Iqtisodiy (aniq-iqtisodiy) tahlil fan sifatida xalq xo‘jaligining barcha bo‘g‘inlarida kengaytirilgan ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini va ularni oshirish yo‘llarini tadqiq qilishdan iboratdir»[52], deb ko‘rsatgan. Shunga yaqin bo‘lgan ta’rif B.I.Maydanchik tahririda chop etilgan adabiyotlarda ham aytilgan[53] .

Shuni e’tirof etish kerakki, ayrim olimlar iqtisodiy tahlilning predmetiga o‘ta aniqlik bilan yondoshadilar. Masalan, S.B.Barngols va G.M.Tatsiylar tahririda chop qilingan kitobda «Tahlilning predmeti aniq korxona, uning tarkibiy bo‘linmalari, birlashma, vazirlik va idoralar xo‘jalik faoliyatining reja bajarilishi, uning samaradorligini oshirishiga qaratilgan reja, hisob, hisobot va boshqa manbalarda ifoda etilgan ko‘rsatkichlar tizimidir»[54] deyilgan.

Mazkur ta’rif oldingi tahlil qilgan ta’riflarga nisbatan ancha takomillashgan va keng qamrovli qilib olingan. Ammo ushbu ta’rifda, tahlilda amalga oshiriladigan muhim jihat, xo‘jalik faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar o‘z ifodasini topmagan. Iqtisodiy tahlilning boshqa fanlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyati Shundaki, unda korxona xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi va ularning ta’siri hisoblanadi. Natijada ijobiy va salbiy holatlarga baho berish va ularni yaxshilash bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin.

Bu borada M.I.Bakanov va A.D.Sheremetlarning darsligida keltirilgan ta’rifi ancha qulay va tahlilning barcha jabhalarini qamrab oladi. Unda: «Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda, korxonalardagi xo‘jalik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va faoliyatining oxirgi natijasiga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar va ularning axborotlar tizimida ifodalanishi tushiniladi»[55] deyilgan. M.I.Bakanov iqtisodiy tahlilga bergan ushbu ta’rifini keyingi kitoblarida ham saqlab qolgan. Faqat unda bitta korxonalar bilan birga birlashmalar, assotsiatsiyalarni ham kiritgan[56]. Biroq, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar tizimini etkazib berishdek, muhim vazifa e’tibordan chetda qolgan.

Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ham iqtisodiy tahlil fanining predmetiga bo‘lgan munosabat o‘zgargan emas. U

---

[52] Заварихин Н.М. Экономический анализ в управлении основными звеньями народного хозяйства / Теория экономического анализа хозяйственной деятельности. / Под ред. Н.М.Заварихина, Р.С.Сайфулина. М.: Из-во, МГУ, 1981. - 28 бет.

[53] Функционально-стоимостной анализ издержек производства / Под ред. Б.И.Майдончика - М.: Финансы и статистика, - 1985 - 6 бет.

[54] Экономический анализ хозяйственной деятельности предприятий и объеденений / Под ред. С.Б.Барнгольц и Г.М.Тация. - М.: Финансы и статистика, 1987. - 28-29 бетлар.

[55] Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория анализа хозяйственной деятельности. - М.: Финансы и ститистика,1987. - 28-29 бетлар.

[56] Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа М.: Финансы и статистика, 1994. - 42 бет.

hamon iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu tabiiy jarayon, albatta. Chunki iqtisodiyotning qanday bo'lishidan qat'iy nazar korxonalarda xo'jalik faoliyati davom etadi, ular esa tahlil qilinadi. Biroq iqtisodiy unsurlarning o'zgarishi bilan tahlilning ham vazifasi, ayrim maqsadlari o'zgarishi mumkin. Lekin predmetining mumtoz ta'rifining mazmuni asosan saqlanib qolishi lozim. Shu tufayli mazkur fanning ta'rifiga kengroq ma'noda yondoshishni taqozo qiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirishni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yaratilgan kitoblardan biri G.V.Savitskayaning darsligidir. Unda «Xo'jalik faoliyati tahlili predmeti deb iqtisodiy xodisa va jarayonlarning sabab-oqibat bog'liqligiga aytiladi»[57] degan ta'rif berilgan. Bunda rejaning bajarilishiga tayanilmaganligi, uning turli tuzumda qo'llanilishi mumkinligini ta'minlaydi.

Biroq, ushbu ta'rifda «Iqtisodiy xodisa va jarayonlarning» iqtisodiyotning qaysi bo'g'inida sodir bo'lishi, Shu jarayonlarni tezlashtiruvchi yoki susaytiruvchi omillarning ta'siri kabi muhim jihatlari o'z ifodasini topmagan. Shuningdek, ushbu holatlarni qaysi ma'lumot manbalari asosida tahlil qilish ham ko'rsatilmagan. Demak, iqtisodiy tahlil fanining predmeti erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda hamon etarli darajada ishlab chiqilmagan. Bulardan kelib chiqib, ta'kidlamoqchimizki, iqtisodiy tahlil fani mazmun va mohiyati jihatidan hali takomillashishi lozim ekan. Bugungi iqtisodiyotga mos, uni o'zida aks ettiradigan tahlil predmeti va uni amalga oshirish usullari ishlab chiqilishi lozimdir.

Hozirgi paytda iqtisodiy tahlilning ham turli varianti chop qilinmoqda. Moskvaning «Mejdunarodnoe otnosheniya» nashriyoti 1999 yilda V.E.Ribalkin tahriri ostida «Iqtisodiyot tahlili» («Анализ экономики») kitobini chop etdi[58]. Unda birinchi marta iqtisodiy tahlil obyekti sifatida milliy va xududiy iqtisodiyot, makro va mikro iqtisodda bozor jarayonlari va korxona hamda firmalar faoliyati olingan.

Shuni alohida qayd qilish joizki, bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy mamlakat olimlarining iqtisodiy tahlilga bag'ishlangan asarlarida ularning nazariyasiga kam ahamiyat berilgan. Ularning asarlari asosan iqtisodiy tahlilning amaliy jihatlariga bag'ishlangan.

Ammo O'zbekistonda boshqa MDH mamlakatlari singari iqtisodiy tahlil fanining nazariyasi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot kabi rivojlanish va taraqqiyot bosqichini boshidan kechirmoqda. Bu borada olimlarimizning ham o'ziga xos qarashlari mavjud.

Iqtisodiy tahlil fani predmetiga O'zbekistonlik olimlarning bergan

57 Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. - М.: ИП «Экоперепектива, 1997, - 21 бет.

58 Анализ экономики. Страна, рынок, фирма. Под ред. Проф. В.Е.Рыбалкина Учебник. - М.: Международное отношение, 1999.

ta’riflari talqini

Shuni alohida qayd qilish joizki, bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy mamlakat olimlarining iqtisodiy tahlilga bag‘ishlangan asarlarida ularning nazariyasiga kam ahamiyat berilgan. Ularning asarlari asosan iqtisodiy tahlilning amaliy jihatlariga bag‘ishlangan. Ammo O‘zbekiston olimlari ham boshqa MDH mamlakatlari singari iqtisodiy tahlil fanining nazariyasiga bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitidan kelib chiqib, tegishli fikrlarni shakllantirdi. Bulardan biri mazkur fanning bevosita predmetiga ham tegishlidir.

Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga, uning modernizatsiyalanishi va diversifikatsiyalanish bosqichiga, iqtisodiyotning rivojlanishida innovatsion omillarning kuchayishiga mos iqtisodiy tahlil fanining predmetini shakllantirish lozim.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, mazkur fanning predmeti ta’rifini ishlab chiqishda, u bir qancha talablarga javob berishi maqsadga muvofiq ekan. Bular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, u erkin iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan turli mulk shaklida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini o‘zida ifodalashi kerak.

Ikkinchidan, asosan korxonalar faoliyati natijalari ko‘rsatkichlarda ifodalanishi va ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini aniqlash zarurligi iqtisodiy tahlilda o‘z yechimini topmog‘i lozim.

Uchinchidan esa, iqtisodiy tahlil o‘z chegarasiga, faoliyat doirasiga ega bo‘lish uchun butun xo‘jalik faoliyatidan o‘ziga tegishli sohani ajratib ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, mazkur fanning ta’rifida korxonalar xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijasining ma’lumotlar manbaida ifodalangan axborotlar tizimi ham o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti yuqoridagi talablarga javob bersagina u mazmunan mukammal va to‘liq hisoblanadi. Agar iqtisodiy tahlil fani nazariyasi mamlakatimizda o‘zimizga xos tarzda shakllanish va takomillashish bosqichini boshidan kechirayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, hali ayrim masalalar bo‘yicha turli fikrlar aytilishi mumkin. Ushbu holatni mamlakatimiz olimlarining iqtisodiy tahlil faning predmetiga bergan ta’riflarida ham ko‘rish mumkin. Bular mazkur jadvalda keltirilgan (2.1-jadval).

2.1-jadval

O‘zbekistonlik ayrim olimlarning iqtisodiy tahlilga bergan ta’riflari

T/r	lliflar-ning f.i.o.i.	tahlilga berilganta’riflar	Mazkur ta’rif keltirilganmanba
1.	A.Vaxabov, A.Ibrohimov, B.Hakimov	Iqtisodiy tahlil fanining predmeti – korxona, firma, uyushma, birlashmalarni xo‘jalik jarayonlarini ularga ta’sir etuvchi sub’ektiv va obyektiv omillar asosida, mazkur voqeliklarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi vositasida, xo‘jalik subyektlarining faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va ular faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini o‘rganadi.	Iqtisodiy tah-lil nazariyasi. – T.: TMI, 2003. – 28 b.
2.	A.X.ShoalimovS H.A.Tojiboeva	Iqtisodiy tahlil predmeti deganda, korxonalar va birlashmalar faoliyatini, biznes rejasini bajarish va uning asosligini tekshirish, ularning mehnat, moddiy va moliya resurslaridan oqilona foydala-nish natijasida ichki xo‘jalik rezervlarni aniqlash bo‘lib, bular barchasi o‘z navbatida iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimida o‘z aksini topib, hisob va hisobot hamda hisobotdan tashqari	Iqtisodiy tahlil nazariyasi, - T.: TDIU, 2004. – 12 b
		ma’lumotlarga asosla-nishi tuShuniladi.	
3.	U.X.Xudayberdi ev, U.N.Masha-ripov, M.U.Xu-dayberdieva	Bank faoliyati tahlili faning predmeti bo‘lib, banklar faoliyatlari natijasida sodir bo‘lgan (bo‘ladigan) iqtisodiy ko‘rsatkichlarning holati da o‘zgarishini o‘rganish ekan.	Bank faoliyat-lari tahlili. – Samarqand, SamISI, 2006. – 7 b.

5.	ıog‘iyosov	Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili fanining predmet korxona faoliyatida va uning tarkibiy bo‘linmalarida sodir etiladigan iqtisodiy jarayonlarni bir butunlik va o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganishdir.	Kompleks iqti-sodiy tahlil. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. – 7 b.
6.	R.A.Isaev, B.A.Hasanov, A.I.Aliqulov	Xo‘jalik faoliyati tahlili fanining predmeti deganda – iqtisodiyaxborotlar tizimi orqali aks etib olinadigan obyektiv va subyektiv omillar ta’siri natijasida ro‘y bera- digan iqtisodiyot subyektlari faoliyatinatijalarini mujassam etgan ko‘rsatkichlar tizimi orqaliular holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llari bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish tushuniladi.	Paxta tozalash korxonalari xo‘jalik faoliyatitahlili. – T.: “Fanva texnologiya”,2008. – 9 b.
7.	A.V.Vahabov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishankulov	“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanining predmeti deb – turli mulk shaklidagi firma, uyushma, birlashma va hokozalarning moliyaviy-xo‘jalik jarayonlarining sodir bo‘lishi, rivojlanish va o‘zgarishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, raqobatga chid10amli bo‘lib faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi.	Moliyaviy va boqaruv tahlili. Darslik. – T.: “SHarq”, 2005. – 37 b.
8.	M.Q.Pardaev, B.I.Hasanov, J.I.Isroilov, M.E.Pulatov,	Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda erkin iqtisodiyot sharoitida ishlayotgan xo‘jalik yurituvchisubyekt (korxona)larning xo‘jalik	Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – T.: “CHo‘lpon”, 2012. – 26 b.

	O‘.T.Eshboev, A.N.Xolikulov	faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijalariningma’lumotlar manbaida (reja, hisob, hisobot va boshqalar) ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali, uning holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ko‘rsatish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish yo‘llariniishlab chiqishni o‘rganish tushiniladi.	Mazkur ta’rif M.Q.Pardaev tomonidan 2011 yilda nashr qil-ingan “Iqtiso-diy tahlil naza-riyasi” darsligi-da keltirilgan edi. (Samarqand, “Zarafshon”, 2001. 5 – 9.b.)

Yuqorida keltirilgan talablardan kelib chiqqan holda, iqtisodiy tahlil fani predmetiga berilgan ta’riflarning talqininga baho berish har bir o‘quvchining hukmiga qoldirdik. Chunki, bu borada o‘zimizning bir qancha chop qilgan adabiyotlarimizda[59] ham aytgan edik. Uni takomillashtirib yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, iqtisodiy tahlil fani predmetiga jadvalda 8-raqamda keltirilgan ta’rifni beridik. Iqtisodiy tahlilning ushbu ta’rifini nazariy jihatdan quyidagicha isbotlash va asoslash mumkin.

2.3. Iqtisodiy tahlil fani predmetining ta’rifi

Erkin iqtisodiyot sharoitiga mos iqtisodiy tahlil fanining predmeti yaratilmog‘i lozim. Bizning fikrimizcha, u quyidagi talablarga javob berishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, u erkin iqtisodiyot sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning xo‘jalik faoliyatini o‘zida ifodalashi kerak.

Ikkinchidan, asosan iqtisodiy tahlilda o‘z yechimini topadigan obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini aniqlash zarurligi ko‘rinib turishi lozim.

Uchinchidan esa, iqtisodiy tahlil o‘z chegarasiga, faoliyat doirasiga ega bo‘lish uchun butun xo‘jalik faoliyatidan o‘ziga tegishli sohani ajratib ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bunga, bizning fikrimizcha, korxonalar xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijasining ma’lumotlar manbaida ifodalangan axborotlarni olishni kiritish mumkin.

[59] Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлилнинг предмети, методи ва унда қўлланиладиган усуллар. Самарқанд, СамКИ,1999, - 3 бет. Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлилнинг назарий асослари. - Самарқанд, СамКИ, 1999, - 3 бет. Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. – Самарқанд «Зарафшон» нашр. - 2001. – 9 бет.

Bu borada o‘zimizning chop qilgan adabiyotlarimizda[60] ham aytgan edik. Uni takomillashtirib yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib iqtisodiy tahlil fani predmetiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda, erkin iqtisodiyot sharoitida ishlayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning (korxonalarning) xo‘jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va xodisalar natijalarining ma’lumotlar manbaida (reja, hisob, hisobot va boshqalarda) ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi (sistemasi) orqali, uning holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganish tushiniladi.**

Iqtisodiy tahlilning ushbu ta’rifini nazariy jihatdan quyidagicha isbotlash mumkin.

Birinchidan, iqtisodiy tahlilning predmetida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar alohida o‘rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o‘z -o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ular ma’lum ichki va tashqi omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Shu omillar ta’sirini boshqa fanlar iqtisodiy tahlil darajasida atroflicha o‘rgatmaydi. Bu faqat shu iqtisodiy tahlil fanida o‘rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo‘jalik faoliyati natijasiga to‘g‘ri baho bermasdan, unga ta’sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o‘rganmasdan turib ko‘zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida obyektiv va subyektiv omillar turganligi ham bejiz emas.

Ikkinchidan, iqtisodiy tahlilning predmetini o‘rganishda faqat sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo yetarli emas ekan. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlarga to‘g‘ri baho berib, bo‘ladigan jarayonlar andozasini ham ko‘rsatib berishni taqozo qiladi. Bu xulosa tahlilning predmetini o‘tgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga qamrab olishini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, shuni inobatga olish joizki, barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Ko‘rsatkichlar esa asosan ma’lumotlar manbaida (rejalarda, me’yorlarda, hisoblarda, hisobotlarda va h.k.) o‘z aksini topadi. Obyektda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo‘li b emas, balki bir-biriga dialektik bog‘liq ravishda birdaniga sodir bo‘ladi.

[60] Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлилнинг предмети, методи ва унда ьўлланиладиган усуллар. Самарқанд, СамКИ,1999, - 3 бет. Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлилнинг назарий асослари. - Самарқанд, СамКИ, 1999, -3 бет. Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик, Самарқанд «Зарафшон» нашр - 2001.

Uning har bir jihati alohida ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Shu tufayli xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda bitta ko‘rsatkich emas, balki ko‘rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydalaniladi. Bu esa o‘z navbatida tahlil predmetini o‘rganishda ma’lumotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar sistemasiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

To‘rtinchidan, ma’lumki, jamiyatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganadigan juda ko‘p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida tahlil fani xo‘jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladi. Undagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlarga omillar ta’sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo‘jalik faoliyatini yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo‘lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to‘g‘ri baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish lozimligi ko‘rsatilgan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga o‘zining betakror predmetiga ega. Tahlilda o‘rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o‘rganilmaydi va takrorlanmaydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari taxlil fanining ham o‘ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib yildan-yilga aniqliklar kiritilib takomillashib bormoqda.

Har bir fanning nazariy qismida uning predmeti bilan birga obyekti ham o‘rganiladi. Chunki, obyekt bo‘lmagan joyda predmet bo‘lmaydi va predmet obyektsiz quruq gap bo‘lib qoladi. Shu tufayli mazkur fannig obyektiga ham tegishli e’tiborni qaratish lozimdir.

2.4. Iqtisodiy tahlilning ob’ekti

Boshqa fanlar singari iqtisodiy tahlil fanining ham obyekti bo‘lishi lozim. Ammo shu fanning nazariyasiga bag‘ishlangan eng so‘nggi adabiyotlarda[61] ham bu masala etarlicha yoritilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan obektini ko‘p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa o‘z navbatida nazariy jihatdan asossiz va chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin. Albatta ayrim olimlar adabiyotlarda (G.V.Savitskaya) iqtisodiy tahlilning obyektiga ta’rif berilgan. Faqat uning predmetidan xususiyatlarinigina keltirgan[62].

[61] Баканов М.И, Шеремет А.Д, Теория экономического анализа-М: Финанси и статистика, 1998; Теория анализа хозяйственной деятнльности. Под бош. ред. В.В.Осмольовского.Мн: Выш.шк. 1989.Каракоз И.И., Самборский В.И. Теория экономического анализа Киев: Высша школа, 1989. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Мн: ИП “Экоперспектива”, 2000.,Савицкая Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.: ИНФРА-М, 2014.Шоғиёсов Т.Ш. Комплекс иқтисодийтаҳлил. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ” нашриёти, 2009., Ваҳабов А.В., Ибрагимов Г.А., Якубов У.К. Иқтисодийтаҳлил ва аудит. Дарслик. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ” нашриёти, 2015. ва ҳ.к.

[62] Савицкая Г.В. Комплексный анализ хозяйственной деятельности предприятия. М.: ИНФРА-М, 2014. – 17- 18 бетлар.

Iqtisodiy tahlil fanining obyekti uning predmeti qaerlarda amalga oshishini ko‘rsatishi lozim. Tahlil fanining predmeti, hozirgi bozor munosabatlari sharoitda, ko‘p mulkchilikga asoslangan barcha huquqiy va jismoniy shaxslarning xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga olsa, uning obyekti ham xuddi shu jarayonlar, deb qaralmoqda. Ushbu masala bo‘yicha bir qancha olimlar fikrlaribir-biriga o‘xshash. Ammo ularning fikrlarini nazariy jihatdan tahlil qilmasdan, o‘z fikrimizni ifodalash bilan cheklanishni lozim, deb topdik. O‘quvchilar masalaning mohiyatini o‘zlari tushunib etishlariga ishonchimiz komil.

Iqtisodiy tahlilning obyekti deganda, uning qaysi makonda (xo‘jalik yurituvchi subyektlarda) amalga oshirilishi tushuniladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fanining predmeti amalga oshadigan obyektlariga davlat, jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar, trestlar, birjalar, korxonalar, firmalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar kiradi.

Mazkur obyektlarga ularning shakllanishi bo‘yicha iqtisodiy asosi nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa ular davlat, jamoa, kooperativ, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko‘rsatadigan obyektlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bugungi kunda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” asosida jadal rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu yo‘l hammaga daxldor bo‘lganligi tufayli, ushbu vazifalarni bajarishga hamma subyektlar, mulk shaklidan qat’iy nazar, ishtirok etishlari lozim. Ushbu holat ham, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo qiladi.

Obyektning (makonning) va davrning (zamonning) qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, ushbu fan predmetining mohiyati o‘zgarmasligi, obyekt esa tahlilning qaysi makonda o‘tkazilishiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti obyektidan mazmun va mohiyati jihatidan ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning predmeti va obyekti bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitiga mos holda rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, iqtisodiy tahlil fanining o‘rni va vazifasi ham erkin iqtisodiyot sharoitiga mos tarzda nazariy jihatdan hamon etarli darajada talqin qilingan emas. Bu esa mazkur muammoni ham tadqiq qilishni taqozo qiladi.

2.5. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va innovatsioniqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik

faoliyati tahlilining roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma’muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin, iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldin tahlil asosan reja ko‘rsatkichlarini asoslashga uning bajarilishini ta’minlashning sabab va oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, endilikda esa har bir xo‘jalik subyekti, mulk shaklidan qat’iy nazar, o‘z faoliyatini yuqoridan berilgan ko‘rgazmani, buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki o‘zlari mustaqil ravishda o‘zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, tahlilning rolini yanada oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir mavjud bo‘lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularning amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tufayli hozirgi hayot har qanday korxonani to‘g‘ri boshqarish uchun tahlil qilishni taqozo qiladi.

Bu maqsadlardan tahlilning vazifasi kelib chiqadi. Tahlil qilishning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari:

1) korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta’minlash va rivojlanishning konseptual yo‘nalishlarini belgilash;

2) biznes-rejaning bajarilishini, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashini, uning iqtisodiy qudratini yaxshilashini, har bir xo‘jalik subyektining raqobatbardoshligini oshirish uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o‘rganish;

3) har bir yunalishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta’sirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;

4) xo‘jalikda mavjud mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish va ularning ham natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini hamda har bir ko‘rsatkich o‘zgarishiga boshqa omillar ta’sirini baholash;

5) korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to‘lovga qodirligi va qobiliyatliligiga baho berish hamda bu natijaga erishish uchun tezkor chora-tadbirlarni qo‘llash yo‘llarini ishlab chiqish;

6) korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko‘rsata bilish va tashqi investorlarni korxona faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

7) korxonani rivojlantirishning ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha boshqaruvning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish kabilardan iboratdir.

Tahlilning birinchi vazifasi bevosita uning biznes-reja bilan bog‘liqligidan kelib chiqadi. Tahlil jarayonida bir tomondan biznes-rejaning amalga oshganligini o‘rganilsa, ikkinchidan xo‘jalik faoliyatini batafsil o‘rganib kelgusi davr uchun biznes-rejani tuzishda tegishli axborotlarni to‘plab beradi. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida xo‘jalik faoliyatining

asosiy reja ko‘rsatkichlari yuqoridan berilar edi. Shu tufayli tahlilni yuqori tashkilotlar amalga oshirib kelgan. Endi bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida vaziyat tubdan o‘zgardi. Har bir korxona o‘z faoliyati uchun o‘zi mas’ul. O‘zi rejalashtiradi, o‘zi hisobotni tuzadi va o‘zi nazorat qiladi. Bunday sharoitda korxona xo‘jalik faoliyatini yuqori tashkilot emas, balki uning o‘z mutaxassislari, menejerlari tahlil qiladi. Shu tufayli tahlilning roli va vazifasi biznes-rejani tuzishda kundan-kunga oshib bomoqda. Chunki biznes-rejaning har bir ko‘rsatkichi iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishligi tahlil orqali amalga oshiriladi. Muhimi uning bajarilishini ta’minlashga ham qaratilgandir. Shu tufayli joriy davrda ham biznes-rejaning bajarilishini tezkor tahlil qilib borishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilning ikkinchi vazifasi, bevosita korxonada biznes-rejaning bajarilishini o‘rganish bilan bog‘liq. Hozirgi paytda biznes-rejani tuzish, unga kiritiladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha qat’iy belgilangan andoza yo‘q. Bunday bo‘lishiga fikrimizcha, zarurat ham bo‘lmasa kerak. Chunki juda ko‘pchilik korxonalar bir soha bilan shug‘ullansa ham ularning ish uslubi har xil, o‘zlariga xos bo‘lishi mumkin. Bu esa oldingidek hamma korxona faoliyatiga bir xil yondoshish imkonini bermaydi. Ammo umumiy yo‘nalish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi bir-biriga yaqin bo‘lishi tabiiy. Masalan, har bir korxona yuqori rentabellikka erishishga intilishi, moliyaviy barqarorlikni ta’minlashi, o‘zining iqtisodiy qudratini yaxshilashi uchun harakat qiladi. Demak, bu tahlilningham barcha korxonalar uchun metodologik asos bo‘ladigan usullarining bo‘lishini taqozo qiladi. Shu tufayli, tahlil jarayonida biznes-rejaning bajarilish darajasini chuqur o‘rganish Shu orqali uning faoliyatiga obyektiv baho berishdek muhim vazifa ham ushbu fan zimmasiga yuklatilgan.

Biznes-rejani bajarish jarayonida ma’lum qonuniyatga ega omillar bilan birga ko‘zda tutilgan tasodifiy omillar ta’sir qilishi ham mumkin.Tahlilning uchinchi vazifasi Shu omillarni aniqlash va har birining ta’sirini hisoblashdan iboratdir. Bu esa bozor munosabatlarining shakllanish jarayonida vujudga kelgan ko‘pgina yangi ko‘rsatkichlar va omillar ta’sirini aniqlaydigan omilli tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Omilli tahlil natija ko‘rsatkichiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash yo‘li bilan Shu tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichni yaxshilashni, ichki va tashqi imkoniyatlarni aniqlash va uni kelgusi davr uchun safarbar qilish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini beradi. Hozirgi ishlab chiqarish korxonalarini davlat tomonidan moliyalashtirish asosan barham topgan bir paytda, ichki imkoniyatlarni axtarib topish va uni xo‘jalik faoliyatiga safarbar qilish tahlil orqali amalga oshiriladi.

2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da qo‘yilgan ustuvor vazifalardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi sharoitida tahlilning asosiy

vazifalaridan biri natijaga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish orqali ichki imkoniyatlarni axtarib topish va ularni xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga safarbar qilishdan iboratdir. Bunda ham nafaqat ichki omillar, balki tashqi omillardan ham foydalanish lozimligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Tahlilning to‘rtinchi vazifasi iqtisodiy jarayonlarning dialektik bog‘liqligidan kelib chiqadi. Qaysi soha bo‘lmasin, iqtisodiy jarayon sodir bo‘lishi uchun mehnat vositasi, mehnat predmeti va jonli mehnatning mujassamligi lozim bo‘ladi.Iqtisodiyotning bu elementlari samaradorligini oshirmay turib boshqa ko‘rsatkichlar miqdorining yuqori bo‘lishiga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli tahlil jarayonida moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda moddiy-texnika bazasining boshqa elementlarga to‘g‘ri kelishini ta’minlashga katta e’tibor bermoq lozim. Masalan, yuqori mehnat unumdorligiga ega bo‘lgan, ilg‘or texnologiyaga asoslangan uskuna mavjud. Lekin Shu uskunani ishlataoladigan, Shunga malakasi etarli bo‘lgan mutaxassis kerak bo‘ladi. Agar korxonada yuz kishi bo‘lsa (uning shtatida Shuncha kishi band bo‘lsa), lekin tegishli mutaxassis bo‘lmasa bunday holatda korxonaning moddiy texnika bazasi ham, mehnat resurslari ham samarasiz bo‘ladi. Shu tufayli ular bir-biri bilan dialektik bog‘liqlikda. Texnika va texnologiya takomillashdimi, demak xodimlarning malakasi ham Shunga mos ravishda oshib borishi lozim. Shundagina tegishli, ko‘zda tutilgan natijaga erishish mumkin. Aks holda qilingan tadbirlar, sarflangan harakatlar tegishli samara bermasligi tabiiy. Bu holatlarning hammasi tahlil orqali aniqlanadi va aniqlangan vaziyatdan tegishli xulosa qilinadi. Shu tufayli tahlilning roli korxonalar, ularning mulk shaklidan qat’i nazar, samaradorligini oshirishda yanada oshmoqda. Korxonaning umumiy samaradorligi bevosita uning moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarining samaradorligiga bog‘liq.

Tahlil jarayonida moddiy-mehnat va moliyaviy resurslarning samaradorligini alohida o‘rganish, ularning bir-biriga bog‘liqligini va umumiy natijaga ta’sirini ham ko‘rib chiqish lozim. Demak, tahlilning vazifasi Shu ko‘rsatkichlarni dialektik bog‘lig‘likda o‘rganish va iqtisodiy jihatdan asoslangan xulosa qilishdan iboratdir.

Tahlilning beshinchi vazifasi, korxonalarning erkin raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatayotganligidan kelib chiqadi.Hozirgi paytda tahlil asosan buxgalteriya balansidagi ma’lumotlar bilan cheklanib qolganligi tufayli uning iqtisodiy salohiyati (potensiali) to‘liq o‘rganilmayapti. Iqtisodiy potensialga buxgalteriya balansida ko‘rsatilgan asosiy va aylanma kapital hamda nomoddiy aktivlar bilan birgalikda mehnat resurslari ham kiradi. Ta’kidlanganidek, ushbu elementlar o‘zaro bog‘liq ravishda ishlatilishi uchun

moliyaviy potensialning ahamiyati katta. Iqtisodiyotning har xil bosqichida moliyaviy potensial tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin. Hozirgi bank krediti uchun to‘lanadigan foizning korxona imkoniyatlariga nisbatan balandligini inobatga olinadigan bo‘lsa korxonalar o‘z faoliyatini asosan xususiy mablag‘lari evaziga yuritgani yaxshi. Agarda iqtisodiyot barqarorlashib, pulning qadrsizlanish darajasi kamaygandan so‘ng bank kreditining foizi kamayadi va nihoyat undan foydalanish mumkin bo‘ladi.Hozirgi paytda korxona moliyaviy potensialning tarkibi, ulardan qanday foydalanilayotganligi, qanday o‘zgarishlar ko‘zda tutilayotganligi, istiqboli qanday bo‘lishi kabilarni o‘rganish hayot taqozosi. Bu esa tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli iqtisodiy tahlilning asosiy va eng muhim vazifalaridan biri korxona iqtisodiy va moliyaviy potensialiga baho berish, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish usullarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Tahlilning oltinchi vazifasi ham bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotning shakllanishi bilan vujudga keldi. Tahlil jarayonida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini moliyaviy tahlil usullarini qo‘llagan holda, undagi mavjud tijorat sirini esa boshqaruv hisobi ma’lumotlarini tahlil qilish evaziga amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tahlil orqali korxonaning moliyaviy ahvoli, uning istiqboli aniq va ravshan bo‘ladi. Barcha ijobiy natijalar bo‘lsa, albatta tashqi investorlar xabardor bo‘lishi lozim. Lekin qaysi ko‘rsatkichlarni, qachon va qanday holatda oshkor qilish muhimligini hamma ham hamisha bilavermaydi. Tashqi investorlarning kapital qo‘yilmalarini jalb qilish maqsadida faqat Shu korxonaga xos bo‘lgan ish usullarini, ba’zi faoliyat jarayoni va uning natijalarini oshkora qilmaslik kerak. Bu har bir korxonaning tijorat siri. Shu tufayli tijorat sirini oshkora qilmagan holda korxona moliya-xo‘jalik faoliyatini ko‘z-ko‘z qilish ham tahlilning asosiy vazifalaridan biridir.

Tahlilning ettinchi vazifasi, rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud edi. Ammo u paytda faoliyatning hamma sohasi, jumladan boshqaruv ham yuqoridan berilgan rejaning bajarishiga qaratilgan edi. Ko‘p hollarda asosiy reja ko‘rsatkichi bajarilar edi, ammo u korxona, davlatga qanchalik qimmatga tushayotganligi bilan hech kim qiziqmas edi. Masalan, savdo korxonalarining asosiy reja ko‘rsatkichi uning tovar oboroti. Uni boshqarish uchun hamma safarbarlik amalga oshirilardi. Lekin uning qancha xarajattalab qilishi hech kimni qiziqtirmas edi. Oqibatda, juda ko‘p savdo korxonalari tovar oborotini bajarish bilan birga faoliyat natijasi zarar bilan yakunlanar edi. Natijada yuqori tashkilotlardan uning oborot mablag‘larini “to‘ldirish” uchun juda ko‘p mablag‘ ajratilar edi. Endi bunday ishlarga barham berildi. Korxonani boshqarish yuqori tashkilot manfaatini hisobga olib emas, balki bevosita Shu subyektning manfaatidan kelib chiqqan holda amalga

oshiriladigan bo‘ldi. Bu esa har bir korxona faoliyatini o‘rganish va tahlil qilishni taqoza qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki tahlilning vazifasi ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar bilan cheklanmaydi. Korxona faoliyati serqirrali. Tahlil jarayonida uning hamma tomonlarini o‘rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasini ham ko‘p qirralidir. Shu tufayli ushbu yo‘nalishda ularning eng asosiylarini keltirdik, xolos.

Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo‘l qo‘yilmaslik chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo‘jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va uning samaradorligining oshib borishi ta’minlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo‘jalik faoliyatining uzluksiz yaxshilanib borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega ekan.

2.6. Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Olam bir butun. Undagi hodisa va jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda. Shu tufayli olamni o‘rganadigan fanlar ham bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Mamlakat miqyosida, uning har bir hududida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar ham bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Aynan ushbu jarayonlarni o‘rganadigan iqtisodiyotga oid fanlarning soni ko‘p (Iqtisodiyot nazariyasi, Makroiqtisodiyot, Mikroiqtisodiyot, Menejment, Marketing, Buxgalteriya hisobi, Audit, Moliya, Iqtisodiy tahlil kabilar). Ushbu fanlarning har biri sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy hodisa va jarayonlarning u yoki bu jihatlarini o‘rganadi. Shu tufayli ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Kuzatuvlarimiz ko‘rsatdiki, iqtisodiy tahlil fani, eng avvalo,**iqtisodiy nazariya** fani bilan bog‘liq ekan. Iqtisodiy nazariy jamiyatda sodirbo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarining ma’lum qonuniyatlarini, ularningxarakterlanish va amal qilish yo‘llarini o‘rgatadi. Bu esa uning barcha iqtisodiy fanlar uchun, jumladan iqtisodiy tahlil fani uchun ham metodologik asos ekanligini ta’minlaydi. Iqtisodiy tahlil esa, Shu qonunlarning mikroiqtisodiyot (korxona, firma, birlashma kabilar) ko‘lamida sodir bo‘lish vaamal qilish jarayonini o‘rgatadi. Bunda iqtisodiy nazariya fanining ilmiy-metodologik jihatlaridan foydalaniladi. Iqtisodiy tahlil o‘z navbatidaiqtisodiyotda sodir bo‘layotgan jarayonlarni chuqur o‘rganish bilan iqtisodiy nazariya fanining rivojlanishi uchun ham asos yaratib, tegishli axborotlarni tayyorlab beradi. Shu tufayli bu fanlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda.

Ularning bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Iqtisodiy nazariya		**Iqtisodiy tahlil**
Makro ko‘lamda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarning nazariy jihatini o‘rgatadi.	→	Mikro ko‘lamda, ya’ni xo‘ja- lik yurituvchi suyektlarda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayon- larning amaliy jihatini o‘rgatadi.

Iqtisodiy tahlil bevosita **makroiqtisodiyot** fani bilan bog‘liq. Makroiqtisodiyot fani sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarni mamlakat miqyosida, ya’ni makro darajada o‘rgatsa, uning yuksalishini ta’minlaydigan imkoniyatlar va omillarni aniqlash yo‘llarini iqtisodiy tahlil fanida o‘rganiladi. Mikroiqtisodiyotning rivojlanishi, makroiqtisodiyot rivojlanishini ta’minlaydi. Mikro darajadagi iqtisodiyotning rivojlanishidagi aniq omillar iqtisodiy tahlil jarayonida o‘rganiladi. Bu quyidagi chizmada o‘z aksini topgan:

Makroiqtisodiyot		**Iqtisodiy tahlil**
Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jara- yonlarni mamlakat miqyosida o‘rgatadi	→	Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jara- yonlarni korxona miqyosida o‘rgatadi.

Iqtisodiy tahlil fani bevosita **mikroiqtisodiyot** fani bilan ham uzviy bog‘liq. Mikroiqtisodiyot fani sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarning nazariy masalalarini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (korxonalar) miqyosida o‘rgatsa, uning rivojlanishini ta’minlaydigan imkoniyatlar va omillarni aniqlash yo‘llarining amaliy tomonlarini iqtisodiy tahlil fani o‘rgatadi. Mikroiqtisodiyot fanida mikrodarajadagi bir qancha xo‘jalik yurituvchi subyektlar tizim shaklida birdaniga o‘rganiladi. Iqtisodiy tahlilda esa iqtisodiyotning alohida subyektida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan jarayonlarni aniq omillar ta’sirida qanday o‘zgarganligini o‘rganadi. Bu quyidagi chizmada o‘z aksini topgan:

Mikroiqtisodiyot		**Iqtisodiy tahlil**
	→	

Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jara- yonlarni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, ya’ni korxonalar miqyosida masalaning naza- riy tomonlarini o‘rgatadi.		Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayon- larni korxona miqyosida aniq omillar ta’sirida qanday o‘zgarganligini va ichki imko-niyatlarni aniqlash yo‘llari-ni o‘rgatadi.

Iqtisodiy tahlil fani **buxgalteriya hisobi**fani bilan ham uzviy bog‘liq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jixatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Tahlil buxgalteriya hisobining navbatdagi bosqichi sifatida uning mantiqiy davomi bo‘lib hisoblanadi. Chunki sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarni buxgalteriya hisobida hisobga olinib, jamlanib boradi va hisobotlarda o‘z aksini topadi. Aynan ushbu ma’lumotlar iqtisodiy tahlilda batafsil o‘rganiladi. Tahlil natijasida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu qarorlarning ijrosi yana iqtisodiy jarayonlarning samarali natijalar bilan sodir bo‘lishini ta’minlaydi.Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi chizmada o‘z aksini topgan:



Buxgalteriya hisobining vazifasi buxgalteriya hisobotini tuzish, axborotlarini umumlashtirish bilan tugaydi. Shu hisobotlar va boshqa axborotlar asosida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bilan iqtisodiy tahlil shug‘ullanadi. Tahlilda xo‘jalik faoliyatining haqiqiy natijasi rejadagi, me’yorlardagi, o‘tgan davrlardagi ko‘rsatgichlar bilan solishtirilib, tegishli farqlari aniqlanadi. Unga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi, tegishli xulosa qilinib, ichki imkoniyatlar axtarib topiladi. Shu bilan tahlil o‘z vazifasini bajaradi. Ushbu jarayonni takomillashtirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma’lumotlarni iqtisodiy tayyorlab beradi. Iqtisodiy tahlil ma’lumotlariga asoslangan holda tegishli boshqaruv qarorlari qabul qilish masalasi bilan menedjerlar Shug‘ullanadi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi chizmada o‘z aksini topgan:

Iqtisodiy tahlil	**Menejment**

Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jara-yonlarni korxona miqyosida aniq omillar ta’sirida qan-day o‘zgarganligini va ichki imkoniyatlarni aniqlab te-gishli axborotlar tizimini yaratish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.	Sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jara-yonlarni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, ya’ni korxonalar miqyosida takomillashtirish va samaradorligini oshirish- ga qaratilgan boshqaruv qar-orlarini qabul qilish yo‘llarini o‘rgatadi.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi bilan ham, **boshqaruv (menejment)** bilan ham ikki yoqlama aloqada. Chunki iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi va hisobotlari ma’lumotlaridan to‘liq foydalanish bilan barcha aniq axborotlarni tayyorlab beradi. Buxgalteriya hisobotidagi asosiy ko‘rsatgichlar quruq hisobot uchun emas, balki ushbu axborotlarni tahlil qilib, shu korxona ahvolini bilish va uning samaradorligini oshirish, yashavchanligini ta’minlash uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo‘ljallangan.

O‘z navbatida iqtisodiy tahlil boshqaruvga tegishli axborotlarni etkazib, tayyorlab berish bilan birga boshqaruvdan tegishli buyurtmalarniham oladi. Iqtisodiy tahlil faqat tahlil qilish uchun emas, balki boshqaruv uchun eng zarur axborotlarni etkazib, tayyorlab berish uchundir. Shunday qilib, u buxgalteriya hisobidagi axborotlar xom ashyosini boshqaruv uchun tayyor mahsulot holiga keltirib beradi.

Yaxshi buxgalteriya hisoboti uning chiroyliligi bilan emas, balki tahliliyligi bilan belgilanadi. Tahlil uchun axborotlar aniq, tushunarli va to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Noto‘g‘ri axborotdan noto‘g‘ri xulosa chiqariladi. Noto‘g‘ri xulosa noto‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi. Oqibatda korxonaning iqtisodiy inqiroziga asoaiy sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlil fani **statistika** fani bilan ham bevosita bog‘liq. Statistika fanida iqtisodiy ko‘rsatkichlarni aniqlash usullari o‘rgatilsa iqtisodiy tahlilda shu ko‘rsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Statistik hisob va hisobot ma’lumotlari ham iqtisodiy tahlil uchun axbarot manbai bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy tahlil jarayonida birqancha statistik usulardan ham foydalaniladi.

Statistika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosan makro iqtisodiyot darajasida talqin qilsa, iqtisodiy tahlil ularni mikro iqtisodiyot darajasida o‘rganadi. Statistika yirik bir to‘plamlar, guruhlar, murakkab iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rgansa, iqtisodiy tahlil asosan yakka yaxlit olingan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o‘rganish bilan cheklanadi.

Demak, statistika va iqtisodiy tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lishi bilan birga, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega ekan.

Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi.

Statistika	→	Iqtisodiy tahlil
Makro va mezo darajadagi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash usullarini ko‘rsatib Beradi		Mikro darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilish usullarini ko‘rsatadi

Iqtisodiy tahlil fani **moliya va kredit**fani bilan ham mustahkam aloqada. Korxonalarda sodir bo’layotgan iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlash, agar o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmasa qancha kredit olish va unga qancha fayiz tulash kabi pul munosabatlari bilan moliya va kredit fani shug‘ullanadi. Ularning maqsadga muvofik ishlayotganligi, samaradorligining oshishi kabi muhim jihatlari bilan iqtisodiy tahlil fani shug‘ullanadi. Bu erda ikki fanning ham o‘rganish ob’ekti (moliyaviy mablag‘lar) bir xil. Ammo birinchisida ushbu kategoriyaning mavjudligi va ta’minoti o‘rganilsa, ikkinchisida uning ishlatilishi o‘rganiladi.

Shunigdek, mutaxassis iqtisodiy tahlil qilishi uchun moliyaviy unsurlarni, kredit munosabatlarini yaxshi bilishi lozim. O‘z navbatida korxonani moliyalashtirish, olingan kredit resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash uchun ham tahlil natijalaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Shundan ham ko‘rinib turibdiki moli va kredit iqtisodiy tahlil bilan ikki yoqlama uzviy aloqada. Shu jihatdan ham ular bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda.Bu qo‘yidagi chizmada o‘z aksini topgan.

Moliya va kredit	→ ←	Iqtisodiy tahlil
Sodir bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarni moliyalash- tirish, kredit bilan ta’minlash yo‘llarini o‘rgatadi		Korxonalar moliyaviy mablag‘lariva kredit resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini o‘rgatadi

Iqtisodiy tahlil fani **korxona iqtisodiyoti** fani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Korxona iqtisodiyotida o‘rganilgan barcha mavzular iqtisodiy

tahlilda ham o‘rganiladi. Ammo korxona iqtisodiyotida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlarning mazmuni, ularning ahamiyati va nazariy masalalari o‘rganilsa, iqtisodiy tahlil fanida ularning holatiga va natijadorligiga (samaradorligiga) baho beriladi. Korxona iqtisodiyoti fanida ham boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Bu uchun u iqtisodiy tahlil natijalaridan va usullaridan foydalanadi. Bundan tashqari korxona iqtisodiyoti fanida funksional qiymat tahlil, mantiqiy evristik tahlil, fikrlar xujumi kabi tahlilning shakllari va usullaridan ham foydalaniladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot o‘ta murakkab iqtisodiy jarayon . Bu sharoitdagi korxonaning ahvolini yaxshi o‘rganish va odilona boshqarish uchun iqtisodiy tahlil usullarini ham uzluksiz takomillashtirib berish lozim. Bu esa uningnoan’anaviy usullarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlil korxona iqtisodiyoti uchun axborot tayyorlab berarekan, unda shu fanning asosiy talab va tamoyillarini bilishni ham taqozo qiladi. Korxona iqtisodiyoti iqtisodiy tahlilning faqat natijalaridan emas, balki usullaridan ham keng foylanadi. Demak, ushbu fanlar ham bir-biri bilan ikki tomonlama uzviy bog‘liq. Bularning bog‘liqligi quyidagicha ifodalaniladi:



Iqtisodiy tahlil fani **marketing** fani bilan ham bog‘liq. Marketing iste’molchilar (bozor) talabidan kelib chiqib, ishlab chiqarish va sotishni yo‘lga qo‘yadigan tovar harakati bilan bog‘liq fan. U bozorni, undagi iste’molchilar talabini o‘rganish uchun iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Xatto ba’zi adabiyotlarda marketing faoliyatining iqtisodiy tahlilini “Markenting faoliyati tahlili” ham deb talqin qiladi. Haqiqatda esa u marketing tahlili emas, balki marketingda qo‘llaniladigan iqtisodiy tahlilning bir qismi yoki usuli bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda “Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil” fani ham paydo bo‘ldi.

Korxona faoliyati ko‘p qirrali, keng qamrovli. Uning faoliyatimazmuni jihatidan ishlab chiqarish faoliyati, moliyaviy faoliyat, ish faoliyati, bozor faoliyati kabi faoliyatlarga bo‘linadi. Ularning hamma qirralari iqtisodiy tahlilda tahlil qilinadi, o‘rganiladi. Demak, korxonaning marketing faoliyati

ham iqtisodiy tahlilning ob’ektiga kirar ekan.

Marketing faoliyatini iqtisodiy tahlil qilinar ekan, demak tahlilchi marketing sirlarini ham bilishi, marketing bilan Shug‘ullanuvchilar esa o‘z navbatida, iqtisodiy tahlil usullaridan xabardor bo‘lishi lozim. Demak, iqtisodiy tahlil fani marketing fani bilan ham uzviy bog‘liq ekan. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:



Iqtisodiy tahlil fani **Audit** fani bilan ham uzviy bog‘liq. Auditorlik tekshiruvi va audit fani bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot sharoitiga o‘tishimiz munosabati bilan kirib keldi. Shu tufayli audit bizga yangi fan sifatida o‘zimizga xos holda shakllanmoqda. CHunki dunyo tajribasi uchun audit fani yangi fan emas. U Italiya, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda XIV- XVI asrlarda qo‘llanilib boshlangan.

Hozirgi paytda audit fani O‘zbekistonda shakllanish bosqichini o‘tib asta-sekinlik bilan takomillashib bormoqda. Bu borada hali turli fikrlar mavjud. Bir guruh olimlar auditni oldingi taftish bilan tenglashtirsa, ikkinchi guruh olimlar audit bu xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish orqali unga tashxis qo‘yish deb baholamoqda. Uchinchi guruh olimlar, uni nodavlat xolisona tashkilot bo‘lib, korxonalarning moliyaviy hisobotida ifodalangan ko‘rsatkichlarning realligiga baho beradi, deb qaraydilar.

Bunday turli fikrlarga asos bor. Chunki juda ko‘p tashkilotlardagitaftish bo‘limlari auditor firmalariga aylantirilib,hamon taftish bilan Shug‘ullanmoqda. Ba’zi bir gruh auditorlar xo‘jalik faoliyatini batafsil tahlil qilib, uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga atroflicha baho berib, ichki imkoniyatlarini axtarib topib, samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bermoqdalar. Uchinchi guruh auditorlar esa xaqiqatda moliyaviy hisobotning realligini isbotlash bilangina chegaralanib qolmoqda. Yana ba’zi auditorlar borki, ular soliq va bashqa to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanganligini tekshirib Shu bo‘yicha maslahat berish bilan cheklanib qolmoqdalar. Ko‘rinib turibdiki, auditorlik amaliyoti ham va mos ravishda, uning nazariyasi ham hali to‘liq shakllangan emas.

Ammo shuni e’tirof etish kerakki, auditor o‘z xulosasini to‘g‘ri va asosli qilib berishi uchun har qanday holda ham xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishi lozim bo‘ladi. Tahlilchi ham o‘z navbatida audit talablarini, tamoyillarini bilishi kerar. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida ichki

audit va tashqi auditorlik ishlari joriy qilindi. Chunki auditor xulosasi uchun bevosita ana Shu tahlil ma’lumotlari etarli bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, audit va tahlil fanlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda. Ularning bog‘liqligi quyidagi chizmada o‘z aksini topgan.



Iqtisodiy tahlil iqtisodiyotga oid boshqa bir qancha fanlar bilan ham bog‘liq. Lekin biz uning asosiylarigagina to‘xtaldik, xalos.Shuni e’tirof etish kerakki, iqtisodiy tahlil juda ko‘p hollarda fanlar o‘rtasida ko‘prik vositasini bajaradi. Masalan, buxgalteriya hisobi bilan boshqaruv o‘rtasida, statistika, tezkor hisoblar bilan boshqaruv o‘rtasida, auditorlik xulosasi bilan davlat tashkilotlari (soliq, moliya va h.k.) o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bu jarayonlarning hammasida tahlil eng muhim hal qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Shu jihatdan iqtisodiy tahlil boshqa iqtisodiy fanlar o‘rtasida muhim va solmoqli o‘ringa ega.

Iqtisodiy tahlil **iqtisodiyotga oid bo‘lmagan bir qancha** nazariy va fundamental fanlar bilan ham uzviy bog‘liqdir.Bular o‘rtasida eng yuqori o‘rinda **falsafa** fani turadi. Falsafadagi qonunlar va kategoriyalar bevosita iqtisodiy tahlil fani uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Buni iqtisodiy tahlilning butun mazmuniga singdirilganligida ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari falsafada qarama-qarshiliklar va kurash qonuni bor. Agar uni iqtisodiyotga tadbiq etadigan bo‘lsak, korxonalar o‘rtasidagi raqobatni qiyos qilish mumkin. Raqobat korxona mahsulotining miqdori va sifatini oshiradi, uni narxini tushiradi. Bu aholi faravonligining oshishi uchun eng asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Iqtisodiy tahlilda korxonaning raqobatbardoshligi, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamligi baholanadi va o‘rganiladi, bankrotga tushib qolmaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Mustaqillik yillarida rivojlanishga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zimizga xos tarzda falsafaga yangi qonuniyat kirib keldi. Bu murosa falsafasidir. Chunki, ziddiyat bizning mentalitetimiz sharoitida xamisha ham samara beravermaydi. Ko‘p hollarda o‘zimizning sharqona, milliy qadriyatlarimizga tayanadigan bo‘lsak, murosa falsafasi muvoffaqiyat kaliti sifatida nomoyon bo‘ladi. Bu erda bir-biri bilan kurash kimningdir ustidan g‘alaba qilib, uni

yo‘q qilish haqida emas, balki bir-biriga hamkorlik qilib, yordam berishustida ketadi. Shu tufayli turli birlashmalar, uyushmalar shaklidagi klasterlar, sinergetik samara kabi tushuncha va jarayonlardan foydalanmoqdamiz.

Ko‘pmulkchilik sharoitida xususiy mulkka asoslangan erkin faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tom ma’noda davlat mulkiga asoslangan xo‘jaliklar va o‘zaro bir-biri bilan ham raqobatdadir. Ammo juda ko‘p iqtisodiy jihatdan nochor korxonalarni davlat murosaga kelib ularni sanatsiya yo‘li bilan moddiy, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab quvvatlab turdi. Bu aynan mustaqillik yillarida xususiy mulkchilikni rivojlantirish sharoitida tug‘ilgan iqtisodiyotdagi murosa falsafasiga to‘g‘ri keladi.

Korxonaning nochorligi esa aynan Shu iqtisodiy tahlil bilan aniqlanadi. Demak iqtisodiy tahlil falsafa fani bilan ham bevosita, ham bilvosita aloqada ekan. Iqtisodiy tahlilni iqtisodiy fanlar falsafasi deyish mumki, chunki iqtisodiy tahlilning har bir harakati, unda qilinadigan xulosalar falsafiy tafakkurga, mantiqiy usullarga asoslanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fani **mantiq** fani bilan ham o’zaro aloqada. Iqtisodiy tahlilning maxsus yo‘nalishi mantiqiy tahlil ham mavjud. Chunki tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi barsa omillar ham hisobga olinavermaydi. Natijada unga mantiqiy nuqtai nazardan yondoshishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari natija o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarning ketma-ketligi, tahlilning bosqichlari hamma-hammasi ma’lum mantiqiy yo‘nalishga asoslanadi.

Shu tufayli mantiq iqtisodiy tahlilda ayniqsa xulosa chiqarishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlilda mantiq usullaridan foydalanish uchun faqat bitta mantiq fani emas, balki **psixologiya**fani prinsiplaridan ham foydalanish mumkin.

Iqtisodiy tahlil fani **huquq** fani bilan ham bevosita bog‘liq. Tahlil jarayonida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan hodisa va jarayonlarning qonuniyligiga ham e’tibor qaratiladi. Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarning va ularning tegishli xujjatlarda ifodalanishining huquqiyligiga baho berishdan ham iboratdir. Shu tufayli iqtisodiy tahlil paytida albatta me’yoriy talablardan foydalaniladi. Huquq ham o‘z navbatida tahlilning ko‘p usullariga tayanadi.

Iqtisodiy jarayonlarning huquqiyligini ta’minlash uchun ham uni huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Jinoyatning ochilishiga esa asosiy usullardan biri mantiqiy tahlil usullaridir. Xullas, tahlil bilan huquq ham ma’lum darajada bir-biri bilan uzviy bog‘liq ekan.

Iqtisodiy tahlil **matematika** fani bilan ham bog‘liq. Hozirgi paytda bir tomondan iqtisodiy jarayonlar o‘ta murakkablashib bormoqda, ikkinchi tomondan esa o‘ta murakkab jarayonlarni ham o‘rganish, ularni ma’lum

tartibga solish uchun texnik imkoniyatlar ham, ayniqsa kompyuter texnologiyasi vujudga kelmoqda. Bu ikki obyektiv sharoit ham iqtisodiy tahlilda matematik usullardan keng foydalanishni taqozo qiladi. Chunki matematika ham, iqtisodiy tahlil ham sodir bo‘layotgan jarayonlarning miqdorini o‘rganishga qaratilganligi bilan bir-biriga juda yaqin fanlardir.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar asosan tez o‘zgarib turivchi miqdorlardir. Ularning o‘zgarishi, yuqorida ta’kidlanganidek, o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ularga birqancha obyektiv va subyektiv omillar ta’sir qiladi. Aynan Shu omillar ta’sirini aniqlashda matematik usullardan keng foydalaniladi.

O‘z navbatida matematika ham turli yo‘nalishlar bo‘yicha rivojlanmoqda. Eng avvalo, abstrakit dalillarga asoslangan mumtoz nazariy matematika bo‘lsa, hozirgi paytda amaliyotda keng qo‘llanilib kelinayotgan amaliy matematika ham tez rivojlanmoqda. Shu amaliy matematika boshqa sohalar bilan birga iqtisodiyot sohasini o‘rganishga ham izchillik bilan kirib kelmoqda. Bu asosan uning iqtisodiy tahlilda qo‘llanilishida nomoyon bo‘lmoqda.

Iqtisodiy tahlil fani iqtisodiyotga oid bo‘lmagan fanlardan biri **texnologiya** fani bilan ham bog‘liq. Iqtisodiy tahlil jarayonida ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda uning kamligi yoki ko‘pligi baho berilganda, bir yo‘nalish uning qanday texnologiyadan foydalanilayotganligiga bog‘liqligiga ham e’tibor qaratiladi. Ayniqsa ishlab chiqarish sohasini tahlil qilish uchun, eng avvolo, uning qanday texnologiyaga asoslanganligini bilish lozim. Shu tufayli tahlilchi, texnologiya fanini va texnologik jarayonlarning sir-sinoatlarini bilishni taqazo qiladi.

O‘z navbatida texnologik jarayon ham uzluksiz takomillashib borishni, samaradorligining oshishini talab qiladi. Bu esa uni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Shu tufayli bu ikki fan ham ma’lum darajada bir-biri bilan o‘zviy bog‘liq ekan. Masalan, hozirgi paytda ko‘p mamlakatlarda texnologik jarayonni tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun funksional- qiymat tahlilidan keng ko‘lamda foydalanmoqdalar.

Iqtisodiy tahlil matematika fanining bir yo‘nalishi bo‘lgan **dasturlash** fani bilan ham uzviy bog‘liqdir. Chunki, hozirgi paytda iqtisodiy yuksalish uchun bir xil andoza qilib bo‘lmaydi. Iqtisodiy jarayonlar qanchalik ko‘p va murakkab bo‘lsa, uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham shuncha ko‘p va murakkabdir. Shunday sharoitda har bir korxona rahbari, menejeri ko‘p variantli qarorlarni ishlab chiqara olishi va undan eng qulayini (optimalini) tanlab olishi lozim. Bunday natijaga iqtisodiy tahlilga dasturlash fanini qo‘llab erishish mumkin.

Dasturlash ham o‘z navbatida miqdoriy va mantiqiy tahlil usullaridan keng foydalanadi. Shu jihatdan bu ikki fan o‘rtasida ham o‘zviy bog‘liqlik

bor.

Iqtisodiy tahlil jarayonida ko‘p narsaning hajmini, maydonini, sadhini, og‘irligi, uzunligi, enligi kabi birliklarni o‘lchashga to‘g‘ri keladi. Bunda albatta **geometriya** fanining usullaridan foydalaniladi. Demak, iqtisodiy tahlil faqat iqtisodiy fanlar bilan emas, balki iqtisodiyotga oid bo‘lmagan bir qancha boshqa fanlar bilan ham uzviy aloqada ekan.

Iqtisodiy tahlil boshqa fanlarning usullari, tamoyillari va maqsadlaridan foydalanish bilan birga o‘zining tayyor axborotlari, usullari vayo‘nalishlari bilan shu fanlarning rivojlanishiga ham ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Olamda, tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo‘layotgan jarayonlar bir-biri bilan uzviy aloqa va bog‘liqlikda bo‘lgani kabi, ularni o‘rganuvchi turli fanlar o‘rtasida ham mustahkam bog‘liqlik va aloqalar mavjud ekan. Demak, hamma narsa dunyoda bir-biri bilan diolektik bog‘liqlikda. Bunday konsepsiya iqtisodiy tahlilning nazariy asosini tashkil qiladi.

2.7. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o‘rni

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor munosabatlarining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi,modernizatsiya va diversifikatsiya qilinishi hamda innovatsiyalardan keng foydalanishsharoitida har bir iqtisodiy hodisa va jarayonlarni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki, mulkdor iqtisodiy jarayonda asosiy subyekt sifatida ishtirok etadi. U o‘z mulkining ko‘payishidan, ko‘proq foyda olishidan manfaatdor. Bunga o‘z-o‘zidan erishib qolmaydi. Buning uchun tadbirkorlik, izchillik, ziyraklik va aql bilan ish ko‘rishi lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, mulkining holatini, ishlatilishi va saqlanishishni hamda undan samarali foydalanishni tahlil qilishni taqozo qiladi. Demak, ushbu holat ko‘rsatishicha, iqtisodiy tahlil, eng avvalo, mulkdor uchun o‘z mulkini oqilona boshqarish uchun kerakligi ayon bo‘ladi.

Mulkdor o‘z mulkini ishlatish uchun turli korxonalarga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa boshqa kishilarni, mutaxassislarni, xodimlarni yollashiga to‘g‘ri keladi. Ular mehnat jamoasini tashkil qiladi. Korxonaning yaxshi, samarali ishlashi mehnat jamoasining farovonligini ta’minlaydi. Korxona qancha ko‘p daromad qilsa, mehnat jamoasi a’zolari, shuncha ko‘p mehnat haqi oladi. Bu esa mehnat jamoasining o‘zlari ishlayotgan korxona xo‘jalik faoliyatini muntazam tahlil qilib borishni taqozo qiladi. Demak, iqtisodiy tahlil bevosita mehnat jamoasi uchun ham o‘z faoliyatini to‘g‘ri boshqarish uchun kerak bo‘ladi.

Har bir korxonaning xo‘jalik faoliyati natijasidan davlat ham manfaatdor. Chunki har bir korxona o‘z mulkidan, qilgan oboroti va olgan foydasidan soliq tulaydilar. Shu tufayli davlat nomidan soliq idoralari ham

korxona faoliyatini chuqur tahlil qilib borishdan manfaatdor. Demak, iqtisodiy tahlil soliq idoralari xodimlari uchun ham soliq tuShumini to‘g‘ri boshqarish uchun kerak ekan.

Ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy jarayonning, ya’ni korxona yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati natijasidan kim manfaatdor bo‘lsa u mazkur sub’ekt faoliyatini o‘rganishga, tahlil qilishga qiziqadi. Shunday qilib, iqtisodiy tahlil investorlarga, hamkorlarga, birlashmalarga, uyushmalarga, sug‘urta, bank, moliyakabi idoralariga ham kerakdir.

Odatda kimga nima kerak bo‘lsa o‘sha shu ish bilan shug‘ullanadi. Ammo har bir korxonada maxsus mutasaddi shaxslar borki, ularga xo‘jalikni boshqarishda u yoki bu soha topshirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil bilan korxonadagi deyarli hamma mutaxassislar shug‘ullanadi. Ammo hammasi ham korxona to‘g‘risida jamlangan batafsil axborotga ega bo‘lmaydi. Hamma o‘zi bajarayotgan u yoki bu soha bo‘yicha axborotga ega. Shu jihatdan hamma o‘zining sohasini muntazam tahlil qilib boradilar.

Lekin shuni e’tirof etish kerakki, xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida butun faoliyatni o‘zida jamlagan axborotlar buxgalteriyada moliyaviy hisobotlarda to‘planadi va qayta ishlanadi. Shu tufayli korxonaning kompleks iqtisodiy tahlili bilan buxgalteriya xodimlari, bevosita bosh buxgalterlar, menejerlar ham shug‘ullanadilar. Chunki unda korxonaning xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlari mavjud. Ular asosan moliyaviy hisobotlarda o‘z aksini topganlar. Iqtisodiy tahlil uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib moliyaviy, statistik va boshqa hisobotlarda ifoda etilgan ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ularning kompleks tahlili bilan bosh buxgalterlar shug‘ullanadi. Ammo alohida sohalari bo‘yicha tahlil kimga kerak bo‘lsa o‘shalar shug‘ullanadilar. Tahlil tahlil qilish uchun emas, balki kerakli sohani o‘rganish uchun qilinadi. Demak kimga nima kerak bo‘lsa u shu sohani tahlil qilish bilan shug‘ullanar ekan.

Iqtisodiy tahlilni tashkil qilishda uning natijalarini rasmiylashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu tufayli tahlil natijalarini rasmiylashtirish, xulosa qilish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berish ham hozirgi kundagi muhim muammolardan biridir.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish tahlilning muhim bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Bunda barcha hisob-kitoblar asosida tahliliy jadvallar tuziladi. Mazkur jadvallar korxona xo‘jalik faoliyatini to‘liq ifoda etishi lozim. Shuningdek jadvallar bitta korxonada har safar, korxonaning bo‘linmalarida bir vaqtning o‘zida yagona kelishilgan shaklda tuzilishi lozim. Bunday yondoshuv ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan solishtirish va umumlashtirish imkonini beradi.

Jadvallarda ko‘rsatkichlarning nomi, uning qaysi davrga to‘g‘ri kelishi,

ularning farqi, o‘zgarish sur’atlari kabi ifodalar ko‘rsatiladi. Jadvallar natija o‘zgarishiga omillar ta’sirini hisoblash jarayonida ham tuziladi. Bu holda jadvalning egasida ta’sir qiluvchi omillar bilan birga natija ko‘rsatkichining nomi ifodalanadi. Uning kesimida esa qaysi davr natijalari tahlil qilinayotganligi, shu davrda yuz bergan o‘zgarishlar va ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun hisob-kitob qilinadigan usullarning aloqadorligi ko‘rsatiladi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari asosan kompyuterlarda amalga oshirilmoqda. Buning imkoniyati juda katta. Shu tufayli tahlilda amalga oshirilgan hisob-kitob natijalari jadvallar bilan birgalikda turli chizmalar va diagrammalarda ham ifoda etilmoqda. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlarni juda tez ilg‘ash imkonini beradi. Mazkur usullar iqtisodiy tahlilning u yoki bu jihatini aniqlashda qo‘llaniladi. Masalan, chizmalar (grafiklar) ko‘rsatkichlarining dinamikasini ifodalashda juda qulay. Korxona xo‘jalik faoliyatidagi tarkibiy tuzilmalar, ularning o‘zgarishi diagrammalarda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Chizma va diagrammalarning qulayligi shundaki, u korxona xo‘jalik faoliyati natijasini har qanday kishi uchun ham tez va tushunarli tarzda ifoda etadi. Masalan, korxonada beshta bo‘linma bo‘lsa ularning o‘tgan yilga nisbatan birorta ko‘rsatkichning o‘sishini ustunli diagramma qilinsa eng yuqori natijaga erishganligi eng baland ustun sifatida yaqqol ko‘rinib turadi. Bu har bir bo‘linma xodimlarining aqliy-ruhiy kayfiyatiga ham ta’sir qiladi. Eng yuqori ustunga erishgan bo‘linma xodimlarida faxrlanish, mag‘rurlik hissi tug‘ilsa, eng past ustunga ega bo‘lgan bo‘linma xodimlarida o‘z jamoasi uchun istirob hissi bo‘lishi mumkin. Unisi ham bunisi ham ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun kurashish tuyg‘usini o‘yg‘otishi tabiiy. Bu ichki omillar o‘ta muhim, ortiqcha mablag‘ talab qilmaydigan, ammo korxona xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib, uni yaxshilaydigan omillardir.

Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, islohatlarning chuqurlashuvi korxonalar o‘rtasida erkin raqobat muhitini tug‘dirmoqda. Bu esa o‘z navbatida korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor tarzda kundalik natijalarni o‘rganib borishni taqozo qiladi. Bu ham hisob-kitoblarga kompyuterlarni qo‘llash natijasida ancha osonlashadi. Har kuni ish kunining oxirida xo‘jalik faoliyatining bir kunlik natijasi qanday bo‘lganligini aniqlash mumkin. Bu esa yutuq va kamchiliklarni juda tez anglash, yutuqlarni ko‘paytirish, kamchiliklarni bartaraf qilishga asos bo‘ladi. Tahlilning ushbu shakli boshqaruvni ham tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

Kunlik natijalar har kuni jamlanib borilsa hisobot davrining xoxlagan kunida qanday natijaga erishganligini bilib olish mumkin. Masalan, bir oyning o‘n oltinchi kuni qanday natijaga erishganligini kunlik hisobotni jamlab borish orqali aniqlash mumkin. Shu, 16-nchi kuni qanday natijaga

erishdik va o‘tgan 16 kun mobaynida erishgan umumiy ahvolimiz qanday degan xulosani chiqarish uchun ham tegishli axborot mazkur kompyuterda mavjud bo‘ladi. Bu esa korxona xo‘jalik faoliyatini tezkor boshqarish, kamchiliklarni o‘z vaqtida, hisobot davri tugamasdan bartaraf qilish imkonini beradi. Bu boshqarishda tahlil ma’lumotlaridan foydalanishning eng samarali yo‘llaridan biridir.

Agar korxonaning barcha bo‘linmalarida kompyuterlar o‘rnatilgan va ular yagona tarmoqga (setga) ulangan bo‘lsa boshqarishda yangi usulni, ya’ni **qog‘ozsiz va jonli muloqotsiz boshqarish usulini** joriy qilish mumkin. Korxona menejeri har bir bo‘linmadan tegishli axborotlarni olib, bir joyda umumlashtiradi va xulosa chiqaradi. Xulosa natijasida ishlab chiqarilgan chora-tadbirlar va tegishli topshiriqlarni ham kompyuter tarmog‘i orqali jo‘natish mumkin. Bu mutaxassis va bo‘linma rahbarlarining turli majlislarga, yig‘ilishlarga ketadigan vaqtini ham tejaydi.

Odatda, ish ketmagan joyda majlis ko‘proq bo‘ladi. Majlis davrida majlisda bemalol o‘tirish evaziga ish to‘xtaydi. Qilish kerak bo‘lgan ishni qilish uchun esa, vaqt majlisda o‘tirganligimiz evaziga o‘tgan bo‘ladi. Natijada bugungi ish ertaga qoladi, bajarilmagan ishlar shu tarzda to‘planib boraveradi. Shu tufayli tezkor tahlil qilib, tezkor qarorlarni qabul qilish, uning ijrosini vaqtni o‘tkazib qo‘ymasdan nazorat qilib borish evaziga ishlarning samaradorligini oshirish mumkin bo‘ladi. Buning uchun qog‘ozsiz,majlissiz, faqat axborotlar almashish evaziga faoliyat ko‘rsatishni boshqarish lozimdir.

Barcha majlislar hisobot davri tugagach tahlil natijasi asosida tezkor tarzda o‘tkaziladi. Ma’lumotlar jadvallarda, chizmalarda, turli diagrammalarda tuzilib qog‘ozga chiqariladi va mutaxassislar tomonidan yozma ravishda xulosa yoziladi. Xulosada barcha erishilgan yutuqlar bilan birga yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va qanday oqibatga olib kelganligi ko‘rsatiladi. Ayniqsa yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarda kim aybdorligi ochiq-oydin ko‘rsatilishi lozim. Chunki, bu tadbir kelajakda mazkur shaxsning shu kamchilikka yo‘l qo‘ymasligini ta’minlaydi. Qolgan tadbirlarning hammasi majlissiz amalga oshirilishi lozim.

Iqtisodiy tahlilning natijalari bo‘yicha tuzilgan barcha axborotlar, yozma xulosalar jamlanib korxona rahbariga, mulkdorga topshiriladi. Rahbar tahlil natijasiga asosan boshqaruv qarorlarini qabul qiladi. Qaror qabul qilishda bir qancha mutaxassislarni, bo‘linmalar rahbarlarini taklif qilib chuqur o‘ylangan va puxta ishlangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar korxona yirik bo‘lsa boshqaruv qarorlarini qabul qilishda «Fikrlar hujumi» usulidan ham foydalanishi mumkin[63]. Buning uchun

[63] Мазкур масала муаллифнинг «Функционал љиймат таҳлили» номли рисоласида (Самарљанд, СамКИ,1999). атрофлича ёритилган.

mazkur korxonada ijodiy guruh tashkil qilingan bo‘lishi lozim. Mazkur ijodiy guruhning vazifasi korxona xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiy tahlil natijalari boshqaruv qarorlari bilan birga auditorlarning xulosa chiqarishi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Auditorlar oldingi taftishchilardek taftish bilan emas, endilikda tahlil bilan shug‘ullanishlari lozim. Shu tufayli tahlil usullarini, uni amalga oshirish metodologiyasini buxgalterlar qancha bilsa, auditorlar ularga nisbatan ikki karra ko‘p va puxta bilishlari shart. Zero, auditorlik xulosasini chiqarish uchun faqat tahlil natijalaridan foydalanish mumkin, xolos.

Xulosa qilib aytganda, tahlil bilan boshqaruv bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini to‘ldirib boradi. Tahlil natijasisiz iqtisodiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish mumkin emas. Boshqaruv qarorlarining bajarilishini nazorat qilish ham tahlilsiz amalga oshirilsa turli chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

❖ O‘z-o‘zini tekshirish savollari

1. Iqtisodiy tahlil nima uchun zarur?
2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va ob’ekti.
3. Iqtisodiy tahlilning vazifalari.
4. Iqtisodiy tahlilning korxonani boshqarishdagi roli.
5. Iqtisodiy tahlilning ob’ektiv zarurligi va mavzuning dolzarbligi.
6. Iqtisodiy tahlil predmeti ta’rifi bo‘yicha turli olimlar qarashlari.
7. Iqtisodiy tahlil fani predmetiga O‘zbekistonlik olimlarning bergan ta’riflari talqini.
8. Iqtisodiy tahlil fani predmetining ta’rifi.
9. Iqtisodiy tahlilning ob’ekti.
10. Iqtisodiyotnimodernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari
11. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda iqtisodiy tahlilning o‘rni varoli.
12. Iqtisodiy tahlil fanining boshqa fanlarbilan bog‘liqligi
13. Iqtisodiy tahlilning korxonalarni boshqarishdagi o‘rni

III BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA METODOLOGIK ASOSLARINI TADQIQ QILISH MUAMMOLARI

3.1. Iqtisodiy tahlil metodining mazmuni bo‘yicha turli qarashlarning nazariy talqini

Metod qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, tabiat hamda jamiyatdasodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganish va bilish usulini anglatadi.Tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan xodisa va jaraenlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va aloqadordir.Shu tufayli ularning qaysi jihati o‘rganilishidan qatiy nazar tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlar bir-biri bilan bog‘liqlikda, aloqada deb qarash lozim bo‘ladi. Bunday qarashni ta’minlash uchun ularni o‘rganishga dialektik usul bilan tizimli ravishda yondoshish lozimdir. Bu esa o‘z navbatida o‘rganilayotgan barcha xodisa va jarayonlarni bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda, aloqada va doim o‘zgarishda, deb qarashni taqozo qiladi.

Xuddi shu nazariy xulosadan kelib chiqqan holda iqtisodiy tahlil fani metodining mohiyatini ochish lozim. Ammo ushbu fan metodining mohiyati nazariy jihatdan hamon to‘g‘ri hal qilingan emas. Bunga turli olimlarning turli davrlarda turlicha yondoshganligini asos qilib olish mumkin.

Tahlil fani metodiga ta’rif berish bo‘yicha olimlar bir qancha guruhlarga bo‘linadilar. Ba’zi olimlar iqtisodiy tahlil metodini tadqiq qilib, ishlab chiqarish kuchlarining ishlab chiqarish munosabatlariga to‘g‘ri kelishi va usullarning t izimi, deb qaraydilar. Masalan, E.V. Dolgopolov “Iqtisodiy tahlil metodi bu iqtisodiyotning dinamik o‘sishini, ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqarish kuchlari bilan uzviy birlikda, ularning tendensiya va qonuniyatlarini, omil va rezervlarini uzluksiz va kompleks tadqiq qilish usullari sistemasi va tomoyilidir”[64] deb ko‘rsatadi. Biroq, bu ta’rifda iqtisodiy tahlil metodining o‘ziga xos xususiyatlari ochilmasdan qolgan. Ma’lumki, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari asosan iqtisodiy nazariya fanida o‘rganiladi. Lekin mazkur mualllif tomonidan ana Shularni iqtisodiyotning qaysi bo‘g‘ini yoki darajasida o‘rganilishi ham ko‘rsatilmagan. Xo‘jalik faoliyatining tahlili, ta’kidlanganidek, mikroiqtisodiyot darajasida amalga oshiriladi. Shu fan metodining ta’rifida bu xususiyat, albatta, o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Ayrim adabiyotlarda iqtisodiy tahlil metodini o‘ta soddalashtirib, hatto uning umumiy ta’rifi ham berilmagan. Jumladan, xo‘jalik faoliyati tahlili fanining shakllanishida katta hissa qo‘shgan olimlar N.R.Veysman, S.K.Tatur, V.I.Ganshtak, I.A.Lamыkin kabilar xuddi Shunday yo‘l tutganlar.

Xususan, N.R.Veysman xo‘jalik faoliyati tahlili metodining elementlari qatoriga1) hisob ma’lumotlarini “o‘qish”; 2) ushbu ma’lumotlardan

[64] Долгополов Е.В. и др. Экономический анализ хозяйственной дея-тельности социалистических предпрятия,Киев: Висшя школа, 1938,27 бет

korxonaning va tashqi bog‘liqliklarni ochish uchun kompleks foydalanish; 3) ushbu bog‘lanishlarni o‘rganish; 4) tahlilga jalb qilingan ma’lumotlarni o‘qish; o‘lchash va bog‘liqligini aniqlash jarayonida raqamlarini solishtirish”[65] kabilarni kiritadi. Bular albatta tahlil metodining eng muhim qirralari. Lekin uning metodini to‘liq ifoda etmaydi. S.K.Tatur ham bu fanning metodini bir qancha metodlar yig‘indisidan iborat deb hisoblaydilar “... tahlilda quyidagi metodlardan, ya’ni iqtisodiy xodisalarni o‘lchaydigan, ularga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlaydigan, Shu omlllar ta’sirini xisoblaydigan (agar Shunday usullar ishlab chiqilgan bo‘lsa), omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlaydigan va ularni o‘lchaydigan usullardan foydalaniladi”[66]. S.K.Taturning keyingi asarlarida ham ushbu qarash saqlanib qolgan. Xaqiqatda tahlil jarayonida ushbu usullardan foydalaniladi. Lekin bu usullar ro‘yxati uning umumiy ta’rifining mazmunini ochib bera olmaydi. Ushbu mualliflarning sanab o‘tgan usullari ham tahlilda qo‘llaniladigan barcha usullarni qamrab olmaydi. Shu tufayli bu usullar ro‘yxatini takomillashtirish maqsadida ba’zi olimlar ularga aniqlik kiritadilar. XususanV.I.Ganshtak[67] tahlilining usullariga quyidagilarni kiritishni lozim deb hisoblaydi: “... solishtirish, ko‘rsatkichlarni ketma-ket ravishda joylashtirish, guruhlash, ko‘rsatkichlarni tashqi omillar ta’siridan tozalash, muvozanat va indeks usullari”. U xuddi Shunday ro‘yxatni I.A,Lomikin[68] ham o‘zining bir qancha adabiyotlarida keltiradilar.

Fikrimizcha, xar qanday mustaqil fan o‘ziga xos, o‘z xususiyatlarini ifodolovchi metodining ta’rifiga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu erda keltirilgan V.I.Ganshtak. I.A.Lomikin fikirlari ham tahlil metodining mazmunini to‘liq ifodalay olmaydi.

Ba’zi mualliflar (I.L.Batuxtin) xo‘jalik faoliyati tahlili metodini ikki guruhga bo‘ladi. Birinchisi uning umumiy dialektik metodi bo‘lsa, ikkinchisi alohida metodlardir deb ko‘rsatadi va bunda tahlilda, qo‘llaniladigan usullar ro‘yxatini keltiradi: “Solishtirish metodi, deduksiya, induksiya, bo‘laklarga bo‘lish, umumlashtirish, xisob-kitob, shaxsiy kuzatish, tajriba-namuna, matematik, chiziqli va muvozanat metodlari”[69].

I.L.Batuxtin ushbu ta’rifni tahlilning metodini takomillashtirish, deb talqin qiladi. Bu esa birinchidan, tahlil fani metodining ta’rifi emas, ikkinchidan, unda qo‘llaniladigan usullarning barchasi qamrab olinmagan. Masalan, ushbu ro‘yxatda keltirilgan usullardan tashqari tahlil jarayonida

[65] Вейцман Н.Р. Очерки по бухгалтерскому учети и анализу.-М: Госфиниздат, 1958.с.112-113.
[66] Татур С.К. Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий.-М: Изд-во экономическойлетиратуры, 1962. с 25.
[67] Ганштак В.И. Экономический анализ резервов на машинастроительном предприяти. -М. Машгиз, 1960.10бет.
[68] Ломикин.И.А. Анализ хозяйственной деятельности колхозов и совхозов. -М. Статистика,1975.15 бет.
[69] Батухтин.И.Л. Совершенствевание методов анализа труда и заработной плати. -М: Экаономика,1975.21 бет.

zanjirli almashtirish, qayta xisoblash, guruhlash, indeks, farqlash kabi yana bir kancha usullar qo‘llaniladi[70]. Biroq bu usullar I.L.Batuxtining tahlil fanining metodi deb hisoblangan usullar ro‘yxatiga kirmasdan qolgan. Ammo uning keltirilgan kitobida o‘zi e’tirof etmasada biz ta’kidlagan usullardan keng foydalangan.

Iqtisodiy tahlil metodiga bir qancha olimlar boshqacharoq yondoshadilar. Xususan, M.I.Bakanov[71] “Xo‘jalik jarayonlarining shakllanishi va taraqqiyotini o‘rganishga dialektik yondoshish usuli iqtisodiy tahlilning metodidir” deb ta’kidlaydi. Xuddi Shunday fikrni A.D.Sheremet[72], O.R.Kmitsikevich[73],I.I.Karakoz[74] kabi olimlar ham qo‘llab ushbu qisqa umumiy ta’rifga aniqlik kiritish uchun Shu fanning xarakterli xususiyatlariga to‘xtaydilar. Bizning fikrimizcha xo‘jalik faoliyati tahlili fanining o‘ziga xos ta’rifi ishlab chiqilmog‘i va bunda uning xarakterli xususiyatlari aniq ko‘rinib turmog‘i lozim.

Bir guruh mualliflar[75] (E.P.Jarkovskaya, K.G.Romanova, S.S.Romanova) xo‘jalik faoliyati tahlili fanini iqtisodiy fan sifatida qarab uning metodining nazariy asosi dialektik materializim bilan birgalikda siyosiy-iqtisod fani ham deb o‘qtiradilar. Ularning ta’kidlashicha: “Xo‘jalik faoliyati tahlili metodining ilmiy asosi dialektik materializm va siyosiy iqtisoddir”[76]. Bu fikrni oydinlashtirish, xo‘jalik faoliyati taxlili fani metodining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish uchun yozadilar: “Iqtisodiy tahlil xodisalarning umumiy ko‘rsatkichlarini alohida qisimlarga bo‘lish (tahlil) va xodisalarning alohida omillarini umumlashtirish (sitez) yo‘li bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadigan dialetik metodga asoslanadi”[77].

Xuddi shunday ta’rifni D.I.Derkach[78] ham qo‘llaydi. Ammo bu ta’riflarda ham tahlilning o‘ziga xos xususiyatini ifodalovchi metodning mazmuni ochib berilmagan. Tahlil metodida falsafaning analiz va sintez kategoriyalari qo‘llanilishini ko‘rsatgan xolos. Lekin ushbu fanda falsafaning bu kategoriyalaridan tashqari yana induksiya va deduksiya,sabab va oqibat kabi birqancha kategoriyalaridan ham foydalaniladi. Demak ushbu ta’rifni tahlil metodining mazmunini to‘liq ifodalaydi, deb qabul qilib bo‘lmaydi.

---

[70] Шу жойда,102,125-131, 134,143-146, 149-150 каби бетлар.
[71] Шу жойда,102,125-131, 134,143-146, 149-150 каби бетлар.
[72] Курс анализа хозяйственной деятельности.// Под.ред.С.К.Татура и А.Д.Шерматов. -М: Эканомика.1994.41бет.
[73] Кмицикевич О.Р. и.др. Анализ хозяйстевенной деятельности организаций и предприятий потребительскойкооперации -М: Эканомика 1971. 8-10 бет.
[74] Каракоз И.И. Совершенствование экономической работи и управления производством на промишленномпредприятии - Киев: Висше.шк. 1976.98-101 бет.
[75] Жарковская Е.П. и др. Анализ хозяйственной деятельности строительних организаций. (Е.П.Жарковская,К.Г.Романова, С.С.Романова -М: Стройидат, 1989.11 бет.
[76] Ўша жойда, 11 бет.
[77] Ўша жойда, 11 бет.
[78] Деркач Д.И.Анализ производственно-хозяйственной деятельности предприятий строительных организаций- М.:Финансы и статистика, 1990. 12 бет.

Juda ko‘p adabiyotlarda mualliflar rejali iqtisodiyot talabidan kelib chiqib barcha iqtisodiy ishlarni reja bajarilishiga qaratgan va tahlil metodining ta’rifsini ishlab chiqishda ham reja bajarilishini markaziy masala darajasiga ko‘targan.

Bunday olimlardan masalan, I.I.Poklad “Iqtisodiy tahlil metodi-korxona xo‘jalik faoliyatida yoki ularning yuqori bo‘g‘inlarida ko‘rsatkichlar rejasi bajarilishini bir butun va alohida qismlari bo‘yicha solishtirish, reja bajarilishi ko‘rsatkichlari darajasiga ta’siretuvchi omillarni, ichki rezervlar miqdorini aniqlash va tahlil natijasini umumlashtirishni kompleks, o‘zaro bog‘liq ravishda o‘rganishga aytiladi”[79] deb ta’rif beradilar.

Ushbu ta’rifda bir qarashda juda sodda, tushunarli va tahlil metodining barcha qirralarini qamrab olganday bo‘ladi. Ammo bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida bu ta’rif ham to‘g‘ri kelmaydi. Ta’kidlash lozimki, har qanday fan metodining ta’rifi davr yoki obyektning o‘zgarishi bilan o‘zgarmasligi kerak.

Hozirgi bosqichda reja bajarilishi asosiy ko‘rsatkich sifatida qarash o‘z mohiyatini yo‘qotdi. Tabiyki, reja bajarilishini asos qilib olgan har qanday ta’rif ham mos ravishda o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Rejali iqtisodiyot sharoitda rejani asos qilib olish mumkinku degan savolning tug‘ilish tabiiy. Ammo o‘sha davrda ham tahlil metodining ta’rifini ishlab chiqishda har qanday rejadan, yuqoridan turib boshqarishdan holi holda yondoshgan mualliflar ham talaygina. Jumladan, N.A.Xan iqtisodiy tahlil metodini qo‘yidagicha ta’riflaydi. “Iqtisodiy analiz metodi deganda ishlab chiqaruvchi kuchlardan va iqtisodiy qonunlardan foydalanish yo‘llarini o‘rganish yoki o‘rganishga yondoshishni tushunmoq kerak. Bunga xo‘jalik rezervlarini topish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llarini belgialash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlarnining tarkibiy qismlarini bo‘lib ko‘rish vositasida erishiladi”[80].

Bu ta’rif reja bajarilishi, boshqaruv harakatlarini bajarish kabi metodlarga tayanib aniq uslubiy fan sifatida yoritilgan. Bu fan metodining ta’rifsini ishlab chiqishda iqtisodiyotning birlamchi ekanligini, uning turli bo‘g‘inlari mavjudligini inobatga olish lozim edi. Ushbu ta’rif mikroiqtisodiy tahlilga nisbatan makro iqtisodiy tahlil metodini ifodalash uchun ancha yaqin. Shuningdek bu ta’rifda nazariy jihatdan ancha mavhumliklar mavjud. Bunda tahlilga xos xususiyat ochib berilmagan. Bu ta’rifni menejment, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabi fanlarga ham qo‘llash mumkin.

Bir guruh olimlar L.I. Kravchenko, P.I.Savchiev, V.I.Samborskiy tahlil fani metodi ta’rifini yozishda unga mustaqil fan sifatida yondoshish va uning

[79] Поклад И.И. Теорические основы экономического анализа работы предприятиий- М: Финансы: 1969. 28бет.

[80] Хан Н.А. Қишлоқ хўжалик корхоналари хўжалик фаолиятининг анализи. -Т:Ўқитувчи 1978. 12 бет.

xarakterli xususiyatlarini Shu fan metodining ta’rifida ochib berishga harakat qiladilar. Lekin tahlil ta’rifini nazariy jihatdan shakllantirishda har xil nuqtai nazardan qaraydildar. Masalan, V.A.Raevskiy fanning metodi “moliya xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga yondoshish”[81] deb uqtirsa,P.I.Savichev bu fanning “metodi uning aniq vazifalaridan kelib chiqadi”[82], deb ta’kidlaydilar. V.I. Samborskiy esa“boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslashini”[83] maqsad qilib quysa, L.I.Kravchenko “ish natijasini ob’ektiv baholash”[84] nuqtai nazaridan kelib chiqadi.

Bu mualliflarning tahlil metodi ta’rifiga turlicha yondoshganligi sababli bitta tuShunchani har qaysi turlicha talqin qiladi. Jumladan, P.I.Savichev xo‘jalik faoliyati tahlili metodiga quyidagicha ta’rif beradi: “Korxona ishi iqtisodiy tahlili metodi, uning aniq vazifalaridan kelib chiqadigan va xalq xo‘jaligining alohida tarmoqlari xususiyatlarini o‘zida ifodalaydigan materializtik dialektika usulidir”[85].

Ushbu ta’rifda tahlilning metodi uning vazifalariga bo‘ysindiriladi. Biroq, har qanday fanning metodi uning predmetini o‘rganishga qaratilishi lozim. Bundan tashqari “halq xo‘jaligining alohida tarmoqlari xususiyatlarini o‘zida ifodalaydigan materialistik dialektika usulidir” deyilgan. Bunda P.I. Savchievning xo‘jalik faoliyati tahlili fanining predmetidan ancha uzoqlashganligini ko‘ramiz. Bu fan predmeti asosan xalq xo‘jaligining boshlang‘ich bo‘g‘inini (mikro iqtisodiyot darajasini) o‘rganadi. Tarmoq tahlili iqtisodiy tahlilning bir turidir, xolos. Bundan tashqari tarmoq tahlilida ham tarmoqlarning alohida xususiyatlari o‘rganlimaydi, balki Shu tarmoqning ichki va tashqi imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rib chiqiladi.

Demak, P.I.Savichevning tavsiya qilgan ta’rifida xo‘jalik faoliyati tahlili metodining o‘ziga xos xususiyati mustaqil fan sifatida to‘liq va lo‘nda qilib yoritilmagan. Bunga yana bir isbot. Materialistik dialektika usulini bevosita tahlil kilish usuli deb qaraydi. Bu umumiy tushuncha, hamma fanga tegishli. Ammo bu fan metodi ta’rifsida aynan Shu fanga tegishli jihatlar yoritilishi lozim edi.

Tahlil metodi shu fan pedmetini o‘rganishga bog‘langan bo‘lishi lozim. Bu borada V.A.Raevskiy ancha to‘g‘ri yondoshgan. “Korxonaning moliya xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga yondoshish usulini tahlilning metodi deb

[81] Раевский В.А. Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятий (объеденений) Учебник. Подред. В.А.Раевского – М.: Финансы и статистика, 1988. 5 бет.
[82] Савичев И.И. Экономический анализ-орудия виявления в нутрихозяйственгных резервов- М: финансы,1968, 17 бет.
[83] Каркоз. И.И.Самборский В.И.Теория экономического анализа-Киев: Высшая школа, 1989. 37 бет.
[84] Кровченко Л.И.Анализ хозяйственной деятельности предприятий торговли и общественного питания –М.:Выс.школа, 1989. 15 бет.
[85] Савичев П.И.Экономический анализ орудие выявления внутрихозяйственных резервов- М: Финансы, 1968.17 бет.

tuShuniladi. Moliya xo‘jalik faoliyati tahlili metodi dialektikaka nazariyasiga asoslanib korxonanig faoliyatini miqdor va sifat o‘rganishdir”[86],deb ko‘rsatadi.

Biroq, ushbu ta’rifda ham xo‘jalik faoliyati biroz chegaralangan.Xususan, “korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘rganishga yondoshish”.deb ta’kidlanadi. Korxonaning xo‘jalik faoliyati moliyaviy operatsiyalardan tashqari keng ma’nodagi iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik, tashkiliy kabi jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari “dealektika nazariyasiga asoslanadi” deyilgan. Xaqiqatda tahlil metodi dialektika nazariyasiga asoslanadi va korxonaning faoliyatini o‘rganishda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanadi. Lekin V.A.Raevskiy faqat “miqdor va sifat” ko‘rsatkichlari bilan chegaralanib qoladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda bulardan tashqari yana o‘rtacha, nisbiy, reja, me’yor, kabi ko‘rsatkichlar ham qo‘llaniladi.

Demak, xo‘jalik faoliyati tahlili metodi ta’rifini takomillashishni talab qiladi, chunki amlga oshiriladigan ishlar bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot talablariga mos bo‘lmog‘i lozim. Ammo yuqorida ta’kidlangan ta’riflarda xech qanday maqsad ko‘zda tutilmagan. Maqsadsiz harakat halokatga olib keladi.

Bu borada V.I.Samborskiy tavsiya qilgan ta’rif ancha diqqatga sazovor. Bu olimning ta’kidlashicha: “Sotsialistik korxonalar ishi iqtisodiy tahlilning metodi boshqaruv qarorlarini iqtisodiy asoslash maqsadida ular faoliyatini ko‘rsatkichlar tizimi orqali o‘rganish uchun qo‘llaniladigan usul va uslublar majmuidir”[87].

Xaqiqatda bu ta’rifda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinadi, tahlilning nima maqsadda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Yana e’tiborga molik tomoni Shundaki, xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda bir qancha usul va uslublardan foydalaniladi. Aynan ana shu uslublar majmuasi tahlil metodining ta’rifsiga kiritilishi, uning mazmunini yanada to‘laroq ifodalash imkonini beradi.

Biroq, ushbu ta’rifda faqat sotsialistik, ya’ni ijtimoiy mulkka asoslangan korxonalar faoliyati inobatga olingan hamda yuqoridan turib boshqaruv usuliga moslashtirish ko‘zda tutilgan. Bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot ushbu tuShunchalarni inkor qilib, bularga yangicha yondashishni talab qilmoqda. Xususan, endilikda xo‘jalik faoliyati tahlilining obyekti faqat sotsialistik korxonalar bo‘lmasdan, balki ko‘p mulkchilikka asoslangan korxonalardir. Boshqaruvda esa, yuqoridan turib emas, bevosita iqtisodiy jarayon sodir bo‘layotgan obyektda, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektlarda amalga oshirish lozimligi ko‘zda tutilmoqda va

[86] Анализ, финансово-хозяйственной деятиельности предприятий и (обьединений): Учебник (Под.ред. В.А,Раевский) -М: Финанси и статистика,1988. 5 бет.

[87] Каркоз.И.И. Самборский В.И. Теория экономического анализа - Киев: Виша школа, 1989.37 бет.

Shunga amal qilinmoqda.

Ammo sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida ham xo‘jalik faoliyati tahlili fanining metodiga ta’rif berishda qaysi tuzum yoki qaysi mulk shaklidan qatiy nazar amal qilinishimumkinligini ko‘zda tutgan xolda, to‘g‘ri yondoshgan mualliflar ham yo‘q emas. Jumladan, L.I.Karvchenko tahlil fanining metodiga quyidagicha ta’rif beradi: “Xo‘jalik faoliyati tahlili metodi – iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishga dioliktek yondoshish, ish natijalarini ob’ektiv baholash, xo‘jalik yuritishning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va safarbar qilish, iqtisodiyotni optimal ravishda boshqarish qarorlarini qabul qilish uchun tegishli ma’lumotlar etkazib berish maqsadida korxona, uning bo‘limlari va birlashmalarining hamda xalq xo‘jaligining boshqa bo‘limlarining ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa faoliyatlarini bir-biriga bog‘liq xolda tizimli ravishda, kompleks o‘rganishdir”[88].

Ushbu ta’rifda korxona va birlashmalarning mulk shakli, reja bajarilishi, yuqoridan nazorat qilinishi kabi masalalar ifoda etilmasdan tahlil fani metodining mazmuni kengroq yoritilgan. Biroq shuni e’tirof qilish kerakki, ushbu ta’rifda tahlilning nima maqsadda amalga oshrilishi yaxshi yoritilishiga qaramasdan, uning kanday usullar bilan va qachon amalga oshirilishi ko‘rsatilmagan. Fikrimizcha, tahlil fani metodining ta’rifida bu masalalar o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Butun umri, ilmiy faoliyati va ijodini xo‘jalik faoliyati tahlili fanining shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlagan olimlardan biri S.B.Baringols iqtisodiy tahlil fanining nazariy jihatdan erishgan yutuqlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, xo‘jalik faoliyati tahlili metodi to‘g‘risida quyidagicha xulosaga keladi: “Tahlil metodi xo‘jalikda rejalarning bajarilishiga va ularning dinomikasiga ta’sir etuvchi alohida omllarni reja, hisob, hisobot va boshqa ma’lumotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlarni maxsus usullar, orqali hisoblash yo‘li bilan sistemali ravishda kompleks o‘rganish, aniqlash va umumlashtirish usulidir”[89].

Xaqiqatda, ushbu ta’rifda tahlil metodining mazmuni o‘z ifodasini topganday, chunki xo‘jalik faoliyatining barcha qirralari inobatga olingan, uning natijalari ma’lumotlar manbaida ifodalanishi ko‘zda tutilgan va ularni o‘rganish, aniqlash va umumlashtirishda qo‘llaniladigan usullar ham ta’kidlangan. Ammo ushbu ta’rifda barcha tahliliy ishlar qaysi maqsad uchun amalga oshirilishi, ularning nimaga asoslanishi, qanaqa ko‘rsatkichlarda ifodalanishi ko‘zda tutilmagan.

Bu kamchiliklar A.I.Merkushev va A.A.Merkushevlarning kitobida

[88] Карвченко Л.И. Анализ хозяйственной деятельности предприятий торговли и обшественного питания,- Мн:Висш шк.1989. 15 бет.

[89] Баринголъц С.Б. Экономической анализ хозяйственной деятельности на современном этапе развития,- М:Финанси и статистика 1984.с.57.

keltirilgan ta’rifda ancha bartaraf qilingan. Bu olimlar fikricha: “Tahlil metodi o‘z predmetini har tomonlama o‘rganish, bilish, umumlashtirish, aniqlash uchun qo‘llaniladigan usul va uslublar sistemasidan foydalanish, qonunlar, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va xo‘jalikdagi o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi ob’ektiv sabablarni (omillarni) aniqlash, foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) ochib berish va mavjud resurslardan xalq xo‘jalik rejalarini bajarish maqsadida oqilona foydalanish, iqtisodiy tejamkorlikka amal qilish orqali uning rentabelligini oshirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yanada o‘stirishdan iboratdir”[90].

Ammo ushbu ta’rifda fanning predmeti va vazifalari ham uning metodi sifatida qaralmoqda. Xususan, ob’ektiv va sub’ektiv omillar, tahlilning predmetiga kirsa, ularning natija o‘zgarishiga ta’sirini hisoblash, iqtisodiy tejamkorlikka amal qilish, rentabelikni oshirish, ijtimoiy ishlab chiqarishni yanada o‘stirish kabilar uning vazifasiga kiradi. Shu tufayli bu boradagi ilmiy kuzatuvlar davom etmoqda. Bu ayniqsa bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitda juda muhimdir.

3.2. Iqtisodiy tahlilning metodi bo‘yicha XXI-asrdagi olimlar fikrlari

XXI-asrga kelib iqtisodiy tahlil fanining metodi bo‘yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlari ham o‘ziga xos tarzda yondoshmoqda. Chunki, sotsialistik tuzum barham topib, dunyo miqyosida bozor mexanizmlariga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi ushbu masalaga o‘ziga xos tarzda yondoshishni taqozo qildi.

Iqtisodiy tahlilning metodi bo‘yicha turli olimlarning qarashlari quyidagi jadvalda keltirilgan (3.1-jadval).

3.1-jadval

Iqtisodiy tahlilning metodi bo‘yicha xorijiy va mamlakatimiz olimlarining qarashlari

T/r	**Mualliflarning ismi va sharifi**	**netodiga berilganta’riflar**	**Manba**
1.	A.F.Ivanenko	Iqtisodiy tahlilningmetodi deganda, xo‘jalik subyektlari faoliyati jarayonlarinimodel-lashtirish asosida turli usul va uslublardan foydalanib, xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlashtushuniladi.	Анализ хозяйственной деятельности на железнодорожном транспоре: учебник. М.: Marshrut, 2004. – 8 b.

[90] Меркушев А.И., Меркушев А.А., Анализ хозяйственной деятельности снобженическо сбитовых организаций. М.: Высшая школа, 1987, 12 бет.

2.	A.A.Maksyutov	Iqtisodiy tahlilning metodi deganda, biznes-rejani bajarishda sodir bo‘ladigan hodisalarni tadqiq qilishga kompleks yondoshish tushuniladi.	Экономический анализ: учебное пособие. М.: YUNITI-DANA, 2005. – 10 b.
3.	L.S.Vasileva, M.V.Petrovskaya	Iqtisodiy tahlilning asosiymetodlari: gorizantal, vertikal trend, koeffitsientlar tahlili, qiyosiy omilli tahlillardan iborat.	Экономический анализ хозяйственной деятельности: учебное пособие.М.: KNORUS, 2007. – 27-33 b.
4.	V.D.Gerasimova	Iqtisodiy tahlil metodi deganda xo‘jalik jarayonlarida sodir bo‘ladigan hodisalarni o‘zaro bog‘liqlikda va rivojla-nishda deb qarab, dialektik materializm metodiga asoslan-gan bo‘lib, mavjud qarama qarshiliklarni engishga qara-tilgan analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullarini qo‘llab o‘rganish tuShuniladi.	Анализ диагностика производственной деятельности: учебное пособие.М.: KNORUS,2008. – 19 b.
5.	V.R.Bank, S.V.Bank, A.V.Taraskina	Iqtisodiy tahlil metodi – tahliliy vazifalarni hal qil ishga yo‘naltirilgan iqtisodiy axborotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladigan tahliliy uslublar va miqdoriy metodlar majmuidir.	Финансовый анализ: учебное пособие. М.:Prospekt, 2009. – 25 b.
6.	V.V.Bocharov	Iqtisodiy tahlili metodi turli usul	Финансовый анализ
		va uslublar majmuidan iborat.	: краткий курс. Санкт-Петербург: Piter, 2009. – 17-24 betlar.
7.	V.G.Kogdenko	Buxgalterriya hisoboti iqtiso-diy tahlili metodi turli usul va uslublar majmuidan iborat.	Экономический анализ: учебное пособие. М.: YUNITI-DANA, 2009. – 25 b.

8.	V.I.Barilenko, V.V.Berdnikov, E.I.Borodina	Iqtisodiy tahlil metodi miqdoriy va sifatiy metod-larning integratsiyalaShuviga asoslanadi. Iqtisodiy tahlil ning sifatiy metodi iqtisodiy hodisa va jarayonlar o‘zaro aloqadorligi natijasi samaradorligini oshirishning foydalanilmagan va istiqboldagi imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgandir.	Экономический анализ: учебное пособие. M.:Eksmo, 2010. – 53 b.
9.	V.V.Buzыrev, I.P.Nujina	Korxonalar xo‘jalik faoliyati iqtisodiy tahlili metodi – korxonalar faoliyati haqidamavjud axborotlarni qayta ishlashda qo‘llaniladigan maxsus usullar, uslublar, metodlar majmui.	Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебник. M.: KNOR-US, 2010. – 16 b.
10.	N.V.Klimova	Iqtisodiy tahlil metodi deganda, korxonalar faoliyati natijalarini ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlash, o‘lchash va umumlashtirish yo‘li bilan kompleks o‘rganish tuShuniladi.	Экономический анализ. – SPb.:Piter, 2010. – 16 b.
11.	N.V.Voytolov-skiy, A.P.Kalinina va boshqalar	Iqtisodiy tahlil metodi deganda, korxonklarningishlab chtqarish, moliyaviy va xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda kompleks o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish hamda foydala-nilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tuShuniladi.	Экономический анализ. – SPb.:Piter, 2010. – 16 b.
12.	V.G.Artamenko, N.V.Anisimova	Iqtisodiy tahlil metodi – iqtisodiy hodisa va xo‘jalik jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishi bilish va tadqiq qilish usuli.	Экономический анализ: учебное пособие. M.: KNORUS, 2011. – 13 b.

13.	M.YU.Rahimov	Tushunchaga to‘liq ta’rif berilmagan. Moliyaviy tahlil metodi bir qancha usullardan tashkil topishini ko‘rsatgan.	Iqtisodiyot sub’-ektlari moliyaviy holatining tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisod-moliya», 2015. – 39-41 b.
14.	O.V.Efimova, M.V.Melnik, E.I.Borodina, V.V.Berdnikov	Iqtisodiy tahlil metodi –	Анализ финансовой отчетности: учебное пособие. M.: Omega-L,2013. – 58 b.
15.	G.V.Savitskaya	Xo‘jalik faoliyati tahlili metodi deganda, korxonalar samaradorligini oshirish maqsadida ularning faoliyatini tizimli, kompleks o‘rganish, baholash va umumlashtirishtuushuniladi.	Комлексный анализ хозяйственной деятельности предприятия: учебник. M.:INFRA-M, 2014. – 26 b.
16.	A.V.Vahabov, G‘.A.Ibragimov, U.K.YOqubov	Iqtisodiy tahlil metodi – xo‘jalik hayotida jarayonlarning yuzaga kelishi, o‘zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondaShuv usulidan foyda-lanib o‘rganish hisoblanadi.	Iqtisodiy tahlil va audit: darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2015. -

Mazkur jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilning ta’rifi bo‘yicha olimlarimiz bir xil to‘xtamga kelingan emas ekan. Ularni bir biriga yaqinligi nuqtai nazaridan uch guruhgabo‘lish mumkinligi ayon bo‘lmoqda.

Birinchi guruh olimlar iqtisodiy tahlil metodini turli usul va uslublar majmuidan iborat, deb baholaydi.Ikkinchi guruh olimlar esa, qtisodiy tahlili metodinikorxonalar samaradorligini oshirish maqsadida ularning faoliyatini tizimli, kompleks o‘rganish, baholash va umumlashtirish, deb tushunadi. Uchinchi guruh olimlariqtisodiy tahlil metodi, korxonklarning ishlab chiqarish, moliyaviy va xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli ravishda kompleks o‘rganish, o‘lchash va umumlashtirish hamda foydala-nilmayotgan imkoniyatlarni ishga solish yuzasidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish tushuniladi,deb uqtiradi. Ko‘rinib turibdiki bitta kategoriyaning ta’rifiga turli olimlar turlicha yondashgan.

Tahlil metodining shunday ta’rifsini yaratish lozimki, u obyektning

yokituzumning o‘zgarishi bilan o‘zgarmaydigan bo‘lsin, chunki har qanday fan, xususan, xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish fani ham qaysi tuzumdan qat’iy nazar o‘zining nazariy jihatdan asoslangan metodiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan kelib chiqib, uzoq yillar o‘tkazgan tadqiqotlarimiz natijasida xo‘jalik faoliyati tahlili metodining ta’rifini ishlab chiqishda uning birqancha talablarga javob berishi lozim degan xulosaga keldik. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. har qanday fan metodining nazariy asosi bo‘lishi kerak;
2. unda nimani o‘rganishi va uning qaerda ifodalanishi ko‘rinibturmog‘i lozim;
3. qaerni, qaysi ob’ektni va qaysi davrni o‘z ichiga olishiniifodalashi darkor;
4. nima maqsadda amalga oshirilishi ko‘rinib turishi kerak;
5. shu maqsadni amalga oshirish uchun nimalar qilishnishi alohida ta’kidlanishi lozim.

Ana shu talabga javob beradigan ta’rif, fikrimizga, xo‘jalik faoliyati tahlili metodining mazmunini to‘liq ifoda qiladi. Bu nazariy xulosadan kelib chiqib, biz iqtisodiy tahlil fanining metodiga quyidagicha ta’rif beramiz. **“Iqtisodiy tahlilning metodi diolektik metodga asoslangan bo‘lib, uning predmetini mokon va zamonda, axborotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o‘rganish, mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash, ob’ektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy kudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, boshqarishni takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladigan usullar majmuidan iboratdir”**. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rif iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlilga quyiladigan barcha nazariy va amaliy talablarga javob beradi.

Iqtisodiy tahlil fanining metodini quyidagicha asoslash mumkin.Birinchidan, u diolektik metodga asoslanganligidir. Bu bir qancha falsafiy qonunlar va kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, uning predmetini mokon va zamonda, axborotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi asosida har tomonlama kompleks o‘rganish ko‘zda tutilgan. Aniq ko‘rsatkichla tizimi, aniq va aosli xulosalar chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchu nasos bo‘ladi. Uchinchidan, xo‘jalik faoliyati tahlili natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlash masalasi ham usuvorlikni tashkil qiladi. To‘rtinchidan, o‘rganilayotgan obyektning samaradorligini oshirish, uning iqtisodiy qudratini yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash masalasiga qaratilganligi ham masalaning muhim jihatini tashkil qiladi. Beshinchidan, boshqarishni takomillashtirish maqsadida bitta yoki ikkita

emas, balki tahlil jarayonida qo‘llaniladigan barcha usullar majmuidan iboratligi qayd etilgan.

Bizning fikrimizcha,iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va innovatsiyalarni joriy qilish sharoitida iqtisodiy tahlilga qo‘yilgan barcha talablarga javob beradi.

3.3. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi va ularning tasnifi

Iqtisodiy tahlilning metodi va metodologiyasini farqlamoq lozim. **Metod** deganda asosan Shu fanning predmetini o‘rganish usuli tushuniladi.**Metodologiya** deganda, sodda qilib aytganda, Shu fanning predmetini o‘rgatish usuli bilan birga, unda qo‘llaniladigan yondoshuvlar, barcha usullar majmui tuShuniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asosi, ya’ni uni o‘rgatishda qo‘llaniladigan yondashuvlar turli yo‘nalishda bo‘lishi ta’biiy. Shu tufayli ularni, eng avvolo, to‘g‘ri tasniflash lozim bo‘ladi. Fikrimizcha, ularni o‘rganishda qanday yondoshishiga qarab ikki guruhga bo‘linadi:

O‘rganilayotgan obyektga dialektika nuqtai nazaridan yondashish.

O‘rganilayotgan obyektga tizimli uzluksizlikni ta’minlagan holda yondashish.

Birinchi yondashish bo‘yicha tahlil qilinsa barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan o‘zviy bog‘liqlikda, harakatda va doim o‘zgarishda, deb qarash lozim bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsa shuni ta’kidlash joizki, iqtisodiy jarayonlarni ifodalaydigan ko‘rsatkichlar ham bir-biri bilan o‘zviy bog‘liqlikda va o‘zgarishda deb qaraladi. Bu yondaShuv, ayniqsa, natijaviy ko‘rsatkichlarning omilli tahlilda qo‘laniladi. Ushbu yondoshuv natija ko‘rsatkichiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashda keng qo‘llaniladi.

Ikkinchi yondashuv bo‘yicha tahlil qilinganda o‘rganilayotgan ob’ektni murakkab iqtisodiy jarayonlar majmuasidan iborat deb baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o‘zoro o‘zviy bog‘liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o‘rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan xodisalarga uzluksiz ravishda sistemali tarzda yondashish lozimligini taqozo qiladi. Bunga o‘rganilayotgan ob’ektni detallashtirish, tizimlashtirish (tartiblashtirish) va umumlashtirish orqali erishish mumkin.

O‘rganilayotgan ob’ektni **detallashtirish** deganda, murakkab iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirish va ulardan to‘g‘ri va yaxlit xulosa qilish uchun ularni alohida bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish tushiniladi. Alohida bo‘laklarga bo‘lish natijasida amalga oshiriladigan jarayon tahlildan iboratdir. Chunki u yaxlit predmet yoki jarayon (hodisa)larni detallashtirish orqali amalga oshiradi.

Tizimlashtirish (tartiblashtirish)deganda, o‘rganilayotgan ob’ektni

o‘rganish uchun unga mantiqan ketma-ketlikni ta’minlagan holda tartibga solish tushiniladi. Chunki har qanday iqtisodiy jarayonlar o‘ta murakkab bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda va aloqada sodir bo‘ladi. Shu tufayli ularni har tomonlama, chuqur o‘rganish uchun ketma-ket ravishda tartiblashtirib, batafsil tahlil qilish lozim bo‘ladi. Masalan, natija ko‘rsatkichi o‘zgarsa juda ko‘p omillar ta’sir qilgan bo‘ladi. Barcha omillar natijagaijobiy yoki salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bularning ta’siri ketma-ket ravishda xisoblab chiqiladiva batafsil tahlil qilinadi. Aynan shu holat iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni, ularning o‘zgarishlarini tahlil qilishni taqozo qiladi.

O‘rganilayotgan obyektni tahlil qilgandaumumlashtirish usulidan ham foydalaniladi. **Umumlashtirish** deganda,ob’ekt yoki jarayonning barcha jihatlarini atroflicha o‘rganib, yaxlit xulosaga kelish tushiniladi. Bu xulosalar o‘rganilayotgan ob’ektni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Bular esa, tahlilning boshqaruv funksiyasidan kelib chiqadi. Boshqaruv uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda tahlil ma’lumotlaridan foydalaniladi. Yaxshi ko‘rsatkichlarni qanday saqlab qolish yo‘llari, salbiy ta’sir qilgan omillarni qanday ijobiy holatga aylantirish masalasi qarab chiqiladi. Shular orqali o‘rganilayotgan ob’ekt xaqida tegishli va asosli xulosaga kelib, boshqaruv qarorldari qabul qilinadi.

Iqtisodiy tahlilning metodologik asoslarining tasnifi qo‘yidagi chizmada keltirilgan (3.1-chizma).



3.1. - chizma. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tasnifi

Ushbu chizmada birinchi yo‘nalish bo‘yicha keltirilgan kategoriyalarning qisqacha mazmuni shundaki, o‘rganilayotgan barcha iqtisodiy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligda, harakatda va o‘zgarishda deb qaraladi. Bular tarkibiga induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, shakl va mazmun, miqdor va sifat kabi bilish nazariyasida qo‘llaniladigan kategoriyalar kiradi.

Bundagi ikkinchi yo‘nalish, bevositao‘rganilayotgan ob’ektga uzluksizlikni ta’minlagan holda tizimli yondashishdan iboratdir. O‘rganilaetgan ob’ktni murakkab iqtisodiy jaraenlar majmuidan iborat deb

baholab, ularning barcha qismlari bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqlikdaligidan kelib chiqib, ularni o‘rganishda barcha jihatlarini tartibga solgan holda yaxlit xulosaga kelguncha qilinadigan hodisalar iqtisodiy tahlilning tizimli yondoshish metodologiyasini tashkil qiladi. Bu detallashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan iborat.

Mazkur yondoshuvlar tahlil jarayonida quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: ob’ektni o‘rganish uchun axborotlar to‘plash, axborotlarni turli yondoShuvlar bo‘yicha qayta ishlash, ijobiy va salbiy xulosalarga kelish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish va bularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha nazoratni amalga oshirish. Mazkur holatning barcha bosqichlarida axborotlardan foydalaniladi. Shu tufayli tahlilning to‘g‘ri amalga oshirilishida haqqoniy axboratlarning ahamiyati katta.

3.4. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi tavsifi

Induksiya va deduksiya kategoriyalari iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu kategoriyalar iqtisodiy tahlilning ketma-ketligini ta’minlaydi. Masalan, induksiya deganda o‘rganilayotgan ob’ektning xususiylikdan umumiylikga qarab o‘rganilishi tushiniladi. Bunga misol qilib mehnat unimdorligi tahlilini olish mumkin. Unga vaqt nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak uni bir soatlik mexnat unimdorligi, bir kunlik, o‘n kunlik, bir oylik, bir choralik, yarim yillik, to‘qqiz oylik, bir yillik mehnat unimdorligi darajasigacha umumlashtirish mumkin. Yoki aynan ushbu ko‘rsatkichni makon nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, oldin bir kishining mehnat unimdorligi, bir bo‘linmaning mehnat unimdorligi va butun mehnat jamoasining umumiy mehnat unimdorligi darajasigacha o‘rganish mumkin.

Deduksiya metodida tahlil qilinayotgan ob’ekt umumiylikdan xususiylik sari, ya’ni umumiy ko‘rsatkichlardan xususiy (kichik) ko‘rsatkichlarga qarab o‘rganish tushiniladi. Bu usulga misol qilib birlashmada foyda rejasining bajarilishini olish mumkin. Ushbu ko‘rsatkich oldin butun birlashma bo‘yicha o‘rganiladi, so‘ngra uning alohida korxonalari (firmalari) bo‘yicha, ularning alohida bo‘linmalari bo‘yicha ketma-ketlikda o‘rganilib, umumiy natijaga qaysi bug‘in va bo‘linmalarning ijobiy yoki salbiy ta’sir qilganligi to‘g‘risida xulosa qilinadi.

Induksiya va deduksiya usullarining bir-biri va amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagi chizmada ifodalash mumkin:

Induksiya	**Deduksiya**

ususiylikdan umumiyliksari o‘rganish	mumiylikdan xususiyliksari o‘rganish

Makon va zamon kategoriyalari ham iqtisodiy tahlilning muhim metodologik asoslaridan biridir. Zero, barcha iqtisodiy jarayonlar makonda (xo‘jalik yurituvchi sub’ektda) ma’lum bir zamon doirasida (vaqt mobaynida) sodir bo‘ladi. Shu tufayli zamonning o‘tishi bilan makondagi natija o‘zgaradi va uning teskarisi, ya’ni makonning o‘zgarishi bilan zamon o‘tgandan keyin natija boshqacha bo‘lishi mumkin.

Masalan, makonga korxonalarni, ish joylarini, firma kabi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni misol keltirish mumkin. Bular tahlilining ob’ekti. Zamon deganda esa ularning ma’lum bir hisobot davri tushiniladi. Makonda sodir bo‘lgan jarayonlar ma’lum bir hisobot davri (zamon) o‘tgach jamlanadi va umumlashtiriladi. Bu ham Shu hisobot davrini tahlil qilish uchun ma’lumot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Makon va zamon o‘rtasidagi hamda ularning amaliyot bilan bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

MAKON	**ZAMON**
nalar, firmalar kabi xo‘jalikyurituvchi su’bektlar	davri (oy, chorak, yarimyillik va yillik)

Analiz va sintez.(Tahlil va umulashtirish) kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi. Tahlil deganda bir butun yaxlit predmetni alohida bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish tushiniladi. Umumlashtirish (sintez) esa o‘rganilayotgan ob’ekt to‘g‘risida yaxlit xulosaga kelish uchun foydalaniladi. Unda ob’ektning barcha bo‘laklari bo‘yicha qilingan xulosa umumlashtiriladi.

O‘rganilayotgan ob’ekt yoki iqtisodiy jarayon haqida yaxlit va aniq xulosaga kelishi uchun u tahlil qilinadi va barcha xulosalar umumlashtiriladi. Taxlil bor joyda umumlashtirish, umumlashtirish uchun esa tahlil qilish lozim. Shu tufayli ushbu kategoriyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda qaraladi.

Ammo shuni e’tirof etish lozimki tahlilning turi juda ko‘p. U tabiatda, jamiyatda va inson tafakkurida sodir bo‘ladigan jarayonlarni o‘rganadi. Biz o‘rganadigan tahlil iqtisodiy tahlilning faqat mikroiqtisod darajasiga mansub xolos. Demak, ko‘rinib turibdiki tahlil keng ma’noda qaralar ekan. Lekin bozorli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy tahlil, tahlillar tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Tahlil bilan umumlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlikning iqtisodiy tahlilga tegishli qismini quyidagicha ifoda etish mumkin:

Tahlil (analiz)	Umumlashtirish (sintez)
Hisobot yilining natijasi xususiylik sari: choraklari, oylari bo‘yicha o‘rganiladi.	ot yilining umumiy natijasibo‘yicha o‘rganiladi.
orxona faoliyati va uning alohida bo‘linmalari, bo‘limlarning ham qismlari bo‘yicha o‘rganiladi.	onaning umumiy natijasibo‘yicha o‘rganiladi

Sabab va oqibat kategoriyasi ham bevosita iqtisodiy tahlilning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tahlilda natija va omillar tushunchasi mavjud. Iqtisodiy faoliyat natijasini ifoda etgan birorta ko‘rsatkich natija ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Buni falsafiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak oqibatdir. Ammo shu oqibat o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Uning zamirida birqancha sabablar bor. Bu sabablarni iqtisodiy tahlilda omillar deb qaraladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (oqibat) birqancha omillarga, ya’ni hodimlar soni, ularning malakasi, mehnat unimdorligi, qo‘llanilayotgan texnalogik jarayoni, xom ashyoning o‘z vaqtida sifatli ta’minoti kabi omllarga (sabablarga) bog‘liq.

Iqtisodiy tahlilda natija o‘zgarishiga omillar ta’siri aniq ma’lumotlar asosida aniqlanadi. Demak sababning oqibatga ta’siri o‘rganiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

SABAB	OQIBAT
OMILLAR	**NATIJA**
Xodimlar soni, mehnat unumdorligi, asosiy vositalar va ular samaradorligi va h.k.	Mahsulot hajmi

Sabab oqibatga olib kelganidek, omillar ta’siri ham biror natijaga olib keladi. Ijobiy sabab yaxshi oqibat, ijobiy omil yuqori natijaga olib kelganidek, salbiy sabab yomon oqibatga, omillarning salbiy ta’siri natijaning pasayishiga olib keladi.

Shakl va mazmunkategoriyasi ham bevosita iqtisodiyotga, xususan, iqtisodiy tahlilga aloqador. Shaklning o‘zgarishi mazmun o‘zgarishiga, mazmunning o‘zgarishi shakl o‘zgarishiga olib keladi. Iqtisodiyotda ushbu bog‘liqlik juda yorqin nomoyon bo‘ladi. Masalan, ayollar sumkasining shakli chiroylik va chidamlik bo‘lishi uchun, unga qimmatbaxo materiallar, turli bezaklar ishlatiladi. Natijada uning mazmuni chidamliligi, narxining nisbatan qimatliligi bilan o‘zgaradi. Yoki oddiy material o‘rniga sifatli material ishlatib uning mazmunini boyitish kerak bo‘lsa albatta shakli ham o‘zgaradi.

Shu jihatdan iqtisodiy tahlilda shakl va mazmun bir-biri bilan uzviy dialektak aloqada bo‘lganligi bilan ham metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Masalan, biror birlashma tarkibida korxonalar soni uning shaklini tashkil qilsa, ularning nima bilan Shug‘ullanishi, qanday texnologiya ishlatilishi, qanaqa kadrlar bilan ta’minlanganligi kabi jihatlar uning mazmunini tashkil qiladi. Bular o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

Shakl	**Mazmun**
Mahsulot turi	Uning sifati, tarkibi va x.k.

Miqdor va sifat kategoriyasi ham iqtisodiy tahlilda ayniqsa iqtisodiy jarayonlar natijasini ko‘rsatkichlarda ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatkichlar mazmuni bo‘yicha miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Masalan, korxonada band bo‘lgan hodimlar soni miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, ularning mehnat unimdorligi sifat ko‘rsatkichidir. Korxonaning foydasi muhim natijaviy ko‘rsatkich. Ammo u iqtisodiy mazmuni jihatidan miqdor ko‘rsatkichi bo‘lsa, rentabellik darajasi uning sifat ko‘rsatkichidir. Yana boshqa bir misol. Jamoa xo‘jaligining bir yilda etishtirgan paxtasi 50,0 ming tonnani tashkil qildi. Bu miqdo ko‘rsatkich. Uning 60 foizi birinchi nav, 20 foizi ikkinchi, 15 foizi uchinchi va 5 foizi to‘rtinchi navga qabul qilindi. Bular paxtaning sifat ko‘rsatkichlari. Yoki yana shu paxtadan sof tolaning chiqish miqdori 35 foizni tashkil qiladi. Bu ham uning sifat ko‘rsatkichlariga misol bo‘ladi.

Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Miqdor	**Sifat**
Foyda	Rentabellik
Paxta hajmi	Tolaning chiqish darajasi

Ushbu bobda iqtisodiy tahlilning ayrim metodologik asoslariga to‘xtaldik. Falsafiy kategoriyalar hayot inikosi. Iqtisodiy jarayonlar esa ishtimoiy hayotning bir bo‘lagidir. Shu tufayli iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishga bog‘ishlangan iqtisodiy tahlil shu falsafiy kategoriyalarga asoslanadi.

IV BOB. IQTISODIY TAHLILDA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY VA MATEMATIK USULLAR HAMDA ULARNING QO'LLANILISHI

4.1 Solishtirish usuli

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda qo‘llaniladigan usullarning eng ko‘p uchraydigani solishtirish usulidir. Bu usulni qo‘llash bilan tahlil boshlanadi. Shu usul orqali tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar solishtirish natijasida aniqlangan farqni isbotlashga, aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Solishtirishda asos qilib miqdorlar olinadi. Miqdorlarga statistika fanida juda katta ahamiyat beriladi, chunki iqtisodiyotning o‘lchami miqdorlarda ifodalanadi. Jumladan, yangidan yaratilgan milliy yalpi ichki mahsulotning bir yillik miqdori, tovar oborotining (aylanmasining) miqdori, milliy daromadning miqdori va h.k.

Miqdor ko‘rsatkichlari asosan buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z ifodasini topadi, chunki sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar birinchi galda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi va hisobotida jamlanadi.

Tahlil qilish uchun miqdor ko‘rsatkichlarining barcha turlari : mutloq miqdor, nisbiy miqdor, o‘rtacha miqdor kabilar qo‘llaniladi.

Mutloq miqdor har qanday miqdorning asosi, iqtisodiy jarayonlarni sanaydigan va o‘lchaydigan boshlang‘ich raqamdir. Masalan, savdo korxonalari soni, korxonada ishlaydigan xodimlar soni, korxonadagi jihozlar soni, ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni kabilarni sanash yo‘li bilan aniqlasa, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, tovar mahsuloti, tovar oboroti kabilar bevosita o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday mutloq miqdorlar hajm ko‘rsatkichlari deb ataladi.

Mutloq miqdordan tahlilda foydalanishda asosan qo‘shish va ayirish amallari ishlatiladi.

Mutloq miqdorlar o‘lchov birligiga qarab nutura, shartli natura, pul va kompleks turlarga bo‘linadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida ko‘rsatkichlar asosan pul birligida ifodalanar edi. Endilikda pulning qadrsizlanish jarayoni davom etib turgan paytda va ko‘p mulkchilik shaklidagi iqtisodiyotning vujudga kelishi tahlil kilishda natura, shartli natura va kompleks ko‘rsatkichlardan keng foydalanish zaruratini tug‘dirdi.

Umuman olganda iqtisodiy jarayonlar ayniqsa ularni ma’lum raqamlarda ifodalash shunchalik murakkabki unda faqat bir xil o‘lchovga ega bo‘lgan ko‘rsatkich bilan cheklanib bo‘lmaydi. Shu tufayli uni tahlil qilishda bir qancha ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bularsiz tahlil qilish, umuman ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga baho berish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish qiyin. Shu bilan birgalikda faqat mutloq miqdor orqali xo‘jalik faoliyati haqida chuqur va batafsil xulosa qilish ham mumkin emas. Shu tufayli tahlil

uchun mutloq miqdor bilan birgalikda nisbiy miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

Nisbiy miqdorlar tahlil qilishda dastlabki va eng muhim xulosa chiqarish uchun asos bo‘ladi. Nisbiy miqdorlardan tahlilda foydalanishda asosan bo‘lish va ko‘paytirish usullari ishlatiladi. Bularning hajmini solishtirish va farqini aniqlash uchun ayirish amalidan foydalaniladi.

Nisbiy miqdor tahlil jarayonida asosan mutloq miqdorlarni bir-biriga bo‘lish natijasida vujudga keladi va iqtisodiy jarayonlar haqida aniq ma’lumotlarni beradi. Masalan, biror ko‘rsatkich bo‘yicha rejaning bajarilishi, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, me’yorga nisbatan erishilganlik darajasi kabilar.

Tahlil jarayonida nisbiy miqdorning nimani ifodalash mohiyatiga qarab, birqancha turlari qo‘llaniladi:

- reja topshirig‘i va bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- o‘zgarish sur’atini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- tarkibni ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- me’yorga (standartga, o‘rtachaga) nisbatan erishilgan darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor ;
- intensivlik darajasini ifodalovchi nisbiy miqdor va h. k.

Bu nisbiy miqdorlar hajmi tahlil uchun to‘laroq xulosalarni chiqarish uchun asos bo‘ladi. Masalan, reja topshirig‘i do‘konda 105 foizga bajarildi, o‘tgan yilga nisbatan korxonaning yalpi daromadi 107 foizga oshdi, shu ob’ektning umumiy tovar mahsulotidagi ulushi 15 foizni tashkil qildi, mehnat unumdorligi etalonga nisbatan 15 foizga kam bo‘ldi, tovar mahsulotining 80 foiz o‘sish sur’ati intensiv omillar evaziga vujudga keldi va h. k.

Mana shu keltirilgan har bir ko‘rsatkich tahlil qiluvchi uchun ma’lum xulosaga kelishda real asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mutloq va nisbiy miqdorlar bilan birgalikda o‘rtacha miqdorlardan ham keng foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlar tahlilda iqtisodiy xodisa va jarayonlardagi ma’lum qonuniyatlarni va umumiy yo‘nalish tendensiyalarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu miqdorni qo‘llashning zarurligi shundaki iqtisodiy jarayonlar alohida ob’ektlar bo‘yicha o‘rganilganda vaqtinchalik tasoddiflar ta’sirida bo‘lishi mumkin. Masalan, korxona chet mamalakat xom ashyosi asosida ishlaydi. Xom ashyo bir yilda to‘liq keltirildi. Bu korxonaning shu yilgi ko‘rsatkichi juda yuqori, ammo ikkinchi yilda xom ashyoni keltirish imkoni bo‘lmadi. Bu yil esa korxonaning ishlab chiqarish ko‘rsatkichi juda past bo‘lishi tabiiy. Albatta bu tasoddifiy hol, chunki ishchilarning malakasi, moddiy texnika bazasi, uning texnologik darajasi o‘zgarmasdan qolishi mumkin. Boshqa bir misol. Bir xil mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bir qancha korxona mavjud. Ammo shulardan yarmi xom ashyoni o‘z vaqtida keltirishga

muvoffaq bo‘lsa faqat ana shu korxonalar ishi yaxshi bo‘lishi mumkin. Qolgan korxonalarda faqat shu omil evaziga ishlab chiqarish darajsi past bo‘lishi tabiiy. Shunga o‘xshash tasoddiflarni bartaraf qilish uchun o‘rtacha miqdorlardan foydalaniladi.

O‘rtacha miqdorlarni aniqlashning bir qancha usullari mavjud.: o‘rtacha arifmetik, o‘rtacha garmonik, o‘rtacha xronologik kabilar. Bu usullar statistika fanining “O‘rtacha miqdorlar” bobida batafsil o‘rganiladi. Shu tufayli ushbu bobda yana o‘sha mavzuga murojaat qilishni tavsiya qilamiz.

4.2. Muvozanat usuli

Ushbu usul buxgalteriya hisobi, statistika, rejalashtirish kabi iqtisodiy ishlarda keng qo‘llaniladi. Bu usul omillar bilan natija o‘rtasida funksional bog‘lanish bo‘lganda omillar ta’sirini hisoblashda, xo‘jalik faoliyatidagi muvozanatni saqlashda qo‘llaniladi.

Muvozanat usulining qo‘llanilishi iqtisodiyotning hamma sohalarida tuziladigan tovar va boshqa moddiy boyliklar muvozanati misolida ko‘rish mumkin. Bunda asosan tovar muvozanati formulasidan foydalaniladi :

Zyb + KT = T + Xch + Zox.

Bunda Zyb - tovar zaxirasining hisobot yili boshidagi qoldig‘i ;

KT - kelib tushgan tovarlarning hisobot yilidagi hajmi;

T - tovar oboroti (hisobot davrida sotilgan ovarlarning hajmi);

Xch- tovarlarning turli sabablar bilan chiqib ketishi (tabiiy kamayishi, chirishi, sinishi va boshqalar) ;

Zox - tovar zaxiralarining hisobot yili oxiridagi qoldig‘i .

Yuqoridagi formulaga asosan har bir miqdorni qolganlarining algebraik yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Masalan, tovar oboroti hajmini quyidagi funksional bog‘liqlikda ifodalash mumkin :

T = 3yb + KT - Xch - 3ox.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki tovar oborotiga to‘rtta omila ta’sir qilgan. Tovar zaxiralarining boshlang‘ich qoldig‘i va kelib tushgan tovarlar hajmining ko‘payishi tovar oborotiga ijobiy ta’sir qilsa, tovarlarning har xil chiqimlari va tovar zaxiralarining yil oxiridagi qoldiq summasining ko‘payishi natijasiga salbiy ta’sir qiladi.

Tovarlarning yil oxiridagi qoldig‘i o‘zgarishining tovar oborotiga ta’siri (ΔTzyb) ni topish uchun tovar zaxiralarining hisobot yilidagi miqdoridan (Zyb1) shu ko‘rsatkichning asos yilidagi miqdorini (Zyb0) ayirib tashlanadi, ya’ni :

$$\Delta \text{ Tzyb} = \text{Zyb1} - \text{Zyb0} .$$

Tovar kelib tushishining tovar oboroti hajmiga ta’sirini (Δ Tkt) topish uchun uning hisobot yilidagi miqdoridan (KT1) asos yilidagi miqdori (KT0) ayirib tashlanadi, ya’ni :

$$\Delta \text{ Tkt} = \text{KT1} - \text{KT0}.$$

Tovarlarning har xil chiqib ketishining tovar oboroti hajmiga ta’sirini (Δ Txch) topish uchun uning hisobot davridagi miqdoridan (Xch1) asos davridagi miqdori ayrilib tashlanadi (Xch0) , ya’ni :

$$\Delta \text{ Txch} = \text{Xch1} - \text{Xch0}.$$

Tovar zaxirasi qoldig‘ining hisobot davri oxiridagi o‘zgarishining tovar oborotiga ta’sirini

(Δ Tzox) topish uchun, uning hisobot davridagi miqdoridan (Zox1) asos davridagi miqdori (Zox0) ayiriladi, ya’ni :

$$\Delta\text{Tzox} = \text{Zox1} - \text{Zox0}.$$

Omillar ta’siri hisobining to‘g‘riligini aniqlash uchun hamma omillar ta’sirini qo‘shish lozim. U holda umumiy farq barcha omillar ta’siriga teng bo‘ladi :

$$\Delta\text{T} = \Delta \text{ Tzyb} \pm \Delta \text{ Tkt} \pm \Delta \text{ Txch} \pm \Delta \text{ Tzox}$$

Muvozanat usulini qo‘llab natijaga omillar ta’sirini hisoblash quyidagi misolda keltirilgan (4.1-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti hajmi hisobot davrida rejadagiga nisbatan 97,2 ming so‘mga oshgan. Ushbu o‘zgarishga tovar kelib tushishining 106,3 ming so‘mga oshishi va tovarlarning har xil chiqib ketishining 0,1 ming so‘mga kamayishi tovar oborotiga ijobiy ta’sir qilgan. Boshqa omillar esa tovar oborotining o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, tovar zaxiralarining hisobot davrining boshida me’yorga nisbatan 6,2 ming so‘mga kam bo‘lishi, shu davrning oxirida esa me’yordan 3,0 ming so‘mga oshiqcha bo‘lgani tovar oborotiga salbiy ta’sir qilgan. Shunday qilib, tovar oborotining umumiy farqi 97,2 ming sum vujudga kelgan :

- 6,2 + 106,3 + 0,1 - 3,0 = + 97,2

4.1- jadval

Tovar oboroti hajmining o‘zgarishiga tovar muvozanati ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq omillar ta’sirini aniqlash.

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Rejada	Hisobot-da	Farqi (+,-)	Omillar ta’siri
1.Tovar zaxiralari-ning boshlang‘ich qoldig‘i (Zyb)	648,0	641,8	- 6,2	- 6,2
2.Kelib tushgan to-varlar (KT)	3069,8	3176,1	106,3	+ 106,3
3.Tovarlarning har xil chiqib ketishi (Xch)	0,4	0,3	- 0,1	+ 0,1
4.Tovar zaxiralari-ning oxirgi qoldi-g‘i (Zox)	695,9	698,3	+ 3,0	- 3,0
5.Tovar oboroti (T)	3021,5	3118,7	+ 97,2	x

Ushbu tahlil natijasi tovar oborotini ko‘paytirishning ichki imkoniyatlarini topish uchun asos bo‘ladi. Agar hisobot yilida tovar zaxiralarining boshlang‘ich va oxirgi g‘oldiqlari me’yor darajasida bo‘lganda edi tovar oboroti yana 9,2 ming so‘mga (6,2 + 3,0) ko‘paygan bo‘lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti 3118,7 ming so‘m emas, balki 3127,9 ming so‘mni (3118,7 + 9,2) tashkil qilgan bo‘lar edi. Uning o‘tgan yilgi yoki asos yiliga nisbatan farqi 97,2 ming so‘m emas, balki 106,4 ming so‘mni (97,2 + 9,2) tashkil qilgan bo‘lar edi. Tovar oborotining ko‘payishi evaziga boshqa ko‘rsatkichlar ham yaxshilanar edi.

4.3. Qayta hisoblash usuli

Bu usul ham omilli tahlilda keng qo‘llaniladi. Bu usul natijaga bitta yoki ikkita omil ta’sir qilgan paytlarda qo‘llanilishi qulay. Uning mohiyati rejadagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Masalan, tovar oboroti (T) asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati (Ak) va shu kapitalning samaradorligi bilan funksional bog’liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi:

$$T = Ak \cdot Ks$$

Bunda Ks- Asosiy kapitalning samaradorligi.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta’sir qiladi. Har bir omilning ta’sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olamiz. Bu birinchi omilning haqiqiy miqdorini (Ak1) ikkinchi omilning rejadagi miqdori bilan ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi(Kso), ya’ni:

$$\mathbf{Tkx = Ak_1 \,.\, Ks_o}$$

Omillarning tovar oborotiga ta’sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

1. Tovar oborotining asosiy kapitalining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (Δ Tak) topish uchun tovar oborotining qayta hisoblangan miqdoridan (Tkx) uning rejadagi hajmini ayirish kifoya (To) :

$$\mathbf{\Delta\ Tak = Tkx - T_o = (Ak_1 \,.\, Ks_o) - (Ak_o \,.\, Ks_o)}$$

2. Tovar oboroti o‘zgarishiga asosiy kapital samaradorligining ta’sirini (Δ Tks) aniqlash uchun tovar oborotining haqiqiy so‘mmasidan (T1) uning qayta hisoblangan miqdorini (Tkx) ayirish kifoya :

$$\mathbf{\Delta\ Tks = T_1 \,.\, Tkx = (Ak_1 \,.\, Ks_1) - (Ak_1 \,.\, Ks_o)}$$

Ikki omilning ta’siri tovar oboroti farqining umumiy so‘mmasiga teng bo‘lishi kerak :

$$\mathbf{\Delta\ T = \Delta\ Tak \pm \Delta\ Tks}$$

Ushbu nazariy tavsiyani aniq ma’lumotlarni qo‘llab echish yo‘lini quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin (4.2-jadval).

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 1670,0 ming so‘mga oshgan. Bu quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan :

1. Asosiy kapital o‘rtacha yillik qiymatining 132,9 ming so‘mga kamayishi tovar oboroti hajmini 213,7 ming so‘mga kamaytirdi:

4236,3 - 42850,0 = - 213,7 ming sum

2. Asosiy kapital samaradorligining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 7,1 so‘mga oshganligi tovar oboroti hajmini 1883,7 ming so‘mga oshirdi :

44520,0 - 42636,3 = + 1883,7= ming so‘m

4.2 - jadval

Tovar oboroti hajmiga asosiy kapital va ular samaradorligining ta’sirini qayta hisoblash usulini qo‘llab aniqlash.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot yilida	Qayta hisoblangan	Farqi (+,-)		
					SHu jumladan	
				Jami	Ak evaziga	Ks evaziga
Tovar oboroti, ming so‘m	42850,0	44520,0	42636,3	+1670,0	- 213,7	+1883,7
Asosiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	26664,5	26531,6	26531,6	- 132,9	x	x
Asosiy kapitalning samaradorligi, so‘m	160,7	167,8	160,7	+ 7,1	x	x

Ushbu usullar mavjud bo‘lgan ichki rezervlarni aniqlash imkonini beradi. Bizning misolimizda tovar oborotini oshirish uchun asosiy fondlarni ko‘paytirish lozimligi aniqlandi. Agarda asosiy fondlar hisobot davrida hech bo‘lmaganda o‘tgan yil hajmida qolganda edi tovar oboroti yana 132,9 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lar edi. U holda haqiqiy tovar oboroti hajmi 44520,0 ming so‘m emas, balki 44652,9 ming so‘mni (44520,0 + 132,9) tashkil qilgan bo‘lar edi. Tovar oboroti rejasining bajarilishi 103,9 % emas, (44520,0 . 100 : 42850,0), balki 104,2%ni (44652,9 . 100 : 42850,0) tashkil qilgan bo‘lar edi.

4.4. Farqlash usuli

Ushbu usul natijaga omillar ta’sirini hisoblashda keng qo‘llaniladi. Xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bunda bir ko‘rsatkich natija deb qaralsa, shunga bog‘liq bo‘lgan qolgan ko‘rsatkichlar ta’sir qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladilar.

Farqlash usulining mohiyati shundaki, natija ko‘rsatkichiga omillar ta’sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi olinib qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab asos yoki hisobot davridagi miqdori olinadi. Masalan, natija ko‘rsatkichi (tovar oboroti) bilan unga ta’sir qiluvchi omillar: xodimlarning ro‘yxatdagi soni (X) va mehnat unumdorligi (MU) o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$T = X \cdot MU$$

Ushbu formuladagi omillarning ta’sirini farqlash usuli bilan

aniqlaydigan bo‘lsak, birinchi omil, ya’ni xodimlarning ro‘yxatdagi sonining tovar oborotiga ta’sirini (ΔTx) hisoblash uchun shu omilning farqini (X1-X0) ikkinchi omil, ya’ni mehnat unumdorligining asos (reja) ko‘rsatkichiga (MU0) ko‘paytiriladi:

$$\Delta Tx = (X_1 - X_0) \cdot MU_0$$

Ikkinchi omil, ya’ni mehnat unumdorligining tovar oboroti hajmi o‘zgarishiga ta’sirini (ΔTmu) topish uchun shu omilning farqi olinadi (MU1 - MU0) birinchi omil - xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi sonining hisobot davridagi miqdoriga (X1) ko‘paytiriladi:

$$\Delta Tmu = X_1 \cdot (MU_1 - MU_0)$$

Shu ikki omilning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tmu$$

Ushbu bog‘lanishni aniq misollar yordamida ko‘rib chiqish mumkin. Bu esa tavsiya qilinayotgan nazariy hisob-kitoblarning amaliyotga qo’llanilishidan ham dalolat beredi (4.3- jadval).

4.3 - jadval

Tovar oboroti hajmiga xodimlarning ro‘yxatdagi soni va mehnat unumdorligi o‘zgarishining ta’sirini farqlash usuli bilan aniqlash yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	Reja da	Haqi-qatda	Farqi (+,-)		
			Jami	Shu jumladan	
				Xodimlar soni evaziga	Mehnat unumdor-ligi evaziga
1. Xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi soni, kishi	8038	8057	+ 19	X	X
2. Mehnat unumdorligi, so‘m	6282,0	6365,5	83,5	X	x
3. Tovar oboroti, ming so‘m	50495	51287	+792,0	+119,3	+ 672,7

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar oboroti rejaga nisbatan 792,0 ming so‘mga ko‘p bo‘lgan. Bunga quyidagi omillar ta’sir qilgan :

1. Xodimlarning o‘rtacha yillik ro‘yxatdagi sonining 19 kishiga ko‘payganligi tovar oboroti hajmini 119,3 ming so‘mga ko‘paytirgan: (19 . 6282,0 = + 119,3)

2. Hisobot yilida mehnat unumdorligining 83,5 so‘mga ko‘payishi tovar oborotini 672,7 ming so‘mga ko‘paytirishga muvoffaq bo‘lgan:
(8057 . 83,5 = + 672,7).

Ushbu ikki omil ta’siri tovar oborotining umumiy farqiga teng :
119,3 + 672,7 = + 792,0 ming so‘m.

Farqli usuli natijaga ta’sir etuvchi omillar soni uchta va undan ortiq bo‘lgan taqdirda ham, agar ular o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘paytirish bilan ifodalansa, qo‘llanilishi mumkin. U holda natijaga birinchi omilning ta’sirini topish uchun uning farqini qolgan ikki omilning rejadagi miqdoriga ko‘paytiriladi. Chiqqan natija birinchi omil ta’siri bo‘lib hisoblanadi.

Natija o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’sirini topish uchun birinchi omilning haqiqiy miqdori ikkinchi omilning farqiga va uchinchi omilning rejadagi darajasiga ko‘paytiriladi. Chiqqan natija shu omilning ta’siri bo‘lib hisoblanadi.

Natijaga uchinchi omilning ta’siri ham xuddi shu tartibda hisoblanadi. Unda birinchi va ikkinchi omillarning haqiqiy miqdoriga uchinchi omilning farqi ko‘paytiriladi. Chiqqan natija uchinchi omil ta’siri bo‘lib hisoblanadi. Misol uchun quyidagi matematik bog‘liqlikni olaylik :

$$\mathbf{T = SH . Msh . Tm}.$$

Bunda : T - tovar oboroti hajmi ;
SH - savdo shaxobchalarining o‘rtacha soni ;
Msh- har bir savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan
savdo maydoni ;
Tm - bir kv. m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan
tovar oboroti hajmi .

Tovar oboroti o‘zgarishiga savdo shaxobchalari soni o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi :

$$\mathbf{\Delta T\,sh = (SH_1 - SH_0) . Msh_0 . Tm_0}$$

Chakana tovar oborotining bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydoni o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi :

$$\Delta Tmsh = SH_1 . (Msh_1 - Msh_0) . Tm_0 .$$

Chakana tovar oboroti hajmining bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti evaziga o‘zgarishini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz :

$$\Delta Ttm = SH_1 . Msh_1 . (Tm_1 - Tm_0)$$

Odatdagidek barcha omillar ta’siri tovar oborotining umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim :

$$\Delta T = \Delta Tsh \pm \Delta Tmsh \pm \Delta Ttm$$

Yuqorida keltirilgan usulning amaliyotda qo‘llanilishini aniq ma’lumotlarni qo‘llab isbotlash mumkin (4.4-jadval).

4.4 - jadval

Tovar oborotining o‘zgarishiga savdo shaxobchalari, ularning savdo maydoni va samaradorligining ta’sirini farqlash usuli bilan aniqlash hisobi.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilda	Hisobot Yilida	Farqi (+,-)
1. Savdo shaxobchalarining soni, birlikda	128	130	+ 2
2. Bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydoni,kv.m.	4,1	4,5	+0,4
3. Bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oboroti, ming so‘m	47,34	45,17	- 2,17
4. Tovar oboroti, ming so‘m	24845,6	26425,2	+ 1579,6

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki chakana tovar oboroti hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 1579,6 ming so‘mga ko‘paygan. Bu o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

1. Savdo shaxobchalari sonining 2 taga ko‘payganligi tovar oboroti hajmini 388,2 ming so‘mga ko‘paytirgan.

2. Bitta savdo shaxobchasiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha savdo maydonining 0,4 kv.m. ga ko‘payishi tovar oborotini 2461,9 ming so‘mga oshirgan.

3. Savdo maydoni samaradorligining, ya’ni bir kv.m. savdo maydoniga to‘g‘ri keladigan tovar oborotining 2,17 ming so‘mga pasayishini tovar oboroti hajmini 1268,5 ming so‘mga kamaytirgan.

Barcha omillarning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng :

388,2 + 2461,9 - 1268,5 = + 1579,6 ming so‘m.

Ushbu omilli tahlil natijasiga asosan mazkur korxonada mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash mumkin. Bu imkoniyat savdo maydonidan samarali foydalanishdir. Agar hisobot yilida ushbu omil o‘tgan yilgi darajada bo‘lganda edi tovar oboroti yana 1268,5 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lar edi. U holda tovar oborotining haqiqiy hajmi 26425,2 ming so‘m emas, balki 27693,7 ming so‘mga teng bo‘lar edi: (26425,2 + 1268,5).

Tovar oborotining rejasi yoki o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati ham oshgan bo‘lar edi. Hisobot davrida tovar oborotining o‘sish sur’ati 6,4 foizni tashkil qildi: (26425,2 : 24845,6*100) - 100).

Agarda aniqlangan ichki rezevlardan to‘liq foydalanilganda edi hisobot yilida tovar oborotining o‘sish sur’ati 111,5 foizni tashkil qilgan bo‘lar edi:

(27697,3 : 24845,6 * 100) .

4.5. Zanjirli almashtirish usuli.

Bu usul tahlilida keng qo‘llaniladigan usullardan biridir. Natija o‘zgarishiga uchta va undan ko‘p omillar ta’sir qilsa, ular o‘rtasidagi bog‘liqlik funksional bo‘lsa ushbu usuldan foydalaniladi. Masalan, tovar oboroti (T) o‘zgarishi xodimlarning ro‘yxatdagi soni (X), ularning o‘rtacha ish kunlari (K) va bir kunlik mehnat unumdorligi (M) ko‘rsatkichlari bilan funksional bog’liqdir. Bu quyidagicha ifodalanadi:

T= X * K * M

Ushbu formula asosida natijaga uchta omil ta’sir, qilganligini ko‘ramiz. Omilli tahlilning asosiy vazifasi natijaning shu har bir omil evaziga o‘zgarishini topishdan iboratdir. Zanjirli almashtirish usulidan foydalanadigan bo‘lsak rejadagi natijani har bir omil evaziga qayta hisoblab olish lozim. Bu uchun quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Tovar oboroti hajmining xodimlarning ro‘yxatdagi soni o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini topish uchun birinchidan shu ko‘rsatkich rejasini xodimlarining ro‘yxatdagi sonining haqiqiy miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$Tx = X_1 . K_o . M_o$$

Bunda “ 1 “ va “ 0 “indekislari ko‘rsatgichlarning haqiqiy va rejadagi miqdorini ifodalaydi.

Ikkinchidan esa, shu qayta hisoblagan miqdordan rejadagi tovar oboroti ayirib tashlanadi:

$$\Delta Tx = Tx - To = (X_1 . Ko . Mo) - (Xo . Xo . Mo)$$

Bunda ΔTx - tovar oborotining xodimlarning ro‘yhatdagi sonining o‘zgarishi ta’sirida o‘zgargan qismi.

2. Tovar oborotining ikkinchi omil, ya’ni xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha ish kunining o‘zgarganligi evaziga o‘zgarishini (Δ Tk) topish uchun birinchi omil bilan hisoblongan miqdorini ikkinchi omilning miqdori bilan hisoblab olinadi:

$$Tk = X_1 . K_1 . M_0$$

Shu chiqqan natijadan birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan hisoblangan tovar oboroti hajmi olib tashlanadi:

$$\Delta Tk = Tk - Tx = (X_1 . K_1 . M_0) - (X_1 . K_0 . M_0)$$

3. Natijaning uchinchi omil - mehnat unumdorligining ta’siri evaziga o‘zgarishini topish uchun tovar oborotining haqiqiy summasidan (T1) uning ikkinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblangan (Tk) miqdori ayrilib tashlanadi:

$$\Delta T_m = T_1 - Tk = (X_1 . K_1 . M_1) - (X_1 . K_1 . M_o)$$

Bu uchta omilning ta’siri tovar oborotining umumiy farqiga (Δ T) teng bo‘lishi kerak:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tk \pm \Delta Tm$$

Keltirilgan hisob-kitoblarga aniq ma’lumotlarni qo‘llagan holda yechiladigan bo‘lsa quyidagicha jadval tuzilishi mumkin (4.5-jadval).

Ushbu jadvalga asosan tovar oborotining o‘zgarishiga omillar ta’sirini quyidagicha aniqlash mumkin.

1. Tovar oborotining xodimlar sonining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (ΔTx) topish uchun quyidagi amalni bajarish lozim. :

$$\Delta Tx = T_x - T_o = (X_1 . Ko . M) - (Xo . Ko . Mo)$$

4.5- jadval.

Natijaga omillar ta’sirini zanjirli almashtirish usuli yordamida hisoblash yo‘llari.

Ko‘rsatkichlar	Belgi-si	Reja da	Haqi-qatda	Zanjirli almashtirish		
				1	2	3
1. Xodimlarning o‘rta-cha ro‘yxatdagi soni, kishi	X	Xo	X1	X1	X1	X1
2. Har bir xodimga to‘g‘-ri keladigan ish ku-ni, kun	K	Ko	K1	Ko	K1	K1
3. Xodimlarning o‘rta-cha bir kunlik meh-nat unumdorligi, so‘m	M	Mo	M1	Mo	Mo	M1
4. Tovar oboroti, ming so‘m	T	To	T1	Tx	Tk	Tm

2. Tovar oborotining har bir xodimning o‘rtacha ish kunining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (Δ Tk) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta Tk = Tk - Tx = (X_1 . K_1 . M_0) - (X_1 . Ko . Mo)$$

3. Tovar oborotining har xodimning bir kunlik mehnat unumdorligining o‘zgarganligi evaziga o‘zgarishini aniqlash uchun quyidagi amalni bajarish lozim :

$$\Delta Tm = Tm - Tk = (X_1 . K_1 . M_1) - (X_1 . K_1 . Mo)$$

Barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$\Delta T = \Delta Tx \pm \Delta Tk \pm \Delta Tm;$$

Ushbu nazariy usulning bevosita amaliyotga qo‘llanilishini ko‘rib chiqish uchun natija ko‘rsatkichi sifatida tovar oborotini (T) olish mumkin.

Bu ko‘rsatkichga aholining soni (A), ularning o‘rtacha pul daromadlari (D) va tovar oborotining pul daromadini qamrab olish darajasi (O) ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlikni quyidagi formula bilan tasvirlash mumkin :

$$T = \frac{A \cdot D \cdot O}{100}.$$

Bu formulaga zanjirli almashtirish usulini qo‘llab har bir ko‘rsatkich bo‘yicha amaliy ma’lumotlardan foydalangan holda natijaga omillar ta’sirini aniqlash mumkin (4.6-jadval).

4.6- jadval.

Chakana tovar oborotiga aholining soni va ularning pul daromadi bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirini zanjirli almashtirish usulini qo‘llab echish yo‘llari

Ko‘rsatkichlar	Reja-Da	Haqi-qatda	Zanjirli almashtirish		
			1	2	3
Aholining o‘rtacha yillik soni, kishi	50265	50986	50986	50986	50986
Bitta aholiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha pul daromadi, so‘m	778,2	781,6	778,2	781,6	781,6
Aholi pul daromadi-ning tovar oboroti bilan qamrash dara-jasi, %	72,5	76,4	72,5	72,5	76,4
CHakana tovar oboroti, ming so‘m	28359,6	30446,3	28766,4	28892,1	30446,3

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, hisobot yilida tovar oborotining hajmi 2086,7 ming so‘mga (30446,3 - 28859,6) oshgan. Bu o‘zgarish quyidagi omillar ta’sirida sodir bo‘lgan :

1. Aholining o‘rtacha yillik soni rejaga nisbatan 721 kishiga oshganligi tovar oboroti hajmini 406,8 ming so‘mga (28766,4 - 28359,6) ko‘paytirgan.

2. Aholining o‘rtacha pul daromadi hisobot yilida 3,4 so‘mga oshgan. Bu omil tovar oborotini 125,7 ming so‘mga (28892,1 - 28766,4) ko‘paytirish imkonini bergan.

3. Pul daromadining aholiga sotilgan tovar oborotining qamrab olish darajasi 3,9% ga oshganligi umumiy tovar oboroti so‘mmasini 1554,2 ming

so‘mga (30446,3 - 28892,1) ko‘paytirgan.

Ko‘rinib turibdiki, tovar oborotining o‘zgarishiga uchala omil ham ijobiy ta’sir qilgan. Natijada umumiy farq kelib chiqadi :

406,8 + 125,7 + 1554,2 = + 2086,7 ming so‘m.

Zanjirli almashtirish usulidan faqat ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘paytma shaklidagina emas, balki bo‘linma shaklidagi bog‘lanishlarda ham foydalanish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichini olaylik. Bu quyidagicha bog‘liqlikka ega :

$$\Delta Rf = \left(\frac{F_1}{Ak_o + Am_o}\right) - R_o$$

Bunda R - rentabellik darajasi ; F - foyda so‘mmasi ;

Ak - asosiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymati ;

Am - aylanma kapitalning o‘rtacha yillik qiymati.

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki rentabellik darajasiga uchta omil : foyda so‘mmasi, asosiy kapital, aylanma kapitallarning o‘zgarishlari ta’sir qiladi. Rentabellik darajasiga foyda so‘mmasining ta’sirini (ΔRf) zanjirli almashtirish usuli bilan hisoblash uchun rentabellik darajasini foyda so‘mmasining haqiqiy darajasi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining rejadagi miqdori ayriladi :

$$\Delta Rf = \left(\frac{F1}{Ako + Amo}\right) - Ro$$

Rentabellik darajasining asosiy kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini (ΔRak) aniqlash uchun rentabellik darajasini asosiy kapitalning o‘zgarishi bilan qayta hisoblanadi va undan rentabellik darajasining foyda so‘mmasi bilan qayta hisoblangan miqdori ayriladi :

$$\Delta Rak = \left(\frac{F_1}{Ak_1 + Am_o}\right) - \left(\frac{F_1}{Ak_o + Am_o}\right);$$

Rentabellik darajasiga aylanma kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasi o‘zgarishining ta’sirini (ΔRam) aniqlash uchun rentabellik darajasining haqiqiy miqdoridan uning asosiy kapitalning o‘zgarishi bilan qayta hisoblangan hajmini ayirib tashlaydi :

$$F_1$$

$$\Delta Ram = R_1 - \left(\frac{\quad}{Ak_1 + Am_0}\right)$$

Bunda ham barcha omillar ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi kerak:

$$\Delta R = \Delta Rf \pm \Delta Rak \pm \Delta Ram$$

Ushbu bog‘lanishni aniq ma’lumotlarni qo‘llagan holda zanjirli almashtirish usulini qo‘llab yechilishini ko‘rish mumkin (4.7-jadval).

4.7 - jadval.

Rentabellik darajasiga foyda, asosiy va aylanma kapitallar o‘zgarishining ta’sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash yo‘llari

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan Yilda	Hisobot yi-lida	Zanjirli almashtirishlar		
			1	2	3
1. Foyda, ming so‘m	51,7	62,7	62,7	62,7	62,7
2. Asosiy kapital-ning o‘rtacha qiyma-ti, ming so‘m	985,6	997,2	985,6	997,2	997,2
3. Aylanma kapital-ning o‘rtacha qiyma-ti , ming so‘m	245,0	231,5	245,0	245,0	231,0
4. Rentabellik dajasi, %	0,042	0,051	0,051	0,050	0,051

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, rentabellik darajasi hisobot yilida 0,009 % ga oshgan (0,051 - 0,042) . Bu o‘zgarish quyidagi omillar evaziga vujudga kelgan :

1. Foyda so‘mmasining 11,0 ming so‘mga (62,7 - 51,7) ko‘payishi rentabellik darajasini 0,009 % ga (0,051 - 0,042) oshirgan.

2. Asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati hisobot davrida o‘tgan yilga nisbatan 11,2 ming so‘mga oshgan (997,2 - 985,6) . Ammo bu tegishli samara bermagan. Oqibatda rentabellik darajasi 0,001 % ga (0,050 - 0,051) kamaygan.

3. Aylanma kapitalning o‘rtacha yillik so‘mmasi tahlil davrida 13,5 ming so‘mga (231,5 -245,0) kamaygan. Bu o‘z navbatida aylanma kapital bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p omillar, xususan xarajatlarning kamayishiga olib kelgan. Oqibatda, rentabellik darajasi 0,001 % ga oshgan (0,051 - 0,050).

Barcha omillar ta’sirida rentabellik darajasining umumiy farqi kelib chiqadi: 0,009 - 0,001 + 0,001 = + 0,009.

Shunday qilib, ta’kidlash lozimki, xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda zanjirli almashtirish usuli keng qo‘llaniladi. Eng muhimi bu usul ham boshqa usullar singari ichki imkoniyatlarni (rezervlarni) aniqlashga yordam beradi. Masalan, bizning oxirgi misolimizda ko‘rinib turibdiki korxonaning

rentabelligini oshirish uchun asosiy kapitalning samaradorligini oshirish lozim ekan.

4.6. Nisbiy miqdorlardan foydalanish usuli.

Bu usul ham omilli tahlilda keng qo‘llaniladi, chunki amalda mutloq raqamlar bilan birgalikda nisbiy miqdorlarning qo‘llanilishi ham tez uchrab turadilar.

Nisbiy miqdordan foydalanish usulining mohiyati natijaga omillar ta’sirini aniqlashda ularning nisbiy o‘zgarishi natijaning nisbiy o‘zgarishidagi ulushida ifodalanishidir. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi yalpi mahsuloti hajmi (M), ishchilar soni (I) va ularning mehnat unumdorligi darajasiga (MU) bog‘liq. Bu quyidagi formulada ifodalandi :

$$M = I \times MU$$

Nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish uchun ushbu formuladagi natija va omillarning o‘sish sur’atlari olinadi. Hisob-kitoblarda ana shu nisbiy ko‘rsatkichlar ishtirok etadi. Masalan, yalpi mahsulotning ishchilar sonining o‘zgarishi evaziga o‘zgarganligini topish uchun ishchilar sonining o‘sish sur’atini (ΔI) yuzga ko‘paytirib yalpi mahsulotning o‘sish sur’atiga bo‘linadi (ΔM) :

$$\Delta Mi = \frac{\Delta I \cdot 100}{\Delta M}$$

Natijaga ikkinchi omilning - mehnat unumdorligining ta’sirini (ΔMmu) aniqlash uchun yuzdan shu chiqqan natija miqdori, ya’ni birinchi omilning natijaga ta’siri ayriladi :

$$\Delta Mmu = 100 - \frac{\Delta I \cdot 100}{\Delta M}$$

Odatdagidek ikki omilning umumiy ta’siri natija o‘zgarishiga teng bo‘lishi kerak. Bu holda ikki omil ta’siri 100 ga teng bo‘ladi.

Masalan, yalpi mahsulot hisobot davrida 20 % ga, ishchilar soni esa 4 % ga oshdi. Bu holda yalpi mahsulotning ishchilar soni evaziga o‘zgarganligi 20 % ni tashkil qiladi :

$$\left(\frac{4 \cdot 100}{20}\right)$$

Natijaning mehnat unumdorligi evaziga o‘zgarganligi 80 % ni (100 - 20) tashkil qiladi.

Bu usulni aniq ma’lumotlarni qo‘llab quyidagi javdal misolida ham ko‘rish mumkin (4.8.-jadval).

4.8- jadval

Nisbiy miqdolardan foydalanish usulini qo‘llab natijaga omillar ta’sirini hisoblash.

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan Yilda	Hisobot yilida	O‘sish sur’ati
1. Yalpi mahsulot, ming so‘m (M)	29450	30245	102,7
2. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni, kishi (I)	1980	2010	101,5
3. Mehnat unumdorligi, ming so‘m (MU)	14,9	15,0	100,7

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmining o‘tgan yilga nisbatan 2,7 % ga oshganligini ishchilarning 1,5 % ga ko‘payganligi va mehnat unumdorligining 0,7 % ga oshganligi evaziga vujudga kelgan. Bularning nisbiy ko‘rsatkichdagi ta’siri quyidagicha :

1. Yalpi mahsulotning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’atini 100 % ga teng deb olsak, uning 55,6 % (1,5 . 100 : 2,7) ishchilar sonining ko‘payishi evaziga sodir bo‘lgan.

2. Yalpi mahsulot o‘sishining 44,4 % (100-55,6) mehnat unumdorligi oshishi evaziga vujudga kelgan.

Ushbu amallarni bajarib bo‘lgandan so‘ng natijaga omillar ta’sirini mutloq miqdorda ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda yalpi mahsulot hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 795,0 ming so‘mga (30245 - 29450) oshgan. Shundan 442,0 ming so‘mi (795,0 . 55,6 : 100) xodimlar sonining ko‘payganligi evaziga vujudga kelgan. Mehnat unumdorligi oshganligi evaziga yalpi mahsulot hajmi 353,0 ming so‘mga (795,0 * 44,4 : 100) ko‘paygan. Ikki omil ta’siri umumiy natijani beradi, ya’ni :

442,0 + 353,0 = + 795,0 ming so‘m.

4.7. Indeks usuli

Bu usul statistika nazariyasi fanida batafsil yoritilgan. Tahlil fani buxgalteriya uchyoti va statistika fanlari asosida vujudga kelganligini oldingi boblarda ta’kidlagan edik. Shuningdek tahlil fani statistika fanining birqancha usullarida foydalanadi. Shulardan biri indeks usulidir. Bu usul juda ko‘p qirrali mavzu. Biz esa ushbu bobda shu usulning omilli tahlilida qo‘llanilishini ko‘ramiz xolos.

Indeks usulida juda ko‘p qo‘llaniladigan bog‘lanish : mahsulot

hajmining (Q) o‘zgarishi uning miqdori (q) va bahosiga (r) bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Mahsulotning rejadagi hajmini (qo po) va haqiqatdagi hajmini (q1 p1) tegishli formulada ifodalab olinsa, uning reja bajarilish indeksi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi :

$$J_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$$

Mahsulotning hisobot davridagi o‘zgarishining mutloq miqdorini aniqlamoqchi bo‘lsak uning sur’atidan maxrajini ayirish kifoya :

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_0 p_0$$

Formuladan ko‘rinib turibdiki natijaga ikkita omil ta’sir qiladi. Bu omillar ta’sirini hisoblash uchun birinchidan, mahsulot hajmining haqiqiy miqdorini rejadagi (asos yilidagi) narxda ifodalash lozim, ya’ni q1 po. Natija o‘zgarishiga mahsulot miqdorining ta’sirini (ΔQq) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$\Delta Q_q = \sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0$$

Mahsulot hajmining baho evaziga o‘zgarganligini topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir :

$$\Delta Q = \sum q_1 p_1 - \sum q_1 p_0.$$

Ushbu hisob - kitobni aniq ma’lumotlarni qo‘llab ham amalga oshirish mumkin (4.9-jadval).

4.9- jadval

Mahsulot hajmining o‘zgarishiga uning miqdori va bahosining ta’sirini indeks usuli bilan aniqlash

Maxsulot turlari	**Miqdori, dona**		**Bahosi, so‘m**		**Mahsulot hajmi**	
	Rejada	**Haqi-qatda**	**Rejada**	**Haqi-qatda**	**Rejada**	**Haqi-qatda**
A	450	500	15	16	6750	8000
B	230	235	8	6	1840	1410
V	670	710	7	9	4690	6390
Jami					**13280**	**15800**

Jadval ma’lumotlari asosida mahsulot hajmi bo‘yicha rejaning bajarilish indeksi 1,190 ga teng :

$$J_{qp} = \frac{15800}{13280} = 1{,}190 \text{ yoki } 119{,}0\ \%.$$

Natijaning umumiy mutloq farqi 2520 so‘mni (15800 - 13280) tashkil qiladi. Mahsulot fizik hajmining agregat indeksi (mahsulotning rejadagi va haqiqatdagi miqdori bir xil bahoda hisoblanganda) quydagini tashkil qiladi:

$$J_q = \frac{\sum q_1 p_o}{\sum q_0 p_o} = \frac{(500 \times 15) + (235 \times 8) + (710 \times 7)}{13280} = \frac{14350}{13280} = 1{,}081 \text{ yoki } 108{,}1\ \%.$$

Shunday qilib, hisobot davrida ishlab chiqarilayotgan mahsulotning miqdori ko‘payishi mahsulot hajmini rejadagiga nisbatan 8,1 % yoki 1070 so‘mga (14350 - 13280) oshirgan.

Baho agregat indeksi (suratida mahsulot miqdori va bahosi rejada) 1,101 ni tashkil qilgan :

$$J_q = \frac{\sum q1\ p1}{\sum q1\ po} = \frac{15800}{14350} = 1{,}101 \text{ yoki } 110{,}1\%.$$

Demak, mahsulotning umumiy hajmi baho omili ta’sirida 10,1% ga oshgan, mutloq miqdori esa 1450 so‘mga (15800 - 14350) ko‘paygan.

Natijada shu ikki omilning ta’siri nisbiy va mutloq miqdorda ham aniqlash mumkin. Ikki omil indeksining ko‘paytmasi umumiy indeksga teng bo‘lishi kerak:

1,,081 . 1,101 = 1,190

Natija o‘zgarishining mutloq miqdorini topish uchun shu ikki omil yig‘indisi olinadi:

1070 + 1450 = + 2520 so‘m

Indeks usulidan foydalanganda omillar ta’sirini individual indekslar orqali ham hisoblash mumkin. Masalan, poyafzal buyumlari bo‘yicha tovar oboroti hajmiga xizmat ko‘rsatilayotgan aholining soni (A), o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol darajasi (I) va o‘rtacha baho (R) ta’sir qiladi. Bu bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$Q = A \cdot I \cdot R$$

Bunda Q - poyafzal buyumlari bo‘yicha tovar oborotining umumiy hajmi.

Ushbu omillarning tovar oborotiga ta’sirini aniqlash uchun ularning individual indekslari aniqlanadi (-jadval).

Poyafzal sotilishining umumiy hajmiga omillar ta’sirini individual indeksini qo‘llab echadigan bo‘lsak u quyidagi bog‘lanishga ega bo‘ladi:

$$JQ = ia \cdot ii \cdot ip$$

4.10 - jadval

Tovar oboroti o‘zgarishiga ko‘rsatkichlarning individual indekslarini aniqlash yo‘li bilan omillar ta’sirini hisoblash usuli

Ko‘rsatkichlar	Asos yilida	Hisobot yilida	Individual indekslar
1. Aholining soni, ming kishi (A)	10,4	10,9	1,048
2. O‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol darajasi, juft (I)	2,6	2,9	1,115
3. O‘rtacha bahosi. so‘m (R)	36,2	37,4	1,034
4. Poyafzal mahsuloti bo‘yicha tovar oboroti, ming so‘m (Q)	978,8	1182,2	1,208

Natijaga omillar ta’siri quyidagicha aniqlanadi :

1. Aholi sonining asos yiliga nisbatan 0,5 ming kishiga (10,9 - 10,4) oshishi poyafzal mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirgan va shuning evaziga poyafzal sotilishining umumiy hajmi 47,0 ming so‘mga ko‘paygan :

(Qa =(Q0 . ia) - Q0 = (978,8 . 1.048) - (978.8) =1025.8 - 978,8= +47.0 ming so‘m.

2. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan poyafzal buyumlariga bo‘lgan iste’mol darajasining 0,3 juftga (2,9 - 2,6) oshishi poyafzal sotilishi hajmini ko‘paytirishning asosiy omili bo‘lgan. Bu omil ta’sirida o‘rganilayotgan ko‘rsatkich 118,0 ming so‘mga oshgan:

(Qi = (Q0 . ia . ii) - (Q0 . ia) = (1025,8 . 1,115)-1025,8 =
= 1148,8 - 1025,8 = + 118,0 ming so‘m.

3. Poyafzalning o‘rtacha bahosi 1,2 so‘mga oshgan. Bu omil evaziga tovar oboroti 38,4 ming so‘mga ko‘paygan:

ΔQr = (Q0 . ia . ii . ir) - (Q0 . ia. . ii) = 1143,8 . 1,034 - 1148,8 = 1182,2 - 1148,8 = + 38,4 ming so‘m.

Hamma omillar ta’sirining yig‘indisi poyafzal sotilishi umumiy hajmining hisobot yilida, asos yiliga nisbatan umumiy farqini beradi:

ΔQ = ΔQa ± ΔQi ± ΔQr = 47,0 + 118,0 + 38,4 = + 203,4 ming so‘m.

Omilli tahlilda qo‘llaniladigan usullardan ancha qo‘layi indeks usulidir, chunki bu usulni qo‘llash jarayonida bir vaqtning o‘zida omillarning natijaga ham mutloq, ham nisbiy ta’sirini aniqlash mumkin.

4.8. Integral usuli

Bu usul bir tomondan an’anaviy usullarga , ikkinchidan esa matematik usulga mansub takomillashgan usuldir. Natija ko‘rsatkichiga alohida omillar ta’sirini integral usuli bilan aniqlash farqlash, zanjirli almashtirish kabi usullarning takomillashgan shaklidir. Integral usulining ijobiy tomonidan biri shundan iboratki, agarda zanjirli almashtirish yoki farqlash usullarida omillar, ketma-ketligi o‘zgarsa, ularning natija o‘zgarishiga ta’sir har xil bo‘ladi. Bu usulda esa u yoki bu omilning ta’sirini hisoblashda ketma-ketlikka rioya qilishni talab qilmaydi. Omillarning ketma-ketligi o‘zgarishidan qat’iy nazar omillar ta’siri hamisha bir xil, eng muhimi to‘g‘ri topiladi.

Integral usuli determinal omili tahlilning bosh muammosini tushuntirishga yordam beradi. Bitta hisobot davr chegarasida omillar o‘zgarishi dinamikasi aniq bo‘lgan taqdirda omillar ta’sirini faqat integral usuli bilan ilmiy asoslab baholash mumkin.

Integral usuli bilan bog‘liq hisoblar bir tarafdan matematik tahlil asoslarini bilishni talab qilsa, boshqa tomondan zanjirli almashtirish usuliga nisbatan hisoblarni bajarishni taqozo qiladi. Shu sababli bu usulning qo‘llanilishi EXM sharoitida yaxshi samara beradi. Natija ko‘rsatkichga omillar ta’sirini hisoblashning turli shakllari mavjud. Natijaga ikkita omil ta’sir qiladigan bo‘lsa, quyidagi bog‘liqlik bo‘ladi :

$$U = X1 \cdot X2$$

Bu holda omillar ta’siri quyidagicha aniqlanadi :

Natija o‘zgarishiga birinchi omilning ta’siri:

$$\Delta Ux1 = X2o \cdot \Delta X1 + \left(\frac{1}{2} (\Delta X1 \cdot \Delta X2)\right)$$

Natija o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’siri:

$$\Delta Ux2 = X1o \cdot \Delta X2 + \left(\frac{1}{2} (\Delta X1 \cdot \Delta X2)\right)$$

Yuqoridagi formulalarga asosan, natija ko‘rsatkichlariga omillar ta’sirini hisoblashni aniq misollarda ko‘rib chiqamiz. Masalan, mahsulot hajmiga ishlab chiqarish fondlari va ular samaradorligining ta’sirini hisoblash talab qilinsin. (4.11-jadval).

4.11 - jadval.

Yalpi mahsulotga asosiy fondlar va ular samaradorligining ta’sirini integral usulida aniqlash

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgilari	Rejada	Haqiqat-da	Farqi (+,-)
Yalpi mahsulot, ming so‘m	M	43420	45850	+ 2430
Asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	AF	47115	47825	+ 710
Fondlar samaradorligii (bir so‘m fondga to‘g‘ri keladigan tovar mahsuloti), tiyin	FS	92,16	95,87	+ 3,71

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida natijaning o‘zgarishiga omillar ta’sirini integral usulida aniqlash mumkin.

1. Yalpi mahsulotning asosiy fondlar o‘rtacha yillik qiymati ta’siri evaziga o‘zgarishi 668,5 ming so‘mni tashkil qildi.

$$\Delta Mf = 710 \cdot 92{,}16 + \frac{710 \cdot 3{,}71}{2} = + 668{,}5 \text{ ming so‘m.}$$

Yalpi mahsulotning fondlar samaradorligi ta’siri evaziga o‘zgarishi 1761,5 ming so‘mni tashkil qildi :

$$\Delta Mfs = 3{,}71 \cdot 47115 + \frac{710 \cdot 3{,}71}{2} = + 1761{,}5 \text{ ming so‘m.}$$

Ikki omilning ta’siri birgalikda yalpi mahsulotning umumiy farqini beradi 668,5 + 1761,5 = + 2430 ming so‘m.

Natija o‘zgarishi uchta omilga bog‘liq bo‘lgan sharoitda integral usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan , “U” natija X1 , X2 , X3 omillar o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lsa tenglama quyidagicha bo‘ladi :

$$U = X1 \cdot X2 \cdot X3$$

Bu holda natija o‘zgarishga birinchi omilning ta’siri ($\Delta Ux1$) quyidagicha aniqlanadi :

$$\Delta Ux1 = \frac{1}{2}\Delta X1\,(X2o \cdot X31) + (X12 \cdot X13) + \frac{1}{3}(\Delta X1 \cdot \Delta X2 \cdot \Delta X3).$$

Natija o‘zgarishiga ikkichi omilning ta’sirini (ΔUx2) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta Ux2 = \frac{1}{2}\Delta X2\,(X1o \cdot X31) + (X11 \cdot X3o) + \frac{1}{3}(\Delta X1 \cdot \Delta X2 \cdot \Delta X3).$$

Natija o‘zgarishiga uchinchi omilning ta’sirini (ΔUx3) topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta Ux3 = \frac{1}{3}\Delta X3\,(X1o \cdot X21) + (X11 \cdot X2o) + \frac{1}{3}(\Delta X1 \cdot \Delta X2 \cdot \Delta X3).$$

Ushbu nazariy usulni aniq ma’lumotlar qo‘llab amaliyotda foydalanish yo‘lini ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik , tovar zaxirasining aylanish tezligi savdo zalida band bo‘lgan xodimlar mehnat unumdorligi (X1) , ularning umumiy xodimlardagi ulushi (X2) va tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlanganligi (X3) ga bog‘liq. Bu quyidagi formulada ifodalanadi :

$$U = X1 \cdot X2 \cdot X3$$

Ushbu bog‘liqlikni amaliy ma’lumotlar yordamida quyidagi jadvalda ko‘rib chiqiladi (4.12-jadval).

4.12- jadval.

Tovar zaxiralari aylanish tezligiga ta’sir etuvchi omillarni integral usul bilan aniqlash yo‘llari

Ko‘rsatkichlar	Shartli belgilar	Rejada	Haqiqat-da	Farqi (+,-)
1.Savdo zali xodimlari-ning mehnat unumdorli-gi, ming so‘m	X1	120,5	122,1	+ 1,6
2.Savdo zali xodimlari-ning umumiy xodimlar-dagi ulushi, %	X2	65,2	63,4	- 1,8
3.Tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlan-ganligi, kishi	X3	40,5	42,1	+ 1,5

4.Tovar zaxiralarining aylanish tezligi,marta	U	3,18	3,26	+ 0,08

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tovar zaxiralarining aylanish tezligiga savdo zali xodimlarining mehnat unumdorligi, savdo zali xodimlarining umumiy xodimlar sonidagi ulushi va xodimlarning tovar zaxiralari bilan ta’minlanganligi ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarning tovar zaxiralarning aylanish tezligiga ta’sirini topish uchun yuqorida keltirilgan bog‘lanishdan va integral usulidan foydalaniladi.

1. Savdo zali xodimlarnining mehnat unumdorligi oshishi tovar zaxiralari aylanish tezligini 0,05 marta oshirgan :

$$\Delta Ux1 = \frac{1}{2} \cdot 1,6 \cdot (65,2 \cdot 12,1 + 63,4 \cdot 40,5) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 =$$

$$= 0,8 \cdot (2744,92 + 2567,7) - 1,44 = 0,8 \cdot 5312,62 - 1,44 = 4250,1 - 1,44$$

$$= 4248,7 \text{ yoki } 0,05 \text{ marta.}$$

Savdo zali xodimlarining umumiy xodimlar sonidagi hissasining kamayishi o‘rganilayotgan ko‘rsatkichni rejaga nisbatan 0,09 martaga kamaytirgan:

$$\Delta Ux2 = \frac{1}{2} (-1,8) (120,5 \cdot 42,1 + 122,1 \cdot 40,5) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 =$$

$$= 1,9 (5073,05 + 4945,05) - 1,44 = -0,9 \cdot 10018,1 - 1,44 = -9016,29 - 1,44 =$$

$$= -0,9 \cdot 10018,1 - 1,44 = -9016,29 - 1,44 = -9017,7 \text{ yoki } -0,09.$$

3. Tovar zaxiralarining xodimlar bilan ta’minlanganligining oshishi tovar zaxiralari aylanish tezligini ham 0,12 martaga oshirgan:

$$\Delta Ux2 = \frac{1}{2} \cdot 1,5 (120,5 \cdot 63,4 + 122,1 \cdot 65,2) + \frac{1}{3} \cdot 1,6 \cdot (-1,8) \cdot 1,5 =$$

$$= 0,75 (7639,7 + 7960,2) - 1,44 = 0,75 (15600,62 - 1,44) = 11700,5 - 1,44 =$$

$$= 11699,0 \text{ yoki } 0,12 \text{ marta.}$$

Hamma omillarning yig‘indisi natija o‘zgarishining umumiy farqiga

teng bo‘ladi :

$$\Delta U = \Delta Ux1 . \Delta Ux2 . \Delta Ux3 = 0,05 - 0,09 + 0,12 = + 0,08 \text{ marta.}$$

Amalda natija bilan omillar o‘rtasidagi bog‘liqliklar kasrli bo‘lishi ham mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi (U) tovar oborotining hajmi (X1) va xodimlar soni (X2) bilan bevosita bog‘liqdir. Bu holda quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$U = \frac{X1}{X2}$$

Ushbu formulaga integral usulini qo‘llab natijaga birinchi omilning, ya’ni tovar oboroti o‘zgarishining ta’sirini aniqlash lozim bo‘lsa quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta Ux1 = \left(\frac{\Delta X1\ X2o}{\Delta X2\ X1o}\right) . \ln \left(\left| \frac{\Delta X1\ X2o}{\Delta X2\ X1o} \right| \right)$$

Natijaning ikkinchi omil evaziga o‘zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta Ux2 = \Delta U - \Delta Ux1$$

Juda ko‘p hollarda ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik darajasiga ta’sir qiluvchi omillarni hisoblashga to‘g‘ri keladi. Bu bog‘liqlikni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin :

$$U = \frac{X1}{X2 + X3}$$

Bunda U - rentabellik darajasi ; X1 - foyda summasi ;

X2 - asosiy kapitalning o‘rtacha qiymati ;

X3 - aylanma kapitalning o‘rtacha qiymati.

Ushbu formulaga asosan rentabellik darajasiga barcha omillarning ta’sirini aniqlash mumkin.

1. Rentabellik darajasining foyda summasi evaziga o‘zgarishini topish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi :

$$\Delta Ux1 = \frac{\Delta X1\ X21 + X31}{} \ln \left(\left| \frac{\Delta X1\ X21 + X31}{} \right| \right)$$

$$\Delta X2 + \Delta X3\ X20 + X3o$$

2.Rentabellik darajasining o‘zgarishiga asosiy kapitalninig ta’sirini (Δ Ux2) topish uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir :

$$\Delta Ux2 = \frac{\Delta U - \Delta Ux1}{\Delta X2 + \Delta X3} \cdot \Delta X2$$

3. Aylanma mablag‘lar (kapital) summasi o‘zgarishining rentabellik darajasiga ta’sirini topish uchun (Δ Ux3) quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$\Delta Ux3 = \frac{\Delta U - \Delta Ux1}{\Delta X2 + \Delta X3} \cdot \Delta X3$$

Umumiy natijaning o‘zgarishi (Δ U) shu uchta omil ta’siriniga teng bo‘lishi kerak :

$$\mathbf{\Delta U = \Delta Ux1 \pm \Delta Ux2 \pm \Delta Ux3}$$

Shuni ta’kidlash lozimki, integral usuli ancha murakkab bo‘lib, ko‘proq mehnat va ortiqcha xarajatlar talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, omillar bo‘yicha farq unchalik katta bo‘lmagan taqdirda, ya’ni 10 % gacha bo‘lganda integral usuli bilan aniqlangan omillar ta’sirini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlangani kabi deyarli farq qilmaydi. Bunday hollarda, ishni osonlashtirish maqsadida zanjirli almashtirish usulidan bemalol foydalanish mumkin. Agar omillar ketma-ketligi to‘g‘ri aniqlanib qo‘yilgan bo‘lsa barcha hollarda ham zanjirli almashtirish usulidan bemalol foydalanaverish mumkin.

Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan asosiy maqsad har bir ishlab chiqaruvchi, xizmat qiluvchi yoki boshqa faoliyat bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlarni axtarib topishdan iboratdir. Bu tahlilda qo‘llaniladigan barcha usullar bilan ham aniqlanishi mumkin. Biroq tahlilchi qaysi usulni qachon qo‘llashni yaxshi bilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, tahlilda qo‘llaniladigan usullarni mukammal o‘zlashtirib olishni taqozo qiladi.

Kelajakda tahlilni takomillashtirish faqat unda qo‘llaniladigan usullarni takomillashtirib qolmasdan, balki faoliyatni to‘g‘ri ifodalaydigan ko‘rsatkichlarni ham tokomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan bir paytda iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham

o‘zgarmoqda. Milliy hisob tizimi buxgalteriya hisobining milliy andozalari joriy qilinmoqda. Amaliyotda esa shularga mos ko‘rsatkichlar vujudga kelmoqda. Bular esa buxgalteriya va statistik hisobotlardagi ko‘rsatkichlar tizimiga ham tegishli o‘zgarishlar kiritishni taqozo qiladi.

4.9. Kichik sonlardan foydalanish usuli

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy - xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri va haqqoniy baholash lozimligini hayot taqozo qilmoqda. Oldingi rejali iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyat natijasini baholashning asosiy mezoni umumlashgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha rejaning bajarilishi edi. Endilikda faqat bunday ko‘rsatkichlar bilan natijaga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun tahlilda qo‘llaniladigan kichik sonlar usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bu usulning mohiyati shundaki, agar firma birdaniga birqancha faoliyat bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, yoki birqancha mahsulot ishlab chiqarayotgan bo‘lsa hammasidan foyda olishi, manfaatdor bo‘lishi lozim. Aks holda, hozirgi sharoitda bir qism faoliyat samarasiz bo‘ladi, u faqat firmaga zarar keltiradi. Masalan, firma 5 ta faoliyat bilan shug‘ullanadi deb faraz qilamiz. Uning natijasi quyidagicha (4.13-jadval).

4.13 - jadval.

Firma shug‘ullanayotgan faoliyat bo‘yicha moliyaviy natijaning holati

Faoliyat turlari	Sotish qiy-mati (daro-mad)	Tannarxi (xarajat-lari)	Foyda + (zarar)	Hisoblangan xarajati (tannarxi)
1. Kiyim tikish	48530	41371	+7159	41371
2. Meva sharbati ishlab chiqarish	22450	23542	- 1092	22450
3. Savdo	51230	56213	- 4983	51230
4. Maishiy xizmat	4150	3186	+965	3186
5. Binolarni ta’mir-lash	11342	10111	+1231	10111
Jami :	137703	134423	+3280	128348

Firma shug‘ullanadigan beshta faoliyat bo‘yicha 3280 ming so‘m foyda olishga muvoffaq bo‘lgan. Umuman olganda bu ko‘rsatkich yomon natija emas. Ammo firma shug‘ullanayotgan beshta faoliyatning

ikkitasi zarar bilan yakunlangan. Oqibatda bu zarar qolgan uchta faoliyat evaziga qoplanib ketilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday natija bilan tugallanishi maqsadga muvofiq emas. Firma yoki boshqa xo‘jalik subyekti hozirgi sharoitda har qanday faoliyatdan foyda olishi lozim. Shu

tufayli ushbu tahlil qilayotgan firmani 3280 ming so‘m foyda olib ishlabdi deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu foyda zamirida uning qilgan zararlari ham qoplanib ketilgan. Shu tufayli bu jarayondan to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun kichik sonlar usulini qo‘llab echamiz.

Firma kiyim tikish bo‘yicha yaxshi ishlagan. Xuddi shunday hol maishiy xizmat va binolarni ta’mirlashda ham sodir bo‘lgan. U holda sotilgan mahsulot xarajatga nisbatan ko‘p bo‘lganligi tufayli kichik sonlar bilan hisoblanishi zarur bo‘lgan summaga harajatlar summasini olamiz. Meva sharbati ishlab chiqarishda va savdoda harajatlar ko‘p bo‘lgan. Ularni sotish qiymati darajasida bo‘lishi kerak edi deb faraz qilamiz va shu tur faoliyatlar bo‘yicha harajatlarni sotish qiymati miqdorida olamiz. Hammasi qo‘shilib chiqiladi va aniqlangan summasini haqiqiy harajat bilan solishtirib ko‘rilsa boshqa faoliyat evaziga qancha harajat qoplanganligi aniqlanadi. Bizning misolimizda bu miqdor 6075 ming so‘mni (134423 - 128348) tashkil qiladi, ya’ni ikkita zarar bilan ishlayotgan faoliyatning 6070 ming so‘m harajati (1092 + 4983) qolgan uchta faoliyat evaziga qoplanganligi aniqlanadi.

Ushbu usul orqali firma faoliyati mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Agar ushbu firma shu ikki faoliyat bo‘yicha zarar ko‘rmay ishlaganda, ya’ni uning faoliyatining foydalilik nuqtasi nolga teng bo‘lganda qancha foyda olish lozimligini aniqlash mumkin. Bu holda firma 3280 ming so‘m emas, balki 9355 ming so‘m (137703 - 128348) foyda olish mumkin ekan.

Kichik sonlarni reja bajarilishida ham qo‘llash mumkin. Firma 4 ta mahsulot ishlab chiqaradi deb faraz qilamiz. Bu bo‘yicha firma quyidagicha natijaga ega (4.14-jadval).

4.14- jadval.

Firmaning mahsulot ishlab chiqarishi bo‘yicha biznes rejasining bajarilishi.

(ming so‘m)

Mahsulot turlari, nomlari	Rejada	Haqiqat-Da	Reja va ha-qiqatdagi kichik sonlar	Rejaning bajari-lishi
O‘simlik yog‘i	5000	5000	5000	100,0
Sovun	6000	6100	6000	101,7
Kunjara	7000	6800	6800	97,1
Sariq yog‘	4000	4150	4000	103,8
Jami :	22000	24050	21800	109,3

Ushbu firmada reja 109,3 foizga bajarilganligi ushbu jadval natijasidan ko‘rinib turibdi. Ammo kunjara bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi 2,9 foiz bajarilmaganligi tufayli umumiy ko‘rsatkichning miqdori 99,1 foizni

tashkil qiladi.

(21800 : 22000) . 100 = 99,1 %

V BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI, AXBOROT MANBALARI VA IQTISODIYTAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH

5.1. Iqtisodiy tahlil va unda qo‘llaniladigan axborotlarningbir-biri bilan bog‘liqlik tamoyillari

Inson dunyoni axborotlar orqali anglaydi va shular asosida boshqaradi. Insonning dunyoni to‘g‘ri anglab, to‘g‘ri xulosa chiqarishi va odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborotlar haqqoniy bo‘lishligi lozim. Shu tufayli noreal axborotlardan foydalanib noto‘g‘ri xulosa chiqarib, o‘zini ham boshqalarni ham aldash mutloqa to‘g‘ri kelmaydi. Bu iqtisodiyotni halokatga olib keladi, odamlarni saxtakorlikka o‘rgatib qo‘yadi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o‘nglash, uni taraqqiy ettirish, barcha qirralarini kuzatib borish uchun ham axborotlar to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishligi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzo chekilgan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi2017 yil 7 fevraldaga farmoni., 2017 yilning 22 dekabrida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida so‘zlagan nutqida mamlakatimizning rivojlanish strategiyasini, jamiyatni yangilash borasida faoliyatimizning asosiy yo‘nalishlari mazmun va mohiyatini ochib berdi.Ushbu yo‘nalishlardan biri – bu “**iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga** yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish”dan[91] iboratdir.

Bularni amalga oshirish uchun birinchi navbatda, davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy erkinligini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash masalalariga e’tiborni qaratishni taqozo qiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli ma’lum darajada chegaralanishi

[91] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйичаҲаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдага фармони.

ko‘zda tutilmoqda. Ammo bu mulkdorning mas’uliyatini oshiradi. Bu mas’uliyat hisob-kitobni qilish zaruratini tug‘diradi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Iqtisodiyot – bu hisob-kitob degani. Har bir ishimizda puxta hisob-kitob birinchi o‘rinda turishi lozim. Aks holda, hamma ishimiz eski hammom, eski tos bo‘lib qolaveradi”[92]. Amalga oshiriladigan hisob-kitoblar real raqamlar, to‘g‘ri va halol axborotlar asosida bo‘lmog‘i lozim. Agar ushbu talab ta’minlanmasa, iqtisodiyotni erkinlashtirishdan ham ma’no bo‘lmaydi.

Bu esa o‘z-o‘zidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy erkinligini ta’minlash bilan birga, ularning o‘z xo‘jaligini boshqarishda mustaqilligini va mas’uliyatini ham oshiradi. Bunday sharoitda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mustahkamlash vazifasi ustuvorlikni tashkil qiladi. Mazkur jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish uchun aniq va real raqamlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Eng muhimi, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida**noreal raqamlar ortidan quvish, amalga oshmaydigan xomxayollarni haqiqat sifatida taqdim etishdek noma’qul ish uslubi** tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi. **Amaliy natijadorlik, inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi[93].** Noreal raqamlar ortidan quvishning oqibati boshqaruv qarorlarini qabul qilishda turli chalkashliklarga yo‘l qo‘yish bilan birga inson manfaatiga ham ziddir. Shu tufayli joylarda, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Joylarda rahbarlarning yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tezlik bilan bartaraf etish yuzasidan shaxsiy javobgarligi kuchaygani mazkur tizimning muhim natijasi bo‘ldi”[94].

Real raqamlar, odilona boshqaruv, haqiqatni yuzaga keltiradi. Bu esa, o‘z-o‘zidan mulkdor va uning tasarrufida ishlovchilar o‘rtasida sodir bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, takomillashishiga olib keladi. Buning asosida tahlil qilinganda, axborotlardan foydalanish jarayonida qo‘llaniladigan tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan (5.1-jadval).

[92] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 45-46 бетлар.
[93] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 7-8 бетлар.
[94] Ўша жойда. – 5 бет.

5.1-jadval

Iqtisodiy tahlil va unda qo‘llaniladigan axborotlarni shakllantirish tomoyillar

T/r	Tamoyillarning nomi	Tamoyillarning mazmuni
1.	Ilmiylik	Axborotlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda sodir bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar-ni o‘zida mujassam etgan, shu jarayonlar haqida to‘liq ma’lumotlarni o‘zida ifoda etadigan ko‘rsatkichlarda tashkil topgan axborotlarga tayaniladi.
2.	Tizimlilik	Tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan bir-biri bilan bog‘liq o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘zida mujassam etgan axborotlarni o‘rganishga tizimli yondoshuv orqali erishishni inobatga olish lozim bo‘ladi.
3.	To‘liqlik	O‘rganilayotgan obyekt haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish uchun, uning hamma tomonlari batafsil o‘rganishni taqozo qiladi. Bu esa, subyekt iqtisodiyotini kompleks tahlil qilish orqali erishiladi. Tahlil to‘liq bo‘lmasa, xulosa mukammal bo‘lmaydi va mos ravishda, boshqaruv qarorlari ham etarli darajada o‘rganilayotgan obyektning hamma tomonini qamrab olmaydi.
4.	Tezkorlik	Hozirgi paytda jarayonlarni tezkor tarzda o‘rganib, tezkorlik bilan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo qiladi. Bunga mos ravishda axbrotlarni ham tezkor tarzda olish imkoniyati bo‘lmog‘i lozim. Boshqaruv qarorlarining bajarilishini ham hisobot yili tugagandan keyin emas, balki joriy davrda nazorat qilib borish ham ish samaradorligini oshirish imkonini beradi.
	Ishonchlilik	Tahlil qilinayotgan subyektlar faoliyati haqidagi axborotlar ishonchli bo‘lmasa, tahlil natijalarining ham ishochliligini ta’minlab bo‘lmaydi. Shu tufayli axborotlarning ishonchliliga boshqaruvning qarorlarining ham ishonchliligini ta’minlaydi.
5.	Doimiylik	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar uzluksiz sodir etilishitufayli ularni tahlil qilish ham uzluksiz davom etib borilishi lozim. Uzluksizlik vaqti-vaqti bilan emas, doimiy ravishda amalga oshirilib borsagina tizimli ma’lumotlarga ega bo‘linadi va kamchiliklar ham

		tizimli ravishda barataraf qilib borish imkoniyati yaratiladi.
6.	Aniqlik	Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘zida mujassametadigan axborotlar aniq va real bo‘lishi lozim. Real axborot bo‘lmasa, tahlil aniq bo‘lmaydi, tahlil aniq bo‘lmasa, to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilib bo‘lmaydi va mos ravishda ishning natijadorligi ham o‘ziga yarasha bo‘ladi. Bu butun iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni izdan chiqishiga sabab bo‘ladi.
7.	Ta’sirchanligi	Iqtisodiy tahlil natijalari ta’sirchan bo‘lishi uchun real axborotlar asosida ishdagi yutuq va kamchiliklar batafsil o‘rganilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli ta’sirchan qarorlarni qabul qilib, ularning bajarilishi ta’minlashga qaratilgan tadbirlar tahlilning va unda qo‘llaniladigan axborotlarning ta’sirchanligini oshiradi.
8.	SHaffoflik	Axborotlarning shaffofligi tahlining shaf-fofligini ta’minlaydi. Bunday tahlil natijasi xo‘jalik ichida kim muvoffaqiyatlarga erishgani va kim orqada qolganini ko‘rsatadi. Bu esa har bir xodimning tegishli xulosa chiqarishi uchun asos bo‘ladi. Ushbu holat har bir vijdonli xodimning o‘z kamchiliklarini bartaraf qilish ustida ishlashni taqozo qiladi va bu holat, ma’lum darajada muvoffaqiyatlarga olib kelishi mumkin.
9.	Qiyosiylik	Iqtisodiy tahlilda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun axborotlarning qiyosiyligi ta’minlangan bo‘lishi lozim. Chunki, ma’lumotlar qiyoslanmasa, korxonaningqanday holatda ekanligiga, o‘zgarish tenden-siyalari qanday bo‘layotganligi xususida xulosa qilib bo‘lmaydi. Shunga mos ravishda ma’lumot-arning bir- biri bilan qiyoslanishini ta’min-lash (bir xil ko‘rsatkichlar bilan ko‘rsatkichlar, baho indeksi orqali qiyoslanishi kabilar) maqsadga muvofiqdir
10.	Siyosiylik	Xo‘jalik faoliyati natijalarini tahlil qilganda davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, xalqaro siyosatiga va ularning davlatning qonun va qoidalariga qanchalik mosligini o‘rganishni taqozo qiladi. Aks holda, bunday taraqqiyot foyda emas, zarar ko‘rib qolishga olib kelishi mumkin. Jumladan, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar faoliyati natijasida ekologik vaziyat buziladigan bo‘lsa, bu tabiatga ham, jamiyatga ham naf emas, zarar keltirishi mumkin va h.k.
11.	Samaradorlik	Korxonalar faoliyati davomida bir qancha yo‘nalishlarda xarajat qilishlariga to‘g‘ri keladi.

		Masalan, axborotlarni to‘plash va ularni tahlil qilish jarayonini olaylik. Agar ushbu tadbirlarga ketadigan xarajatlar ulardan olina-digan daromadlarga nisbatanko‘p bo‘lmasligi kerak. Har qanday harakat samarali bo‘lishligini ta’minlash lozim.
12.	Moslashuvchanlik	Hozirgi paytda mamlakatimizni, uning har bir hududi va korxonalarini strategik rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Ammo ushbu dasturlarda ko‘zda tutilgan ishlar tahlilning mavzusiga oldin kiritilmagan bo‘lishi mumkin. Ammo ushbu dasturlarning bajarilishini ta’minlash uchun tegishli axborotlar olinadi va ular tezkor tarzda tahlil qilinib, tegishli xulosalarga kelinadi. Bunda tahlil vaziyatni o‘rganishga, talab qilingan holatga moslashishi zarur.

Jadvalda keltirilgan har bir tamoyilni atroflicha ko‘rib chiqish mumkin. Ularning muhimlari biri ishonch tomoyilidir. Axborotlar ishonchli bo‘lmasa, tahlil ishonchli bo‘lmaydi, tahlil ishonchli bo‘lsmasa, ishonchli xulosa chiqarish mumkin emas va mos ravishda, ishonchli boqaruv qarorlarini qabul qilib ham bo‘lmaydi. Shu tufayli barda darajadagi holatlar ishonch asosida qurilmog‘i lozim. Ishonch soflikni, haqqoniylikni, odillikni ta’minlaydi. Shu tufayli ular bir-biri bilan uzviy holda namoyon bo‘ladi.

Bir-biriga ishonch va boshqa yuqoridagi unsurlar, iqtisodiyotda “SAXTHOB” tamoyili orqali erishiladi. Buning mazmuni nimadan iborat degan savolning tug‘ulishi tabiiy. Bu eng avvolo soflik (S) degani. Soflik orqali ishonchga sazovar bo‘linadi. Bir - biriga ishongan kishilar o‘rtasida sof, samimiy munosabat bo‘ladi. Ikkinchisi esa, axborotlarning haqqoniyligi (AH). Bunga axborotlar haqqoniy bo‘lgan joydagina erishish mumkin. Axborotlar oddiy raqamlar emas, ularning har biri qandaydir, kimningdir manfatini ifodalaydi. Masalan, amaliyotda axbarotlarni qo‘shib yozish evaziga soxtalashtiradi. Bu kimning manfaatiga xizmat qiladi? Bu eng avvolo, shu xo‘jalik, korxona rahbari manfaatiga xizmat qiladi, chunki u rahbarlik qilgan korxona boshqalar fikrida “yuqori ko‘rsatkichga erishdi” degan soxta xulosa chiqarish va arzon obro‘y orttirish uchun qilinadi. Bu esa unga vaqtinchalik sohta obro‘y, ma’naviy va moddiy rag‘bat keltirishi mumkin. Ammo u Shu korxonada ishlaydiganlar uchun ham, xalq va davlat uchun ham o‘ta zararlidir. Yo‘q narsani bor, bo‘lmagan narsani bo‘ldi deb ko‘rsatib noto‘g‘ri sulosa, naxolis boshqarishga olib keladi. Jamiyatning qashshoqlanishiga sabab bo‘ladi. Bu illat asosan rejali iqtisodiyotdan qolgan eng salbiy meroslardan biridir.

Ushbu tamoyildagi uchunchi bo‘g‘un-bu to‘g‘ri xulosa (TX). Axborotlar haqqoniy bo‘lmagan joyda to‘g‘ri xulosa chiqarish qiyin.

Masalan, mamlakatimiz aholisini ta’minlash uchun 4,0 million tonna g‘alla kerak deb faraz qilamiz. Agar 3,0 million tonna etishtirib 4,0 million tonna g‘alla etishtirildi deb axborot berilsa bu hukumat rahbarlarining noto‘g‘ri xulosa chiqarishiga olib keladi. Ularda g‘allamiz bir yilga etadi degan xotirjamlik kayfiyatini tug‘dirish mumkin. Natijada esa yilning uch choragiga g‘alla etib aholini yana bir chorak davomida g‘allaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish muammosi ko‘ndalang bo‘lib qolishi mumkin. Shu uchun to‘g‘ri xulosa haqqoniy, to‘g‘ri axborotlar mahsuli ekanligini unutmaslik lozim.

Ushbu tamoyildagi to‘rtinchi bug‘un bu odilona boshqarish (OB). To‘g‘ri xulosa bo‘lmagan joyda odilona boshqarishga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli ushbu tuShunchalar bir-biriga zanjirsimon, dialektik bog‘liqlikka ega.Shunday qilib,SAHTXOB tamoyili S - soflik, AH - axborotlar haqqoniyligi, TX - to‘g‘ri xulosa va OB - odilona boshqaruvdan iboratdir.

Ushbu tamoyilni erkinlashayotgan iqtisodiyotning barcha unsurlariga, xususan iqtisodiy tahlilga ham qo‘llash mumkin. CHunki iqtisodiy tahlilning ahamiyati bozor munosabatlarining shakllanishi bilan yanada oshmoqda. Endi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘zlariga maqbul, to‘g‘ri va foydali yo‘l tanlab olishi uchun o‘z faoliyatini, qilgan va qilajak ishlarini faqat tahlil qilmog‘i lozim. Tahlil har tomonlama bo‘lishini taqozo qiladi. Eng avvolo, hozirgi paytda qilinadigan ish oldindan tahlil qilinib ko‘rilishi lozim. So‘ngra qilinayotgan ish tahlil qilinsa va nihoyat qilingan ish atroflicha tahlil qilinib o‘rganiladi.

Tahlilning maqsadi to‘g‘ri xulosa chiqarish, odilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tegishli axborotlarni tayyorlab berishdan iboratdir. Ammo to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun axborotlar haqqoniy, real bo‘lishini talab qiladi. Axborotlarni kim to‘playdi, kim uning haqqoniyligiga javob beradi. Albatta mutaxassislar, boshqaruv idorasi (apparatida) o‘tirgan xodimlar. Agar ular halol-pok bo‘lmasa axborotlar to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. CHunki har bir axborotning zamirida, yuqorida ta’kidlanganidek. manfaat yotadi. Agar xodim axborotlarni jamlash va shakllantirishda o‘z manfaatini ustun qo‘yib ishlaydigan bo‘lsa u haqqoniy bo‘lmasligi mumkin.

Haqiqiy bo‘lmagan axborot hamisha chalkash va noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida oqilona boshqarishga ham salbiy ta’sir qiladi. Shu tufayli tahlil jarayonida ishonch va SAXTXOB tamoyiliga doimo amal qilish lozimligini hayotiy zaruratdir.

Ushbu tamoyil tahlil uchun axborotlarni yetkazib beruvchilarning eng avvolo, sofligini talab qiladi. Ular sof kishilar, xodimlar bo‘lsagina axborot haqqoniy bo‘ladi. Agar axborotlar haqqoniy bo‘lmasa to‘g‘ri xulosa chiqarish qiyin. Xulosa chalkash, noto‘g‘ri bo‘lsa odilona boshqaruv qarorlarini ham qabul qilib bo‘lmaydi. Shu tufayli tahlilda to‘g‘ri va izchillikni ta’minlash

uchun SAHTXOB tamoyiliga doim amal qilish lozim bo‘ladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda mazmun va mohiyati jihatdan butunlay yangi boshqaruv tizimi tarkib topdi. Ammo bu tizim qanchalik samarali ishlamoqda, bugungi istiqlol, mustaqillik qo‘ygan talablarga javob berayaptimi? Bunday savollar ketidan savollar tug‘ilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti bot-bot ta’kidlaganidek to‘rachilik, o‘z vazifasiga sovuqqonlik bilan qarash, korrupsiyaning mavjudligi, befarqlik jamiyatimiz taraqqiyotiga to‘siq bo‘ladigan omillargina bo‘lib qolmasdan, juda katta moddiy va ma’naviy zarar ham ko‘rsatadi. Ming afsuski bu zararning moddiy va ma’naviy qiymatini hisoblab chiqish qiyin. Chunki yuqoridagi illatlar bor joyda adolat bo‘lmaydi, adolat yo‘q joyda odamlar roziligiga erishish umuman mumkin emas.

Eng muhimi bu illatlarning hamon mavjudligiga sabab tayinlab qo‘yilgan rahbarlarning, saylab qo‘yilgan deputatlar va halq oldida, hamisha hisobot bermasligidandir. Yurtboshimiz ta’kidlashicha hokimlar hamda hokimliklar tarkibi deputatlar oldida o‘zlari muntazam hisobot berishlari lozimligini qanchalik sezishayapti? Bu borada hal etish zarur bo‘lgan katta muammolar mavjudligi tufayli bugungi kunda barcha rahbarlar xalq oldida hisobot bermoqda.

Xalq,xodimlar rahbarga ishonadi. Ammo u ishonchga sazovar bo‘layaptimi-yo‘qmi bunga bir hisobot berishi kerak. Qachonki ular o‘rtasida qayta aloqa bo‘lmas ekan iqtisodiyotni boshqarishda ishonch va SAHTXOB tamoyilini qo‘llash qiyin bo‘ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish konsepsiyasi unda “Ishonch va SAXTXOB” tamoyillaridan foydalanishni yanada kuchaytiradi. Chunki bunday jarayonlar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘z faoliyati uchun iqtisodiy va moliyaviy mas’uliyatini oshirdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, erkinlik hamisha mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan va Shunday bo‘lib qoladi.

Qisqa o‘tgan davr shuni ko‘rsatdiki, hamma jabhada erkinlikni joriy qilish uchun oldin mas’uliyat hissasini o‘yg‘otish lozim. Mas’uliyat bo‘lmasa, boqimandalik kayfiyatida yurgan shaxslarga erkinlik berib bo‘lmaydi. Ular o‘z yo‘lini topib o‘zini tiklab ketishi qiyin. Shu tamoyil va talabdan iqtisodiyot ham holi emas. Hayot ko‘rsatib turibdiki, qaerda rahbar boqimandalik kayfiyatidan qutila olmagan bo‘lsa o‘sha erda, o‘sha korxonada iqtisodiy inqirozga yuz tutmoqda. Agar u xususiy korxona bo‘lsa, albatta faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lmoqda.

Mas’uliyat insonlarda tashabbuskorlik, izlanuvchanlik hissini uyg‘atadi. Bunday rahbarlar boshqarayotgan korxonalar yuqori samaradorlikka erishayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Muxtasar qilib aytganda, erkinlik o‘z-o‘zidan bir kunda beriladigan jarayon bo‘lmasdan,unga

bosqichma-bosqich erishiladi, shunga mos holda mas'uliyatni oshirib borish ham asta-sekinlik bilan erishadigan ne'matdir. Har bir insonda mas'ullik tuyg'usi o'yg'onganligi to'g'risida eng avvolo o'zida, keyin o'zgalarda ishonch hosil qilishi lozim. Ishonch bor joyda samimiylik bor. Aynan Shu holatda "SAHTXOB" tamoyilini qo'llash mumkin. Ushbu tamoyil bugungi kun talabidan kelib chiqqan iqtisodiyotda va uning barcha unsurlarida qo'llanilishi lozim bo'lgan mazmun mohiyati jihatidan yangi tamoyildir.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlil va unda qo'llaniladigan axborotlarning bir-biri bilan bog'liqlik tamoyillarini amalga oshirish masalasi, bugungi kunda o'ta dolzarb ekan. Shu tufayli axborotlarni jamlash va ularni tahlil qilish jarayonida yuqorida qarab chiqilgan barcha tamoyillarga tayanishga to'g'ri keladi.

5.2. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlartizimi

O'zbek tilining izohli lug'atida (1981 yil) axborotga ikkita izoh berilgan: 1) Xabar; xabarlar; ma'lumot, informatsiya. 2) Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi. Bularning ichida iqtisodiy tahlilga mosroq atama – bu ma'lumotdir.Ushbu manbada "Ma'lumot" atamasiga ham ikkita izoh berilgan:1) O'qish-o'rganish natijasida olingan bilim darajasi. 2) Xabar, axborot. Dalil bo'ladigan xujjat, raqam va Shu kabi materiallar.

Ushbu atamaning izohi keyinchalik biroz takomillashtirildi. O'zbek tilining besh jildlik izohli lug'atida (2006 yil) axborot atamasiga uchta izoh berilgan. "1 Ish voqea-hodisalar haqida tuShuncha beruvchi xabar, ma'lumot.

2 Radio eshittirishi, televideniya ko'rsatuvida maxsus informatsion dasturning nomi. 3 Vaqti-vaqti bilan chiqib turadigan ba'zi to'plamlarning nomi".[95] Ko'rinib turibdiki bu ikki holda ham axborotlar-ning mazmuni iqtisodiy tahlil va boshqaruv nuqtai nazaridan etarli darajada ochib berilmagan.

Bizning fikrimizcha axborotlar tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan jarayonlar tug'risida doimiy ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar majmuasmidan iboratdir. Biroq, sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar birorta manbada, hujjatda o'z ifodasini topmog'i lozim. Aynan ushbu axborotlar iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Shu tufayli iqtisodiyotni boshqarish va taxlil qilish uchun bizga barcha axbarotlar ichidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zida ifoda etgan qonuniy kuchga ega bo'lgan hujjatlarda o'z aksini topgan iqtisodiy axborotlar olinadi.

[95] Ўзбек тилининг изоҳли уғати: - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" ДИН, 2006. – 119-120 бетлар.

Iqtisodiy axborotlar iqtisodiyotda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lum bir xuquqiy kuchga ega bo‘lgan ma’lumotlar majmuidan iboratdir. Masalan, o‘tgan davrda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi to‘g‘risidagi axbarotni biz ushbu xo‘jalik yurituvchi sub’ektning o‘tgan davrdagi hisobotidan olamiz. Hisobot qonuniy kuchga ega bo‘ladi qachonki, uning to‘g‘ri tuzilganligini kafolotlovchi tashkilot rahbarining va bosh buxgalterning yoki boshqa mas’ul shaxslarning imzosi va Shu imzolarni tasdiqlovchi yumaloq muhiri bosilgan bo‘lsa. Ushbu ko‘rsatkichning hozirgi holati va kelgusi istiqboldagi hajmi ham tegishli tarzda hssob-kitob qilinib mas’ul shaxslar tomonidan tasdiqlansagina ulardan iqtisodiy tahlilda foydalanish mumkin.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurida sodir bo‘layotgan jarayonlar to‘g‘risida, odatda inson bexabar bo‘ladi. U to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi, qachonki Shu jarayonlar to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarda ifoda etilgan raqamlar bilan ifodalangan axbarotlarga ega bo‘lsa. Axbarotlar qanchalik to‘liq, qanchalik haqqoniy bo‘lsa undan chiqariladigan xulosalar ham Shunchalik to‘liq va to‘g‘ri bo‘ladi.

Ammo shuni ta’kidlash joizki, axbarotlar zarur miqdorda bo‘lishi lozim. Uning kam bo‘lishi to‘liq va to‘g‘ri xulosa chiqarish imkonini bermaydi, ko‘pi esa ulardan tez va soz foydalanishda qiyinchiliklar tug‘dirishi, ortiqcha vaqtni olishi mumkin. Axbarotlarning ko‘pi yaxshi, lekin ular ortiqcha bo‘lmasligi lozim. Shu tufayli har bir jarayonni tahlil qilganda, aynan shu jarayonga tegishli axbarotlarni olishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan ma’lumotlar va axbarotlarni bir-biridan farqlamoq lozim.

Ma’lumotlar deganda, sodir bo‘lgan xodisa va jarayonlarni o‘zida ifoda etgan birlamchi xujjatlar va boshqa vositalarda aks etiladigan raqamlar, belgilar, xabarlar tushiniladi. Masalan, 15 kishi bir oy ishladi degan ma’lumot tabelda, 2 kishi kasallik varaqasida, Shuncha mahsulot sotildi degan ma’lumot schet-fakturada, qancha pul o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot to‘lov-buyurtmasida ifodalanadi. Bularning hammasi u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida aniq ma’lumotlar beradi.

Axbaraotlar deganda, yuqorida ta’kidlanganidek, Shu ma’lumotlarni jamlash, ularni ishlatish orqali ma’lum tizimga keltirish natijasida hosil bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ifoda etadigan ma’lumotlar majmui tuShuniladi. Iqtisodiy tahlilda asosan axbarotlardan kengroq foydalaniladi. Ba’zan tahlilni chuqurlashtirish, aniqlik kiritish uchun bevosita birlamchi ma’lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Axborotlar qaerda ifodalanishiga qarab uchga bo‘linadi: og‘zaki, hujjatlarda va mashinada.

Og‘zaki axbarotlar ko‘pgina tezkor hisobda qo‘llaniladi. U bevosita muloqat, telefon va boshqa vositalar orqali berilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida og‘zaki axbarotlar juda keng qo‘laniladi. Bunda axbarot beruvchi va uning iste’molchisi o‘rtasida bir-biriga yuksak ishonch bo‘lishi lozim.

Sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar, xujjatlarda ifoda etiladi. Bular eng avvalo, buxgalteriya hisobida o‘z ifodasini topadi. Har bir jarayonning qonuniyligi aynan Shu va Shu kabi hisoblarda, xujjatlarda o‘z tasdig‘ini topadi. Shu jihatdan juda ko‘p axbarotlar iqtisodiy tahlil uchun xujjatlardan olinadi. Har bir xujjat qonuniy kuchga ega bo‘lishi kerak. Bu uchun yuqorida ta’kidlanganidek tashkilot raxbari, bosh buxgalteri kabi mas’ul shaxslarning imzosi va muhiri qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Mashinalarda ifoda etilgan axbarotlar hozirgi paytda juda keng qo‘llanilmoqda. Zero kompyuterlar barcha xisob-kitob jarayoniga kirib bormoqda. Hozirgi paytda kompyuterlardan bevosita axbarotlarni hisob-kitob qilish bilan birga ularni uzatishda ham keng foydalanilmoqda. Masalan, O‘zbekiston “Internet” ga ulanib butun dunyo axborot tizimiga kirdi va ulardan bemalol foydalanilmoqda. Yoki hozir bank tizimlari bo‘yicha yagona kompyuter tarmog‘i tashkil qilindi. Bu ham banklar o‘rtasidagi muloqatni kampyuter orqali amalga oshirish imkonini tug‘diradi.

Axbarotlarning qaerda ifodalanishi bo‘yicha tasnifi quyidagi chizmada ko‘rsatilgan (5.1 - rasm).



5.1-rasm. Axborotlarning qayerda ifodalanishi bo‘yicha tasnifi.

Har bir guruh axbarotlar o‘z navbatida yana bir qancha turlarini o‘z ichiga oladi. Bularni aloxida-aloxida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Og‘zaki axborotlar bozor munosabatlari shakillangan sharoitda keng qo‘llaniladi. Jahon amaliyotida iqtisodiy jarayonlarni tez amalga oshirish, bir-birining ishonchiga sazavor bo‘lishi uchun og‘zaki shartnomalardan ham foydalanilmoqda. Bu erkin raqobat sharoitida har bir firmaning o‘zlariga hamkorlik topishi va bir-biridan ishonch qozonishi uchun qulay vositadir.

Og‘zaki axbortlar o‘z navbatida quyidagi guruxlarga bo‘linadi:so‘rovga javob tariqasida berilgan axbarot, bevosita muloqatda beriladigan axbort, ma’ruza va nutuqlar orqali beriladigan axbarotlar, telefon orqali beriladigan axbarotlar kabilar. Bularning tasnifi quyidagi chizmada keltirilgan (5.2-chizma).

So‘rovga javob tariqasida beriladigan axbarotlar ko‘pincha muxbirlarining, jurnalistlar,, ilmiy xodimlar va boshqa tahlilchilarning intervyulari orqali aniqlanadi va olinadi. Maslan, taxlilchi iqtisodiy isloxatning jadal borishini asoslash uchun tuman xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvtlash tashkiloti mas’ullariga birqancha savollar bilan murojat qilib ularning javoblari asosida o‘z xulosalarini yanada boyitish va chuqurlashtirish mumkin.



5.2- rasm.Og‘zaki iqtisodiy axborotlar tasnifi.

Muloqot paytida beriladigan axbarotlar ham xulosa chiqarish va ma’lum qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘ladi. Masalan, ustoz-shogird muloqatida shogirdi uchun juda ko‘p axbarot berish mumkin. Yoki mutaxassislarning dehqonlar bilan muloqatini misol keltiraylik. Dehqonlarga qachon, qancha o‘g‘it berish, necha marta haydashi, qachon o‘rishi, qanday o‘rishi kabi ko‘rgazmalar ham og‘zaki muloqat orqali berilishi mumkin.

Ma’ruza va nutuqlar orqali ham juda ko‘p ma’lumotlar beriladi. Msalan, O‘zbekistonning boshqa hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasida tutgan o‘rni, aholining va maxsulot ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari kabi ma’lumotlar tinglovchilarga juda to‘g‘ri va aniq xulosa chiqarish uchunjuda zarur ma’lumotlar bo‘lib hisoblanishi mumkin. Yoki nutuqning biron bir soxada samaradorlikni amalga oshirish uchun olib boriladigan ishlar ko‘lami va natijalari to‘g‘risidagi ma’ruzasi aynan shu soxaga kiruvchi bitta korxona raxbari uchun o‘zining yutuq va kamchiliklarini taxlil qilish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Juda ko‘p axbortlarni radio, televideniya kabi og‘zaki axbarotlar vositalaridan ham olish mumkin. Telefonogramma ham bevosita og‘zaki axborot vositasi sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Shunday qilib, og‘zaki axbortlar, xozirgi paytda, taxlil qilish uchun, ma’lum xulosa chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Kelajakda esa uning rivojlanishi, qo‘llanilish doirasining kengayishi, boshqaruv uchun asos bo‘lishi shak-shubhasizdir.

Hujjatlarda ifodalanadigan axborotlar hozirgi sharoitda iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan asosiy axborotlardir. Ta’kidlanganidek, sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan iqtisodiy jarayonlar, eng avvalo, xujjatlarda ifodalanadi. Bu xujjatlar mulkdor, davlat, ish beruvchi va sohibkorning manfaatini , xaq-huquqini ifoda etish bilan birga, ularni himoyalaydi ham. Masalan, ish beruvchi sohibkorga qancha ishlaganiga qarab ish haqqi to‘laydi. Mulkdor o‘z mulkini bir kishiga xatlab ijaraga bergan bo‘lsa ijarachiShu mulkni son va sifat jihatidan saqlanishi uchun javobgar va h.k.

Demak, ijtimoiy - iqtisodiy hayotimizda xujjatlarning unda ifoda etilgan axborotlarning ahamiyati beqiyos. Xujjatlar ham juda ko‘p, ular turli-tuman . Bu haqida buxgalteriya hisobi fanida to‘liq ma’lumotlar beriladi.

Iqtisodiy tahlilda xujjatlarning jamlangan qismlaridan foydalaniladi. Ular ko‘pincha buxgalteriya, statistik va tezkor hisob-kitoblarda ifodalanadi. Shunday qilib, iqtisodiy jarayonlarni o‘zida aks etadigan xujjatlarda ifodalanadigan birlamchi axborotlar asosan korxona rejasida, buxgalteriya, statistik va tezkor hisob va hisobotlarda o‘z aksini topadi. Bu quyidagi chizmada ifodalangan(6.3-rasm).



5.3-rasm. Hujjatlarda ifodalangan iqtisodiy axborotlarningtasnifi.

Hozirgi paytda hisob-kitob ishlari aksariyat hollarda bevosita kompyuterlar va boshqa hisoblash mashinalarida bajarilmoqda. Ba’zi joylarda esa ushbu ishning aksariyat qismi hamon qo‘l kuchi bilan an’anaviy tarzda amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan mashinalashtirish darajasi bo‘yicha axborotlar ikki guruhga bo‘linadi: mashinalashtirilgan va yarim mashinalashtirilgan .

Mashinalashtirilgan axborotlar asosan perfokartalarda , perfotasmalarda, magnit tasmalarida, disklarda, disketlarda, bevosita kompyuter fayllari kabilarda aks ettiriladi.

Yarim mashinalashtirilgan axborotlarning bir qismi hisoblash mashinalarida va bir qismi an’anaviy tarzda qo‘lda bajarilgan tegishli hisob va hisobotlarda ifodalanadi. Ushbu axborotlarning hammasi iqtisodiyotni boshqarish va tahlil qilish uchun asosiy axborot beruvchi ma’lumot bo‘lib hisoblanadi. Bularning tasnifi quyidagi chizmada keltirilgan (6.4-rasm).



5.4-rasm. Axborotlarning mashinalashtirish darajasi bo‘yicha tasnifi.

5.3. Korxonalarning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini takomillashtirish

Korxonaning moliyaviy hisoboti tarkibida uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi (2-shakl) hisobot muhim ahamiyatga ega. Ammo uni hozirgi erkin iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining milliy andozalariga mos holda takomillashtirishni talab qiladi. Mazkur hisobot to‘g‘ri foydalanish va moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha korxonani boshqarish uchun ularning atroflicha tahlil qilinmog‘i lozim. Shu jihatdan har qanday hisobot tahlil talablariga to‘liq javob berishi darkor.

Shu talabdan kelib chiqib moliyaviy hisobotning 2-shaklini quyidagicha takomillashtirishni tavsiya qilamiz:

1. Mazkur hisobotning boshida yalpi tuShum va davlatga to‘lanadigan soliqlar (QQS, aksiz)ning ko‘rsatilishi shart emas. Chunkiyalpi tuShum tahlil qilishda korxona faoliyatini baholash uchun kerak bo‘lmaydi. Bundan tashqari soliq to‘g‘risida ushbu hujjatning oxirida alohida ma’lumotnoma berilgan. Uni birlashtirish lozim.

2. Korxona to‘laydigan soliqlarni ikki qismga, ya’ni davlat byudjeti va mahalliy byudjetga to‘lanadigan turlari bo‘yicha alohida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Bu birinchidan korxonaning davlat va mahalliy byudjetga qancha hissa qo‘shganligini ko‘rsatsa, ikkinchidan esa soliqlarni alohida turlari bo‘yicha tahlil qilish imkoniyatini ham yaratadi. Erkin iqtisodiyot sharoitida korxonalar to‘laydigan soliqlar tahlil qilinmog‘i lozim, zero bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat bilan munosabatinio‘zida ifodalaydi.

3. Davr xarajatlarining umumiy so‘mmasi va uning alohida turlari hisobotda o‘z ifodasini topishi lozimligidan kelib chiqib, unga ayrim ko‘rsatkichlarni kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan sotish bilan bog‘liq xarajatlarni, ma’muriy boshqaruv xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar. Bu moddaga sohalarga qarab yana turli ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin.

4. Moliyaviy faoliyat natijasining ham umumiy so‘mmasi alohida turlari bo‘yicha ko‘rinib turmog‘i lozim. Shu tufayli hisobotning bu moddasini ham uzgartirishni tavsiya qilamiz. Bu moddani alohida aniq moddalari bilan ifodalash uchun unga uyushma va sho‘‘ba kor-xonalardan olingan dvidendlar, boshqa olingan dvidendlar, uyushma va sho‘‘ba korxonalaridan olingan va berilgan qarzlar bo‘yicha foizlar, boshqa to‘langan va olingan foizlar, valyuta kursi farqi (ijobiy+, salbiy-), uzoq muddatli ijaraga berishdan (lizing) olingan daromadlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromadlar va xarajatlar kabilarni qo‘shish mumkin.

5. Hisobotda favqulotda foyda yoki zarar ko‘rsatilgan. Ammo ular nimalardan tarkib topganligini ham tahlil qilishga to‘g‘ri keladi. Shu tufayli uni ham alohida moddalari bo‘yicha ko‘rsatish lozim. Bunda faoliyati tuxtatilishi bilan bog‘liq zarar, ko‘zda tutilmagan hodisalar bo‘yicha foyda (zarar), boshqa tasoddifiy foyda (zarar)larni ko‘rsatish tavsiya qilinadi.

6. Hisobotda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi ko‘rsatkich sof foyda bilan tugaydi. Lekin moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar turkumiga taqsimlanmagan foyda, to‘langan dvidendlar, jamg‘arilgan foyda kabi ko‘rsatkichlar ham o‘z ifodasini topmog‘i lozim. Shu tufayli mazkur hisobotda Shu ko‘rsatkichlar ham yoritilishi kerak, deb hisoblaymiz.

Bularni inobatga olib, biz moliyaviy hisobot tarkibiga kiruvchi «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ning yangi shaklini ishlab chiqishni tavsiya qilmoqdamiz.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib uning nomini «Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi hisobot» deb o‘zgartirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuningdek byudjetga to‘lanmalar to‘g‘risidagi ma’lumotni ham ushbu hisobotning davomida alohida «Davlat byudjetiga to‘laydigan soliqlar» va

«Mahalliy byudjetga to‘laydigan soliqlar» bo‘yicha ko‘rsatish maqsadga mufofiq.

Davlat byudjetiga to‘lanadigan soliqlarga quyidagilarni kiritishni tavsiya qilamiz: qiymatga qo‘shilgan soliq, aksiz solig‘i, daromad (foyda) solig‘i (buni alohida huquqiy va jismoniy shaxslar bo‘yicha ko‘rsatish lozim), ekologiya solig‘i, qazilma boyliklardan foydalanganlik solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik solig‘i va h.k.

Mahalliy byudjetga to‘lanadigan soliqlar ham quyidagi tartibda alohida ko‘rsatilishi lozim. Bunga: kichik korxonalar uchun yagona soliq, mulk uchun soliq, er solig‘i, qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i, me’yordan ortiqcha ishlab chiqarish zaxirasi uchun to‘lanadigan soliq, mahalliy byudjetga to‘lanadigan boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Bundan tashqari, hozirgi sharoitda korxonalar bevosita eksport va import operatsiyalari bilan ham Shug‘ullanmoqda. Bu faoliyat iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonida takomillashib boradi. Shu uchun eksport bo‘yicha boj to‘lovi, import bo‘yicha boj to‘lovi ham alohida mazkur hisobotda ko‘rsatilishi lozim.

Shuningdek korxona davlat va mahalliy byudjetga o‘z vaqtida soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lamasligi mumkin. Bu bo‘yicha jarima shaklida iqtisodiy jazo qo‘llaniladi. Shu tufayli maxsus qatorda «Byudjetga o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun iqtisodiy jazo (jarima)» so‘mmasi ham ko‘rsatilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Agar bizning tavsiyalarimiz amalga oshadigan bo‘lsa, amaldagi moliyaviy hisobotning 2-shakli «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida» gi hisobot ancha takomillashgan bo‘lur edi. Eng muhimi ushbu hisobot O‘zbekistonda qabul qilingan buxgalteriya hisobining milliy andozalariga yanada moslashgan hamda iqtisodiy tahlil talabiga to‘liq javob bergan bo‘lur edi. Bu esa korxonalarni erkin iqtisodiyot sharoitida samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi.

O‘zini o‘zi tekshirish va takrorlash

1. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlar mazmuni.
2. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlarlardan tahlilda foydalanishpirinsiplari.
3. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlarning bir-biri bilan bog‘liqliktamoyillari.
4. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan axborotlartizimi.
5. Korxonalarning moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotida ifodalanadigan ko‘rsatkichlar.

VI BOB. KORXONALARNING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINIIFODALOVCHI ASOSIY KO‘RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

6.1. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni tahlil qilish usullari

Korxonalarning mahsulot sotishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

- korxonaning yalpi mahsuloti - bu tovar mahsuloti qo‘Shuv tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘i hamda korxonaning o‘zida tayyorlangan yarim-fabrikatlar va asboblardan iboratdir;
- tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tgan,to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan ham o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot tushuniladi;
- sotilgan mahsulot deganda, tovarlar iste’molchilarga jo‘natilib, uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob raqamiga o‘tkazilishi tushuniladi.

Sotish hajmining o‘sish sur’atiga ko‘pginaomillar ta’sir etadi. Bularga mahsulot sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish, mahsulotni o‘z vaqtida iste’molchilarga jo‘natish, uning haqini to‘lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘i kabilar kiradi.

Mahsulot ishlab chiqarishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar - sof mahsulot, me’yoriy sof mahsulotlarni tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sof mahsulot tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar vaasosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizatsiyasi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Me’yoriy sof mahsulot ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo‘shimcha ish haqini, ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalar va me’yoriy foydani jamlash orqali aniqlanadi. Shartli sof mahsulot bu sof mahsulot qo‘shuv asosiy fondlarning amortizasiyasidir.

Korxonalarning xo‘jalik faoliyatiga baho beruvchi muhim mezon - sotish rejasining shartnoma majburiyatini hisobgaolgan holdabajarilishi bo‘lib qoldi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha rejaning bajarilish darajasi 100 foizdan oshmaydi, eng maqbuli 100 foizdir.

Shartnoma majburiyati bo‘yicha rejaning bajarilishini aniqlash uchun biznes- reja hajmidagi sotish summasidan etkazib berilmagan mahsulotlar summasi chiqarilib, so‘ng sotish hajmining biznes-reja darajasiga bo‘linadi.

Tuzilgan shartnoma majburiyatigaasosan iste’molchilarni zarur tovarlar xilma-xilligi bilan ta’minlash sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Korxonalar mahsulot ishlab chiqarish rejasini nafaqat qiymat ifodasida, balki belgilangan assortimenti bo‘yicha bajarilishi zarur. Chunki mahsulotlar turlicha iste’mol xususiyatiga egadirlar, Shu sababli ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha yuzaga kelgan tanqislikni boshqa bir mahsulotlarni ko‘p ishlab

chiqarish bilan to‘ldirib bo‘lmaydi.Korxona faoliyatiga to‘g‘ri baho berishda mahsulotning xilma-xilligi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda eng kam son miqdorini hisobgaolish usuli qo‘llaniladi.

Ushbu usulning mazmuni va mohiyati quyidagicha: tovarlar xilma-xilligi bo‘yicha biznes-rejaning bajarilish darajasini aniqlash uchun avvalo biznes-reja chegarasi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot summasini aniqlash kerak. Buning uchun rejadan ortiqcha yoki biznes-rejada ko‘rsatilmagan mahsulotlar ishlab chiqarish xilma-xilligi bo‘yicha biznes-rejaning o‘rtacha bajarilishini aniqlashda hisobga kirmaydi.

Mahsulot sifati deganda, uning barcha mo‘ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlari majmuasi tuShuniladi. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida mahsulot sifatini baholashda turli ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi. Mahsulot sifatini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda sifatsiz mahsulot uchun iste’molchilarga to‘lanadigan jarimalar, mahsulotni kafolatli ta’mirlovchi ustaxonalarga sarflanadigan xarajatlar kabi ko‘rsatkichlar ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, mahsulot sifatini tahlil qilish usullari tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqqa mansub ekanligiga bog‘liq ekan.

Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha dasturning bajarilishini tahlil qilish jarayonida mahsulotni bir maromda ishlab chiqarishni tashkil qilish kattaahamiyatga ega. Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish deganda, uni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan xilma-xilligi va sifatiga muvofiq etkazib berish vasotishni o‘z vaqtida ta’minlash tushuniladi. Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishning umumlashgan ko‘rsatkichi bir me’yorda ishlash koeffitsienti hisoblanadi, u jadval bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilgan kunlarni umumiy ish kuniga bo‘lish bilan aniqlanadi, odatdaoy hisobida.

6.2. Korxonalarning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi vaulardan samarali foydalanishni tahlil qilish usullari

Korxonalarning ish kuchi bilan bilan ta’minlanishini tahlil qilishda ishlovchi barcha xodimlarning tarkibi aniqlanadi. .Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta’minlanganligi. Ular ikki turkumga bo‘linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo‘lmagan faoliyatdaxizmat qiluvchi xodimlar. O‘z navbatdaasosiy faoliyatdaxizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo‘linadi: ishchilar, xizmatchilar, Shu jumladan, rahbarlar, mutaxassislar va boshqaxizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydilar. Agar rahbarlar, mutaxassislar vaxizmatchilar soni bo‘yicha faqat mutlaq farq aniqlansa, ishchilar soni bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish o‘sish sur’atini hisobgaolgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi. Nisbiy kamlik esa mehnat unumdorligi o‘sganligidan

dalolat beradi.

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, kvartal, yil) ichida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o‘lchanadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o‘lchanadi. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi darajasi tovar mahsulotining hajmini ishlovchilarning soniga nisbati bilan aniqlanadi. Tahlil jarayonini chuqurlashtirish uchun bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik, kunlik va soatlik ish unumdorligi ham hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar tovar mahsuloti hajmini mutanosib tarzda ishchilarning ro‘yxatdagi soniga, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga va kishi-soatlariga nisbati tariqasidaaniqlanad i.

6.3. Asosiy fondlarning tarkibini, holatini va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish usullari

Korxonalar asosiy fondlarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roli bir xil emas. Ular 2 qismga bo‘linadi: - aktiv (faol) asosiy fondlar; - passiv (nofaol) asosiy fondlar. Korxonalarning asosiy fondlari bilan ta’minlanganligini tahlil qilishda larning aktiv va passiv qismining salmog‘i, o‘tgan yillarga nisbatan mutloq farq hamda o‘sish sur’ati aniqlanadi.

Asosiy fondlarning texnik holati qoniqarsiz darajada bo‘lsa, bu o‘z navbatidaasbob- Asosiy fondlarning texnik holatini belgilovchi umumiy ko‘rsakichlardan biri - ularning eskirish koeffitsientidir. Buni aniqlash uchun asosiy fondlarning eskirish summasi ularning boshlang‘ich qiymatiga bo‘linadi. Asosiy fondlarni yangilash koeffitsientini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy fondlar summasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak. Asosiy fondlarning chiqib ketishi koeffitsientini hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy fondlar summasini ularning yil oxiriga bo‘lgan qiymatiga bo‘lish kerak. Asosiy fondlarning ishga yaroqlilik koeffitsientini aniqlash mumkin. Uni aniqlash uchun birdan eskirish koeffitsientini ayirish kerak, ya’ni 1 - Ek .

Mahsulot ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarish nafaqat asosiy fondlarning tarkibi, texnik holati, balki ulardan samarali foydalanishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi fonddan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy fondlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot chiqarilganligin ko‘rsatadi.. Fond samarasi quyidagi formulaorqali ifodalanadi: Tovar mahsuloti (sof tuShum) hajmini asosiy fondlarning qiymatiga bo‘linadi. Fond samarasi ko‘rsatkichining aksi fond sig‘imi, deb ataladi. Ushbu ko‘rsatkich asosiy fondlar qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

6.4. Sanoat korxonalarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishiniva ulardan foydalanishni tahlil qilish usullari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishi o‘z navbatida mehnat buyumlarining ortishigaolib keladi. Agar xalq xo‘jaligining ayrim tarmoqlarida (engil sanoat) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog‘i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning xalq xo‘jaligida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘ramiz.

Korxonalarning moddiy-texnika ta’minoti holatini tahlil qilish uchun ularning ta’minot bo‘limi va omborxona ma’lumotlariga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Ana shu ma’lumotlargaasoslangan holda materiallar guruhi bo‘yicha keltirilishi va biznes-rejaning bajarilishini aniqlash mumkin.

Moddiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish darjasini ifodalovchi umumlashgan ko‘rsatkich material qaytimi hisoblanadi. U moddiy xarajatlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko‘rsatadi. Material samarasini aniqlash uchun tovar mahsuloti yoki sof tushum hajmi moddiy xarajatlar qiymatiga bo‘linadi. Material qaytimi ko‘rsatkichining aksi material sig‘imidir. U bir so‘m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun necha tiyin moddiy xarajatlar to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

6.5. Mahsulot tannarxini tahlil qilish usullari

Mahsulot tannarxi korxonalar xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, korxonalar faoliyatining hamma tomonlarini, ya’ni ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi va ularning ish samaradorligini ko‘rsatadi. Mahsulot tannarxi deganda, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo‘yicha barcha xarajatlarining pul orqali ifodalanishi tushuniladi.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajatlar o‘zlarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq quyidagi xarajat unsurlariga bo‘linadi:

1. Ishlab chiqarish material xarajatlar (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda).
2. Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari.
3. Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug‘urtaajratmalari.
4. Ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlaramortizasiyasi.
5. Ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlar.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jarayonida bir so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat ko‘ratkichini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. U ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati beriladi.

6.6. Mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash usuli

Iqtisodiy tahlilini o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdir. Bu esa asosan uch guruh ishlab chiqarish resurslari - mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog‘liq. Ushbu omillar o‘ziga xos mustaqil ma’noga ega bo‘lishi bilan birga o‘ zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘langandir. Avval har bir omillar guruhi alohida-alohida o‘rganiladi. So‘ngra uchala omillar guruhini tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi yig‘ma rezervlar to‘g‘risida umumiy xulosa beriladi. Komplekt yig‘ma deganda, rezervlarning eng kam summasi olinadi.

❖ O‘z-o‘zini tekshirish savollari

1.Korxonalarning xo‘jalik faoliyatiga dastlabki baho berish tamoyillari.

2.Mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish ko‘rsatkichlarini tahlil qilishning ahamiyati.

3.Sotilgan mahsulot hajmiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

4. Shartnoma bo‘yicha rejani bajarilishi qanday aniqlanadi?

5. Mahsulot sifati deganda nima tuShuniladi?

6. Korxonalarning ishchi kuchi bilan ta’minlanganligini tahlil qilishningmaqsadi va vazifalari.

7. Mehnat unumdorligining hajmining qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

8. Mehnat unumdorligini tahlil qilish usullarining asoslari.

9. Asosiy fondlarning tarkibini tahlil qilish usullari.

10. Asosiy fondlarning texnik holatini ifodalovchi koeffitsientlar.

11. Asosiy fondlardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

12. Material samarasi va material sig‘imi ko‘rstkichlari qanday aniqlanadi?

13. Mahsulot tannarxini deganda nima tuShuniladi va tannarxni aniqlashdan maqsad nima?

14. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajatlar o‘zlarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq qanday xarajat unsurlariga bo‘linadi?

15. Bir so‘mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlar qanday aniqlanadi?

16. Tovar mahsuloti hajmini oshishiga ta’sir qiluvchi omillar.

17. Komplekcrezervni aniqlash usuli.

Mavzu boyicha test savollar

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

A. Ishlovchilar soni, mehnat unumdorligi darajasi, ish vaqti, xom ashyo va materiallar;

B. Ishchilar soni, ularning malakasi, ish vaqti, assoiy fondlar, fond samarasi, material samarasi;

V. Ishchilarning ishlovchilar tarkibida tutgan salmoIi, mehnat unumdorligi, mashina va asbob-uskunalarning jami sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari tarkibida tutgan salmoIi;

G. Mehnat resurslari omillari, mehnat vositalari omillari.

D. Mehnat resurslari omillari, mehnat vositalari omillari, mehnat buyumlari omillari;

2. Bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha yillik ish unumini aniqlang.

A. tovar mahsulot ishchilarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni

B. tovar mahsuloti Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining o‘rtacha ro‘yxatdagi soni

V. tovar mahsuloti Hamma ishchilar tomonidani bir yilda ishlangan kishi-kunlari

G. tovar mahsuloti Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlar

D. tovar mahsulotihamma xodimlar

3. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi mehnat omillarini aniqlang.

A. Ishlovchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlari, hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlarining o‘zgarishi va bir ishchiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha kunlik ish unumining o‘zgarishi.

B. Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi-kunlarining o‘zgarishi, ish kunining o‘rtacha uzunligining o‘zgarishi va bir ishchiga to‘Iri keluvchi o‘rtacha soatlik ish unumining o‘zgarishi.

V.Ishlovchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, bir ishchi tomonidan bir yilda o‘rtacha ishlangan kishi – soatlarining o‘zgarishi, ish kunining o‘rtacha uzunligining o‘zgarishi, bir ishchiga to‘Iri keluvchi o‘rtacha kunlik ish unumining o‘zgarishi.

G.Ishchilarning o‘rtacha ro‘yxatdagi sonining o‘zgarishi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarining o‘zgarishi, ish kunining o‘rtacha uzunligining o‘zgarishi, bir ishchiga to‘gri keluvchi

o‘rtacha kunlik ish unumining o‘zgarishi.

D. To‘g‘ri.

4. Korxonaning asosiy fondlar bilan ta’minlanishi hamda ularning hajmi va tarkibining o‘zgarishini aniqlang.

A. Asosiy fondlarning haqiqatdagi so‘mmasi rejadagi so‘mmasiga taqqoslanadi, uch guruh asosiy fondlar salmog‘ining o‘zgarishi.

B. Asosiy fondlar va sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlar salmog‘iningo‘zgarishi hamda boshqa tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibining o‘zgarishi.

V. Asosiy fondlarning yil boshiga va yil oxiriga bo‘lgan so‘mmasini taqqoslash hamda uch guruh asosiy fondlar salmog‘ini taqqoslash.

G. To‘g‘ri javob yo‘q.

D. Rejadagi assoiy fondlarning so‘mmasi haqiqatdagi so‘mmasi bilan taqqoslash, asosiy fondlarning o‘sish sur’ati, uch guruh asosiy fondlarning salmog‘i.

5. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlardan olinadigan samara (qaytimi) ko‘rsatkichini aniqlang.

A. Tovar mahsuloti hajmini sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati.

B. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

V. Tovar mahsluoti hajmini ishlangan dastgoh-soatlarga nisbati.

G. To‘g‘ri javob yo‘q.

D. Ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsulotiga nisbati.

6. Fond sig‘imi ko‘rsatkichini aniqlang.

A. Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh soatlarga nisbati.

B. Tovar mahsuloti hajmini sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati.

V. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

G. Ishlangan dastgoh-soatlarni tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

D. Tovar mahsuloti hajmini mashina va asbob-uskunalarning o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati.

7. Tovar mahsuloti hajmini o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi mehnat vositalari omillari qanday hisoblanadi?

A. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik qiymatida bo‘lgan farq ularning o‘tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko‘paytiriladi.

2. Fonddan olingan samaradagi farqni joriy yildagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga ko‘paytiriladi.

B. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘rtacha yillik

qiymatida bo‘lgan farq ularning joriy yildagi samaradorlik darajsiga ko‘paytiriladi.

2. Fonddan olingan samaradagi farqni o‘tgan yildagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga ko‘paytiriladi.

V. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining joriy yildagi o‘rtacha yillik qiymati ularning o‘tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko‘paytiriladi.

2. Joriy yili fonddan olingan samarani o‘tgan yildagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga ko‘paytiriladi.

G. 1. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o‘tgan yildagi o‘rtacha yillik qiymati ularning joriy yildagi samaradorlik darajsiga ko‘paytiriladi.

2. O‘tgan yili fonddan olingan samarani joriy yildagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga ko‘paytiriladi.

D. To‘g‘ri javob yo‘q.

8. Korxona faoliyatini baholovchi hajm ko‘rsatkichlarini aniqlang.

A. Ishlovchilar soni, mehnat unumdorligi. Fond samarasi, fond siIimi, material samarasi, materil sig‘imi, fondlar bilan qurollanish darajasi;

B. Asosiy fondlarning miqdori, tarkibi, asosiy fondlarning eskirishi, yangilash va yaroqlilik so‘mmalari;

V. YAlpi foyda, sof foyda, mahsulot sotishdan tushgan foyda, taqsimlanmagan foyda, rentabellik ko‘rsatkichlari;

G. Tovar mahsuloti, sotilgan mahsulot, sof mahsulot;

D. Ishlab chiqarish zahiralari, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, aylanma kapitalning aylanishi.

9. Tovar mahsuloti deganda qanday mahsulot tuShuniladi?

A. YAngidan hosil qilingan qiymat;

B. Asosiy va qo‘shimcha ish xaqini, ijtimoiy sug’urta uchun ajratmalar va foydani jamlash;

V. Mahsulotga ketgan ishlab chiqarish xarajatlari bilan moddiy xarajatlar va asosiy fondlarning amortizatsiyasi so‘mmasi o‘rtasidagi farq;

G. Jami ishlab chiqarish xarajatlari minus mehnat xarajatlari;

D. Barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

10. Sotilgan mahsulot deganda qanday mahsulot tushuniladi?

A. Tovarlarni korxona omborlaridan iste’molchilarga yuborilishi;

B. Hisob-kitob xujjatlarini bankga taqdim qilishi;

V. Tovarlarni iste’molchilarga yuborilib, uning puli mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob schyotiga o‘tkazilishi;

G. Pulni kassaga tushishi (naqd hisob-kitobda)

D. Barcha ishlab chiqarish bosqichlaridan o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

11. Sotilgan mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi

berilgan formula orqali aniqlang.

A. R = T1 –M + T2

B. R = T1 –T2 + M

V. R = T1 + M - T2

G. R = M + T2 + T1

D. R = T1 + T2 + M

12. Sof mahsulot hajmi qanday aniqlanadi?

A. Tovar mahsuloti hajmidan moddiy xarajatlar va amortizatsiya so‘mmasi chegiriladi;

B. Tovar mahsuloti hajmidan moddiy va mehnat xarajatlari chegiriladi;

V. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari chegiriladi;

G. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari va amortizatsiya so‘mmasi chegiriladi;

D. Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari va sotsial sug‘urta uchun ajratmalar so‘mmasi chegiriladi.

D. Haqiqatdagi sotish hajmi sotish hajmining reja darajasiga bo‘linadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

13. Mahsulotning sifati deganda qanday mahsulot tushuniladi?

A. Mahsulotning davlat andozasiga (standart), tarmoq andozasiga, texnikaviy shartlarga mos keladigan hamda iste’molchilarning talablarini qondira oladigan mahsulotlar;

B. Vatanimizda va xorijiy davlatlarda erishiladigan yutuqlarga mos va istiqbolli mahsulotlar;

V. Mahsulot sarxiliga (sortiga) qarab;

G. Mahsulotning barcha mo‘ljallangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli xususiyatlarning majmuasi;

D. YAroqsiz (brak) mahsuloti darajasi, ballar bo‘yicha.

14. Material samarasi ko‘rsatkichini aniqlang.

A. Moddiy xarajatlar so‘mmasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

B. Ishlab chiqarish zaxiralari so‘mmasini tovar mahsulotiga nisbati.

V. Ishlab chiqarish xarajatlari so‘mmasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

G.Tovar mahsuloti hajmini moddiy xarajatlar so‘mmasiga nisbati.

D. Tovar mahsuloti hajmini ishlab chiqarish tannarxiga nisbati.

15. Material sarfi (sig‘imi) ko‘rsaktichini aniqlang.

A. Tovar mahsuloti hajmini moddiy xarajatlar so‘mmasiga nisbati.

B. Moddiy xarajatlar so‘mmasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

V.Tovar mahsluoti hajmini ishlab chiqarish zaxiralari so‘mmasiga nisbati.

G.Ishlab chiqarish zaxiralari so‘mmasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

D. Ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

16. Mahsulot tannarxi nima?

A. me’yoriy ishlab chiqarish xarajatlarining puldagi ifodasi;

B. to‘g‘ri va egri xarajatlarning puolagi ifodasi; V.bevosita va bilvosita xarajatlarning puldagi ifodasi;

G.mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan barcha doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarning puldagi ifodasi;

E.reja bo‘yicha barcha xarajatlarning puldagi ifodasi.

17. Mahsulot tannarxini aniqlashdan maqsad nima?

A. sotish tufayli olingan moliyaviy natijani aniqlash, mahsulotning foydalilik darajasini aniqlash;

B. mahsulotni sotish bahosini belgilash; V.ishlab chiqarishni boshqarish; G.resurslarni taqsimot bahosini belgilash; E.xarajatlarni boshqarishdan iborat.

18. O‘zgaruvchan xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytiladi?

A. mahsulot hajmining o‘zgarishiga bog‘liq tarzda o‘zgaruvchi xarajatlarga;

B. to‘g‘ri va egri xarajatlarga; V.bevosita va bilvosita xarajatlarga; G.faqat material xarajatlarga;

E.barcha turdagi ishlab chiqarish xarajatlariga aytiladi.

19. Mahsulot tannarxini o‘zgirishiga qayday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

A. materiallar bahosi, tarkibi, tuzilmasining o‘zgirishi;

B. ish haqining o‘zgarishi, mahsulotlar miqdorining o‘zgarishi;

V.material xarajatlar bahosining, tarkibining o‘zgarishi, me’yor o‘zgarishi;

G.davr xarajatlari summasining o‘zgarishi; E.mahsulot hajmi, tuzilmasining o‘zgarishi.

20. O‘zgaruvchan xarajatlarga qayday xarajatlar kiradi?

Aijara uchun to‘lovlar, boshqaruv xodimlarining ish haqi;

B.mahsulot ishlab chiqarishda band bo‘lgan ishchilarning mehnat haqi, materiallar, xom ashyo sarflari va boshqa xarajatlar;

V.yangi mahsulotni o‘zlashtirish xarajatlari; G.sotish xarajatlari, ma’muriy, boshqaruv xarajatlar;E.barcha turdagi material xarajatlar.

21. Davr xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?

A. sotish xarajatlari, ma’muriy boshqaruv xarajatlari;

B. umumsex va umumkorxona xarajatlari; V.amortizatsiya, telefon uchun to‘lov, ijara haqi;

G.mahsulot hami o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan barcha o‘zgarmas xarajatlar;

E.sotish xarajatlari.

VII BOB. KORXONALAR MOLIYAVIY HOLATINI TAHLIL QILISH USULLARI

7.1. Moliyaviy holatni tahlil qilishning vazifalari

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy kategoriyalarning iqtisodiy mohiyati va mazmunini bilish, ularni boshqara olish har bir rahbar va mutaxassislar uchun o‘ta muhimdir.

Moliyaviy holat tahliliga ko’plab xorijiy hamda mamlakatimiz olimlari o’z ta‘riflarini ishlab chiqgan. Masalan, M.I. Bakanov moliyaviy holat tahliliga quyidagicha ta‘rif bergan “Moliyaviy holat tahlili deganda moliyaviy resurslarning turlari bo’yicha mavjudligini, raqobatbardoshligini, davlat va boshqa xo’jalik sub‘yektlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalovchi ko’rsatkichlar kabi muhim jihatlar majmuasi tushuniladi” bundan tashqari mamlakatimiz hamda xorijiy olimlar tomonidan korxonaning moliyaviy holatiga berilgan ta‘riflarda ham ko’rishimiz mumkin. Shunday ta‘riflardan biri M.Q.Pardayev tomonidan berilgan ta‘rifir. Unga ko’ra moliyaviy holatga quyidagicha ta‘rif berilgan “Moliyaviy holat- korxonani moliyalashtirishga qodirlik darajasi deb ta’riflagan. Har bir sohaning o’z alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda T.I.Yahyoyev moliyaviy holatga quyidagicha “Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlili korxonaning ayni paytdagi moliyaviy holatini ma’lum belgilangan tahliliy ko’rsatkichlar asosida o„rganish , moliyaviy holatni ifodalovchi ko’rsatkichlarni dinamik hamda tarkibiy o’zgarishni baholash, faoliyat davomida erishilgan natijalarga omillar ta’sirini aniqlash va korxonada mavjud foydalanilmayotgan imkoniyatlarni topish bilan shug’ullanuvchi soha hisoblanadi[96]”deb ta‘rif bergan.

Hozirgi sharoitda amaldagi eng muhim iqtisodiy kategoriyalardan biri moliyadir. Moliyaga, odatda, pul aylanishi jarayonida pul zaxiralarining shakllanishi va ulardan foydalanishni ifodalovchi pul munosabatlari tizimidir, deb qaraladi.

Har qanday davlatda moliyaviy tizim amalda bo‘lib, u o‘zaro tarkibiy bog‘langan ikki kichik tizimni: umumdavlat mablag‘lari va xo‘jalik yurituvchi subyektlari mablag‘lari, ya’ni korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari va boshqalarning mablag‘larini qamrab oladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning mablag‘lari uchta muhim vazifani bajaradi:

- pul zaxiralarini (daromadlarini) shakllantirish;
- bu zaxiralardan foydalanish;

[96] QURILISH KORXONALARINING IQTISODIY TAHLILINING OB"YEKTI SIFATIDA ALOHIDA XUSUSIYATLARI maqolasidan. SERVIS jurnali 178-179 b. 2022-yil.

- ularni shakllantirish va ishlatishni nazorat qilish.

Korxona moliyaviy resurslarini to‘g‘ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo‘ladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli deganda moliyaviy resurslarning turlari bo‘yicha mavjudligini, raqobatbardoshlik darajasini, davlat va boshqa xo‘jalik sub’ektlari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kabi muhim jihatlar majmuasi tuShuniladi.

Korxona moliyaviy ahvolini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Bularga iqtisodiy va moliyaviy salohiyat, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik mulkiy holat; likvidlilik; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar; ish va bozor faolligi samaradorlik kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagi kategoriya va ko‘rsatkichlarni baholash hisoblanadi:

- buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko‘rsatkichlari tuzilmasi;
- iqtisodiy va moliyaviy salohiyat ahvoli, ta’minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
- asosiy va aylanma mablag‘lar ahvoli, ta’minlanganlik va foydalanish samaradorligi;
- iqtisodiy va moliyaviy barqarorlik va mustahkamlik;
- likvidlilik va to‘lov qobiliyati;
- xo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijalari;
- ish va bozor faolligi;
- bankrotlik holati.

Bozor sharoitida har bir rahbar iqtisodiyotning asosiy jixatlari mohiyati va mazmunini, ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda boshqarishni yaxshi bilishi darkor.

Asosiy iqtisodiy jihatlarning biri mablag‘lar oboroti jarayonida pul fondlari shakllanishi va sarflanishini ko‘rsatuvchi pul munosabatlari tizimi bo‘lmish moliya hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy holati turlar bo‘yicha moliyaviy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi, raqobatbardoshlik darajasi, moliyaviy barqarorlik, davlat va boshqa xo‘jalik sub’ektlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodirligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmuini o‘z ichiga oladi.
Aynan ushbu ko‘rsatkichlar tahlil ob’ekti hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni imzolashdan avval rahbar uning tug‘ri tuzilganligiga amin bo‘libgina qolmay, bu hujjatlardan korxona moliyaviy holatini aniqlash maqsadida foydalanishi kerak.

Korxonaning moliyaviy holati dastlab moliyaviy hisobot bilan tashqi tanishib chiqish asosida so‘ng buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilish asosida to‘lik baholanishi mumkin.

7.2. Korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash

Dastlabki baholashdan kelib chiqib korxona rahbari:

- xo‘jalik mablarlari umumiy so‘mmasi va uning yil davomida o‘zgarganligi;
- o‘z va qarz mablag‘lar manbalari so‘mmasi, ularning yil davomida o‘zgarganligi va o‘zaro nisbati;
- o‘z mablag‘lari manbalari so‘mmasining oborotdan tashqari (uzoq muddatli) aktivlar so‘mmasiga nisbati;
- korxona majburiyatlari (qarzdorligi) so‘mmasining oborot aktivlari so‘mmasiga nisbati;
- zaxiralar va xarajatlarning yil davomida o‘zgarishi;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjudligi hamda ularning yil davomida o‘zgarishini aniqlashi mumkin.

Xo‘jalik mablag‘lari umumiy summasi buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida aniqlanadi. «Turon» OTAJ buyicha misolimizda (avvalgi bobdagi 1.2-jadvalga qarang) u 29537 ming so‘mni tashkil etadi va yil davomida 2390 ming so‘mga ko‘paydi (29537 ming so‘m - 27147 ming so‘m). O‘z (balans passivi 1-bo‘limi yakuni) va qarz (balans passivi 2-bo‘limi yakuni) mablag‘lari xo‘jalik mablag‘lari manbalari bo‘lishi mumkin. Tahlil qilinayotgan yil oxiriga kelib korxonaning o‘z mablag‘lari 21703 ming so‘mni tashkil etdi hamda u yil davomida 18 ming so‘mga (21703 ming c¢ì - 19882 ming so‘m) oshdi. Buxgalteriya balansidan ko‘rinib typibdiki, mablag‘larni tashkil etish manbalarining asosiy qismini aynan o‘z mablag‘lari tashkil etdi. Bu mazkur korxonaning moliyaviy barqapop ekanligini bildiradi.

O‘z mablag‘lari tarkibida 13211 ming so‘mi ustav sarmoyasidir. Buning ulushi eng yuqori. Korxona rahbari buxgalteriya balansini tahlil qilganda, eng avvalo, ustav sarmoyasining o‘tgan yilga nisbatan qancha o‘zgarganligiga e’tibor karatishi lozim.

O‘z mablag‘lari so‘mmasi, odatda, uzoq muddatli aktivlar (balans aktivi 1-bo‘limi yakuni) va majburiyatlar (balans passivi 2-bo‘lim yakuni) so‘mmasidan ortiq bo‘lishi darkor. O‘z mablag‘larning uzok, muddatli aktivlardan ortiq bo‘lgan so‘mmasi majburiyatlarning bir qismini qoplashga yo‘naltirligan bo‘ladi. «Turon» OTAJda yil oxirida o‘z mablag‘lari manbalari uzok muddatli aktivlardan 8732 ming so‘mga (21703 ming so‘m - 12971 ming so‘m) hamda qarz majburiyatlaridan 13869 ming so‘mga (21703 ming so‘m 7834 ming so‘m) ortiqdir.

Agar o‘z mablag‘lari manbalari uzoq muddatli aktivlardan kam bo‘lsa, bu oborot mablarlari to‘liq majburiyatlar hisobiga shakllanganligidan dalolat beradi hamda korxonaning to‘lovga qodir emasligi va uning moliyaviy

holatining yomonligini ko‘rsatadi.

Qarz mablag‘larida kreditorlik qarzdorligiga e’tibor karatish lozim. Misolimizda kreditorlik qarzdorlik hisobot davrida 2511 ming so‘mni tashkil etgan hamda 482 ming so‘mga ko‘paygan (2511 ming so‘m - 2244 ming so‘m).

Qarz mablag‘lari («Turon» OTAJning tahlil davri yil oxiridagi majburiyatlari) 7834 ming so‘m (balans passivi 2-bo‘limi yakuni) bo‘lgan va yil davomida 664 ming so‘mga oshgan (7834 ming so‘m - 7170 ming so‘m), biroq ular so‘mmasi o‘z mablag‘lari so‘mmasidan 13869 ming so‘mga kamligicha qolgan (21703 ming so‘m - 7834 ming so‘m). Bu oddiy hol bo‘lib, manbalarda korxonaning o‘z mablag‘lari ustunlik qilishidan dalolat beradi.

Agar qarz mablag‘lari o‘z mablag‘lardan ko‘p bo‘lganida qisqa muddatli qarzdorlik uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga sarflanganligi hamda oborot aktivlarini to‘liq qoplashini aks ettirardi. Bunday vaziyat maq’ul bo‘lmay, korxonaning to‘lovga qobil emasligi va moliyaviy barqaror bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.

«Debitorlik va kreditorlik qarzdorligi haqida ma’lumotnoma» (2-shakl) asosida muddati o‘tgan kreditorlik qarzlar mavjudligi aniqlanadi. Korxona rahbari buning sabablarini aniqlashi zarur. Bundan tashqari, u buxgalteriya balansi aktivida:

- asosiy mablag‘lar dastlabki qiymati va eskirishi;
- ishlab chiqarish zahiralari, tugatilmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot so‘mmasi;
- oborot aktivlari so‘mmasi;
- debitorlik qarzdorligi va ayniqsa uning muddati uzaytirilgan qismi miqdoridagi o‘zgarishlarning ro‘y berganligi kabi holatlarga diqqatini qaratishi kerak.

Balans aktivi 1-«Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida asosiy vositalar eng ko‘p so‘mmani tashkil etadi. Balansda ularning dastlabki qiymati, eskirishi va qoldiq qiymati ko‘rsatiladi.

Balansni ko‘rib chiqayotganda eskirish so‘mmasi va uning qoldiq qiymatiga e’tibor qaratish darkor. Eskirish so‘mmasining dastlabki qiymatga nisbati asosiy vositalar eskirishi darajasini, qoldiq qiymatning dastlabki qiymatga nisbati esa - ular yaroqliligini aks ettiradi. Eskirish darajasining oshib ketishi korxona asosiy vositalari jismonan ham eskirganligini ko‘rsatadi.

Korxona mahsulot turlari va sifati bo‘yicha raqobatbardoshli bo‘lishi uchun ishlab chiqarish jihozlarini vaqti-vaqti bilan yangilab turish, yangi texnologiyalarni joriy qilish kerak.

Misolimizda, asosiy vositalar dastlabki qiymat bo‘yicha hisobot yilida 1143 ming so‘mga ko‘paygan va 15247 ming so‘mni tashkil etgan. Biroq,

qoldiq qiymati atigi 674 ming so‘mga oshgan. Bu asosiy vositalarning eskirish darajasi keskin oshib ketganligi oqibatidir. Eskirish koeffitsienti 0,36ni tashkil etadi, ya’ni asosiy vositalarning 36 foizi ta’mirlanishi yoki yangilanishi lozim.

Buxgalteriya balansini ko‘rib chiqar ekan, rahbar ishlab chiqarish zahiralari, tugatilmagan ishlab chiqarish va tayyor maxhsulot mavjudligiga e’tibor berishi kerak. Bu mablag‘lar guruhini «Zaxiralar va xarajatlar» yoki «Tovar-moddiy xarajatlar» (TMX) deb nomlash qabul qilingan. Ularning ko‘payishi biror darajada oborot mablag‘lari immobilizatsiyasi, ya’ni mablag‘larni qiyin amalga oshiriladigan aktivlarga jalb qilinishiga olib keladi. Ishlab chiqarish zahiralarining keskin oshib ketishi ehtiyojdan ortiq xom ashyo xarid qilinishi yoki ishlab chiqarish hajmi kamayganligi oqibati bo‘lishi mumkin.

Tugatilmagan ishlab chiqarishning ko‘payishi tayyorlanayotgan mahsulotning kamligiga, tayyor mahsulot ko‘payib ketishi esa ularni sotishda qiyinchiliklarga olib kelish ehtimoli bor.

«Turon» OTAJ buxgalteriya balansida hisobot davrida zahiralar va xarajatlar so‘mmasi 1111 ming so‘mga (12631 ming so‘m - 11520 ming so‘m) oshib ketdi hamda u 12631 ming so‘mni tashkil etdi. Oborot mablag‘lari ushbu guruhida yil davomida tayyor mahsulot eng ko‘p - 2478 ming so‘mga (4089 ming so‘m - 1611 ming so‘m) oshgan. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi sifatsizligi va raqobatga bardosh bera olmasligi oqibatida yaxshi sotilmayotganligi bilan izohlanadi.

Buxgalteriya balansini ko‘rib chiqishda debitorlik qarzdorligi o‘zgarishiga ham katta ahamiyat berish lozim. Chunki bu masala eng muhim masalalardan biridir.

Debitorlik qarzdorligining katta so‘mmada shakllanishi korxona mablag‘larining immobilizatsiyasi, oborotdan chiqib ketishiga olib keladi. 2-a shakl asosida aniqlanadigan muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi ayniqsa salbiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

«Turon» OTAJda hisobot yili oxiridagi debitorlik qarzdorligi 3631 ming so‘mni tashkil etdi hamda yil davomida u 1382 ming so‘mga (3631 ming so‘m - 2249 ming so‘m) ko‘paydi. Muddati o‘zaytirilgan qarzdorlik esa - 2382 ming so‘m bo‘lib, u yil davomida 532 ming so‘mga (2382 ming so‘m -1850 ming so‘m) oshgan. Korxona rahbari bunday holat sabablarini aniqlashi va tegishli joylarda buni tuShuntirib berishga tayyor bo‘lishi lozim.

Shu tariqa, rahbar buxgalteriya balansini ko‘rib chiqayotganida korxonaning quyidagilarni tavsiflovchi manbalari va mablag‘lari mavjudligini nazarda tutish darkor:

- xo‘jalik faoliyatini yaxshilash (umumiy sarmoya o‘sishi; o‘z mablag‘lari manbalari; oborot mablag‘lari so‘mmasi va ulushi oshganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari kamayganligi);

• korxona moliyaviy holati yomonlashganligi (xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasida majburiyatlar ulushi o‘sganligi; debitorlik va kreditorlik qarzlari, ayniqsa, muddati utgan qismining ko‘payganligi; zaxiralar va xarajatlarda mablag‘lar summasi va ulushi, asosiy vositalar eskirishi darajasi oshganligi).

Korxonaning moliyaviy holati haqida yanada to‘liq ma’lumotlar olish uchun ularning to‘liq tahlilini utkazish maqsadga muvofik. Bu ish iqtisodchi yoki bosh buxgalterga topshirilishi mumkin. Tahlil materiallari rahbarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun oson qilib tuzilishi lozim.

Yuqorida aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, korxonaning moliyaviy holatini baholash mulkiy holati, likvidliligi, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy natijalarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Korxonaning ish faolligi moliyaviy holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Moliyaviy holat o‘z navbatida korxonaning bozor faolligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlilning dastlabki baholash holatida shu masalalarga ham alohida e’tiborniqaratish lozim.

Korxona moliyaviy holatini buxgalteriya balansi ma’lumotlariga asosan dastlabki baholash hisobot davri oxiridagi balans moddalarini yil boshidagi ma’lumotlar bilan taqqoslash va farqlarni aniqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Balansning muayyan moddalari bo‘yicha o‘zgarishlar korxona xo‘jalik faoliyati natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

7.3. Korxona moliyaviy holatini to‘liq baholash

Balans umumiy so‘mmasi korxonaning muayyan bo‘lim va moddalarda taqsimlangan barcha mablag‘larni aks ettiradi.

Balans alohida moddalari va bo‘limlari so‘mmalarining umumiy yakunga nisbati ularning balans so‘mmasidagi ulushini tashkil qiladi. Moddalarning muayyan sanadagi ulushlari balansning tarkibiy tuzilmasi deyiladi. U korxona xo‘jalik faoliyati tuzilishi hamda amalga oshirilgan ishlarga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, savdoni olsak, balans aktivida tovar zaxiralari, sanoatda esa asosiy vositalar, ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlar muhim o‘rin tutishi mumkin.

Bozor munosabatlari shartlarida olinadigan kreditlar uchun foizlar yuqori bo‘lganligi sababli, balans passividagi manbalarda o‘z mablag‘lar ustunlik qilishi kerak. Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi, xo‘jalik faoliyati natijasida mablag‘lar tarkibi va ular manbalarida ro‘y bergan o‘zgarishlar o‘rganiladi, mablag‘lar qanchalik tug‘ri joylashtirilganligi izohlanadi va korxona moliyaviy xolati oldindan baholanadi.

Xususan, balans tuzilmasi tahlil qilinayotganda oborotdan tashqari (uzoq muddatli) va o6îrot aktivlari, o‘z va jalb qilingan mablag‘lar manbalari

o‘rtasidagi nisbat aniqlanadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning o‘zgarganligi, uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlardan foydalanish samaradorligi ko‘rib chiqiladi, bu o‘zgarishlarga baho beriladi (7.1-jadval).

7.1-jadval

«Turon» OTAJning hisobot yilidagi qisqartirilgan buxgalteriya balansi

(so‘mmasi, ming so‘m; ulushi, %)

Aktiv	**Yil boshida**		**Yil oxirida**	
1. Uzoq muddatli aktivlar	**nma-si**	**ulu-shi**	**nma-si**	**ulushi**
Asosiy vositalar birlamchi qiymati bo‘yicha eskirish qoldiq qiymati bo‘yichaKapital qo‘yilmalar Uzoq muddatli investitsiya	 14104 5039 9065 3923 39	 51,95 18,56 33,39 14,45 0,14	 15247 5508 9739 3175 57	 51,62 18,65 32,97 10,75 0,19
Jami bo‘lim bo‘yicha	13027	47,99	12971	43,91
2. Oborot aktivlari				
Ishlab chiqarish zaxiralari Tugallanmagan ishlab chiqarishTayyor mahsulot Qayta sotish uchun tovarlarPul mablag‘lari Valyuta mablag‘lari Kassadagi pul mablag‘lari	8925 909 1611 75 42 309 -	32,88 3,35 5,93 0,28 0,15 1,14 -	7588 966 4089 8 151 140 13	25,69 3,27 13,84 0,03 0,51 0,47 0,04
Debitor xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar byudjet bilan hisob-kitoblar xodimlar bilan hisob-kitoblarboshqa debitorlar	1224 51 - 947 -	4,51 0,19 - 3,49 -	2123 42 1 1465 -	7,19 0,14 0,003 4,96 -
Jami bo‘lim bo‘yicha	**14120**	**52,01**	**16566**	**56,09**
Jami aktivlar bo‘yicha	**27147**	**100,0**	**29537**	**100,0**

Passiv	Yil boshida		Yil oxirida	
1. O‘z mablag‘lari manbalari	**so‘mma-si**	**ulushi**	**mmasi**	**ulushi**
Ustav sarmoyasi	13211	48,66	13211	44,73
Qo‘shilgan sarmoya	-	-	129	0,44
Rezerv sarmoyasi	5015	18,47	4356	14,75
Taqsimlanmagan foyda maq-sadli	1362	5,02	3459	11,71
tuShumlar va fondlar	294	1,08	74	0,25
Kelajak davr chiqimlari	-	-	474	1,60
Jami bo‘lim bo‘yicha	19882	73,24	21703	73,48
2. Majburiyatlar				
Uzoq muddatli qarzlarQisqa muddatli qarzlar	95 - 1241	0,35 - 4,57	- 97	- 0,33
Xaridorlar va buyurtmachi lardan olingan bo‘naklar			1723	4,31
Kreditorlar	2244	8,27	2511	8,50
Etkazib beruvchilar byudjet bo‘yicha qarzdorlik ish	3342	12,31	2685	9,09
haqi bo‘yicha qarzdorlik ijtimoiy sug‘urta va ta’-minotbo‘yicha qarzdorlik	124 78	0,46 0,29	160 60	0,54 0,20
boshqa kreditorlar	141	0,52	598	2,02
	-	-	-	-
Jami bo‘lim bo‘yicha	**7265**	**26,74**	**7834**	**26,52**
Jami passiv bo‘yicha	**27147**	**100,0**	**29537**	**100,0**

«Turon» OTAJ misolida buxgalteriya balansi tuzilmasidan kelib chiqib, yuqorida ta’kidlanganidek xo‘jalik mablag‘lari yil mobaynida 2390 ming so‘mga oshdi hamda 29537 ming sumni tashkil etdi. Hisobot davrida mablag‘lar manbalari (balans passivi) va ularni joylashtirishda (balans aktivi) o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Mablag‘lar manbalarida o‘z mablag‘lari ustunlik qilmoqda. Ular xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasining 73,5 foizini tashkil etadi va yil mobaynida 0,3 foizga oshganligini ko‘rsatadi.

Majburiyatlar, ya’ni qarz va kreditlar ko‘rinishida olingan mablag‘lar

ulushi 26,5 foiz bo‘lib, yil mobaynida 0,3 foizga kamaydi.

O‘z mablag‘lari manbalari ustunlik qilgan tuzilma ìàššáóë bo‘lib, u korxonaning moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi.

Bundan keyin jalb kilingan mablag‘lar tuzilmasi va ayniqsa kreditorlik qarzdorligiga e’tibor qaratish lozim. Hisobot davri oxirida butun qarzdorlik qisqa muddatli hisoblanadi. Uning asosiy qismini byudjetga qarzdorlik tashkil etadi - barcha xo‘jalik mablag‘lari 9,1 foiz, mahsulot etkazib beruvchilarga qarzdorlik - 8,5 foiz, buyurtmachilar va xaridorlardan olingan bo‘naklar - 5,8 foiz bo‘ldi. Shu tariqa, tovarlar, xom ashyo va materiallar uchun qarzdorlik 14,3 foiz (5,8 + 8,5) bo‘lib, u yil mobaynida 1,4 foizga oshdi (14,3- 12,9).

«Turon» OTAJ bo‘yicha mablag‘lar manbalari (balans aktivi) yil boshida uzoq muddatli aktivlarda - 43,9 foiz, oborot aktivlarida - 56,1 foiz tarzida joylashtirilgan. Hisobot davri uchun oborot aktivlarida bo‘lgan mablag‘lar ulushi 4,1 foizga (56,1 - 52,0) oshgan.

Balans tuzilmasini tahlil qilishda oborot aktivlari tuzilmasi maxsus ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularda debitorlik qarzdorligi xo‘jalik mablag‘larida eng yuqori ulushga ega bo‘ladi. U 12,3 foiz bo‘lib, yil mobaynida 4,0 foizga (12,3 - 8,3) ko‘paydi. Pul mablag‘lari solishtirma og‘irligi pasaygani holda tovar-moddiy zaxiralari ulushi ham 0,3 foizga oshdi. Balans aktivida oborot mablag‘lari ulushi oshgan bo‘lsa-da, bu qiyin sotiladigan aktivlar hisobiga amalga oshdi. Bu esa korxona likvidliligiga (to‘lovga qobilligiga) salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z va qarz mablag‘larining ko‘payishi asosan tayyor mahsulot qoldiqlari (2478 ming so‘m) va debitorlik qarzdorligini (1382 ming so‘m) qoplashga sarflandi.

Korxona moliyaviy holatini baholashda mablag‘lar so‘mmasi va ular turlari bo‘yicha manbalari mulkiy holati tahlil qilinishi shart. Ularga quyidagilar kiradi:

- **Sarmoyaning umumiy hajmi (Cap.) -** korxona ixtiyoridagi xo‘jalik mablag‘lari so‘mmasi. Ubuxgalteriya balansi - netto yakuniga tengdir:

Cap. = 1-sh., 310 yoki 550-satr

- **O‘z mablag‘lari (sarmoyasi) (US) -** korxonaning muayyan sanadagi o‘z mablag‘lari, ular balans passivi 1-bo‘limi yakuni bo‘yicha aniqlanadi:

US = 1P.

- **Oborotdagi o‘z mablag‘lar** (OUM) - oborotda bo‘lgan o‘z mablag‘lari hajmi. Ular o‘z sarmoyasiga (US) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) qo‘shish hamda asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar (aktiv 1-bo‘limi) so‘mmasini (IA) ayirish orqali aniqlanadi:

OUM = US + UM - IA.

Bu ko‘rsatkichni mobil (joriy) aktivlar (JA) va joriy majburiyatlar (JM)

orasidagi farq sifatida ham aniqlash mumkin:

OUM = JA - JM = 2A - (2P - UM).

- **Harakatdagi mablag‘lar (sarmoya)** *(HS)* - oborotda muntazam qatnashadigan o‘z oborot mablag‘lari hajmi. O‘z oborot mablag‘lari, Shuningdek muddati o‘zaytirilgan debitorlik qarzdorlikda ham bo‘ladi, u oborotda uzoq vaqt ishtirok etmay, u immobillashgan (ya’ni boshqa narsaga jalb etilgan) bo‘ladi. Shuning uchun HSni aniqlash uchun OO‘Mdan 2a- «Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida axborot» shaklida aks etgan muddati o‘tgan debitorlik qarzdorligini (MUDK) chegirib tashlash kerak:

HS = OO‘M - MUDK

- **Jalb qilingan mablag‘lar (sarmoya)** (JS) - uzoq muddatli (UM)va joriy majburiyatlar (JM) yig‘rindisidir, u korxonaning hozirgi paytdagi qarzlari miqdorini ko‘rsatadi va u balans passivi 2-bo‘limi yakuniga tengdir (2P):

JS = UM +JM = 2P.

- * **Joriy aktivlar** (JA) («Mobil aktivlar», «Oborot mablag‘lari» deb ham ataladi) - zaxira, xarajat, pul mablag‘lari hamda debitorlik qarzdorligida bo‘lgan mablag‘larni aks ettiradi, ya’ni u balans aktivi 2-bo‘limi yakuniga tengdir:

JA = 2A.

Ularni asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlardan farqli ravishda qarzdorlar bilan hisob-kitob qilish uchun tez qaytarib olish mumkin bo‘lganligi sababli mobil aktiv deyiladi.

- **Joriy yoki qisqa muddatli majburiyatlar** (JM) -yil mobaynida to‘lanishi zarur bo‘lgan qarzdorlik. Unga qisqa muddatli qarzlar, kreditlar, olingan bunaklar kiritiladi. Bu so‘mmani aniqlash uchun balans passivi 2-bo‘limi yakunidan (2P) uzoq muddatli majburiyatlarni (UM) chegirib tashlash kerak. Uning formulasi:

JM = 2P - UM.

- **Uzoq muddatli aktivlar** (UMA) (ularni «Immobillashgan aktivlar» deb nomlash qabul qilingan) - asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar yig‘indisibo‘lib, ular oborot mablag‘lari (mobil aktivlar)dan farqli ravishda sekinroq aylanadi va balans aktivi 1-bo‘limi yakuni bo‘yicha aniqlanadi. Uning formulasi quyidagichadir:

UMA = 1A.

- **Uzoq muddatli majburiyatlar** (UM) - bu uzoq vaqt foydalanishga mo‘ljallab olingan kredit va qarzlar. Ular balans passivi 2- bo‘limida ko‘rsatiladi (400 va 410-satrlar):

UM = 1-sh., 400-satr + 410-satr.

- **Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari** (IZX) - ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo‘lgan oborot mablag‘lari. Tez likvidli

aktivlardan farqli ravishda ular ko‘proq muomalada bo‘ladi va joriy majburiyatlarni qoplash uchun darhol qaytarib olinmaydi:

IZX = Ishl.zax. + Tugat. Ishl. + Tay.mah. + Tovar + + Bo‘lajak davr xar.

- **Tez likvidli aktivlar (TLA)** - yaqin vaqt ichida qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lardir. Ularga pul mablag‘lari va debitorlik qarzdorligi va muddati utgan qarzdorlik ayirmasi kiritiladi:

TLA = Pul mab. + (DQ - MUQ).

Korxona mulkiy holati ko‘rsatkichlari asosida uning sifat o‘zgarishlari, xo‘jalik mablag‘lari tuzilmasi hamda ular manbalari haqida xulosa chiqarish mumkin. Balans aktivi asosida OTAJ mulkiy holatini tahlil qilishda mazkur izohlovchi ko‘rsatkichlar hisob-kitob qilingan. Ularning yil mobaynidagi va qator yillar ichidagi o‘zgarishlari aniqlangan (7.2-jadval).

7.2-jadval

«Turon» OTAJ mol-mulki holatini hisobot davrida baholash (ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	**Yil boshida**		**Yil oxirida**		**Farqi**	
	so‘mma	**sol.og‘.**	**mm a**	**sol.og‘.**	**mm a**	**sol.og‘.**
O‘z sarmoyasi (O‘s)	19882	73,2	21703	73,5	+1821	+0,3
Jalb qilingan sarmoya (Js)	7365	26,8	7834	26,5	+569	-0,3
Joriy (mobil) aktivlar (Ja)	14120	52,0	16566	56,1	+2446	+4,1
Joriy majburiyatlar (Jm)	7170	26,4	7834	26,5	+664	0,1
Uzoq muddatli majburiyatlar (Um)	95	0,3	-	-	-95	-0,3
Uzoq muddatli aktivlar (Uma)	13027	48,0	12971	43,9	-56	-4,1
Asosiy vositalar (Av)	9065	33,4	9739	33,0	+674	-0,4
Oborotdagi o‘z mablag‘lari (Oo‘m)	6950	25,6	8732	29,6	+1782	+4,0
Harakatdagi sarmoya (Hs)	5100	18,8	6452	21,8	+1352	+3,0
Tez likvidli aktivlar (Tla)	750	2,8	1553	5,3	+803	+2,5

Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari (Izx)	11520	42,4	12631	42,8	+1111	+0,4
Mul mablag‘lari (Pul.mab.)	351	1,3	304	1,0	-47	-0,3
Debitorlik qarzdorligi (Dq)	2249	8,3	3631	12,3	+1382	+4,0
jumladan muddati o’tgan (Mudq)	1850	6,8	2382	8,1	+532	+1,3
Kreditorlik qarzdorligi (Kq)	5929	21,8	6014	20,4	+85	-1,4
jumladan muddati o’tgan (Mukq)	2650	9,8	2534	8,6	-116	1,2
Xo‘jalik mablag‘lari y so‘mmasi(Sar)	27147	100	29537	100	+2390	-

Jadval ma’lumotlari xo‘jalik mablag‘larining asosiy so‘mmasini o‘z mablag‘lari (73,5 foiz), Shuningdek, joriy aktivlar (oborot mablag‘lari) - 56,1 foiz tashkil etadi. Hisobot yili oxiridagi o‘z oborot mablag‘lari 8732 ming so‘m yoki barcha xo‘jalik mablag‘larining 29,6 foizini tashkil etdi. Biroq harakatdagi sarmoya, ya’ni haqiqatdan ham oborotda qatnashadigan o‘z oborot mablag‘lari muddati utgan debitorlik qarzdorlik mavjudligi sababli 6452 ming so‘mga teng yoki 21,8 foiz. Ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarida bo‘lgan mablag‘lari katta ulushiga ega (42,8 foiz), tez likvidli aktivlar esa xo‘jalik aktivlarining atigi 5,3 foiziga tengdir.

OTAJ mulkiy holatini qoniqarli deb topish mumkin. Xo‘jalik mablag‘larida o‘z mablag‘lar manbalari (73,5 foiz) ustunlik qiladi. Joriy aktivlar joriy majburiyatlarni qariyb ikki barobar qoplaydi. Bu mablag‘larni yaxshi aylantirish imkonini beradi. Joriy aktivlarda o‘z oborot mablag‘lari eng katta ulushga ega. Biroq, ularning katta qismi qiyin sotiladigan aktivlarga jalb qilingan (ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlari -12631 ming so‘m yoki barcha xo‘jalik mablag‘larining 42,8 foizi va debitorlik qarzdorligi - 3631 ming so‘m yoki 12,3 foizi).

Bularning barchasi hamda muddati uzaytirilgan debitorlik qarzdorligi bo‘yicha katta so‘mmaning mavjudligi xo‘jalik mablag‘lari tuzilmasining yomonlashganligidan va ularning OTAJ moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatganligidan dalolat beradi.

Tahlil qilingan tomonlardan tashqari xo‘jalik mablag‘lari tuzilmasi

ko‘p jihatdan korxonaning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish hajmi va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi. Biroq mulkiy holatni ko‘rib chiqish korxona moliyaviy holati asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

7.4. Qurilish korxonalari moliyaviy holatini xalqaro standartlarga mos baholash.

Iqtisodiyotda ikki subyekt o’rtasida amalga oshiriladigan savdo hamda xizmat ko’rsatishga asos bo’luvchi xujjat bu shartnoma hisoblanadi.

11-son BHXS “Qurilish shartnomalari” bo’yicha qurilish shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan.

Qurilish shartnomasi - biron bir aktivni yoki o‘zining loyihasi, texnologiyasi va vazifasi yoki yakuniy foydalanish maqsadi bo‘yicha o‘zaro aloqador va bir biriga chambarchas bog‘liq aktivlar guruhini qurish uchun maxsus kelishilgan shartnomadir[97].

Ushbu standart bo’yicha qurilish korxonalari tomonidan tuziladigan qurilish shartnomalari ikki turga ajratilgan.



7.1-rasm. 11-son BHXS bo’yicha qurilish shartnomalari

Alabatta tuzilgan qurilish shartnomasida keltirilishi lozim bo’lgan birlamchi rekvizitlar, bajariladigan qurilish ishining hajmi, bajarilish muddati, buyurtmachi hamda pudratchining huquq va majburiyatlari, nizoli masalalarni

[97] 11-son BHXS “Qurilish shartnomalari”

hal qilish yo’llari keltirilgan bo’lishi shart.

Milliy standartlar bo’yicha qurilish shartnomalarida umumiy bajariladigan qurilish ishlari sifati shartnoma predmeti ko’rsatib o’tiladi, ammo xalqaro standart bo’yicha qurilish shartnomasi predmeti sifatida qurilish ishlari 2 xil tasniflanadi:

1. Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatish yuzasidan shartnomalar;
2. Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan shartnomalar, va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash shartnomalari.

Bundan kelib chiqadiki buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga ko’ra qurilish ishlarining hisobi ham aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni hisobi hamda aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan shartnomalar, va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bilan bog’liq qurilish xizmatlari hisobi sifatida yurutiladi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarning tub negizida barcha iqtisodiy sohalarni uzluksiz rivojlantirib borish hamda barcha iqtisodiy sohalar bo’yicha jahon bozorida o’z o’rnini egallash yotadi.

Jahon bozoriga chiqish uchun esa albatta dastlab iqtisodiyotning barcha indekatorlarini, ko’rsatkichlarini hamda hisob yuritish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish talab etiladi.

Bu borada hisob yuritish hamda qurilish tizimini isloh qilish bo’yicha bir muncha islohatlar amalga oshirilmoqda.

Bundan kelib chiqadiki qurilish sohasida hisobni yuritish, qurilish korxonalarining iqtisodiy jihatini baholash, xalqaro standartlarga asoslangan hisob ma’lumotlari asosida tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Olib borilgan tahlillar natijasida qurilish korxonalarida amalga oshiriladigan qurilish ishlarini tasniflashda yangi hisob obyekti yaratilish xususiyatiga ko’ra 2 turga ajratish taklif qilindi.

1. Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar;
2. Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlar.

Ushbu yondashuvdan kelib chiqgan holda qurilish korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish jarayonida ushbu ikki turdagi qurilish xizmatlari hisobi alohida aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar hamda aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlar sifatida yuritilishi taklif qilindi.

Hisob yurutish jarayonida 21-son BHMS dan foydalanilsa hamda hisob yuritishda schyotlar tizimi saqlab qolingan bo’lsa quyidagi schyotlar tizimi ochilishi hamda foydalanishi maqsadga muvofiq deb topildi.

7.3-jadval

Xalqaro standartlar asosida bajarilgan qurilish xizmatlari hisobini yurutishda foydalanilishi taklif qilingan schyotlar tizimi.

№	Hisob ko’rsatkichlari	Schyot nomeri	Schyot nomi
1	Ko’rsatilgan xizmat tannarxi yig’ilishi	2010	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar tannarxi yig’ilishi
		2020	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlar tannarxi yig’ilishi
2	Ko’rsatilgan xizmat tannarxi	9131	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar tannarxi
		9132	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlar tannarxi
3	Ko’rsatilgan xizmat daromadi	9031	Aktivning qurilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmatlar dan olingan daromadlar
		9032	Aktivni buzish yoki qayta tiklash yuzasidan va aktivni buzgandan keyingi atrof muhitni tiklash bo’yicha ko’rsatiladigan xizmatlardan olingan daromadlar

Ushbu buxgalteriya hisob schyotlarining ochilishi hamda hisobni yuritishda foydalanilishi qurilish korxonalarida hisob hamda tahlilni amalga oshirishda, shu bilan bir qatorda statistik hisobot shakllarining to’ldirilishida ko’plab imkoniyatlarni yaratadi.

Qurilish korxonalarida to’lovga qodirlik tahlili.

Qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida asosiy etibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihatlardan biri tahlil natijasi avvalo investorlar talablariga moslashtirilish lozim. Buning sababi moliyaviy hisob xalqaro standartlari asosida shakllantirilgan hisobot shakllari yani tahlilning asosiy axborot manbasi asosan investorlar uchun xizmat qiladi.

Korxonalarda moliyaviy holatni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan

biri bu korxonaning to‘lovga qodirlik koeffitsentidir. Bu koeffitsentni aniqlash uchun dastlab xalqaro standartlar bo‘yicha majburiyatlarni so‘ndirish tartiblrini ko‘rib chiqamiz.

37-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar”da majburiyatlar – bu tashkilotning bo‘lib o‘tgan hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarligi bo‘lib, so‘ndirilishi natijasida tashkilotdan o‘zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishi kutiladi[98]. Ushbu standartga asosan majburiyatlar asosiy majburiyatlar, baholangan majburiyatlar, yuridik majburiyatlar hamda shartli majburiyatlarga bo‘linadi. 19-son MHXSShQ Sharhi “Moliyaviy majburiyatlarni ulushli instrumentlar bilan so‘ndirish”da debitor va kreditor debitorning kreditorga ulushli instrumentlar chiqarish orqali majburiyatni qisman yoki to‘liq so‘ndirish bilan natijalanadigan moliyaviy majburiyat shartlarini qayta ko‘rib chiqishlari mumkin. Bunday operatsiyalar ba’zida “Ulushli instrumentlar evaziga qarz instrumentlari svoplari” kabi ataladi deb izohlangan[99]. Yana bir standartga sharhda 17-son MHXSShQ Sharhi “Pulsiz aktivlarning mulkdorlarga taqsimlanishi”da esa moliyaviy xisobotning halqaro standardlari (MHXSlar) tashkilot o‘zining mulkdorlariga aktivlar taqsimlanishini (odatda dividendlar deb yuritiladi) qanday baholash lozimligi to‘g‘risida ko‘rsatma bermaydi . 1-son BHXS tashkilotdan aktivlar taqsimlanishi sifatida tan olingan dividendlar tafsilotlarini mulkdorlarga xususiy kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi xisobotda yoki moliyaviy xisobotlarga izohlarda taqdim etishni talab qiladi. Mazkur sharh tashkilot tomonidan mulkdor sifatida ishtirok etadigan mulkdorlarga aktivlarning qaytarilmas taqsimlanishining quyidagi turlariga nisbatan qo‘llanadi: a) pulsiz aktivlarni taqsimlash (masalan, asosiy vositalar, 3-son MHXSda belgilangan bizneslar, boshqa tashkilotdagi egalik ulushlari yoki 5-son MHXSda belgilangan xisobdan chiqarilgan guruhlar); va b) mulkdorlarga pulsiz aktivlarni yoki pul muqobilini tanlash imkoniyatini beradigan taqsimlash deb berilgan. Bundan kelib chiqadiki xalqaro amaliyotda korxona majburiyatlarini so‘ndirishda uzoq muddatli investitsiyalardan ham foydalaniladi. Shundan kelib chiqib qurilish korxonalarida to‘lov qobiliyati koeffitsentini quyidagicha aniqlashni tavsiya qilamiz.

$$TQK = \frac{JA + UMI + VFBFS}{MKM}$$

Bu yerda:
TQK – to‘lovga qodirlik koeffitsenti,
JA-joriy aktivlar

[98] 37-сон Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти “Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар”.
[99] 19-сон МҲХСШҚ Шарҳи “Молиявий мажбуриятларни улушли инструментлар билан сўндириш”.

UMI – uzoq muddatli investitsiyalar,

VFBFS – vaqtinchalik farqlar bo‘yicha foyda solig‘i,

MKM - muddati kelgan majburiyatlar.

Berilgan ushbu tavsiya orqali to‘lovga qodirlik koeffitsenti aniqlanganda korxonaning real to‘lovga qodirlik darajasi ifodalanadi. Buning sababi yuqorida keltirib o‘tilganidek xalqaro standartlarga muvofiq korxonalar majburiyatlarini so‘ndirishda malum bir biznesning bir qismidan foydalanishi yoki malum olingan aksiya yoki obligatsiyalar orqali ham amalga oshirishi mumkin. Bundan tashqari uzoq muddatli debitorlik qarzlari tarkibida qaytarilishi mumkin bo‘lgan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha foyda solig‘idan ham foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xalqaro darajada korxonining moliyaviy holatini ifodalab beruvchi yana bir muhim ko‘rsatkichlardan biri bu moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkichni aniqlashdan oldin korxona uchun shartli aktiv, baholangan aktiv, shartli majburiyat hamda baholangan majburiyat tushunchalariga aniqlik kiritib olamiz.

Baholangan majburiyat– bu noaniq bajarish muddatiga yoki noaniq qiymatga ega bo‘lgan majburiyatdir.

Shartli majburiyat - bu: (a) oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning to‘liq nazorati ostida bo‘lmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli javobgarlikdir; yoki (b) oldingi hodisalardan yuzaga keladigan mavjud javobgarlik, lekin ular tan olinmaydi, chunki: (i) javobgarlikni bajarish uchun o‘zida iqtisodiy nafni mujassamlashtirgan resurslarning chiqib ketishining talab etilishi ehtimoli yo‘q; yoki (ii) javobgarlikning qiymati yetarli darajada ishonchli baholana olmaydi.

Shartli aktiv – bu oldingi hodisalardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan va uning mavjudligi faqatgina tashkilotning to‘liq nazorati ostida bo‘lmagan kelgusi noaniq hodisalarning biri yoki bir nechtasi sodir bo‘lishi yoki sodir bo‘lmasligi natijasida tasdiqlanadigan ehtimolli aktivdir[100].

Qurilish korxonalarida ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar tahlili

Korxonalar tomonidan amalga oshirilgan operatsion faoliyatning dastlabki moliyaviy natijasi bu daromaddir. Daromad hamda xarajat o’rtasidagi tafovutning kattarib borishi korxonaning foyadasini oshishiga hamda rentabellikning o’sishiga olib keladi.

Vazirlar mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy

[100]37-сон Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти Баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар ва шартли активлар.

natijalarni shakllantirish tartibi” to’g’risidagi 54-son nizomga ko’ra korxonalar faoliyati birlamchi moliyaviy natijasi sifatida daromadlar quyidagicha guruhlangan.



7.2.-rasm. Vazirlar Mahkamasining 54-son nizomi bo’yicha daromadlar

Ushbu daromad turlaridan hamda 54-son nizomda belgilangan xarajatlar bo’yicha qurilish korxonasining daromadlilik darajalari quyidagicha aniqlanadi.

1. Qurilish korxonalari tomanidan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadliligi.

$$QXD = \frac{Sof\ tushum}{Ko'rsatilganqurilish\ xizmatlari\ tannarxi}$$

2. Qurilish korxonalarining asosiy faoliyati daromadliligi.

$$AFD = QXD + \frac{Asosiy\ faoliyat\ boshqa\ daromadlari}{Davr\ xarajatlari}$$

3. Qurilish korxonalarining umumxo’jalik faoliyati daromadliligi.

$$UXFD = AFD + \frac{Moliyaviy\ faoliyat\ daromadlari}{Moliyaviy\ faoliyat\ bo'yichaxarajatlar}$$

4. Qurilish korxonalarining soliq to’langunga qadar daromadliligi.

$$STQD = UXFD + \frac{Favqulotda\ foyda}{Favqulotda\ zarar}$$

5. Korxonaning umumiy daromadlilik ko’rsatkichi.

$$UD = \frac{Jami\ daromad}{Jami\ xarajat}$$

11-son buxgalteriya hisobi xalqaro standarti bo’yicha qurilish korxonalari tomonidan ko’rsatilgan qurilish xizmatlaridan olinadigan daromadlarni ikki turga bo’lgan.

Shartnomada kelishilgan dastlabki summa.

Shartnomada ko’zda tutilgan ishlar o’zgarishidan olinadigan daromadlar, davolar hamda rag’batlantirish summalari.

Da’volar bo‘yicha daromadlar - bu shartnoma narxiga kiritilmagan xarajatlarning buyurtmachi yoki boshqa shaxs tomonidan qoplanishi sifatida pudratchi tomonidan olinishi kutilayotgan summa. Da’vo quyidagilar natijasida yuzaga kelishi mumkin: masalan, buyurtmachining aybi bilan yo‘l qo‘yilgan kechiktirishlar, qurilish ob’ektiga qo‘yiladigan texnik talablardagi yoki uning loyihasidagi yo‘l qo‘yilgan xatolar, va shartnoma bo‘yicha ishlarga tortishuvga sabab bo‘ladigan o‘zgartirishlarni kiritish. Da’volar natijasida yuzaga keluvchi daromad summasi yuqori darajadagi noaniqlik bilan baholanishi mumkin, va ko‘pincha muzokaralar natijasiga bog‘liq.

Rag‘batlantirish to‘lovlari shartnomada belgilangan ishlarni bajarishning me’yoriy ko‘rsatkichlariga erishilganda yoki oshirib bajarilganda pudratchiga to‘lanadigan qo‘shimcha summalardir. Masalan, pudratchiga shartnomani muddatidan oldin bajargani uchun rag‘balantirish to‘lovi amalga oshirilishi shartnomada ko‘zda tutilishi mumkin[101].

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi hamda auditorlik faoliyatini yurutishni xalqaro talablarga moslashtirilayotgan bir paytda iqtisodiy tahlil jarayonini faqatgina milliy standartlar asosida amalga oshirish bu iqtisodiy tahlil natijalari faqatgina milliy darajada tan olinishi demakdir. Vaholanki mamlakatimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlari bo’yicha xalqaro investitsiya oqimlarini olib kirishga hamda xalqaro bozorga chiqishga bosqichma bosqich o’tib bormoqda.

Xalqaro bozorga chiqishda albatta xalqaro bozor talablariga javob berish kerak. Shu boisdan qurilish korxonalarida daromadlar tahlili amalga oshirilganda dastlab xalqaro standart talablari asosida amalga oshirilgan buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanilishi lozim.

[101] 11-son BHXS

Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan qurilish xizmatlari bo'yicha daromadlarga quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

7.4-jadval

Qurilish korxonalari tomonidan bajariladigan qurilish xizmatlari bo'yicha daromadlarga beriladigan buxgalteriya yozuvlari

№	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt
1	Shartnomada kelishilgan dastlabki summa bo'yicha bajarilgan qurilish xizmatiga	Byurtmachilar oldidagi debitorlik qarz	Ko'rsatilgan xizmatdan olingan daromad
2	Kutilayotgan rag'batlantirish hamda davolar bo'yicha summalarga	Shartli aktiv (kutilayotgan debitorlik qarz)	Muddati kechiktirilgan daromad

Ushbu buxgalteriya yozuvlari asosida shakllangan qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlaridan olingan daromadlar tahlilida qurilish korxonalari tomanidan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadliligi ikkiga bo'lib o'rganilishi maqsadga muvofiq deb topildi.

1. Shartnomada keltirilgan dastlabki summa bo'yicha qurilish korxonalari tomanidan bajarilgan qurilish xizmatlari daromadliligi.

$$DSBD = \frac{Dastlabki\ summa\ bo'yicha\ bajarilgan\ qurilish\ xizmatlaridan\ olingan\ daromad}{Ko'rsatilgan\ qurilish\ xizmatlari\ tannarxi}$$

2. Qurilish korxonalari tomanidan bajarilgan qurilish xizmatlari umumiy daromadliligi.

$$KXD = \frac{Dastlabki\ summa\ bo'yicha\ bajarilgan\ qurilish\ xizmatlaridan\ olingan\ daromad + \text{Kutilayotgan rag'batlantirish hamda davolar bo'yicha summalar}}{Ko'rsatilgan\ qurilish\ xizmatlari\ tannarxi}$$

Ushbu ko'rsatkichlarning aniqlanishi qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlarining dastlab vujudga kelishi aniq bo'lgan daromadlilik darajasini ifodalasa, ikkinchi tahliliy ko'rsatkichda esa kutilayotgan qo'shimcha daromadlilik darajasini ifodalab beradi.

Qurilish korxonalarida ko'rsatilgan qurilish xizmatlari bo'yicha xarajatlar hisobi hamda tahlili.

Qurilish korxonalarida xarajatlar 11-son buxgalteriya hisobi xalqaro standarti bo'yicha quyidagicha guruhlanadi[102].

[102] 11-son BHXS

1. muayyan shartnoma bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

2. shartnoma bo‘yicha faoliyatga umuman taaluqli bo‘lgan va shartnoma qiymatiga taqsimlanishi mumkin bo‘lgan xarajatlar;

3. shartnoma shartlari ostida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatlar.

Muayyan shartnoma bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. qurilishga oid mexnat haqini to‘lash bo‘yicha xarajatlar, shu jumladan qurilish maydonini kuzatish xarajatlari;

2. qurilishda ishlatilgan xomashyo va materiallar;

3. shartnomani bajarishda foydalanilgan asosiy vositalarning eskirishi;

4. asosiy vositalarni va materiallarni qurilish maydoniga olib kelish va olib chiqish bo‘yicha xarajatlar;

5. asosiy vositalarning ijarasi bo‘yicha xarajatlar;

6. shartnoma bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan konstruktorlik va texnik yordam bo‘yicha xarajatlar;

7. kamchiliklarni yo‘qotish va kafolatlangan ishlar hajmini bajarish bo‘yicha taxminiy baholangan xarajatlar, shu jumladan kafolatlangan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kutilayotgan xarajatlar;

8. uchinchi tomonlarning da’vo-e’tirozlari.

Shartnoma bo‘yicha faoliyatga umuman taaluqli bo‘lgan va muayyan shartnoma qiymatiga taqsimlanishi mumkin bo‘lgan xarajatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. sug‘urta xarajatlari;

2. muayyan shartnomaga bevosita tegishli bo‘lmagan konstruktorlik va texnik yordam bo‘yicha xarajatlar;

3. qurilish bo‘yicha ustama xarajatlari.

Bunday xarajatlar sistematik va ratsional hamda o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan barcha xarajatlarga izchil ravishda qo‘llaniladigan usullar yordamida taqsimlanadi. Xarajatlar qurilish ishlari bajarilishining normal sur’atlariga asoslangan holda taqsimlanadi. Qurilish bo‘yicha ustama xarajatlari, masalan qurilish bo‘yicha ishchilarga to‘lanadigan ish haqini hisoblash va to‘lov qaydnomalarini tayyorlashga oid xarajatlarni, o‘z ichiga oladi. Shartnoma bo‘yicha faoliyatga umuman taaluqli bo‘lgan va muayyan shartnoma qiymatiga kiritilishi mumkin bo‘lgan xarajatlar qarzlar bo‘yicha xarajatlarni qamrab oladi.

Shartnoma shartlari ostida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatlar shartnomada qoplanishi alohida belgilangan ba’zi umumiy ma’muriy xarajatlarni va tajriba-konstruktorlik xarajatlarini qamrab olishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda Vazirlar mahkamasining

“Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish” tartibi to’g’risidagi 54-son nizom talablari hamda xalqaro standartlar talablari bo’yicha qurilish korxonalari tomonidan ko’rsatilgan qurilish xizmati tannarxiga olib boriladigan xarajatlar tarkibi birmuncha farq qiladi.



7.3-rasm. Shartnoma bo’yicha qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlari tannarxiga kiritiladigan xarajatlar

Ushbu xarajatlar tarkibi bo’yicha ham farqlanadi. Masalan, qonunchiligimiz bo’yicha korxonada qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi xodimlarga ish haqi hisoblashni amalga oshiruvchi ishchiga hisoblangan ish haqi korxonaning ma’muriy xarajati sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirib o’tilgan xarajatlar tarkibi bo’yicha ham farqlanadi. Masalan, qonunchiligimiz bo’yicha korxonada qurilish xizmatlarini ko’rsatuvchi xodimlarga ish haqi hisoblashni amalga oshiruvchi ishchiga hisoblangan ish haqi korxonaning ma’muriy xarajati sifatida qaraladi hamda quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Dt: Ma’muriy xarajat (9420) **Kt:** Xodimlar oldida kreditorlik qarz (6710)

Xalqaro standartlar bo’yicha ushbu hisoblangan ish haqi ustama xarajati sifatida qaraladi. Bunda buxgalteriya yozuvi quyidagicha berilishi tavsiya etiladi.

1. Ish haqi hisoblandi.

Dt: Qurilish xizmatlari bo’yicha ustama xarajatlari

Kt: Xodimlar oldidagi kreditorlik qarzlari

2. Ustama xarajatlar tannarxiga olib borildi.
Dt: Ko’rsatilgan qurilish xizmati tannarxi
Kt: Qurilish xizmatlari bo’yicha ustama xarajatlari

Milliy hamda xalqaro standartlarning farqli jihatlaridan yana biri bu qurilish xizmatlarida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatdir.

Ushbu jarayon bo’yicha quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Masalan: Buyurtmachi hamda pudratchi tomonidan 100.0 p.b. ga qurilish xizmatlarini amalga oshirish bo’yicha shartnoma imzolandi. Buyurtmachi faqatgina qurilish materiallaridan pishgan g’isht materialini o’zi yetkazib berishi hamda qolgan barcha xarajatlar pudratchi tomonidan amalga oshirilishi kelishib olindi. Smeta bo’yicha barcha xarajatlar 85 p.b. ga teng, shundan 15 p.b. xarajat pishgan g’isht materialiga to’g’ri keladi. Ushbu holda xalqaro standart boyicha xarajatlarni tan olish yuzasidan quyidagicha buxgalteriya yozuvi berilishi tavsiya etildi.

7.5-jadval

Xalqaro standart bo’yicha xarajatlarni tan olish yuzasidan beriladigan buxgalteriya yozuvlari

№	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt	Summa
1	Ko’rsatilgan xizmatga qilingan xarajatlar summasiga	Ko’rsatilgan xizmat tannarxi	Ishlatilgan resurs	70 p.b.
2	Byurtmachi tomonidan qoplanadigan xarajat summasiga	Byurtmachi oldida debitorlik qarz	Byurtmachi tomonidan kelib tushadigan maqsadli tushum	15 p.b.
3	Pishgan g’ishtning kelib tushishi	Qurilish materiallari	Byurtmachi oldida debitorlik qarz	15 p.b.
4	Byurtmachi tomonidan qoplangan xarajat summasiga	Byurtmachi tomonidan qoplangan xarajat	Qurilish materiallari	15 p.b.
5	Maqsadli tushumning yopilishi	Byurtmachi tomonidan kelib tushadigan maqsadli tushum	Byurtmachi tomonidan qoplangan xarajat	15 p.b.

Ushbu buxgalteriya yozuvlarining berilishi hamda hisobda foydalanilishi korxonaga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

- Korxona tomonidan alohida qilingan xarajat summamalari aniqligiga erishiladi;
- Byurtmachi tomonidan qoplanadigan xarajat summasining qancha qaysi ko’rinishdagi aktiv sifatida kiritilishi aniqlashtiriladi;
- Xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi hisob shakllanadi.

VIII BOB. BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI

8.1. Buxgalteriya balansi tahlili mazmuni va vazifalari

Buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi, xo‘jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni to‘playdi hamda oshkor qiladi.

Buxgalteriya balansida uzoq muddatli va joriy aktivlar, o‘z sarmoyasi, uzoq muddatli va joriy majburiyatlar hamda ularni oshkor qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun yordam bera oladigan axborotdan iborat bo‘ladi.

8.1-jadval

Buxgalteriya balansini turlari

Tarkiblash belgisi	Balans turlari	mazmuni
Tuzilish davriga ko‘ra	Tashkil topish balansi	Korxonaning tashkil topish vaqtida to‘ziladi
	Joriy balanslar	Korxonaning uzluksiz faoliyatida, qonunda belgilangan muddatlarda to‘ziladi
	Tugatish balansi	Korxona tugatilganda tuziladigan balans
	Bo‘lish balansi	Yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo‘linish vaqtida
	Birlashtirish balansi	Bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi
Axborot hajmiga ko‘ra	Bir martalik	Bir martalik balans faqat bitta korxona bo‘yicha joriy hisob asosida to‘ziladi
	Yig‘ma balans	Yig‘ma balans bir martalik balanslar asosida to‘ziladi va birlashmalar (vazirliklar, qo‘mita va boshqarmalar va shu kabilar)ning xo‘jalik mablag‘larini aks ettiradi
Aks ettirish ob’ektiga ko‘ra	Mustaqil balans	Mustaqil balansni huquqiy shaxs bo‘lgan barcha korxonalar tuzadi
	Alohida balans	Alohida balansni korxonaning tarkibiy bo‘linmalari (filiallar, bo‘limlar, sho‘ba va qaram xo‘jaliklar va shu kabilar) tuzadi.
Tozalash usuliga ko‘ra	Brutto balans	Tartibga soluvchi moddalarni o‘z ichiga oluvchi balansdir
	Netto blans	Qiymatidan tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans

Buxgalteriya balansidagi barcha axborot to‘g‘ri oshkor qilinishi va foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Zarur hollarda buxgalteriya

balansiga kiritiladigan moddalar ularni tushuntirib beradigan axborotlar bilan to‘ldiriladi.

«Balans» atamasi lotincha bis ikki marta, banx - tarozi pallasi so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, ikkala palla degan ma’noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Buxgalteriya balansini turli tasnifiy belgilari (to‘zilish vaqti, axborot hajmi, aks ettirish ob’ekti, tozalash usuli) bo‘yicha turlarini tarkiblash mumkin.

Buxgalteriya balansining maqsadi- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning buxgalteriya balansi uning resurslarini va moliyaviy tarkibini anglab yetishga imkoniyat berishi uchun hisobot vaqtidagi moliyaviy ahvolni aks ettirishdan iborat. Balansning jamlangan qatorlari bo‘yicha tasnifiy jihatlarini quyida ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Joriy va uzoq muddatli aktivlarni tasniflash.

Har bir sub’ekt joriy aktivlarni va joriy majburiyatlarni buxgalteriya balansida alohida tasnif sifatida ko‘rsatishni (yoki ko‘rsatmaslikni) belgilab olishi lozim. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt bu tasnifni amalga oshirmaydigan variantni tanlab olsa, aktivlar va majburiyatlarni to‘lash muddatlariga doir axborot nima bo‘lganda ham bugalteriya hisobining milliy standartlariga asosan ochib ko‘rsatilishi zarur.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aniq belgilanadigan operatsiya siklidan foydalanib tovarlar va xizmatlarni yetkazib bersa, u holda balans hisobotidagi joriy va uzoq muddatli aktivlar hamda majburiyatlarning alohida tasnif etilishi aylanma mablag‘ sifatida doimo muomalada bo‘ladigan sof aktivlar bilan sub’ektning uzoq muddatli operatsiyalarida foydalaniladigan aktivlar o‘rtasidagi tafovutni farqlash yo‘li bilan juda foydali axborotga ega bo‘linadi. Shuningdek, u joriy operatsiya sikli davomida olinishi kutilayotgan aktivlarni hamda shu davr ichida to‘lanishi lozim bo‘lgan majburiyatlarni ham alohida ko‘rsatishi lozim.

Agar aktivlar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt operatsion faoliyatining bir qismi bo‘lsa va sub’ektning operatsiya sikli me’yorida o‘tayotgan paytda uni olish yoki iste’mol qilish kutilayotgan bo‘lsa mazkur aktivlar joriy aktivlar qatoriga kiritiladi

Agar aktivlar qayta sotish maqsadida yoki qisqa muddatda ushlab turilgan bo‘lsa va undan hisobot vaqtidan keyingi 12 oy mobaynida foydalanish kutilayotgan bo‘lsa, bunday hollarda u joriy aktiv sifatida tasnif etilishi zarur. Ushbu tasnifiy jixatlardan farqli jixatlarda boshqa barcha aktivlar uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilishi kerak.

Odatda joriy aktivlarning ikki turi tarkiblanadi:

-birinchi turi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aylanma mablag‘ining bir qismi bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning me’yoriy operatsion sikli

davomida olingan yoki iste’mol qilingan yuo‘lishi lozim;

-ikkinchi turi operatsiya aktivlari bo‘lmagan, lekin savdo yoki investitsiya maqsadlarida saqlab turilgan va ularni hisobot vaqtidan keyingi 12 oy davomida sotish kutilayotgan joriy aktivlar doirasidan iborat. Hisobot sanasidan keyingi 12 oy davomida olinadigan yoki iste’mol qilinadigan zaxiralar va debitorlik qarzlari xam joriy aktivlarga kiritiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning operatsion sikli - bu materiallarni xarid qilish, ishlab chiqarish va naqd pulga yoki osonlik bilan pulga aylantiriladigan moliyaviy aktivlarga sotish o‘rtasidagi o‘rtacha vaqtdir. Uzoq muddatli va joriy operatsion aktivlarni tasnif etish maqsadida ayni shu tarmoq yoki faoliyatning shu turi uchun kattaroq davr ancha muvofiqroq hisoblanmasa, bir yil oraliq operatsion sikl hisoblanadi.

Uzoq muddatli (nojoriy) aktivlar- sub’ekt faoliyatida uzoq muddatli asosda foydalaniladigan aktivlar, jumladan sub’ektning mulki, binolari va uskunalari, moddiy aktivlari, taraqqiyot va gudvillga xarajatlar. Investitsiyalash maqsadida saqlab turilgan va hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida sotilishi mumkin bo‘lmagan aktivlardir.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar- hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitob qilinadigan majburiyatlardir.

Joriy majburiyatlarning tavsifi joriy aktivlar tavsifiga o‘xshashdir. Kreditorlik qarzi ish haqi, soliqlar bo‘yicha qarzlar va boshqa operatsiya xarajatlari bo‘yicha qarzlar kabi ayrim joriy majburiyatlar joriy aktivlar hisobidan hisob-kitob qilishni talab qiladi, chunki sub’ektning odatdagi operatsiyasi siklida foydalaniladigan aylanma mablag‘ni tashkil etuvchi moddalar bo‘yicha majburiy hisoblanadi. Bunday operatsiya moddalari hatto hisobot vaqtidan so‘ng 12 oydan ortiq davr davomida ham hisob-kitob qilinishi lozim bo‘lsada, joriy majburiyatlar hisobida tasnif qilinadi.

Joriy majburiyatlarga shuningdek bank overdraftlari, to‘lanadigan dividendlar, daromad soliqlari, savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan o‘zga kreditorlik qarzlari, foizlarni to‘lashni talab qiladigan qisqa muddatli majburiyatlarning joriy qismi kiradi. Ular hisobot kunidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitobni talab etsada, operatsiya sikli nuqtai nazaridan joriyligini aniqlash qiyin.

Uzoq muddatli asosda aylanma mablag‘dan pul bilan ta’minlanadigan, foizni to‘lashni talab qiluvchi majburiyatlar (12 oy davomida hisob-kitob qilinmaydigan majburiyatlar) uzoq muddatli (nojoriy) majburiyatlar hisoblanadi.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarni qayta moliyalash tartibi.

Qisqa muddatli (joriy) majburiyatlar -hisobot sanasidan boshlab 12 oy davomida hisob-kitob qilinishi lozim bo‘lgan majburiyatlardir.

Dastlabki muddat 12 oydan ko‘proq bo‘lsa, sub’ekt majburiyatni uzoq

muddatli asosda qayta moliyalashni rejalashtirayotgan bo‘lsa, bu tartiblar moliyaviy hisobot ma’qullangunga qadar qaytadan moliyalashga yoki to‘lovlar muddatini o‘zgartirishga qaratilgan bitim bilan qo‘llab-quvvatlansa, bunday sharoitda nojoriy majburiyatlar sifatida tasnif etilishi lozim.

Joriy majburiyatlardan chiqarib yuboriladigan har qanday qisqa muddatli qarz miqdori uni taqdim etishni qo‘llab-quvvatlovchi axborot bilan birgalikda buxgalteriya balansiga izohlarda ochib berilishi lozim.

Buxgalteriya balansida aks ettirilishi lozim bo‘lgan axborot.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning buxgalteriya balansi moliyaviy holatning tarkibini tashkil etuvchi turli jihatlarni aks ettiradigan tarzda taqdim etilishi lozim. Quyidagilar buxgalteriya balansining majburiy unsurlari hisoblanadi:

- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy aktivlar;
- zaxiralar;
- debitorlik qarzi;
- pul mablag‘i va pul ekvivalentlari;
- kreditorlik qarzi;
- ajratmalar;
- foiz to‘lashni talab qiluvchi majburiyatlar;
- o‘z sarmoyasi va zaxiralari.

8.2-jadval

Buxgalteriya balansi unsurlari

Balans unsurlari	Tasnifiy unsurlari
Moddiy aktivlar	Asosiy vositalar, moddiy aktivlarga ko‘yilmalar, moddiy aktivlarga foydali sarmoyalar, uzoq muddatli investitsiyalar, materiallar, tovarlar, tayyor maxsulotlar
Nomoddiy aktivlar	Moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan mol-mulk ob’ektlari
Moliyaviy aktivlar	Uzoq muddatli investitsiyalar, uzoq muddatli debitor qarzlar, uzoq muddatli kechimktirilgan xarajatlar, debitorlik majburiyatlari
Zaxiralar	Kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo‘lgan xususiy sarmoyaning bir qismi
Debitorlik qarzi	Xaridor va buyurtmachilarning qarzi, ajratilgan bulinmalarning qarzi, shu’ba va karam xujalik jamiyatlarning qarzi, xodimlarga berilgan bunaklar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bunaklar,byudjetga solik va yigimlar bo‘yicha bunak to‘lovlari, maksadli davlat jamgarmalari va

	sugurtalar bo‘yicha bunak to‘lovlari, ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi, boshqa debitor qarzlar
Pul mablag‘i va pul ekvivalentlari	Kassadagi pul mablag‘lari, xisob raqamidagi pul mablag‘lari, chet el valyutasidagi pul mablag‘lari, bshka pul mablag‘lari va ekvivalentlari
Kreditorlik qarzi	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz, ajratilgan bulinmalarga qarz, shu’ba va karam xujalik jamiyatlarga qarz, kechiktirilgan daromadlar, solik va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bunaklar, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sugurtalar bo‘yicha qarz, maksadli jamgarmalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta’sischilarga bo’lgan qarzlar, mexnatga xak t’'lash bo‘yicha qarz
Ajratmalar	Qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriluvchi (amortizatsiya, byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga va h.k.) ajratmalar
Foiz to‘lashni talab qiluvchi majburiyatlar	Kreditlar, qarzlar, ssudalar, dividendlar bo‘yicha yuzaga keluvchi majburiyatlar
O‘z sarmoyasi va zaxiralari	O‘z sarmoyasi -subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Zaxiralar –zarar oqibatlaridan qo‘shimcha muxofoza qilish yuzasidan barpo elilgan fondlar

Taxminiy baholashning ko‘pgina darajasidan foydalanish yo‘li bilangina baholash mumkin bo‘lgan majburiyatlar zaxira hisoblanadi. Subyektni va kredit bergan tashkilotlarni zarar oqibatlaridan qo‘shimcha muhofaza qilishni ta’minlash uchun qonun yoki ustavda zaxiralarni barpo etish ko‘zda tutiladi.

Balansga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda taqdim etiladigan axborot.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansiga tushuntirishlarda quyidagilarni ochib berishi lozim:

a) Aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasi bo‘yicha: e’lon qilingan aksiyalar sonini, chiqarilgan, haqi to‘la to‘langan, chiqarilgan, lekin haqi to‘la to‘lanmagan aksiyalar sonini, aksiyalarning nominal qiymatini, yilning boshida va oxirida haqi to‘lanmagan aksiyalar sonining kamayishini, aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasiga taalluqli huquqlar, afzalliklar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarni taqsimlash va sarmoyani qoplashga doir cheklashni, jamiyatning o‘ziga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektga qarashli shu’ba va uyushgan jamiyatlariga tegishli aksiyalar, opsion va savdo kontrakti

bo‘yicha emissiya uchun zaxiraga ajratilgan aksiyalar, shu jumladan ularning muddatlari va miqdorlari haqidagi axborotlar;

v) O‘z sarmoyasidagi zaxiralar mohiyati va maqsadlari bayoni.

s) Majburiyatlarda dividendlarni to‘lash uchun ajratilgan pul miqdorining mavjudligi (aksiyadorlar yoki muassislar, ishtirokchilar yig‘ilishida rasmiy ravishda ma’qullanmagan to‘lovlar miqdorining mavjudligi) xaqidagi axborotlar ochib berilishi zarur.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘z sarmoyasidagi o‘zgarishlarni aniq aks ettirishi yuzasidan buxgalteriya balansiga izoxlar, xisob-kitoblar va tushuntirishlarda shuningdek:

- davr boshida va hisobot sanasida to‘plangan foyda yoki zararlarning qoldig‘i hamda shu davrda yuz bergan muhim o‘zgarishlar, jumladan aksiyadorlar (muassislar, ishtirokchilar) har bir toifasiga shu davr uchun taqsimlanadigan sof foyda xaqidagi;

- o‘z sarmoyasi har bir toifasi joriy miqdordagi hamda davrning boshlari va oxirida zaxiradagi o‘zgarishlarning umumiy miqdori haqidagi axborotlarni ochib berishi lozim.

Buxgalteriya balansi tahlilining mamuni- korxonaning mulkiy xolati va uning o‘zgarishlariga, aktivlar, karital va majburiyatlarning tarkibi va o‘zgarishlariga, balans moddalarining likvidlik darajasiga, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lov layoqatiga, moliyaviy barqarorligiga, ish aktivligiga, raqobatbardoshligi va iqtisodiy taxlikalarga bardoshligiga baho berishdan iborat.

Buxgalteriya balansi tahlili oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

-korxonaning mulkiy va moliyaviy xolatini baholash;

-aktivlarning likvidligini baholash;

-aktivlarni shakllantirish manbalari tarkibini baholash;

-majburiyatlarning aktivlar bilan taminlanganligini baholash;

-aktivlar va passivlarning aloxida guruxlari o‘rtasidagi muvofiqlikni baholash;

-aktivlarni pul ishlab topish imokniyatlarini baholash;

-kapitalni shakllanishi va o‘stirish imkoniyatlarini baholash

8.2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi: aktivlar, kapital va majburiyatlar

Buxgalteriya balansi axborotlariga tayangan holda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliya-xo‘jalik faoliyati hamda uning natijalari baholanadi. Buxgalteri yabalansidagi axborotlarning mazmunini bilish uchun nafaqat buxgalteriya balansi tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, balki uning moddalari va ayrim ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi mantiqiy va o‘ziga xos bog‘liqliklarni ham bilish zarur. Buxgalteriya balansining mazmunini bilishda

uni o‘qish ketma-ketligi ham muhim ahamiyatga ega.

Buxgalteriya balansining aktivi va passivining tuzilishi hamda mazmuni undagi axborotdan foydalanuvchilar, eng avvalo tashqi foydalanuvchilarga qaratilgan. Debitor va kreditor qarzlarning holatini ochib beruvchi, korxonaning joriy xarajatlari yoki foydasi hisobidan tashkil etilgan xususiy kapital va ayrim turdagi rezervlar shakllanishini ochib beruvchi moddalar batafsillik darajasining yuqoriligi shundan kelib chiqadi.

Buxgalteri balansini moliyaviy tahlilga tayyorlash yuzasidan uning elementlari va moddalarini turli tasnifiy belgilari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimiga jamlash talab etiladi. Bu tasnifiy belgilar ularning shakli, aylanuvchanlik darajasi, likvidligi bo‘lishi mumkin.

8.3-jadval

Buxgalteriya balansi aktiv va passiv tomoni klassifikatsiyasi

Aktiv (A)	Uzoq muddatli aktivlar (UMA)
	Joriy aktivlar (JA)
Moliyaviy aktivlar (MA)	Moliyaviy uzoq muddatli aktivlar (MUMA)
	Moliyaviy joriy aktivlar (MJA)
Moliyaviy bo‘lmagan aktivlar	Moliyaviy bo‘lmagan uzoq muddatli aktivlar (MBUMA)
	Moliyaviy bo‘lmagan joriy aktivlar (MBJA)
Passiv (P)	O‘z mablag‘lari manbayi (UMM)
	Majburiyatlar (M)
Balansdagi ifodalar:	
Umumiy ifoda	A=K+M
Balans bo‘limlariga nisbatan	UMA+JA= O‘MM+M
Bo‘limlarning tarkib birliklariga nisbatan	MBUMA+MUMA+MBJA+MJA=O‘MM +UMM+M
Pul shakliga ko‘ra	PKBA+PKA=DP+M

Uzoq muddatli aktivlar (UMA) bo‘limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o‘rnatiladigan uskunalar, kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summalari oshkor qilinadi.

Joriy aktivlar bo‘limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar va boshqa joriy aktivlar summalari oshkor qilinadi.

Xususiy sarmoya (XS), o‘z mablag‘lari manbayi bo‘limi (O‘MM)da ustav sarmoyasi, qo‘shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o‘z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar

hamda bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari oshkor qilinadi.

Majburiyatlar (M) bo‘limida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar bo‘yicha axborotlar alohida oshkor etilishi lozim.

Uzoq muddatli majburiyatlar(UMM) bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzlar, alohida bo‘linmalarga uzoq muddatli qarzlar, shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlar, muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzlar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summalari ko‘rsatilishi kerak.

Joriy majburiyatlar (JM) bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar, alohida bo‘linmalarga qarzlar, shu’ba va tobe xo‘jalik jamiyatlariga qarzlar, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo‘naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzlar, sug‘urtaga oid qarzlar, davlat maqsadli jamg‘armalaridan to‘lovlarga oid qarzlar, ta’sischilardan qarzlar, mehnatga haq to‘lashga oid qarzlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari summalari oshkor qilinadi.

8.3. Balans ma’lumotlari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma’lumotlariga mosligi

Balans moddalarini tasnifi yuzasidan quyidagi muhim xulosalarni chiqarish mumkin.

Aktivlar - xo‘jalik sub’ektining qiymat bahosiga ega bo‘lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning pul mablag‘lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo‘shiladigan ulushdir. Bu ulush xo‘jalik yurituvchi sub’ekt asosiy faoliyatining bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

8.4-jadval

Buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobotlarda aks etuvchi elementlar

Moliyaviy hisobot elementlari						
Aktivlar	Xususiy sarmoya	Majburiyat-lar	Zaxiralar	Daromadlar	Xarajatlar	Moliyaviy natijalar
Buxgalteriya balansi				Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot		

Pul oqimi to‘g‘risi-dagi hisobot	Xususiy kapital to‘g‘risida-gi hisobot	Balansga izoxlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	Balansga izoxlar, xisob-kitoblar va tushuntirish-lar	Pul oqimi to‘g‘risida-gi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risida-gi hisobot	Pul oqimi to‘g‘risida-gi hisobot

Asosiy moliyaviy xisobot shakli bu - buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdir. Boshqa moliyaviy hisobotlar bir jihatning boshqa, boshqa jixatlarini aks ettiradi. Ular qatoriga - pul oqimlari, xususiy kapital to‘g‘risidagi xisobot shakllarini kiritish mumkin.

Buxgalteriya balansining asosiy elekmentlari -aktivlar, kapital va majburiyatlardir.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning aktivlari - avvalgi bitimlar va boshqa voqealiklarning natijasidir. Sub’ektlar odatda aktivlarni sotib olib yoki hosil qilib unga ega bo‘ladilar, biroq, boshqa bitimlar va voqealar ham aktivlarni ko‘paytirishga imkon beradi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hukumatdan olgan ko‘chmas mulk. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar o‘zidan o‘zi aktivlarning paydo bo‘lishiga ham olib kelmaydi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘z aktivlaridan mulkni, tovar-moddiy zaxiralardan ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatilishini boshqarish uchun foydalanadilar.

Aktivlarda aks ettirilgan bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan har xil yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivdan:

-tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;

-boshqa aktivlarga almashtirilishi;

-majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektning egalari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar binolar, inshootlar va uskunalar singari jismoniy shaklga ega. Biroq, jismoniy shakl aktivning mavjud bo‘lishi uchun zaruriy shart emas. Masalan, patentlar va mualliflik huquqlari ham aktivlardir. Agar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan bo‘lsa bu unsurlar ham aktivlar qatoriga kiritiladi va ularni nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar sifatida tarkiblash mumkin.

Aktivlar yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bog‘liqdir. Lekin, aktivlar mavjudligini aniqlashda, egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi, agar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ana shu mulkdan olinishi kerak bo‘lgan foydani nazorat qila olsa.

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish o‘rtasida uzviy

aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar hamma vaqt ham vaqti bo‘yicha to‘g‘ri kelmaydi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda izlanganidan dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil-kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi ob’ektni aktiv deb hisoblash uchun asos bo‘lmaydi. Masalan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektga tekinga berilgan ob’ektlar aktivlarni ta’riflashga mos keladi.

Balansning eng muxim elementi bu bu- majburiyatlardir. Ularning aktiv va passiv tomonda ham uchratish mumkin. Aktivdagi majburiyatlar olinadigan majburiyatlar, passiv tomondagi majburiyatlar to‘lanadigan majburiyatlar hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldidadagi joriy va uzoq muddatli mas’uliyatli ekanligi majburiyatlarning asosiy tavsifidir.

Majburiyatlar shuningdek, ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida yuzaga kelishi mumkin. Masalan, olingan tovar-moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to‘lanadigan summalar.

Majburiyatlar oldin tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki xolisona tarzda ish ko‘rishda ham yuzaga keladi. Masalan, agar xo‘jalik yurituvchi sub’ekt kafolat muddati tugaganidan so‘ng o‘z mahsulotidagi kamchiliklarni tuzatish to‘g‘risida qaror qabul qilsa, shu bo‘yicha qilingan xarajatlar ham majburiyatlar deb hisoblanadi.

Hozirgi majburiyatlar bilan kelgusi majburiyatlar o‘rtasida chegara bo‘lishi kerak. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmaydi. Majburiyatlar odatda aktiv olinganda yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivni sotib olish to‘g‘risida bitimga kirishgandagina paydo bo‘ladi.

Tegishli majburiyatlarni bajarish odatda boshqa tarafning e’tirozlarini qondirish uchun iqtisodiy foydani ifodalovchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt resurslarini o‘ziga jalb etadi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi:

- haq to‘lash bilan;
- boshqa aktivlarni berish bilan;
- xizmatlarni ko‘rsatish bilan;
- ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali;
- majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali.

O‘zbekiston amaliyotida majburiyatlarning faqat to‘lovlar orqali amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan.

Majburiyatlar, kreditor o‘z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum bo‘lganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.

Majburiyatlar avvalgi bitimlar yoki o‘tgan voqealarning natijasidir.

Masalan, tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish va xizmatlarni olish bilan to‘lanishi kerak bo‘lgan (agar ular ilgari to‘lanmagan bo‘lsa yoki yetkazib berilganda) schyotlar ham olinadi.

Buxgalteriya balansining eng muhim va ahamiyatli unusuri bu -xususiy sarmoyadir.

Xususiy sarmoya ustav, qo‘shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qo‘shilgan, zaxiralar sarmoya tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy sarmoyaning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog‘liqdir.

Buxgalteriya balansida zaxiralar alohida tarkiblanadi. Ularning axamiyati va zarurligi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni yoki zararlarni kamaytirishga qaratilgan.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo‘shimcha tarzda himoya qilishni ta’minlash uchun zaxiralarni vujudga keltirish zarur. Zaxiralarni hosil qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Zaxiralarni vujudga keltirish xo‘jalik yurituvchi sub’ektga doir qonunchilikda va ustavda (soliq qonunlarini buzmagan holda) ko‘zda tutiladi.

Aktivlar kapital va majburiyatlarni tan olish va ularni buxgalteriya balansida aks ettirish tartiblari.

Aktivlar -ushbu aktivdan foydalanish natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ektga bo‘lg‘usi iqtisodiy foyda tushish ehtimoli mavjud bo‘lganida buxgalteriya balansida aks ettiriladi va aktiv aniq ifodalanadigan chiqimlar yoki qiymatni o‘z ichiga oladi.

Kapital- aktivlarning qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog‘liqdir.

Majburiyatlar-o‘zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo‘lganida buxgalteriya balansida e’tirof etiladi, shuningdek ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Balans moddalarining kuyidagi javdvalda aks ettirish mumkin.

8.5-jadval

Buxgalteriya balansi aktivi moddalari

Aktivlar	Satri
I.Uzoq muddatli aktivlar	
Asosiy vositalar:	
Boshlang‘ich (qayta tiklash) kiymat (0100, 0300)	010
eskirish (0200)	011
Koldik (balans) kiymat (010- 011)	012
Nomoddiy aktivlar:	
boshlang‘ich kiymat(0400)	020
Amortizatsiya summasi (0500)	021
koldik (balans) kiymat (020- 021)	022

Uzoq muddatli investitsiyalar jami (satr 040+050+060+070+080)	030
Shu jumladan :	
Kimmatli kogozlar (0610)	040
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050
Karam xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060
Chet el kapitali mavjud bulgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080
Urnatiladigan asbob uskunalar (0700	090
Kapital kuyilmalar (0800)	100
Uzoq muddatli debetor qarzlari (0910,0920,0930,0940)	110
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950,0960,0990)	120
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr 012+022+030+090+100+110+120)	130
II.Joriy aktivlar	
Tovar moddiy zaxiralari,jami (satr 150+160+170+180) Shu jumladan :	140
Ishlab chikarish zaxiralari (1000,1100,1500,1600)	150
Tugallanmagan ishlab chikarish (2000,2100,2300,2700)	160
Tayer maxsulot (2800)	170
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200
Debitorlar jami : (satr 220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210
shundan: muddati o‘tgani	211
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi(4000 dan 4900ning ayirmasi)	220
Ajratilgan bulinmalarning qarzi (4110)	230
Shu’ba va karam xujalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240
Xodimlarga berilgan bunaklar (4200)	250
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bunaklar (4300)	260
Byudjetga solik va yigimlar bo‘yicha bunak to‘lovlari (4400)	270
Maksadli davlat jamgarmalari va sugurtalar bo‘yicha bunak to‘lovlari (4500)	280
Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	300
Boshqa debitor qarzlar (4800)	310
Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360) shu jumladan:	320
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	330
Xisob raqamidagi pul mablag‘lari (5100)	340
Chet el valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	350
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 140+190+200+210+230+320+370+380)	**390**
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr. 130+390)	**400**

Aktivlarni buxgalteriya balansida aktivlarni aks ettirish quyidagi qiymatlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Aktivlar:

- hisobot sanasida buxgalteriya balansida aktivlarni aks ettirish qiymatida;

- sotib olish vaqtida erishilgan tomonlarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra belgilangan joriy qiymatida;
- ana shu yoki shunga o‘xshash aktiv endigina sotib olingan bo‘lgandagi holatda to‘lanishi kerak bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha;
- sotishdan olinishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha;
- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning normal faoliyati davomida aktivlarni ko‘paytirishi lozim bo‘lgan bo‘lg‘usi pul mablag‘lari tushumining diskontlangan qiymati bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

8.6-jadval

Buxgalteriya balansi passivi moddalari

Passiv tomon	Satri
I. O‘z mablag‘lari manbalari	
Ustav kapitali (8300)	410
Qo‘shilgan kapital (8400)	420
Rezerv kapitali (8500)	430
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar) (8700)	450
Maksadli tushumlar (8800)	460
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430+440+450+460+470)	480
II. Majburiyatlar	
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490
Shu jumladan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr, 500+520+540+560+590)	491
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500
Ajratilgan bulinmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510
Shu’ba va karam xujalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530
Solik va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bunaklar (7300)	560
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590
Joriy majburiyatlar, jami (satr, 610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr,610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601
Shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari	602
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610
Ajratilgan bulinmalarga qarz (6110)	620
Shu’ba va karam xujalik jamiyatlarga qarz (6120)	630
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640
Solik va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650

Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660
Olingan bunaklar (6300)	670
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	680
Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	690
Maksadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	700
Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	710
Mexnatga xak tulash bo‘yicha qarz (6700)	720
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy kismi (6950)	750
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashkari 6900)	760
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr, 490+600)	770
Balans passivi bo‘yicha jami (satr.480+770)	780

8.7-jadval

Buxgalteriya balansining qisqartilgan shakli

Aktiv	Satr kodi	Passiv	Satr kodi
I. Uzoq muddatli aktivlar		**I. O‘z mablag‘lari manbalari**	
Asosiy vositalar boshlang‘ich (qayta tiklash) kiymati (0100, 0300)	010	Ustav kapitali (8300)	410
Eskirish qiymati(0200)	011	Qo‘shilgan kapital (8400)	420
Qoldiq (balans) kiymati (010- 011)	012	Rezerv kapitali (8500)	430
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	022	Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Uzoq muddatli investitsiyalar jami (satr 040+050+060+070+080)	030	Taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar) (8700)	450
O‘rnatiladigan asbob uskunalar (0700	090	Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kapital qo‘yilmalar (0800)	100	Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
Uzoq muddatli debetor qarzlari (0910,0920,0930,0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950,0960,0990)	120		
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr 012+022+030+090+100+110+120)	130	**I bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430+440+450+460+470)**	480
II.Joriy aktivlar		**II. Majburiyatlar**	
Tovar moddiy zaxiralari, jami (satr 150+160+170+180)	140	Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190	Shu jumladan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr, 500+520+540+560+590)	491
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200	Joriy majburiyatlar, jami (satr, 610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600
Debitorlar jami: (satr 220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210	Joriy kreditorlik qarzlarida qisqa muddatli kreditlar va qarzlar xamda uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi (satr 730+740+750)	730 740 750
		Joriy kreditorlik qarzlarining kredit va qarzlardan tashqari qismi	600-730-740-750

		(satr,610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	
shundan: muddati o‘tgani	211	Shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari	602
Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360) shu jumladan:	320		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 140+190+200+210+320+370+380)	**390**	**II bo‘lim bo‘yicha jami (satr, 490+600)**	**770**
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr. 130+390)	**400**	**Balans passivi bo‘yicha jami (satr.480+770)**	**780**

Buxgalteriya balansida majburiyatlar quyidagi qiymatlarda aks etadi:

-majburiyatlar majburiyatni bajargunga qadar to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi bo‘yicha majburiyatlarga almashib olingan mablag‘lar summasida aks ettiriladi;

-majburiyatlar majburiyatni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasida aks ettiriladi;

-majburiyatlar ularni to‘lash qiymati bo‘yicha aks ettiriladi, bunday qiymat esa majburiyatlarni to‘lash uchun talab etiladigan pul mablag‘larining diskontlanmagan summasidir;

-majburiyatlar kelgusida o‘tkaziladigan pul mablag‘larining diskontlangan qiymatidan iborat bo‘lgan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning oddiy faoliyati davomida majburiyatlarni to‘lash uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

Analitik hisob-kitoblardan oldin albatta axborotlarning aniqligi, ishonchligiga muhim axamiyat qaratish lozim. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllarida korxona moliyaviy axvolining bir jihatining boshqa, boshqa tomonlarini aks ettirishda nazorat raqamlarining o‘zaro mosligini tekshirishga alohida ahamiyat qaratiladi.

8.8-jadval

Balans moddalari va ularning boshqa moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlarga mosligi*

t/r	Ko‘rsatkichlar	Buxgalteriya balansi hisobot shakli satri	Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot satri	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot satri	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot satri
1	Pul mablag‘lari	320	-	070,080	-
2	Ustav kapitali	410	-	-	010,080
3	Qo‘shilgan kapital	420	050,060	-	010,080
4	Rezerv kapitali	430	050,060	-	010,080
5	Sotib olingan xususiy aksiyalar	440	-	-	010,080

6	Taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar)	450	**	-	010,080
7	Maqsadli tushumlar	460	-	-	010,080
8	Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar	470	-	-	010,080

*Ma’lumotlarni ochib berish yuzasidan moliyaviy xisobotga kaydlar, izoxlar asosida nazorat raqamlarini tekshirish imkoniyatini oshirish mumkin.

**-korxona ochilgandan buyon taqsimlanmagan foydani qayta xisob-kitoblar qilish orqali nazorat raqamiga chiqish mumkin.

8.4. Balansni o‘qish

Korxonalarning moliyaviy hisobotlarini o‘qish undagi pul munosabatlariga, moliyaviy holatiga baho berish uchun muhimdir.

Moliyaviy hisobot va moliyaviy hisobotlarni o‘qishga “o‘qish”ga olimlar tomonidan turlicha tavsiflar beriladi.

Moliyaviy hisobotlarni “o‘qish” so‘zi juda keng ma’noli tushuncha.

Balansni qanday “o‘qish” mumkin? Uni “o‘qish” orqali nimalar bilanadi? “O‘qish” tahlil usulimi yoki tahlil o‘qishning usulimi? Bu kabi savollarga javob topish yuzasidan uning lug‘aviy ma’nosini tushunib olish lozim.

“O‘qish”ga matnni tushunishga qaratilgan murakkab kodlash jarayoni deb qaraladi. Lekin moliyaviy hisobotlarda matnlar yo‘q, unda faqat ko‘rsatkichlar, qatorlar va ularga tegishli raqamlar mavjud.

“O‘qish” –til, muloqat, axborot va g‘oyalarni almashish vositasidir.

“O‘qish” ijodiy yondashuvni va tanqidiy tahlilni talab etadi.

“O‘qish”ga qonunlar yo‘q, o‘qish paytida hech narsa cheklanmadi.

“O‘qish” moliyaviy hisobotlar, moliyaviy tahlilning muhim va dastlabki usuli hisoblanadi.

O‘qish deganda adabiy tilda matnni o‘qish va tovushlarda ifoda etish tushuniladi. Moliyaviy hisobotda esa yondashuv biroz murakkablashadi.

“O‘qish” so‘zi moliyaviy hisobotlar va ularning shakllariga nisbatan ishlatishning mohiyati shundaki ushbu hisobotlar faqat raqamlar ifodasidagi ko‘rsatkichlarni tartibli joylashtirishdan iborat matnga o‘xshaydi. Matni o‘qish mumkin faqat undagi raqamlar nimani ifoda etishini bilgan holdagina. Sodda qilib aytganda moliyaviy hisobotlarni o‘qish deganda korxona moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini, pul mablag‘lari va xususiy kapitalini moliyaviy hisobot shakllarida raqamlarda yashiringan so‘zlar orqali bilish, tushunish, anglash tushuniladi.

Moliyaviy hisobotni “o‘qish”ni mazmunini nima tashkil etadi. Bizningcha moliyaviy hisobotni o‘qish deganda ko‘rsatkichlarni arifmetik

hisob-kitoblarsiz uni mantiqiy tavsiflash tushuniladi.

“O‘qish” uchun alifbo asoslarini bilish lozim. Moliyaviy hisobotlarni o‘qishda bunday asos bo‘lib moliyaviy hisobot qatorlarida aks etgan tushunchalar hisoblanadi. Ularning bir qismi barcha uchun tushunarli bo‘lishi mumkin, lekin ayrim qatorlarini faqat maxsus bilimga va kasb malaksiga ega bo‘lganlar tomonidangina tushuniladi. Bunda tushunchalar sifatida moliyaviy hisobotning, balansning istalgan qatorini keltirish mumkin. Masalan: moliyaviy qo‘yilmalar, investitsiyalar, majburiyatlar, kapital, pul ekvivalentlari, zahiralar va h.k. Shu sababli, balansni o‘qishdan oldin uning barcha moddalarini tushunib olish talab etiladi. Nafaqat ularni tushunish balki, baholanishi, faoliyatdagi rolini, boshqa tushunchalar bilan aloqasini, iqtisod va moliyaviy jihatdan uning o‘zgarishlarining ahamiyatini ham anglash talab etiladi.

Buxgalteriya balansini o‘qish orqali:

-korxona to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni olish;

-aylanma mablag‘lar taminlanish darajasini baholash

-o‘z aylanma mablag‘lari bilan taminlanganligi bilish

-korxonaning moliyaviy holatini dastlabki baholash imkoni tug‘iladi.

Buxgalteriya balansini dastlabki o‘qishda moliyaviy jihatdan quyidagilar o‘rganiladi:

-aktivlarning umumiy summasi va uning yil davomida o‘zgarishi;

-xususiy sarmoya va majburiyatlarning summasi, ularning yil davomida o‘zgargarishi;

-uzoq muddatli va joriy aktivlarning moliyalashtirish holati va ularning o‘zgarishiga;

-debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibi, holati va o‘zgarishiga;

-asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning tarkibi, holati va o‘zgarishiga;

-joriy aktivlarning tarkibiy tuzilishi, o‘zgarishiga;

Buxgalteriya balansi asosida moliyaviy holat baholanadi. Shu sababli moliyaviy holat tahlili deganda ko‘pincha buxgalteriya balansi tahlili tushuniladi. Uning muhim yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- Qisqa muddatga moliyaviy holat tahlili;
- Uzoq muddatga moliyaviy holat tahlili;
- Korxona ish aktivligi tahlili.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda – korxonaning muayyan sanaga bo‘lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishlash jarayonlari tizimi tushuniladi.

Moliyaviy hisobotni o‘qishda, bir xil holatning har xil jihatlarini aks ettiruvchi hisobot shakllaridagi ma’lumotlarning o‘zaro mosligiga ham ahamiyat qaratiladi. Masalan buxgalteriya balansida ayrim qatorlar boshqa

moliyaviy hisobot shaklining tegishli qatorlari bilan mos kelishi lozim.

Buxgalteriya balansini o‘qish va tahlil etish orqali korxona moliyaviy holatiga baho berishda o‘rganiladigan masalalar kengligi sababli ularni bir tizimga solib olish talab qilinadi.

Bu holatni quyidagi o‘rganiladigan mavzular bo‘yicha tuzib chiqish mumkin.

8.9-jadval

Buxgalteriya balansi va uni o‘qish yuzasidan qatorlar

<table>
<tr><td colspan="5">Buxgalteriya balansini o‘qish</td></tr>
<tr><td colspan="3">Aktivlar tarkibi, tuzilishi</td><td colspan="2">Passivlar tarkibi, tuzilishi</td></tr>
<tr><td>Uzoq muddatli aktivlar</td><td>Joriy aktivlar</td><td>Aktivlar va passiv larning bog‘liqligi</td><td>O‘z mablag‘lari manbasi</td><td>Majburiyatlar</td></tr>
<tr><td colspan="5">Moliyaviy holat</td></tr>
<tr><td colspan="5">Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar hamda bir xil jihatning boshqa tomonlarini aks ettiruvchi moliyaviy hisobot shakllari</td></tr>
<tr><td>Aktivlar</td><td>Kapital</td><td>Majburiyatlar</td><td>Daromadlar</td><td>Xarajatlar</td></tr>
<tr><td colspan="5">Foyda va zararlar tarkibi, tuzilishi</td></tr>
<tr><td colspan="5">Pul oqimi tarkibi, tuzilishi</td></tr>
<tr><td colspan="5">Xususiy kapital tarkibi tuzilishi</td></tr>
</table>

Buxgalteriya balansini o‘qish yuzasidan balans tuzuvchi korxonaga, uning mulkiy shakliga, faoliyat turiga, balans tuzilgan davriylikka, balans o‘lchovi va korxona yuridik manziliga tavsif berish birinchi bosqichida bajarilagan ishlar ketma ketligini harakterlaydi.

O’qishning keyingi bosqichida korxonaning jami aktivlari va ularning tashkil topish manbalariga, korxonada aktivlarning asosiy kapitalga va joriy kapitalga yo‘nalitirilgan qismiga, mablag‘lar manbasida qaysi manba turining (o‘z va qarz) ustunligiga, moliyaviy faoliyat natijasi va uning qaysi shakllarda (pullik va pulsiz ko‘rinishlarda) mavjudligiga, asosiy va nomoddiy

aktivlarning holatiga, majburiyatlar va ularning nisbatiga, pul mablag‘lari va ularning qo‘proq qaysi shaklda turganligiga ahamiyat beriladi.

Buxgalteriya balansini o‘qish unda aks etgan (xodisa va jarayonlar, ularning samarasi va natijasini ko‘rsatkichlar tizimida kodlashtirish va axborotlarni raqamlarda aks ettirilgan) axborotlarni dastlabki tushunish usulidir.

8.10-jadval

Buxgalteriya balansi aktivi va passivini o‘qish

Mol-mulk tarkibi	Y il boshiga	Yil oxiriga	Mablag‘lar manbasi	Yi l boshiga	Yi l oxiriga
Uzoq muddatli aktivlar(satr 012+022+030+090+100+110+120)	**10 219 731 945**	**2 593 199 960**	O‘z mablag‘lari manbalari (satr.410+420+430+440+450+460+470)	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**
oriy aktivlar	**2 978 372 713**	**1 683 693 105**	Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**
hu jumladan:			Shu jumladan:		
ovar moddiy zaxiralar satr 150+160+170+180)	819 530 511	1 047 437 972	Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr 500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	4 675 490 146	12 304 013 149
elgusi davr xarajatlari satr 190)	1 366 091 169	3 441 062 224			
echiktirilgan xarajatlar satr 200)	-	-			
ebitorlar jami : (satr 220+240+250+260+270+280+290+300+310)	503 338 335	1 566 042 404	Joriy majburiyatlar, jami (satr, 610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760) shu jumladan:		

ul mablag‘lari, jami satr.330+340+350+360)	171 917 383	468 669 767	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar(satr 730+740)	4 744 216	8 878 479
Qisqa muddatli investitsiyalar (satr 370)	-	-	Uzoq muddatli kreditlarning joriy qismi(satr 750)	-	-
Boshqa joriy aktivlar (satr 380)	117 495 315	160 480 738	Kreditorlik qarzlari satr, 610+620+630+640+650+660 +670+680+690+700+710+720+760	62 075 830	1 839 768 361
Balans aktivining jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	Balans passivining jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**

Xulosa: korxonada jami aktivlar summasi yil boshida 13 198 104 658 ming sumni tashkil etgan va shundan uzoq muddatli aktivlar summasi 10 219 731 945 ming sumni, joriy aktivlar sumasi esa 2 978 372 713 ming sumni tashkil etgan. Joriy aktivlar tarkibida zaxira va harajatlar davr boshida 819 530 511 ming so‘mni davr oxirida 1 047 437 972 ming so‘mni tashkil etgan. Pul mablag‘lari davr boshida 171 917 383 ming so‘mni, davr oxirida esa 468 669 767 ming so‘mni tashkil qilgan. Debitorlik majburiyatlari davr boshida 503 338 335 ming so‘mni, davr oxirida 1 566 042 404 ming sumni tashkil etgan.

Aktivlarning manbalash yuzasidan korxona passivlari quyidagi tarkibda shakllangan. Davr boshiga 7 745 794 466 ming so‘mlik o‘zlik mablag‘lari manbasiga va 5 452 310 192 ming sum majburiyatlarga, davr oxiriga kelib esa 10 124 233 076 ming so‘m o‘zlik mablag‘lari manbasi va 14 152 659 989 ming so‘m majburiyatlar summasi mavjudligi qayd etilgan.

8.11-jadval

“Asl Sifat”MCHJ ning qisqartirilgan buxgalteriya balansi

Ko‘rsatkichlar	**01.yanv2022**	**01.apr2022**	**01.iyul2022**	**01.okt2022**	**01.yanv2023**
AKTIV					
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**11 151 959 813**	**11 195 178 476**	**11 778 032 823**	**12 593 199 960**
Asosiy vositalar boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	11 341 824 771	13 056 620 251	13 186 532 286	14 773 593 626
Asosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	3 788 793 507	3 945 211 086	4 125 679 858	4 320 658 666
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	7 553 031 264	9 111 409 165	9 060 852 428	10 452 934 960
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	335 519	526 894	435 179	345 379
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	3 308 810 890	1 783 170 063	2 396 325 565	1 572 602 311

Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	289 782 140	300 072 354	320 419 651	567 317 310
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**3 522 490 664**	**4 234 880 927**	**10 571 776 648**	**11 683 693 105**
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	761 929 334	807 974 274	805 958 807	1 047 437 972
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	1 926 260 257	2 439 824 162	8 466 493 743	8 441 062 224
Pul mablag‘lari	171 917 383	167 990 329	198 395 625	199 248 750	468 669 767
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	114 011 429	118 290 042	112 380 694	160 480 738
Debitorlar, jami	503 338 335	552 299 315	670 396 824	987 694 654	1 566 042 404
Shu jumladan:					
Xaridor va buyurtmachilar bilan xisob-kitoblar	163 855 350	162 134 584	179 194 017	304 669 491	268 038 094
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	6 510 004	8 801 153	5 388 750	5 252 951
Aktiv bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**
PASSIV					
1.O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**8 567 616 791**	8 644 944 914	8 963 743 430	**10 124 233 076**
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**6 106 833 686**	**6 785 114 489**	**13 386 066 041**	**14 152 659 989**
Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	5 329 297 527	5 927 142 095	12 154 367 349	12 304 013 149
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	12 729 877	10 091 394	9 142 953	8 878 479
Kreditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	764 806 282	847 881 000	1 222 555 739	1 839 768 361
Shu jumladan:					
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	177 094 949	250 590 908	306 494 641	514 650 184
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	35 632 293	40 718 997	40 080 238	62 317 043
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**14 674 450 477**	**15 430 059 403**	**22 349 809 471**	**24 276 893 065**

Xulosa: korxonada aktivlar va passivlar summasi mos ravishda 2022-2023 yillar oralig‘ida quyidagi o‘zgarish tendensiyalariga ega bo‘lgan. 2022 yil 1-yanvar holatiga-13198104658 ming so‘mga, 1-chorak yakuni bo‘yicha

14 674 450 477 ming so‘mga, 2-yaorak yoki 2022 yarim yilliik yakuni bo‘yicha-15 430 059 403 minng so‘mga, 2022 yil 9-oylik natijasi bo‘yicha 22 349 809 471 ming so‘mga, yil yakuni bo‘yicha 24 276 893 065 ming so‘mga teng bo‘lgan.

8.5. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili

Gorizontal tahlil - alohida moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash orqali moliyaviy holatdagi o‘zgarishlarga baho berish usuli hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini, moliyaviy ko‘rsatkichlarni gorizontal tahlili asosida ularning o‘zgarishiga mutlaq va nisbiy iofdalarda baho beriladi.

Moliyaviy tahlilda gorizontal tahlilning quyidagi shakllaridan foydalaniladi.

1. Hisobot ko‘rsatkichlarini davr boshiga va oxiriga taqqoslash;

2. Hisobot ko‘rsatkichlarini o‘tgan yilning shu davri ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash;

3.Hisobot ko‘rsatkichlarini dinamik taqqoslash;

4.Turli tashkilotlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini qiyosiy taqqoslash.

Moliyaviy hisobotni gorizontal tahlili deganda-moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutlaq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o‘tgan yilga nisbatan qiyosiy o‘rganishga aytiladi.

Gorizontal tahlilda ikki va undan ortiq davrlarga tegishli moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga (mutlaq va nisbiy ifodada) baho beriladi. Davr oralig‘ini tanlashda interval oraliqlar kengligi bir xilda olinadi. Masalan; hisobot yilining chorak, yarim yillik va yillik ko‘rsatkichlari mos ravishda o‘tgan yilning chorak, yarim yillik va yillik ko‘rsatkichlari bilan qiyoslanadi.

Gorizontal va vertikal tahlil turlarini bir biridan ajratgan holda tasavvur qilish kiyin. Negaki ulardan birgalikda foydalangandagina mazmun kasb etadi. Shu sababli gorizonatal va vertikal tahlil turlari doimo bir butunlikda olib boriladi.

8.12-jadval

Buxgalteriya balansining gorizontal tahlili

AKTIV VA PASSIV	Balans moddalari qiymati		Gorizontal tahlili	
	Davr boshi, ming so‘m	**Davr oxiri, ming so‘m**	**Mutlaq o‘zgarishi, ming so‘m**	**Nisbiy o‘zgarish, %**
AKTIV				
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**2 373 468 015**	**123,2**
y vositalar boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	4 246 176 139	140,3
osiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	897351299	126,2

sosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	3348824840	147,1
noddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379	71 772	82,79
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	1262109581	55,4
oshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	286824528	2,02
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	**8 705 320 392**	3,9
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	227 907 461	127,8
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055	**6178**
Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384	2,72
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	42 985 423	136,7
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069	3,11
Shu jumladan:				
or va buyurtmachilar bilan xisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	104182744	1,64
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	5 252 951	-2487433	67,8
Aktiv bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**	**1,84**
PASSIV				
1.O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	2 378 438 610	**130,7**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	213 818 364	**135,0**
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	2 383 571 493	**141,6**
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	284 292 932	**44,0**
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	65 341 685	**107,5**
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**8 705 320 392**	**2,59**
uddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003	**2,63**
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	5 865 737	**60,2**
editorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	1 077 692 531	**2,41**
Shu jumladan:				
azib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	294 831 294	**2,35**
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	41 518 913	**3,0**
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**11 078 788 407**	**1,84**

Xulosa: Korxonada aktivlarning yil boshiga nisbatan o‘zgarishi 11 078 788 407 ming so‘mni tashkil etgan. Nisbiy o‘zgarishi, ya’ni o‘sish

darajasi 1.84 ni yoki 184 foizni tashkil etgan. Joriy aktivlarda uzoq muddatli aktivlarning o‘sishi mutlaq ifodada 2 373 468 015 ming so‘mni, o‘sish darajasi 123.3 foizni tashkil qilgan. Joriy aktivlarning davr boshiga nisbatan o‘zgarishi 8 705 320 392 ming so‘mni, o‘sish darajasi 3.9 baravarga ortgan.

Moliyalashtirish manbalarida o‘z mablag‘lari manbaasi davr boshiga nisbatan 2 378 438 610 ming so‘mga ortib o‘sish darajasi 130.7 foizni tashkil qilgan. Majburiyatlarning summasi davr boshiga nisbatan 8 705 320 392 ming so‘mga ortgan va o‘sish darajasi 2.59 ni tashkil etgan. Kapital tarkibidagi eng yuqori o‘sish qarz kapitali qatoriga to‘g‘ri kelgan.

8.6. Buxgalteriya balansining vertikal tahlili

Vertikal tahlil - gorizontal tahlilni to‘ldiruvchi usul sifatida moliyaviy hisobot elementlari, moddalarining tarkibiy jihatlariga baho berishni harakterlaydi. Ushbu jihatlarni moliyaviy hisobotlarning barcha shakllariga nisbatan qo‘llash mumkin. Umumiy tarkibda yakka birliklarninng salomog‘i va ularning o‘zgarishlari asosida korxona moliyaviy holatini tashxislash yanada asonlashadi. Korxonani moliyaviy ahvolini anglash, bilishda asosiy jihatlar jami tarkibda birlik qatorlarni to‘g‘ri nisbatlashga qaratiladi.

Uzoq mudatli va joriy aktivlar, kapital va majburiyatlar qatorida ayrim tarkib qatorlar salmog‘ini balans jamiga nisbatan va ushbu tarkibining jamlangan qatoriga nisbatan ham hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Bu tartib aktivlarning tarkibiy o‘zgarishlarini baholashga, aktivlar tarkibida alohida tarikblar salmog‘ining o‘zgarishini likvidlik va to‘lovga qobillik ko‘rsatkichlari ta’sirini to‘g‘ri baholashga imkon beradi. Ya’ni tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali moliyaviy holatni yaxshilash chora tadbirlarini ko‘rish mumkin.

Vertikal tahlil gorizonatal tahlil asosidagini bir butunlikka erishadi. Shu sababli ularni doimo birgalikda va umumiylikda foydalanish kuzatiladi. Ularni bir biridan holi tarzda qo‘llash orqali tahlilning to‘liqligini ta’min etib bo‘lmaydi.

Uzoq muddatli va joriy aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i quyidagi bog‘lanishlar orqali topiladi.

8.13-jadval

Buxgalteriya balansi moddalari va ularning tarkib bo‘yicha nisbiy ifodalari hisob-kitobi

Balans moddalarining nisbiy ifodalari	Aniqlanish tartibi	Buxgalteriya balansi satri bo‘yicha hisob-kitobi
Uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i	UMA/BJ*100	Satr130/Satr400*100

Jriy aktivlarning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i	JA/BJ*100	Satr390/Satr400*100
Joriy aktivlar tarkibida TMZ salmog‘i	TMZ/JA*(JA/BJ*100)	Satr140/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
Joriy aktivlar tarkibida debitorlik majburiyatlari salmog‘i	DM/JA*(JA/BJ*100)	Satr210/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
Joriy aktivlar tarkibida pul mablag‘lari salmog‘i	PM/JA*(JA/BJ*100)	Satr320/Satr390*(Satr390/Satr400*100)
O‘z mablag‘lar manbasining jami manbalar tarkibidagi salmog‘i	O‘MM/JM*100	Satr480/Satr780*100
Majburiyatlarning jami manbalar tarkibidagi salmog‘i	M/JM*100	Satr770/Satr780*100
Majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli majburiyatlar salmog‘i	UMK/M*(M/JM*100)	Satr490/Satr780* (Satr770/Satr780*100)
Majburiyatlar tarkibida joriy majburiyatlar salmog‘i	JM/M*(M/JM*100)	Satr600/Satr780* (Satr770/Satr780*100)

8.14-jadval

Buxgalteriya balansining vertikal tahlili

AKTIV VA PASSIV	Balans moddalari qiymati		Vertikal tahlil	
	Davr boshi, ming so‘m	Davr oxiri, ming so‘m	Davr boshiga, %	Davr oxiriga,%
1. Uzoq muddatli aktivlar	**10 219 731 945**	**12 593 199 960**	**77.4**	**51.8**
iy vositalar boshlang‘ich qiymati	10 527 417 487	14 773 593 626	79.7	60.8
sosiy vositalar eskirish qiymati	3 423 307 367	4 320 658 666	25.9	17.8
sosiy vositalar qoldiq qiymati	7 104 110 120	10 452 934 960	53.8	43.0
moddiy aktivlar qoldiq qiymati	417 151	345 379	0.003	0.001
Kapital qo‘yilmalar	2 834 711 892	1 572 602 311	21.4	6.5
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	280 492 782	567 317 310	2.1	2.3
2.Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	22.6	48.2
Ishlab chiqarish zaxiralari	819 530 511	1 047 437 972	6.2	4.3
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	**10.3**	**34.7**
Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	1.3	1.9
Boshqa joriy aktivlar	117 495 315	160 480 738	0.8	0.6
Debitorlar, jami	503 338 335	1 566 042 404	3.8	6.4

Shu jumladan:				
Xaridor va buyurtmachilar bilan xisob-kitoblar	163 855 350	268 038 094	1.2	1.1
Byudjetga avans to‘lovlari	7 740 384	5 252 951	0.05	0.02
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**100**	**100**
PASSIV				
1.O‘z mablag‘lari manbasi	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	**58.6**	**41.7**
Ustav kapitali	614 384 306	828 202 670	**4.6**	**3.4**
Rezerv kapitali	5 737 851 427	8 121 422 920	**43.4**	**33.4**
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	223 400 675	**3.8**	**0.91**
Boshqa manbalar	885 865 126	951 206 811	**6.7**	**3.9**
2. Majburiyatlar	**5 452 310 192**	**14 152 659 989**	**41.4**	**58.3**
muddatli bank kreditlari va qarzlari	4 675 490 146	12 304 013 149	**35.4**	**50.6**
Boshqa majburiyatlar	14 744 216	8 878 479	**0.10**	**0.03**
reditorlik majburiyatlari, jami	762 075 830	1 839 768 361	**5.7**	**7.5**
Shu jumladan:				
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga majburiyatlar	219 818 890	514 650 184	**1.6**	**2.1**
Byudjetga majburiyatlar	20 798 130	62 317 043	**0.15**	**0.25**
Balans passivi bo‘yicha jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	**100**	**100**

Balans moddalarining jamlangan qatorlar bo‘yicha tarkibiy salmog‘ini o‘rganish inflyatsiya ta’siri, shuningdek baho o‘zgarishlarining mulk qiymatiga ta’sirini to‘g‘ri baholashga ham imkon beradi. Masalan; balans jamida o‘z mablag‘lari manbasi qiymat ifodada taminot bo‘yicha aniq xolatni ifoda etmaydi. Agar uning balans jamiga nisbatan nisbiy ifodasi aniqlansa korxonaning moliyaviy taminotida avtonomlik, qaramlik, darajasini yaqqol anglash mumkin.

Xulosa: korxonada jami aktivlar yil boshida 13198104658 ming so‘mni tashkil qilgan. Shundan, 10 219 731 945 ming so‘mi uzoq muddatli aktivlarga, 2 978 372 713 ming so‘m joriy aktivlarga to‘g‘ri kelgan. Uzoq muddatli aktivlarning davr boshiga jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i 77.4 foizni, joriy aktivlarning salmog‘i 22.6 foizni tashkil qilgan. O‘zoq muddatli aktivlar tarkibida eng yuqori qiymati va ulush asosiy vositalar va kapital qo‘yilmalar qatoriga to‘g‘ri kelgan.

Joriy aktivlarning tarkibida eng yuqori ulush kelgusi davr xarajatlari, tovar moddiy zaxiralar va debitorlik majburiyatlari xissasiga to‘g‘ri kelgan.

Davr oxiriga kelib uzoq muddatli aktivlarning qiymati 12 593 199 960 ming so‘mni tashkil qilib uning jami aktivlar tarkibidagi salmog‘i 51.8 foizga tushgan.

Joriy aktivlarning davr oxiriga qiymati 11 683 693 105 ming so‘mni

tashkil qilib jami aktivlardagi salmog‘i mos ravishda 48.2 foizni tashkil qilgan.

O‘z mablag‘lari manbasi davri boshida jami kapital tarkibida 58.6 foizni davr oxiriga kelib 41.7 foizni tashkil etgan. O‘z mablag‘lari manbaasida eng yuqori ulush rezerv kapitali qatoriga to‘g‘ri kelgan.

Joriy davrda karz kapitali, majburiyatlarning davr boshiga salmog‘i 35.4 foizdan 50.6 foizga ortgan.

8.7. Korxonalar iqtisodiy salohiyati: tarkibi, ko‘rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili

Korxonaning iqtisodiy salohiyati deganda unda sodir etiladigan iqtisodiy jarayonni to‘liq ta’minlaydigan barcha moddiy va mehnat resurslari hamda nomoddiy aktivlar tushuniladi.

Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili uning mulki, zahiralari va xarajatlarini har tomonlama o‘rganishdir.

Iqtisodiy salohiyatni buxgalteriya balansiga nisbatan aktivlariga nisbatan ishlatiladigan tushuncha deb qarash mumkin. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili buxgalteriya balansi aktivlarini jamlangan qatori va ular bo‘yicha o‘zgarishlarni baholash orqali amalga oshiriladi.

Uning tarkibiy qismlariga uzoq muddatli va joriy aktivlar kiradi. Joriy aktivlar o‘z navbatida tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari va pul mablag‘laridan iborat bo‘ladi.

Iqtisodiy salohiyatni o‘stirishning ta’sir birliklariga juda ko‘p omillar ta’sir etadi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruxlarga ajratish mumkin

8.15-jadval

Korxonalar iqtisodiy salohiyatining ta’sir birliklari va samaradorligi

Iqtisodiy salohiyatning tasir birliklar	Ta’sir birliklar	Samaradorligi
Mehnat salohiyati	Mehnat unumdorligi, kadrlar qo‘nimsizligi, tarkibning malaka darajasi	Q_{ich}, Q_{sm} / X X-xodimlarning o‘rtacha ro‘yxat soni
Asosiy vositalarning salohiyati	Asosiy vositalar va ularning tarkibi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydanish darajasi, asosiy vositalar qaytimi	Q_{ich}, Q_{sm} / A_v Av- asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati
Aylanma mablag‘larning saloxiyati	Aylanma mablag‘lar va ularning tarkibi, aylanma mablag‘larning qaytimi	Q_{ich}, Q_{sm} / A_m Am-Aylanma mablag‘lar qiymati
Moliyaviy saloxiyat	Moliyalashtirish manbalari hajmi va tarkibi, rentabellik darajasi, likvidlik, moliyaviy barqarorlik va ish aktivligi,	Q_{ich}, Q_{sm} / M_m M_m- moliyalashtirish manbalari

Tashkiliy va boshqaruv salohiyati	Tarkibiy tuzilish, korxona imidji, tashkiliy madaniyatning shakllanganligi	Q_{ich}, Q_{sm} / B_x B_x-tashkiliy va boshqaruv xarajatlar
Marketing salohiyati	Marketing tizimining yo‘lga qo‘yilganligi, marketing funksiyalarning bajarilishi, raqobatdoshlik darajasi	Q_{ich}, Q_{sm} / M_x M_x-marketing xarajatlari
Innovatsion salohiyat	Innvoatsion yangiliklar va ularning amaliyotga joriy etilishi, innvovatsion maxsulotlar, innovatsion xarajatlar	Q_{ich}, Q_{sm} / I_x I_x-innovatsion xarajatlar

Korxona iqtisodiy salohiyatini o‘rganishda moddiylik jihatdan resurslarning quyidagi tarkibiy birliklarini ajratish mumkin.

1. Moddiy resurslar-moddiy ashyoviy ko‘rinishga ega bo‘lgan aktivlar (asosiy vositalar, kapital qo‘yilmalar, o‘rnatiladigan asbob uskunlar, tovar moddiy zaxiralar va boshqa moddiy ashyoviy aktivlar)
2. Nomoddiy resurslar-moddiy ashyoviy ko‘rinishga ega bo‘lmagan aktivlar (intelektual aktivlar, moliyaviy aktivlar)

Moddiy va nomoddiy resurslarni balans moddalariga nisbatan quyidagi turlarini tarkiblash mumkin: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli investitsiyalar, o‘rnatiladigan asbob uskunalar, tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari, pul mablag‘lari.

Balans moddalarini moddiy va nomoddiy resurslar, moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan, pul shaklida va pul shaklida bo‘lmagan moddalarga tarkiblashda yagona normalarga kelinmagan. Shu bilan birga, resurslarni moddiy va nomoddiy resurslarga bo‘linishi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga tarkiblashdagi mazmunda tushunish shart emas.

Korxona iqtisodiy saloxiyatini qiymat va xarajat nuqtai nazridan baholash mumkin.

Qiymat nuqtai nazaridan balansda aks etgan barcha aktivlar uning iqtisodiy saloxiyatini belgilaydi. Bir qator olimlar uning qatoriga mehnat resurslarini pulda baholangan qiymatini ham kiritishadi. Lekin buxgalteriya balansida mehnat resurslarining pulda baholangan qiymati aks etmaydi. Ishchilarni o‘qitish, qayta o‘qitish, malakasini oshirish va ularning intelektual ijodkorligini oshirish yuzasidan qilingan barcha xarajatlar orqaligini mehnat salohiyatini baholash imkoni bo‘ladi. Lekin bu kabi xarajatlar albatta moliyaviy xisobotlarning tegishli moddalarida aks etadi.

Korxona iqtisodiy saloxiyatini baholashning ko‘rsatkichlar tizimini quyidagi tarkibda berib o‘tish mumkin:

-korxona iqtisodiy iqtisodiy saloxiyati xolatini ifodalovchi ifodalovchi

ko‘rsatkichlar tizimi;

-korxona iqtisodiy iqtisodiy saloxiyati bilan taminlanganlikni ifodalovchi ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi;

-korxona iqtisodiy saloxiyatini samaradorligini ifodalovchi ko‘ratkichlar tizimi;

-korxona iqtisodiy saloxiyati natijaviyligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.

Korxona iqtisodiy saloxiyati va uning xolatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga: iqtisodiy saloxiyatning o‘rtacha yillik qiymati, iqtisodiy salohiyat tarkibida asosiy vositlar, nomoddiy aktivlar va moliyaviy aktivlar, mehnatning salmog‘i, iqtisodiy saloxiyat bilan taminlanganlik, iqtisodiy saloxiyat xolati ko‘rsatkichlari kiradi.

Iqtisodiy saloxiyat xolatini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlar tizimida iqtisodiy saloxiyatning o‘rtacha yillik qiymati davr boshi va oxiriga qiymatlar yig‘inidisini ikkiga bo‘lish aossida aniqlanadi.

Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy tuzilishida iqtisodiy salohiyatning har bir moddasining umumiy tarkibida tutgan ulushi baholanadi. Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy saloxiyatning xar bitta tarkibiy birligini iqtisodiy saloxiyat qiymatiga bo‘lish asosida aniqlanadi.

ISsa=Av/Is;

ISsn=Na/Is;

ISsm=Mr/Is va h.k.

Iqtisodiy salohiyatning tarkibiga kiruvchi moddalar holatini ifoda etuvchi ko‘rsatkichlarga: asosiy vositalar (asosiy vositalarning eskirishi, yaroqliligi, kirib kelishi, chiqib ketishi, ularning jami aktivlardagi salmog‘i), nomoddiy aktivlar (nomoddiy aktivlarning eskirishi, yaroqligi, kirib kelishi, chiqib ketishi, ularning jami aktivlardagi salmog‘i), aylanma mablag‘lar (joriy aktivlarning jami aktivlarda va tarkib bo‘yicha jamlangan qatorlardagi salmog‘i)bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar kiritiladi.

8.16-jadval

Korxona iqtisodiy saloxiyatini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Iqtisodiy saloxiyat xolatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar	**Iqtisodiy salohiyat bilan taminlanganlikni ifodvlovchi ko‘rsatkichlar**	**Iqtisodiy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**	**Iqtisodiy salohiyat natijaviyligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**
Iqtisodiy saloxiyatning o‘rtacha yillik qiymati $I_{s1}+I_{s2}/2...$	Korxona aktivlarining iqtisodiy salohiyat bilan taminlaganligi A/Is	Iqtisodiy saloxiyat samaradorligi YaM,ST/Is	Iqtisodiy salohiyat natijaviyligi SF/Is*100

Iqtisodiy saloxiyatninng tarkibiy tuzilishi xolatini ifodalovchi ko‘rsatkichlari AV, NA, JA,...	Aktivlar tarkibiy tuzilishining iqtisodiy saloxiyat bilan taminlanganligi AV, NA, JA,.../Is	Iqtisodiy saloxiyatning tarikibiy tuzilishining samaradorligi YaM,ST / AV, NA, JA,...	Iqtisodiy saloxiyat tarkibiy tuzilishining natijaviyligi SF/ AV, NA, JA,... *100

8.17-jadval

Korxona iqtisodiy saloxiyati xolati, tarkibi, samaradorligi va natijaviyligi tahlili metodikasi

Ko‘rsatkichlar	Moliyaviy xisobot shakli va satri	Iqtisodiy salohiyat holati*	Iqtisodiy salohiyat bilan taminlanganlik	Iqtisodiy salohiyat samaradorligi	Iqtisodiy salohiyat natijaviyli-gi
1. Uzoq muddatli aktivlar	1sh-130	130	130/Xs	Q, ST /130	YaF,SF/130
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	1sh-012	012	012/ Xs	Q, ST / 012	YaF,SF / 012
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	1sh-022	022	022/ Xs	Q, ST / 022	YaF,SF / 022

Uzoq muddatli investitsiyalar	1sh-030	030	030/ Xs	Q, ST / 030	YaF,SF / 030
O'rnatiladigan asbob uskunalar	1sh-090	090	090/ Xs	Q, ST / 090	YaF,SF / 090
Kapital quyilmalar	1sh-100	100	100/ Xs	Q, ST / 100	YaF,SF / 100
Uzoq muddatli debetor qarzlari	1sh-110	110	110/ Xs	Q, ST / 110	YaF,SF / 110
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar	1sh-120	120	120/ Xs	Q, ST / 120	YaF,SF / 120
2.Joriy aktivlar	1sh-390	390	390/ Xs	Q, ST / 390	YaF,SF / 390
Tovar moddiy xaxirlar	1sh-140	140	140/ Xs	Q, ST / 140	YaF,SF / 140
Kelgusi davr xarajatlari	1sh-190	190	190/ Xs	Q, ST / 190	YaF,SF / 190
Kechiktirilgan xarajatlar	1sh-200	200	200/ Xs	Q, ST / 200	YaF,SF / 200
Debitorlar, jami	1sh-210	210	210/ Xs	Q, ST / 210	YaF,SF / 210
Pul mablag'lari	1sh-320	320	320/ Xs	Q, ST / 320	YaF,SF / 320
Qisqa muddatli investitsiyalar	1sh-370	370	370/ Xs	Q, ST / 370	YaF,SF / 370
Boshqa joriy aktivlar	1sh-380	380	380/ Xs	Q, ST / 380	YaF,SF / 380
Iqtisodiy saloxiyat (aktivlar jami)	1sh-400	400	400/Xs	Q, ST / 400	YaF,SF / 400
Ishchilar soni (X)	1-T	1-T	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi (Q)	1-P	1-P	x	x	x
Maxsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh -010	010	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	050	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	200	x	x	x

*-buxgalteriya balansida iqtisodiy saloxiyatning tarkib bo'yicha tegishli qatori summasi.

8.18-jadval

Korxona iqtisodiy salohiyati holati, tarkibi, samaradorligi va natijaviyligi tahlili

Ko'rsatkichlar	Moliyaviy hisobot shakli va satri	Iqtisodiy salohiyat holati	Iqtisodiy salohiyat bilan taminlanganlik	Iqtisodiy salohiyat samarador-ligi	Iqtisodiy salohiyat natijaviyli-gi

1. Uzoq muddatli aktivlar		12 593 199 960	796768.3	0.411	0.077
Asosiy vositalar qoldiq qiymati	1sh-012	10 452 934 960	163327.1	0.495	0.093
Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	1sh-022	345 379	5.396	15000.3	2820.2
Uzoq muddatli investitsiyalar	1sh-030	-	-	-	-
Urnatiladigan asbob uskunalar	1sh-090	-	-	-	974 038 284
Kapital kuyilmalar	1sh-100	1 572 602 311	24571.9	3.294	0.6193
Uzoq muddatli debetor qarzlari	1sh-110	-	-	-	-
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	1sh-120	567 317 310	8864.3	9.132	1.716
2.Joriy aktivlar		11 683 693 105	182557.7	0.443	0.0833
Tovar moddiy xaxirlar	1sh-140	1 047 437 972	16362.2	4.946	0.9299
Kelgusi davr xarajatlari	1sh-190	8 441 062 224	131891.5	0.613	0.1153
Kechiktirilgan xarajatlar	1sh-200	-	-	-	-
Debitorlar, jami	1sh-210	1 566 042 404	24469.4	3.308	0.6219
Pul mablag‘lari	1sh-320	468 669 767	7322.9	11.054	2.078
Qisqa muddatli investitsiyalar	1sh-370	-	-	-	-
Boshqa joriy aktivlar	1sh-380	160 480 738	2507.5	32.283	6.069
Iqtisodiy saloxiyat (aktivlar jami)	1sh-400	24 276 893 065	379326.4	0.213	0.040
Ishchilar soni (X)	1-T	64000	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi (Q)	1-P	5 180 801 340	x	x	x
Maxsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh -010	5 180 801 340	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	1 989 514 178	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	974 038 284	x	x	x

Xulosa: korxonada iqtisodiy salohiyatni aktivlarga teng deb oladigan bo‘lsak (odatda uning tarikbiga xodimlarning qiymati ham kiritiladi) uning taminlanganlik, samaradorlik va natijviylik darajalari aktivlarning turlari bo‘yicha turlicha bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Aktivlarning taminlanganligi bo‘yicha xodimlar soniga nisbatan, maradorligini sotishdan tushumga nisbatan, natijaviylikni sof foydaga nisbatan bog‘lanishlarida ularning tarikb bo‘yicha o‘zgarishlarini davriy va dinamik baholash imokni tug‘iladi.

8.8. Korxonalar moliyaviy salohiyati: tarkibi, ko‘rsatkichlar tizimi va samaradorligini tahlili

Har qanday korxona, firma, tashkilot o‘z faoliyatini tegishli mablag‘lar

bilan ta’minlab turishi uchun maqbul moliyaviy salohiyatga ham ega bo‘lishi zarur.

Korxona moliyaviy imkoniyatga ega bo‘lmasa, u o‘zining moddiy-texnika bazasini ham, aylanma mablag‘larini ham shakllantirish imkoniga ega bo‘lmaydi. Oqibatda, faoliyat ko‘rsatishi ham qiyinlashadi.

Korxona moliyaviy salohiyatiga baho berishda balans passivining tuzilishi tahlil qilinadi. Ya’ni, korxona mulkida o‘z mablag‘lari va chetdan jalb qilingan mablag‘larining xajmi, ularning jami mablag‘lar tarkibidagi salmog‘iga baho beriladi. Sof aktivlar qiymati, o‘z aylanma mablag‘lari naqdligi, uzoq muddatli va joriy aktivlarning moliyalashtirishning tarkibiy unsurlari baholanadi.

8.19-jadval

Korxona moliviy saloxiyatini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Moliyaviy saloxiyat xolatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar	**Moliyaviy salohiyat bilan taminlanganlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar**	**Moliyaviy salohiyat samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**	**Moliyaviy salohiyat natijaviyligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**
Moliyaviy saloxiyatning o‘rtacha yillik qiymati $Ms_1+Ms_2/2...$	Aktivlar tarkibiy tuzilishining saloxiyat bilan taminlanganligi O‘MM, M (KM, QMM,UMM) / Ms	Moliyaviy saloxiyat samaradorligi YaM,ST / Ms	Moliyaviy salohiyat natijaviyligi SF / Ms*100
Iqtisodiy saloxiyatninng tarkibiy tuzilishi xolatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar O‘MM, M (KM, QMM, O‘MM)		Moliyaviy saloxiyat tarikibiy tuzilishining samaradorligi YaM,ST / O‘MM, M(KM, QMM,UMM)	Moliyaviy saloxiyat tarkibiy tuzilishining natijaviyligi SF/ O‘MM, M(KM, QMM,UMM) *100

8.20-jadval

Moliyaviy salohiyat tarkibi, holati, samaradorligi va natijaviyligi tahlili metodikasi

Ko‘rsatkichlar	Moliyaviy xisobot shakli va satri	Iqtisodiy salohiyat holati*	Iqtisodiy salohiyat bilan taminlanganlik	Iqtisodiy salohiyat samaradorli-gi	Iqtisodiy salohiyat natijaviyli-gi
I. O‘z mablag‘lari manbalari	1sh-480	480	480/Xs	Q, ST /480	YaF,SF / 780
Ustav kapitali	1sh-410	410	410/ Xs	Q, ST /410	YaF,SF / 410
Qo‘shilgan kapital	1sh-420	420	420/ Xs	Q, ST / 420	YaF,SF / 420
Rezerv kapitali	1sh-430	430	430/ Xs	Q, ST / 430	YaF,SF / 430

Sotib olingan xususiy aksiyalar	1sh-440	440	440/ Xs	Q, ST / 440	YaF,SF / 440
Taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar)	1sh-450	450	450/ Xs	Q, ST / 450	YaF,SF / 450
Maksadli tushumlar	1sh-460	460	460/ Xs	Q, ST / 460	YaF,SF / 460
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar	1sh-470	470	470/ Xs	Q, ST / 470	YaF,SF / 470
II. Majburiyatlar	1sh-770	770	770/ Xs	Q, ST / 770	YaF,SF / 770
Uzoq muddatli majburiyatlar jami,	1sh-490	490	490/ Xs	Q, ST / 490	YaF,SF / 490
Joriy majburiyatlar jami	1sh-600	600	600/ Xs	Q, ST / 600	YaF,SF / 600
Qisqa muddatli bank kreditlari	1sh-730	730	730/ Xs	Q, ST / 730	YaF,SF / 730
Qisqa muddatli qarzlar	1sh-740	740	740/ Xs	Q, ST / 740	YaF,SF / 740
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy kismi	1sh-750	750	750/ Xs	Q, ST / 750	YaF,SF / 750
Boshqa kreditorlik qarzlar	1sh-760	760	760/ Xs	Q, ST / 760	YaF,SF / 760
Moliyaviy saloxiyat (Balans passivi bo‘yicha jami)	1sh-780	780	780/ Xs	Q, ST / 780	YaF,SF / 780
Ishchilar soni (X)	1-T	1-T	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi (Q)	1-P	1-P	x	x	x
Maxsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh -010	010	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	050	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	200	x	x	x

*-buxgalteriya balansida moliyaviy soloxiyatning tarkib bo‘yicha tegishli qatori summasi.

8.21-jadval

Moliyaviy saloxiyat tarkibi, xolati, samaradorligi va natijaviyligi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Moliyaviy xisobot shakli va satri	Moliyaviy salohiyat holati	Moliyaviy salohiyat bilan taminlan-ganlik	Moliyaviy salohiyat samaradorligi	Moliyaviy salohiyat natijaviy-ligi
I. O‘z mablag‘lari manbalari	1sh-480	10 124 233 076	158191.0	0.5111	0.0962
Ustav kapitali	1sh-410	828 202 670	12940.6	6.255	1.176
Qo‘shilgan kapital	1sh-420	-	-	-	-

Rezerv kapitali	1sh-430	8 121 422 920	126897.2	0.6379	0.1199
Sotib olingan xususiy aksiyalar	1sh-440	-	-	-	-
Taqsimlanmagan foyda (koplanmagan zarar)	1sh-450	223 400 675	3490.63	23.190	4.360
Boshqa manbalar	1sh-460	951 206 811		5.446	1.024
	1sh-470		14862.6		
II. Majburiyatlar	1sh-770	14 152 659 989	221135.3	0.3660	0.0688
Uzoq muddatli majburiyatlar jami,	1sh-490	12 304 013 149	192250.2	0.4210	0.0791
Joriy majburiyatlar jami, shu jumladan:	1sh-600	1 848 646 840	192250.2	2.802	0.5268
Qisqa muddatli bank kreditlari	1sh-730	8 878 479	138.726	583.52	109.707
Qisqa muddatli qarzlar	1sh-740	1 839 768 361	28746.3	2.816	0.5294
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy kismi	1sh-750	-	-	-	-
Boshqa kreditorlik qarzlar	1sh-760	-	-	-	-
Moliyaviy saloxiyat (Balans passivi bo‘yicha jami)	1sh-780	24 276 893 065	379326.4	0.2134	0.0401
Ishchilar soni (X)	1-T	64000	x	x	x
Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi (Q)	1-P	5 180 801 340	x	x	x
Maxsulot sotishdan sof tushum (CT)	2sh -010	5 180 801 340	x	x	x
Sotishdan yalpi foyda (YaF)	2sh-050	1 088 734 205	x	x	x
Sof foyda (SF)	2sh-200	974 038 284	x	x	x

Xulosa: korxonaning moliyaviy saloxiyati 2023 yil 1-yanvar holatiga 24 276 893 065 ming so‘mni tashkil etgan. Xodimlarning moliyaviy saloxiyat bilan taminlanganligi 379326.4 ming so‘mni, moliyaviy salohiyatning samradorligi 0.2134 ming so‘mni, moliyaviy saloxiyat natijaviyligi 0.0401 ming so‘mni tashkil qilgan. Buni albatta oldingi yillarga nisbatan ijobiy deb hisoblash mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Balans nima?
2. Buxgalteriya balansi nima?
3. Buxgalteriya balansini tavsiflab bering?
4. Buxgalteriya balansi turlarini ajrating va tasniflang?
5. Buxgalteriya balansini tuzish koidalarini tasniflang?

6. Aktivlar nima?
7. Kapital nima?
8. Majburiyat nima?
9. Balansga ilovalar, kaydlar va tushuntirishlarni izoxlang?
10. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishini tasniflang?
11. Balans moddalari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga mosligini tushuntiring ?
12. Buxgalteriya balansini "o'qish"ni tasniflang?
13. Buxgalteriya balansining gorizontal (davriy) tahlili?
14. Buxgalteriya balansining vertikal (tarkibiy) tahlili?
15. Korxona moliyaviy holatining tahlili?
16. Korxonalar iqtisodiy salohiyati nima?
17. Korxona iqtisodiy saloxiyati tarkibiga nimalar kiradi?
18. Korxona iqtisodiy salohiyatning ko'rsatkichlar tizimi?
19. Korxona iqtisodiy salohiyat samaradorligi va uning tahlili?
20. Korxonalar moliyaviy salohiyati nima?
21. Korxona moliyaviy salohiyati tarkibiga nimalar kiradi?
22. Korxona moliyaviy saloxiyati ko'rsatkichlar tizimi va ularning tahlili?
23. Korxona moliyaviy saloxiyati samaradorligi va uning tahlili?
24. Buxgalteriya balansi moddalarining likvidlilik bo'yicha turkumlanishi?
25. Doimiy xarakatdagi aktivlar nima?
26. Tez pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?
27. Sekin pulga aylanadigan aktivlarga nimalar kiradi?
28. Qiyin pulga aylanadigan aktvilarga nimalar kiradi?
29. To'lov muddati kelgan majburiyatlarga qanday majburiyatlar kiradi?
30. Qisqa muddatli majburiyatlar nima?
31. Uzoq muddatli majburiyatlar nima?
32. Doimiy passivlar nima?
33. Likvidlikni mutlaq va nisbiy ifodalari?
34. Likvidlikni oshirish yo'llari?
35. Likvidlilik tahlili va uni oshirish yo'llari?
36. To'lov layoqati deganda nimani tushunasiz?
37. To'lov layoqatining ko'rsatkichlar tizimi?
38. Joriy to'lov layoqati?
39. Orlaliq to'lov layoqati?
40. Umumiy to'lov layoqati?
41. To'lov layoqatini oshirish yo'llari?

IX BOB . “MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDA HISOBOT”NING(2-son shakl) MAZMUNI VA UNI TAHLILGA TAYYORLASH YO‘LLARI

9.1.“Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”ning tarkibiy tuzulishi

“Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot”da quyidagi ko‘rsatkichlar o‘zifodasini topadi:

“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tuShum” “Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi”;

“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)”;

“Davr xarajatlari, jami”;

“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, jami”; “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, jami”; “Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)”; “Favqulodda foyda va zararlar”;

"Foyda solig‘ini to‘lashga qadar foyda (zarar)";“Hisobot davrining sof foydasi (zarari)”.

Mazkur ko‘rsatkichlarning hamasi mazkur hisobotda ketma-ket joylashgan. Ular bir-bir bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lish bilan birga bir-birini to‘ldirib ham boradi.

9.2.“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum”

Hisobotning boshlanishida “Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tuShum” moddasi (010-satr) ko‘rsatiladi. Unda mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tuShum ko‘rsatiladi. Mazkur ko‘rsatkichning sof tuShum deyilishiga sabab, bunda soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari hammasi olib tashlangan bo‘ladi. Mazkur tartib 2004 yil 20 dekabrda kiritilgan tartib bo‘yicha amalga oshiriladi (mazkur tartib AV tomonidan ushbu sanada 1209-2-son bilan ro‘yxatga olingan MV Buyrug‘i asosida amalga oshiriladi). Mazkur ko‘rsatkichda asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olish hisobvaraqlari (9000) ma’lumotlari va asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar bo‘yichaham joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summasi ham aks ettiradilar. Shuningdek, vositachi korxonalar komission haqlar summasi ham mazkur ko‘rsatkichga qo‘shib ko‘rsatiladi. Ushbu ko‘rsatkichni shartli ravishda “Q”, deb belgilab olamiz. Ushbu ko‘rsatkich birinchidan korxona faoliyatining pirovard faoliyatining hosilasi bo‘lsa, ikkinchidan ushbu ko‘rsatkich barcha xarajatlarni qoplab daromadlarni olish va foydaga erishish manbai hamdir.

9.3.“Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi”ni ifodalovchi ko‘rsatkich

Mazkur hisobotning ikkinchi ko‘rsatkichi “Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi” moddasidir. Ushbu xarajatlar hisobotning 020-satrida ifodalanadi. Mazkur summa sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olish hisobvaraqlarida (9100) hisobga olingan, sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxining summasini ifodalaydi. Agar korxona savdo korxonasi bo‘lsa, ushbu satr bo‘yicha tannarx o‘rniga sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiriladi. Demak savdo korxonasi uchun “tannarx” tovarlarning xarid qiymati bo‘lib hisoblanadi.

Shuni qayd etish lozimki, tovar aylanmasida (tovarlarni qabul qilish va sotishda) ishtirok etmasdan, xizmatlar uchun haq ko‘rinishida daromad oladigan vositachi tashkilotlar ushbu satrni to‘ldirmaydilar.

Shuni e’tirof etish kerakki, mazkur ko‘rsatkichda mahsulotlarni ishlab chiqarish uchungina ketgan xarajatlar o‘z ifodasini topadi, ya’ni uni tayyor holga keltirib, ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayyor mahsulot omboriga keltirguncha bo‘lgan xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Bundan keyingi saqlash, tashish va sotish kabi jarayonlar bilan bog‘liq xarajatlar ushbu guruh xarajatlar tarkibiga kirmaydi.

9.4.“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)”

Hisobotning uchinchi ko‘rsatkichi bo‘lib,“Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)”(R) hisoblanadi.Bu hisobotning 030-satrida ko‘rsatiladi. Mazkur ko‘rsatkich mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum (Q) bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi (N) o‘rtasidagi farq (010-satr-020-satr) sifatida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya qilinadi:

$$R = Q - N ;$$

Korxonanning yalpi foydasi mazmun jihatidan daromadlar summasiga teng. Chunki, barcha tuShumdan xarajatlarning olib tashlanishi daromad bo‘lib hisoblanadi. Ushbu daromadlar hisobidan turli xarajatlar qoplanib tegishli tarzda foyda olishga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur ko‘rsatkichni korxonaning yalpi foydasi, deb nomlangandan ko‘ra korxonaning daromadi, deb nomlansa mazmuniga to‘g‘ri bo‘lgan bo‘lardi, deb hisoblaymiz.

9.5. “Davr xarajatlari, jami”ko‘rsatkich va uning tarkibi

Navbatdagi ko‘rsatkich korxonaning “Davr xarajatlari, jami”(D) moddasi bo‘lib hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich hisobotning 040-satrida

ifodalanadi. U o‘z ichiga 050, 060, 070, 080-satrlarda ifodalangan xarajatlarni oladi va unda yakuniy jami xarajatlar summasi aks ettiriladi.

$D = d_1 + d_2 + d_1 + \ldots + d_n$;

Bu erda: $d_1 + d_2 + d_1 + \ldots + d_n$ *– davr xarajatlarining alohida turlari.*

Davr xarajatlariga quyidagi xarajatlar kiradi:

“Realizatsiya xarajatlari”(050-satr); “Ma’muriy xarajatlar”(060-satr); “Boshqa operatsion xarajatlar”(070-satr);

"Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari"(080-satr) kabilar.

Realizatsiya xarajatlarimoddasida “Realizatsiya xarajatlari” nomli 9410-hisobvarag‘ida yuritiladigan: mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari, ya’ni mahsulotni iste’molchiga etkazish, transport vositalariga ortish bilan bog‘liq xarajatlar, marketing bilan Shug‘ullanadigan bo‘limlar va xodimlarning xarajatlari kabi sotish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar aks ettiriladi.

Ushbu xarajatlar guruhiga “Ma’muriy xarajatlar” moddasi ham kiradi. Ushbu summa “Ma’muriy xarajatlar” 9420-hisobvarag‘ida yuritiladigan: korxonani boshqarish xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari, umumma’muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari, umumxo‘jalik maqsadidagi xonalarning ijara haqi va boshqa ma’muriy xarajatlar aks ettiriladi. Ayrim hollarda xizmat mashinasining ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq xarajatlar ham Shu guruhda o‘z ifodasini topadi.

Mazkur xarajatlar guruhiga kiradigan “Boshqa operatsion xarajatlar” moddasidagi summa “Boshqa operatsion xarajatlar” 9430-hisobvarag‘ida yuritiladigan: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axboriy, auditorlik va maslahat xizmatlariga haq to‘lash xarajatlari, kompensatsiyalaydigan va rag‘batlantiradigan xususiyatdagi to‘lovlar, ish haqini hisoblab yozishda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar, bank va depozitariy xizmatlariga haq, zararlar, jarimalar, penyalar va operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog‘lanmagan va xarajatlarning favqulodda moddalari sifatlariga ega bo‘lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

"Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari" moddasi ham ushbu guruh xarajatlarga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 yil 52(I)-son) 146-moddasiga ko‘ra kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari aks ettiriladi va "Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari" 9440-hisobvarag‘ida umumlashtirilgan hisob ma’lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi.

Odatda asosiy faoliyat xarajatlari bilan daromadlari ham o‘z ifodasini topadi. “Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar” moddasi bo‘yicha (090-satr) hisobi asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarni hisobga olish 9300-hisobvaraqlarida yuritiladi. Bularga quyidagi daromadlar kiradi: asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarima va penyalar, o‘tgan yillar foydasi, operativ ijaradan daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromadlar, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar. Ushbu ko‘rsatilgan daromadlar asosiy faoliyat foydasining summasining shakllanishida bevosita ishtirok etadi.

9.6.“Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)” ko‘rsatkichi va uni aniqlash yo‘llari

Hisobotda ifoda etiladigan navbatdagi ko‘rsatkich “Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)” (F) moddasi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich hisobotning 100-satrida ifodalanadi. Unda korxona asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko‘rsatiladi, ular mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)dan (Y_f) (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) (D) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) (H) qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$\mathbf{F = Y_f - D + H ;}$$

Asosiy faoliyat foydasi yoki zararini ifodalovchi ko‘rsatkich, o‘z nomi bilan asosiy faoliyat bilan bog‘liq. Buni alohida hisoblash ham mantiqiy jihatdan to‘g‘ri.

9.7.“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar

Mazkur hisobotda ifodalanidan navbatdagi ko‘rsatkich **“Moliyaviy faoliyatdan daromadlar,** jami”dan (M_{fd}) iboratdir. Mazkur moddahisobotning 110-satrida joylashgan. Bu o‘z ichiga 120, 130, 140, 150, 160-satrlarda ifodalangan summalarni qamrab oladi. Bularga:

“Dividendlar ko‘rinishida daromadlar” (120-satr);“Foizlar ko‘rinishida daromadlar”(130-satr); "Moliyaviy ijaradan daromadlar"(140-satr);

“Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” (150-satr);

“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” (160-satr) da ifodalangan summalarni o‘z ichiga oladi. Bularni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\mathbf{M_{fd} = m_1 + m_2 + m_3 + \ldots + m_p ;}$$

Bunda:$m_1 + m_2 + m_3 + \ldots + m_p$ lar moliyaviy faoliyat daromadlarining alohida turlari.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning “Dividendlar ko‘rinishida daromadlar” moddasida ko‘rsatiladigan summa “Dividendlar ko‘rinishida daromadlar” 9520-hisobvarag‘ida yuritiladi hisobdan olinadi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushbay ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxona egaligida bo‘lgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividendlar aks ettiriladi.

Mazkur daromadlar turkumiga “Foizlar ko‘rinishida daromadlar” ham kiradi. Bularning hisobi “Foizlar ko‘rinishida daromadlar” 9530-hisobvarag‘ida yuritiladi. Bunda uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar ko‘rinishida daromadlar ko‘rsatiladi.

Ayrim korxona va tashkilotlar borki, ularning asosiy faoliyati mol-mulkini moliyaviy ijaraga berish bilan Shug‘ullanmaydi. Bunday operatsiyalar asosiy bo‘lmagan tashkilotlarda "Moliyaviy ijaradan daromadlar"9550-hisobvarag‘ida yuritiladi. Ushbu moddada mol-mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olgan daromadlarini aks ettiradilar.

Moliyaviy faoliyat natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan biri “Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” moddasi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu mablag‘larning hisobi “Valyuta kurslaridagi farqlardan daromadlar” 9540-hisobvarag‘ida yuritiladi. Mazkur hisobvaraq tarkibida balansni tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha musbat kurslardagi farqlardan daromadlar aks ettiriladi.

Bulardan tashqari bir qancha daromadlarni o‘zida birlashtirgan “Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” moddasi ham yuqorida nomi zikr etilgan hisobotning 160-satrida ifodalanadi. Mazkur summaning hisobi “Royalti ko‘rinishida daromadlar” nomli 9510-hisobvaraqda, “Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar” nomli 9560-hisobvaraqda,“Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar” esa 9590-hisobvaraqlarda yuritiladi. Bularda Shuningdek, qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashlarni o‘tkazishdan daromadlar, royalti ko‘rinishida daromadlar va moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar ham ko‘rsatiladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, jami” (M_{fx}) ko‘rsatkichi ham ifodalanadi. Ushbu modda hisobotning 170-satrida ifodalanib, o‘z tarikbiga 180, 190, 200, 210-satrlarni qamrab oladi. Buning formulasiniquyidagicha aks ettirish mumkin:

$$\mathbf{M_{fx} = m_{x1} + m_{x2} + m_{x3} + \ldots + m_{xp};}$$

Bunda:$m_{x1} + m_{x2} + m_{x3} + \ldots + m_{xp}$lar moliyaviy faoliyat xarajatlarining alohida turlari.

“Foizlar ko‘rinishida xarajatlar” moddasi 180-satrda o‘z ifodasini topgan. Ushbu summaning hisobi “Foizlar ko‘rinishida xarajatlar” nomli 9610-hisobvarag‘ida yuritiladi. Bunda banklar kreditlari va qarzlar bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari ko‘rsatiladi.

Yuqoridagi xarajatlar tarkibiga "Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar" moddalari ham kiradi. Bu mazkur hisobotning 190-satrida ko‘rsatiladi. Bunda moliyaviy ijara bo‘yicha foizlarni to‘lashga xarajatlar aks ettirilib, ularning hisobi 9610 - "Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar" hisobvarag‘ida yuritiladi.

“Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar” moddasi 200-satrda ko‘rsatiladi. Mazkur summa bo‘yicha hisob “Valyuta kurslaridagi farqlardan zararlar” nomli 9620-hisobvarag‘ida yuritiladi. Bunda valyuta operatsiya-lari bo‘yicha va balans tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan manfiy kurslardagi farqlar ham aks ettiriladi.

Yuqoidagi hisobotda ifodalanadigan “Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar”, uning 210-satrida ifodalanadi. Ushbu modda bo‘yicha hisob “Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari” va 9690-“Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar” 9630-hisobvaraqlarida yuritiladi. Bunda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar hamda moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

9.8.“Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)”

Navbatdagi ko‘rsatkich “**Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)”** (U_{ff}) bo‘lib, ushbu modda hisobotning 220-satrida ifodalanadi. Bunda korxonaning umumxo‘jalik faoliyatiga doir, asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) (**F**) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo‘shish (M_{fd}) va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar summasini (170-satr) (M_{fx}) ayirish yo‘li bilan aniqlanadigan moliyaviy natijalar summasi ko‘rsatiladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\mathbf{U_{ff} = F + M_{fd} - M_{fx}\ ;}$$

Hozirgi paytda har bir korxonada, bir hisobot davrida bir marta sodir bo‘ladigan favqulotda foyda yoki zarar sodir bo‘lishi mumkin. “Favqulodda foyda va zararlar” moddasi hisobotning 230-satrida ko‘rsatiladi. Bunda favqulodda voqealar natijalari ko‘rsatiladi. Mazkur summa “Favqulodda foydalar” 9710-hisobvarag‘ida olib boriladi. Shuningdek, “Favqulodda zararlar” 9720-hisobvarag‘ida ifoda etiladi. Hisobotda bularning ma’lumotlari bitta qatorda “Favqulotda foyda va zararlar” 230-satrda (F_{fz}) ifodalanadi. Foyda bo‘lsa qo‘shiladi, zarar bo‘lsa sof foydani aniqlashda ushbu summa chegirib tashlanadi.

9.9."Foyda solig‘ini to‘lashga qadar foyda (zarar)"

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri, **"Foyda solig‘ini to‘lashga qadar foyda (zarar)"**(F_{ss}) ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur modda hisobotning 240-satrida ifodalanadi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun 220 satrdagi summaga (**U_{ff}**) +/- belgisini hisobga olgan holda 230-satrdagi summani qo‘shish yoki olish yo‘li bilan hisoblanadi. Bu quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$F_{ss} = U_{ff} \pm F_{fz} ;$$

Mazkur summadan foyda solig‘i olib tashlanadi. "Foyda solig‘i" (F_s) hisobotning 250-satrida ifodalanadi. Mazkur ko‘rsatkich hisobot davri boshidan hisoblab yozilgan"Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar" 9810 - hisobvarag‘ida hisobga olib boriladi. Shuningdek, mazkur summadan boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlar ham ayriladi. "Boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar" (S_{mt}) hisobotning 260-satrida ko‘rsatiladi. Bu ko‘rsatkich ham yil boshidan hisoblab yozilgan, qonun hujjatlariga muvofiq tashkilot foydasi hisobidan to‘lanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar uchun 260-satr bo‘yicha hisoblab yozilgan yagona soliq to‘lovi, yagona er solig‘i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq summasini aks ettiradilar. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha tegishli summalar aniqlangach “Hisobot davrining sof foydasi (zarari)” (S_f)aniqlanadi. Ushbu modda hisobotning 270-satrida ko‘rsatiladi. Bu hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi bo‘lib ko‘rsatiladi. Buni aniqlash uchun 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan yoki quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$S_f = F_{ss} - F_s - S_{mt} ;$$

Shunday qilib, yakuniy natijaga“Hisobot davrining sof foydasi (zarari)”ni aniqlashga erishdik. Mazkur ko‘rsatkichda butun manfaatlar o‘z ifodasini topadi. Ushbu ko‘rsatkich qancha ko‘p bo‘lsa, mulkdorga Shuncha yaxshi, uning mulki, foydasi ko‘payadi, korxonasi barqaror faoliyat ko‘rsatadi. Mehnat jamoasi uchun ham yaxshi, chunki Shunga yarasha rag‘batlantiriladi, mukofotga sazovar bo‘ladi, korxonaning barqaror ishlashi, ularni ish bilan ta’minlanishini ham barqarorlashtiradi. Davlatga ham manfaatli, chunki qancha foyda ko‘p bo‘lsa, o‘shancha foyda solig‘i va boshqa majburiy to‘lovlar ham oshib boradi. Davlat va mahalliy byudjetlarning ko‘payishiga olib keladi. Jamiyat uchun ham foydali, chunki mazkur korxonada faoliyat ko‘rsatayotgan aholining daromadlari oshirilishi bilan birga mazkur korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarda uzlulish bo‘lmaydi. Bozor hamisha to‘yingan bo‘ladi.

9.10.“Byudjetga to‘lovlar to‘g‘risida ma’lumot”ning tarkibi va mazmuni

“Byudjetga to‘lovlar to‘g‘risida ma’lumot”da (280-470-satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab yozilgan va to‘lanadigan soliqlar va to‘lovlarning 20 ta turlari bo‘yicha byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar ko‘rsatiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i; Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i; Qo‘shilgan qiymat solig‘i;

Aksiz solig‘i;

Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq; Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i;

Yagona soliq to‘lovi; Yagona er solig‘i; Qat’iy belgilangan soliq; Boshqa soliqlar;

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar; Byudjetdan tashqari;

Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar;

Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar;

Yagona ijtimoiy to‘lov; Import bo‘yicha bojxona boji; Mahalliy byudjetga yig‘imlar;

Byudjetga to‘lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazolar.

Ko‘rinib turibdiki, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ancha ko‘p ekan. Bularning bir joyga jamlanishi tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot manbai bo‘lib hisoblanadi.

Mazkur ma’lumotnomaning 480-satrida korxonalar tomonidan hisobot davri uchun byudjetga soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlarning hisoblangan va to‘langan jami summasi ko‘rsatiladi.

Agarda korxonalarda hisobot davri uchun hisob-kitoblar bo‘yicha qonun hujjatlari bilan o‘rnatilgan tartibga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha manfiy farq mavjud bo‘lsa, "Hisobot davri uchun hisob-kitob bo‘yicha to‘lanadi" ustuni bo‘yicha 310-satrda ushbu manfiy farq summasi "minus" belgi bilan ko‘rsatiladi. Bu o‘z navbatida jami byudjetga to‘lovlar summasida aks ettiriladi.

Savollar

1. Korxonalarning daromad guruhlari qaysilar?

2. Mahsulotlarni sotishdan yalpi tushum va sof tushum farqini ayting?
3. Korxonaning asosiy faoliyatidan olingan boshqa daromadlari tarkibiga qaysi daromad turlari kiradi?
4. Korxonaning moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlari tarkibiga qaysi daromad turlari kiradi?
5. Favqulotda foyda bu nima?
6. Korxonalarning xarajat guruhlari qaysilar?
7. Davr xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiradi?
8. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga qaysi xarajatlar kiradi?
9. Korxonaning foyda turlarini sanang?
10. Korxona sof foydasi qanday aniqlanadi?

Test savollari

1. Xarajatlar rentabelligi qanday aniqlanadi?

a) (sof tushum)*100/umumiy xarajat,

b) (sof foyda)*100/umumiy xarajat,

c) (favqulotda foyda)*100/umumiy xarajat,

d) (jami daromad)*100/umumiy xarajat.

2. Xarajatlar daromadliligi qanday aniqlanadi?

a) sof tushum/umumiy xarajat,

b) sof foyda/umumiy xarajat,

c) favqulotda foyda/umumiy xarajat,

d) jami daromad/umumiy xarajat.

3. Marjinal daromad qanday daromad?

a) Korxonaning barcha xarajatlariga teng daromad,

b) Asosiy faoliyat daromadi,

c) Moliyaviy faoliyatidan olingan daromad,

d) Favqulotda foyda.

4. Kritik nuqta bu - ?

a) O'zgaruvchan xarajatlarni qoplay oladigan ishlab chiqarish miqdori,

b) Zararsizlik nuqtasi,

c) Faqat doimiy xarajatlarni qoplay oladigan ishlab chiqarish miqdori,

d) Umumiy ishlab chiqarish miqdori.

5. Aksiz va QQS soliqlari korxonaning qaysi tushumi tarkibida o'tiradi?

a) Sof tushum.

b) Yalpi tushum.

c) Moliyaviy faoliyatdan tushum.

d) Favqulotda foyda.

6. Asosiy vositalarni chiqib ketishidan olingan daromad qaysi daromad guruhiga kiradi?

a) Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.

b) Mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar.

c) Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.

d) Favqulotda foyda.

7. Foiz ko‘rinishidagi daromad qaysi daromad guruhiga kiradi?

a) Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.

b) Mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar

c) Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.

d) Favqulotda foyda.

8. Korxonaning asosiy faoliyatidan olingan foydasi qanday aniqlanadi?

a) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan yalpi foydaga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar qo‘shiladi va davr xarajatlari ayriladi,

b) Asosiy faoliyat foydasiga moliyaviy faoliyat daromadi qo‘shiladi va moliyaviy faoliyat xarajati chegiriladi,

c) Umumxo‘jalik foydasiga favqulotda foyda qo‘shiladi va favqulotda zarar ayriladi,

d) Soliq to‘langunga qadar foydasidan foydadan to‘lanadigan soliqlar chegiriladi.

9. Korxonaning umumxo‘jalik foydasi qanday aniqlanadi?

a) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan yalpi foydaga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar qo‘shiladi va davr xarajatlari ayriladi,

b) Asosiy faoliyat foydasiga moliyaviy faoliyat daromadi qo‘shiladi va moliyaviy faoliyat xarajati chegiriladi,

c) Umumxo‘jalik foydasiga favqulotda foyda qo‘shiladi va favqulotda zarar ayriladi,

d) Soliq to‘langunga qadar foydasidan foydadan to‘lanadigan soliqlar chegiriladi.

10. Korxonaning soliq to‘langunga qadar foydasi qanday aniqlanadi?

a) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan yalpi foydaga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar qo‘shiladi va davr xarajatlari ayriladi,

b) Asosiy faoliyat foydasiga moliyaviy faoliyat daromadi qo‘shiladi va moliyaviy faoliyat xarajati chegiriladi,

c) Umumxo‘jalik foydasiga favqulotda foyda qo‘shiladi va favqulotda zarar ayriladi,

d) Soliq to‘langunga qadar foydasidan foydadan to‘lanadigan soliqlar chegiriladi.

11. Korxonaning sof foydasi qanday aniqlanadi?

a) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan yalpi foydaga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar qo‘shiladi va davr xarajatlari ayriladi,

b) Asosiy faoliyat foydasiga moliyaviy faoliyat daromadi qo‘shiladi va moliyaviy faoliyat xarajati chegiriladi,

c) Umumxo‘jalik foydasiga favqulotda foyda qo‘shiladi va favqulotda zarar ayriladi,

d) Soliq to‘langunga qadar foydasidan foydadan to‘lanadigan soliqlar chegiriladi.

X BOB. KORXONANING TO‘LOV QOBILIYATI VA LIKVIDLIGIN XAMDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI, IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

10.1. Likvidlik tushunchasi va ularning ta’rifi

Har qanday soha korxonalari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri, uning likvidligi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardir. **Likvidlik** deganda, korxonaning barcha majburiyatlarini to‘lovga qodirligi tuShuniladi. Demak, korxonaning oborot aktivlari, uning

majburiyatlarini qoplaydigan darajada bo‘lishi kerak.

Aktivlar likvidligideganda, korxona aktivlarining pulga aylanish jarayoni tuShuniladi. Bunining darajasi vaqt bilan o‘lchanadi. Aktivlar qancha tez pulga aylansa Shuncha u likvidli hisoblanadi va aksincha.

Korxonaning likvidligi deganda, uning barcha majburiyatlarini o‘z vaqtida qoplay olish qobiliyati (imkoniyati) tuShuniladi. Korxona o‘z majburiyatlarini qancha tez va o‘z vaqtida qoplay olsa, bunday korxonalar keng imkoniyatli korxonalar bo‘lib hisoblanadi.

Bu bir qancha omillarga bog‘liq:

- aktivlar tarkibiga, ya’ni asosiy vositalarga nisbatan aylanma mablag‘larining ko‘pligiga;
- aylanma mablag‘lar tarkibida tez likvid bo‘ladigan mablag‘lar ulushining ko‘pligiga;
- aylanm mablag‘larning aylanish tezlilila;
- aylanma mablag‘larning pulga aylanish muddatiga;
- korxona majburiyatlarining hajmi va muddatiga.

Korxona balansi likvidligi deganda, uzoq muddatli aktivlar manbalarining oborot aktivlarini qoplash darajasi tuShuniladi. Bunda o‘z mablag‘larining joylanish tarkibiga ahamiyat beriladi, ya’ni uning qancha qismi o‘zoq muddatli aktivlarni va qancha qismi joriy aktivlarni qoplashga ketganligi bilan o‘lchanadi.

Korxonaning to‘lovga qobiliyatlilik darajasi deganda, barcha majburiyatlarini (kredit bergan tashkilotlar, savdo bilan bog‘liq qarzlar, byudjet, xodimlar oldidagi qarzlar kabilarni) o‘z vaqtida to‘liq to‘lay va qoplay olish qobiliyati tuShuniladi.

Korxonaning likvidligi va to‘lov qobiliyatini tahlil qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- korxonaning joriy majburiyatlarini o‘z vaqtida joriy aktivlar bilan qoplay olish;
- korxonaning muddatli majburiyatlarini qoplash uchun Shu muddat ichida to‘lay oladigan likvid mablag‘larning mavjudliginibaholash;

- naqd pul mablag‘larining etarlilik darajasini aniqlash;
- korxonalarning to‘lovga qodirlik darajasiga baho berish kabilar. Xulosa qilib aytganda, likvidlilik korxonaning o‘z joriy (aylanma)
- aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Korxonaning mol-mulkini naqd pulga aylantirish hamda uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlarini qoplashga sarflash mumkin bo‘lganida balans aktivi (pullanadigan) bo‘ladi. Bunda aktiv moddalarining xususiyati Shundan iboratki, ular yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki bir shakldan ikkinchisiga o‘tadi. Masalan, tovar-moddiy boyliklarning ma’lum qismi sotiladi, deylik. Bu holda korxonadagi tovar moddiy boyliklar kamayadi. Biroq hisob-kitob varag‘idagi, kassadagi yoki valyuta hisob schetidagi pul mablag‘lari Shuncha so‘mmaga ko‘payadi. Balans yakuni o‘zgarmaydi. Chunki tovar-moddiy boyliklari ham, pul ham korxonaning mablag‘lari bo‘lib, uning balans aktivida turadi.

Balans passivi moddalari «so‘ndiriladigan» bo‘ladi, chunki ular qarz to‘lanishi oqibatida «yo‘q bo‘lib ketish» qobiliyatiga ega. «Likvidlilik» passivda aks ettiriladigan majburiyatlarning aktiv mablag‘lari hisobidan qoplanishidir. Masalan, soliqlar bo‘yicha byudjetga qarz uzilgan. Bu holda byudjetga qarz to‘langan va hisob-kitob schetidagi pul mablag‘lari kamaygan bo‘ladi. Balans passivida ham, aktivida ham mablag‘lar soliqqa to‘langan so‘mma miqdorida kamayadi. Yana bir misol: xaridorlarga oldinroq to‘langan bo‘nak evaziga tayyor mahsulot berildi. Xaridorlarning bo‘naklari hisobidan qarzdorlik «tugatiladi» va tayyor mahsulot so‘mmasi ham kamayadi.

Korxona bankrot bo‘lganida, Shuningdek, korxonaning mablag‘lari kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun etarliligini, ya’ni u qarzini mavjud mablag‘lari hisobidan yo‘qotishga (to‘lashga) qodirligini, unda qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish uchun nazariy jihatdan yetarli miqdorda aylanma mablag‘lar mavjudligini aniqlash zarur bo‘lgan vaziyatlarda balansning likvidligi masalalari ayniqsa jiddiy bo‘lib qoladi.

Korxona rahbari buxgalteriya balansi bilan tanishib chiqib, passivning 2-bo‘limi so‘mmalari aktivning 2-bo‘limi so‘mmalari bilan taqqoslash orqali likvidlilik darajasini aniqlashi mumkin. Agar aylanma aktivlar so‘mmasi majburiyatlar so‘mmasidan ortiq bo‘lsa, korxona, asosan, o‘z kreditorlari bilan hisob-kitob qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Lekin korxona buxgalteriya balansi haqiqatdan ham likvidligi, ya’ni to‘lovga qobiliyatli deb hisoblanishi uchun joriy aktivlar majburiyatlardan ancha (ikki baravardan ortiqroq) ko‘p bo‘lishi kerak.

10.2. Aktivlarning likvidlik nuqtai nazaridan turlari

Joriy majburiyatlarni bajarish uchun likvidliligi aylanish tezligiga, ya’ni naqd pulga aylanish tezligiga bog‘liq bo‘lgan turli aktivlardan foydalanish mumkin. Korxona aktivlari likvidlilik darajasiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Likvidliligi eng kuchli aktivlar. Ular jumlasiga barcha pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy mablag‘lar, ya’ni qimmatli qog‘ozlar kiradi. (1-shakl. Buxgalteriya balansi. Aktivning 2-bo‘limi, 170-200-satrlar).

Tez sotiladigan aktivlar. Ular muddati o‘tkazib yuborilgan qismdan tashqari debitorlik qarzlarini va boshqa aktivlarni o‘z ichiga oladi (1-shakl. Aktivning 2-bo‘limi, 220-dn 290-gacha bo‘lgan satrlar minus 2a-shakl 7-grafasining yakuni).

Sekin sotiladigan aktivlar. Bunga balans aktivi 2-bo‘limining

«Zaxiralar va chiqimlar», «Bo‘lajak davr xarajatlari», Shuningdek, balans aktivi 1-bo‘limidan «Uzoq muddatli investitsiyalar» degan moddalar kiradi (1-shakl.Aktivning 2-bo‘limi, 120 dan 160 gacha bo‘lgan satrlar, aktivning 1-bo‘limi, 40 dan 100 gacha bo‘lgan satrlar).

Qiyin sotiladigan aktivlar. Bular asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tugallanmagan sarmoya mablag‘lar, uskuna va qurilmalar, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlaridir (1-shakl, aktivning 1-bo‘limi, 12, 22, 30-satrlar plyus 2a-shakl 7-grafasining yakuni).

Moliyani boshqarish san’ati hisob schetlarda minimal miqdorda mablag‘ saqlab, ularning qolganini tez sotiladigan aktivlarda saqlashdan iboratdir.

Hisob-kitob schetidagi so‘mma qancha katta bo‘lsa, to‘lovlar va majburiyatlar yuzasidan mavjud mablag‘lar bilan hisob-kitob qilish imkoniyati shuncha ko‘p bo‘ladi. Biroq, pul mablag‘lari zaxirada va xarajatda, ya’ni aylanishda bo‘lsa, ularni naqd pulga aylantirish ancha murakkab bo‘ladi.

Kreditorlar kredit berishdan oldin qay darajada xatarga yo‘l qo‘yayotganlarini aniqlaydilar. Buning uchun korxonaning kreditni qaytarish qobiliyatini tahlil qiladilar, ya’ni tegishli ko‘rsatkichlar yordamida uning likvidligini va to‘lov qobiliyatini bilib oladilar.

10.3. Korxonalar likvidligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish yo‘llari

Balansning muayyan moddalari o‘rtasidagi nisbatni aks ettiradigan korxona likvidligini ifoda etadigan koeffitsientlar va moliyaviy hisobotning boshqa turlaridan iborat butun boshli ko‘rsatkichlar tizimi mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Qoplash koeffitsienti (Qk). Bu koeffitsient korxonaning likvidliligiga baho beradi, joriy majburiyatlar aylanma mablag‘lar bilan qay darajada

ta’minlanishini (boshqacha aytganda, aylanma aktivlarga solingan moliyaviy resurslarning qancha so‘mi joriy majburiyatlarning bir so‘miga to‘g‘ri kelishini) ko‘rsatadi va joriy aktivlar so‘mmasini (JA) (balans aktivi 2-bo‘limining yakuni) joriy majburiyatlarga (JM) quyidagi formula bo‘yicha taqsimlash yo‘li bilan hisoblab chiqiladi:

JA SH.1. Satr 300

Qk = ---------- yoki ----------

JM SH.1. Satr 540-(400+410)

Odatda, bu ko‘rsatkichning o‘sishi ijobiy baholanadi. Amaliy tajriba nuqtai nazaridan, bu ko‘rsatkich 2,0 va undan ko‘proqni tashkil etsa me’yorida deb hisoblanadi. Lekin uning ko‘p o‘sishi ham ma’qul emasdir. CHunki bu hol ishlab chiqarish zaxiralariga solingan mablag‘lar aylanishi sekinlashganligidan va debitorlik qarzlari asossiz o‘sib ketganligidan darak beradi.

Tez likvidlilik koeffitsienti (Tl.koef.) pul mablag‘lari (PM), hisob-kitoblar va boshqa aktivlarning joriy majburiyatlaridagi ulushini ko‘rsatadi va u quyidagi formula asosida hisoblab chiqiladi:

PM + DQ + MO‘DQ

Tl.koef. = yoki

JM

SH.1. Satr (170+...+200)+(220+...-290)-SH.2. 7 grafa (yakuni)

----------SH.1. Satr 540 - (400+410)

Bunda: DQ - debitorlik qarzlari;

MO‘DQ - muddati o‘tgan debitorlik qarzlari.

Tez likvidlilik koeffitsienti korxonaning joriy majburiyatlarni tez sotiladigan aktivlar hisobidan bajara olishini belgilaydi va qoplanish koeffitsientini to‘ldiradi. Tez likvidlilikning yuqori koeffitsienti moliyaviy xatar kamligidan va chetdan qo‘shimcha moliyaviy mablag‘lar jalb etish uchun yaxshi istiqbollar mavjudligidan darak beradi.

Agar bu ko‘rsatkich 1,0 dan ortiq bo‘lsa, ya’ni tez likvidli aktivlar joriy majburiyatlar so‘mmasiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, normal hisoblanadi. Kredit berish chog‘ida banklar va boshqa kredit muassasalarini ana shu ko‘rsatkich qiziqtiradi.

Absolyut likvidlilik koeffitsienti (Abs. Lik.K.) joriy majburiyatlardagi pul mablag‘larining ulushini ko‘rsatadi va u pul mablag‘larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi. Pul mablag‘lari - kassada, hisob-kitob schotida, valyuta hisob schyotida va boshqalarda mavjud bo‘lgan puldir. U quyidagi formula bo‘yicha hisoblab

chiqiladi:

PM SH.1. Satr 170+180+190
Abs. Lik. K. = ---------- yoki ----------
JM SH.1. Satr 540 - (400+410)

Absalyut likvidlilik koeffitsienti asosida muayyan paytda majburiyatlarni qoplash uchun pul mablag‘lari mavjudligini aniqlash mumkin. Bu koeffitsient, eng avvalo, korxonaga etkazib beruvchilarni qiziqtiradi. Ushbu koeffitsient qancha yuqori bo‘lsa, korxonaning eng zarur majburiyatlar bo‘yicha (soliqlar, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to‘lash bo‘yicha) hisob-kitob qilish imkoniyatlari shuncha ko‘p bo‘ladi. Mazkur koeffitsient 0,2 va undan yuqori bo‘lganida normal hisoblanadi.

10.4.Korxonaning likvidligini ta’minlashda qo‘llaniladigan qo‘shimcha ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan koeffitsientlar asosiy hisoblanadi va shularga tayangan holda korxonaning likvidliligi, to‘lov qobiliyati va kreditni qutilish qobiliyati haqida ishonchli xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi. Biroq, korxonaning bu boradagi haqiqiy ahvolini yanada puxta o‘rganish uchun yana bir qator ko‘rsatkichlarni hisoblash tavsiya etiladi.

Ishlatiladigan sarmoyaning o‘zgaruvchanligi yoki o‘zgaruvchanlik koeffitsienti (O‘K): zaxiralar va sarmoyaga, ya’ni muddati kechiktirilgan debitorlik qarzlarini chegirib tashlagandan keyin qolgan o‘z aylanma mablag‘lariga nisbati sifatida belgilanadi va u quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

Zax.Xar. SH.1. Satr 120 + ... + 150
O‘K = ---------- yoki ----------
D O‘MAym SH.1. Satr 390+400-110-SH.2a,7gr)
Bunda: *Zax.xar - zaxiralar va xarajatlar;*

O‘MAym - o‘z mablag‘lari va uzoq muddatli passivlarntingaylanma mablag‘lardagi so‘mmasi.

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning erkin harakatlantirish imkonini bermaydigan shakldagi o‘z sarmoyasining ulushini anglatadi. CHunki joriy qarzlardan uzilish uchun zaxiralar va xarajatlarni muomalaga kiritish, muddati o‘tgan debitorlik qarzlarini qaytarish kerak bo‘ladi.

Ishlatilayotgan sarmoya harakatchanligining yuqori koeffitsienti bankrotlik xavfi borligidan dalolat beradi.

Bu koeffitsient 0,5 dan ortiq bo‘lmasligi, ya’ni zaxira va xarajatlar

so‘mmasi o‘z aylanma mablag‘lari jami so‘mmasining 50 foizidan ortiq bo‘lmasligi normal hisoblanadi.

Umumiy sarmoyaning o‘zgaruvchanligi (SO‘) joriy aktivlarning (JA), ya’ni aylanma mablag‘larning xo‘jalik mablag‘lari so‘mmasiga (sarmoya) nisbati sifatida aniqlanadi. Bu uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$SO' = \frac{\text{JA}}{\text{Sarmoya}}$$

U harakatchanroq immobilizatsiyalangan (harakatsiz) aktivlardan farqli ravishda tez pul mablag‘lariga aylantirish mumkin bo‘lgan xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasidagi ulushini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich qancha yuqori bo‘lsa, korxonaning likvidlilik darajasi Shuncha yuqori bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkich 0,6 dan yuqori bo‘lganida, ya’ni aylanma mablag‘lar xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasida 60 foizdan ko‘proqni tashkil etganida normal hisoblanadi.

Korxonaning likvidliligini baholash uchun buxgalteriya balansi asosida tahlil qilinayotgan yil boshi va oxiridagi bu koeffitsientlarni hisoblab chiqarish, yil davomida ularning o‘zgarishini belgilash hamda tarkib topgan me’yorlar bilan taqqoslash zarur (10.1-jadval).

10.1-jadval

«To‘ron» OTAJning hisobot yilidagi balansilikvidliligini baholash

Ko‘rsatkichlar	Hisobot yili		Me’yor bo‘yicha	Yil bo-shidagi- ga nis- batan farqi	Me’yor-ga nisba-tan farqi
	Yil boshida	Yil oxirida			
Qoplanish koeffitsienti	1,90	2,10	>2.00	+0.20	+0.10
Tez likvidlilik koeffitsienti	0,10	0,20	>1,00	+0,10	-0,80
Absolyutlikvidlilik koeffitsienti	0,50	0,40	>0,20	-0,01	-0,16
Amal qiluvchi sarmoyaning o‘zgarishi	2,30	2,00	ko‘pibilan 0,50	-0,3	+1,5

Umumiy sarmoyaning o‘zgarishi	0,52	0,56	>0,60	+0,04	-0,04

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qoplash koeffitsienti, ya’ni aylanma mablag‘larning joriy majburiyatlar so‘mmasiga nisbatan hisobot davrida 1,90 dan 2,10 ga qadar o‘zganligini ko‘rsatadi, bu esa me’yor darajasidadir. Aylanma aktivlar joriy aktivlardan 2 baravardan ortiqdir. Korxona oddiy sharoitlarda ishlaganida aylanma mablag‘lar bilan joriy qarzlarning bunday nisbati me’yor darajasida deb hisoblanadi. Biroq, korxonaning katta mablag‘lari immobilizatsiya qilinganligi, ya’ni tovar zaxiralari va xarajatlarda, Shuningdek, muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik qarzlarida turganligi munosabati bilan korxonaning yil oxiridagi balansi nolikvid deb hisoblanadi. Tez va absolyut likvidlilik koeffitsientlari shundan darak beradi. Bu koeffitsientlar hisobot davrida yaxshilanmagan va u belgilangan me’yorlardan ancha past bo‘lib qolavergan. Ishlatilayotgan va umumiy sarmoyaning o‘zgaruvchanlik koeffitsientlari ham hisobot davrida yomonlashadi va me’yordan past darajada bo‘ldi. Shunday qilib korxona hisobot davrida qisqa muddatli qarzlarni o‘z mablag‘lari bilan to‘lashga qodir emas edi.

10.5. Korxonalarning to‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularnianiqlash va tahlil qilish yo‘llari

To‘lov qobiliyati xo‘jalik yurituvchi subyektda belgilangan muddatlarda to‘lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun etarli miqdorda pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari borligini anglatadi.

To‘lov qobiliyatining asosiy belgilari quyidagilardir:

- kreditorlik qarzlari bo‘yicha hisob-kitob qilish uchun yetarli darajada pul hajmlari borligi;
- muddati o‘tgan kreditorlik qarzlarining yo‘qligi.

Bundan likvidlilik bilan to‘lov qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Likvidlilik qarzlarni to‘lash uchun mablag‘lar mavjudligini ko‘rsatsa, to‘lov qobiliyati - qarzni uzish imkoniyati borligini ko‘rsatadi. Hisob-kitoblar likvidlilik yaxshi darajada ekanligini, moliyaviy ahvol ijobiy ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Aslida esa, korxona joriy aktivlardagi katta mablag‘larini qarzni to‘lashga yo‘naltira olmasligi mumkin. Bu tovar zaxiralariga talab yo‘qligi, tayyor mahsulotni sotish qiyinligi, debitorlar to‘lovga qobiliyatli emasligi, muddati o‘tgan debitorlik qarzlari so‘mmasi kattaligi tufayli mazkur korxona to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib chiqishi mumkin.

Shu sababli, korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilganda, uning likvidlilik darajasidan tashqari to‘lovga qobiliyatliligini, ya’ni muayyan paytda qisqa muddatli qarzlarni uzish imkoniyatini aniqlash ham zarur.

Balansning to‘lovga qobiliyatliligini tahlil qilgan vaqtda likvidlilik darajasiga qarab guruhlarga birlashtirilgan aktiv mablag‘lar u to‘lov muddatlari bo‘yicha guruhlarga ajratilgan passiv majburiyatlari bilan taqqoslanadi. Shundan keyin korxonaning to‘lov qobiliyati darajasini ko‘rsatadigan koeffitsientlar hisoblab chiqiladi.

Qarzni uzish darajasi jihatidan majburiyatlar: eng shoshilinch majburiyatlar, qisqa muddatli passivlar, uzoq muddatli passivlar va doimiy passivlarga bo‘linadi.

Eng shoshilinch majburiyatlar (ESHM) kreditorlik qarzlari (Sh.1. 2-bo‘lim, satrlar: 450 dan 530 gacha) Shuningdek, muddatida to‘lanmagan qarzlardir.

Qisqa muddatli passivlar (KMP) - qisqa muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag‘lar (Sh.1. 2P-bo‘lim, satrlar 420, 430 va 440).

Uzoq muddatli passivlar (UMP) - uzoq muddatli kreditlar va qarzga olingan mablag‘lar (Sh.1. 2P-bo‘lim, satrlar 400, 410).

Doimiy passivlar - balans passivi «O‘z mablag‘lari manbalari» degan birinchi bo‘limning jami.

Xalqaro amaliyotda joriy majburiyatlarni bajarishning quyidagi nisbati nazarda tutilgan: to‘lovga taqdim etilgan schetlar, qisqa muddatli majburiyatlar, dividendlar, hisoblangan majburiyatlar (xarajatlar bilan bog‘liq), olingan bo‘naklar, kelajak davrlarning daromadlari (xizmat ko‘rsatishdan oldin olingan pul mablag‘lari, masalan, bo‘nak to‘langan ijara haqi, to‘lovga qo‘yilgan soliqlar, kafolat majburiyatlari, ishchi va xizmatchilarga qaytarilishi kerak bo‘lgan qarzlar), muddati o‘tkazilgan qarz majburiyatlari, to‘lash muddati qayd etilmagan (talab qilib olinguncha) majburiyatlar.

Korxonaning to‘lov qobiliyati eng shoshilinch majburiyatlarni to‘lash qobiliyati, qisqa muddatli passivlar va uzoq muddatli passivlar koeffitsientlari yordamida baholanadi.

Eng shoshilinch majburiyatlarning to‘lov koeffitsienti (KEsh.M.T.) eng likvid aktivlarning (El.a) eng shoshilinch majburiyatlar (ShM) so‘mmasiga nisbati sifatida aniqlanadi va quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi:

$$\text{El.a KE.sh.m.t} = \frac{\text{El.a}}{\text{SHM}}$$

Qisqa muddatli passivlarning to‘lov koeffitsienti (KQMP) tez sotiladigan aktivlarning (TSA) qisqa muddatli passivlar (QMP) so‘mmasiga

nisbati sifatida aniqlaniladi va quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$KQMP = \frac{TSA}{QMP}$$

Uzoq muddatli passivlarning to‘lov koeffitsienti (KUMP) sekin sotiladigan aktivlar (SSA)ning uzoq muddatli passivlar (UMP) so‘mmasiga nisbati sifatida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$KUMP = \frac{SSA}{UMP}$$

Balansning to‘lovga qobiliyatliligini tahlil qilganda yuqorida ko‘rsatilgan guruhlar bo‘yicha mablag‘lar va qarzlarni aniqlash, uziladigan qarzlar darajasini hisoblash va ular yuzasidan xulosalar chiqarish kerak bo‘ladi. Bu uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (10.2-jadval).

10.2-jadval

«To‘ron» OTAJning hisobot yilidagi balansilikvidliligini baholash

(ming so‘m miqdorida)

Likvid mablag‘lari ko‘rsat-kichlar	**Yil bo-shi-da**	**Yil oxi-ri- da**	**Qarzni o‘zishning shoshilich-lik darajasi**	**Yil bo-shi-da**	**Yil oxi-ri-da**	**Ortiqcha to‘lash yoki kamayish darajasi**			
						yil boshida		**yil oxirida**	
						so‘m-ma	**dara-ja**	**so‘m-ma**	**dara-ja**
Eng likvid aktivlar	351	304	Eng shoshi-linch maj-buriyatlar	5929	6140	-5578	5,9	-5710	5,1
Tez sotiladigan aktivlar	399	1249	Qisqa muddatli passivlar	1241	1820	-842	32,2	-474	72,5
Sekin sotiladigan aktivlar	11559	12688	Uzoq muddatli Passivlar	95	-	11464	-	12688	-
Qiyin sotiladigan aktivlar	14838	15296	Doimiy passivlar	1988	21708	-5044	74,7	-6407	70,5

Ushbu jadval ma’lumotlari korxonaning to‘lovga qobiliyatsizligini, ya’ni uning qisqa muddatli majburiyatlari yaqin orada qaytarilmasligini ko‘rsatadi.

Eng likvidli mablag‘lar va tez sotiladigan aktivlarni eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bilan taqqoslab, korxonaning yaqin vaqt ichidagi joriy to‘lovga qobiliyatini aniqlaymiz. OTAJda hammadan tez sotiladigan aktivlar eng shoshilinch majburiyatlar va qisqa muddatli passivlar bo‘yicha hisob-kitob qilish uchun etarli emas.

Sekin sotiladigan aktivlarni uzoq muddatli passivlar bilan taqqoslash kelajakda likvidlilik mavjud bo‘lishini, ya’ni kelajakdagi tushumlar va to‘lovlar asosida to‘lov qobiliyati taxmin qilinishini ko‘rsatadi. Lekin bu to‘lovlar to‘liq bo‘lmasligi mumkin. Sekin sotiladigan va qiyin sotiladigan aktivlardan, odatda, korxona bankrot bo‘lganida qarzlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Shunday qilib, «Turon» OTAJ yil oxiridagi buxgalteriya balansi ma’lumotlari bo‘yicha umuman olganda likvid tashkilot, lekin to‘lovga qobiliyatli emas. Korxona rahbarlari darxol uning moliyaviy ahvolini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko‘rishlari kerak.

Shu tariqa hisoblab chiqarilgan likvidlilik va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari korxonaning turli davrlardagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatini baholash maqsadida turli korxonalarning balanslarini taqqoslash imkonini beradi. Likvidlilik va to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari belgilangan me’yorlardan past bo‘lgan va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yil 28 avgustda qabul qilinga «Bankrotlik to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq kreditorlarning pul mablag‘lari bo‘yicha talablarini to‘la hajmda qondirishga, Shu jumladan soliqlar, yig‘imlar, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashga qodir bo‘lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Bunda bankrotlikni xo‘jalik sudi e’tirof etgan va qarzdorning o‘zi ixtiyoriy ravishda o‘zini tugatish chog‘ida e’lon qilgan bo‘lishi kerak. Xo‘jalik sudi qarzdor, kreditor va prokuror taqdim etgan bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi. Sud bankrotlikni e’tirof etgandan keyin ishonchli (vakolatli) shaxs tugatish komissiyasining kuzatuvi ostida korxonani tugatish, Shu jumladan, qarzlarni uzish bo‘yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi.

Korxonaning bunday ahvolga olib bormaslik uchun uning likvidliligi va to‘lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi va baholab turilishi kerak. Likvidlilik va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi:

- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko‘paytirish;

- tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish hamda ular yuzasidanmuddati o‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘lash;
- o‘z majburiyatlari bo‘yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddatio‘tkazib yuborilgan qarzlarni to‘lash;
- joriy aktivlardagi o‘z aylanma mablag‘lari ulushini ko‘paytirish;
- aylanma mablag‘lar aylanish tezligini oshirish;

Likvidlilik va to‘lov qobiliyati darajasi yaxshilanishi ko‘p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy baquvvatligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

10.6. Korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati va uni tahlil qilish zarurligi

Bozor iqtisodiyoti ma’muriy buyruqbozlikni inkor qilib korxona faoliyatini erkin va mustaqil boshqarishni taqozo qiladi. Bunday hollarda boshqarish buyruq bilan emas, balki iqtisodiy dastaklar bilan amalga oshirilishi lozim. Rejali iqtisodiyotda rahbarning asosiy funksiyasi korxonani reja dastagi orqali boshqarar edi. Barcha kuch va imkoniyat rejani bajarishga qaratilardi. Endi esa rahbar boshqarish bilan birga mehnatkashlar bilan ham bevosita ishlaydigan bo‘lishdi. Uning mas’uliyati va javobgarligi ham oshdi. Rahbar oldin korxona zarar bilan ishlasa ham xotirjam edi. Unga faqat davlat rejasi bajarilsa bas. Zarar davlat yoki yuqori tashkilot bo‘yrug‘i bilan boshqa korxonalar hisobidan qoplanar edi. Endi ahvol butunlay o‘zgardi. Agar korxona zarar bilan ishlasa uning faoliyati to‘xtab qolishi muqarrar. Oldingidek bir rahbar bir tashkilotni tugatib ikkinchisiga bemalol o‘tib ishlashi uchun imkoniyat qisqardi. Korxonalar aksariyat hollarda davlat tasarrufidan chiqarilib jamoa va xususiy mulkka aylandi.

Shunday qilib, endilikda korxonani boshqarishda iqtisodiy dastaklarning mohiyati keskin oshmoqda. Shu bilan birga oldin rahbar bo‘lish uchun ma’lum ma’muriy pag‘onalardan o‘tib kelar edi. Endi esa har bir jasur, tadbirkor kishi iqtisodiyot bo‘yicha diplomi bo‘lmasada mustaqil korxona ochib rahbarlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Shu tufayli endigi iqtisodiy tavsiyalar, yo‘riqnoma va ko‘rgazmalar, yozilgan kitoblar malakali iqtisodchilar bilan birgalikda iqtisodiy bilimi, malakasi etarli bo‘lmagan keng o‘quvchilar ommasiga, xususan, iqtisodiy bilimga ega bo‘lmagan ishbilarmon-tadbirkorlarga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

Korxonani boshqarishda axborotlar muhim ahamiyatga ega. Bu axborotlarning asosiy qismi moliyaviy hisobotlarda ifodalanadi. Moliyaviy hisobotlar korxona faoliyati natijasini ifodalovchi ko‘zgu. Hozir har bir mutaxassis, rahbar moliyaviy hisobotlarni iqtisodiy o‘qishni, undan tegishli

xulosa chiqarib, boshqarishda foydalanishni yaxshi bilishi lozim.

Oldin korxona faoliyati reja bajarilishiga qarab baholanar edi. Moliyaviy hisobotning asosi bo‘lgan buxgalteriya balansidagi ma’lumotlar boshqarishda deyarli ishtirok etmas edi. Oqibatda korxonaning real iqtisodiy ahvoliga to‘g‘ri baho berilmagan. Endilikda boshqarish korxonaning moliyaviy hisobotiga asosan amalga oshiriladigan bo‘lmoqda. Bu esa har bir kishidan uni iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri o‘qiy olishni talab qiladi.

Moliyaviy hisobotlar juda katta axborotlar manbaiga egaligi tufayli u tahlil qiluvchi uchun asosiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. Savodxon iqtisodchi uni Shunchaki qarab chiqib o‘zi uchun korxonaning moliyaviy ahvoli qanday holatda ekanligi to‘g‘risidagi tegishli ma’lumotni oladi. Endilikda korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshi bilmasdan faoliyat ko‘rsatish va uni boshqarishda korxona istiqboliga kishan solish yoki uni qorong‘i yo‘ldan yurishga majbur qilish demakdir. Shu tufayli korxona istiqbolini to‘g‘ri aniqlab olish uchun eng avvalo uning faoliyatini moliyaviy hisobotlar orqali chuqur o‘rganib olish lozim.

Korxona moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan eng muhimi uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardir. Ammo moliyaviy barqarorlikka tegishli ko‘rsatkichlar, ularni hisoblash yo‘llari va tahlili iqtisodiy adabiyotlarda etarlicha yoritilmagan. Shu tufayli bu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish hozirgi kunda juda muhim va dolzarb hisoblanadi.

10.7. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tasnifi

Korxona moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan eng muhimi uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlardir. Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatidan bir maromda uzluksiz ta’minlab to‘rishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan ta’minlanish faqatgina moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish emas, balki uning juda ko‘p qirralari, tomonlari mavjud. Chunki xo‘jalik faoliyatining uzluksiz sodir bo‘lib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar etarli emas. Bu resurslarning ta’minlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham etarli miqdorda bo‘lishi lozim. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ammo korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar xususida olimlar o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Bu borada olimlar ikki guruhga bo‘lingan. A.D.Sheremet, R.S.Sayfulin, V.V.Kovalev, G.V.Savitskaya, E.A.Akramov kabilar korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun bitta ko‘rsatkichdan foydalanib, uning darajasi bo‘yicha to‘rt xil xulosa chiqarishni tavsiya qiladilar. Bunday holatlarga quyidagilar

kiritilgan.

1. Moliyaviy holatning mutloq barqarorligi.

2. Moliyaviy holatning me’yor darajasidagi (normal) barqarorligi.

3. Moliyaviy holatning beqarorligi, ya’ni iqtisodiy inqiroz xovfi kuchli bo‘lgan holat.

4. Moliyaviy holatning inqiroz, ya’ni korxonaning bankrotlik ahvolga tushib qolish holati.

Ikkinchi guruh olimlar va mutaxassislar, jumladan I.T.Abdukarimov, M.M.To‘laxo‘jaeva, I.O.Voljin, V.V.Ergashbaev, N.Hasanov kabilar korxona moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozimligini tavsiya qiladilar.

Jumladan V.V.Patrov va V.V.Kovalyovlar korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun sakkizta ko‘rsatkichni[103] tavsiya qilsa, I.O.Voljin va V.V.Ergashbaevlar uni ifodalash uchun 18 ta ko‘rsatkichni[104] tavsiya qiladilar. «Xo‘jalik faoliyati tahlili» bo‘yicha o‘quv qo‘llanmaning muallifi G.V.Savitskaya korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun atiga ikkita ko‘rsatkichni tavsiya qilgan[105]. Bular jumlasiga faqat «Moliyaviy holatning mutloq barqarorligi» va «Me’yor darajasidagi barqarorlik» ko‘rsatkichlarini kiritgan.

G.V. Savitskayaning qarashlari boshqa mualliflarnikidan tubdan farq qiladi. Bu muallif korxonaning to‘lovga qodirlik darajasini moliyaviy barqarorlik deb ifodalaydi. Bu qarashlardan farqli o‘laroq I.T.Abdukarimov korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun 6 ta ko‘rsatkichni tavsiya qiladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritadi: mustaqillik koeffitsienti; moliyaviy barqarorlik koeffitsienti; moliyaviy qaramlik koeffitsienti; o‘z sarmoyasining harakatchanligi; jalb qilingan sarmoyaning to‘planish koeffitsienti; jalb qilingan va o‘z sarmoyasi koeffitsienti[106]. Ushbu ko‘rsatkichlarning qulayligi Shundaki, ularning bari aniq ma’lumotlarga asoslanadi. Bu esa uning nazariy ahamiyati bilan birga amaliy ahamiyatini ham oshiradi. Muallifning mazkur taklifi ushbu kitobning navbatdagi ikkinchi nashrida ham takrorlanadi[107].

Shuni e’tirof etish kerakki, ushbu iqtisodiy kategoriyani ifodalash uchun ko‘rsatkichlar soni ayrim olimlarda bir-biriga to‘g‘ri keladi. Ammo ularning turlari boshqa-boshqa. Jumladan I.T.Abdukarimovda ham V.F.Paliyda ham ushbu kategoriyani baholash uchun 6 tadan ko‘rsatkichni

---

[103] Патров В.В., Ковалёв В.В. Как читать баланс. - М.: Финансы и статистика, 1993. - 176-180 бетлар.

[104] Волжин И.О., Эргашбаев В.В. Молиявий таќлил. Т.: «Иљтисодиёт ва ќуљуљ дунёси» Нашриёт уйи, 1998 -133-149 бетлар.

[105] Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие для вузов. - Мн. ИП «Экоперспектива», 1997 - 450-457 бетлар.

[106] Абдукаримов И.Т. Молиявий ќисоботни њљиш ва таќлил љилиш йћллари. - Т.: «Иљтисодиёт ва ќуљуљдунёси» Нашриёт уйи. - 1998. -82-86 бетлар.

[107] Шу номли китоб. 1999. - 48-53 бетлар.

tavsiya qiladi. Ammo ularning uchtasi bir-biriga mutloq to‘g‘ri kelmaydi. Masalan, V.F.Paliy korxona moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni tavsiya qiladi: jalb qilingan va o‘z mablag‘lari koeffitsienti; chetdan jalb qilingan uzoq muddatli mablag‘lar koeffitsienti; o‘z mablag‘larining harakatchanlik koeffitsienti; amortizatsiyaning to‘planish koeffitsienti; korxona asosiy va aylanma mablag‘lar aniq qiymatining mulkdagi koeffitsienti; asosiy vositalar aniq qiymatining korxona mulkidagi koeffitsienti[108]. Bunday qarashlardan farqi o‘laroq A.D.Sheremet va R.S. Sayfulinlar korxona moliyaviy barqarorligini xarajat va zaxiralarni ularni shakllantiruvchi manbalar bilan solishtirish orqali xulosa qiladilar va to‘rtta ko‘rsatkichni tavsiya qiladilar[109]:

- moliyaviy holatning mutloq barqarorligi, ya’ni zaxira va xarajat manbalarining zaxira va xarajatlarni qoplash koeffitsienti;
- me’yoriy (normadagi) barqarorlik;
- beqaror (inqiroz arafasidagi) moliyaviy holat;
- inqirozli moliyaviy holat (bankrotlik holatidagi korxona).

Shunga o‘xshash tavsiyani V.V. Kovalyov kitoblarida[110] ham uchratish mumkin.

Mazkur qarashlar shuni ko‘rsatib turibdiki bozor munosabatlari sharoitida korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash va tahlil qilish dolzarb va hayotiy zarurat ekan. Ammo tadqiqotlar Shuni ko‘rsatib turibdiki, bu muammoning yechimida hali turli qarashlar, noaniqliklar va oxirigacha isbotini topmagan tavsiyalar hali talaygina.

Ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan qarashlar va urinishlarning ijobiy tomoni shundaki deyarli barcha mualliflar korxona moliyaviy barqarorligini ifodalash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydalanish lozim, degan xulosaga kelingan. Biroq, ushbu tavsiyalarda ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rsatkichlar to‘plamidan iborat bo‘lib qolgan.

Ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rsatkichlar sonining ko‘pligi bilan belgilanmaydi, balki ularni iqtisodiy mazmuni bo‘yicha bir tizimga keltirib alohida-alohida ko‘rib chiqish tuShuniladi. Bu esa ko‘rsatkichlar tizimini tasniflash lozimligini taqozo qiladi. Biroq, keltirilgan adabiyotlarning birortasida ham mazkur ko‘rsatkichlar tizimi tasniflangan emas. Buni inobatga olib, ta’kidlamoqchimizki, har qanday ko‘rsatkichlar to‘plami, ko‘rsatkichlar tizimiga aylanishi uchun ularni ma’lum belgilari asosida tasniflash lozimdir.

---

[108] Палий В.Ф. Новая бухгалтерская отчетность: содержание, методика анализа, - М.: Журнал «Контроллинг», 1991 - 29-34 бетлар

[109] Шеремет А.Д., Сайфулин Р.С. Методика финансового анализа. - М.: ИНФРА - М, 1996.

[110] Ковалёв В.В. Финансовый анализ: управление капиталом, выбор инвестиций, анализ отчетности. - М.:Финансы и статистика, 1998

Moliviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan beshta guruhga bo‘lish mumkin:

1. Xususiy mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
2. Chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
3. Harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
4. Aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;
5. Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.Ushbu ko‘rsatkichlar turkumi 10.2 - chizmada ifodalangan.



10.1 - Chizma. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalochi ko‘rsatkichlar tizimi

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar turkumi o‘z navbatida bir qancha alohida ko‘rsatkichlardan iborat. Bu ko‘rsatkichlar guruhi, hisoblash yo‘llari va nimani ifodalashi quyidagi jadvalda keltirilgan. (10.2-chizma).

Ushbu ko‘rsatkichlar tizimiga kiruvchi har bir guruh ko‘rsatkichlar o‘z navbatida bir qancha ko‘rsatkichlarga bo‘linadi. Masalan, xususiy kapital bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga uchta, chetdan jalb qilingan mablag‘larga to‘rtta, harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga to‘rtta va aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga beshta ko‘rsatkichlar kiritilgan. Ushbu chizmada ko‘rsatkichning nomi, ifodalangan. Bunday ko‘rsatkichlar tizimi amaliyotda foydalanish uchun juda qulaydir. Ammo har bir ko‘rsatkich bo‘yicha to‘liq xulosaga kelish uchun ularning har bir guruhiga alohida to‘xtalishi maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bu esa o‘z navbatida har bir ko‘rsatkichni hisoblash yo‘llari va ularning nimani ifodalashini ko‘rsatib berish bilan birgalikda ularning amaliyotda qo‘llanilishi uchun qo‘laylik tug‘diradi va o‘rganishni osonlashtiradi. Shu maqsadda

moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularni hisoblash yo‘llari va nimani ifodalashini ko‘rsatuvchi jamlangan jadvalni tuzishni lozim deb topdik (10.3-jadval).

Ushbu jadval 10.2-chizmadagi barcha ko‘rsatkichlarni aniqlash yo‘llarini izohlash uchun asos bo‘ladi. Eng muhimi Shu ko‘rsatkichlarni tahlil qilishdan oldin ular guruhlari nimani ifodalashi to‘g‘risidagi qisqacha ma’lumotga ega bo‘linadi.

Bundan tashqari ushbu ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha amaliy ma’lumotlarni qo‘llab ham echishni osonlashtiradi. Biroq tahlil qilish uchun ushbu ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish lozim. Shu tufayli ushbu ko‘rsatkichlarning har bir guruhi bo‘yicha tahlil qilish usullarini ko‘rib chiqamiz.


Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchiko‘rsatkichlar
O‘z mablag‘lari (xususiy kapi- tal) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
Chetdan jalb qi-lingan mablag‘-lar (kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
Harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
Asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar
Aylanma mablag‘lar bilanbog‘liq ko‘rsatkichlar
Xususiy kapitalning to‘planish koeffitsienti
Chetdan jalb qilin-gan mablag‘larning tarkibiy koeffitsient
Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsienti
O‘z mablag‘lari-ning (xususiy kapitalning) kapitallashganlik koeffitsienti
Aylanma mablag‘larning (Am)xususiy kapital bilan ta’minlanish koeffitsienti
Am.ning butun mulkdagi hissasi
Xususiy kapital-ning harakatchan-lik (monyovirlik) koeffitsienti
Xususiy kapitalning umumiy qaramlik koeffitsienti
Umumiy harakatchanlik koeffitsienti
Av.jamg‘arilishin ing intensivligi koeffitsienti
Am.ning qaramlik koeffitsienti
Moliyaviy qaramlik koeffitsienti
Chetdan jalb qilin-gan kapitalning to‘p-lanish (konsentratsi-yasi) koeffitsienti
Sof harakatchanlik koeffitsienti
Asosiy vositalarning butun mulkdagi hissasi
Am.ning qisqa muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsienti

—	Xususiy kapital-ning uzoq muddatli passivlarga qaram-lik Koeffitsienti	—	Av. jamg‘ari-lishining umumiy koeffitsienti	Am.ning harakatdagi Am bilan ta’minlanish koeffitsienti

10.2- Ch i z m a. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi

10.3- j a d v a l .

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, hisoblash yo‘llari va mazmuni

Ko‘rsatkichlarning nomi	**Hisoblash yo‘li**	**Nimani ifodalashi**
I. O‘Z MABLAG‘LARI (XUSUSIY KAPITAL) BILAN BOG‘LIQ KO‘RSATKICHLAR		
1.1. O‘z mablag‘ining (xususiy kapital) to‘planish koeffitsienti(Ko‘tk)	O‘m Ko‘tk = --------- B O‘m - o‘z mablag‘lariB - balans summasi	Korxona egalari mulkning umumiy mablag‘lari (kapitali)dagi hissasini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
1.2. Moliyaviy qaramlik koeffitsienti (Kmk)	B Kmq = ---------- O‘m	1 so‘m o‘z mablag‘iga qancha umumiy mablag‘ to‘g‘ri kelganligini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yomon. 1 ga intilib borsa yaxshi. Barcha mablag‘i xususiy kapi-tal evaziga qoplangan hisoblanadi.
1.3. O‘z mablag‘larining (xususiy kapitalning) harakatchanlik (monyovirlik) koeffitsienti (Km)	O‘m + Ump - Asot O‘xm Km = ---------- ---------- = ---------- O‘m O‘m Asot- asosiy kapital va obo-rotdan tashqari aktivlar O‘mp - O‘zoq muddatli passivlar O‘xm - o‘z mablag‘larining oborotda ishtirok etgan qismi	Bu xususiy kapitalning qancha oborotda ishtirok etayotganligini ko‘rsatadi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
II. CHETDAN JALB QILINGAN MABLAG‘LAR (KAPITAL) BILAN BOG‘LIQ KO‘RSATKICHLAR.		
2.1. CHetdan jalb qilingan kapitalning to‘planish (konsentratsiyasi)koeffitsienti (Kchjk)	Chjq Kchjk = ---------- B	Korxona egasining qancha mulki chetdan jalb qilinganligini ko‘rsatadi.Bu yuqori bo‘lsa yomon.

	Bunda CHjk - chetdan jalb qilingan mablag‘lar (kapital)	
2.2. Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar (kapital) ning to‘planish koeffitsienti (Kumchjk)	Umchjk Kumchjk = ---------- O‘m mchjk- uzoq muddatli chetdan alb qilingan kapital (mablag‘lar) qiymati	Xo‘jalik faoliyatini uzoq muddatli mablag‘ bilan taminlanganligi darajasini ko‘rsatadi.Bu yuqori bo‘lsayaxshi.
2.3. CHetdan jalb qilingan mablag‘-larning tarkibiy koeffitsienti, ya’niuzoq muddatli chetdan jalb qi-lingan quyilmalarning umumiy CHjq mablag‘lardagi koeffitsienti (Kumchjkt)	Umchjk Kumchjkt = ---------- Chjk	Umumiy chetdan jalb qilingan mablag‘larda uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar hissasini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
2.4. O‘z mablag‘larining (xususiy kapitalning) chetdan jalb qilingan mablag‘larga umumiy qaramlik koeffitsienti (Kchjmq)	Chjk Kchjmq = ---------- O‘m	Har 1 so‘m o‘z mablag‘lariga (xususiy kapitalga) qancha chetdan jalb qilingan mablag‘ (kapital) to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.
2.5. O‘z mablag‘larining uzoq muddatli passivlariga qaramlik koeffitsienti (Kumpq)	Ump Kumpq = ---------- O‘m Bunda Ump-uzoq muddatli passivlar	Uzoq muddatli passivlarning o‘z mablag‘laridagi ulushini (hissasini) ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi emas.
III. HARAKATDAGI (OBOROTDAGI) MABLAG‘LAR BILAN BOG‘LIQ KO‘RSATKICHLAR		
3.1.Umumiy harakatchanlik (monyovrlik) koeffitsienti (Kux) yoki xarakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsienti	O‘xm Kux = ---------- B Bunda O‘xm - umumiy harakatdagi	Harakatdagi (oborotdagi) mablag‘ning umumiy mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.

	(oborotdagi) mablag‘lari	
3.2. Sof xarakatchanlik koeffitsienti (Ksxm)	Sxm Ksxm = ---------- B m - o‘z mablag‘larining to-var zaxiralari va pul mablag‘laridagi qismi	Sof harakatdagi mablag‘larning umumiy mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
3.3. Sof xarakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsienti (Kf)	Sxm Kf = ---------- O‘xm	Sof harakatdagi mablag‘larningumumiy harakatdagi mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
IV. ASOSIY VOSITALAR (KAPITAL) BILAN BOG‘LIQ KO‘RSATKICHLAR		
4.1. Asosiy vositaning umumiy mablag‘idagi hissasini ifodalovchi koeffitsienti (Kavh)	Av Kavh = ---------- B	Asosiy vositalarning korxona umumiy xo‘jalik mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi.
4.2.O‘z mablag‘larining (xususiy kapitalning) kapitallashganlik koeffitsienti (Kumk)	Av - Ump Kumk = ---------- O‘m	O‘z mablag‘larining (xususiy kapi-talning) qancha qismi asosiy vosita- larga (kapitalga) sarf qilingan-ligini ko‘rsatadi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi.
4.3. Asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi koeffitsienti (Kin)	Avje Kin =---------- Av nda: Avje - asosiy vositalarningjoriy yildagi eskirish so‘mmasi	Bir yilda asosiy vositalarning qancha qismi jamg‘arilayotganliginiifodalaydi.
4.4. Asosiy vositalar jamg‘arilishining umumiy koeffitsienti (Kavju)	Avue Kavju = ---------- Av	Asosiy vositalar qiymatining qancha qismi takror to‘planganligini vaqancha qiymati qolganligini ifodalaydi.

	Bunda: Avue -asosiy vositalar eski-rishining umumiy summasi	
AYLANMA MABLAG‘LAR (KAPITAL) BILAN BOG‘LIQ KO‘RSATKICHLAR		
5.1. Aylanma mablag‘larning (kapitalning) o‘z mablag‘lari (xususiy kapital) bilan ta’minlanish koeffitsienti (Kamt)	O‘xm Kamt = ---------- Am Bunda: O‘xm - oborotdagi o‘z mablag‘lari; Am - aylanma mablag‘lar qiymati	Har 1 so‘m aylanma mablag‘larga qancha o‘z mablag‘lari (xususiy kapitali) to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Bu yuqori bo‘lsa yaxshi
5.2. Aylanma mablag‘larning (kapitalning) qaramlik koeffitsienti (Kchjq)	CHjm Kchjq = ---------- Am Ijk - chetdan jalb qilingankapital qiymati	CHetdan jalb qilingan mablag‘larning (kapitalning) aylanma mablag‘lardagi (kapitaldagi) hissasini ifodalaydi.
5.3. Aylanma mablag‘larda qisqa muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsienti (Kbk)	Kmbk Kbk = ---------- Am Bunda Pmbk - qisqa muddatli bank krediti	Qisqa muddatli bank kreditining aylanma mablag‘lardagi hissasi qancha ekanligini ko‘rsatadi. Bu yuqori bo‘lsa yomon.
5.4. Aylanma mablag‘larining tez harakatdagi Am. Bilan ta’minlanish koeffitsienti (Khmt)	Pmba Khmt = ---------- Am Bunda: Pmba - tez likvid bo‘ladiganaylanma mablag‘lar so‘mmasi,ya’ni pul mablag‘lariva boshqa aktivlar	Aylanma mablag‘larning qancha qismi tez likvid bo‘ladigan mablag‘lardan iboratligini ifodalaydi.
5.5. Aylanma mablag‘larning butun mulkdagi hissasi (Kamh)	Am Kamh = ------- B	Aylanma mablag‘larning barcha mulkdagi hissasi necha foiz ekanligini ifodalaydi.



10.3- Ch i z m a . Korxona moliyaviy barqarorligining o‘z mablag‘lari (xususiy kapital) bilan bog‘liq ko‘rsatkichlartizimi

10.8. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash yo‘llari

Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatidan uzluksiz bir maromda ta’minlab to‘rishni tuShunmoq lozim. Moliyaviy jihatdan ta’minlanish faqatgina moliyaviy resurslar bilan ta’minlanish emas, balki uning juda ko‘p qirralari, tomonlari mavjud. CHunki xo‘jalik faoliyatining uzluksiz sodir bo‘lib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar etarli emas. Bu resurslarning ta’minlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham etarli miqdorda bo‘lishi lozim. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanganligi bejiz emas.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta’minlash juda ko‘p omillarga bog‘liq. Bunga eng avvolo korxonada o‘z mablag‘larining ko‘payishi, undan samarali foydalanishni kiritish mumkin. Korxona xususiy kapitalining ko‘payishini birinchi marta ta’sischilarning hisobidan tashkil topgan Nizom (ustav) jamg‘armasi orqali ta’minlasa, keyinchalik korxona faoliyati davomida olingan foydadan aksiyadorlarning qarori asosida ajratmalar evaziga ko‘paytirib borish mumkin.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlashdagi muhim omillardan biri mehnat unumdorligidir. Ammo bu masala oxirgi paytlarda chop etilgan adabiyotlarda[111] umuman e’tibordan chetda qolib ketmoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish, korxonaning ahvolini yaxshilash maqsadi bilan faoliyat ko‘rsatayotgan birorta subyekt mehnat unumdorligini oshirmasdan turib bu maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Shu tufayli ushbu masala uzoq yillardan buyon bizning tadqiqotlarimiz obyekti bo‘lib kelgan.

Biz mehnat unumdorligining turli jihatlarini, tadqiq qilganmiz. Xususan, uni iqtisodiy kategoriya sifatida qarash bilan birga korxona xo‘jalik faoliyati samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich tarzida ham tadqiq qilib uning aniqlanish va tahlil qilish usullari bo‘yicha ham ko‘pgina nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqqanmiz. Oldingi tadqiqotlarimizda mehnat unumdorligi bevosita unumli mehnat natijasi sifatida qaralib kelingan. Lekin bozor munosabatlari sharoitida ushbu kategoriyaning mazmuni o‘zgardi. U faqat unumli mehnat natijasi bo‘lib qolmasdan, balki daromad olishga qaratilgan mehnat natijasiga aylandi. Bu nazariy xulosalarimiz xususida

[111] Патров В.В., Ковалёв В.В. Как читать баланс. - М.: Финансы и статистика, 1993. - 176-180 бетлар.; Волжин И.О., Эргашбаев В.В. Молиявий таќлил. Т.: «Иљтисодиёт ва ќуљуљ дунёси» Нашр уйи, 1998 - 133-149 бетлар.; Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие для вузов. - Мн. ИП «Экоперспектива», 1997 - 450-457 бетлар.; Абдукаримов И.Т. Молиявий ќисоботни њљиш ва таќлилљилиш йњллари. - Т.: «Иљтисодиёт ва ќуљуљ дунёси» Нашр уйи. - 1998. -82-86 бетлар.; Шу номли китоб. 1999. - 48-53 бетлар.; Палий В.Ф. Новая бухгалтерская отчетность: содержание, методика анализа, - М.: Журнал «Контроллинг», 1991 - 29-34 бетлар

ayrim ilmiy ishlarimiz e'lon qilingan[112].

Mehnat unumdorligining qanchalik muhimligiga qaramasdan hozirgi o'tish davrida bu masalaga, ayniqsa, amaliyotda, kam e'tibor berilmoqda. Bu holat, bizning fikrimizcha, vaqtinchalik jarayondir. Kelajakda jamiyatning, xususan, har bir xo'jalik yurituvchi subyektning, ya'ni korxonaning ham iqtisodiy o'sishini ta'minlaydigan muhim, ortiqcha mablag' talab qilmaydigan omillardan biri shu - mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligini oshirmasdan turib, jamiyatning intensiv rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi.

Korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichi muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Bu kam xarajat bilan ko'p natijaga erishishni, pirovardida korxona xo'jalik faoliyati samaradorligining oshishiga olib keladi. Shu jihatdan, mehnat unumdorligi, birinchidan, samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lsa, ikkinchidan samaradorlikka ta'sir etuvchi muhim omil hamdir. Shuning uchun mehnat unumdorligining tahlilini ikki yo'nalishda olib borishni tavsiya qilamiz.

Birinchidan, ushbu ko'rsatkichni natija ko'rsatkichi sifatida qarab, unga ta'sirqiluvchi omillar hisoblanadi, ikkinchidan, uni omil sifatida qarab, bir qancha natijaviy ko'rsatkichlarga uning ta'siri aniqlanadi. Bunday tavsiyalarimiz juda ko'p chop etilgan adabiyotlarda[113] ko'rib chiqilgan.

Moliyaviy barqarorlikning umumlashgan ko'rsatkichi (U) o'zgarishiga mahsulotning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsienti (X_1) mehnat unumdorligi (X_2) va korxona aktivlarining xodimlar bilan ta'minlanish koeffitsienti (X_3) kabi omillar ta'sir qiladi. Ularning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formula tavsiya qilinadi:

$$U = X_1 \bullet X_2 \bullet X_3 = \prod_{i=1}^{3} X_i ;$$

Ushbu formulalarga aniq ma'lumotlarni va iqtisodiy tahlilning birqancha an'anaviy usullarini qo'llab natijaga har bir omilning ta'sirini aniqlash mumkin.

Shu tufayli o'z mablag'larini (xususiy kapitalni) ko'paytirish uchun, eng avvalo, mehnat unumdorligini oshirish, tejamkorlikka rioya qilish evaziga, korxona foydasini ko'paytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Korxonaning foydasi har qanday xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lib

---

[112] Пардаев М. О производительности труда в торговле // Плановое хозяйство № 10, 1985. - 111 бет; Пардаев М., Тураев Љ. Иш кучи љиймати ва адолат // Иљтисод ва ќисобот. № 2. 1997, - 42-44 бетлар; Пардаев М. Производительный труд и производительность труда // Экономика и статистика, № 6, 1997. - 59-61 бетлар. ва ќ.к.

[113] Пардаев М.К. Расчет отдельных факторов производительности труда в различной торговле. // Бухгалтерский учут. № 3, 1980. - 47-49 бетлар, Саттаров Ю.С., Ибрагимов Н.И., Пардаев М.К. Комплексной анализ производительности труда в кооперативной торговле // Бухгалтерский учет. № 5, 1984. 39-41 бетлар.

qolmasdan, balki samarali faoliyat natijasidir. Masalan, savdo korxonasining faoliyati tovarni olib kelib uning ustiga biror ustama qo‘yib sotish bilan korxonaga hamisha foyda keltirmaydi, balki uning miqdori barcha xarajatlarini qoplaydigan bo‘lishi lozim. Ammo savdo ustamasining ham chegarasi bor. Birinchidan, bu qonunlar bilan chegaralangan bo‘lsa, ikkinchidan narxga ta’siri orqali iste’molchilar talabi bilan ham chegaralangandir. Shu tufayli faqat ustamani oshirish evaziga emas, balki tegishli muomala xarajatlarini kamaytirish va va mehnat unumdorligini oshirish orqali tovar aylanmasini ko‘paytirish evaziga ham foyda so‘mmasini oshirishga erishmoq lozim.

Hozirgi sharoitda korxonalarning juda ko‘p xarajati banklardan olingan qarz uchun to‘lanadigan foizga va transport xarajatiga ketmoqda. Shu tufayli korxona imkoni boricha oborotdagi mablag‘larda o‘z mablag‘ining ulushini ko‘paytirishi va nihoyat barcha oborot mablag‘larini o‘zining hisobidan qoplashi lozim. Bunda bankga to‘lanadigan foizdan xolos bo‘ladi.

Hozirgi sharoitda, ta’kidlaganimizdek, korxonaning juda ko‘p xarajatlari boshqa tashkilotlar transportidan foydalanganlik evaziga sarf qilinmoqda.Shu tufayli asosiy vositalarni shakllantirishda uning hissasida faol qismini ko‘paytirish va jismoniy mehnatni engillashtiruvchi uskunalarni sotib olish maqsadga muvofiqdir. Agar korxonaning transport vositasi bo‘lsa, u faqat korxona zararini kamaytiribgina qolmasdan, balki foyda olishni ham ta’minlashi mumkin. Shu tufayli korxona moliyaviy barqarorligini baholaganda asosiy vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarni alohida guruhga ajratilib ularning umumiy hajmi va tarkibiy o‘zgarishlariga ham y etarli ahamiyat berildi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi tez o‘zgarayotgan, fan-texnika taraqqiyoti jadallashayotgan paytda asosiy vositalarni juda tez yangilashni toqozo qiladi. Bu esa eskirish so‘mmasini hisoblashning tezkor usullarini qo‘llashni talab qiladi. Shunday ekan asosiy vositalarning ham yangilanishi, ilg‘or texnologiyani uzluksiz ravishda joriy qilishni ta’minlash chora-tadbirlarini ham ishlab chiqish lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biri korxonada debitor qarzlarining ko‘paymaslik chorasini ko‘rishdir. Hozirgi paytda juda ko‘p firmalar va korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror emas. Bunday ishonchsiz subyektlar bilan iqtisodiy munosabatda bo‘lish o‘ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bunday korxonalarga tovar berish, pul o‘tkazish harakatdagi mablag‘ni o‘lik mablag‘ga aylantirish bilan barobar. Shu tufayli bunday xo‘jalik operatsiyalarini sodir qilishdan oldin hamkor subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini ham chuqur o‘rganishni talab qiladi.

Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda chetdan jalb qilingan mablag‘lar, xususan bank kreditining ham roli katta. Korxonaning moliyaviy potensiali

tarkibida chetdan jalb qilingan mablag‘lar hissasi kamayib borishi lozim. Bank kreditining foiz yuqori bo‘lib turgan hozirgi sharoitda har bir korxona imkoni boricha undan kam foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ish barqarorlashib, ishlab chiqarish yoki savdo faoliyati bir me’yorga tushib olgan paytdagina bank kreditidan foydalanish ma’lum darajada yaxshi natija berishi mumkin. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash uchun bank kreditidan foydalanish vaqtini, uning hajmini ham chuqur bilishni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ayniqsa hozirgi o‘tish davrida korxonaning moliyaviy qaram bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bu holat erkin raqobat sharoitida yanada muhimdir. Shu tufayli korxona rahbarlari korxonani moliyaviy qaramlikdan saqlash orqali uning barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash bu bir yoqlama yoki mavsumiy ish emas. U doim amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng qamrovli, ko‘p qirrali iqtisodiy ishdir. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash va uni tahlil qilish hozirgi bozor munosabatlari sharoitida katta ahamiyatga ega.

XI BOB. FIRMA VA KOMPANIYALARNING DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI

11.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda qanday ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin?

Debitorlik (bizdan qarz) va kreditorlik (biz qarz) qarzlarini o‘rganish va tahlil qilish jarayonida, ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Ularning bir qancha turlari mavjud. Shu tufayli mazkur holatni bitta yoki ikkita ko‘rsatkich bilan ifodalab bo‘lmaydi. Shu tufayli ularni ifodalash uchun ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy so‘mmasi;
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi;
3. Sarmoyani immoblizatsiyalash koeffitsienti;
4. Aylanma mablag‘larni immoblizatsiyalash koeffitsienti;
5. Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti;
6. Debitorlik va kreditorlik qarzlari o‘zaro nisbatining koeffitsienti;
7. Muddati o‘tgan debitorlik qarzi koeffitsienti;
8. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti.

11.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy summasi qaerda ko‘rsatiladi va nimani ifodalaydi?

Ushbu ma’lumotlar «Buxgalteriya balansi» 1-shakl va «Debitorlik va kreditorlik qarzi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma» 2a-shakl hisobotlaridan olinadi.

Debitorlikqarzi balans aktivining 2-bo‘limida 220-290-satrlarida aksettiriladi.Kreditorlik qarzi balans passivining 2-bo‘limida 450-530-satrlarida aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari so‘mmasiga qarab, ularning ma’lum davrdagi ko‘payishi va kamayishi aniqlanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday ko‘payish ham moliyaviy ahvolning yomonlaShuvi bo‘lavermaydi. Buning uchun debitorlik va kreditorlik qarzlarining o‘sish sur’atini mahsulotlarni (xizmatlarni) sotish hajmining o‘sish sur’ati bilan taqqoslash zarur. Agar debitorlik qarzining o‘sish sur’ati mahsulot sotish hajmining o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lsa, bu hol xaridorlar va buyurtmachilarning to‘lovga qobiliyatsizligidan darak beradi, agar kreditorlik qarzining o‘sish sur’ati mahsulot sotish hajmining o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lsa, bu hol ushbu korxona to‘lovga qobiliyasizligiga, u mahsulot etkazib beruvchilar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qila olmasligiga sabab bo‘lishi mumkin.

11.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tuzilishi nimaniifodalaydi va qanday aniqlanadi?

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tuzilishi har birining umumiy mablag‘laoda qancha foiz tashkil qilishini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich asosida debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy so‘mmasida har bir turning ulushi aniqlanadi. Bu ulush korxonaning hisob-kitob-to‘lov intizomiga va taraflardan har qaysisining shartnoma majburiyatlarini bajarish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Debitorlik qarzlarining umumiy mablag‘lardagi ulushi (Dqu) debitor qarzlar summasini (Deq) barcha mablag‘larga, ya’ni balansning umumiy summasiga (B) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$Dequ = Deq : B$$

Kreditorlik qarzlarining umumiy mablag‘lardagi ulushni (Kqu) topish uchunkreditor qarzlar summasini (Krq) barcha mablag‘larga, ya’ni balansning umumiy summasiga (B) bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$Krqu = Krq : B$$

11.4. Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsienti (Ks.im.) qanday aniqlanadi?

Immobilizatsiyalanganlik deganda jalb qilinganlik tushuniladi. Korxona umumiy mablag‘lari so‘mmasida debitorlik qarzining ulushini ko‘rsatadi va u quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_{s.im.} = \frac{Deq}{S};$$

bunda: *Deq - debitorlik qarzi;*

S - xo‘jalikmablag‘lari (sarmoya)ningumumiyso‘mmasi, ya’ni balansning jami summasi.

Ushbu koeffitsient qancha katta bo‘lsa, umumiy sarmoya so‘mmasidan shuncha ko‘p mablag‘ debitorlik qarziga jalb etilganligini, ya’ni bizning mablag‘larimiz boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar qo‘lida bo‘lganligini ifodalaydi.

11.5. Aylanma mablag‘larni immobilizatsiyalash koeffitsienti ($K_{mab.aym.im.}$)qanday aniqlanadi?

Aylanma mablag‘larni immobilizatsiyalash koeffitsienti debitorlik qarzining aylanma mablag‘lardagi ulushini ko‘rsatadi va u quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_{mab.aym.im.} = \frac{Deq}{Aym.}$$

bunda: *Aym. - aylanma mablag‘lar so‘mmasi.*

Ushbu koeffitsient qancha yuqori bo‘lsa, Shuncha ko‘p aylanma mablag‘ aylanishdan ishtirok etmasdan, debitorlik qarzlariga jalb etilganligidan dalolat beradi. Korxonaning ushbu summalari boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslar ixtiyorida ekanligidan dalolat beradi. Shu tufayli ularni tezlik bilan korxonaga qaytarish choralarini ko‘rish lozim.

11.6. O‘z mablag‘ini immobilizatsiyalash koeffitsienti ($K_{o‘zim}$)qanday aniqlanadi?

O‘z mablag‘ini immobilizatsiyalash koeffitsienti o‘z mablag‘larida debitorlik qarzlarining hissasini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichning miqdori qancha ko‘paysa, Shuncha salbiy holatga yaqinligini ifodalaydi. CHunki o‘z mablag‘larimizning bir qismi kimlarningdir foydalanishida ekanligidan dalolat beradi. Buni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\textbf{Deq } K_{o‘zim} = \frac{\text{O‘z}}{}$$

bunda: O‘z – o‘z mablag‘lari summasi.

11.7. Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti ($K_{j.m.}$)qanday aniqlanadi?

Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti($K_{j.m.}$)kreditorlik qarzlarining xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasidagi ulushini ko‘rsatadi va u quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$K_{j.m.} = \frac{Krq}{S}$$

bunda: *Krq - muayyan sanadagi kreditorlik qarzi so‘mmasi.*

Koeffitsient oshib borgan sari kreditorlik qarzining korxona umumiy xo‘jalik mablag‘lari so‘mmasidagi salmog‘i ham oshib boradi va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning bizning aylanma mabag‘larga jalb etilganlarining ko‘payganligidan dalolat beradi.

Ushbu koeffitsientdan barcha majburiyatlarni tahlil qilish chog‘ida ham foydalaniladi. Agar mablag‘lar manbalari tahlil qilinayotgan bo‘lsa, jalb etilgan mablag‘lar koeffitsientini quyidagi formula bo‘yicha hisoblash zarur:

$$K_{j.m.} = \frac{P2B}{S}$$

bunda: *P2B - balans passivi 2-bo‘limining jami.*

Mazkur ko‘rsatkich barcha majburiyatlar, ya’ni boshqa jismoniy va yuridik shaxs mablag‘lariningbizning faoliyatimizga jalb etilganligini

ko‘rsatadi. Bu koeffitsient majburiyatlarning xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasidagi ulushini ifodalaydi.

11.8. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ($K_{kr.deb.n.}$)qanday aniqlanadi?

Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti kreditorlik qarzining debitorlik qarzidagi hissasini ifodalaydi. Mazkur ko‘rsatgich korxona va uning hamkorlari o‘rtasida to‘lov intizomining ahvolidan darak beradi. Agar to‘lov intizomi buzulsa, shu ikkala ko‘rsatkichning ham miqdori oshib boradi va muddati o‘tgan qismiga o‘tib ketadi. Shu tufayli ayniqsa hozirgi paytda juda ishonchli hamkorlarni topishni taqozo qiladi. Odatda mazkur ko‘rsatkichni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{kr.deb.n.} = \frac{Krq}{Deq}$$

Agar ushbu koeffitsient 1,0 dan ko‘p bo‘lsa, u kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan oshib ketganligini, ya’ni xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasidagi jalb etilgan mablag‘lar boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qo‘lidagi mablag‘lardan ortiq ekanligini ko‘rsatadi va aksincha. Agar bu koeffitsient 1,0 dan kam bo‘lsa – boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mablag‘lar jalb etilgan mablag‘lardan ortiq ekanligini ko‘rsatadi. Bunday holatni ishobiy baholash mumkin, chunki bizning imkoniyatlarimiz kimlarningdir oldidaga majburiyatlarimizni to‘liq qoplashligidan dalolat beradi.

11.9. Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ($K_{deb.kr.n.}$)qanday aniqlanadi?

Debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti debitorlikqarzining kreditorlikqarzidagi hissasini ifodalaydi. Mazkur ko‘rsatgich korxona va uning hamkorlari o‘rtasida to‘lov intizomining ahvolidan darak beradi. Odatda mazkur ko‘rsatkichni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{deb.kr.n.} = \frac{Deq}{Krd}$$

Ushbu koeffitsient 1,0 dan ko‘p bo‘lsa, u debitorlikqarzi kreditorlik qarzidan oshib ketganligini, ya’ni xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘mmasidagi jalb etilgan mablag‘lar boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qo‘lidagi mablag‘lardan kam ekanligini ko‘rsatadi va aksincha. Agar bu koeffitsient 1,0 dan kam bo‘lsa – boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga foydalanish uchun berilgan mablag‘lar jalb etilgan mablag‘lardan kam ekanligini ko‘rsatadi. Bunday holatni ijobiy baholab bo‘lmaydi, chunki bizning imkoniyatlarimiz kimlarningdir oldidaga majburiyatlarimizni to‘liq qoplash imkoni yo‘qligini ko‘rsatadi.

11.10. Muddati o‘tgan debitorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.d.k.}$)qanday aniqlanadi?

Muddati o‘tgan debitorlik qarzi koeffitsientidebitorlik qarzining umumiy summasida uning muddati o‘tgan qismi qanday hissaga ega ekanligini ko‘rsatadi va quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{mud.d.q.} = \frac{Muo‘.deq}{Deq}$$

bunda: *Muo‘.deq. - muddati o‘tgan debitorlik qarzlari summasi.*

Ushbu koeffitsientning ortib borishi qarzlarni undirishdagi mavjud kamchiliklarni, buyurtmachilar, xaridorlar tomonidan hisob-kitob-to‘lov intizomi buzilayotganligi kabi salbiy jarayonlarni ko‘rsatadi. Mazkur ko‘rsatkich miqdorining oshib borishi mazkur iqtisodiyot subyektida moliyaviy ahvolning yomonlashayotganligidan dalolat beradi.

11.11. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzi koeffitsienti ($K_{mud.kr.q.}$) qanday aniqlanadi?

Muddati o‘tgan kreditorlik qarzi koeffitsientikreditorlik qarzida uning muddati o‘tgan qismining hissasi qancha egaligini ko‘rsatadi va u quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Muo‘.krq\ K_{mud.kr.q.} = \frac{}{Krq}$$

bunda: *Muo‘.krq - muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari summasi.*

Bu koeffitsient miqdorining ortib borishi hisob-kitob-to‘lov intizomida kamchiliklar mavjudligini, korxonaning moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotganligini, uning nolikvidliligi va to‘lovga qobiliyatsizlik ehtimolining oshib borayotganligini ko‘rsatadi. Shu tufayli tahlil jarayonida muddati

o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlariga alohida e’tibor berish kerak.

Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining har bir turi bo‘yicha ularning kelib chiqish sabablarini, bu mablag‘larni qaytarish imkoniyatini aniqlash, ularni kamaytirish yuzasidan tahlilchilar tomonidan aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi zarur.

11.12. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

Mehmonxona xo‘jaliklarida ham boshqa iqtisodiyot sub’ektlari singari debitorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- zarur mahsulotni y etkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri tuzish;
- hisob-kitob-to‘lov hujjatlarini o‘z vaqtida va to‘g‘rirasmiylashtirish;
- mahsulot yetkazib berish va sotishni vaqtida hisob-kitob qilibborish;
- mahsulot yetkazib beruvchilar va xaridor korxonalariningmoliyaviy ahvolini o‘rganish natijasida tegishli shartnomalarni tuzish;
- Mahsulot (ish, xizmat) hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- mahsulot y etkazib beruvchilar (asosan turfirmalar) va xaridorlar bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilish;
- korxona buxgalterlari, iqtisodchilari va moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatuvchi xodimlarining malakasini muntazam ravishda oshirib borish;
- korxonalarning moliyaviy ahvolini o‘z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini menejerlarga taqdim etish.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat Shu korxonaning emas, balki unga hamkor korxonalarning va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoliga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo nazarda tutishi kerak.

11.13. Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilish yo‘llari

Korxonalardadebitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda alohida debitorlik va alohida kreditorlik qarzlarining mutlaq va nisbiy farqini aniqlash lozim bo‘ladi.Buning uchun ularning tarkibiga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi.

Debitorlik qarzlar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar;
- byudjet bilan hisob-kitoblar;
- xodimlar bilan hisob-kitoblar;

- boshqa debitorlar;
- ular tarkibida muddati o‘tgan debitorlar.

Mos ravishda kreditorlik qarzlarga quyidagilar kiradi:

- mahsulot yetkazib beruvchilar;
- byudjetga qarz ;
- mehnat, ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy ta’minot bo‘yicha qarzlar;
- boshqa kreditorlar:

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil qilish va ularning holatiga to‘liq baho berish uchun ulardan tashqari yana quyidagi ko‘rsatkichlar ham zarur bo‘ladi. Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- balansning umumiy summasi;
- balans aktiv qismi 1-bo‘lim summasi, ya’ni asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlar;
- balans aktiv qismi 2-bo‘lim summasi, ya’ni aylanma mablag‘laryoki joriy aktivlar summasi;
- balans passiv qismi 1-bo‘lim summasi, ya’ni o‘z mablag‘lari summasi;
- balans passiv qismi 2-bo‘lim summasi, ya’ni majburiyatlarsummasi;
- ishlab chiqarilgan mahsulot, ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy sotilgan qiymati.

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (11.1-jadval).

11.1-jadval.

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiy hajmi va tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlarning hisob-kitobi[114]

(mln.so‘m)

Ko‘rsatkichlar	**Yil boshida**		**Yil oxirida**		**Farqi (+, -)**		**O‘zga-rish sur’a-ti, %**
	so‘mma, mln.so‘m	**ulu-shi, %**	**so‘mma,** mln.so‘m	**ulu-shi, %**	**so‘mma,** mln.so‘m	**ulu-shi, %**	
<u>Debitorlar</u> Xaridorlarvabuyurt-machilarbilanhisob-Kitoblar	1224	54,5	2123	58,5	+899	+4,1	173,4
Byudjet bilanhisob-Kitoblar	51	2,3	42	1,2	-9	-1,1	80,8
Xodimlarbilanhisob-							

[114] Методологик йўналишни таъминлаш мақсадида рақамлар тахминан олинди.

Kitoblar	-	-	1	-	-	-	-
Boshqadebitorlar	974	43,3	1465	40,3	+491	-3,0	150,9
Jami	2249	100	3631	100	+1382	-	161,4
Shu jumladan: mudda-tio‘tgandebitorlar	1850	82,3	2382	65,6	+532	16,7	128,8
Kreditorlar Mahsulot yetkazibberuvchilar	2244	37,8	2511	41,8	+267	+4,0	111,9
Byudjetga qarz	3342	56,4	2685	44,6	-657	-11,8	80,3
Mehnat, ijtimoiy sug‘urta va ijti oiy ta’minot bo‘yichaqar zlar	202	3,4	220	3,7	+18	+0,3	108,9
Boshqakreditorlar	141	2,4	598	9,9	+457	+7,5	424,1
Jami	5929	100	6014	100	+85	-	101,4
Shu jumladan: muddati o‘tgan kreditorlar	2650	44,7	2534	42,1	-116	-2,6	95,6
Biryildagi sof sotilganmahsulot	9951,0	-	16428	-	+6477	-	165,1
Tayyormahsulotningchi Qibketishi	1611	-	4089	-	+2478	-	253,8

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, debitorlik qarzi bir yilda 1382 mln. so‘m ko‘payib, 3631 mln. so‘mni tashkil etgan kreditorlik qarzi esa 85 mln. so‘m ko‘payib 6014mln. so‘mni tashkil etgan. Kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan 2383 mln. so‘m ko‘p. Biroq, debitorlik qarzining o‘sish sur’ati 161,4 foizga, kreditorlik qarzining o‘sish sur’ati esa 101,4 foizga teng. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tuzilishida ham o‘zgarishlar yuz bergan.

Debitorlik qarzida xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi 4,1 foiz ko‘payib, boshqa debitorlar va byudjetga qarzlar kamaygan. Kreditorlik qarzi tarkibida mahsulot etkazib beruvchilar va boshqa kreditorlarga qarz ko‘paygan. Byudjetga qarz ancha kamaygan - 11,8 foiz.

Yil davomida xaridorlar va buyurtmachilar hisob-kitoblar bo‘yicha debitorlik qarzining o‘sish sur’ati (173,4 foiz) mahsulot sotish hajmining o‘sish sur’atiga nisbatan yuqori (165,4 foiz) bo‘lgan. Bu esa muddati o‘tgan debitorlik qarzining o‘sish sabablaridan biri bo‘lgan.

Hisobot yilida debitorlik qarzi ozgina kamaygani holda, muddati o‘tgan debitorlik qarzi so‘mmasi o‘sgan. Chunonchi, muddati o‘tgan debitorlik qarzi butun qarz so‘mmasining 65,6 foizini, muddati o‘tgan kreditorlik qarzi esa 42,1 foizini tashkil etadi. Bu hol korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sir

ko‘rsatadi: likvidlilik, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorlik darajasipasayadi, foyda so‘mmasi va rentabellik darajasi kamayadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlashning yo‘llari quyidagi jamlangan jadvalda ifodalanadi (11.2-jadval).

11.2-jadval

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlashning jamlangan jadvali

T/r	Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishyo‘llari
1.	Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsienti? (Kis)	Deq / B
2.	Aylanma mablag‘larni immobilizatsiyalash koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Kimaym)	Deq / Aym
3.	O‘z mablag‘ini immobilizatsiyalash koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Ko‘zim)	Deq / O‘z
4.	Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Kjem)	Majburiyatlar / B
5.	Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Kkrdt)	Krq / Deq
6.	Muddati o‘tgan debitorlik qarzining koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Kmo‘dq)	Mo‘dq / Deq
7.	Muddati o‘tgan kreditorlik qarzining koeffitsienti qanday aniqlanadi? (Kmukq)	Mo‘kq / Krq

Ushbu ko‘rsatkichlarning holatini tahlil qilish uchun amaliy ma’lumotlarni qo‘llab o‘rganishni taqozo qiladi.Buning uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi (11.3-jadval).

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, hisobot yilida o‘zmablag‘lar aylanishdan chiqarib olingan, ya’ni mablag‘lar immobilizatsiyasi o‘sgan. Sarmoya, aylanma mablag‘lar va o‘z sarmoyasining immobilizatsiyalashish koeffitsientlari o‘sgan. Jalb etilgan mablag‘lar koeffitsienti pasaygan, ya’ni korxona xo‘jalik mablag‘lari umumiy so‘m masidagi kreditorlik qarzi ulushini kamaytirgan. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti ham Shundan dalola tberadi. Yil boshida kreditorlik qarzi debitorlik qarzidan 2,64 barobar, yil oxirida 1,66 barobar ortiq bo‘lgan, ya’ni 0,98 barobar pasaygan. Bundan tashqari debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy so‘mmalarida muddati o‘tgan debitorlik (66 foiz) va kreditorlik (42 foiz) qarzlarining ulushi yuqoriligi qayd etiladi.

11.3-jadval

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini baholash

Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+,-)
1. Barcha mablag‘lar summasi, mln. so‘m	28112,5	30258,3	+2145,8
2. Aylanma mablag‘lar qiymati, mln. so‘m	14056,3	16504,5	+2448,2
3. Korxonaning o‘z mablag‘lari, mln. so‘m	20445,5	21358,8	+913,3
4. Debitorlik qarzi, mln.so‘m	2249	3631	+1382
5. Shu jumladan: muddati o‘tgan qarz	1850	2382	+532
6. Kreditorlik qarzi, mln.so‘m	6185	6108	-77
7. Shu jumladan: muddati o‘tgan qarz	2650	2534	-116
8. Sarmoyani immobilizatsiyalash Koeffitsienti	0,08	0,12	0,04
9. Aylanma mablag‘larni			
immobilizatsiyalash koeffitsienti	0,16	0,22	0,06
10. O‘z mablag‘ini immobilizatsiyalash Koeffitsienti	0,11	0,17	0,06
11. Jalbetilgan mablag‘lar koeffitsienti	0,22	0,20	-0,02
12. Kreditorlik va debitorlik qarzlari nisbatining koeffitsienti	2,75	1,68	-1,07
13. Debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlariga nisbati	0,36	0,59	+23
14. Muddati o‘tgan debitorlik qarzining Koeffitsienti	0,82	0,66	-0,16
15. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzining Koeffitsienti	0,43	0,41	-0,02

Bularning barchasi korxonaning moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Korxona rahbarlari muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini tugatish, Shuningdek, mahsulot etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitob-to‘lov intizomini yaxshilash uchun hamma choralarni ko‘rishi, byudjetga soliqlarni o‘z vaqtida va to‘la hajmda to‘lashi kerak.

Test savollari

1. Korxona tomonidan tulanishi lozim bulgan majburiyatlar qanday majburiyatlar deyiladi?

e) debitorlik qarzlar,

f) kreditorlik qarzlar,

g) kelgusi davr xarajatlari,

h) moliyaviy faoliyat bo‘yicha majburiyatlar.

2. Korxona tomonidan olinishi lozim bulgan majburiyatlar qanday majburiyatlar deyiladi?

e) debitorlik qarzlar,

f) kreditorlik qarzlar,

g) kelgusi davr xarajatlari,

h) moliyaviy faoliyat bo‘yicha majburiyatlar.

3. Kreditorlik qarzlarining davo muddati necha yil?

e) 5,

f) 6,

g) 3,

h) 4.

4. Soliqlar bo‘yicha kreditorlik qarzlarining davo muddati necha yil?

a) 5,

e) 6,

f) 3,

g) 4.

5. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining maqsadi nima?

e) debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy xolatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat.

f) debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida umumiy moliyaviy holatiga baho berish.

g) debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida xususiy kapitalni boshqarish.

h) debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxona aktivlarini boshqarish.

6. Quyidagilarning qaysi biri debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini o’rganishda moliyaviy taxlilning asosiy vazifasiga kirmaydi.

e) Debitorlik va kreditorlik qarzlarining yuzaga chiqish sabablarini urganish.

f) Korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari xolatiga baxo berish.

g) Debitorlik va kreditorlik qarzlarining vujudga kelish muddatlari buyicha tasniflagan xolda o’rganish.

h) Korxonaning moliyaviy natijalarini baholash.

7. Quyidagilarning qaysi xujalik yurituvchi sub’ektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarini urganishda asosiy axborot manbalari bulib xisoblanmaydi?

e) Korxonaning «Buxgalteriya balansi” (1-shakl) ma’lumotlari.

f) Korxonaning «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” (2-shakl) ma’lumotlariyu

g) “Debitorlik va kreditorlik qarzlar xaqida ma’lumotnoma”dan.

h) Buxgalteriya hisobining debitorlik va kreditorlik qarzlarini aks ettiruvchi tegishli schyot ma’lumotlari.

XII BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

12.1. Xo‘jalik subektiing pul mablag‘larini ko‘paytirish, ularning ko‘payish vaqtini hisob-kitob qilish va natijaga erishishda tahlilnig muhimligi va asosiy vazifalari

Pul mablag‘larini oqilona boshqarish masalasi doimo mulk egalari va menejerlar e’tiboridagi masala bo‘lib kelgan. Negaki jo‘natilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob- kitoblarning o‘z vaqtida amalga oshirilmasligi oqibatida tadbirkorlik subyektining qarshi tomon oldidagi majburiyatlari ham ortib boradi. Natijada tadbirkorlik subyektining moliyaviy axvoli va natijaviyligida salbiy holatlar kuzatila boshlaydi. Shu sababli, naqdlikni taminlash, ularni to‘g‘ri boshqarish masalasiga doimo ham muhim axamiyat qartilmog‘i lozim.

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chog‘ida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun xo‘jalik yurituvchi sub’ektning pul mablag‘larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo‘lib xizmat qilishi bilan foydalidir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot pul tushumlari va to‘lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsiya faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablag‘iga birgalikda ta’siri hisobot davrida pul mablag‘ining sof o‘zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi axborot bo‘lajak pul oqimlari prognozi to‘griligini tekshirish chog‘ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o‘zgarishi ta’siri o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog‘ida zarur bo‘ladi.

Pul mablag‘lari oqimi yuzasidan quyidagi muhim tushunchalarni tasniflash lozim[115]:

Pul mablag‘lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lar.

Pul ekvivalentlari - ma’lum pul mablag‘iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o‘zgarishlar tufayli biroz xatari bo‘lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar (moliyaviy qo‘yilmalar).

Pul oqimlari - pul mablag‘lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag‘i oqimlarini batafsil ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi.

---

[115] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[115], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Operatsiya faoliyati - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek sub’ektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi sub’ektning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi.

Pul mablag‘i ekvivalentlaridan asosan investitsiyalar va boshqa maqsadlar uchun emas, balki faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlar uchun foydalaniladi. Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo‘lishi va qiymatining o‘zgarishida biroz xavf bo‘lishi lozim. Shu sababli investitsiya qisqa muddatda to‘lanadigan bo‘lsa, ya’ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to‘lanadigan bo‘lsa, uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo‘ladi.

Bank zayomlari moliyaviy faoliyatga taalluqlidir, lekin talab qilingan paytda to‘lanadigan bank overdraftlari korxonalar pul mablag‘ini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bank overdraftlari pul mablag‘ining tarkibiy qismi yoki ularning ekvivalenti hisoblanadi.

Pul oqimi pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari moddalari o‘rtasidagi harakatni o‘z ichiga olmaydi, chunki ular operatsiya, moliya yoki investitsiya faoliyatiga kirmaydi yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektning pul mablag‘larini boshqarishga taalluqlidir. Pul mablag‘larini boshqarish pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining ortiqchasini ishga solishni o‘z ichiga oladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsiya, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida xo‘jalik yurituvchi sub’ekt olgan pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishi lozim bo‘ladi.

Operatsion faoliyat. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning operatsiya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to‘lash, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Operatsiya faoliyatidan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to‘g‘risidagi axborotdan operatsiya faoliyatidan bo‘lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo‘shib foydalanish mumkin bo‘ladi.

Operatsiya faoliyatidan pul oqimi xo‘jalik yurituvchi subyektning

asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi. Operatsiya faoliyatidan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi[116]:

a) tovarlarni sotish va xizmat ko‘rsatishdan tushgan pul;

b) royalti, badallar, vositachilik haqi va o‘zga yo‘llar bilan pul mablag‘lari tushumi;

c) tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to‘lovlari;

d) xodimlarga va xodimlar nomidan to‘lovlar;

e) sug‘urta kompaniyasining sug‘urta polislari bo‘yicha mukofotlari, talablari, yillik va o‘zga to‘lovlari bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari;

f) soliqlar bo‘yicha pul to‘lovlari yoki uning o‘rnini bosuvchi to‘lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo‘lmasa;

g) savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari;

h) boshqalar.

Asosiy vositalar birliklarini sotish kabi ayrim operatsiyalar bo‘yicha foyda kelishi va zarar ko‘rilishi mumkin, ular sof foyda yoki zarar qatoriga kiritiladi. Lekin bunday bitimlar bo‘yicha pul oqimi investitsiya faoliyatidan chiqadigan pul oqimlariga kiritiladi.

Korxona vositachilik yoki savdo maqsadlari uchun qimmatli qog‘ozlar yoki ssuda olgan bo‘lishi mumkin, bunday holatlarda ular qayta sotish uchun xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralarga o‘xshash bo‘ladi.

Investitsiya faoliyati. Xo‘jalik yurituvchi subyekt investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to‘g‘risidagi axborotni alohida ko‘rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to‘g‘risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo‘yicha qilingan xarajatlar darajasini ko‘rsatadi. Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

a) asosiy vositalarni, nomoddiy va o‘zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to‘lovlari. Bu to‘lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek xo‘jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi;

b) asosiy vositalarni, nomoddiy va o‘zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

---

[116] **ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ МИЛЛИЙ СТАНДАРТИ 9-СОН БҲМСПУЛ ОҚИМИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТ. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МОЛИЯ ВАЗИРЛИГИ ТОМОНИДАН ТАСДИҚЛАНГАН 16.10.1998 й.**

c) boshqa sub’ektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to‘lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo‘yilgan to‘lov hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo‘yicha to‘lovlar)dan tashqari;

d) boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to‘lov hujjatlari bo‘yicha tushumlar bunga kirmaydi;

e) boshqa taraflarga berilgan bo‘naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

f) boshqa taraflarga berilgan bo‘naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

g) fyuchers va forvard bitimlari, opsion bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha to‘lovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun mo‘ljallangan holatlar bundan mustasno bo‘ladi yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

h) fyuchers va forvard bitimlari, opsion bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha pul tushumlari, ular diler yoki savdo maqsadlariga mo‘ljallangan holatlar bundan mustasnodir yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

i) va boshqalar.

Moliyaviy faoliyat. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt moliyaviy faoliyatidan bo‘ladigan pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotni alohida ko‘rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo‘lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo‘ladi. Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

a) aksiyalar yoki o‘z mablag‘i bilan bog‘liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari;

b) subyektlar aksiyalarining haqini to‘lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to‘lovlar;

c) ta’minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalari tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo‘yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari;

d) zayomlarni to‘lash;

e) moliyaviy lizing bo‘yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to‘lovlari;

f) va boshqalar.

Pul oqimini tahlil etishni o‘rganish maqsadi va vazifalari:

Tahlil maqsadi: moliyaviy hisobot ma’lumotlari assoida pul oqimini obyektlari, faoliyat turlarii, shakli va davri bo‘yicha o‘rganish orqali tadbirkorlik sub’ektining pul mablag‘larini ichki va tashqi omillarga bog‘liq holdagi o‘zgarishlarini retrospektiv a perspektiv tahlilini amalga oshirish orqali ularni masadli boshqarishni yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Tahlil vazifalari:

-pul oqimi to‘g‘risidagi xisobotni tasniflash, pul oqimini tarkib qatorlari bo‘yicha o‘rganish;

-pul oqimini joriy tahlilini va istiqboldagi prognozlarini tashxislash;

-pul oqimining sof kirimi va chiqimiga baho berish orqali biznes samaradorliga baho berish;

-pul oqimining moliyaviy holat va barqarorlikka ta’sir darajasini, ular naqdligining likvidlik va o‘lovga qobillikka ta’sirini baholash;

-operatsion va moliyaviy richaglar orqali pul oqimini moliyaviy koeffitsentlarda baholash;

-pul oqimini taktik boshqarishning aniq chora-tadbirlarini belgilab berish va ularning amalga oshirish.

Tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va ularning kamchiliklari.

Tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumot moliyaviy hisobotning 4-shakli bo‘lgan “Pul oqimi to‘g‘risida”gi hisobotdan olinadi. Hisobot kassa usulida tuziladi. Tuzish davriyligi bo‘yicha yarim yillik va yillik muddat belgilangan.

Inflyatsiya darajasi, moliyaviy hissobotlarni tuzish davriyligining uzoqligi, hisobga olish va kassali usulning muvofiq kelmasligi, pul oqimi to‘g‘risidagi analitik ma’lumotlarni olish imkoniyatlari cheklanganligi, axborotlarning ishonchligidagi muammoli jihatlar tahlilning eng muhim kamchiliklari hisoblanadi[117].

12.2. Korxonaning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari

Tadbirkorlik subyekti pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish, shuningdek keltirib chiqarilgan pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlaridan maqsadli va samarali foydalanish juda qiyin jarayon. Ya’ni pulni topish qiyin uni ishlatish undanda qiyin.

Faoliyatda, xo‘jalik jarayonlarida tadbirkorlik subektlarida doimo pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlariga zaruriyat seziladi. Negaki barcha munosbatlar ushbu oqim xarakati bilan boshlanadi va tugaydi. Barcha moliyaviy munosabatlar ham ushbu birlik orqali tartiblanadi.

Har bitta tadbirkorlik sub’ekt yetarli miqdorda pul va pul ekvivalentlari bilan taminlangan holdagina uning ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy

[117] Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X

faoliyati uzluksizligi taminlanadi. Agar taminotda uzilish bo‘ladigan yoki zaruriy likvid mablag‘lar yetishmovchiliklar kuzatiladigan bo‘lsa bunday subyektning nafaqat operatsion faoliyati emas balki butun xo‘jalik faoliyatida tanglik yuzaga keladi, moliyaviy axhvol qiynlashadi va uni boshqarish yanada murakkablashadi.

Tadbirkorlik sub’ektlarining daromad keltiruvchi faoliyat turlari, shakllari qanchalik farqli bo‘lmasin, ularning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlariga bo‘lgan ehtiyojlari bir xil sabablardan kelib chiqadi. Bu uzluksiz va davomli faoliyatni amalga oshirish aktivlarni sotib olish va joylashtirish, o‘z majburiyatlariga amalga oshirish, investorlarga daromadlarini to‘lash yuzasidan zaruriy amallarning bir xilligidan kelib chiqadi.

Pul mablag‘larining manbalarida birinchi navbatda xususiy kapitalning shakllanishiga axamiyat qaratish lozim. Xususiy kapital tadbirkorlik sub’ektining boshlang‘ich kapitalidir. Ushbu kapital asosiy va aylanma kapital minimumini taminlab beradi.

Pul oqimlarining shakllanishi va ularning ishlatilishidagi umumiy jihatlar bilan bir qatorda albatta har bitta korxonaning ularning harakati, tezligi yuzasidan o‘ziga xos jixatlari mavjud. Masalan: pul va pul ekvivalentlarining xarakati savdodada, umumiy ovqatlanishda, qurilishda, sanoatda, qishloq xo‘jaligida bir biridan tubdan farq qiladi. Bu tarmoq va bo‘g‘inning, korxona faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Pul mablag‘laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko‘p jihatdan korxonalarda pul mablag‘larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etilanligiga va ular ustidan nazoratni yo‘lga qo‘yilganlik darajasiga bog‘liq. Biroq, ko‘plab korxonalarda pul mablag‘lari va pul ekvalentlarini boshqarish va doimiy nazorat qilishdagi kamchiliklar tufayli moliyaviy natijaviylikdagi ijobiy holat, debitorlik majburiyatlarining oshirib yuborish, undirilmagan qarzdorlikning ko‘payishi hisobiga moliyaviy holat yomonlashganligini ko‘rish mumkin. To‘g‘ri bu holat keyingi faoliyatlar uchun manba sifatida qaralishi mumkin, lekin ularning doimiy aylanishdan chetlanishlari tufayli korxona ish faolligi, likvidligi sustlashadi, moliyaviy ahvoli qiyinlashadi. Shu sababli, pul mablag‘larini boshqarishda har bitta korxonaning pul mablag‘lari va pul ekvalentlarining faolyait uzluksizligini taminlash, majburiyatlarning ortib ketishiga yo‘l quymaydigan taktik boshqaruvini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi.

Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo‘yicha farqlanishini quyidagi jadval ma’lumotlaridan ham aniq ko‘rish

mumkin[118].

12.1-jadval

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining faoliyat shakllari bo‘yicha doiraviy aylanishlari

	Aylanish muddati					
	0-1-kun	**1-2-kun**	**2-3-kun ...**			
Savdo(chakana), umumiy avqatlanish, aloqa	Naqd pul 50 mln.	Tovar sotib olindi 50 mln.	Tovar qayta sotildi Naqdlik 75 mln.	x	X	x
	Aylanish muddati					
	0-1-oy	**1-2-oy**	**2-3-oy**	**3-4-oy**	**4-5-oy ....**	
Sanoat, transpot,	Naqd pul 50 mln.	TMZ sotib olindi 50 mln.	Boshqa xarajatlar 30 mln.	Tovar zaxiraga olindi 80 mln	Tovar sotildi 100 mln	x
	Aylanish muddati					
	0-1-yil	**1-2 yil**	**2-3-yil**	**3-4-yil**	**4-5-yil**	**5-6-yil...**
Kurilish, qishloq xo‘jaligini ayrim bo‘g‘inlari	Naqd pul 50 mln.	TMZ sotib olindi 50 mln.	Xarajatlar 55 mln.	Tugallan magan ishlab chiqarish 25 mln.	Tovar zaxiraga olindi 85 mln.	Tovar sotildi 125 mln.

Zahiralar (tovarlar, tayyor mahsulotlar)ning pul mablag‘lari va pul ekvivalentlariga aylanish davriyligining sotish shakllari bo‘yicha ham farqlash mumkin.

12.2-jadval

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining sotish shakllari bo‘yicha farqlanishi

	Aylanish muddati					
Zaxiralarni naqdga va naqdsiz sotish	1-kun	2-kun	3-kun	4-kun	5-kun	6-kun....

[118] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[118], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X.

Zaxiralarni kreditga sotish	1-oy, (1-yil)	2-oy, (2-yil)	3-oy, (3-yil)	4-oy, (4-yil)	5-oy, (5-yil)	6-oy..., (6-yil)...
Zaxiralarni chegirma va ustama asosida sotish	1oygcha 20 foiz chegirma,	2-oygacha 15 foiz chegirma	3-oygacha 10 foiz chegirma	4-oygacha 5 foiz ustama	5-oygacha 10 foiz ustama	6-oygacha 15 foiz ustama

Tarmoq va bo‘g‘inlarda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning pul oqimida faoliyat turlarining salmoq darajalari ham turlicha bo‘ladi. Buni bevosita quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rib o‘tish mumkin.

12.3-jadval

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining faoliyat bo‘g‘inlari bo‘yicha salmoq darajalari

Kirmi/Chiqim	**Operatsion faoliyatdan chiqim**	**Investison faoliyatdan chiqim**	**Moliyaviy faoliyatdan chiqim**
Opreatsion faoliyatdan kirim	Sanoat, savdo, transport, qishloq xo‘jaligi, qurilish, umumiy avqatlanish	Sanoatda, transport, qurilishda	Sanoatda
Investitsion faoliyatdan kirim	Sanoatda, transport,qurilish	Sanoatda, qurilish	Sanoatda, qurilish
Moliyaviy faoliyatdan kirim	Sanoatda	Sanoatda	Sanoatda
Balans	xxx	xxx	xxx

12.3. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlari

Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug‘ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot shaklini erkin o‘qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak.

Pul oqimlari to‘g‘risida hisobotda pul mablag‘lari harakati bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy resurslardagi barcha o‘zgarishlar aks ettiriladi.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotda operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining harakati aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobtda kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘lgan pul mablag‘laridagi barcha o‘zgarishlar shunday tartibda aks ettirilishi lozimki, u pul mablag‘lari bilan ularga ekvivalent bo‘lganlar o‘rtasida, ya’ni, qisqa muddatli va yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag‘lari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini taminlasin.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotga "Valyuta mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotnoma" ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo‘lgan qoldiqlar, valyuta mablag‘lari tushumi va xarakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etadi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko‘p jihatdan real pul aylanmasiga bog‘liq. Korxonaning hisob-kitob va o‘zga hisob raqamlari orqali o‘tadigan pul mablag‘larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag‘lari oqimi deyiladi.

Pul mablag‘lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl "Pul mablag‘lari to‘g‘risidagi hisobot" moliyaviy xisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi "Korxona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida" gi statistika hisoboti asosiy ma’lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo‘lib, unda joriy xo‘jalik faoliyati jarayonida pul mablag‘lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig‘i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari aks ettiriladi. Pul mablag‘lari oqimiga so‘m va valyutadagi pul mablag‘lari kiritiladi.

Pul mablag‘lari aylanma aktivlarning eng likvid qismi hisoblanadi. Xo‘jalik faoliyati, moliya munosabatlari pul mablag‘larini turli aktivlarga ishlatish va uning yakunida oldingi jarayonlarning yutug‘i hisoblangan foydaga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Jarayonlar qachonki yakuniga yetadi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) o‘z egalari tomonidan tan olingan va tassaruf etishga qabul qilingan holda ularga tegishli bo‘lgan qiymatliklar sotuvchiga to‘la to‘lab berilsa. Bu esa jarayonning yangi siklini boshlash uchun ham manba hisoblanadi[119].

12.4-jadval

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot

Ko‘rsatkichlar nomi	**Satr kodi**	**Kirim**	**Chiqim**
1	2	3	4
Operatsion faoliyat			
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	010	4517395,6	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	020		1725282,9
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	030		

[119] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[119], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to‘lovlari	040	1921254,7	4320200,4
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040	050	*6438650,3*	*6045483,3*
Investitsiya faoliyati			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	1484,1	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080	349357,3	
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	090		
Jami: invetitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr.060+/-070+/-080+/- -090	100	*350841,4*	
Moliyaviy faoliyat			
Olingan va to‘langan foizlar	110	374998,1	
Olingan va to‘langan dvidentlar	120		
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa instumentlardan kelgan pul tushumlari	130		
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to‘lovlari	140		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	150		
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	160		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	170		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim (satr.110+/-120+130-140+/-150+/- -160+/-170)	180	374998,1	
Soliqqa tortish			
To‘langan daromad (foyda) solig‘i	190		565531,2
To‘langan boshqa soliqlar	200		16210,7
Jami: to‘langan soliqlar (satr.190+200)	210		581741,9
Jami: moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)	220	7164489,8	6627225,2
Yil boshidagi pul mablag‘lari	**230**	240164,7	
Yil oxiridagi pul mablag‘lari	**240**	777429,3	

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga tadbirkorlik sub’ektining sof aktivlaridagi o‘zgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va to‘lov qobiliyati)ni va o‘zgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida o‘zining pul oqimlari summasi va muddatlariga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatini baholash uchun ma’lumot bilan ta’minlaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tadbirkorlik sub’ektining pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil tadbirkorlik sub’ektlariga tegishli kelgusi pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. U, shuningdek, turli xil tadbirkorlik sub’ektlarining operatsion faoliyati

ko‘rsatkichlari haqidagi hisobotlarining qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf qiladi.

Oldingi davrlardagi pul oqimlari to‘g‘risidagi axborotdan ko‘pincha kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va aniqligining ko‘rsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusi pul oqimlari bo‘yicha oldingi baholarning to‘g‘riligini tekshirishda, hamda foydalilik va sof pul oqimlari orasidagi bog‘liqlikni va o‘zgaruvchan narxlarning ta’sirini o‘rganishda foydalidir.

Korxona menejerlarining eng muhim e’tibori pul tushumlarini ko‘paytirishga va xarajatlarni kamaytirishga qaratiladi. Bu borada birinchi navbatda ishlab chiqarish va sotish jarayonlarida debitorlik majburiyatlarini doimiy nazorat qilish, zaxiralarni tartiblash, kreditorlik majburiyatlar va qarzlarga bog‘lanmaslik siyosatini yuritilishi talab etiladi. Shu sababli, pul oqimini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha doimiy o‘rganib turish talab etiladi.

12.5-jadval

Pul oqimining yo‘nalishlari (cash flow).

Pul oqimi	Mazmuni	Kirimi va chiqimi
Asosiy faoliyatdan	Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida pul mablag‘lari kirimi va chiqimi	+sof foyda +amortizatsiya ajratmalari
		+zaxiralar va debitorlik majburiyatlarning qisqarishi
		-zaxira va debitorlik majburiyatlarining ortishi
		-majburiyatlarning kamayishi +majburiyatlarning ortishi
Investitsion faoliyatdan	Kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar yuzasidan pul mablag‘lari kirimi va chiqimi	+oborotdan tashqari aktivlarning chiqib ketishi (uskunalarning sotilishi)
		-oborotdan tashqari aktivlarning o‘sishi
		+xissali qatnashishning sotilishi
		-xissali qatnashishning sotib olinishi
Moliyaviy faoliyatdan	Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari kirimi va chiqimi (operatsion va investitsion faoliyatdan o‘zga faoliyatdan pul mag‘lari kirimi va chiqimi)	+yangi kreditlarning olinishi -kreditlar yuzasidan foiz to‘lovlarining qoplanishi
		+yangi aksiyalarning chiqarilishi
		+obligatsiyalarni sotib olish va qoplash yuzasidan to‘lovlar
		+aksiyalar emissiyasi - dividend to‘lovlari
Sof kirim va chiqimi	OF+IF+MF	

12.6-jadval

Pul oqimining tarkiblanishi

№	Pul oqimi	Tarkib qatorlari
1	Shakllanish doirasi bo‘yicha	Korxona bo‘yicha umumiy pul oqimi

		Tarkibiy bo‘limlar, filiallar bo‘yicha pul oqimi
		Xo‘jalik faoliyati turlari bo‘yicha pul oqimi
		Alohida xo‘jalik jaryonlaridan bo‘yicha pul oqimi
2	Faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha	Operatsion faoliyatdan
		Investitsion faoliyatdan
		Moliyaviy faoliyatdan
3	Natijaviyligi bo‘yicha	Ijobiy pul oqimi
		Salbiy pul oqimi
4	Hajmni hisoblash usuli bo‘yicha	Yalpi pul oqimi
		Sof pul oqimi
5	Sof qiymati bo‘yicha	Ortiqchalik
		Etishmovchilik
6	Davriyligi bo‘yicha	Joriy pul oqimi
		Kelgusi pul oqimi

Korxonada pul oqimini quyidagi qatorlarini berib o‘tish mumkin: shakllanishi; faoliyat yo‘nalishlari; pul oqimini natijviyligi; hisoblash usuli, sof qiymati, davriyligi bo‘yicha.

Korxonalarning pul oqimlarini moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida jamlangan qatorlari bo‘yicha tahlil qilish ularning umumiy o‘zgarishlariga gorizontal va vertikal usullarda baho berishdan boshlanadi.

12.7-jadval

Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlili

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O‘zgarishi		O‘sish darajasi, %	O‘sish darajasi, %
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%	Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%	Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%		
1.	Asosiy faoliyatdan sof pul oqimi	195,0	487,5	192,0	274,3	-3,0	-10,0	98,5	-1,5
2.	Investitsion faoliyatdan sof pul oqimi	-115,0	-287,5	-212,0	-302,9	-97,0	-323,3	184,3	84,3
3.	Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi	-40,0	-100,0	90,0	128,6	130,0	433,3	-225,0	-325,0
4.	Natijaviy sof pul oqimi	40,0	100,0	70,0	100,0	30,0	100,0	175,0	75,0

Tahlil etishda pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining jamlangan qatorlari har bitta faoliyat turidan pul madbalag‘lari va pul ekvivalentlarini baholashni bilan pul oqimining ichki o‘zgarishlari va ularning tendensiyalariga baho beriladi.

12.8-jadval

Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O‘zgarishi		O‘sish darajasi, %	O‘sish darajasi, %
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%	Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%	Summa, ming so‘m	Salmog‘i,%		
1.	Asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari kirimi:	4 426,0	100,0	5 466,0	100,0	1 040,0	100,0	123,5	23,5
1.1.	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan pul mablag‘lari	4 342,0	98,1	5 361,0	98,1	1 019,0	98,0	123,5	23,5
1.2.	Boshqa kirimlar	84,0	1,9	105,0	1,9	21,0	2,0	125,0	25,0
2.	Asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari chiqimi:	4 231,0	100,0	5 274,0	100,0	1 043,0	100,0	124,7	24,7
2.1.	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari chiqimi	3 095,0	73,2	3 796,0	72,0	701,0	67,2	122,6	22,6
2.2.	Xodimlar va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	580,0	13,7	792,0	15,0	212,0	20,3	136,6	36,6
2.3.	Dividendlar va foizlar to‘lovi	222,0	5,2	198,0	3,8	-24,0	-2,3	89,2	-10,8
2.4.	Soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha chiqim	210,0	5,0	284,0	5,4	74,0	7,1	135,2	35,2
2.5.	Boshqa xarajatlar	124,0	2,9	204,0	3,9	80,0	7,7	164,5	

12.4. Pul oqimlarining bashoratlash

Bashoratlash – (grekcha prgognoses-oldindan ko‘rish) moliyaviy menejmentda uzoq istiqbolga moliyaviy holatni bir butun holda va turli kismlarini o‘zgartirishni ishlab chiqish tushuniladi. Bashoratlash - bu ob’ektni yoki hodisani kelajakdagi me’yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro‘yobga chiqarishning alternativ yo‘llari to‘g‘risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqishdir. Bashoratlash – boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo‘lib, iqtisodiy tizimning kelgusidagi holatini aniqlab beruvchi rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘llari, usullari va vositalari yig‘indisidir

Naqd pul oqimining bashorati biznes rejaning muhim jihatlaridan biridir. Bu orqali naqd pul oqimini nazorat qilish, yuzaga kelayotgan muammolarni oldini olish yoki mavjud imkoniyatlardan foydalanish mumkin bo‘ladi.

Naqd pul oqimi bashorati qachon daromad olishni va qachon harajatlarni qoplash zarurligini ko‘rsatadi.

Naqd pul oqimi bashoratlari o‘z ichiga quyidagilarni olishi shart:

sotuvlardan tushgan barcha tushumlar va haridorlardan olingan naqd pullarni; barcha xom ashyo, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk va boshqalar uchun to‘lovlarni; boshqa harajatlar uchun to‘lovlarni; oylik maosh, mukofot va boshqalar bo‘yicha chiqimlarni; uskuna va texnologiyalar xarid qilishni; kredit, grant yoki korxonaga jalb qilinayotgan boshqa resurslarni; kredit bo‘yicha to‘lovlarni; soliqlar va majburiy to‘lovlarni, ular bo‘yicha qarzlarni.

Boshoratlashda uta aniqlikni taminlash qiyin jarayon. Lekin bu aniqlikni risklarni to‘g‘ri baholash orqali oshirish imkoni albatta mavjud.

Pukl oqimini bashoratlash aniq olingan muddatlarga (kelgusi oylar, choraklar, yillar kesimida amalga oshiriladi. Uning metodik jixatlarini quyida berib o‘tishimiz mumkin:

1. Davr oralig‘ida pul kirimini bashoratlash. Pul kirimini asosiy manbasi bu maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tushadi. Bu borada tayyor mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan pul kirimini o‘rtacha ko‘rsatkichi (koeffitsenti, davri) aniqlanadi. Ushbu birlik orqali yaqin oydlarda va yil davomida kelishi kutilayotgan pul mablag‘lari kirimi aniqlanash mumkin. Shuningdek, balans usuli asosida mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof pul kirimini aniqlash yuzasidan debitorlik va kreditorlik majburiyatlaring davr boshi va oxiriga qoldiqlari farqi sotish xajmiga qayta hisob kitob qilish orqali naqd pul mablag‘lari kirimi ham aniqlanadi.

Bashoratlashda aniqroq hisob-kitoblarni amalga oshirishda debitorlik majburiyatlarining ordingi chorakliklar bo‘yicha o‘zgarishlarini ham asos sifatida olish mumkin.

Boshqa faoliyat turlari bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi oldingi oylar va choraklar natijasiga qarab belggilanadi va asosiy faoliyatdan pul mablag‘lari kirimiga qo‘shiladi.

2. Davr oralig‘ida pul mablag‘lari chiqimini bashoratlash. Birinchi navbatda naqd pul chiqimi belgilanadi. Uning muhim tarkibiy birligi mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan kreditorlik majburiyatlarini qoplash hisoblanadi.

Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga bo‘lgan kreditorlik majburiyatlarining to‘lov muddatlarining kechiktirilishi korxona uchun boshqa moliyalashtirishlar manbasi ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli ko‘pincha xo‘jalik sub’ektlari ushbu majburiyatlarni imkon qadar kechiktirishga xarakat qiladilar.

Kreditorlik majburiyatlarining salmoq ulushi ish haqi bo‘yicha majburiyatlarga, soli va majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar qatoriga ham to‘g‘ri keladi.

3. Sof pul oqimini aniqlash. Bashorat qilinadigan sof pul oqimi

ularning kirim va chiqimini farqlash asosida aniqlanadi. Natija ijobiy (ortiqchalik) va salbiy (etishmovchilik) shaklida bo‘lishi mumkin

4. Pul mablag‘lariga bo‘lgan qisqa muddatli moliyalashtirishning umumiy xajmini aniqlash. Moliyalashtirish yuzasidan ko‘pgina xo‘jalik sub’ektlari qisqa va uzoq muddatli bank kreditlari, ssudalarini jalb etishni maqbul ko‘rishadi. Uning xajmi albatta bashoratlangan sof pul oqimiga qarab belgilanadi.

12.9-jadval

Pul oqimlarini bashorati

Ko‘rsatkichlar nomi	**1-chorak**	**2-chorak**	**3-chorak**	**4-chorak**
1	3	4	5	6
1.Operatsion faoliyat				
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	160.0	185.0	195.0	205.0
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	100.0	105.0	115.0	125.0
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	25.0	28.0	32.0	35.0
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to‘lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040	*100.0*	*123.0*	*127.0*	*140.0*
Investitsiya faoliyati				
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	-135.0	-125.0	-150.0	-150.0
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	-10.0	-10.0	-10.0	-10.0
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	25.0	25.0	25.0	25.0
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	15.0	15.0	15.0	15.0
Jami: invetitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr.060+/-070+/-080+/- -090	*-105.0*	*-95.0*	*-120.0*	*-120.0*
Moliyaviy faoliyat				
Olingan va to‘langan foizlar	10.0	15.0	15.0	15.0
Olingan va to‘langan dvidentlar	-	-	-	-
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa instumentlardan kelgan pul tushumlari	-	-	-	-
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to‘lovlari	-	-	-	-

Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	25.0	25.0	25.0	25.0
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	35.0	35.0	35.0	35.0
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	10.0	5.0	5.0	5.0
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim (satr.110+/-120+130-140+/-150+/- -160+/-170)	70.0	*65.0*	*65.0*	*65.0*
Soliqqa tortish				
To‘langan daromad (foyda) solig‘i	35.0	35.0	35.0	35.0
To‘langan boshqa soliqlar	10.0	10.0	10.0	10.0
Jami: to‘langan soliqlar (satr.190+200)	45.0	45.0	45.0	45.0
Jami: moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)	100.0	138.0	117.0	130.0

12.5. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari tahlili

Operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari kirimi va chiqimida: hisobot davrida sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun korxonaning bank hisobvaraqlari va kassasiga kelib tushgan pul mablag‘lari summasi; mahsulot yetkazib beruvchilarga materiallar, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi; xodimlarga mehnatga haq to‘lash ko‘rinishida to‘langan pul mablag‘lari summasi, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘langan mablag‘lar summalari, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo‘yicha to‘lash, xodimlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun korxonaning haq to‘lashi, kassadan va bank hisobvaraqlaridan xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga doir boshqa sarflar; operatsion faoliyatga doir boshqa pul tushumlari va chiqimlari (royalti, turli xil taqdirlashlar, komission yig‘imlar va boshqa operatsion faoliyatdan to‘langan pul mablag‘lari kirimi va chiqimi); operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Investitsion faoliyatdan pul mablag‘lari kirimi va chiqimida: asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari summalari, asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag‘lar summalari; nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to‘langan pul mablag‘lari, nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag‘lar summalari; qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi, shu jumladan vositachilarga komission taqdirlashlar va

birjada to‘langan foizlar, qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari summasi aks ettiriladi; boshqa investitsion faoliyatga oid to‘langan pul mablag‘lari kirim va chiqimi; investitsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining kirmi va chiqimida: Olingan (kirim) va to‘langan foizlar(chiqim) summalari; olingan (kirimi) va to‘langan (chiqim) dividendlar summalari; hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki o‘z sarmoyasi bilan bog‘liq boshqa dastaklar uchun aksiyadorlardan kelib tushgan pul mablag‘lari summasi; sotib olingan xususiy aksiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari summalari, shuningdek korxonada bo‘lgan xususiy aksiyalar, hissalar va paylar uchun, ularni keyingi sotish yoki yo‘q qilish (bekor qilish) maqsadida, egalariga to‘langan pul mablag‘lari summasi; hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzlar (kirim) summasi, kreditlar va qarzlar bo‘yicha to‘lovlar summasi (chiqim); ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘langan pul mablag‘lari, ijarachidan (lizing oluvchidan) kelib tushgan pul mablag‘lari summasi; boshqa moliyaviy faoliyatga oid to‘langan va olingan pul mablag‘lari summasi; moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari kirimi yoki chiqimi aks etadi.

Soliqqa tortish pul mablag‘lari chiqimi qatorida: to‘langan daromad (foyda)solig‘i, to‘langan boshqa soliqlar va jami to‘langan soliqlar yuzasidan chiqimlar aks etadi.

12.6. Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubi

To‘g‘ri usulda tahlilning metodologik asoslari

To‘g‘ri usul- xo‘jalik faoliyatidan pul mablag‘lari harakatini ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir[120].

Pul mablag‘larini to‘g‘ri usulda tahlil etishning metodologik asosi balans uuli hisoblanadi.Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

-pul qiymatliklarining davriy qiymatini hisobga olmaslik

-pul mablag‘larini qoldiq qismini aniqlashning quyidagi bog‘lanishiga quyidagi tenglikka teng:

PMdb + PMk - PMch = PMdo

Bu yerda: PMdb, PMdo - pul mablag‘larining davr boshi va oxiriga qoldig‘i;

PMk-pul mablag‘lari kirimi;

PMch-pul mablag‘lari chiqimi.

---

[120] Рахимов М.Ю. Иқтисодиёт субъектлари молиявий ҳолатининг таҳлили.Т.: Молия –иқтисод, 2015.-316 б., Ефимова О.В. [и др.]. Анализ финансовой отчетности./учеб.пособие / - М.: Омега-Л, 2013. - 388 с., K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[120], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X, Бернстайн Л.А. Анализ финансовых отчетов М.: Финансы и статистика. 2003, -622 ст., Вахрушиной М.А. Анализ финансовый отчетности.М.: Финансы и статистика 2007. 367 стр

12.9-jadval

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot qatorlari

Ko‘rsatkichlar	Kod
Pul mablag‘larining davr boshiga qoldig‘i	010
Asosiy(joriy) faoliyatdan pul mablag‘larining xarakati	
Xaridor va buyurtmachilardn olingan pul mablag‘lari	120
Boshqa kirimlar	130
Mahsulot(ish, xizmat)larni, xom ashyo va boshqa aylanma aktivlarni olib kelishga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari	150
Ish xaqiga	160
Dividendlar, foizlar to‘loviga	170
Soliqlar va turli yig‘imlarga	180
Boshqa xarajatlarga	190
Asosiy(joriy) faoliyatdan pul mablag‘larining sof kirimi	020
Investitsion faoliyatdan pul mablag‘larining kirmi	
Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarni sotib olishdan tushumlar	210
Olingan foizlar	240
Asosiy vositalar olib kelishga, moddiy va nomoddiy aktivlarga daromadli qo‘yilmalar	290
Kimmati qag‘ozlar va boshqa moliyaviy qo‘yilmalarni olish	300
Boshqa korxonalarga berilgan qarzlar	310
Investitsion faoliyatdan sof pul mablag‘larining harakati	340
Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larini xarakati	
Boshqa korxonalardan olingan qarz va kreditlar	420
Karz va kreditlarni qoplash (foiz to‘lovisiz)	430
Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari harakati	040
Pul va pul ekvivalentlarining sof o‘sishi(kamayishi)	050
Pul mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i	060

Pul oqimini asosiy faoliyat bo‘yicha ijobiy natijasi moliyaviy saloxiyatning yaxshiligini ifoda etadi

12.10-jadval

Faoliyat turlari bo‘yicha pul oqimi

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida		O‘zgarishi, +,-		O‘sish darajasi, %
		Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i,%	Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i,%	Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i,%	
1	Davr boshiga pul mablag‘lari qoldig‘i	124.5	-	171.9	-			
2	Pul mablag‘larining jami kirimi:	4828.0	100	6280.0	100	1452	-	130.0
	Shu jumladan faoliyat turlari bo‘yicha: -asosiy faoliyatdan	3062.0	63.4	4821.0	76.7	1759.0	13.3	157.4

	-investitsion	1260.0	26.0	889.0	14.2	-370	-11.8	175.6
	-moliyaviy	506.0	10.6	570	9.1	64	-1.6	112.6
3	Pul mablag‘larining jami chiqimi	4780.7	100	5983.0	100	-	-	125.1
	Shu jumladan faoliyat turlari bo‘yicha: -asosiy faoliyatdan	2180.4	45.6	3168.0	52.9	987.6	9.2	145.3
	-investitsion	1767.2	37.0	2256.0	37.7	488.8	-2.3	127.6
	-moliyaviy	833.1	17.4	559.0	9.4	274.1	-8.9	67.1
4	Davr oxiriga pul mablag‘lari qoldig‘i	171.9	-	468.9	-	297.0		273.6

Xulosa: korxonada pul oqimini tahlilidan shuni qayd etish lozimki joriy davrda pul oqimining davr boshiga qoldigi 171.6 ming so‘mni, pul mablag‘lari kirimi (operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyatdan) 6280 mln so‘mni, pul mablag‘lari chiqimi 5983.3 ming so‘mni tashkil etgan. Pul mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i 468.9 mln so‘mni tashkil etgan. Pul mablag‘lari kirimi va chiqimida asosiy ulushni asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar, investitsion faoliyatdan xarajatlar tashkil etgan.

To‘g‘ri usulda tahlil etishning imkoniyatlari.Buxgalteriya hisobi schetlaridagi ma’lumotlar asosida pul mablag‘larining kirimi va chiqimini hisoblashni nazarda tutadi.Ya’ni, joriy manbasi buxgalteriya hisobining schetlar rejasidagi axborotlar hisoblanadi. Pul mablag‘lari schetidagi debit va kredit aylanmalari hajmi tahlilning zaruriy manbasi hisoblanadi.

Barcha schetlar bo‘yicha debet va kredit aylanmalari xajmi faoliyat turlari bo‘yicha qayta tarkiblanadi.

To‘g‘ri usulda pul mablag‘larini tahlil etish quyidagi savollarga naiq javob topish imkonini beradi[121]:

-joriy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larini faoliyat uzluksizligini va rejalashtirilgan investitsion faoliyatni taminlashga yetarlimi yoki yetishmasligini baholash

-moliyaviy faoliyatdan keladigan pul mablag‘larining balanslangan sifatiga erishish uchun uchun kancha mablag‘

-asosiy, investitsion va moliyaviy faoliyatdan xarajatlar va ularning kelish manbalarini korxona bo‘yicha jamlangan holda baholash

-pul mablag‘lari kirmi va chiqimining ularning davr oxiriga qoldiq summalariga qay darajada ta’sir etishini baholash

-faolit turlari bo‘yicha pul mablag‘lari tarkibiga, har bitta faoliyat turi bo‘yicha sof pul mablag‘lari sof kirimi (chiqimi)ni baholashga imkon beradi.

---

[121] K. R. Subramanyam FINANCIAL STATEMENT ANALYSIS, ELEVENTH EDITION Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by[121], Карлин Т.Р. Анализ финансовых отчетов (на основе GAAP) Учебник. — М.: ИНФРА-М, 1998. — 448 с. — ISBN 5-86225-675-X

Joriy faoliyatdan sof pul mablag‘lari kirimi (chiqimi) ijobi yva salbiy holatlari kuzatiladi.

Ijobiy holat - korxona faoliyatining va kelgusidagi rivojlanish strategiyasining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligidan dalolat beradi. Investison faoliyatdan pul mablag‘larining salbiy holati uzoq muddatli aktivlarga investitsiya kiritish holatlarida kuzatiladi. Bu holat joriy davr bo‘yicha xarajatlarni ko‘paytiradi va kelgusi davrlar bo‘yicha pul tushumlarining oshishiga olib keluvchi holat sifatida baholanadi, qachonchi uning samaradorligi va natijaviyligida strategik qarorlar to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa. Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘larining sof harakatida ijobiy holat korxonaning kengaytirilgan faoliyatini tashqi manbalar hisobiga moliyalashtirilayotganligini bildiradi. Yuqoridagilarni aks salbiy holatni ifoda etadi.

Pul mablag‘larini egri usuldagi tahlili. Egri usulda pul mablag‘larini tahlil etishning axborot ta’minoti sifatida buxgalteriya balansi, metodologiya asosi tahlilning balans usuli hisoblanadi.

Mazkur usulda pul mablag‘larining kirimida balans passivi moddalarining o‘sishi va aktiv moddalarning kamayishi, pul mablag‘lari chiqimida balans aktiv moddalarining ko‘payishi va passiv moddalarining kamayishini xarakterlaydi.

Pul mablag‘lari ko‘payishida asosiy manba joriy davr foydasi va amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi.

Umumiy ko‘rinishda pul mablag‘lari xarakatini, hisb – kitobini quyidagi formula asosida topish mumkin

$$\mathbf{SPX = SF + AA - (\Delta A + AA) + (\Delta P - SF)}$$

Bunda: SF - joriy davr sof foydasi;

AA - amortizatsiya ajratmalari;

ΔA - aktivlarning o‘zgarishi;

ΔP -passivlarning o‘zgarishi.

1.Joriy faoliyatdan pul mablag‘larining sof harakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{PMj.f. = SF+ AA - \Delta Z - \Delta DM + (\Delta Kjamg‘. -SF) + \Delta KM}$$

Bunda: ΔZ – zaxiralarning o‘sishi;

ΔDM - Debitorlik majburiyatlarining o‘sishi;

ΔKM -Kreditorlik majburiyatlarining o‘sishi

(ΔKjam. - SF) – jamg‘arilgan kapitalning o‘sishi (taqsimlanmagan foyda va rezerv kapitalining) joriy davr foydasidan farqi (farq-joriy davrda ishlatilgan foyda summasini xarakterlaydi.

Joriy faoliyatdan sof pul mablag‘lari xarakati:

“+” sof foyda summasi amaortizatsiya, kirimga olingan schotlardagi kamayish, kelgusi davr xarajatlarining o‘sishi, nomoddiv aktivlarni sotishdan zararlar, soliqlar bo‘yicha majburiyatlarning ortishi qo‘shiladi.

“-” qimmatli qag‘ozlarni sotishdan tushumlar,avans to‘lovlari ortishi, TMZ o‘sishi, to‘lovga qabul qilingan schetlarning kamayishi, majburiyatlarning kamayishi, bank kreditlarining kamayishi.

2) Investitsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari harakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{ChDPi.d. = - (\Delta\ OTA + AA)}$$

Bunda: Δ OTA –oborotdan tashqari aktivlar o‘sishi

Investitsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari xarakati:

“+” moddiy aktivlar va kimmatli qag‘ozlarni sotishdan pul mablag‘lari kirimi;

“-” moddiy aktivlar va kimmatli qag‘ozlarni sotishdan pul mablag‘lari chiqimi;

3.Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari sof xarakati hisob-kitobi:

$$\mathbf{PMm.f. = \Delta Kinv + \Delta\ Mu + \Delta\ Mq}$$

Bunda: Δ Kinv – investitsiyalangan xususiy kapitalning o‘sishi (sotib olingan aksiyalar va qo‘shilgan kapital summasiga farq etuvchi ustav kapitali);

ΔMu – Uzoq muddatli majburiyatlarning o‘sishi

ΔMq – qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasining o‘sishi

Moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari harakati :

“+” oddiy aksiyalarning emissiyasi;

“-” qarzlarni qoplash va dividendlar to‘lovi

12.11-jadval

Pul oqimining to‘g‘ri usulda tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Joriy davr	O‘tgan yilning shu davri
1.	Operatsion faoliyatdan pul oqimi	**OF_0**	**OF_1**
1.1.	Kirim:	**OF_k**	**OFk**
	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari		
	Boshqa tushumlar		
	Jami kirim		
1.2.	Chiqim:	**OFch**	**OFch**
	Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari		
	Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari		
	Boshqa chiqimlar		
	Jami chiqim		
	Operatsion faoliyatning sof kirim, chiqim	**$OF_{Sk/ch}$**	**$OF_{Sk/ch}$**
2.	Investitsion faoliyatdan pul oqimi	**IF_0**	**IF_1**
2.1.	Kirim	**IF_k**	**IF_k**
	Asosiy vositalarni sotish		
	Nomoddiy aktivlarni sotish		

	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		
2.2.	Chiqim	$\mathbf{IF_{ch}}$	$\mathbf{IF_{ch}}$
	Asosiy vositalarni sotib olish		
	Nomoddiy aktivlarni sotib olish		
	Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish		
	Boshqa chiqimlar		
	Investitsion faoliyatdan sof kirim, chiqim	$\mathbf{IFs_{k/ch}}$	$\mathbf{IFs_{k/ch}}$
3.	Moliyaviy faoliyat pul oqimi	$\mathbf{MF_0}$	$\mathbf{MF_1}$
3.1.	Kirim:	$\mathbf{MF_k}$	$\mathbf{MF_k}$
	Olingan foizlar		
	Olingan dvidentlar		
	Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa instumentlardan kelgan pul tushumlari		
	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo‘yicha pul tushumlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul tushumlari		
	Boshqa kirimlar		
	Jami kirim		
3.2.	Chiqim	$\mathbf{MF_{ch}}$	$\mathbf{MF_{ch}}$
	To‘langan foizlar		
	To‘langan dvidentlar		
	Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to‘lovlari		
	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo‘yicha pul to‘lovlari		
	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul to‘lovlari		
	Boshqa chiqimlar		
	Moliyaviy faoliyatdan sof kirim, chiqimi	$\mathbf{MFs_{k/ch}}$	$\mathbf{MFs_{k/ch}}$
4	**Tahlil qilinayotgan davrda pul oqimining jami o‘zgarishi**	$\mathbf{\Delta PO}$	$\mathbf{\Delta PO}$

Pul oqimini egri usuldagi hisob kitoblari natijalari quyidagi jadval ma’lumotlarida aks etgan.

12.12-jadval

Pul oqimini egri usulda tahlili

Ko‘rsatkichlar	Summa, ming.so‘m
Pul oqimini qoldig‘i	171.9
Sof foyda	974.0

Hisoblangan amortizatsiya	897
Asosiy vositlarni hisobdan chiqarishdan natija	-
Boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar	-
Ishlab chiqarish zaxiralaridagi o‘zgarishlar	228
Tugallanmagan ishlab chiqarish xajmidagi o‘zgarishlar	-
Kelgusi davr xarajatlari o‘zgarishi	7075
Tayyor mahsulot xajmidagi o‘zgarishlar	-
Debitorlik majburiyatlari o‘zgarishi	1063
Kreditorlik majburiyatlari o‘zgarishi	1077
Qisqa muddali qo‘yilmalar o‘zgarishi	-
Kelgusi davr daromadlari o‘zgarishi	-
Joriy faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi	
Investitsion faoliyat	
Kirim	889.0
Chiqim	2256.0
Investitsion faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi	-1367
Moliyaviy faoliyat	
Kirim:	570.0
Chiqim:	559.0
Moliyaviy faoliyatdan jami pul oqimi	-11.0
Pul oqimining davr oxiriga qoldig‘i	

Xulosa: Pul oqimining davr boshiga qoldigi 171.9 mln so‘mni tashkil etgan. Joriy davrda Sof foyda 974.0 mln. so‘mni, hisoblangan amortizatsiya (897 mln so‘mni), asosiy vositlarni hisobdan chiqarishdan natija (0.0 mln.so‘m), boshqa korxonalarda qatnashishdan daromadlar (0.0 mln. so‘m), ishlab chiqarish zaxiralaridagi o‘zgarishlar (228 mln so‘m), tugallanmagan ishlab chiqarish xajmidagi o‘zgarishlar (0.0 mln so‘m), kelgusi davr xarajatlari o‘zgarishi (7075 mln so‘m), tayyor mahsulot xajmidagi o‘zgarishlar(0.0 mln so‘m), debitorlik majburiyatlari o‘zgarishi (1063 mln so‘m), kreditorlik majburiyatlari o‘zgarishi (1077 mln so‘m), qisqa muddali qo‘yilmalar o‘zgarishi(0.0 mln so‘m), kelgusi davr daromadlari o‘zgarishi (0.0 mln so‘m), invesstitsion faoliyat kirim (889.0 mln so‘m), investitsion faoliyat chiqimi (2256.0 mln so‘mni), investitsion faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi(1367 mln so‘m),moliyaviy faoliyat kirimi (570.0 mln so‘m), moliyaviy faoliyat chiqimi (559.0 mln so‘m), sof pul oqimi (11.0 mln so‘m)ni tashkil qilgan. Pul mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i 468 mln so‘mga teng bo‘lgan.

12.13-jadval

Buxgalteriya balansining tuzilishi bo‘yicha pul oqimining hisob- kitobi

Balans tarkibi	Belgi	Hisob-kitobi
Aktivlar		

Uzoq muddatli aktivlar	**UMA**	**+**
Joriy aktivlar	**JA**	**+**
Tovar moddiy zaxiralar	**TMZ**	**+**
Debitorlik majburiyatlari	**DM**	**+**
Pul mablag‘lari	**PM**	**+**
Passivlar	**=**	**=**
O‘z mablag‘lari manbasi	**O‘MM**	**+**
Uzoq muddatli kreditlar	**UMKQ**	**+**
Qisqa muddatli kreditlar	**QMK**	**+**
Kreditorlik majburiyatlari	**KM**	**+**

$$\sum A = UMA+TMZ+DM+PM$$
$$\sum P = O‘MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ$$

$$PM= \sum P - \sum A = O‘MM+UMKQ+QMKQ+KMKQ- UMA+TMZ+DM+PM$$

12.7. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlili. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

Pul oqimini omilli tahlilida koeffitsent usulidan foydalaniladi. Bu usul pul oqimini maqsadli boshqarishni yo‘lga qo‘yish yuzasidan quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganishni talab etadi:

- sof pul oqimining yetarliligi;
- sarflangan pul mablag‘larining rentabelligi;

Olingan pul mablag‘larining rentabelligi;

O‘rtacha pul qoldig‘ining rentabelligi.

Sof pul oqimining yetarliligi koeffitsenti quyida formula asosida aniqlanadi.

$$Kpm = PMk / PMch * 100\%,$$

Bu yerda:

PMk –pul mablag‘lari kirimi

PMch – pul mablag‘lari chiqimi

Sarflangan pul mablag‘larining rentabelligi koeffitsenti quyidagi formula asosidja niqlanadi:

$$Rpm_{ch} = F / PMch * 100\%,$$

Bu yerda:

F – korxona faoliyatining moliyaviy natijasi;

Olingan pul rentabelligi koeffitsienti quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$Rpm_{k} = F / PMk * 100\%,$$

Pul mablag‘lari o‘rtacha qoldig‘ining rentabelligi koeffitsenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Rpm_q = F / PMq * 100\%,}$$

Bu yerda:

PMq-pul mablag‘larining o‘rtacha qoldig‘i.

Pul oqimlarining yetarligi, rentabelligi ko‘rsatkichlari pul oqimining shakllanish qatorlari ya’ni operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat bo‘yicha ham olihida va butun xo‘jalik faoliyatidan pul oqimi bo‘yicha ham o‘rganiladi. Bu pul oqimining shakllanishi bo‘yicha har bitta qatorni omilli tahlil etish va boshqarishda ham muhim masala hisoblanadi. Puo qimining moliyaviy koeffitsentlariga ta’sir etuvchi birliklar sifatida moliyaviy natijaviylikning o‘zgarishi, sof pul oqimining o‘zgarishlari, pul mablag‘lari kirimi va chiqimining o‘zgarishlari tarkiblanadi.

12.14-jadval

Pul mablag‘lari bilan bog‘liq moliyaviy koeffitsentlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Belgi	2021y.	2022y.	2023y.
Pul mablag‘lari kirimi, ming so‘m	PMk	4796	6813	9639
Pul mablag‘lari chiqimi, ming so‘m	PMch	4718	6874	9634
Korxona faoliyatining moliyaviy natijasi	F	-202	1866	2089
Pul oqimlarining o‘rtacha qoldig‘i, ming so‘m	POq	79	18	23
Sof pul oqimining yetarliligi	Kpm	101,65	99,11	100,05
Olingan pul mablag‘larining rentabelligi	Rpm_k	-	27,15	21,68
Sarflangan pul mablag‘larining rentabelligi	Rpm_{ch}	-	27,39	21,67
O‘rtacha pul qoldig‘ining rentabelligi	Rpm_q	-	10366,67	9082,61

Xulosa: korxonada sof pul oqimining yetarligi 2021 yilda 101.65 foizni, 2022 yilda 99.11 foizni, 2023 yilda 100.05 foizni tashkil qilgan. Sarflangan pul mablag‘larining tentabelligi mos ravishda 2022 yilda 27.39 foizni, 2023 yilda 21.67 foizni tashkil qilgan.

Omilli tahlil etish metodikasi quyidagi jadvaldagi hisob kitoblar asosida ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Har bitta ta’sir omilining natijaviy ko‘rsatkichga ta’sirini baholashda zanjirli almashtirish usuli orqali hisob kitob qilishimiz mumkin.

Moliyaviy koeffitsentlar	Xisob kitoblar	Jami o‘zgarish	Omillar ta’siri	
			1-omil	2-omil
1.Sof pul oqimining yetarliligi			Pul mablag‘lari kirmining o‘zgarishi	Pul mablag‘lari chiqimining o‘zgarishi
O‘tgan yil	**$Kpm_0 = PMk_0 / PMch_0 * 100\%$**	$Kpm_1 - Kpm_0$	$Kpm_{1,0} - Kpm_0$	$Kpm_1 - Kpm_{1,0}$
Xisobot yil shartli	**$Kpm_{1,0} = PMk_1 / PMch_0 * 100\%$**			
Hisobot yili	**$Kpm_1 = PMk_1 / PMch_1 * 100\%$**			

2.Olingan pul mablag‘larining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o‘zgarishi	Pul mablag‘lari kirimining o‘zgarishi
O‘tgan yil	$Rpm_{k0} = F_0 / PMk_0 * 100\%$	$Rpm_{k1} - Rpm_{k0}$	$Rpm_{k1,0} - Rpm_{k0}$	$Rpm_{k1} - Rpm_{k1,0}$
Xisobot yil shartli	$Rpm_{k1,0} = F_1 / PMk_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{k1} = F_1 / PMk_1 * 100\%$			
3.Sarflangan pul mablag‘larining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o‘zgarishi	Pul mablag‘lari chiqimining o‘zgarishi
O‘tgan yil	$Rpm_{ch0} = F_0 / PMch_0 * 100\%$	$Rpm_{ch1} - Rpm_{ch0}$	$Rpm_{ch1,0} - Rpm_{ch0}$	$Rpm_{ch1} - Rpm_{ch1,0}$
Xisobot yil shartli	$Rpm_{ch1,0} = F_1 / PMch_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{ch1} = F_1 / PMch_1 * 100\%$			
4.O‘rtacha pul qoldig‘ining rentabelligi			Moliyaviy natijalarning o‘zgarishi	Pul mablag‘lari o‘rtacha qoldig‘ining o‘zgarishi
O‘tgan yil	$Rpm_{q0} = F_0 / PMq_0 * 100\%$	$Rpm_{q1} - Rpm_{q0}$	$Rpm_{q1,0} - Rpm_{q0}$	$Rpm_{q1} - Rpm_{q1,0}$
Xisobot yil shartli	$Rpm_{q1,0} = F_1 / PMq_0 * 100\%$			
Hisobot yili	$Rpm_{q1} = F_1 / PMq_1 * 100\%$			

12.8. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullari

Pul mablag‘larini muddatdagi qiymatini aniqlash diskontlashni talab etadi. Bu jarayonga juda ko‘p omillar ta’sir qiladi: inflyatsiya, risklar, likvidlik va h.k.

Pul mablag‘larining muddatdagi qiymatini aniqlash investorlarga pul mablag‘larini joylashtirishning samaradorligi va natijaviyligini baholashga imkon beradi. Naqd pul oqimining kelajakdagi qiymatini aniqlashning asosiy kamchiligi uning noaniqligidir. Lekin bu noaniqlik riskini aniq hisob-kitoblar va taxminlar asosida kamaytirish mumkin.

Pulning muddatdagi qiymati baholangan kelgusi pul oqimlarini diskontlash orqali inobatga olinishi sababli, ushbu pul oqimlari moliyalashtirish faoliyatlari bo‘yicha pul kirimlari yoki chiqimlarini o‘z ichiga olmaydi. Xuddi shuningdek, diskont stavkasi soliqdan oldingi asosda aniqlanishi tufayli, kelgusi pul oqimlari ham soliqdan oldingi asosda aniqlanadi.

Pulning joriy qiymatining kelgusida qanday daromad keltirishini quyidagi formula asosida hisoblash mumkin.

$$FV = PV \cdot (1+i)^N$$

Bu yerda PV –pul oqimining joriy qiymati (bugungi pul mablag‘lari summasi);

i – foiz stavkasi;

N – davrlar soni.

Quyida, 1500,0 mln so‘m 5 yilga, 7.5 foizli stavkada investitsiya qilinishi, depozitga qo‘yilishi qancha daromad olib kelishini hisob-kitob qilishimiz mumkin.

12.15-jadval

Pulning kelgusi qiymati hisob-kitobi

Davr	**Belgi**	**Pulning kelgusi qiymati,** mln.so‘m
Datslabki pul	FV_0	1500,0
Birinchi yili	FV_1	$1500.0 * (1+0,075)^1=1612,50$
Ikkinchi yili	FV_2	$1612,50 * (1+0,075)^1=1733,44$
Uchinchi yili	FV_3	$1733,44 * (1+0,075)^1=1863,45$
Тщrtinchi yili	FV_4	$1863,45 * (1+0,075)^1=2003,20$
Beshinchi yili	FV_5	$2003,20 * (1+0,075)^1=2153,44$

$$\boldsymbol{FV=1500*(1+0,075)^5=2153,44\ mln.so‘m}$$

Demak korxona tomonidan 1500.0 mln. so‘m mablag‘ 5 yildan keyin 2153.44 mln so‘mga aylanadi.

Tadbirkorlik sub’ekti aktivning foydalanishdagi qiymatini baholash uchun qaysi yondashuvni tanlashidan qat’iy nazar, pul oqimlarini diskontlashda foydalaniladigan foiz stavkalari baholangan pul oqimlari to‘g‘rilangan risklarni aks ettirmasligi zarur[122].

Diskont stavkasi tadbirkorlik sub’ektining kapital tuzilishidan va tadbirkorlik sub’ekti aktivni sotib olishni moliyalashtirgan usuldan mustaqildir, chunki aktivdan yuzaga kelishi kutilgan kelgusi pul oqimlari tadbirkorlik subyekti aktivni sotib olishni moliyalashtirgan usulga bog‘liq emas.

12.9. Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlili

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini

[122] БҳХС-36. Активларнинг кадрсизланиши

takomillashtirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Maqbul miqdorda tashqi qarzlarni jalb qilish bo‘yicha izchil amalga oshirilayotgan siyosat O‘zbekistonning majburiyatlarini o‘z vaqtida bajaradigan ishonchli, to‘lovga layoqatli xalqaro sherik sifatidagi imidjini ta’minladi, keyinchalik valyuta kursini liberallashtirish uchun zarur oltin-valyuta zaxirasini shakllantirish, valyuta resurslarini real iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va diversifikatsiya qilishning ustuvor sohalariga yo‘naltirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini bermoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag‘batlantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, valyuta bozorini yanada liberallashtirishga muhim axamiyat qaratilgan va uning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq «Valyuta boyliklari» qatoriga quyidagilar kiradi:

-chet el valyutasi;

-qimmatli qog‘ozlar – chet el valyutasidagi fond boyliklari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar);

-chet el valyutasidagi to‘lov hujjatlari (cheklar, veksellar, akkreditivlar va boshqalar);

-qimmatbaho metallar – har qanday ko‘rinish va holatdagi oltin, kumush, platina hamda platina guruhiga kiruvchi (palladiy, iridiy, rodiy, ruteniy va osmiy), metallar shunday metallardan ishlangan zargarlik buyumlari va boshqa ro‘zg‘or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno;

-tabiiy qimmatbaho toshlar – sayqal berilgan va sayqal berilmagan shakldagi olmos, la’l, zumrad, yoqut, aleksandrit, shuningdek marvarid, shunday toshlardan ishlangan zargarlik va boshqa ro‘zg‘or buyumlari hamda ularning parchalari bundan mustasno.

Chet el valyutasiga-tegishli ajnabiy davlatda muomalada bo‘lgan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblangan banknot ko‘rinishdagi chet el pul

belgilari, shuningdek muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan, ammo O‘zbekiston Respublikasi pul belgilariga almashtirilishi lozim bo‘lgan chet el pul belgilari, schyotlarda va omonatlarda bo‘lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi va xalqaro hisob-kitob birliklaridagi mablag‘lar kiradi.

Chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari yoki xorijiy davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan hujjatlaridir[123].

Glaballashgan iqtisodiyot, shuningdek dunyo iqtisodining yagonalashuvi bilan davlatlar o‘rtasidagi savdo iqtisodiy munosabatalar tabora kengayib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida xar bitta xo‘jalik yurituvchi sub’ektni eksport-import operatsiyalariga undamoqda. Eksport-import operatsiyalarida ijobiy farqlanishga erishish albatta korxonalar oldiga ham bir qadar murakkab vazifalarni hal etishni va uning mustaxkam zaminini yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

Bir mamlakat doirasida ko‘p turdagi raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati cheklangan. Tashqi bozor maxalliy ishlab chiqaruvchilarning o‘zlari uchun ustun bo‘lgan faoliyat turlari bilan keng doirada shug‘ullanishlariga imkon beradi, ularning faoliyat doirasini kengaytiradi.

Tashqi iqtisodtiy faoliyat nafaqat ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi, balki erkin xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini, shuningdek aholining turmush farovonligini oshirishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot shakliga ilova sifatida xorijiy valyutada pul mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotnoma tuziladi. Unda hisobot davrida xorijiy valyutada pul mablag‘larining to‘liq harakati ko‘rsatiladi.

Valyuta mablag‘lari operatsiyalarni amalga oshirish paytida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag‘lari qoldig‘i esa - hisobot davrining oxirgi sanasida aks ettiriladi.

Ushbu ma’lumotnomaga asosan korxonaning valyuta mablag‘larini harakati tahlil qilinadi.

Korxona tomonidan kirimga olingan valyuta mablag‘lari qatorida: korxona tomonidan hisobot davrida olingan valyuta tushumi summasi; sotib olingan xorijiy valyuta summasi; moliyaviy faoliyatdan olingan valyuta mablag‘lari summasi; korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasiga boshqa valyuta tushumlari summasi aks etadi.

[123] ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ҚОНУНИ “ВАЛЮТАНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ТЎҒРИСИДА” Тошкент ш.,1993 йил 7 май, 841-XII-сон

Korxona tomonidan turli maqsadlarga sarflangan valyuta mablag‘larining qatoriga: mol-mulkni olishga, bajarilgan ishlarga va ko‘rsatilgan xizmatlarga sarflangan valyuta mablag‘lari summasi; moliyaviy faoliyat bo‘yicha sarflangan valyuta mablag‘lari summasi; boshqa maqsadlarga sarflangan valyuta summasi aks etadi.

Chet el valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan musbat yoki manfiy kurs farqlari, hisobot yili boshiga va oxiriga korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasida bo‘lgan valyuta mablag‘lari alohida qatorlar bo‘yicha aks ettiriladi.

Tahlil etishda valyutu mablag‘lari balansiga muhim ahamiyat qaratiladi. Valyuta balansi quyidagi birliklar ifodasini jamlashni xarakterlaydi.

$$Vb+Vk=Vch+Vo$$

Bu yerda:

Vb-valyuta mablag‘lari davr boshiga;

Vk-valyuta mablag‘lari kirimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotishdan va boshqa tushumlardan);

Vch-faloyuta malbag‘lari chiqimi (mahsulot, tovar, ish va xizmatlarni sotib olishdan va boshqa chiqimlar);

Vo-valyuta mablag‘larining davr oxiriga qoldig‘i.

Valyuta mablag‘lari buyicha o‘z o‘zini moliyalashtirish masalasi xujalik sub’ektlarining oldidagi eng muhim masala hisoblanadi. Negaki bazan import tovarlari yuzasidan valyuta mablag‘lariga bo‘lgan extiyoj turli qiyinchiliklar tufayli doimo ham hal etilmaysligining sababi ham shundan kelib chiqadi. Shu sababli ham eksport –import operatsiyalaridagi ijobiy qoldiqqa chifish talab etiladi.

Valyuta mablag‘lari bilan moliyalashtirish samaradorligini baholash moliyaviy koeffitsentlar orqali baholanadi. Ushbu koeffitsent quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$\mathbf{Kvm=F+A/K+V}$$

Bu yerda:

Kvm — valyuta mablag‘lari bilan moliyalashtirish koeffitsenti;

F-valyuta mabalag‘larida ishlab chiqarishni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan foyda summasi

A-valyuta mablag‘lari hisobiga olib kelingan asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

K-valyuta krediti;

V-banklardan va birjadan sotib olingan valyuta

Koeffitsent qancha yuqori bo‘lsa o‘z o‘zini moliyalashtirish darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

Valyuta mablag‘lari bilan qoplanish koeffitsenti (Kqk) quyidagi

formula asosida topiladi.

Kqk=Vb+Vk/Vch

Vb-valyuta mablag‘lari davr boshiga qoldig‘i;

Vk-hisobot davrida valyuta mablag‘lari kirimi;

Vch-hisobot davrida valyuta mablag‘lari chiqimi.

Kqk> 1,0 dan yuqori bo‘lishi bo‘lishi o‘z o‘zini moliyalashtirish shartlarining bajarilganligini bildiradi.

2017 yilning sentyabr oyidan boshlab valyuta kursi shakllanishining bozor mexanizmlariga o‘tilishi va ichki valyuta bozori faoliyatining erkinlashtirilishi nafaqat pul-kredit sohasida, balki butun iqtisodiyotda ijobiy tomonga tub o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun muhim zamin yaratdi.

O‘z navbatida, valyuta kursining bozor mexanizmlariga o‘tilishi ya’ni, joriy talab va taklif asosida shakllanishi iqtisodiyotdagi valyuta resurslarining samarali taqsimlash mexanizmi yaratilishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz tashqi savdo operatsiyalarining asosiy qismi AQSh dollarida amalga oshirilishini inobatga olib, so‘mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kurslarini belgilashda operatsion mo‘ljal sifatida so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursidan foydalanilmoqda.

12.16-jadval

Chet el valyutasidagi mablag‘larning xarakati to‘g‘risida MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	2017 yil	2016 yil	Farqi
Yil boshiga qoldiq	**250**	14 522	30264	
Kelib tushgan valyuta mablag‘lari, jami (satr 261+262+263+264), shu jumladan	**260**	524 362	801 235	
Sotishdan olingan tushum	**261**			
Konvertatsiya qilingan	**262**			
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha	**263**			
Boshqa manbalar	**264**			
Sarflangan valyuta mablag‘lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan	**270**	508 260	763 210	
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar	**271**			

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha to‘lovlar	**272**			
Boshqa maqsadlar uchun	**273**			
Chet el valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	**280**			
Yil oxiridagi qoldiq (satr. 250+260-270+/-280)	**290**	30264	68 289	

Xulosa: korxonada o‘tgan yilda valyuta mablag‘larining davr boshiga qoldig‘i 14522 ming dollorni, valyuta kirimi 524 362 ming dollorni, valyuta chiqimi 508 260 ming dollorni, valyuta mablag‘larining joriy davrdagi kirimi 801 263 ming dollorni, valyuta mablag‘lari chiqimi 763 210 ming dollorni tashkil qilgan.Joriy yil oxiriga valyuta mablag‘larining naqd qoldig‘i 68 289 ming dollorni tashkil qilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Pul mablag‘larini oqilona boshqarish nima uchun zarur?
2. Pul oqimlarining sof harakati nima?
3. Pul mablag‘lariga qanday mablag‘lar kiradi?
4. Pul ekvivalentlariga nimalar kiradi?
5. Pul oqimlari deganda nimani tushunasiz?
6. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va mazmunini tushuntiring?
7. Operatsiya faoliyatdan pul oqimiga nimalar kiradi?
8. Investitsiya faoliyatidan pul oqimiga nimalar kiradi?
9. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimiga nimalar kiradi?
10. Pul oqimini tahlil etishni o‘rganish maqsadi va vazifalari?
11. Tahlil uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va ularning kamchiliklari?
12. Korxonaning pul mablag‘lari bilan ta’minlanganligi va ular oqimini tahlil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntiring?
13. Tadbirkorlik subyektlarining daromad keltiruvchi faoliyat turlariga nimalar kiradi?
14. Pul mablag‘laridan samarali foydalanishni tashkil etishni qanday yo‘lga qo‘yish mumkin?
15. Pulni aylanish doiraviy aylanishlarini tarmoq va faoliyat turlari bo‘yicha farqlanishini tushuntiring?
16. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi va asosiy elementlarini tasniflang?
17. Pul oqimining yo‘nalishlari (cash flow) nimalar kiradi?
18. Sof pul oqimining gorizontal va vertikal tahlilini tushuntiring?
19. Asosiy faoliyatdan pul oqimini tarkibiy tahlili?
20. Pul oqimlarining bashoratlash qanday amalga oshiriladi?
21. Asosiy faoliyat, moliyaviy va investitsion faoliyatdan pul oqimlari

tahlilini tushuntiring?

22. Pul oqimlarini tahlil qilishning to‘g‘ri va egri uslubini tushuntiring?
23. Pul oqimlarini boshqarishning omilli tahlilini izoxlang?
24. Pul oqimlari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash?
25. Pulning muddatdagi qiymati, foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tushuntiring?
26. Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlilini tushuntiring?
27. Pul oqimlaridagi o‘zgarish tendensiyalarini tahlilini tushuntirib bering.
28. Foiz stavkalari va ularni hisoblash usullarini tasniflab bering?
29. Valyuta mablag‘lari xarakatining tahlilini tushuntiring?

XIII BOB. XUSUSIY KAPITAL TARKIBI VA UNING TAHLILI

13.1. Xususiy kapitalni tahlil etish maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbaalari

Iqtisodiyotni liberallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish nafaqat iqtisodiy jihatdan balki moliyaviy jihatdan ham mustaxkam tayanchni talab etadi. Shu sababli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy salohiyatini baholashda o‘z mablag‘larining qiymatiga, ularning jami kapital tarkibidagi salmog‘iga, majburiyatlarga bilan nisbatdagi chegaralariga muhim ahamiyat qaratiladi.

Xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xususiy kapital tushunchalariga ta’riflar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”da hamda “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”da keltirilgan[124].

Xususiy kapital (sarmoya) - sub’ektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir. Sub’ekt majburiyatlari - sub’ekt (qarzdorning) boshqa sub’ekt (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to‘lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti-harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir.

Aktivlar - sub’ekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Demak yuqoridagi ta’rif va tasniflashdan quyidagi bog‘lanishni berib o‘tish mumkin:

Xususiy kapital(XK)=Aktivlar(A) - Majburiyatlar(M)

Xususiy kapital ustav, qo‘shilgan, zaxiralar sarmoyadan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir. Zarur hollarda ustav, qo‘shilgan, zaxira kapitali tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog‘liqdir.

Xususiy kapital ustav fondidan (ustav kapitalidan), qo‘shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pulda ifodalangan holdagi) yig‘indisini aks ettiradi. Ustav fondiga (ustav

---

[124]1998 йил 26 июлда 17-07/86-сон билан тасдиқланган Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос (рўйхат рақами 475, 1998 йил 14 август, “Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий ҳужжатлари ахборотномаси”, 1999 йил, 5-сон) ҳамда “Ҳисоб сиёсати ва молиявий ҳисобот”да (рўйхат рақами 474, 1998 йил 14 август)Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигида 1998 йил 26 июлда 17-07/85-сон билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Бухгалтерия ҳисоби миллий стандарти (1-сон БҲМС)

kapitaliga) hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta’sischilar (ishtirokchilar) o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo‘shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav fondini (ustav kapitalini) shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo‘ladigan inflyatsiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg‘arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilishi mumkin[125].

Mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, korxonalarda ustav kapitali (fondi) miqdori mazkur korxona tashkil bo‘lganda tasdiqlangan ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan miqdorga teng bo‘ladi. Uning miqdori yil davomida o‘zgarmaydi.

Xususiy kapital tahlili maqsadi- xususiy kapitalni shakllantirishning asosiy manbaalarini o‘rganish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish imokniyatlarini aniqlashdan iborat.

Xususiy kapital tahlilining asosiy vazifalari:

-tahlil uchun zarur bo‘lgan axborotlar bazasini (ustav kapitalini ko‘paytirish, undan foydalanish, tasarruf etish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlar to‘plamini) shakllantirish;

-qonun xujjatlari va xo‘jalik yurituvchi sub’ektning ustavida belgilangan normalariga amal etilishini baholash;

-xususiy kapital va uning tarkibiy, dinamik o‘zgarishlariga baho berish;

-xususiy kapitaldan samarali foydalanish darajasini o‘rganish;

-xususiy kapital samaradorligini oshirishning imkoniyatlarini aniqlash va yo‘lga qo‘yish.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbaalariga «Buxgalteriya balansi» va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi.

Buxgalteriya balansida xususiy kapital va uning tarkibiy birliklari haqidagi ma’lumotlar hisobt davri boshiga va oxiriga xaqiqiy, tan olingan qiymati bo‘yicha aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansida o‘z sarmoyasi va ularni oshkor qilish xo‘jalik

[125] Ўзбекистон республикасининг Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонун (янги таҳрир), 2016 йил 13 апрель, 19-модда. Хусусий капитални ҳисобга олиш

yurituvchi sub’ektning moliyaviy ahvolini tahlil qilishda moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun yordam bera oladigan axborotlarni aks ettirishni tasniflaydi. Buxgalteriya balansida xususiy sarmoyani umumiy summasigina oshkor qilinishi kerak.

Xususiy kapital va uning tarikibiy qismlari haqidagi axborotlarni tarkibiy qismi sifatida ochib berilishi 14 son BXMS bilan tariblanadi. Barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (banklar va byudjet tashkilotlaridan tashqari) xususiy kapital to‘g‘risidagi axborotni tayyorlash va ochib berish jarayonida mazkur standart talablarini bajarishlari kerak.

O‘z sarmoyasi (xususiy kapital) to‘g‘risidagi hisobotda o‘z sarmoyasining harakati, zaxiralarni shakllantirish, to‘lash uchun hisoblangan dividendlar to‘g‘risidagi axborot taqdim etiladi.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tuzish maqsadi bo‘lib, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo‘lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o‘zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotga bo‘lgan tushuntirishda xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xususiy kapitalining qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra kamayib ketganligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Hisobotning xususiy kapital to‘g‘risidagi qismiga oid tushuntirish xati “Hisob siyosati va moliyaviy hisobotlar” Buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS)da nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuziladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to‘g‘risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

a) obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;

b) nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

v) aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi;

g) ayrim turlar va toifalar bo‘yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

d) imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

ye) aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, xususan, to‘lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to‘g‘risida;

j) hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo‘shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo‘shib yuborilishigacha va undan keyingi

aksiyalarning nominal qiymati to‘g‘risidagi.

Aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo‘yicha keltiriladi:

a) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag‘lari, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyalar uchun to‘lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;

v) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chet el valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko‘rsatilgan holda.

Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo‘yicha keltiriladi:

a) chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to‘lanmagan qismi ko‘rsatilgan holda;

b) aksiyaning nominal qiymati;

v) muomalada bo‘lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o‘zgartirishlar;

g) aksiyalar bilan bog‘liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo‘yicha cheklashlar;

d) jamiyatning o‘ziga, uning shu’ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;

ye) ular egalik qilayotgan muassislar ro‘yxati va aksiyalar soni;

j) ijroiya organi a’zolarining mulki bo‘lgan aksiyalar soni;

z) opsionlar va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko‘rsatilgan holda;

i) konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog‘ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyatlar.

Boshqa barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to‘g‘risidagi axborotni keltiradilar:

a) egalik qiluvchilar o‘rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;

b) ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar yoki cheklashlar;

v) ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o‘zgartirishlar.

13.2. Xususiy kapitalning tarkibiy tuzilishi: ustav fondi (ustav kapitali), qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditga oid qonunchilik

normalarida “o‘z sarmoyasi”, “o‘z sarmoyasi manbaalari”, “o‘z mablag‘lari manbaalari”, “xususiy sarmoya”, “xususiy kapital” degan tushunchalar keng uchraydi. Ularning barchasi bitta mazmunni ya’ni, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘zigagina tegishli bo‘lgan mablag‘larni ifoda etadi.

Xususiy kapital tarkibiga quyidagi tarkibiy birliklar kiradi:

-ustav kapitali;

-rezerv kapitali;

-qo‘shilgan kapital;

-taqsimlanmagan foyda va qoplanmagan zarar.

Buxgalteriya balansining “O‘z mablag‘lari manbaalari”(“Xususiy sarmoya”) bo‘limida ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, zaxira kapitali, sotib olingan o‘z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari aks etadi.

13.1-jadval

Buxgalteri yabalansida “O‘z sarmoyasi” va uning tarkibiy birliklari

13. O‘z mablag‘lari manbalari	**Balans satri**
Ustav kapitali (8300)	410
Qo‘shilgan kapital (8400)	420
Rezerv kapitali (8500)	430
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450
Maqsadli tushumlar (8800)	460
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480

13.2-jadval

Xususiy kapital to‘g‘risidagi xisobot va uning tarkibiy birliklar.

Ko‘rsatkichlar nomi	**Satr kodi.**	**Ustav kapitali**	**Qo‘shilgan kapital**	**Rezerv kapitali**	**Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)**	**Sotib olingan xususiy aksiyalar**	**Maqsadli tushumlar va boshqalar**	**Jami**
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
Yil boshidagi qoldiq	010	614 384	-	5 737 851	507 694	-	885 865	7 745 794
Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi	020	213 818	-	x	x	x	x	213 818
Uzoq muddatli	030	x	x	2 383	x	x	x	2 383 571

aktivlarni qayta baholash				571				
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari	040	x	-	x	x	x	x	-
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050	x	x	-	-	x	x	-
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x	-	x	x	-
Tekinga olingan mol-mulk	070	x	x		x	x	x	-
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar	080	x	x	x	x	x	-	-
Hisoblangan dividendlar	090	x	x	x	284 293	x	x	-284 293
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100	-	-	-	-	-	65 341	65 341
Yil oxiridagi qoldiq Ostatok na kones goda	**110**	828 203	-	8 121 423	223 400	-	951 207	10 124 233
Xususiy kapitalining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)	120	+213 818	-	+2 383 571	-284 293	-	+65 341	+2 378 439
MA’LUMOT UChUN:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona[126]	130	x	x	x	x	x	x	1830762911
shu jumladan:								
imtiyozli	131	x	x	x	x	x	x	

[126] Ўзбекистон темир йўллари АЖ устави(янги тахрири) 2017 йил 23-октябр-22-сон, №-397778 27.10.2017

oddiy	132	x	x	x	x	x	x	1830762911
Aksiyaning nominal qiymati	140	x	x	x	x	x	x	430
Muomaladagi aksiyalar soni, dona	150	x	x	x	x	x	x	1830762911
shu jumladan:								
imtiyozli	151	x	x	x	x	x	x	
oddiy	152	x	x	x	x	x	x	1830762911

Xususiy kapital tarkibiy taxlilining asosiy yo‘nalishlari quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi.

Xususi sarmoya tarkibi va xarakatining tahlili: davr boshiga qoldig‘i; xisobot davrida kelib tushgani; hisobot davrida ishlatilgani; xisobot davri oxiriga qoldig‘i; qoldiqlarning mutlaq o‘zgarishlari; o‘sish darajasi; kirib kelish koeffitsenti; chiqib ketish koeffitsenti tahlili.

Xususiy kapital tarkibini tahlil etish muhim funksiyalarni bajarish imkonini beradi. Jumladan: faoliyatning uzluksizligini ta’minlash; kapital, karzlar va zararlardan himoya qilinganlik darajasining kafolatini berish; olingan foydani ishlatishda qatnashish; korxona boshqaruvida ishtirok etish kabi.

Xususiy kapital tarkibiy tuzilishida quyidagi ko‘rsatkichlar baholanadi:

Ustav kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog‘i koeffitsenti;

Kuk= UK/XK (O‘MM)

Bu yerda:

Kuk-ustav kapitalining o‘z sarmoyasi tarkibidagi salmog‘i

UK-ustav kapitali;

XK(O‘MM)-xususiy kapital (O‘z mablag‘lari manbasi)

Ustav kapitalining o‘z sarmoyasi tarkibigi samog‘ini ifoda etadi va ushbu ko‘rsatkich xususiy kapital tarkibida eng muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog‘i koeffitsenti:

Ktf= TF/ XK (O‘MM)

Bu yerda:

Ktf – taqsimlanmagan foydaning xususiy kapital tarkibidagi salmog‘i koeffitsenti;

TF-taqsimlanmagan foyda.

Taqsimlanmagan foyda summasining xususiy kapital tarkibidagi salmog‘ini ifoda etadi.

Xususiy kapitalning kompleks tahlilda yuqoridagi tartibda rezerv kapitali, qo‘shilgan kapital va o‘z sarmoyasining boshqa tarkibiy qismlari bo‘yicha ham salmoq dapjalari va ularning o‘zgarishlariga baho beriladi.

Xususiy kapitalning o‘sish darajasi:

$$O‘_{xk} = XKdo / XKdb \times 100\%$$

Bu yerda:

XKdo; XKdb-davr boshi va oxiriga xususiy kapital;

13.3-jadval

Xususiy kapitalning gorizontal va vertikal tahlili

Ko‘rsatkichlar	Davr boshi		Davr oxiri		Farqi, +,-		O‘sishi, %
	Summa	Foiz, %	Summa	Foiz, %	Summa	Foiz, %	
O‘z mablag‘lari manbasi jami	7 745 794 466	100.00	10 124 233 076	100.00	+2378438610	0.00	130,7
Ustav kapitali	614 384 306	7.92	828 202 670	8.19	+213818364	+0,27	134,8
Qo‘shilgan kapital	-	-	-	-	-		
Rezerv kapitali	5 737 851 427	74.08	8 121 422 920	80.22	+2383571493	+6,14	141,54
Sotib olingan xususiy aksiyalar	-	-	-	-			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	507 693 607	6.55	223 400 675	2.08	-284292935	-4,47	-44,0
Maqsadli tushumlar							
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar	885 865 126	11.44	951 206 811	9.41	+65341685	-2,03	107,4

Xulosa: Korxona o‘z mablag‘lari mnabasi davr boshiga nisbatan +2378438610 ming so‘mga ortgan. O‘sish darajasi 130.7 foizni tashkil etgan. Shu jumladan ustav kapitalining o‘zgarishi mos ravishda +213818364 ming so‘mga, rezerv kapitalining o‘zgarishi +2383571493 ming so‘mga, maqsadli

tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar xajmi +65341685 ming so‘mga ortgan. O‘z mablag‘lari tarkibida taqsimlanmagan foyda summasi davr boshiga nisbatan -284292935 ming so‘mga qamaygan.

Eng yuqori o‘sish darajalari ustav kapitali (134.8 %) hamda rezerv kapitali (141.54%) qatoriga to‘g‘ri kelgan.

13.4-jadval

Korxonaning jamlangan buxgalteriya balansi

Xususiy kapital	**2022 -2023yy.**				
	01-yanvar 2022	**01-aprel 2022**	**01-iyul 2022**	**01-okt 2022**	**01-yanvar 2023**
1.O‘z mablag‘lari manbasi	7 745 794 466	8 567 616 791	8 644 944 914	8 963 743 430	10 124 233 076
O‘zgarishi,+,-	**+2378438610**	**+1556616285**	**+1479288162**	**+1160489646**	
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670
O‘zgarishi+,-	**+213818364**	**+213818364**	**+213818364**	**+213818364**	
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
O‘zgarishi+,-	**+2383571493**	**+7485367457**	**+1640595859**	**+1530934492**	
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
O‘zgarishi+,-	**-284292935**	**-193352348**	**-121528119**	**+62403835**	
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
O‘zgarishi+,-	**+65341685**	**-224717188**	**-253597942**	**-646667045**	

13.3. Xususiy kapital va uning o‘zgarishining tahlili

Xususiy kapital va uning o‘zgarishini baholashda kapitalning davr boshi va oxiriga o‘zgarishlariga va o‘zgarish sabablariga baho beriladi. Kapitalning o‘zgarishi jamlangan qator va uning tarkibiy birliklari bo‘yicha alohida o‘rganiladi.

Xususiy kapital o‘zgarishiga ta’sir etuvchi birliklarga: ustav sarmoyasi, qo‘shilgan sarmoya, zaxira sarmoyasi, sotib olingan o‘z aksiyalar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda

bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralarining o‘zgarishi ta’sir etadi. Jumladan qimmatli qag‘ozlar emissiyasi bilan bog‘liq jarayonlar ustav va qo‘shilgan sarmoyaning o‘zgarishiga; uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash rezerv kapitali o‘zgarishiga; ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari qo‘shilgan kapital o‘zgarishiga; Rezer kapitaliga ajratmalar rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda o‘zgarishlariga; joriy yilning taqsimlanmagan foydasi jamlangan, taqsimlanmagan foydaning o‘zgarishiga; tekinga olingan mol-mulk rezerv kapitali o‘zgarishiga; hisoblangan dividendlar taqsimlanmagan foyda o‘zgarishiga ta’sir etadi. Xususiy kapitalning shakllanishining yuqorida keltirilgan manbaalaridan tashqari boshqa manbaalari barcha tarkibiy birliklarni o‘zgarishiga ta’sir etadi.

12.5-jadval

Xususiy kapital va uning o‘zgarishi tahlili

Ko‘rsatkichlar nomi	Ustav kapitali	Qo‘shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
A	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**
Yil boshidagi qoldiq	614 384	-	5 737 851	507 694	-	885 865	7 745 794
Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi	213 818	-	x	x	x	x	213 818
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	x	x	2 383 571	x	x	x	2 383 571
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari	x	-	x	x	x	x	-
Rezerv kapitaliga ajratmalar	x	x	-	-	x	x	-
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	x	x	x	-	x	x	-
Tekinga olingan mol-mulk	x	x		x	x	x	-
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar	x	x	x	x	x	-	-
Hisoblangan dividendlar	x	x	x	284 293	x	x	-284 293
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	-	-	-	-	-	65 341	65 341

Yil oxiridagi qoldiq Ostatok na kones goda	828 203	-	8 121 423	223 400	-	951 207	10 124 233
Xususiy kapitalining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)	**+213 818**	**-**	**+2 383 571**	**-284 293**	**-**	**+65 341**	**+2 378 439**

Xulosa: Korxonada xususiy kapitalning davr boshiga nisbatan o‘zgarishi 2 378 439 mln so‘mni tashkil etgan. Uning tarkibiy o‘zgarishlari ustav kapitalining oshirilishi (213 818 mln so‘m), rezerv kapitali hisobiga (2 383 571 mln so‘m) hamda maqsadli tushumlar va boshqa manbalar hisobiga (65 341 mln so‘m) ro‘y bergan. Jamiyatning xususiy kapitali tarkibida eng yuqori ko‘rsatkich rezerv kapitali htisobiga to‘g‘ri keladi va uning qiymati davr boshida 5 737 851 mln so‘mni davr oxirida 8 121 423 mln so‘mni tashkil etgan. Rezerv kapitalining xususiy kapital tarkibidagi salmog‘i mos ravishda 74.1 %, 80.2 % ni tashkil etgan hamda davr boshiga nisbatan 6.1 % ga ortgan.

13.4. Xususiy kapitalning dinamik tahlili

Xususiy kapitlaning dinamik tahlilida xususiy kapitalning yaqin va uzoq davriylikdagi mutlaq, nisbiy o‘zgarishlariga baho beriladi.

Dinamik tahlilda xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi, holati va samaradorligi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi yillar kesimida baholanadi. Tarkib bo‘yicha ustav, qo‘shilgan, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydaning o‘zgarishlari, tuzilishi bo‘yicha tarkib birliklarining salmoq bo‘yicha o‘zgarishlari; samaradorlik (daromadlik va rentabellik) ko‘rsatkichlarining o‘tgan yillarga nisbatan o‘zgarishlariga baho beriladi.

12.6-jadval

Korxonada xususiy kapital tahlili

Xususiy kapital	**2022 -2023yy.**				
	01-yanvar 2022	**01-aprel 2022**	**01-iyul 2022**	**01-okt 2022**	**01-yanvar 2023**
1.O‘z mablag‘lari manbasi	7 745 794 466	8 567 616 791	8 644 944 914	8 963 743 430	10 124 233 076
O‘zgarishi,+,-	**+2378438610**	**+1556616285**	**+1479288162**	**+1160489646**	
Ustav kapitali	614 384 306	614 384 306	614 384 306	614 384 306	828 202 670

O‘zgarishi+,-	**+213818364**	**+213818364**	**+213818364**	**+213818364**	
Rezerv kapitali	5 737 851 427	6 360 555 463	6 480 827 061	6 590 488 428	8 121 422 920
O‘zgarishi+,-	**+2383571493**	**+7485367457**	**+1640595859**	**+1530934492**	
Taqsimlanmagan foyda	507 693 607	416 753 023	344 928 794	160 996 840	223 400 675
O‘zgarishi+,-	**-284292935**	**-193352348**	**-121528119**	**+62403835**	
Boshqa manbalar	885 865 126	1 175 923 999	1 204 804 753	1 597 873 856	951 206 811
O‘zgarishi+,-	**+65341685**	**-224717188**	**-253597942**	**-646667045**	

Xulosa: Korxonada o‘z mablag‘lari manbasi 2017 yil choraklari bo‘yicha tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki sub’ektning xususiy kapitali xajmi davr boshiga nisbatan +1160489646 ming so‘mga ortgan. Uning yilning choraklari bo‘yicha o‘zgarishlari mos ravishda birinchi chorakga nisbatan +1556616285 ming so‘mga, ikkinchi chorakka nisbatan +1479288162 ming so‘mga teng bo‘lgan. Xususiy kapitalning tarkibiy o‘zgarishlar davr boshiga nisbatan quyidagicha bo‘lgan:

-Ustav kapitali bo‘yicha jami o‘zgarish +213818364 ming so‘mga;

-Rezerv kapitali bo‘yicha o‘zgarish davr boshiga nisbatan +2383571493 ming so‘mga;

-Taqsimlanmagan foyda bo‘yicha o‘zgarish -284292935 ming so‘mga:

-maqsadli tushumlar va boshqa manbalar hisobiga o‘zgarish +65341685 ming so‘mga teng bo‘lgan.

13.5. Sof aktivlar tahlili va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

Sof aktivlar. Bu tushuncha bilan aksionerlik tashkilotlari va ma’suliyati cheklangan jamiyatlar bilan hamkorlikda ishlayotgan buxgalter va auditorlar tez-tez to‘qnash kelishadi.

Sof aktivlar deganda-xo‘jalik yurituvchi sub’ektning o‘z mablag‘lari bilan ta’minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymati, ya’ni xo‘jalik yurituvchi subyektning qarz majburiyatlaridan ozod bo‘lgan mol-mulk qiymati tushuniladi[127].

Oddiy qilib aytganda:

Sof aktivlar = Aktivlar – Majburiyatlar

Demak:

[127] 14-сонли БҲМС “Хусусий капитал тўғрисида ҳисобот”нинг 10-банди

Jamiyatning ustav kapitalini ko‘paytirishga qaratilgan mol-mulki	=	Sof aktivlar	-	Ustav kapitali (fondi)	-	Zaxira kapitali

Bugungi kunda korxonalarning aksariyat qismi mulkchilikning eng keng shakli, ma’suliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tashkil etilmoqda. Ushbu jamiyatlarda ustav kapitali 3 xil tartibda ko‘paytirilishi mumkin:

a) jamiyatning mol-mulki hisobiga;

b) jamiyat ishtirokchilarining qo‘shimcha hissalari hisobiga;

v) jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalari hisobiga.

Yuqoridagilardan kelib chiqsak, jamiyatning mol-mulki hisobiga ko‘paytirish qo‘shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlarni uchun zaxiralardan sotib olingan xususiy ulushlarni (aksiyalarni) ayirib tashlagan holdagi natijaga amalga oshirish kerakligi belgilangan.

Qo‘shilgan kapital, maqsadli tushumlar va kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlarni uchun zaxiralar hisobiga ustav kapitalini ko‘paytirishning umuman iloji yo‘q. Chunki, ushbu balans moddalari yoki buxgalteriya hisobi obyektlari foydalanish maqsadi aniq belgilangan.

Sof aktivlarni tahlil etish metodikasi ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1.Sof aktivlar dinamikasining tahlili. Buning uschun davr boshiga va oxiriga sof aktivlar qiymaqiymati va ularning o‘rtacha ko‘rsatkichi aniqlanadi. Olingan natija o‘tgan yillar bilan taqqoslanish o‘zgarishlari va o‘zgarish sabablari aniqlanadi.

2.Sof aktivlardan samarali foydalanishni tahlili. Bunda sof aktivlarning aylanuvchanligi, rentabelligi ko‘rsatkichlari va ularning o‘zgarishlari omilli tahlil etiladi.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligini aniqlash quyidagi formula aosida hisob-kitob qilinadi:

$$Ssa=SF/SA*100$$

Bu yerda:

Ssa-sof aktivlar samaradorligi;

SF-sof foyda;

SA-sof aktivlar summasi.

Sof aktivlar aylanuvchanligi sotishdan tushumni sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali topiladi.

$$Ksa=SST/SA$$

Aylanish davri quyidagicha hisob-kitob qilinadi::

$$Kad=SA/SST*360 \text{ yoki } 360/Kad$$

Bu yerda:

Ksa-sof aktivlar aylanuvchanlik koeffitsenti;

SST-sotishdan sof tushum;

Taqsimlanmagan foyda ta’sischilar o‘rtasida dividend sifatida taqsimlangandan keyin ta’sischilarning qo‘shimcha kiritgan hissalari sifatida ustav kapitalini ko‘paytirishi mumkin:

13.6-jadval

Sof aktivlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Balans qatori	Davr boshiga	Davr oxiriga	Farqi («+», «–»)
A	B	1	2	3
1. Jami aktivlar	400	13 198 104 658	24 276 893 065	+11 078 788 407
2. Majburiyatlar	770	5 452 310 192	14 152 659 989	+8 700 349 797
3. Ustav kapitali	410	614 384 306	828 202 670	+213 818 364
3. Sof aktivlar (1-2)	*	+7 745 794 466	+10 124 233 076	+2 378 438 610
4. Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i	*	58,7	41,7	-17,0
5. Sof aktivlarning ustav kapitalidagi xissasi	*	12,6	12,2	-0,4

Xulosa: Korxonada sof aktivlarning summasi davr boshida +7 745 794 466 ming so‘mni, davr oxiriga kelib +10 124 233 076 ming so‘mni tashkil etgan. Sof aktivlarning davr boshiga nisbatan o‘zgarishi +2 378 438 610 ming so‘mni, o‘sish darasi (10 124 233 076 / 7 745 794 466*100) 30.7 % ni tashkil qilgan.

Sof aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i davr boshiga nisbatan 17 foizga kam bo‘lgan. Bunga asosiy sabab sifatida majburiyatlarning davr boshiga nisbatan +8 700 349 797 ming so‘mga (yoki 2.6 baravarga) ortganligi bilan izoxlash mumkin.

Sof aktivlarning ustav kapitalidagi xissasi davr boshida 12.6 baravarga, davr oxirida 12.2 baravarga ortiq bo‘lganligini, davr boshiga nisbatan o‘shzgarishi -0.4 baravarga yoki 40 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tahlil yakunida albatta sof aktivlarning samaradorligi baholanadi va uning o‘zgarishlari omilli tahlil etiladi. Samaradorlikni baholashda sof aktivlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan sotishdan sof tushum, sof foyda ko‘rsatkichlari o‘rganiladi.

13.7-jadval

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Xisobot shakli	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)	O‘sishi, %
A	B	1	2	3	4
1. Sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	1-shakl	7 745 794 466	10 124 233 076	+2 378 438 610	+130,7
2. Sotishdan sof tushum, ming so‘m	2-shakl	3 362 225 550	5 180 801 340	+1 818 575 790	+154,1
3. Sof foyda, ming so‘m	2-shakl	507 693 607	974 038 284	+466 344 677	+191,2
4. Sof aktivlarning aylanuvchanligi (2 / 1)	*	0,434	0,511	+0,077	117,7
5. Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360 / Ksa)	*	829,4	704,5	+124,9	84,9
6. Sof aktivlar rentabelligi, % (3 / 1*100)	*	6,5	9,6	+3,1	147,7

Xulosa: Korxobnada sof aktivlarning samaradorligi o‘tgan yilga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Jumladan sof aktivlarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan soy tushum summasi 0.434 tiyindan, 0.511 tiyinga ortgan. Bu o‘zgarish asosan sof tushumning o‘tgan yilga nisbatan +1 818 575 790 ming so‘mga ortishi tufayli ro‘y bergan. Sof aktivlarning aylanish davri 829.4 kundan 704.5 kunga qisqargan. Aylanish davri 84.9 kunga tezlashgan. Bu yml taqvimi bo‘yicha bir chorakga tezlashish demakdir.

Sof aktivlarning rentabellimgi mos ravishda o‘tgan yilda 6.5 foizni, joriy yilda 9.6 foizni tashkil qilmoqda. Rentabellikning o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi 3.1 foizga ortgan.

Sof aktivlar tahlili, ularning samaradorligi baholash amaliyoti xorij tajribasidan kirib kelgan ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich korxona to‘lovga qobilligini baholashning umumiy ifodasi ham hisoblanadi. U aktivlarning majburiyatlardan ortgan summasini aniqlash orqali sof kapitalni shakllantirish strategiyasini ham belgilab olish mumkin.

Zanjirli bog‘lanish usulida xususiy kapital samaradorligi, rentabelligini omilli tahlilini amalga oshirish mumkin va bu jarayon ichki imkoniyatlarni aniq va to‘g‘ri baholash imkonini beradi.

13.8-jadval

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligining omilli tahlili (zanjirli almashtirish usulida)

Ko‘rsatkichlar	**O‘tgan yil**	**Hisobot yili**	**Farqi (+, -)**	**O‘sishi, %**
A	1	2	3	4
1. Sof aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	7 745 794 466	10 124 233 076	+2 378 438 610	+130,7
2. Sotishdan sof tushum, ming so‘m	3 362 225 550	5 180 801 340	+1 818 575 790	+154,1
3. Sof foyda, ming so‘m	507 693 607	974 038 284	+466 344 677	+191,2
4. Sof aktivlarning aylanuvchanligi (2 / 1)	0,434	0,511	+0,077	117,7

O‘zgarish sabablari:				
-sof tushumning o‘zgarishi hisobiga	5 180 801 340/7 745 794 466-0.434		+0.2348	-
-sof aktivlar summasining o‘zgarishi hisobiga	0.511-5 180 801 340/7 745 794 466		-0.1578	-
5. Sof aktivlarning aylanish davri, kun (360 / Ksa)	829,4	704,5	+124,9	84,9
6. Sof aktivlar rentabelligi, % (3 / 1*100)	6,5	9,6	+3,1	147,7
O‘zgarish sabablari:				
-sof aktivlar summasining o‘zgarishi hisobiga	974 038 284/7 745 794 466*100-6.5		+6.1	-
-sof foyda o‘zgarishi hisobiga	9.6-974 038 284/7 745 794 466*100		-3.0	-

Xulosa: Korxonada sof aktivlarning samaradorligining omilli tahlilidan shuni xulosa qilish mumkinki joriy yildagi sof aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsenti o‘tgan yilga nisbatan 0.077 ga ortgan. Bu o‘zgarishga sof aktivlar qiymatining ortishi salbiy (-0.1578), sof tushumlar summasining ortishi ijobiy (+0.2348) ta’sir etgan. O‘z navbatida sof aktivlarning rentabelligi o‘tgan yilga nisbatan 3.1 foizga ortishiga quyidagi omillar ta’sir etgan: sof foyda summasining o‘tgan yilgan nisbatan +466 344 677 ming so‘mga o‘zgarishi rentabellikning 6.1 foizga ortishiga; sof aktivlar summasining +2 378 438 610 o‘zgarishi rentabellikning 3.0 foizga kamayishiga olib kelgan.

13.6. Moliyaviy leveridj ko‘rsatkichlarini tahlili

Moliyaviy leveridj ko‘rsatkichi xaqlaro amaliyotdan kirib kelgan muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Uning iqtisodichilar va menejerlar toinidan baholashga o‘tilganiga xali uncha ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Ushbu ko‘rsatkichni baholash bir qancha moliyaviy koeffitsentlar orqali amalga oshiriladi. Moliyaviy leveridj ko‘rsatkichi xususiy kapitalning majburiyatlarga nisbati orqali baholanadi. Uning natijasiga qarab xo‘jalik sub’ektining moliyaviy barqarorligi va rentabellik darajasiga baho berish mumkin.

Quyida moliyaviy leveridj nima ekanligi, uning turlari, aniqlash forsulasi, moliyaviy leveridj samaradorligini aniqlash tartiblari hamda ularni tahlil etish tartiblarini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Moliyaviy leveridj moliyaviy richag (dastak) deb xam nomlanadi. Uning mazmunini o‘z mablag‘lari manbasi bilan qarz kapitali o‘rtasidagi nisbatda xo‘jalik sub’ektining foydasiga ta’sir etish darajasini baholash tashkil etadi. Shuningdek, xo‘jalik sub’ektining istiqboldagi moliyaviy barqarorligini tahlil etish va bashoratlashda ham ushbu bog‘liqlik nisbatidan kelib chiqiladi.

Moliyaviy levridj ko‘rsatkichlarini tahlil etish analitiklarga rentabellikni qo‘shimcha o‘stirish imkoniyatlarini aniqlashda, ichki va tashki

omillar tasirida foydaning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning risk darajalarini baholashga imkon beradi.

Faydalanish samradorligi yuzasidan moliyaviy leveridjlarning quyidagi turlari aniqlanadi:

-ijobiy(foyda summasi kreditlar, qarzlar yuzasidan foizlar to‘lovidan ortgan hollarda);;

-neytral turlari (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to‘lovlari summasigagina yetgan hollarda);

-salbiy (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to‘lovlari summasiga yetmagan hollarda).

Moliyaviy leveridj quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ML = QK / XK$$

Bu yerda:

ML-moliyaviy leveridj;

QK-qarz kapitali;

XK-xususiy kapital.

Mazkur formula xo‘jalik sub’ektining moliyaviy risklarini ham aks ettiradi. Koeffitsentning optimal darajasi sifatida 05.-0.8 daraja qayd etiladi.

Moliyaviy leveridj samaradorligini baholashda moliyaviy leveridj koeffitsenti va rentabelligini qiyyolash lozim.

Moliyaviy leveridj samaradorligini baholsh, tahlil etishning maqsadi xususiy va qarz kapitalidan foydalanish samaradorligini o‘rganishdan iborat.

Moliyaviy leveridj samaradorligini quyidagi bog‘lanishda ifoda etish mumkin:

$$MLs = (ROA - Fo‘s)(1-Ss)•QK/XK$$

Bu yerda:

MLs-moliyaviy leveridj samaradorligi;

ROA- aktivlar rentabelligi;

Fo‘s-o‘rtacha foiz stavkasi;

Ss-soliq yuki;

QK-qarz kapitali;

XK-xususiy kapital.

ROA=Sof foyda/Aktivlar

ROA (o‘tgan yil)=507693607/13198104658=3.85%

ROA (hisobot yili)=974038284/24276893065=4.01%

13.9-jadval

Moliyaviy leveridj samaradorligi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi	O‘sish darajasi
1. Aktivlar, A	13198104658	24276893065	11078788407	183.94
2. Sof foyda, SF	507693607	974038284	466344677	191.86

3. Aktivlar rentabelligi, ROA (2/1)	3.85	4.01	0.16	104.16
4. Xususiy kapital, ming so‘m.	7745794466	10124233076	2378438610	130.71
5. Qarz kapitali, ming so‘m.	5452310192	14152659989	8700349797	259.57
6. Foyda solig‘i stavkasi, %	10	10	0	100
7. Kredit, qarz foizi, %	9	14	5	155.56
8. Inflyatsiya darajasi, %	5.6	11.6	6	207.14
9.Moliyaviy leviridj samarasi, % (3-7)(1-6)*5/4	-3.26	-12.57	-9.31	385.58

MLs (o‘tgan yil)= **(3.85-9)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-3.26%**

MLs(hisobot yili)= **(4.01-14)*(1-10/100)*14152659989/10124233076=-12.57%**

Ushbu holatda (-12.57 %) qarz kapitalini jalb qilish samarasiz hisoblanadi.

Moliyaviy leveridj samaradorligini qaysi omillar hisobiga o‘zgarganligini baholash yuzasidan quyidagi bog‘lanishlardan foydalanish tavsiya etiladi:

MLs_{shart1}=(4.01-9)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-3.16%

MLs_{shart2}=(4.01-14)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-6.33%

MLs_{shart3}=(4.01-14)*(1-10/100)*5452310192/7745794466=-6.33%

Moliyaviy leveridj samaradorligining umumiy o‘zgarishi 9.31% ni tashkil etgan (-12.57 - (-3.26)).

Shu jumladan:

-investitsiyalangan kapital rentabelligi o‘zgarishi hisobiga (-(-3.16+3.26)=0.1%

-foiz stavkasining o‘zgarishi hisobiga (-6.33+3.16)= -3.17%

-soliq stavkasining o‘zgarishi hisobiga (-6.33+6.33)=0 %

-xususiy kapital o‘zgarishi hisobiga (-12.57+6.33)=-6.24%

Jami omillar ta’siri: 0.1-3.17+0-6.24=-9.31%

Agar inflsiya ta’siri kuchli bo‘lgan xolatlarda qarzlar vau larning foizlari qayta indeklaslanmasa moliyaviy leveridj va xususiy kapital rentabelligi ortadi. Ushbu xolatda moliyaviy richag samardorligi quyidagi formula assoisida xisob kitob qilinadi.

MLS=[ROA-Fo‘s/(1+I)]*(1-Ss)*QK/XK + I*QK/XK*100%

Bu yerda: I-inflyatsiya normasi.

MLs(o‘tgan yil)= (3.85-9/(1+5.6/100))*(1-10/100)*5452310192/7745794466+5.6*5452310192/7745794466=0.98

MLs(hisobot yil)= (4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100)*14152659989/10124233076+11.6*14152659989/10124233076=5.48%

Omillar ta’sirini zanjirli bog‘lanish usulida quyidagi hisob kitoblarini amalga oshirish mumkin:

MLs_{shart1}=(4.01-9/(1+5.6/100))*(1-10/100)*5452310192/7745794466+5.6*5452310192/7745794466=1.08%

MLs_{shart2}=(4.01-14/(1+5.6/100))*(1-10/100)*5452310192/7745794466+5.6*5452310192/7745794466=-1.92%

MLs_{shart3}=(4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100)*5452310192/7745794466+11.6*5452310192/7745794466=2.76%

MLs_{shart4}=(4.01-14/(1+11.6/100))*(1-10/100)*5452310192/7745794466+11.6*5452310192/7745794466=2.76%

Moliyaviy leveridj samradorligining umumiy o‘zgarishi 4.5% (5.48 - 0.98), shu jumladan:

-investitsiyalangan kapital rentabelligi o‘zgarishi hisobiga:(1.08-0.98)=0.1%

-qarz foiz stavkasining o‘zgarishi hisobiga (-1.92-1.08)=-3%

-inflyatsiya darajasi o‘zgarishi hisobiga (2.76+1.92)=4.67%

-soliq stavkasi o‘zgarishi hisobiga (2.76-2.76)=0%

- xususiy kapital o‘zgarishi hisobiga (5.48-2.76)=2.72%

Jami omillar ta’siri: (0.1-3+4.67+0+2.72)=4.5%.

Nazorat uchun savollar

1. Xususiy kapital nima?
2. Xususiy kapital tarikbiy elementlariga nimalar kiradi?
3. Xususiy kapital bilan o‘z mablag‘lari manbasi orasida farq bormi?
4. Xususiy kapital to‘g‘risidagi xisobtni tuzib tartibi va qoidalarini tushuntiring?
5. Ustav kapitali qanday shakllantiriladi va uning o‘zgarish sabablarini, yo‘llarini tasniflab bering?
6. Rezerv kapitali qanday shakllantiriladi va nimalarga ishlatiladi?
7. Qo‘shilgan kapital qandy shakllanadi?
8. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) balansda aks ettirish tartiblarini tushuntiring?
9. Sotib olingan xususiy aksiyalar qatorida nimalar, qachon va qanday aks etadi.

10. Maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar nima?
11. Kelgusi davr to‘lovlari zaxirasi qanday shakllantiriladi?
12. Xususiy kapitalning o‘zgarishi, dinamikasini tahlil etish nimaga kerak?
13. Xususiy kapital va uning daromadligini tahlilini qimlar va nima maqsadda o‘tkazadilar?
14. Xussiy kapitalning rentabelligi qanday aniqlanadi va uning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir etadi?
15. Moliyaviy leveridj nima uni aniqlash tartiblarini tushuntiring?
16. Moliyaviy va ishlab chiqarish leveridjlarini bog‘ligi mavjudmi?
17. Xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlarga, moliyaviy koeffitsentlarga qaysi ko‘rsatkichlar kiradi?
18. Sof aktivlar nima?
19. Sof aktivlar qanday aniqlanadi va uning mazmuni nima?

XIV BOB. KREDITGA LAYOQATLILIK TAHLILI

14.1. Kreditga layoqatlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari

Korxonalar iqtisodiy harakatda, faoliyatda albatta, qarz kapitaliga zaruriyat sezadilar. Negaki, biznesni dastlabki qadamiga yetarli mablag‘ tadbirkorlarda doimo ham yetarli bo‘lmaydi. Iqtisodi rivojlangan davlatlar biznes hayotini kuzatish shuni ko‘rsatadiki faoliyatni, biznesni 90 foizi qarz kapitali hisobiga yo‘lga qo‘yiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, korxonalar doimo aniq biznes loyihalari, rejalari asosida qarz kapitali jalb qiladilar va uni ishlatishdan naf ko‘radilar.

Korxonalarni kreditga layoqatligini baholashni tasdiq topgan me’yoriy aktlari va nizomlariga ta’yangan holda har bitta biznes subektini kreditni, qarzni qaytarib berish layoqati o‘rganilmog‘i lozim. Bu mezonlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Iqtisodiyot Vazirligi, Iqtisodiy nochor korxonalar bilan ishlash Qo‘mitasi va tegishli Vazirliklar tomonidan tuzib chiqiladi.

Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlarning tarkiblanishi qarz munosabatlarini rasmiy jihatlariga ta’sir etmaydi. Ya’ni har ikkala holatda ham moliyaviy holat tahlili bo‘yicha bir xildagi zaruriy amallar, analitik tadbirlar amalga oshiriladi. Odatda muddatligi bo‘yicha kreditlar va qarzlar uzoq, urta va qisqa muddatga tarkiblanishi belgilangan. Lekin hisob amaliyotida ularni uzoq va qisqa muddatli guruxga tarkiblash amaliyoti joriy etilgan.

Uzoq muddatli kreditlar -uzoq muddatli aktivlarni (asosiy vositalar, nomoddik aktivlar, kapital qo‘yilmalar, o‘rnatiladigan asbob uskunalar yuzasidan, ularni sotib olish, qurish, ta’mirlash, ilmiy yangiliklar kiritish kabi yo‘nalishlarda) moliyalashtirish yuzasidan bir yildan ortiq muddatga beriladi.

Qisqa muddatli kreditlar -joriy, aylanma aktivlarni to‘ldirishga. savdo hajmini oshirishga va boshqa maqsadlarga bir yilgacha muddatga beriladi.

Korxonalarda uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda, aniq va puxta ishlangan biznes rejaga va investitsion loyihalarga e’tiborni qaratishi lozim. Lekin ungacha albatta, ushbu korxonaning, moliyaviy ahvoli o‘rganilmog‘i lozim.

Kredit resurslarini jalb etishda risklarni baholash masalasiga ham alohida ahamiyat qaratish zarur. Afsuski bu borada amaliyotda analitik yechimlarning aniq metodologik jixatlari belgilanmagan.

Kredit arizasi bergan korxonaning moliyaviy tahlilida muhim obyekt sifatida birinchi navbatda uning to‘lov layoqati, qoplov koeffitsenti baholanadi.

Korxonalarning tomonidan olingan kredit resurslar nafaqat korxonaning to‘lovga qobilligiga balki uning mablag‘larining harakatchanlik

(likvidlilik) darajasiga ham bog‘liq. Shu sababli tahlil etishda buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida korxonalarning harakatchan mablag‘larini holatiga, tez va sekin pulga aylanuvchi aktivlariga, nolikvid mablag‘lar holatiga, ularning to‘lov muddati kelgan, qisqa va uzoq muddati majburiyatlarga nisbatiga, doimiy passivlarni nolikvid va likvid mablag‘larni manbalashiga baho berish talab etiladi.

So‘ngi paytlarda olingan kredit resurslarining o‘z vaqtida va qaytmaslik hollariga ko‘p duch kelinmoqda. Shu sababli, korxonalarning kreditga layoqatligini tahlil etishda moliyaviy holat tahlilida quyidagi qo‘shimcha mavzularni o‘rganish tavsiya etiladi;

- korxonalarning rentabellik darajasi;
- aylanma mabalag‘larning holati;
- o‘z mablag‘larini hajmi, ularning asosiy va oborot kapitalidagi ishtiroki;
- ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlarni o‘sish darajalari;
- to‘lov muddati kelgan va o‘tib ketgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga;
- korxonalarning pul va qimmatli qog‘ozlarining mavjudligiga va boshqa jihatlarga ahamiyat beriladi.

14.1-jadval

Kredit oluvchining faoliyatni baholash

Baholash elementlari	Ko‘rsatkichlari
Mijozning faoliyatni rivojlantirishga intilishi:	o‘sish dinamikasi;
	o‘zgaruvchanlik;
	istiqbollik.
Mahsulot (ish, xizmat)larga talabning o‘zgarishi:	mizozlar tavsifi;
	bozor hajmi va sifat ko‘rsatkichlari;
	sotish hajmi;
	baho belgilash tartibi;
	sotish rejasi;
	talabning barqarorligi;
	tovarning almashuvchanligi;
	havf-xatarlar.
Taklifning o‘zgarishi:	raqobatchilar holati;
	jo‘natmalar muvofiqligi;
	jo‘natmalar havf xatari;
	narxnining barqarorligi;
	ishchi kuchi bilan bog‘liq sabablar;
	xalqaro valyutaga talabning mavjudligi.
Mahsulotning sifat tasnifi:	texnologiya darajasi;
	mahsulot sifati;
	kapital va mehnat sig‘imi.
Raqobat darajasi:	raqobatchilar;
	raqobatning intensivligi;
	bozorga kirishda to‘siqlar;

	peshqadam raqobatchilarning bozordagi ulushi.

Kreditga layoqatlik tahlilining maqsadi - korxonalarning kredit, qarz mablag‘larini jalb etishi yuzasidan ularning moliyaviy holati va natijalarini tahlil etish orqali pul mablag‘larini ko‘paytirish imkniyatlarini retrospektiv tahlilini amalga oshirishdan iborat.

Korxonalarning kreditga layoqatligini baholashda tahlil oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- korxonalarning kreditga layoqatligini davriy oraliqlar bo‘yicha o‘rganish;
- korxonalarning moliyaviy barqarorligi, aktivlar va kapital foydaliligini baholash;
- mablag‘larni joylashinuvidagi holat, ularning aylanuvchanligini baholash;
- muddati o‘tgan majburiyatlarning holati, korxonalarning moliyaviy mustaqillik darajasidagi o‘zgarishlar, sotish hajmidagi o‘sish, likvid mablag‘larning holati kabi qo‘shimcha ko‘rsatkichlarga baho berish.

Kreditga layoqatlikni tahlil etishning darajasi va sifati axborot manbalarining to‘liqligiga va ularning atroflicha o‘rganilishiga bog‘liq. Shu sababli tahlil etishda o‘rganiladigan axborotlarni tarkiblash va ularni tizimlashtirish muhim masala hisoblanadi. Quyida, korxonlar kreditga layoqatligini baholash, tahlil etishning axborot manbalari va ular qo‘yilgan talablarni keltirib o‘tamiz.

14.2-jadval

Kreditga layokatlikni baholashda ichki va tashqi moliyaviy tahlilni axborot manbaalari

Ichki moliyaviy tahlilning axborot manbalari	Tashqi moliyaviy tahlilning axborot manbalari
Ta’sis xujjatlari	Ta’sis xujjatlari
Uchinchi shaxslar bilan bog‘liqlikni tasdiqlovchi xujjatlar	Faqat qarz beruvchi bilan bog‘liq bo‘lgan xujjatlar
Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma	Biznes reja, texnik iqtisodiy asosnoma
Loyiha smeta xujjatlari	-
Birlamchi xujjatlar (asosiy vositalarni baholash, ularning tarkibi, harakati, oborot aktivlarni holati, harakati haqidagi, xo‘jalik jaryonlari haqidagi	-
Analitik hisob ma’lumotlari	-
Buxgalteriya hisobotlari	Buxgalteriya hisobotlari
Statistik hisobotlar	Statistik hisobotlar
Soliq hisobotlari	Soliq hisobotlari
Audit xulosalari, nazorat va soliq tekshirishlari dalolatnomalari	Yakuniy auditorlik xulosasi
-	Qarz oluvchining shaxsiy sifatlari haqidagi ma’lumotnoma, /qarzdorning dongi, shuhrat

	taratishi/(Gudvil)
-	Kredit tarixi yuzasidan axborotlar
-	Boshqa kredit tashkilotlari ma’lumotlari
Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo‘yicha maxsus axborotlar	Faoliyatning ruxsat etilgan va etilmagan turlari bo‘yicha maxsus axborotlar
Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (davlat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)	Maqro iqtisodiy va maxsus axborotlar (dalat dasturlari, tarmoqning rivojlanishi haqidagi manbalar va h.k.)
Ekologik me’yorlar bo‘yicha axborotlar	Ekologik me’yorlar bo‘yicha axborotlar

Tahlil etishda taqdim etilgan manbaalarning axborotligi va tarkibi yuzasidan ham muhim talablar qo‘yiladi. Bu talablar mijozning kreditga layoqatligini baholashda tashqi tahlilchiga kredit resurslarini jalb etish yuzasidan to‘zib chiqiladigan savolnomaga to‘la javoblar tayyorlashga imkon beradi. Bu holat kredit mablag‘larini jalb qilishdagi turli havf xatarlarni oldini olishga, kredit tashkilotlarining jalb qilingan resurslarni o‘z vaqtida va foizi bilan qaytarib olishiga hamda ularning likvidligini oshirishiga imkon beradi.

14.3-jadval

Mijozning kreditga layoqatligini baholashda taqdim etiladigan manbaalarning tarkibi

Axborot manbalari	Axborot tarkibi
Ta’sis xujjatlari:	kapital tarkibi;
	foydani taqsimlash yo‘nalishlari;
	aksionerlar tarkibi;
	korporativ mijozning ichki tarkibi.
Buxgalteriya hisoboti:	korxona mulki tarkibi va to‘zilishi;
	korxona moliyaviy holati, to‘lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligi;
	xususiy va qarzga olingan mablag‘lardan samarali foydalanish holati;
	kebitorlik av kreditorlik majburiyatlarini tarkibi, to‘zilishi va nisbati;
	kreditorlar oldidagi majburiyatlarni qoplash darajasi;
	korxonaning foydaligi;
	pul mablag‘larining oqimi;
	iqtisodiy nochorliklikka tushmaslik havf xatarining darajasi.
Texnik iqtisodiy asoslash, biznes reja:	korxonaning dong‘i, shuxrati;
	korxonani rivojlantirish strategiyasi;
	tashkiliy struktura sifati;
	ta’minot sifati;
	aktivlar sifati;
	operatsion faoliyatning darajasi;
	texnik qo‘rollanish darajasi;
	mahsulotlarni sotish bozorining diversifikatsiyasi;
	jalb qilinadigan mablag‘larga talabning asoslanishi.
Kredit byurolari:	boshqa kreditlarning olinganligi;
	boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi;

	kredit tarixi.
Boshqa banklar:	boshqa kreditlar;
	boshqa kreditlardan foydalanganlik darajasi;
	moliyaviy aktivlari.
Tashkilotlar, raqobatchilar:	bozordagi obro‘si;
	bozordagi ulushi;
	raqobatdagi gayratligi;
	tarmoqdagi o‘rni.
Haridorlar:	raqobatchilar o‘rtasidagi shuhrati ;
	sotish hajmi;
	mahsulot sifati;
	haridorlarni kreditlash shartlari.
Mol yetkazib beruvchilar:	kreditor obro‘si;
	kreditlash shartlari;
	mahsulot yetkazib berish hajmi;
	qiyosiy o‘rni.
Boshqa manbalar (reyting agentliklari, birja ma’lumotlari va.h.k.) :	makroiqtisodiy ma’lumotlar;
	tarmoq bo‘yicha ma’lumotlar;
	maxsus hisobotlar;
	statistik manbalar.

14.2. Kreditga layoqatlikning tavsifi

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarini rivojlanishida kredit munosabatlari va to‘lov qobiliyatini o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi. Banklar xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning kreditga layoqatliligini baholash orqali risklarni kamaytirishga, kredit resurslarini oqilona joylashtirish orqali o‘z daromadlarini oshirishga, moliyaviy barqarorligini mustaxkamlashga erishadilar.

Kreditga layoqatlilik ko‘rsatkichlarini ikki tomonlama ko‘rib chiqish lozim:

1.Qarz oluvchi nuqtai nazaridan kreditga layoqatlilik darajasi - kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o‘z vaqtida qaytara olish qobiliyati bilan baholanadi.

2. Bank nuqtai nazaridan, kreditga layoqatlilik darajasi korxonaga beriladigan kreditning hajmini to‘g‘ri aniqlay olish ma’suliyati inobatga olinadi128.

Ma’lumki, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining, banklar faoliyatining tijoratlashuvi yuzaga keladi. Bu esa tamonlarning qaysi mulk shakliga asoslangan bo‘lishiga qaramasdan iqtisodiy jihatdan to‘liq mustaqil bo‘lib, o‘z xarajatlarini daromadlari bilan qoplashnishini talab etadi. Faoliyatning moliyaviy mablag‘larga tayanishi

[128]Ш.З.Абдуллаева “Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш” Автореф. дисс. … и.ф.д. – Тошкент. 2000. 239-240 б;

oqibatida korxonalar faoliyatini rivojlantirishning ichki imokniyatlari doimo ham yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli sub’ektlar ko‘pincha qo‘shimcha pul mablag‘lariga ehtiyoj sezadilar va bu ehtiyojlar bank kreditlari hisobidan qoplanishi mumkin. Bank kreditlari nafaqat korxona va tashkilotlarni moliyaviy taminlashi manbasi balki ularni maqsadli, muddatli, taminlangan holda joylashtirish orqali o‘zining faoliyat davomiyligini ham taminlab berishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatida qo‘ygan maqsadga erishish va bergan kreditlarining samara bilan bankka qaytib kelishini ta’minlashi uchun mijozning moliyaviy holatini uning kreditni o‘z vaqtida qaytara olishi imkoniyatlarini tekshirib ko‘rishi lozim.

Kreditga layoqatlikni baholashda banklar nafaqat mijozning o‘tgan davr ma’lumotlariga baho berishi, shu bilan birga uning kelajakdagi moliyaviy ahvolini ham bashoratlashi zarur. Moliyaviy barqarorlikni va kredit operatsiyalaridagi risk hisobini ob’ektiv baholash, bankka kredit resurslarini samarali boshqarish hamda foyda olish imkonini beradi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini liberallashtirish muhim vazifa sifatida qabul qilinishi korxonalarning to‘lov qobiliyati va barqarorligini aniqlashda chet el tajribasiga asoslangan buxgalteriya hisobini yuritish zaruratini tug‘dirmoqda. Bunda buxgalteriya balansining yangi tahlilini yuritish asosiy o‘rinni egallaydi. Balansdagi aktiv va passivlarni qabul qilingan moddalar bo‘yicha guruhlashtirilishi, to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni yetarli darajada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

14.3. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari

Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash tizimi va ballik (skoring)baholash tizimi

Bank va korxonalar faoliyatida kreditga layoqatlilikni baholash uslubiyotini shakllantirishda mezonlarga tayaniladi. Ushbu mezonlar korxonalarning kreditga layoqatliligini to‘liq baholash imkoniyatini ochib berish zarur.

Jahonda va mamlakatimiz amaliyotida kreditga layoqatlikni baholashda quyidagi mezonlarga tayaniladi[129.]

- Mijozning harakteri (Fe’l atvori);
- mijozningqarz olish qobilyati;
- olingan qarzni uzish yuzasidan mablag‘lar ishlab topishga qobilligi;
- mijozningkapitali;
- kreditningta’minlanganligi;

[129]Raximov M. Iqtisodiyot sub`ektlari moliyaviy holatining tahlili. O’quv qo’llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -392 b.

- kredit operatsiyalarini amalga oshirish chogidagishart sharoitlar;
- mijoz faoliyatining qonuniy jihatlarini nazorat qilish darajasi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy asoslari korxona va bank nuqtai nazaridan alohida belgilanishi, yo‘lga qo‘yilishi va yuritilishi lozim.

14.4-jadval

Korxonalar kreditga layoqatliligi baholash

Uslubiy asosdagi yondashuv	Asoss bo‘luvchi xujjatlar	Muhimlik
Korxona nuqtai nazaridan	1-son-“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli BHMS	Majburiyatlarni qoplashga layoqatligi
Bank nuqtai nazaridan	Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)	Kreditni qaytarishga layoqatligi

Korxonalarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni tartibga solishda asosiy me’yoriy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1998 yil 26 iyuldagi 17-17/86-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zR Adliya vazirligi tomonidan 14.08.1998 y. 474-son bilan ro‘yxatga olingan) 1-son-“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli BHMS hisoblanadi.

Korxonalarning kreditga layoqatliligini o‘rganishda har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqiladigan kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati) uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi (kredit siyosati)da korxonalarning kreditga layoqatliligini o‘rganishda uslubiy asos sifatida xo‘jalik subyektlarining kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi ko‘rsatib berilgan.

Har bitta bankining kreditlash va unga tenglashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirish tartibi ishlab chiqilgan bo‘lib unga ko‘ra xo‘jalik subyektlarining kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimi (Skoring tahlil tizimi) farq etadi Xo‘jalik sub’ektlarining kreditni to‘lash qobiliyatini hisoblash uslubiyoti va tavakkalchilikni baholash tizimida kreditga layoqatlik – bu xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holatini, ularning kreditini o‘z vaqtida va to‘la qaytirish qobiliyatini baholash deb ta’rif berilgan.

Xo‘jalik subyektlarining kreditga layoqatliligi bir qator ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Ko‘rsatkichlar soni chegaralanmaydi va har bir tijorat banki tomonidan xizmat ko‘rsatadigan mijozlari faoliyatining o‘ziga xos tomonlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur uslubiyotda kreditga layoqatlilikning zarur majburiy

ko‘rsatkichlari: kreditni qoplash koeffitsenti, likvidlilik va o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik (mustaqillik koeffitsenti), shuningdek o‘z aylanma mablag‘larining mavjudlik dinamikasi, to‘lanmagan qarzlar, foyda olib faoliyat ko‘rsatishi va aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi kabi ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqiladi.

Kreditga layoqatlilikning asosiy ko‘rsatkichlari quyidagi koeffitsientlardan iborat:

Qoplash, likvidlilik va o‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik(mustaqillik koeffitsenti).

Likvidlilik ko‘rsatkichlari forma balansidagi eng likvidli elementlar va qisqa muddatli majburiyatlarning nisbati qandayligini baholash uchun qo‘llaniladi. Tez sotiladigan aktivlar hisobiga bu majburiyatlarning qoplanishi qanchalik yuqori bo‘lsa, firmaning mavqei shunchalik ishonchli hamda bankdan kredit olishga imkoniyati shunchalik yuqori bo‘ladi.

1. Qoplash koeffitsienti

Balansning qoplash koeffitsienti (KK) joriy aktivlardan (JA) kelgusi davr xarajatlari(KDX), kechiktirilgan xarajatlar(KX) va muddati o‘tgan debitor qarzdorliklar(MO‘DQ) ayirmasining joriy mabjuriyatlarga nisbati sifatida hisoblanadi.

QK=JA-KDX-KX-MUDQ/JM

Agar likvidli aktivlar qisqa muddatli majburiyatlardan kamida ikki marta ortiq bo‘lsa xo‘jalik sub’ektining moliyaviy holatini yaxshi deb hisoblash mumkin. Bu mezon (kriteriy)ning eng yuqori chegarasidir. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt qisqa muddatli majburiyatlari miqdoriga teng likvidli aktivlarga ega bo‘lganda bu mezon (kriteriy)ning eng quyi chegarasi deb qabul qilinadi.

14.5-jadval

Qoplash koeffitsentining alohida olingan tijorat aksionerlik “O‘zsanaotqurilish” bankida belgilangan normalari

№	**Mezon (kriteriy)ning chegarasi**	Ball
1	Qk> 2	12
2	2 >Qk > 1	8
3	1> Qk > 0,5	3
4	Qq < 0,5 dan kichik	0

14.6-jadval

Korxonaning qoplash koeffitsentining tahlili

Ko‘rsatkichlar	**Davr boshi**	**Davr oxiri**	**Farqi**
Joriy aktivlar	**2 978 372 713**	**11 683 693 105**	8 705 320 392
Kelgusi davr xarajatlari	1 366 091 169	8 441 062 224	7 074 971 055
Kechiktirilgan xarajatlar	-	-	
Muddati o‘tgan debitorlik majburiyatlari	-	-	

Joriy majburiyatlar	776 820 046	1 848 646 840	1 071 826 794
Qoplash koeffitsenti	2.075	1.754	0.321

Xulosa: qoplash koeffitsenti davr boshiga 2.075ni davr oxiriga kelib 1.754 ni tashkil qilgan. Mutlaq o‘zgarishi 0.321 ga teng bo‘lgan. Qoplov koeffitsentini davr boshida 12 ball bilan davr oxiriga 8 ball bilan baholash mumkin.

2. Likvidlilik koeffitsienti.

Likvidlik bu (lotin tilidagi liquidite so‘zidan olingan bo‘lib-suyuq, oquvchan ma’nolarini bildiradi) korxona asosiy yoki aylanma kapitalini tez va oson sota olishi, bank likvidliligi esa bankning naqd mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoji bo‘yicha o‘zining majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq qoplay olishidir.

Likvidlik bu aktivlar va qimmatliklarni sotish darajasining tezligi va ularning naqd pulga aylanishi, to‘lovga qobiliyat esa ehtiyojni qoplash va zarur buyumlarni sotib olish uchun yetarli pul mablag‘lariga ega bo‘lishdir.

Likvidlilik koeffitsienti xo‘jalik sub’ektining to‘lov qobiliyati ancha tezligini ko‘rsatadi, bunda joriy majburiyatlar eng likvidli aktivlar (naqd pulga aylantirish muayyan vaqt talab qiladigan tovar-moddiy boyliklardan tashqari) bilan qoplanishi mumkin.

Likvidlilik koeffitsienti pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va hisob varag‘i bo‘yicha olinadigan mablag‘lar (muddati o‘tganidan tashqari) summasining joriy majburiyatlarga nisbati orqali topiladi. Bunda tovar-moddiy zahiralar emas to‘lov mablag‘lari qatoriga kiritilmaydi. Ya’ni, haqiqiy likvid aktivlar hisobga olinadi.

$$LK=PM+KMI+DQ-MO‘DQ/JM$$

Likvidlilik koeffitsienti (LK) pul mablag‘lari(PM), qisqa muddatli investitsiyalar(QMI), debitorlik qarzlari(DQ) va muddati o‘tgan debitor qarzdorliklar(MO‘DQ) ayirmasining joriy mabjuriyatlarga(JM) nisbati sifatida hisoblanadi.

№	Mezon (kriteriy)ning chegarasi	Ball
1	LK>1,5	15
2	1,5>LK $\geq$ 1	10
3	1> LK> 0,5	3
4	LK < 0,5 dan kichik	0

14.1-rasm. Korxonaning kreditga layoqatliligiga likvidlilik koeffitsienti orqali baholash

14.7-jadval

Korxonaning likvidlilik koeffitsentining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Pul mablag‘lari	171 917 383	468 669 767	296 752 384
Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar	117 495 315	160 480 738	42 985 423
Debitorlik majburiyatlari	503 338 335	1 566 042 404	1 062 704 069
Muddati o‘tgan debitorlik majburiyatlari	-	-	-
Joriy majburiyatlar	776 820 046	1 848 646 840	1 071 826 794
Likvidlilik koeffitsenti	1.020	1.187	0.167

Xulosa: likvidlilik koeffitsenti davr boshiga 1.020 ni davr oxiriga kelib 1.187 ni tashkil qilgan. Mutlaq o‘zgarishi 0.167 ga teng bo‘lgan. Qoplov koeffitsentini davr boshiga ham, davr oxiriga ham 10 ball bilan baholash mumkin.

3. Mustaqillik koeffitsienti

Mustaqillik koeffitsienti (MK) xususiy kapitalni (XK) korxona balansi passivlari umumiy yakuniga (BJ) bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi va korxona mablag‘larning qarzga olinadigan manbalaridan mustaqilligini aks ettiradi.

$$MK=XK/BJ$$

Ushbu ko‘rsatkichning qiymati 30% dan kam bo‘lmasligi zarur. Aylanma mablag‘larning aylanuvchanligi yuqoriligida va xo‘jalik organi faoliyatining xarakteriga bog‘liq holda ushbu ko‘rsatkichning yo‘l qo‘yiladigan darajasi birmuncha pastroq bo‘lishi mumkin.

Agar ushbu koeffitsient 15% dan past bo‘lsa kredit tavakkali eng yuqori deb hisoblanadi.

№	Mezon (kriteriy)ning chegarasi	Ball
1	MK>60%	12
2	60%>MK ≥30%	8
3	30%> MK >15%	3
4	MK < 15% dan kichik	0

14.2-rasm. Korxonaning kreditga layoqatliligini mustaqillik koeffitsienti orqali baholash

14.8-jadval

Korxonaning mustaqillik koeffitsentining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Xususiy kapital	**7 745 794 466**	**10 124 233 076**	2 378 438 610

Balans jami	**13 198 104 658**	**24 276 893 065**	11 078 788 407
Mustaqillik koeffitsenti	0.586	0.417	-0.169

Xulosa: Mustaqillik koeffitsenti davr boshiga 0.586 ga, davr oxiriga 0.417 ga teng bo‘lgan. Mutlaq o‘zgarishi -0.169 ga teng bo‘lgan. Moliyaviy mustaqillik koeffitsentini 8 ball bilan baholash mumkin.

Agar kreditni to‘lay olish qobiliyatining yuqoridagi uchta ko‘rsatkichi hisoblab chiqilgandan keyin natijalar yig‘indisi 9 balldan kamni tashkil etsa, bunday korxonaga kredit berilmaydi.

Agar ballar summasi 9 dan 19 ballgacha bo‘lsa, bunday korxona kreditni to‘lay olmaydigan hisoblanadi va faqat alohida hollardagina yuqori likvidli aktivlar bilan ta’minlangan holda kredit berilishi mumkin.

Hatto mustaqillik koeffitsienti yuqori bo‘lgan hollarda ham korxona xususiy mablag‘larining anchagina qismi uzoq muddatli aktivlarga qo‘yilgan bo‘lishi va aylanma aktivlar-moddiy zahiralar va ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirishda yetarli darajada qatnasha olmasligi mumkin. Shuning uchun korxonaning kreditga layoqatliligini baholashda uning o‘z aylanma mablag‘lari mavjudligi (O‘AMM)ni ham ko‘rib chiqish zarur.

O‘AMM=(XK+UMKQ) – UMA

Bu yerda:

XK-xususiy kapital;

UMKQ-uzoq muddatli kredit va qarzlar

UMA-uzoq muddatli aktivlar

14.9-jadval

Korxonaning o‘z oborot mablag‘lari naqdligi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Davr boshi	Davr oxiri	Farqi
Xususiy kapital (O‘z mablag‘lari manbasi)	7 745 794 466	10 124 233 076	2 378 438 610
Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar	4 675 490 146	12 304 013 149	7 628 523 003
Uzoq muddatli aktivlar	10 219 731 945	12 593 199 960	2 373 468 015
O‘z oborot mablag‘lari naqdligi	2 201 552 667	9 835 046 265	7 633 493 598

Xulosa: O‘z oborot mablag‘lari naqdligi o‘tgan yilga nisbatan 7 633 493 598 ming so‘mga ortgan. Bu o‘zgarish xususiy kapital summasining 2 378 438 610 ming so‘mga ortishi va uzoq muddatli kreditlarning summasining keskin ravishda ya’ni 7 628 523 003 ming so‘mga ortishi hisobiga ro‘y bergan.

Korxona kreditga layoqatligikni baholashda taxlikalar tahlili alohida o‘rganiladi. Tahlikalar tahlili maqsadi –kreditni berish imkoniyatlari va darajasini ximoyalanganlik darajasini baholashga qaratilgan.

Korxonalar kreditga layoqatliligi tahlilida:

- baholash ko‘rsatkichlari dinamikasiga;

- buxgalteriya balansini takibiy tuzilishiga;
- aktivlar va foydaning sifatiga;
- pul tushumlarining kutilishiga;
- moliya-xo‘jalik faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga muhim axamiyat qaratiladi.

Kreditga layoqatlik tahlilini miqdoriy kursaktkichlar qatorida quyidagi asosiy baholash ko‘rsatkichlari tahlil etiladi:

- likvidlik koeffitsentlari;
- o‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsenti;
- aylanuvchanlik va rentabellik ko‘rsatkichlari.

Kreditlarning muddatligi uning zaruriy sharti hisoblanadi. Shu sababli kredit resurslarini uzoq va qisqa muddatlarga jalb etishda uning kaytarilishiga muhim ahamiyat qaratiladi. Kredit resurslari kechiktirilgan to‘lovlar yuzasidan foizlar summasi bilan birgalikda kaytariladi.

Agar to‘lovlar va foizlar o‘z vaqtida amalga oshirilsa ushbu mijozning kreditor oldidagi ishonchi ortadi. Bu holat esa mijozning kredit tarixiga yoziluvchi eng muhim jihatdir.

14.4. Kreditga layoqatlikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o‘ziga xos jihatlari

E’tirof etish joizki, tijorat banklarining kreditlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Shu sababli tijorat banklariga tarmoq va bo‘g‘inning, iqtisodiyotning lakomotivi siaftida qaralayotganligi ham bejiz emas.

Bank Kredit siyosati – joriy yil mobaynida bank kredit portfelini shakllantirish, xususan, kreditlash borasidagi bank faoliyatining Markaziy bankning kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlari talablaridan kelib chiqib, kreditlash tamoyillariga mosligini ta’minlash, kredit portfelini samarali boshqarish, kredit berish jarayonida yuzaga keladigan xatarlarni baholash hamda ularni minimallashtirish, kredit monitoringi o‘tkazish va uni so‘ndirish jarayoni bilan bog‘liq amallarni belgilash, kredit portfelini diversifikatsiyalash hamda bank foiz siyosatini yuritish bilan bog‘liq tadbirlar yig‘indisidan iboratdir.

Bank kredit siyosatining asosiy maqsadi – mavjud resurslarni iqtisodiyotning real sektorini kreditlar va ularga tenglashtirilgan operatsiyalarga yo‘naltirish hisobiga yuqori daromad olinishini ta’minlashga qaratilgan.

Tijorat banklari kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqariladi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Har bir bank o‘z kredit siyosatini ishlab chiqishi va amalda joriy etishi lozim. Kredit siyosatini ishlab chiqish va ijro etish yuzasidan javobgarlik bank Kengashi va Boshqaruvi a’zolari,

bankning boshqa mansabdor shaxslari zmmasiga yuklatiladi.

Kredit siyosati bank faoliyati turlariga qarab mazmuni va tuzilmasi jihatidan farq qiladi.

Kredit siyosatining yo‘nalishlarida berilayotgan kreditlarning hajmi va shakliga, qisqa va uzoq muddatli kreditlar o‘rtasidagi nisbatiga, moliyaviy axborotlarni tahlil etish jarayoniga, kredit portfeli hamda mablag‘larning qaytarilishini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlariga muhim e’tibor qaratiladi.

Har qanday kredit siyosatining maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo‘ladi: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta’minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo‘lgan extiyojini qondirish.

Kreditlashning strategik yo‘nalishlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi va tasdiqlanadi.

Kredit siyosati hujjatli kreditlarni boshqarish jarayonining poydevori hisoblanadi. Tijorat banki tomonidn ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan kredit siyosati kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo‘llaridan biri hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlashtirish faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi.

Bank kredit siyosatining mazmuni quyidagilardan iborat:

-Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish (kredit turlari, qoplash muddatlari, miqdori va sifati) bilan bog‘liq masalalar;

-Bank raisining kredit faoliyati uchun javob beradigan o‘rinbosari, kredit qo‘mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro‘yxati (eng ko‘p kredit summalari va turlari);

-Bankning kredit berish sohasidagi huquqlari va axborot taqdim etish bo‘yicha jami majburiyatlar;

-Kredit arizalari bo‘yicha tekshirish va qaror chiqarish tizimi bayoni;

-Kredit arizasiga ilova qilinadigan zaruriy hujjatlar va kredit ishida albatta saqlanadigan hujjatlar ro‘yxati (qarzdorning moliyaviy hisoboti, kredit shartnomasi, garov, kafolat haqida shartnoma va hokazolar);

-Kredit ishlari saqlanishi va tekshirilishi uchun kim javobgarligi, kim va qanday holatda ularni olish huquqiga egaligi to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar;

-Kreditning ta’minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishning asosiy qoidalari;

-Barcha kreditlar sifatini belgilaydigan me’yorlar bayoni;

-Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko‘rsatish (ya’ni kredit summalari va bank yalpi aktivlarining eng yuqori nisbati);

-Bank xizmat ko‘rsatadigan mintaqa, kredit qo‘yilmalarining asosiy qismi joriy etiladigan tarmoq, iqtisodiyot sohasi yoki sektori;

-Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili, bunda muammolarni qanday hal

etilishi ehtimollari ko‘rsatiladi.

Tijorat banklarining kredit siyosati kredit menejmentini samarali olib borishning asosi hisoblanadi.

Har bitta bankning kredit siyosati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va bank faoliyatiga doir boshqa Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining moliya-bank tizimiga oid Farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida»gi Nizom talabalari asosida mustaqil ishlab chiqiladi.

Umumiy jihatlar. Kreditga layoqatlikni banklar tomonidan tahlil qilishda quyidagi kompleks ko‘rsatkichlar tizimi o‘rganilishi lozim.

14.10-jadval

Balans likvidligini tahlil etish metodikasi

Balans likvidligining umumiy tahlili		**Korxona likvidligi ko‘rsatkichlarini tahlili**
Aylanuvchanlik ko‘rsatkichlari tahlili		
Foyda ko‘rsatkichlarining tahlili		
Moliyaviy arqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili		
Iqtisodiy nochorlik bankrotlik extimolining tahlili		

Korxona likvidliligi - bu korxonaning yuzaga kelgan majburiyatlarini qoplash maqsadida tezkor ravishda va minimal xarajatlar bilan o‘z aktivlarini pulga aylantira olish qobiliyati hisoblanadi.

Korxonaning to‘lovga layoqatliligi – korxona kapitaliga zarar yetkazmagan holda barcha majburiyatlarni to‘lay olish qobiliyatidir. Umumiy holda korxona likvidliligi texnologik, ya’ni aktivlarning pulga aylanish tezligi jarayoni, qolaversa, korxona buxgalteriya balansining likvidligi hamdir.

Passivdagi joriy majburiyatlarni qoplash maqsadida aktivlarni tezkor ravishda sotish orqali balans likvidligiga ega bo‘linadi.

Passivdagi joriy majburiyatlarni qoplash maqsadida aktiv mablag‘larni tezkor ravishda sotish orqali balans likvidligi yuzaga keladi.

Balans likvidligini taminlashda mablag‘larni joylashtirish muddatining ularning majburiyatlarga jalb qilinishi muddatiga to‘g‘ri kelishi alohida ahamiyat qaratish lozim. Ya’ni passiv tomondagi majburiyatlarni so‘ndirish mundati qancha bo‘lsa, aktivlarning muddati ham unga mos holda bo‘lishi kerak. Aktivlar tarkibida yuqori likvidli aktivlar salmog‘ining yuqori bo‘lishi korxona likvidligining yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Likvidlikka bo‘lgan ehtiyoj istalgan davr uchun hisoblanishi mumkin. Likvid mablag‘larga bo‘lgan talab va taklif doimo o‘zgaruvchan bo‘ladi. Likvidligi bo‘lmagan korxona to‘lovga layoqatli bo‘la olmaydi.

Bugungi amaliyotda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan xo‘jalik

yurituvchi sub’ektlarga uzoq va qisqa muddatli kreditlarni jalb etishda moliyaviy tahlilda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimiga 5 tarkib guruh ko‘rsatkichlarni o‘rganilishini harakterlash lozim. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

-to‘lov layoqati va likvidlilik koeffitsentlari
-ish aktivligi koeffitsentlari
-moliyaviy leveraj koeffitsentlari
-rentabellik koeffitsentlari
-qarzni koplashni tavsiflovchi koeffitsentlar

14.11-jadval

Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni kreditga layoqatligini baholashda hisob-kitob kilinadigan ko‘rsatkichlar

Koeffitsentlar guruhi	Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
Moliyaviy holat ko‘rsatkichlari			
Likvidlilik koeffitsentlari :	Joriy likvidlik;	K=JA/KMM	JA-Joriy aktivlar KMM-Qisqa muddatli majburiyatlar
	Tezkor likvidlik.	K=LA/KMM	LA-Likvid aktivlar
Ish aktivligini harakterlovchi: ko‘rsatkichlar:	Aktivlar aylanuvchanligi;	K=ST/A	ST-Sotishdan tushum A-Aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati
	Asosiy kapital aylanuvchanligi;	K=ST/AK	AK-Asosiy kapital
	Joriy aktivlar aylanuvchanligi;	K=ST/JA	JA-Joriy aktivlar
	Debitorlik majburiyatlari aylanuvchanligi;	K=ST/DM	DM-Debitorlik majburyatlar
	TMZ aylanuvchanligi;	ST/TMZ	TMZ-Tovar moddiy zaxiralar
	TM,Tovarlar aylanuvchanligi.	ST/TM,T	TM-tayyor mahsulot T-tovarlar
Moliyaviy leverej koeffitsentlari:	Majburiyatlarni aktivlarga nisbati;	Maj/A	Maj-Majburiyatlar
	Majburiyatlarni o‘z kapitaliga nisbati;	Maj/UK	UK-O‘z kapitali (o‘z mablag‘lari manbasi)
	Majburiyatlarni aksionerlik kapitaliga nisbati;	Maj/AK	AK-Aksionerlik kapitali
	Uzoq muddatli	UMM/AK	UMM- Uzoq muddatli

	majburiyatlarni asosiy kapitalga nisbati;		majburiyatlar
	O‘z kapitalini aktivlarga nisbati.	UK/A	
Moliyaviy natijaviylik koeffitsentlari			
Foyda normasi koeffitsentlari:	Yalpi foyda normasi;	K=YaF/ST	YaF-yalpi foyda ST-sotishdan tushum
	Sof operatsion foyda normasi;	K=SOF/ST	SOF-sof operatsion foyda
	Sof foyda normasi.	K=SF/ST	SF-sof foyda
Rentabellik koeffitsentlari:	Aktivlar rentabelligi.	K=SF, STKF/A	STKF-solik to‘loviga kadar foyda
Aksiyaning foyda me’yori:	Oddiy aksiyalar daromadlik koeffitsenti;	K=D/Ak	D-oddiy aksiyalarga e’lon kilingan divdend summasi A-oddiy aksiyalarning soni
	Aksiyaning dividendlik koeffitsenti.	K=Db/Ab	Db-bitta aksiyaga e’lon qilingan dividend Ab-bitta aksiyaning bozor bahosi
Qarzni koplashni tavsiflovchi kшrsatkichlar:	Foiznig koplanganlik koeffitsenti;	K=F/FT	FT-foiz to‘lovlari F-hisobot davri foydasi
	Foiz to‘lovlarining koplanganlik koeffitsenti.	K=F/T	T-To‘lovlar=foiz+lizing to‘lovlari+imtiyozli aksiyaga dividendlar+boshqa to‘lovlar

Asosiy baholash ko‘rsatkichlarining amaldagi holati normativ kursaktchilar bilan taqqoslangan holda kredit resurslarini harakati yuzasidan qarorlar chikariladi. Uchinchi guruh ko‘rsatkichlar bo‘yicha odatda optimal va krtik normalar belgilanmasligi mumkin (korxonaning o‘ziga xos xususiyatlari, tarmoq xususiyatlari va boshqa aniq shartlarga muvofiq).

14.12-jadval

Xo‘jalik sub’ektning kreditga layoqatligini baholashda o‘rganilishi lozim bo‘lgan miqdoriy ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	Aniqlanishi	Belgilar izohi
1.Mustaqillik koeffitsenti	O‘MM/BJ	O‘MM-Uz mablag‘lari manbasi BJ-Balans jami
2.Aylanma aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i	JA/A	JA-Joriy aktivlar A-Aktivlar jami
3. O‘z oborot mablag‘lari bilan ta’minlanganlik koeffitsenti	O‘MM+UMKQ-UMA/JA	UMA–Uzoq muddatli aktivlar UMKQ-uzoq muddatli kredit va qarzlar
4. Joriy likvidlik koeffitsenti	JA/KMM	KMM-Qisqa muddatli majburiyatlar

5. Mutlaq likvidlik koeffitsienti	PM+QMMQ/KMM	PM-Pul mablag‘lari QMMQ-qisqa muddatli mol.qo‘yil.
6. Aktivlarni rentabellik koeffitsenti	STQF/A	STQF -Solik to‘loviga kadar foyda A-aktivlarning o‘rtacha yillik kiymmati
7. Aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsenti	ST/A	ST-Mahsulot sotishdan sof tushum

Kredit siyosatida banking kredit resurslarining xajmi, bankning soxaga yo‘nalganligi, mijozlarning kredit zaruriyati, davlatning pul-monetar, kredit, soliq siyosatining o‘ziga xos jixatlaridan kelib chiqqan holda kredit resurslarini joylashtirish va ularni berish tartiblari bir biridan farq qiladi.

Bu borada tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash, dasturga kiritilgan loyixalar, kelishuvchlar bo‘yicha imtiyozli kreditlarni berish, imtiyozlarni joriy etish tartiblarida albatta kredit munosabatlariga kirishish imkoniyatlari tubdan farq qilishini kuzatish mumkin.

Kreditga layoqatlikni baholashda moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlar tahlili

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarining kreditga layoqatliligini baholashda moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni moliyaviy jihatdan o‘rganganda moliyaviy ahvoliga hozirda bank amaliyotida keng qo‘llanilib kelayotgan moliyaviy koeffitsientlardan foydalanib baho beriladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni moliyaviy jihatdan o‘rganganda asosan moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini va pul oqimlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganishga va kelgusidagi moliyaviy ahvolini bashoratlashga e’tibor qaratish zarurdir.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni moliyaviy ahvoliga baho berishda banklar amaliyotida bir qancha metodlardan foydalanib kelinmoqda. Bulardan eng aniq natija beradigan metodlardan biri kompleks tahlil metodidir. Kompleks tahlil metodi xo‘jalik yurituvchi sub’ektni moliyaviy ahvolini kompleks o‘rganish asosida aniq xulosa shakllantirish imkonini beradi.

Kreditga layoqatlilikning baholashning kompleks tahlili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-korxona likvidlilik ko‘rsatkichlari va balans likvidligi tahlili;

-korxona mablag‘lari aylanishini tahlili;

-korxona faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili;

-moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili;

-skoring modeli bo‘yicha kreditga layoqatlilikni baholash usuli.

Balans likvidliligi tahlili korxonalarning kreditga layoqatliligini tahlilida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Balans likvidliligi korxonaning muddatli majburiyatlarini tegishli aktivlar bilan qoplay olish qobiliyatini bildiradi.

14.13-jadval

Balans aktivi va passivi moddalarining likvidliligi tahlili

Aktiv moddalar tarkiblanishi				Passiv moddalar tarkiblanishi			
№	Tarkib	Db	Do	№	Tarkib	Db	Do
A1	Doimiy harakatdagi aktivlar	289 412	629149	P1	To‘lov muddati kelgan majburiyatlar	762 075	1 893 768
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	503 388	1 566 042	P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	14 793	8 878
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	2 185 621	9488499	P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 675 490	12 250 010
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	10 219 731	12 593 199	P4	Doimiy passivlar	7 745 794	10 124 233
∑A	**Aktiv jami**	**13 198 152**	**24 276 889**	**∑P**	**Passiv jami**	**13 198 152**	**24 276 889**

A1-Pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar

A2-Debitorlik majburiyatlari (12 oy davomida pulga aylanuvchi)

A3-Ishlab chiqarish zaxiralari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar (12 oydan oshuvchi debitorlik majburiyatlari)

Balans likvidligi shartlari: A1 > P1;A2 > P2; A3 > P3; A4 < P4

Balans likvidligi bo‘yicha bank amaliyotida joriy, tez va mutloq likvidlilik ko‘rsatkichlari aniqlanadi va davriy baholanadi.

14.14-jadval

Likvidlikning birinchi elementi va uning o‘zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi +,-	O‘sishi,%
A1	Doimiy xarakatdagi aktivlar	289 412	629149	339 739	218
P1	To‘lov muddati kelgan majburiyatlar	762 075	1 893 768	1 131 693	248.4
	Mablag‘lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi(A1-P1)	-472 663	-1 264 619	-791 954	267.7

Xulosa: doimiy xarakatdagi aktivlarning to‘lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga yetishmovchiligi kuzatilgan. Davr boshidagi yetishmovchilik 1 264 619 ming so‘mni, davr oxiriga kelib 791 954 ming so‘mni tashkil etgan.

14.15-jadval

Likvidlikning ikkinchi elementi va uning o‘zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O‘sishi
A2	Tez pulga aylanadigan aktivlar	503 388	1 566 042	1 062 654	311.3
P2	Qisqa muddatli majburiyatlar	14 793	8 878	5 915	60.0
	Mablag‘lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi(A2-P2)	488 595	1 557 164	1 068 569	318.7

Xulosa: tez pulga aylanadigan aktivlar (debitorlik majburiyatlari)ning qiqsa muddatli majburiyatlar (qisa muddatli kreditlar va qarzlar)ni qoplashga yetarligi taminlangan. Davr boshidagi ortiqchalik 1 557 164 ming so‘mni, davr oxiridagi holat 1 068 569 ming so‘mni tashkil etgan.

14.16-jadval

Likvidlikning uchinchi elementi va uning o‘zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O‘sishi
A3	Sekin pulga aylanadigan aktivlar	2 185 621	9488499	7 302 878	334.1
P3	Uzoq muddatli majburiyatlar	4 675 490	12 250 010	7 574 520	162.0
	Mablag‘lar ortiqchaligi, yetishmovchiligi (A3-P3)	-2 489 869	-2 761 511	271642	110.90

Xulosa: sekin pulga aylanadigan aktivlar (tovar moddiy zaxiralar)ning uzoq muddatli majburiyatlar (uzoq muddatli kreditlar va qarzlar)ni qoplashga davr boshida (-2 489 869 ming so‘m) va davr oxirida (-2761 511 ming so‘m) yetishmovchiligi kuzatilgan

14.17-jadval

Likvidlikning uchinchi elementi va uning o‘zgarishlari

№	Tarkib	Db	Do	Farqi	O‘sishi
A4	Qiyin pulga aylanadigan aktivlar	10 219 731	12 593 199	2 373 468	123.2
P4	Doimiy passivlar	7 745 794	10 124 233	2 378 439	130.7
	Mablag‘lar manbasining ortiqchaligi, yetishmovchiligi (P4-A4)	-2 473 937	-2 468 966	4 971	99.8

Xulosa: qiyin pulga aylanadigan aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasidan doimiy passivlar (o‘z mablag‘lari manbaasi) o‘rtasidagi farqlanish, davr boshida -2 473 937 ming so‘mni, davr oxirida – 2 468 966 ming so‘mni tashkil qilgan.

14.18-jadval

Korxona likvidlilik ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Korxonaning likvidlilik koeffitsientlari	Aniqlash tartibi	Me’yorlari
Joriy likvidlilik koeffitsienti (Kjl): korxonaning joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi.	A1+A2+A3/P1+P2	K_{tl}> 2
Tez likvidlilik koeffitsienti(Ktl): korxonaning tez likvidlilik aktivlari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi.	A1+A2/P1+P2	K_{bl}> 0,7
Mutloq likvidlilik koeffitsienti (Kml): Korxonaning pul mablag‘lari joriy majburiyatlarini qoplay olish imkoniyatini ko‘rsatadi.	A1/P1+P2	K_{abl}> 0,2

Kompleks tahlilning keyingi muhim qatori bu aktivlarning aylanish

darajasiga baho berishga ya’ni, korxonaning ish aktivligini o‘rganishga qaratiladi. Aylanish ko‘rsatkichlari korxonaning o‘z mablag‘laridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Korxona aktivlarining har bir turlari bo‘yicha aylanish turlari yuqori bo‘lsa, shunga mos ravishda kreditga layoqatligi va ulardan foydalanish samaradorligi ham yuqori bo‘ladi.

Amaliyotda kreditga layoqatliligini baholashda qo‘yidagi koeffitsientlardan foydalanaladi: korxonaning joriy aktivlari aylanish ko‘rsatkichlari; korxonaning debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlari; korxonaning kreditorlik qarzlari ko‘rsatkichlari; tovar moddiy zahiralari aylanuvchanligi.

Korxonaning joriy aktivlari aylanish koeffitsienti(Kak) – aktivlardan foydalanish samaradorligini va aylanish tezligini ko‘rsatadi.

Kak=MST (010 satr 2-shakl)/joriy aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (Ayb+Ayo/2 1-shakl 400, 780 satr)

Korxona debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsienti (Kdm)– debitorlik qarzlari aylanishi tezligini va davrini ifodalaydi.

Kdm= MST (010 satr 2-shakl)/Debitorlik majburiyatlari o‘rtacha yillik qiymati (Dmdb+Dmdo/2)

Korxona kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsienti (Kkm)– kreditorlik qarzlarining aylanish tezligini va davrini ifodalaydi.

Kkm= MST (010 satr 2-shakl)/Kreditorlik majburiyatlari o‘rtacha yillik qiymati (Kmdb+Kmdo/2)

Korxona tovar-moddiy zahiralari aylanishi koeffitsienti (Ktmz)–Tovar-moddiy zahiralaridan foydalanish natijaviyligini ifodalaydi.

Ktmz= MST (010 satr 2-shakl)/Tovar moddiy zaxiralar o‘rtacha yillik qiymati (Tmzb+Tmzo/2)

Korxona faoliyati natijaviyligiga rentabellik ko‘rsatkichlari yordamida baho beriladi. Rentabellik ko‘rsatkichlarining yuqori bo‘lishi, uning natijasida yuqori foyda hisobidan har hil ko‘rinishdagi aktivlarni sotib olish imkoniyati yuzaga keladi. Quyidagi eng muhim rentabellik koeffitsientlarini keltirib o‘tamiz: joriy aktivlar rentabellik ko‘rsatkichi (Kja;ROA); xususiy kapital rentabellik ko‘rsatkichlari(Kxk; ROE); sotish rentabellik ko‘rsatkichi(Ks; ROS).

Joriy aktivlar rentabelligi (Kja;ROA) har bir so‘mlik aktivlar summasiga to‘g‘ri keladigan sof foyda summani ifoda etadi.

Kja; ROA =Sof foyda (270-satr 2-shakl)/Joriy aktivlar (390 satr,1-shakl)

Xususiy kapital rentabelligi ko‘rsatkichlari (Kxk; ROE) har bir so‘mlik korxona xususiy kapitaliga to‘g‘ri keladigan sof foyda summasini aks ettiradi.

(Kxk; ROE)=Sof foyda (270-satr 2-shakl)/Xususiy kapital (480-460-470 satr,1-shakl)

Sotish rentabellik ko‘rsatkichi (Ks; ROS) har bir so‘mlik tushumga to‘g‘ri keladigan yalpi foyda summasini aks ettiradi.

(Ks; ROS).=Yalpi foyda (030 satr, 2-shakl) / mahsulot sotishdan sof tushum (010 satr, 2-shakl)

Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili korxona moliyaviy mustaqil yoki qaramliligini ifodalaydi. Mablag‘lar tarkibida qarz mablag‘lari ulushi yuqori bo‘lishi, moliyaviy barqarorlik pasayishiga olib keladi.

Korxonaning kreditga layoqatligini baholashda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar qo‘yidagilar:mustaqillik koeffitsienti; qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsienti; xususiy kapital xarakatchanlik koeffitsienti.

Mustaqillik koeffitsienti(Kmus) – jami mol-mulk qiymatida xususiy kapital ulushini ko‘rsatadi. Ushbu koeffitsientning 0,5 dan yuqori bo‘lishi korxonaning moliyaviy barqarorligini 0,5 dan past bo‘lishi moliyaviy qaramligini bildiradi.

Kmus = Xususiy kapital ((480-460-470) satr, 1-shakl) / jami mol mulk qiymati (780 satr, 1-shakl)

Qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsienti(Kqo‘mn) – xususiy kapital va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatadi.

Kqo‘mn = Majburiyatlar (770 star, 1-shakl) / Xususiy kapital (480-460-470) satr, 1-shakl)

Xususiy kapital xarakatchanlik koeffitsienti (Kxkx) – xususiy kapital tarkibida o‘z oborot mablag‘lar ulushini ko‘rsatadi. Bu koeffitsient normativi $K_{xkxk} > 0,2$ yuqori bo‘lish kerak.

Kqo‘mn = O‘z oborot mablag‘lari ((480+570+580-130) satr, 1-shakl) / Xususiy kapital (480-460-470)satr, 1-shakl)

14.19-jadval

Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning amaldagi tartibi

Variant	Tarkib modeli	Ko‘rsatkichlar	Db	Do	Farqi
		Qoplash koeffitsienti	2.075	1.754	-0.321

Amaldagi tartib	Kreditga layoqatlik tahlil etishning ananaviy shakli	Likvidlilik koeffitsienti	1.020	1.187	0.167
		O‘z mablag‘lari bilan ta’minlanganlik (mustaqillik koeffitsenti)	0.586	0.417	-0.169
		O‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi (NSOS)	2 201 552	9 835 046	7 633 493

Xulosa: korxonada qoplanish koeffitsenti davr boshiga 2.075 ni, davr oxiriga 1.754 ni tashkil etgan. Ya’ni koplanish koeffitsenti darajasi keskin ravishda tushib ketgan.

Likvidlik koeffitsenti 1.020 dan 1.187 ga ortgan.

O‘z mablag‘lari bilan taminlanganlik koeffitsenti davr boshida 0.586 ni, davr oxiriga kelib esa 0.417 ni tashkil qilgan.

O‘z aylanma mablag‘larining mavjud summasi davr boshiga nisbatan 7 633 493 ming so‘mga ortgan. Bu albatta ijobiy holatdir.

14.20-jadval

Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlili

Variant	Tarkib modeli	Ko‘rsatkichlar	Db	Do	Farqi
Kompleks tahlil	Korxona likvidlik ko‘rsatkichlari	Joriy likvidlilik koeffitsienti	3.906	6.352	2.446
		Tez likvidlilik koeffitsienti	1.039	1.193	0.154
		Mutloq likvidlilik koeffitsienti	0.371	0.641	0.270
		Balans likvidligi	0.546	0.825	0.279
	Korxona mablag‘lari aylanishini tahlili	Korxonaning joriy aktivlari aylanish ko‘rsatkichlari	1.12	0.44	-0.68
		Korxonaning debitorlik qarzlari ko‘rsatkichlari	6.68	2.14	-4.54
		Korxonaning kreditorlik qarzlari ko‘rsatkichlari	4.41	2.81	-1.60
		Tovar moddiy zahiralari aylanuvchanligi	4.10	4.94	0.84
	Korxona faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	Joriy aktivlar rentabellik ko‘rsatkichi(ROA)	17.0	8.3	-8.7
		Xususiy kapital rentabellik ko‘rsatkichlari(ROE)	6.5	9.6	3.1
		Sotish rentabellik ko‘rsatkichi(ROS)	26.3	38.3	12.0
	Moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari tahlili	Mustaqillik koeffitsienti	0,586	0,417	-0,169
		Qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsienti	0.70	1.39	0.69
		Xususiy kapital xarakatchanlik koeffitsienti	0.28	0.97	0.69

Xulosa: korxonada joriy likvidlik koeffitsenti davr boshiga nisbatan 2.44 ga, tez likvidlik darajasi 0.154 ga, mutlaq likvidlik darajasi 0.270 ga ortgan. Balansligi darajasi davr boshiga nisbatan 0.279 ga ortgan.

Mablag‘lar aylanuvchanligi bo‘yicha o‘zgarishlar quyidagicha bo‘lgan. Jumladan joriy aktivlar aylanuvchanligi davr boshiga niabatan -0.68 ga,

debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi -4.54 ga, kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi -1.60 ga kamaygan. Faqat tovar moddiy zaxiralarning aylanuvchanlik darajasi 4.10 dan 4.94 ga o‘sgan.

Korxona rentabellik darajasi joriy aktivlarga nisbatan o‘tgan yilga nisbatan 8.7 foizga kamaygan, xususiy kapital rentabelligi o‘tgan yilga nisbatan 3.1 foizga ortgan, sotish rentabelligi esa 12.0 foizga ortgan.

Korxonaning mustaqillik koeffitsenti o‘tgan yilda 58.6 foizdan joriy davrga kelib 41.7 foizga tushib qolgan. Qarz va o‘z mablag‘lari nisbatidani bog‘lanish 0.70 dan 1.39 ga ko‘tarilgan. Bu holat joriy davrda kredit va qarzlar summasining keskitn ravishda ortganligidan dalolat beradi. Xususiy kapitalning xarakatchanlik koeffitsenti 0.28 dan 0.97 ga ortgan.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektni moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: mijozning bozordagi obro‘si; mijozning xarakteri; kreditning maqsadli yo‘nalishlari; ta’minlanganligi(garov); kreditni qaytarish shartlari va h.k.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida, **“6S”, “CAMPARI”, “RARTS”** modellaridan keng foydalaniladi.

14.21-jadval

Kreditga layoqatlikni baholashdagi xalqaro molellar va ularning tasnifi

Belgilar	Nimani anglatishi	Tavsifi
“6 C” usuli		
C	Sharacter	Reputatsiya, mijozning xarakteri
C	Capacity	Imkoniyatlar
C	Cash	Naqdlik
C	Collateral	Kafolatlik
C	Conditions	Shartlar
C	Control	Nazorat
“CAMPARI” usuli		
C	Sharacter	Reputatsiya, mijozning xarakteri
A	Ability	Kreditni qaytarishga qobilligi
M	Margin	Marja, daromadliligi
P	Purpose	Kreditlarning maqsadli yo‘nalishlari
A	Amount	Kredit miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
I	Insurance	Ta’minlanganligi, kreditni qaytmaslik riski
“RARTS” usuli		
P	Purpose	Kreditning maqsadligi
A	Amount	Qarz miqdori
R	Repayment	Kreditni qaytarish shartlari
T	Term	Kredit berish muddati
S	Security	Kreditni to‘lashni kaqolatlash

Ushbu modellar ko‘p parametrlarni o‘z ichiga olganligi sababli korxonalarning kreditga layoqatliligini baholashda eng to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

14.5. Korxonaning ishonchligini baholash

Quyida tavsiya etilayotgan uslubiyot korxonalar ishonchligini baholashning, tahlil etishning mavjud nazariy manbalariga tayangan holda tuzib chiqildi va undan barcha tijorat banklari o‘z kredit siyosatini yo‘lga qo‘yishda, faoliyatini maqsadli boshqarishida foydalanishlari mumkin.

Ushbu metodika amaldagi qonunchilik normalariga, tartiblarga va eng muhimi tahlil uchun zarur bo‘lgan axborotlar bazasini shakllantirishning umum belgilangan talablariga tula mos tushadi.

Bunda asosiy jixatlar korxoaning yaqin yillar oralig‘ida bonkrotli bo‘lmaslik, moliyaviy krizislar qiyinchiliklar, depsinishlar va sinishlar holatiga tushmasligi, majburiyatlarni qoplash yuzasidan ishonchli manbalarga ega va ega emasligini baholashga qaratiladi.

Baholashning ummuiy qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin: birinchi navbatda korxoaning e’lon chilinadigan va chop etiladigan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida uning keng qamrovli moliyaviy axvolini, uning kutilishlarini baholash lozim. Ayniqsa aksionerlik jamiyati, yoki mulki fond birjasida sotiladigan kompaniyalarning qimmatli qag‘ozlari, aksiyalarining aylanishiga, bozordagi holatiga muhim ahamiyat qaratish zarur.

Korxona ishonchligini baholashda eng muhim xulosalar shuningdek moliyaviy hisobotlar ma’lumotlari asosida naiqlanadigan koeffitsentlar natijalariga qarab chiqariladi.

Ekspres tahlil asosida korxonaning faoliyat samaradorligi, moliyaviy sog‘lomligi, ishonchlilik darjasi bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda normasining o‘zgarishi; aksiya bahosining o‘zgarishi; dividend summalarining o‘zgarishiga qarab korxonaning ishonchlilik darajasini dastlabki xulosalarni berish mumkin.

O‘z navbatida kompaniyalarning, aksionerlik jamiyatlarining dividend stavkalarini doimiy o‘rganish nafaqat ushbu korxonalarning kredit munosbatlarini tartibga solish balki bank foiz stavkalariga o‘zgarishlar kiritish, kredit shartlarini belgilash moliyaviy boshqaruv strategiyalarini belgilashda ham muhim masala hisoblanadi.

Tahlilda muhim ahamiyat korxonalar aksiyalariga e’lon qilingan dividendlar va bank depozitlari foizi orasidagi nisbat, aloqadorligiga qaratiladi.

Xalqaro amaliyotda ular orasidagi nisbat bo‘yicha quyidagi kategoriyalar tarkiblanadi.

A. Aksiyalar bo‘yicha dividend qaytimi depozit foizidan 20 foiz oshganda- kompaniyaning investitsion jozibadorligi eng yuqori deb baholanadi.

B. Aksiyalar bo‘yicha dividend qaytimi depozit foizidan 20 foizdan kam bo‘lgan hollarda- kompaniyaning investitsion jozibadorligi nisbatan past deb baholanadi.

C. Aksiyalar bo‘yicha dividend qaytimi depozit foizidan yetmagan hollarda hollarda- kompaniyaning investitsion jozibadorligi yo‘q deb baholanadi

D. Aksiyalar bo‘yicha dividend qaytimi depozit foizidan kam bo‘lgan va ular orasidagi interval 20 foizdan ortadigan bo‘lsa- kompaniya faoliyat samaradorligi pas deb baholanadi va investitsiya jalb chilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi (bunda uzoq muddatli investitsiyalar mustasno deb qaralishi mumkin);

E. Aksiyalar bo‘yicha divedendlar to‘lanmasa yoki to‘lash imkoniyatlari bo‘lmasa bunday korxonalar krizis, bankrotlik holatida deb deb qaraladi.

Korxonalar ishonchligini baholashda ularning moliyaviy holati, samaradorligining reyting bahosiga ham muhim axamiyat qaratiladi. Reyting baholash amaliyoti yuqoridagi ko‘rsatkichlar tizimini kategoriyalar bo‘yicha ranjirlashni talab etadi.

Xuddishu tarkibilash va ranjirlash moliyaviy koeffitsentlar bo‘yicha ham amalga oshiriladi.

Moliyaviy koeffitsentlar bo‘yicha quyidagi kategoriyalarni tarikblash mumkin:

K1-kategoriyaga barcha moliyaviy koeffitsentlar (likvidlik, kapital tarkibi, rentabellik va aylanuvchanlik) darajasi o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan korxonalar-ishonchli, moliyaviy barqaror, investitsion jozibador, to‘lovga qobil, sifat menejmentiga ega korxonalar kiritiladi.

K2-kategoriyaga likvidlik va xususiy kapital tarkibi bo‘yicha moliyaviy koeffitsentlari o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlaridan ortadigan biroq, rentabellik va aylanuvchanlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlaridan past bo‘lgan korxorxonalar kiritiladi.Bunday korxonalarni to‘lovga qobil, moliyaviy barqaror deyish mumkin lekin investitsion jozibadorligi, samaradorlikning sifati menejmenti past deb qabul qilinadi.

K3-kategoriyaga likvidligkning barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori lekin qolgan moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha axvoli o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkiyalaridan past bo‘lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar qisqa muddatli to‘lovga qobil, lekin moliyaviy nobarqorlikga ega, investitsion jozibadorligi va samradorlikning sifat menejmenti juda past korxonalar sifatida tarkiblanadi.

K4-kategoriyaga joriy to‘lov layoqatiga ega lekin oralik va tezkor to‘lov layoqatiga ega bo‘lmagan, kolgan moliyaviy koeffitsentlar guruhi bo‘yicha o‘rtacha tarmoq ko‘rsatkichlaridan juda past bo‘lgan ko‘rsatkichlarga ega

bo‘lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar bonkrotlikning boshlang‘ich bosqichidagi korxonalar sifatida qaraladi.

K5-kategoriya –korxonaning joriy to‘lov layoqati 2 dan kichik yoki teng bo‘lgan, qolgan barcha moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha natijalari qoniqarsiz bo‘lgan korxonalar kiritiladi. Bunday korxonalar bonkrot, krizis xolatidagi korxonalar deb e’tirof etiladi.

14.22-jadval

Korxona ishonchligini baholash indiqatorlari va ularning normalari

Ko‘rsatkichlar	Norma	Baho
Joriy likvidlik koeffitsenti	2.0 dan kichik	Qoniqarsiz
	2.0 ga teng va katta yoki 2,0- 2,5 orasida	Qoniqarli
	2,5ga teng va undan katta lekin 3.0 dan kichik	Yaxshi
	3.0 ga teng va undan katta	A’lo
Kayta likvidlik darajasi	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli
	1,5 ga teng va undan katta, lekin 2,0 dan kichik	Yaxshi
	2,0 ga teng va undan katta	A’lo
O‘z aylanma mablag‘lari bilan taminlanish koeffitsenti	0,1 dan kichik	Qoniqarsiz
	0,1 ga teng va undan katta, lekin 0,15 dan kichik	Qoniqarli
	0,15ga teng va undan katta, lekin 0,3 dan kichik	Yaxshi
	0,3 ga teng va undan katta	A’lo
Mutlaq likvidlik koeffitsenti	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli
	1,5 ga teng va undan katta, lekin 3,0 dan kichik	Yaxshi
	3,0 ga teng va undan katta	A’lo
Moliyaviy barqarorlik koeffitsenti	1,0 dan kichik	Qoniqarsiz
	1,0 ga teng va undan katta, lekin 1,5 dan kichik	Qoniqarli
	1,5 ga teng va undan katta, lekin 3,0 dan kichik	Yaxshi
	3,0 ga teng va undan katta	A’lo
Avtonomiya koeffitsenti	Kredit stavkasiga bog‘liq	O‘rnatilmagan
Xususiy kapital rentabelligi	Bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalarining quyi holati	Qoniqarsiz
	Bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari inflyatsiya darajasidan	Qoniqarli

	nisbatan yuqori- 1,25	
	Bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalari inflyatsiya darajasidan nisbatan yuqori- 1,25- 1,5	Yaxshi
	Bank depozitlari bo‘yicha foiz stavkalri inflyatsiya darajasidan nisbatan yuqori 1.5-2.0	A’lo

Korxona ishonchligini baholashda qator ko‘rsatkichlar ifodasi va ularning jamlanmasidan iborat Altmanning formulasidan ham foydalaniladi. Ushbu formulasi korxona iqtisodiy nochorligini baholash modeli sifatida ham tan olingan.

$Z = 6,56X1 + 3,26X2 + 6,72X3 + 1,05X4$

Bunda:

X1 – aylanma mablag‘lar (joriy aktivlar)/jami aktivlar;

X2 – sof foyda/jami aktivlar

X3 – foizlar va soliqlar to‘loviga qadar foyda/ balans jami

X4 – xususiy kapital/majburiyatlar jami

Korxona ishonchligini bilishning qo‘shimcha baholash normalari sifatida ustav kapitalining majburiyatlar nisbatan ustunligiga, korxonaning innovatsion aktivligiga, ko‘rgazma va yarmarkalarda qatnashish darajasiga, yutuqlariga, tanlovlarda g‘oliblik darajalariga ham ahamiyat qaratish lozim.

14.6. Korxona raqobatdoshligining tahlili

Dunyoning barcha davlatlari uchun bosh maqsad bu iqtisodiy o‘sishga, xalq farovonligini taminlashga qaratilgan. Shu sababli jaxonning barcha davlatlarida raqobatdosh xujalik yuritish tuzilmalarini yaratishga, ularni ularni modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy, samarali shakllariga o‘tishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Korxoani raqobatdoshligi- uning bozordagi raqiblarga nisbatan ustunligi va iqtisodiy navflikka ega bo‘lishidir. Raqobatdoshlik kompleks ko‘rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Uni baholashdan maqsad- korxonaning tarmoq, xudud va xalqaro bozordagi o‘rnini belgilashdan iborat.

Korxona raqobatdoshligini baholash algoritmi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-baholash maqsadini aniqlash;

-baholash, tahlil etish faoliyat turlarini belgilash;

-taqqoslash tanlovi;

-ko‘rsatkichlarini tanlash va tasniflash;

-ko‘rsatkichlarni baholash, tahlil etish;

-ko‘rsatkichlar baholash natijalarini umumlashtirish;

-raqobatdoshlikni baholash xulosalarini tayyorlash.

14.23-jadval

Korxoaning raqobatdoshligini aniqlashning ko‘rsatkichlari tizimi va ularning aniqlanishi

Ko‘rsatkichlari	Aniqlanishi	Ko‘rsatkichni baholashdagi roli
1. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi- En		
1.1. Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlari	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi	Mahsulot ishlab chiqarishda xarajatlarning samaradorligini ko‘rsatadi
1.2. Fond qaytimi	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / asosiy vositalarining o‘rtacha yillik qiymati	Asosiy ishlab chiqarish vositalarining samaradorligini tasniflaydi
1.3. Ishlab chiqarish rentabelligi, %	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda x100% /sotilgan mahsulotning to‘liq tannarxi	Xarajatlarning foyda keltirishini tasniflaydi
1.4. Mehnat unumdorligi, ming so‘m/kishi	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / Xodimlarning o‘rtacha ro‘yxat soni	Mehnatning samaradorligini tasniflaydi
2. Korxonaning moliyaviy ahvoli- Fn		
2.1. Avtonomiya koeffitsenti	Xususiy kapital / Balans jami	Korxonaning qarshi tomonga qaram bo‘lmasligini tasniflaydi
2.2.To‘lov layoqati koeffitsenti	Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar	Korxonaning majburiyatlarini bajarishini tasniflaydi
2.3. Mutlaq likvidlik koeffitsenti	Pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar / qisqa muddatli majburiyatlar	Joriy majburiyatlarni qoplash manbalar bo‘lgan vositalarning sifat tarkibini ko‘rsatadi
2.4. Aylanma aktivlarning aylanuvchanlik koeffitsenti	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum /Aylanma aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati	Aylanma aktivlarning aylanishlar soni va davrini tezligini tasniflaydi
3. Tovarni sotish va ilgari surishni tashkil qilish samaradorligi- Ec		

3.1 Sotuv rentabelligi, %	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda x100% / Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	Sotish foydaligini tasniflaydi
3.2. Tayyor mahsulotning omborda turib qolish koeffitsienti	Sotilmagan mahsulotlar hajmi / Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	Tayyor mahsulotning bozoriyligini tasniflaydi
3.3. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum / Ishlab chiqarish quvvati xajmi	Quvvatlardan foydalanishning samaradorligini tasniflaydi
3.4. Reklama va sotuvni rag‘batlantirish vositalari koeffitsienti.	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda /reklama va sotuv xarajatlari	Reklama va sotuvni xarajatlarining qoplanishini tasniflaydi
4. Tovarning raqobatdoshligi- Kt		
4.1. Tovarning sifati	Oliy, Birinchi kategoriyadagi mahsulotlar hajmi/jami mahsulot xahmi	Mahsulotning sifatlilik darajasini tasniflaydi
4.2. Tovarning narxi	Tovarlarning xaqiqiy tannarxi+,- reja tannarxidan farq+foyda	Mahsulotning taklif narxini shallknatiradi

Korxonaning raqobatdoshlik koeffitsienti quyidagi formula orqali aniqlash mumkin[130].

(Kkn): Kkn = 0,15 x En + 0,29 x Fn + 0,23 x Ec + 0,33 x Kt, (1)

Bu yerda: Kkn - korxonaning raqobatdoshlik koeffitsienti; En – korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini belgilovchi samaradorlik mezoni; Fn – korxonaning moliyaviy ahvolini belgilovchi samaradorlik mezoni; Es – tovarni sotish va bozorda ilgari surishni tashkil qilishning samaradorlik mezoni; Kt – tovarning raqobatdoshlik mezonlari; 0,15, 0,29, 0,23, 0,33 - mezonlarning salmoq koeffitsientlari. Salmoq koeffitsientlarning miqdori ekspertlar tomonidan aniqlanadi.

Korxona raqobatdoshligini aniqlashning SWOD tahlili metodikasi.

Raqobatdoshlikni baholash algoritmi: moliyaviy, ishlab chiqarish, tashkil etish va boshqaruv,marketing, xodimlar tarkibi, texnologik tarkib bo‘yicha holatlar alohida o‘rganishi xarakterlaydi.

14.24-jadval

Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilishning SWOD modeli

Baholash ko‘rsatkichlari	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
Moliyaviy (Rm)					
Aktivlar tarkibi	**Ai**	**Ai**	**Ai**	**Ai**	**Ai**

[130] М.Р.Болтабаев. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. Тўқимачилик саноати корхоналарининг рақобатдошлигини баҳолаш услубини такомиллаштириш

Investitsion jozibadorlik	**Ii**	**Ii**	**Ii**	**Ii**	**Ii**
Aktivlar daromadligi	**Di**	**Di**	**Di**	**Di**	**Di**
Foyda normasi	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**
Kapital foydaliligi	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**
Ishlab chiqarish(Ri)					
Uskunalardan foydalanish	**Ui**	**Ui**	**Ui**	**Ui**	**Ui**
Ishlab chiqarish quvvatlari	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**
Xodimlar soni	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**
Sifat nazorati tizimi	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**
Mehnat unumdorligi	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**
Texnologik uskunalarning yoshi	**Ti**	**Ti**	**Ti**	**Ti**	**Ti**
Tashkil etish va boshqarish(Rb)					
Boshqaruv xodimlari va injener texnik xodimlar soni	**Bi**	**Bi**	**Bi**	**Bi**	**Bi**
Boshkaruv xodimlarining tashqi muhit tasirida o‘zgarishga moyilligi	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**
Funksiya va vazifalarning aniq belgilanishi	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**
Boshqaruvni tashkil etish strukturasi	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**
Boshqaruvda foydalaniladigan axborotlar sifati	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**
Boshqaruv tuzilmasining o‘zgaruvchanlik	**Ti**	**Ti**	**Ti**	**Ti**	**Ti**
Marketing(Rr)					
Bozordagi ulushi	**Bi**	**Bi**	**Bi**	**Bi**	**Bi**
Firma reputatsiyasi	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**	**Fi**
Brend prestiji	**Pi**	**Pi**	**Pi**	**Pi**	**Pi**
Reklama samaradorligi	**Ri**	**Ri**	**Ri**	**Ri**	**Ri**
Strategiya	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**
Boholash siyosati	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**
Sotishning tashkiliy va texnik jihatlari	**Ji**	**Ji**	**Ji**	**Ji**	**Ji**
Xizmatlar sifati	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**
Mijozlar soni	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**	**Mi**
Kadrlar tarkibi(Rx)					
Kadrlar kvalifikatsiya darajasi	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**	**Ki**
Sotishda band bo‘lgan xodimlarning texnik kvalifikatsiya darajasi	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**	**Xi**
Texnologik(Rt)					
Standartlarning qo‘llanishi	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**	**Si**
Yangi mahsulotlar	**Yai**	**Yai**	**Yai**	**Yai**	**Yai**
Innvovatsion, ilmiy tadqiqot xarajatlari	**Ii**	**Ii**	**Ii**	**Ii**	**Ii**

1,2,3,4,5- qatorlar korxonalarning taqobatdoshlik darajasi bo‘yicha sifat mezonlari hisoblanadi. Buda: 1-a’lo; 2-yaxshi; 3-o‘rta; 4-o‘rtadan past, 5-tashvishli holat deb beligilanadi.

14.25-jadval

Korxona raqobatdoshligini aniqlash va tahlil qilishning «4R» modeli

Raqobatdoshlik omillari	**Taxlil qilinayotgan korxonada**	**Konkurentlarda**		
		A	**V**	**.....**
Mahsulot (Rm)				
Ishonchlik	**Rm_1**	**Rm_1**	**Rm_1**	**Rm_1**
Xizmat muddati	**Rm_2**	**Rm_2**	**Rm_2**	**Rm_2**

Tamir talablik	**Rm_3**	**Rm_3**	**Rm_3**	**Rm_3**
Texnik darajasi	**Rm_4**	**Rm_4**	**Rm_4**	**Rm_4**
Savdo marakasi obro‘si	**Rm_5**	**Rm_5**	**Rm_5**	**Rm_5**
Tamirlash xizmati darajasi	**Rm_6**	**Rm_6**	**Rm_6**	**Rm_6**
Qo‘shimcha xizmatlar qulayligi	**Rm_7**	**Rm_7**	**Rm_7**	**Rm_7**
Xizmatlar va maxsulotlarni tanlash variantlari	**Rm_8**	**Rm_8**	**Rm_8**	**Rm_8**
Assortiment tarkibi	**Rm_9**			
Narx(Rn)				
Chakana bahosi	**Rn_1**	**Rn_1**	**Rn_1**	**Rn_1**
Ulgurji bahosi	**Rn_2**	**Rn_2**	**Rn_2**	**Rn_2**
Narx chegirmalari	**Rn_3**	**Rn_3**	**Rn_3**	**Rn_3**
Hisob-kitob shakllari	**Rn_4**	**Rn_4**	**Rn_4**	**Rn_4**
Tovarlarni sotish regioni va yo‘llari(Rs)				
Sotish strategiyasi	**Rs_1**	**Rs_1**	**Rs_1**	**Rs_1**
Taqsimot turlari	**Rs_2**	**Rs_2**	**Rs_2**	**Rs_2**
Dilerlar soni	**Rs_3**	**Rs_3**	**Rs_3**	**Rs_3**
Distryubiterlar soni	**Rs_4**	**Rs_4**	**Rs_4**	**Rs_4**
Bozorni egallash darajasi	**Rs_5**	**Rs_5**	**Rs_5**	**Rs_5**
Sotish xududlari	**Rs_6**	**Rs_6**	**Rs_6**	**Rs_6**
Reklama(Rr)				
Reklama shakllari	**Rr_1**	**Rr_1**	**Rr_1**	**Rr_1**
Reklama joylari	**Rr_2**	**Rr_2**	**Rr_2**	**Rr_2**
Reklama byudjeti xajmi	**Rr_3**	**Rr_3**	**Rr_3**	**Rr_3**
Reklama chastatasi	**Rr_4**	**Rr_4**	**Rr_4**	**Rr_4**
Ko‘rgazmalarda ishtiroki	**Rr_5**	**Rr_5**	**Rr_5**	**Rr_5**
Ommaviy axboroot vositalarida e’lonlar	**Rr_6**	**Rr_6**	**Rr_6**	**Rr_6**
Chegirmalar	**Rr_7**	**Rr_7**	**Rr_7**	**Rr_7**

J.J. Lamben modeli bo‘yicha raqobatoshlik tahlili metodikasi ham amaliyotda keng qo‘llaniladi. Unda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida bozordagi ulushi, tovarlar tarkibi ulushi, xarajatlar sarfi, texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi va imidji olingan.

14.26-jadval

Raqobatdoshlikning aniqlash va tahlil qilishning Lamben modeli

Baholash ko‘rsatkichlari	**Baholash mezonlari**		
	Past 1-2 ball	**O‘rta 2-3 bal**	**Yuqori 4-5 ball**
Bozordagi ulushi	3/1 dan kichik	3/1 dan yuqori	lider
Tovar tarkibining ulushi	diferensiyalanmagan	diferensiyalangan	Noyob
Xarajatlar	Raqobatchilarniki yuqori	Raqobatchilarniki bilan bir xil	Raqobatchilarnikidan kam
Texnologiyalni o‘zlashtirish darajasi	O‘zlashtirish qiyin kechadi	O‘zlatirish ason kechadi	To‘liq o‘zlashtirilgan
Imidj	yo‘q	Rivojlangan	Kuchli imidjga ega

Natijalar ballik tizimda baholanadi.

Raqobatdoshlikning shuningdek ichki normalar, tartiblari ham belgilanadi. Eng ommalashgan formasi bu reyting baholash ususli hisoblanadi.

$$R_j = \sqrt[n]{X_1 + X_2 + \ldots + X_n},$$

Bu yerda:

R_j — korxonaning reyting bahosi;

X_1X_2,.. .X_n — tahlil qilinayotgan ko‘rsatkichlarning nisbiy ifodasi; Shuningdek, korxona raqobatdoshligini aniqlashning matritsali, samaradorlikka bog‘langan modellaridan ham amaliyotda keng foydalaniladi.

14.7. Daromad tahlili

Kredit inspektorlari layoqatlikni baholashda o‘rganidigan eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bu korxonaning doromad ko‘rsakichi hisoblanadi. Ddaromadlar tahlilida ularning joriy va istiqboldagi ko‘rsatkichlarini baholash lozim. Bunda, omilli tahlilga ham muhim e’tibor qaratish lozim. Bu borada kredit inspektorlari, ekspertlar quyidagi muhim jixatlarni ahamiyat qaratishlari lozim: foydani maksimallashtirishning qanday imkoniyatlari mavjudliga; agar korxona zararga ishlayotgan bo‘lsa buning sabablarini chuqur o‘rganishi; tendensiyalariga (tarmoq rivojlantirish yuzasidan dasturlarga, faoliyatning kelajagiga, bozorning kengayishiga va x.k.); xarajatlarni boshqarish imkoniyatlariga va h.k. jihatlarga.

14.27-jadval

Daromadlar tahlili va uning muhim qatorlari

O‘rganish qatorlari	Mazmuni
Daromadning tarkibiy va trend tahlili	Korxonada daromadlarining umumiy xajmi va tarkibiy tuzilizi bo‘yicha gorizontal,vertikal va trendli tahlili amalga oshiriladi.
Daromadalrning koeffitsentili tahlili	Daromadlarning mutlaq ifodalari moliyaviy natiajaviylikni aniq baholash imtoknini bermaydi. Shu sbabli ko‘pincha ularning nisbiy ifodalariga axamiyat qaratiladi. Bu bir so‘mlik aktiv, xarajat, kapitalga to‘g‘ri keladigan daromad ko‘rsatkichini ifoda etadi.
Daromadlarning omilli tahlili	Daromadlarning o‘zgarishiga tasir etuvchi ichki va tashqi omillarning ta’sirini aniq baholash va ularni maksimallashtirishning chora tadbirlarini ko‘rish imoknini beradi.
Daromadlarning moliyaviy natijalarga ta’sirining tahlili	Daromadlar xarajatlar bilan bog‘langan holda moliyaviy natijaviylikning foyda va zararlarda to‘planishi, ularning jamg‘arilishi, ishlatilishi yuzasidan moliyaviy axvolga ta’sirini baholashni tasniflaydi.

Kredit inspektorlari daromadlar tahlilida operatsion faoliyatdan daromadlarning muhim qatori hisoblangan mahsulot (tovar, ish va

xizmat)larni sotishdan sof tushumlar, sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi hamda mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foyda ko‘rsatkichlarini o‘zgarishlariga, ularning o‘zgarish sabablariga, sof foyda tarkibidagi salmog‘iga ahamyait qaratishlari lozim. Negaki bu foyda kreditlarning foizlarini qoplash manbasi ham hisoblanadi. Kreditorlarning olingan kreditlar hisobiga to‘lovlari va ularga tegishli foizlarning to‘lash imkoniyatlarining mavjudligini faqat ularning o‘zigagigina axamiyatli masala emas.

Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumlarning o‘sishi bilan, sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxining o‘sishi, shu bilan birgalikda mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o‘zgarishlarini baholashda albatta ularning o‘zaro bog‘liqligiga va uzviylikdagi aloqadorligia muhim e’tibor berish lozim

Ya’ni; mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o‘sishi mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning o‘sishidan yuqori bo‘lishi va uning o‘sishi sotilgan maxsulot (tovar, ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tanarxining o‘sishidan yuqori bo‘lishi lozim.

Buni formula shaklida quyidagicha ifoda etish mumkin.

$$F_S \geq T_s \geq T_x$$

F_S -mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan yalpi foydaning o‘sishi:

F_S =joriy yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardan yalpi foyda/ o‘tgan yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardan yalpi foyda

T_s-mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning o‘sishi:

T_s= joriy yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardan sof tushum/ o‘tgan yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardan sof tushum

T_x- sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxining o‘sishi:

T_x= joriy yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardan ishlab chiqarish tannarxi foyda/ o‘tgan yil sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lardanishlab chiqarish tananarxi

Sof tushumlarni baholashda albatta sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning tan olinishi bilan ular yuzasidan naqd pul mablag‘larining shakllanishi darajasiga ham muhim ahamiyat qaratish lozim. Negaki daromadlarni tan olishda yoki sotishdan tushumlarni hisobga olishda “hisobga olish” qoidasiga amal etilishi bilan ularning naqdligini

taminlashda “kassa” usuliga amal etilishi doimo ham majburiyatlar yuzasidan naqd mablag‘lar mavjudligini taminlay olmaydi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning naqdligini quyidagi bog‘lanish asosida naiqlash mumkin

$$Tn = DKb + Ts - DQo \quad (2)$$

Tn- mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan naqd tushum (Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotdan olinadi);

DQb-davr boshiga mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan debitorlik qarzdorlik summasi;

DQo-davr oxiriga mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan debitorlik qarzdorlik summasi;

Ts- mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum summasi (moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotdan olinadi)

14.28-jadval

Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning omillik tahlili metodikasi

Tasir birliklari modeli	Inqtisodiy tasniflari	
Ts = UMA * AVumas * AVjavs * FQav	Uzoq muddatli aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (UMA); AVumas-asosiy vositalarning uzoq muddatli aktivlardagi salmog‘i; AVjavs-aktiv asosiy vositalarning jami asosiy vositalarning tarkibidagi salmog‘i; FQav-asosiy vositalarning aktiv qismining fond qaytimi	
$T_s = \sum JA * Tjas - Tak$	JA-Joriy aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati; Tjas-tovarlarning joriy aktivlardagi salmog‘i; Tak-tovarlarning aylanish koeffitsenti	
$Ts = \sum X * Ixts*MUi$	X- xodimlarning o‘rtacha ro‘yxatdagi soni; Ixts-ishchilarning xodimlar tarkibidagi salmog‘i; MUi-ishchilarning mehnat unumi	

Daromadlarning moliyaviy faoliyatdan va favqulodda holatlardan yuzaga kelgan qismi tahlilda alohida o‘rganiladi va ularning ta’sir birliklari yuqoridan tarkibdan tubdan farq siladi.

14.8. Kreditlarning muddatligi va maqsadligi bo‘yicha ishlatilishi tahlili

Kreditning muddatligi- bu olingan kreditni o‘z vaqtida qaytarib berishligi bilan tavsiflanadi.

Kreditning muddatlilik tamoyili qarzdor uchun qulay bo‘lgan har qanday vaqtda emas, balki kredit bitimida ko‘rsatilgan malum muddatda kreditning qaytarilishi zarur ekanligini bildiradi. Kreditning muddatliligi har ikkala tomon, kreditor va qarz oluvchi uchun muhimdir. Agar kreditor qarzni

foizi bilan o‘z vaqtida qaytib olsa, uni egasiga o‘z vaqtida qaytarish yoki yana kreditga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qarz oluvchi kreditni samarali ishlatib, uni o‘z vaqtida kreditorga qaytarish va shu bilan shartnomadagi jazo choralaridan qutilishidan manfaatdor. Kreditning muddati bo‘yicha kredit shartnomada ko‘rsatilgan shartlarning buzilishi natijasida qarz beruvchi qarz oluvchiga iqtisodiy choralar (jarimalar shaklida, kredit bo‘yicha foiz darajasini oshirish, kreditning muddatini qisqartirish va boshqalar)ni qo‘llashi mumkin. Bu choralar ham yordam bermagan hollarda qarz beruvchi moliyaviy talablarni xo‘jalik sudi orqali undirib olishi mumkin. Kreditning muddatliligi kelib tushuvchi boyliklarni tejamli va qayta ishlatish, ishlab chiqarilgan mahsulotni jo‘natish, tovarlarni sotish muddatlariga va pirovard natijada aylanma fondlarining doiraviy aylanishining tezligiga bog‘liqdir.

Olingan kreditning maqsadli ishlatilganligi muhim masala hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, qarz oluvchi tomonidan olingan kreditlar aniq bir maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Kreditning qaysi maqsadga yo‘naltirilganligi, masalan, tovar-moddiy boyliklar sotib olishga yoki biror ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga va hokazo aniq biror ob’ektga maqsadli yo‘naltirilganligi korxona bilan bank o‘rtasida tuziladigan kredit shartnomada ko‘rsatilgan bo‘ladi. Korxona olgan kreditini faqatgina kredit shartnomada ko‘rsatilgan ishni bajarishga sarflashi kerak. Bunda kredit muayyan, aniq ob’ektga: ishlab chiqarish xarajatlariga, ishlab chiqarish zaxiralariga, tayyor mahsulotga, jo‘natilgan tovarlarga, hisob-kitob hujjatlariga va hokazolarga beriladi.

Jahon amaliyotida umumiy biror ehtiyojni qoplash uchun ishlatiladigan kreditlar mavjud. Bunda bank tomonidan beriladigan kreditlar qarz oluvchining moliyaviy resurslarga bo‘lgan turli ehtiyojlarini qondirish uchun o‘z ixtiyori bo‘yicha ishlatiladi.

Hozirgi sharoitda ular qisqa muddatli kreditlash sohasida cheklangan tarzda qo‘llaniladi, o‘rta va uzoq muddatli kreditlashda umuman qo‘llanilmaydi. Bizning amaliyotimizda banklar tomonidan biror maqsadni amalga oshirish uchungina kreditlar beriladi.

O‘zining faoliyat doirasiga qarab, qarz oluvchi korxona va tashkilotlarni bir necha guruhlarga bo‘linishi mumkin.

Tijorat sohasi uchun kreditlar berish. Bu soha bo‘yicha kreditlar savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi xo‘jalik sub’ektlariga beriladi. Bu kreditlar tez aylanib kelish xususiyatiga ega bo‘lib, tijoratchilar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyatga egadir.

Bank tomonidan kreditlar qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha oldi sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi, fond birjasi vositachilari: broker, makler, dilerlik firmalariga ham beriladi.

Ko‘chmas mulk uchun ipoteka kreditlari berilishi ham mumkin. Ular

ham oddiy, ham ixtisoslashgan ipoteka banklari tomonidan beriladi. Bu hozirda xorij amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, hatto ba’zi manbalarda kreditning alohida shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

Banklararo kreditlar – bank kreditining keng tarqalgan shakllardan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma’lum bir tijorat bankning boshqa turlardagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu me’yorning aniq miqdori (foiz stavkasi) Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Kreditlarning maqsadligini tasniflashda ularning uzoq va qisqa mudatga kreditlarga bo‘linishiga muhim ahamiyat qaratish lozim. Odatda, uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan uzoq muddatli kreditlar, joriy aktivlarni moliyalashtirsh uchun qisqa muddatli kreditlar jalb etiladi. Farqlash muddati sifatida bir yildan oshiq va bir yilgacha muddat chegaralangan.

Balans moddalariga nisbatan joriy holatni baholashda quyidagilarga

Kroeditlarning quyidagi sxematik bog‘lanishlarini berib o‘tish lozim.

14.29-jadval

Balans aktivini moliyalashtirish tartiblari

Aktivlar	**Summa**	**Passivlar**	**Summa**	**Moliyalashtirish manbasi**
Uzoq muddatli aktivlar	**A4**	**Uz mablag‘lari manbasi**	**P4**	**P4 A4, A3**
Joriy aktivlar shu jumladan:	$\sum_{a=1}^{3}$	**Majburiyatlar shu jumladan:**	$\sum_{P=1}^{3}$	
Tovar moddiy zaxiralar	**A3**	**Uzoq muddatli kreditlar va qarzlar**	**P3**	**P3 A4**
Debitorlik majburiyatlari	**A2**	**Qisqa muddatli kreditlar va qarzlar**	**P2**	**P2 A3, A2**
Pul mablag‘lari	**A1**	**Kreditorlik majburiyatlari**	**P1**	**A1 P1,P2,P3**

Kreditning maqsadli ishlatilishi va muddatligini o‘rganishdan tashqari ulardan oqilona foydalanish darajasini, samaradorligini ham baholash lozim.

Bu nafaqat kredit va foiz summasini bankga qaytarib to‘lashni, bundan tashqari, shu kredit yordamida kreditlanadigan yoki moliyalashtiriladigan soha, tarmoq, korxona qancha samaradorlikka erishishayotganligini ham baholash imonini beradi.

Kreditlar albatta ma’lum bir loyihalarning bajarilishiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Banklar loyihalarni kreditlash yoki moliyalashtirishdan oldin loyihani bajarish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘larning samaradorligini hisoblab chiqishlari zarur.

Agar iqtisodi rivojlangan davlatlarda kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish amaliyotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda korxona,

tashkilotlarga kredit berishdan oldin qo‘yiladigan mablag‘larning samaradorligi muxim e’tibor qarilishini ko‘rishimiz mumkin.

Agarda loyihaga qo‘yiladigan mablag‘lar iqtisodiy va moliyaviy samara beradigan bo‘lsa, shu loyiha uchun mablag‘ ajratiladi.

Kreditning samaradorligi ishlab chiqarish va savdo hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Samaradorlik kreditning tamoyillarining ham bajarilishi uchun asos hisoblanadi. Samaradorlik kreditdan aniq, maqsadli foydalanishni taqozo qiladi.

Ishlab chiqarish va sotish hajmi qanchalik katta, kredit resurslarining aylanish davri qanchalik qisqa bo‘lsa kredit qo‘yilmalarining samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi.

14.9. Risklar tahlili. Kreditga layoqatlikni baholashda nazoratning davomiyligi

Kredit risklari bilan bog‘liq muammolar, shuningdek risklarini boshqarish zaruriyati bozor iqtisodiyotining chuqurlashuvi va xalqaro iqtisodiyotning globallashuv sharoitida muhim masalalardan biriga hisoblanadi.

Kredit risklari xususida gap ketganda, asosiy e’tiborni ushbu risklarning tabiatiga, mohiyatiga, kelib chiqish sabablari va ijtimoiy – iqtisodiy oqibatlariga qaratish lozim.

Xalqaro bank amaliyotida risklar bilan bog‘liq munosabatlar asosan aktiv operatsiyalar jarayonida ro‘y beradi. Tijorat banklarining riskga bog‘liq bo‘lgan asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit va investitsiya operatsiyalarini keltirish mumkin.

Bank risklari vujudga kelishi, namoyon bo‘lishi jihatidan turli-tuman bo‘lib, ularning barchasi pul egasining kredit sifatida yo‘naltirgan qiymatining va unga to‘lanadigan foiz to‘lovlarining to‘lig‘icha qaytib kelmasligi bilan izohlanadi.

Kredit xatari yoki qarzni qaytarmaslik xavfi kreditorning kredit kelishuviga asosan kreditni o‘z vaqtida qaytarilishiga va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligidan kelib chiqadi. Kredit riski bank faoliyatida uchraydigan risklarning eng yirigidir. Shuning uchun tijorat banklari kredit siyosatida bu jarayonga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Olingan kreditni o‘z vaqtida qaytarilishi va kredit shartlarini bajara olishiga ishonchsizligining ko‘rinishlari sifatida kreditlarni to‘liq qaytarmaslik, qisman qartarmaslik (bu holat ko‘pincha olingan kreditlarning foizlari va komission to‘lovlarida tegishli bo‘ladi) yoki muddatning

kechiktirishlari nazarda tutiladi.

Kredit riski qarz oluvchining kredit shartnomosi shartlariga muvofiq to‘lashi lozim bo‘lgan majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘lay olmasligi xav xatarlarini xarakterlaydi.

Banklarning risklarini yo‘qotishning eng maqbul yechimiga qarzdorlarning kredit qobiliyati, moliyaviy barqarorligini doimiy monitoring qilish orqaligini erishiladi.Bunda likvidlilik va mustaqillik (avtonomiya) risklariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kredit riski kredit oluvchining qarzdorlikni so‘ndirishi yuzasidan imkoniyatsizligi, pul oqimini to‘g‘ri shakllantira olmasligi, moliyaviy qiyinchiliklar, rahbar va korxona egalarining ishchanlik reputatsiyasining pastligi yoki kriminal xissiyotlarining ustunligi bilan yuzaga keladi.

Shu bilan birga davlat organlari va ayrim shaxslarninng bosimi tufayli ham ushbu risklarga boriladi.

Kredit rislarining yuqoriligiga xodimlar malakasining pastligi, jamoadagi ijtimoiy keskinlik, poraxo‘rlik holatlari ham kuchli tasir etadi.

Kredit risklarini baholash birinchi navbatda potensial qarz oluvchilar bilan tanishuvdan boshlanadi. Bunda mijozning reputatsiyasi, tadbirkorlik, ishlab chiqarish, marketing va moliyaviy boshqaruvdagi kobilyatiga baho beriladi. Kredit taklifining qanchalik yaxshi tayyorganligi, uning iktisodiy, ijtimoiy, ekologik jixatdan qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi, kreditning maqsadligi va uning bank, qarz oluvchi, alohida ijtimoiy qatlamlar, tarmoq, xudud uchun ahamiyatli ekanligiga muhim e’tibor qaratish zarur. Ijobiy baholash kredit mahsulotlari yuzasidan muhim qarorlar qabul qilishning o‘tish imkonini beradi. Bu jarayon bevosita mijozning kreditga layoqatligini, moliyaviy ahvolini va pul mablag‘lari xarakatini baholashga imkon beradi. Yakuniy jarayon albatta kredit shartnomasini rasmiylashtirish jarayoni hisoblanadi.

Risklarni boshqarishning muhim yo‘nalishi sifatida to‘ovlar grafigni shakllkantirish va uning doimiy monitoringini tashkil etish hisoblanadi. Bu jarayon tezkor kredit monitoringini olib borishni nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi muammoli kreditlarni aniqlash va ularni undirish choralarini ko‘rishga qaratilgan.

Olingan kreditlarni muddatida to‘lamaslik, kechiktirish juda ko‘p kuzatiladigan xolatlar hisoblanadi. Uning muhim sabablari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: debitorlik majburiyatlarining tushib ketishi; likvidlik koeffitsentining pastligi; sotish xajmining tushib ketishi; operatsion faoliyat zarari; zaxiralarning ortiqcha jamg‘arilishi va ushlab turilishi; muhim mijozlarni yo‘qotishi, qarz oluvchining biznes sheriklari extiyotkorligi, rahbarlarning bank bilan aloqa qilishdan qochishi, ularning talab qilingan axbaortlarni berishdan bosh tortishi yoki kechiktirishlari vah.k.

Risklarni zararsizlantirishning ichki omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: mijozning kreditga layoqatligini baholash (profilaktika amallari, risklarni oldini olish; qarzning xajmiga va potensial tavakkalchilik darajasiga qarab qarz qarorini olish vakolatini chegaralash;loyixani birgalikda moliyalashtirish, qisman qarzdorning o‘z mablag‘lari hisobiga moliyalash; korxona boshqaruvi va menejmentida muammoli kreditlar bilan ishlashning mavjudligi; shartnomada kelishilgan majburiyatlarning ximoyalanganligi (axborot taminoti, taminot, jarimalar, foizlar to‘lovi); ichki bo‘g‘inlar ish faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi (iqtisodiy tahlil bo‘limi, xavfsizlik bo‘limi va h.k.); xuquqiy javobgarlikni qo‘llash xolatlari va h.k.

Kredit riskining (minimal oqibatlari, zararlar) kamaytirishga qaratilgan xarakatlarga: kredit portfelini diversifikatsiyalash; alternativ pul oqimlarini shakllantirish; bitta mijozga beriladigan kreditlarning aniq miqdorini cheklash; diskontlangan ssudalarni berish; qarz majburiyatlarin uchinchi shaxsga chegirmalar bilan sotishni kiritish mumkin.

Korxonalarning kreditga layoqatligini o‘stirishning amaliy chora tadbirlari, ularning moliyaviy holatida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va natijalardan kelib chiqib belgilanadi. Ya’ni, to‘lovga qobil korxonalarda belgilanadigan chora tadbirlar, to‘lovga noqobil, moliyaviy nobarqaror korxonalarda belgilanadigan chora tadbirlar keskin farq qiladi. Ulardan biri moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga harakat qilsa, ikkinchisi muammoni hal etish va yashab qolish harakatiga tushadi.

To‘lovga noqobiillik yoki kreditga layoqatlikni o‘stirishni muhim tadbirlariga quyidagilar kiradi.

Korxonalar aktivlari va passivlarini joylashtirishni qayta ko‘rib chiqish. Uning mazmunini qanday tushunish mumkin?

Korxonalarda likvid mablag‘larining aylanuvchanligini tezlashtirish maqsadida ortiqcha aylanma aktivlarni hisobdan chiqarish, asosiy va nomoddiy aktivlarni ishlab chiqarish zaruriyatidan ortig‘ini aylanma mablag‘lar qatoriga olish (ularni sotish, bo‘zish, hisobdan chiqarish va boshqa yo‘llar bilan), debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini so‘ndirish (yo‘l qo‘yilgan tartiblarda), qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalarni maqsadli joylashtirish.

To‘lov mablag‘lari va to‘lov majburiyatlari orasidagi nisbatdagi manfiy o‘zgaruvchanlik sababini moliyaviy holatdagi tanglikdan emas, balki, ishlab chiqarish va boshqaruvning quyi bo‘g‘inlaridan izlash lozim. Ya’ni, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishni yaxshi yo‘lga qo‘yilmasligi, ishlab chiqarish harajatlarini oshib ketishi, narx belgilash siyosatining to‘g‘ri yuritilmasligi va boshqalar.

To‘lovga noqobillik sharoitida mablag‘lar yetishmovchiligini hal etish yuzasidan avvalo, ichki imkoniyatlarni aniqlab olish va ularni ishga solish

lozim. Noqobillik sharoitida boshqa bir sub'ektdan qarz so‘rash va uning ishonchini oqlashni iqtisodiy imkoniyati bo‘lmaydi.

Korxonalar noishlab chiqarish bo‘g‘inlari, uning balansida turuvchi faoliyatning boshqa ob'ektlarini harajatlarini kamaytirish, to‘xtatish yoki o‘z o‘zini mablag‘ bilan ta'minlashga o‘tkazish lozim.

Korxonalarni pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining aylanishida qat'iy rejalarni belgilash va unga doimiy amal etish lozim. Shuningdek, pul mablag‘larini qarz majburiyatlariga ishlatishini aniq rejasini to‘zib olish zarur.

Mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirishning imkoniyatlarini oshirish yuzasidan hisob-kitoblarning bekor qilingan, to‘xtatilgan, shuningdek zamonaviy shakllariga keng yo‘ ochish lozim.

Korxonalarning kreditga layoqatligini ta'minlash va uni o‘stirishda albatta ularning investitsion aktivligiga ham ahamiyat berish lozim. Investitsion aktivlik bu qarz olish va uni qaytarishdan keskin farq etadi.

Korxonalarda kreditga layoqatlikni baholashni asosiy jihatlaridan biri o‘z oborot mablag‘lari naqdligiga qaratilganligi bois ularni manblashni uz mablag‘lari manbasi bilan bog‘liq bo‘lgan qatorlarini oborot aktivlari normativlaridan kelib chiqqan holda baholash lozim. Bunda oborot aktivlarning ortiqchaligi manbalashdagi holatni bo‘zib ko‘rsatishga olib keladi. Kam xollarda hollarda esa suniy ravishda oshib ketishiga olib keladi.

Korxonalar kreditga layoqatligini ustirishning muhim chora tadbirlaridan biri bu bevosita hisob kitoblardagi majburiyatlarni ichki va tashqi majburiyatlarga tarkiblash orqali baholash amaliyotiga o‘tishdir. Korxona majburiyatlari qatoridan ichki majburiyatlarni chegirish ushbu harajatlarni yo‘q qilmaydi. Lekin to‘lovga qobillikni oshirishda sezilarli siljishga imkon beradi.

Nazorat uchun savollar

1. Kreditga layoqatlik degenda nimani tushunasiz?
2. Korxoanining kreditga layoqatligini tahlil etishning axborotlar bazasiga nimalar qiradi?
3. Kreditga layoqatlik tahlilining mazmunini tushuntiring?
4. Korxonaning kreditga layoqatligini maqsadi va vazifalari?
5. Kreditga layoqatlikning tavsifi?
6. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullariga nimalar kiradi?
7. Ekspert baholash?
8. Ballik (skoring)baholash tizimi?
9. Kreditga layoqatlikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari?
10. Korxonaning ishonchligini baholash?

11. Raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini tahlili?
12. Daromad tahlili?
13. Kredit resurslari maqsadligini tahlili?
14. Kreditga layokatlikni moliyaviy koeffitsientlarda baholash?
15. Kreditni ta’minlanganligini tahlili?
16. Risklar tahlili?
17. Kreditga layoqatlikni baholashda nazoratning davomiyligi?
18. Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilish zaruriyati?
19. Korxoaning raqobatdoshligini aniqlashning ko‘rsatkichlari tizimi va ularning aniqlanishi?
20. Raqobatdoshlikning aniqlash va tahlil qilishning Lamben modeli?
21. Korxona raqobatdoshligini aniqlash va tahlil qilishning «4R» modeli?
22. Raqobatdoshlikni aniqlash va tahlil qilishning SWOD modeli?
23. Balans aktivini moliyalashtirish tartiblari?
24. Korxona ishonchligini baholash indiqatorlari va ularning normalari?
25. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning omillik tahlili metodikasi?
26. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumning naqdligini hisoblash tartibi?
27. Kreditga layoqatlikni baholashda daromadlar tahlili va uning muhim qatorlari?
28. “RARTS” usulini tushuntiring?
29. “CAMPARI” usulini moxiyatini tushuntiring?
30. “6 C” usulining moxiyatini tushuntiring?
31. Korxonaning kreditga layoqatliligiga Qoplash koeffitsienti orqali baho berish?
32. Korxonaning kreditga layoqatliligiga likvidlilik koeffitsienti orqali baholash?
33. Korxonaning kreditga layoqatliligini mustaqillik koeffitsienti orqali baholash?
34. Korxonani kreditga layoqatliligini baholashning kompleks tahlili?
35. Balans aktiv va passiv moddalarining likvidliligi tahlili?
36. Xo‘jalik sub’ektning kreditga layoqatligini baholashda o‘rganilishi lozim bo‘lgan miqdoriy ko‘rsatkichlar?
37. Tijorat banklari tomonidan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni kreditga layoqatligini baholashda hisob-kitob qilinadigan ko‘rsatkichlar?

XV BOB. KORXONALAR IQTISODIY NOCHORLIGI (BANKROTLIGI)NI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

15.1. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob'ektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari

Qarzdor o‘z majburiyatlarini bajarishga buyurilgan holat kishilik jamiyatining shakllanishining ilk davrlariga borib taqaladi. Shu sababli ham bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) ning tarixini o‘rganishda uning yuzaga kelgan davri sanasini aniq belgilash doimo mummo bo‘lib kelgan.

Jumladan “Yangi axd”da yoxudiylarning har yetti yilda bir marta barcha majburiyatlaridan kechish urfi belgilangan. Xar ellik yilda bir marta etnik tarkibidan qat’iy nazar barcha millat vakillarining majburiyatlaridan kechish, qullarni ozod qilish shartlari belgilangan[131].

Kadirgi Gresiyada oila boshlig‘i o‘z majburiyatlarini to‘lay olmasa uning barcha oila a’zolari majburiyatlarni to‘liq qoplangunga qadar, o‘z kreditor qarzini va zararini qoplagunga qadar qullikga maxkum qilingan. Ko‘pgina shaxarlarda uning muddati 5 yil qilib belgilangan.

Qarzdorning kreditor oldidagi shaxsiy majburiyatlarini belgilashning xuquqiy normalari ilk bora Rim konunlarida uchraydi. Qarzdorlik majburiyatining yuzaga kelganligi va uning muddatining 90 kundan oshganligi ilk bora ushbu qonunlarda aks etgan.

Rim imperiyasi qulaganldan keyin iqtisodiy nochorlik normalarini belgilash va ularni rasmiy jihatlari Italiyada rivojlana boshlandi. Bu bevosita Italiyada savdo faoliyatining keskin rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Sh usababli ham ushbu jarayon birinchi navbatda savdo faoliyatida qo‘llanila boshladi. Iqtisodiy nochorlik masalalari bilan shug‘ullanuvchi savdo sudlarining vujudga kelishiga ham ushbu jarayon sabab bo‘lgan. Iqtisodiy nochorlikni e’lon qilish tartiblarida ilk bora qarzdor yoki kreditorlarning murojati bilan nochorlikni tan olish va belgilash tartiblari qayd etilgan.

Iqtisodiy nochorlikni zomonaviy shakli va jarayonlarini belgilanishida Angliya amaliyoti alohida o‘rin tutadi. 1543 yilda iqtisodiy nochorlikni ko‘rib chiqish muddatlari va nochorlikni tan olish tartiblari aks etgan protsessual amaliyotga o‘tila boshlandi. Uning rivojlanish davri XVII—XIX asrlarga to‘g‘ri keladi.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) tushunchalarining odatda sinonimlari nixoyatda ko‘p. Ularning aniq sonini keltirish (odatda o‘zbek tilida 20 dan ortiq sinonimlari mavjud) qiyin. Milliy qonunchilik xalqaro normalardagi talablarni o‘rganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki qarzdorning o‘z majburiyatlarini to‘liq qoplash layoqatiga ega emasligidan kelib

131 Второзаконие 15:1-3.↕ Книга Левит 25:8-54.

chiqadigan iqtisodiy, moliyaviy qiyinchilikni bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) deb nomlash juda to‘g‘ri belgilangan.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) – iqtisodiy sud tomonidan e’tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligidir.

Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotida ishtirokchilarning to‘lov majburiyatlarini to‘lashga qodir emasligini tan olish orqali uni tartibga solishni muhim normalarini belgilamasdan uning rivojlanishini taminlab bo‘lmaydi. Negaki ikkita sub’ekt o‘rtasidagi o‘zaro qarzdorlik bu shunchaki qarzdorlik emas. Bu majburiyatlar butun bir iqtisodni, jamiyatning majburiyatidir. Ya’ni, qarzdorlik faqat ularning o‘zigagina tegishli muammo emas.

Iqtisodiy nochorlik, bankrotlik tushunchalari odatda bir mazmunda qaraladi. Ularni yuzaga keltiruvchi sabablar nihoyatda ko‘p. Lekin sabablarning ildizida albatta kuchli raqobat, iqtisodiy resurslar va moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lgan holda, raqobat kurashiga tortiladilar. Bu kurash kimnidir bor, kimnidir yo‘q qiladi. G‘olib korxonalar o‘zining moliyaviy ahvolini mustahkamlagan holda bozorda muqim o‘rniga ega bo‘la boradilar. Mag‘lub korxonalar esa sinadilar yoki o‘z faoliyatini to‘xtadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu g‘oliblik yoki bu mag‘lublik muqarrar narsaki, uni to‘xtatib qolish mumkin emas.

Aytish mumkinki, uzluksiz davom etuvchi raqobot kurashi doimo iqtisodiy nochorlik yoki bankrotlik holatiga tushish havfini tug‘diradi.

Bankrotlik tushunchasi italyancha «banco-rotto» degan so‘zdan olingan bo‘lib, aslida kursi (o‘rindiq)ning sinishini anglatsada, bu so‘z aslida qarzdorning to‘lov majburiyatlarini to‘la qoplashga qodir emasligini emasligini izoxlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunida bankrotlik alomatlari yuridik shaxslar uchun alohida, jismoniy shaxslar uchun alohida tartiblari belgilangan.

Qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lovlar majburiyati yuzaga kelgan kundan e’tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e’tirof etiladi[132].

Xo‘jalik sub’ektlari va ularning ayrim toifalari (banklar, qishloq

[132] Бонкротлик тўғрисидаги қонун 4- модда

xo‘jaligi sub’ektlari, sug‘urta tashkilotlari va x.k.), yakka tadbirkorlarning bankrotligini tan olish va uni belgilash tartiblari bankrotlik to‘g‘risidagi qonunda aniq belgilab berilgan.

Bankrotlikning korxona faoliyatiga nisbatan qo‘llanishini tushunish uchun uning siklik jarayonini tushunish muhim masala hisoblanadi. Ya’ni har qanday korxonaning manzil yakuni hisoblangan bankrotlik quyidagi jarayonlarning uzviy ketma ketligidan tashkil topadi.

15.1-jadval

Bankrotlikning hayot sikli

Bosqichlar	Mazmun
Tashkil topish va faoliyatni boshlash	“**Tashkil topish va faoliyatni boshlash**”davrida yangi tovar bozorga tavsiya etiladi, tovarga bozor talabi kuzatilmaydi va sotish darajasi juda past bo‘ladi. Mazkur bosqichda ko‘proq tovar bilan tanishuvni ta’minlash lozim bo‘ladi.
Ayoqqa turish va faoliyatni kengaytirish	“**Ayoqqa turish va faoliyatni kengaytirish**” davrida korxonaning bozorga chiqishi va tovarlarni tavsiya etishi biroz jonlanadi, sotish hajmi bir oz o‘sishiga erishiladi, shu bilan birgalikda tovarlarga yangilik kiritish harajatlari ko‘payadi
O‘sish, rivojlanish	“**O‘sish, rivojlanish**” tovarlarni sotish hajmi, bozorni solishtirma sig‘imi o‘sib boradi, raqobat kuchayadi va keskin tus oladi. Mazkur boskichning asosiy vazifasi tovarlarni sotish hajmini va assortimentini oshirish hasobiga maksimal foyda olishga qaratiladi.
Gullash, taraqqiy etish	“**Gullash, taraqqiy etish**” tovarlarni sotish hajmi, o‘sish darajasi eng yuqori (maksimal) darajaga ko‘tariladi, bozor ushbu mollar bilan haddan ziyod to‘yinadi, yangiliklarga oid harajatlar kamayadi, ish hajmini bundan ortiq oshirib bulmay qoladi.
Cho‘qish va sinish davri	“**Cho‘qish va sinish davri**” tovar iste’mol uchun jozibadorligini yo‘qotadi, sotish hajmi, mahsulotning bozordagi sig‘imi tushib ketadi.

Iqtisodiy nochorlik davomiyligi har bitta korxonada turlicha kechadi va yakun topadi. Bundan shunday xulosaga kelinadiki har qanday korxonaning oxirgi manzili bu iqtisodiy nochorlik, bankrotlik ekan. Faqat ushbu davriylik har qaysi korxonada turlicha davriylikda kechadi. Ya’ni siklik jarayon bitta korxonada tezroq, bitta korxonada sekinroq kechadi. O‘lim muqarrar ekan iqtisodiy nochorlik ham muqarrar hisoblanadi. Lekin uning farqi boshqara olinishi, tartibga solinishi, ya’ni uni o‘zgartira olish imokniyatining mavjudligidadir.

Bankrotlikka olib keluvchi olimlarni ikki guruxga ajratish mumkin:

-ichki omillar

-tashqi omillar

Ichki omillar qatoriga: aylanma mablag‘larning yetishmasligi; resurslardan foydalanish samarasinig pastligi; normadan ortiq aktivlarning saqlanishi; texnika-texnologiyalarning eskirganligi; ishlab chiqarishni tashkil

etishning eskiligi; mijozdar moliyaviy holatining yomonligi; marketingning eskiligi; ortiqcha qarz majburiyatlarining mavjuddigi; ishlab chiqarishning asossiz kengaytirilishi; tashqi faktorlarni hisobga olmasdan boshqarish strategisini belgilanishi va h.k. kiradi.

Tashqi omillarga: iqtisodiy (davlatdagi krizis, inflyatsiya); siyosiy omillar; ilmiy texnikaviy omillar; demografik omillar va h.k. omillar kiradi.

Iытisodiy nochorlik birdaniga kuzatiladigan holat emas. Uning belgilari faoliyat davomida shakllanib, kuchayib, keskinlashib boradi.Iqtisodiy nochorlikni belgilarini oldindan aniqlash ularga qarshi chora va tadbirlar belgilab borish faoliyat va biznes davomiyligini taminlashning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiy nochorlikka qarshi kurashni ushbu holat paydo bo‘lganda emas balki paydo bo‘lishidan oldin kurashish lozim.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlash va unga qarshi turli choralarni ko‘rish tahlilsiz imkoni yo‘q. Iqtisodiy tahlil etish orqali yuzaga kelgan va yuzaga kelishi kutilayotgan holatlarni oldindan bashorat qilish mumkin. Bu bashorat aniqligi albatta birinchi navbatda moliyaviy axborotlarning aniqligi, asosligi va ishonchligiga bog‘liqdir.

Iqtisodiy nochorlik (bonkrot)likni tahlili maqsadi - korxona xujalik-moliya faoliyatining “og‘riqli nuqtalari”ni aniqlash, ularning yuzaga kelishi va rivojlanishini baholash, sabablarini o‘rganish orqali iqtisodiy nochorlik risklarni kamaytirishga yordam beruvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat.

Tahlil mazmunini xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy nchorligi (bonkrotligi) yuzasidan tahliliy amallarni bajarish va ularning moliya-xo‘jalik faoliyatining joriy va istiqboldagi iqtisodiy, moliyaviy axvolini raqobatdoshlik taomillari asosida barqarorligini taminlash bo‘yicha amalga oshiriladigan tizimli analitik jarayonlarni o‘tkazish tashkil etadi.

Qo’yilgan maqsad va tahlil mazmunidan kelib chiqqan holda tahlil vazifalari sifatida quyidagilarni tarkiblash mumkin:

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy nochorligi (bonkrotligi)ning joriy va istiqboldagi holatini baholash;

-xo‘jalik yurituvchi subyektlarda iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik)ning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish, tahlil etish;

-xo‘jalik yurituvchi subyektlar iktisodiy nochorligi (bokrotligi)ni tahlil etishning modellarini tuzib chiqish va uning o‘zgarishlarini baholash;

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy nochorligi (bokrotligi) risklarini baholash va ularni minimallashtirish;

-xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiy nochorligi (bokrotligi)ni oldini olish yuzasidan aniq chora -tadbirlar belgilash;

-iqtisodiy nochorlik (bokrotlik)ni oldini olish va unga qarshi kurashish yuzasidan boshqarur qarorlarini tayyorlash va realizatsiya qilish.

15.2. Bankrotlik instituti va uning rivojlanish istiqbollari.Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning xuquqiy normalari

Bankrotlik instituti - murakkab xuquqiy muassasadir: huquqiy muassasa tomonidan beligilanadigan protsesual meyorlarni belgilash, tartiblash amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston respublikasida bankrotlik instituti 1994 yilda tashkil etilgan. O‘tgan davr maboynida bu borada sezilarli ishlar olib borildi va muhim natijalarga erishildi. Eng muximi ushbu munosabatlarni tartibga solishning puxta va mukammal qonunchilik bazasi shakllantirildi. Dastlab 1994 yilda 5-mayda “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonun qa’bul qilindi. Ushbu qonun dastlab 35 moddadan iborat bo‘lgan. Lekin qonun amaliyoti bo‘yicha mazkur davrda bironta ham bankrotlik xolati ko‘rilmadi.

Qonun amalda bo‘lga davrda bankrotlik bo‘yicha faqat ikkitagina ariza qabul qilingan va ko‘rib chiqilgan.

1995 yilda Qonun amaliyoti va bankrotlikni amalga kiritish bo‘yicha Vazirlar Maxkamasining maxsus karori chiqarildi va bu boradagi ishlar biroz jadallashdi. Shu yilda 47 ta bankrotlik xolati bo‘yicha ishlar ko‘rib chiqildi.

1996 yil 11-dekbrida “Bankrotlik to‘g‘risidagi qonunni amalda qo‘llash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Respublika Prezidentining maxsus farmoni soxadagi ishlarni yanada jadallashtirish imkonini berdi.

1998 yil 28 avgustda Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. U ko‘plab moddalar bilan boyitildi. Xususan, ayrim turdagi qarzdorlarning bankrotligi to‘g‘risidagi qoidalar, yangi taomil – tashqi boshqaruv qo‘shildi va bu kreditorlarning huquqlarini kengaytirdi. Ushbu qonunda yuridik va yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligi alomatlari alohida ajratib ko‘rsatildi.

2003 yil 24 aprelda Qonun yana yangi tahrirda e’lon qilindi. U 192 moddadan iborat bo‘lib, bankrotlik belgilari va taomillariga tegishli bo‘lgan, to‘lovga qodir bo‘lmagan qarzdorlarning to‘lov qobiliyatini tiklashni maqsad qilib qo‘ygan ko‘plab yangi qoidalarni o‘zida mujassamlashtirdi. Qonunga ikkita yangi bob kiritildi va ular yangi bankrotlik taomillarini o‘zida ifoda etdi: kuzatuv va sud sanatsiyasi, shuningdek, barcha bankrotlik taomillari sud boshqaruvchilari tomonidan amalga oshirilishi, sud boshqaruvchilari sud tomonidan tayinlanishi va nazorat qilinishi belgilandi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bankrotligi O‘zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Qonuni va unga keyinchalik kiritilgan qo‘shimcha, o‘zgartirishlar bilan va boshqa me’yoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra bankrotlik deganda sud tomonidan

e’tirof etilgan qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini to‘la hajmda bajarishga qodir emasligi tushuniladi. Aytish joizki, qarzdorni bankrot deb topishda kreditorlar talablarini va majburiy to‘lovlarni to‘la qondira olmasligi emas, balki «Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonunning 5-moddasi ikkinchi qismida belgilangan talablar hisobga olinadi. Ushbu moddada quyidagilar bayon etiladi.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ish iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bankrotlik to‘g‘risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o‘ttiz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, iqtisodiy sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin, ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno”.

Shuningdek, kreditorlarning istalgan talablari bo‘yicha emas, balki aniq belgilangan talablar bo‘yicha to‘lashga qodir emaslik bankrotlik alomatlari hisoblanadi. Qonunchilikda bankrotlik alomatlarini aniqlashda kreditor talabining quyidagi ikki turi: qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha hamda majburiy to‘lovlar bo‘yicha, ya’ni soliq, yig‘im, bojlarni to‘lash bo‘yicha talabi belgilangan. Qolgan boshqa talablarning bajarilmasligi korxona yoki tadbirkorning bankrot deb topilishiga asos bo‘lmaydi.

Qarzdorning pul majburiyatlari tushunchasi bankrotlik qonunchiligida fuqarolik qonunchiligiga nisbatan tor ma’noda berilgan. Bankrotlik qonunchiligiga asosan pul majburiyatlari deganda qarzdorning fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo‘yicha hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko‘ra kreditorga muayyan pul summasini to‘lash majburiyati tushuniladi («Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonunning 3-moddasi).

Pul majburiyatining birinchi belgisi qarzdorning ish bajarishi, xizmat ko‘rsatishi yoki tovarni topshirishi emas, balki pul summasini to‘lash majburiyati hisoblanadi.

Ikkinchi belgisi esa majburiyatlarning faqat Fuqarolik kodeksiga asoslangan bo‘lishidir. Korxonaning o‘z vaqtida ishchilariga ish haqini to‘lay olmasligi oqibatida korxona bankrot deb topilmaydi. Chunki mehnat haqi bo‘yicha kelib chiqqan majburiyat Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi. Shu sababli ushbu majburiyat pul majburiyati hisoblanmaydi.

Bankrotlik instituti tadbirkorlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni yaxshi yo‘lga qo‘yish, o‘zaro to‘lov intizomini kuchaytirish, yig‘ilib qolgan kreditorlik va debitorlik qarzlarini undirish, oqibat natijada ishlab chiqarishni barqarorlashtirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qarzdorlar bankrot deb e’lon qilinadi qachonki, bankrotlik faktlarini

barchasi e’tirof etilsa.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ish oliy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, “Bankrotlik to‘g‘risidagi” Qonunning III bobiga ko‘ra, xo‘jalik sub’ektlari sudga murojaat qilmasdan turib ham o‘zini o‘zi bankrot deb e’lon qilish mumkin. Buning uchun korxonaning rahbari ixtiyoriy tugatish haqida qaror chiqaradi, uni kreditorlar ma’qullaydi, so‘ngra bu qaror mulkdor (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo‘lsa, Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi ham) tomonidan tasdiqlanadi. qaror mulkdor tomonidan (qarzdorning mol-mulkida davlat ulushi bo‘lsa Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi tomonidan ham) tasdiqlangan paytdan boshlab qarzdor bankrot bo‘lgan deb hisoblanadi. Agar kreditorlarning loaqal bittasi bu qarorni ma’qullamasa yoki kreditorlarning barchasi ma’qullasa-yu, ammo mulkdor bu qarorga norozi bo‘lsa, qarzdor o‘zini o‘zi bankrot deb topa olmaydi. Bunday holda u qonunda belgilangan tartibda sudga bankrotlik arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

Qarzdor o‘zini o‘zi bankrot deb topgan taqdirda ham u «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunda belgilangan tartibda tugatilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik protsessual kodeksining 30-moddasiga ko‘ra, tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to‘g‘risidagi ishlar qarzdor turgan joydagi sudda ko‘rib chiqiladi.

Ushbu Kodeksning 23-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlar yoki tadbirkor jismoniy shaxslar sudda taraf sifatida ishtirok etishlari mumkin. Ya’ni, korxonaning yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lmagan bo‘linmalari bankrot deb topilishi mumkin emas. Chunki ularning qarz majburiyatlari bo‘yicha yuqori tashkiloti javob beradi.

Bankrotlik to‘g‘risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo‘lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqi miqdorining kamida besh yuz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqi miqdorining kamida o‘ttiz karrasini tashkil etadigan bo‘lsa, sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Majburiy to‘lovlar majburiyatini bajarmaganligi natijasida qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza bilan sudga murojaat etish huquqiga qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar ega.

Rossiyada bankrotlik №127-F3 son bilan qayd etilgan 2002 yil 26-oktyabrda qabul qilingan «Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) to‘g‘risida»gi qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonun normalariga ko‘ra xuquqiy va jismoniy shaxslar uchun alohida tartiblar belgilangan. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) xolatlarini ko‘rib chiqishda xuquqiy shaxslar uchun 300 ming rubldan ortiq va to‘lash muddati 3 oydan oshgan to‘lov majburiyatlar mavjudligi, jismoniy shaxslar

uchun 500 ming rubldan oshirq va to‘lov muddati uch oydan oshgan, yakka tadbirkorlar uchun majburiyatlar summasi 500 ming so‘mdan oshiq va to‘lov muddati 3 oydan oygan majburiyatlar mavjudligi bankrotlik jarayonlarini boshlash uchun norma qilib belgilangan. Bankrotlikka qarshi quyidagi taomillar belgilangan: kuzatuv; moliyaviy sog‘lomlashtirish; tashqi boshqaruv; bankrotlik jarayoni; kelishuv shartnomasi.

Belorusiyada bankrotlik institutini tashkil etilishi uning mustaqillik erishishidan keyin boshlangan.1991 yil 30-mayda “Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik xaqida”gi qonun qabul qilingan. Institut faoliyatining rivojlanishi 2000 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda “Iqtisodiy nochorlik va bankrotlik xaqida”gi qonun “”Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik) to‘g‘risida”gi qonun deb qayta qabul qilindi. Mazkur qonun 2012 yilda yangi taxrirda qabul qilindi.

Unda asosiy taomillar sifatida quyidagilar tarkiblangan: ximoya qilish muddatini belgilash; konkursli ishlab chiqarishni tashkil etish; kelishuv shartnomasini tuzish.

Konkursli ishlab chiqarish: sudga material tayyorlashni tugallash, sanatsiya, likvidatsiya jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

AQShda bankrotlik “Bankrotlik to‘g‘risida”gi Kodeks bilan tartibga solinadi. Yagona talab bankrotlik ishi ko‘rilayotgan korxona AQSh xududida bo‘lishi lozim. Ixtiyoriy bankrotlik xolatlari Direktorlar Kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bankrotlik holati bo‘yicha maxallaiy sudga murojaat qilinadi. Ushbu sudlar Okrug sudlarining bo‘limlari hisoblanadi. Har bitta shtatda kamida bitta bankrotlik bo‘yicha sud maxkamasi mavjud.

Avstraliyada Bankrotlik to‘g‘risidagi qoun 1966 yilda qabul qilingan. Bankrotlik ishlari faqat jismoniy shaxslarga nisbatan ko‘riladi. Korxonalarga nisbatan bankrotlik holatlari tashqi boshqaruv yoki likvidatsiya jarayoni bilan yakunlanadi. Bankrotlik statusi uch yil davoimida saqlanadi.

Kanadada bankrotlik federal qoun bilan tartibga solinadi. Kshbu qounchilik normalari korxonalarga nisbatan ham, jismoniy jaxslarga nisbatan ham belgilanadi. Bankrotlikning yelgilanishi va tug‘ri yuritilishi bankrotlik bo‘yicha boshqaruvchilar tomonidan nazorat qilib boriladi. Amaliyotda konkursli boshqaruvga muhim ahamiyat qaratiladi.

Niderlandiyada bankrotlik «»Bankrotlik to‘g‘risidagi qonunlar Kodeksi bilan tartibga solinadi. Mamalakat amaliyotida uch turdagi bankrotlik amaliyoti belgilanadi: boknrotlik; kelishuv va qarzlardan kechish (mazkur tartib faqat jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi)

15.3. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari

Bankrotlik - qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatlariini bajarishga qodir emasligining sud tomonidan e’tirof

etilishidir.

Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki bonkrotlik iqtisodiy nochorlikni begilash uchun sub’ektlarning pul majburiyatlarining aks ettiruvchi va ularni qoplash yuzasidan mablag‘larning mavjudligini aks ettiruvchi axborot manbaalari talab etiladi.

Iqtisodiy nochorlik va bankrotlikni tahlil etishning axborotlar bazsiga juda ko‘p manbalarni kiritish mumkin. Ularning mazmun mohiyatiga ko‘ra moliyaviy hisobot ma’lumotlari, statistik hisobotlar, soliq hisoboti ma’lumotlarini kiritish mumkin. Shuningdek, ta’sis xujjatlari, auditorlik xulosalari, rejali tekshirish natijalari va h.k. hisobdan tashqari manbaalardan ham foydalaniladi.

Muhim e’tibor majburiyatlarning yuzaga kelishida asos bo‘luvchi xo‘jalik shartnomalari, qarzdorlik dalolatnomalariga qaratiladi

Asosiy manba sifatida xo‘jalik sub’ektlari tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlar va ular bo‘yicha auditorlik xuloslarining mavjudligiga axamiyat qaratiriladi.Moliyaviy hisobot shakllari ichida buxgalteriya blansi va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot shakli, shuningdek moliyaviy hisobotlarning tegishli bandlari bo‘yicha tushuntirishlar, qaydlar va izoxlarga alohida urg‘u beriladi. Moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to‘g‘risidagi ilova ham majburiyatlarning kreditorlari va muddatli bo‘yicha axborotlari alohida tarkiblanadi.

Iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik) tahlilida axborotlarning aniqligi, ishonchligi, xaqqoniyligiga muhim axamiyat qaratish lozim. Negaki ko‘pgina hollarda soxta bonkrotlik bo‘yicha arizalar ham uchraydi.

Soxta bonkrotlik va uni tan olishda albatta qonunchilik normalarida og‘ir javobgarliklar belgilangan. Lekin shunga qaramay bu borada ayrim muammoli murojatlar kuzatilmoqda. Negaki sudgacha va suddan keyingi jarayonlarda munozoraga sabab bo‘luvchi holatlar ko‘pincha ham axborotlarnining yetarligi va asosliga emasligi bilan izoxlanadi.

Tahlil qilishda iqtisodiy nochorlikni baholashda quyidagi usullardan foydalaniladi: keng ko‘lamli mezon ko‘rsatkichlar tahlili; cheklangan miqdordagi ko‘rsatkichlar tahlili; indikator ko‘rsatkichlar tahlili; skoring modeli; reyting tahlili; multiplikativ diskriminat taxlili.

15.2-jadval

Moliyaviy hisobotning asosiy shaklari va ular bo‘yicha iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik) tahlili yo‘nalishlari

m/x №	Moliyaviy hisobot shakllari	Tahlil yo‘nalishlari
1	2	3
1	Buxgalteriya balansi	-mulkiy holatni tahlili, -moliyaviy salohiyatni tahlili;

		- buxgalteriya balansi likvidligi tahlili -moliyaviy koeffitsentlar va to‘lov layoqatini tahlili; - moliyaviy barqarorlik tahlili; - bozor aktivligi, barqarorligi tahlili; - moliyaviy holatni kompleks baholash.
2	Moliyaviy natiajalar to‘g‘risidagi hisobot	- Ish aktivligini tahlili; - moliyaviy sikl davomiyligini tahlili; - moliyaviy natijalar va ular dinamikasining tahlili; - xarajatlar tahlili; - foyda dinamikasini tahlili; - rentabellik tahlili; - moliyaviy leveridj tahlili.
4	Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot	-operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdan pul oqimini tahlili.
5	Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot	- aktivlarni moliyalashtirish holatini tahlili; - xususiy kapital va uning tarkibining tahlili; -sof aktivlar holati va samaradorligining tahlili.
-	Moliyaviy hisobotga ilovalar	-debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili; -qarz kapitali va uning tarkibiy tahlili; -asosiy vositalar va ularning holat, xarakat, samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlili; -ishlab chiqarish quvvatlari va uladan foydalanish darajasini tahlili.

Tahliliy jihatdan esa (moliyaviy hisobotlar-taqdim etilgan axborotlarga tayangan holda)iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik)ni quyidagi sabablarini ko‘rsatish mumkin.

1.Korxona moliyaviy ahvoli bilan bog‘liq omillari (to‘lovga noqobillik, mablag‘lar nolikvidligi, aylanma mablag‘larni moliyalashtirishning holati, moliyaviy nobarqorlik)

2.Korxona moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlar bilan bogliq omillar (moliyaviy natijaviylik, rentabellikni past darajasi yoki manfiy ishorasi)

3.Korxona moliyaviy ahvoli va moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishlarni turli jihatlarini ifoda etuvchi boshqa omillar (pul oqimini tarkibiy tuzilishi, asosiy vositalarning holati va harakati, xususiy kapitalning tarkibiy to‘zilishi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari holati).

Bu jihat tarkiblanish moliyaviy hisobot shakllarining tuzilishiga va mazmuniga to‘la mos keladi va ularni o‘rganish ob’ektini to‘la qamrab oladi.

15.4. Bankrotlikni aniqlashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili

Iqtisodiy nochorlikka olib keluvchi asosiy sabablardan biri korxonadagi iqtisodiy va moliyaviy salohiyatning pastligi bilan izohlanadi.

Iqtisodiy va moliyaviy salohiyatni holati va o‘zgarish darajalariga qarab xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy nochorligi yo‘q, iqtisodiy nochorligi past, iqtisodiy nochorligi yuqori, iqtisodiy nochorligi eng yuqori

kategoriyalarini tarkiblash ham mumkin.

Iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik)ning iqtisodiy salohiyatga nisbatan baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kritish mumkin:

-joriy aktivlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari;

-uzoq muddatli aktivlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari;

Iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik)ning moliyaviy salohiyatga nisbatan shuningdek, moliyaviy jihatdan barqaror, moliyaviy xavf-xatari bor, moliyaviy jihatdan nobarqaror va iqtisodiy nochor korxonalarini tarkiblash amaliyoti ham belgilanganligini qayd etish lozim.

Iqtisodiy nochorlik (bonkrotlik)ning moliyaviy salohiyatga nisbatan baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimiga quyidagilarni kritish mumkin:

-o‘z mablag‘lari manbasi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari;

-majburiyatlar mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar;

15.3-jadval

Iqtisodiy nochorlikni baholashda o‘rganiladigan iqtisodiy va moliyaviy salohiyat bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi

Ko‘rsatkichlar nomi	Hisoblash yo‘li	Nimani ifoda etishi
1	2	3
O‘z mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlari		
O‘z mablag‘larining (O‘m) to‘planish koeffitsenti (Ko‘tk)	Ko‘tk=O‘m / B	Korxonaning jami mablag‘larida (B) o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larining(O‘mm) holatini ifodalaydi
Moliyaviy qaramlik koeffitsenti (Kmq)	Qmq=B / O‘m	Bir so‘mlik o‘z mablag‘iga(O‘mm) qancha umumiy mablag‘ (B) to‘g‘ri kelishini ifodalaydi
O‘z mablag‘larining harakatchanlik koeffitsenti (Km)	Km=O‘mm + Umm-Uma / O‘m	Xususiy kapitalning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan oborot mablag‘lar naqdligini ifoda etadi
Umumiy harakatchanlik koeffitsenti (Kux) yoki umumiy harakatdagi mablag‘larni faollik koeffitsenti (Uxm)	Kux=Uxm/B	Harakatdagi mablag‘larni umumiy mablag‘lardagi xissasi
Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsenti (Kf)	Kf=Sxm/O‘xm	Sof harakatdagi mablag‘larning umumiy harakatdagi mablag‘lardagi xissasini ifodalaydi
Chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar		
Chetdan jalb qilingan kapitalni to‘planish koeffitsenti (Kchjqm)	Kchjqm= Chjqm / B	Jami mablag‘lar tarkibida (B) chetdan jalb qilingan mablag‘larning (Chjqm)xissasini ifodalaydi
Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning o‘z mablag‘larida to‘planish koeffitsenti (Kumchjqm)	Kumchjqm= Umchjqm / O‘m	Xo‘jalik faoliyatini uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar (Umchjqm) bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalaydi
Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning chetdan jalb qilingan jami kapitalda	Kumchjqm= Umchjqm / Chjqm	Umumiy chetdan jalb qilingan mablag‘larda zoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larningn xissasini ifodalaydi

to‘planish koeffitsenti (Kumchjqm)		
O‘z mablag‘larini chetdan jalb qilinganmablag‘larga qaramlik koeffitsenti (Kchjqm)	Kchjqm= Chjqm / O‘m	Har bir so‘m o‘z mablag‘iga qancha chetdan jalb qilingan mablag‘ to‘g‘ri kelishini ifodalaydi
Uzoq muddatli aktivlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari		
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning umumiy mablag‘lardagi xissasini ifodalovchi koeffitsent (Kavx)	Kavx=Av / B	Asosiy vositalarning umumiy xo‘jalik mablag‘laridagi xissasini ifodalaydi
O‘z mablag‘larining kapitallashuvi koeffitsenti (Kumk)	Kumk=Av+Na-Ump / O‘x	O‘z mablag‘larining qancha qismi asosiy vositalarga sarflanganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar jamg‘arilishini umumiy koeffitsenti (Kavju)	Kavju=Avue / Av Avue-asosiy vositalarning joriy eskirish summasi	Asosiy vositalarning qancha qismi takror to‘planganligini ifodalaydi
Asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi koeffitsenti	Kin=Avje / Av Avje-Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi	Bir yilda asosiy vositalar qiymatining qancha qismi jamg‘arilganligini ifodalaydi
Joriy (aylanma) aktivlar bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar		
Joriy (aylanma) mablag‘larning (Aym) oborotdagi o‘z mablag‘lari (O‘xm) bilan ta’minlanganlik koeffitsenti (Kamt)	Kamt=O‘xm / Aym	Har bir so‘m aylanma mablag‘ga qancha o‘z mablag‘i to‘g‘ri kelishini ifodalaydi
Joriy (aylanma) mablag‘larning qaramlik koeffitsenti (Kchjk)	Kchjk=Chjqm / Aym	Chetdan jalb qilingan mablag‘larni aylanma mablag‘lardagi xissasini ifodalaydi
Joriy (aylanma)mablag‘larning qisqa muddatli bank kreditlariga (Kmbk) qaramlik koeffitsenti (Kbk)	Kbk= Kmbk / Aym	Qisqa muddatli kreditlarni aylanma mablag‘lardagi xissasi
Joriy (aylanma) mablag‘larning tez harakatdagi (Pmba) Aym bilan ta’minlanish koeffitsenti (Kxmt)	Kxmt= Pmba / Aym	Aylanma aktivlarni qancha qismi tez likvid bo‘ladigan aktivlar bilan qoplanganligini ifodalaydi
Joriy (aylanma) mablag‘larning butun mulkdagi hissasi	Kamx=Aym / B	Aylanma mablag‘larni barcha mulkdagi xissasini harkterlaydi

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni moliyaviy jihatdan barqaror deyish mumkin qachonki, uning holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar normal holatdan yuqori darajada bo‘lsa, Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni moliyaviy jihatdan havf-xatari bor deyish mumkin qachonki, ko‘rsatkichlar darajasi normal darajada va undan tushib ketsa, moliyaviy nobarqaror deyish mumkin qachonki uning ko‘rsatkichlar tizimini ifodasi normal darajadan keskin tushib ketsa. Uning chegaraviyligini har bitta ko‘rsatkichlar tizimiga nisbatan alohida belgilash lozim.

Amaliyotda, moliyaviy barqarorlikni belgilashning eng muhim metodik jihat aktivlarni (uzoq muddatli aktivlar hamda zaxira va xarajatlarni)

manbalashdagi holat ko‘rsatkichlariga qarab belgilanadi.

Aktivlarni moliyalashtirishda aktivlarning uzoq muddatli va joriy qismi bir biridan tubdan farq etadi. Odatda uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish yuzasidan o‘z mablag‘lari va uzoq muddali qarz mablag‘lari jalb qilinadi. Shu sababli iqtisodiy nochorlikni baholashda birinchi navbatda ularning o‘tgan yil va joriy holatiga baho beriladi. Bu o‘z aylanma mablag‘lari naqdligini ifoda.

O‘MM+UMKQ-UMA=O‘AMN / TMZ
O‘AMN +KMKQ / TMZ

O‘z aylanma mablag‘lari naqdligi va qisqa muddatli qarz kapitali TMZ larni moliyalashtirishning asosiy manbasi hisoblanadi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy va moliyaviy salohitini oshirish yuzasidan quyidagi chora tadbirlarni ko‘rish talab etiladi:

-xususiy kapitalni hajmini oshirish. Buning uchun Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ta’sischilarini qo‘shimcha badallarini jalb qilish shuningdek, faoliyatning keyingi davralari bo‘yicha foyda summasini oshirish talab qilinadi;

-ko‘p harajat talab qiladigan asosiy vositalar, texnika va texnologiyalar o‘rniga yangilarini olib kirish;

-bank kreditlarini aniq biznes reja va foydali loyihalar hisobiga jalb etish hamda ularni umumiy mablag‘lar tarkibidagi hissasini kamaytirib borish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy qaram bo‘lib qolmasligiga harakat qilish;

-xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda to‘lov intizomiga, shartnomaviy shartlarga to‘la amal etgan holda debitor va kreditor qarzlarining ko‘payib ketmasligini oldini olish;

-aylanma aktivlarni manbalash yuzasidan ijobiy farqlanishlarni ta’minlash;

-iqtisodiy resurslarni joylashtirish va boshqarishdagi optimallikni yo‘lga qo‘yish va.h.k.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning raqobatdoshlik ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, korxonalar raqobatda sinmasligi uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim:

-mavjud mablag‘larini to‘g‘ri joylashtirish va boshqarish;

-ijobiy faoliyat natijaviyligiga erisha borish;

-debitor qarzlarni ko‘paytirmaslik yo‘llarini topish, mavjud debitor qarzlarni muddatida qaytarish chora tadbirlarini ko‘rish;

-kreditor qarz majburiyatlarini to‘lov muddati bo‘yicha nazoratini olib borish.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar iqtisodiy nochorligini belgilashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimiga tayanish lozim:

-firma va kompaniya to‘lov layoqati, qoplov koeffitsentini o‘rganish;

-firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik va qaramlik darajasini o‘rganish;

-uzoq muddatli va joriy aktivlarni manbalashning holatini o‘rganish;

-o‘z va qarz mablag‘lari orasidagi nisbatni o‘rganish;

-aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligini o‘rganish

-ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasini o‘rganish;

-asosiy va nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasini o‘rganish;

-muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari holatini o‘rganish.

15.4-jadval

Korxonalar iqtisodiy nochorligini baholashning muhim ko‘rsatkichlari va ularni me’yoriy darajalari

Ko‘rsatkichlar	Aniqlanish tartibi	Me’eriy chegara	Nochorlik belgisi
1	2	3	4
Firma va kompaniyaning to‘lov layoqati koeffitsenti	Kt=Joriy aktivlar/Muddati kelgan to‘lov majburiyatlari	2-3	Kt<2
Firma va kompaniyaning moliyaviy mustaqillik(avtonomiya) koeffitsenti.	Km=O‘z mablag‘lari /Jami mulk	Km >50%	Km <50%
Moddiy aktivlarni manbalanishi koeffitsenti	Oborot mablag‘lari naqdligi-Tovar moddiy zaxiralar/O‘z mablag‘lari+Uzoq muddatli qarz mablag‘lari-uzoq muddatli aktivlar	Ortiqcha-lik	Etishmov-chilik
O‘z va qarz mablag‘lari nisbati koeffitsenti	Ka=O‘z mablag‘lari/Qarz mablag‘lari	Ortiqcha-lik	Etishmov-chilik
Aktivlar, kapital va majburiyatlar rentabelligi	Kr=Sof foyda/Aktiv yoki Kapital+Majburiyat	Kr>0	0 dan kichik
Ishlab chiqarish quvvatlaridan haqiqiy foydalanish darajasi	Kf=Ishlab chiqarish quvvatining xaqiqiy darajasidagi mahsulot hajmi/texnik loyiha bo‘yicha ishlab chiqarilishi lozim bo‘lgan mahsulot hajmi	Kf=1 >0	Kf=1< 0
Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar eskirishini jamg‘arilish koeff.	Ke=Asosiy va nomoddiy aktivlarni eskirish qiymati/Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni boshlang‘ich qiymati	Ks>0.5	Ks<0.5
Muddati o‘tgan majburiyatlar holati	Kd/k=Muddati o‘tgan majburiyatlar / Jami majburiyatlar	Kd/k<0.5	Kd/k>0.5

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Ko‘mitasining “Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi

to‘g‘risidagi qarori” ga muvofiq korxonalar moliyaviy-iqtisodiy holati bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- -iqtisodiy barqaror;
- -iqtisodiy tahlikali (havf xatarli);
- -iqtisodiy nobarqaror (to‘lovga qobilligini tiklash imkoniiga ega bo‘lgan korxonalar, to‘lovga qobilligini tiklash imkoniga ega bo‘lmagan korxonalar)

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning iqtisodiy holatini baholash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari Qo‘mitasining “Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlarini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi qarori”ga muvofiq qo‘yidagi ko‘rsatkichlar tizimini o‘rganish tavsiya etiladi.

- -to‘lov layoqati yoki qoplash koeffitsenti (Ktl):
- -o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsenti (Kat)
- -korxona aktivlari va harajatlari rentabelligi (Ra, Rx)

Yakuniy xulosani chiqarish yuzasidan shunindek quyidagi qo‘shimcha ko‘rsatkichlar o‘rganiladi:

-o‘zmablag‘lari va qisqa muddatli qarz mablag‘lari nisbati koeffitsenti (Ko‘q)

-ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsenti(Kquv)

-asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (Kesk)

Iqtisodiy nochorlik tahlilida asosiy jihatlar pullik majburiyatlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan kreditorlik qarzalarining mavjudligiga, korxonaning qisqa muddali majburiyatlarini joriy aktivlar bilan to‘lashga qodir emasligiga, rentabellikning quyi darajasi yoki zararga ishlash holatiga alohida ahamiyat qaratiladi.

Korxonalar moliyaviy -iqtisodiy holatini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari tavsifi:

Muddati o‘tgan kreditorlik majburiyatlari sifatida pullik va majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lov muddati kelib uch oydan ortiq muddat o‘tgan kreditorlik majburiyatlari summasi nazarda tutiladi.

To‘lov layoqati koeffitsenti joriy aktivlar summasining uzoq muddatli majburiyatlar summasiga kamaytirilgan jami majburiyatlarni qoplashga imkonligini harakterlaydi.

Ushbu koeffitsent balans moddalari bo‘yicha quyidagicha hisob –kitob qilinadi

$$Ktl=Tmab/Tmaj$$

Bunda: Tmab- to‘lov mablag‘lari summasi;

Tmaj-to‘lov majburiyatlari;

Hisob-kitobda to‘lov majburiyatlari summasi uzoq muddatli

majburiyatlar summasiga kamaytiriladi.

Balans qatorlari bo‘yicha:

Ktl=390satr / 770satr-(730satr+740satr)

Agar hisob-kitob qilingan ko‘rsatkich darajasi 1.25 dan kichik bo‘lsa korxona to‘lovga noqobil deb tan olinadi.

O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsenti (Kat) aylanma aktivlarni moliyalashtirishda o‘z mablag‘larining mavjudiligini harakterlovchi, moliyaviy barqarorlikni, korxona egalari va qarzdorlari qiziqishini ifoda etuvchi ko‘rsatkich hisoblanadi.

O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsenti quyidagi boglanish orqali hisob-kitob qilinadi:

Kat= P1+Umm-A1 / A2

Bunda: P1-Buxgalteriya balansi passiv tomoni 1-bo‘limi jami “O‘z mablag‘lari manbayi” summasi. 480 satr

Umm-Uzoq muddatli aktivlarni olib kelishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlar va qarzlar summasi. 570+580 satr

A1-Buxgalteriya balansi aktiv tamoni 1-bo‘limi jami “Uzoq muddatli aktivlar” summasi. 130 satr

A2-Buxgalteriya balansi aktiv tomon 2-bo‘lim jami “Joriy aktivlar” summasi. 390 satr.

Buxgalteriya balansi satrlar kodi bo‘yicha hisob-kitobi:

Kat=480 satr+570satr+580satr-130satr / 380satr

Ushbu koeffitsent jami mablag‘larning kay darajasi aylanma akivlarga yo‘naltirilganligini harakterlaydi va uning nisbiy ifodasi 0.2 dan kam bo‘lmasligi lozim. Agar davr oxiriga kelib ushbu ko‘rsatkichning ifodasi 0.2 dan kam chiqsa korxona o‘z aylanma aktivlari bilan ta’minlanmagan deb qaror chiqariladi.

Rentabellik koeffitsenti -korxona xo‘jalik-moliya faoliyatining foydaligini yoki zarar bilan yakunlaganligini ifoda etadi.

Kra=Fstk/A*100

Bunda Fstk-solik to‘loviga qadar bo‘lgan foyda (“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi” hisobotning 240 satri)

A-aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati (aktivlarning o‘rtacha yillik qiymat o‘rtacha arifmetik va o‘rtacha xronologik usulda aniqlanadi)

$$Krx= Fstk / X*100$$

Bunda: X- harajatlar summasi (“Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi” hisobotning 020 satri+040 satri+170satri +230 satri)

Agar rentabellik darajasi 0 dan kichik bo‘lsa korxona zararga ishlaydigan korxona sifatida tan olinadi.

Agar daraja 0.05 bo‘lsa korxona past rentabelli deb tan olinadi.

O‘zmablag‘lari va qisqa muddatli qarz mablag‘lari nisbati koeffitsenti (Ko‘q) –korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasini harakterlovchi ko‘rsatkich sifatida belgilangan.

Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o‘z mablag‘lari manbasi bilan qaytarishga qodirligini tavsiflovchi ushbu ko‘rsatkich qo‘yidagicha topiladi.

$$Ko‘q=P1/P2-Umm$$

Balans qatorlari bo‘yicha:

$$Ko‘q= 480satr/770satr- (730satr+740satr)$$

Koeffitsentning tushishi korxonda moliyaviy taxlikalarning ortishini harakterlaydi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini harakterlovchi ko‘rsatkich korxonadagi iqtisodiy tahlikaviy holatlarni bilishda o‘rganiladigan qo‘shimcha ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ushbu ko‘rsatkich quyidagi boglanishlar orqali topiladi.

$$Kquv=Qhaq / Qloyiha –(Q ijara +Qkonserv.)$$

Bunda: Qhaq-hisobot davrida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi taqqoslama bahoda;

Qloyiha- to‘liq texnologik jarayonda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan maksimal darajadagi mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Q ijara- ishlab chiqarish quvvatining ijaraga berilgan qismiga tegishli mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda;

Qkonserv- ishlab chiqarish quvvatining konservatsiya qilingan qismiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi summasi, taqqoslama bahoda.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (Kesk) korxona egaligi va tasarrsfida bo‘lgan asosiy vositalarning texnik holatini baholovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi boglanishlar orqali topiladi.

Kesk=Aeq / Abq

Bunda:

Aeq-asosiy vositalarning eskirish qiymati;

Abq-asosiy vositlarning boshlang‘ich qiymati.

Balans qatorlari bo‘yicha:

Kesk=011 satr/ 010 satr

Agar ushbu ko‘rsatkich darajasi davr oxiriga kelib 0.5 dan ortadigan bo‘lsa korxona asosiy vositalarining katta qismi eskirgan deb, iqtisodiy holatda esa tanglik mavjud deb qaraladi.

15.5-jadval

Korxonalarning moliyaviy iqtisodiy ahvoli monitoringi va tahlilini o‘tkazish mezonlari

Ko‘rsatkichlar	Iqtisodiy holat nobarkaroligi
Asosiy ko‘rsatkichlar	
To‘lov layoqati yoki qoplash koeffitsenti (Ktl):	Ktl - 1.25 dan kichik bo‘lsa
O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsenti (Kat)	Kat -0.2 dan kam chiqsa
Korxona aktivlari va harajatlari rentabelligi (Ra, Rx)	Ra, Rx -0 dan past bo‘lsa
Ko‘shimcha ko‘rsatkichlar	
O‘zmablag‘lari va qisqa muddatli qarz mablag‘lari nisbati koeffitsenti (Ko‘q)	Ko‘/q -1.25 dan tushib ketgan xollarda
Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsenti(Kquv)	Kqo‘v- 0.5 dan tushib ketganda
Asosiy vositalarning eskirish koeffitsenti (Kesk)	Kesk- 0.5 dan oshib ketganda

Yuqoridagi manbalarga tayangan holda shuni ta’kidlash lozimki, Respublikamizda korxonalarning iqtisodiy nochorligini tahlil qilishda uch guruhdan iborat ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi;

Birinchi guruh ko‘rsatkichlar; muddati 3 oydan ortgan kreditorlik qarzlarini borligi va manfiy rentabellik darajasi;

Ikkinchi guruh ko‘rsatkichlarga; to‘lovga qobillik, aylanma mablag‘lar bilan ta’minlaganlik ko‘rsatkichlari;

Uchinchi guruh ko‘rsatkichlarga; aktivlar rentabelligi, xususiy va chetdan jalb qilingan mablag‘lar nisbati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati, asosiy kapitalni eskirishi kabi ko‘rsatkichlar kiritiladi.

15.5. Iqtisodiy nochorlik havf-hatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili va bankrotlikni aniqlashning turli modellari

Iqtisodiy nochorlik (bonkrot)likni baholashning milliy va xalqaro tajribalaridan shuni kuzatish mumkinki iqtisodiy nochorlik (bonkrotli)ni aniqlashning juda ko‘p modellari tuzib chilqilgan va ular tarkibidan eng ommalashgan shaklarini keltirib o‘tamiz.

Amerikaolimlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tartib bugungi kunda dunyoning 100 dan ortiq davlatlarida keng foydalanilmoqda. Ular tarkibida eng muhimi Altman modelidir.

Altman modelining ikki va besh faktorli formulasi mavjud:

Ikki faktorli Altman formulasi:

$$Z= -0.3877 — 1.073*X_1 + 0.0579*X_2$$

15.6-jadval

Ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Faktorlar belgisi	**Faktorlar**	**Aniqlanish tartibi**	***MHXS bo‘yicha aniqlanishi***
X1	Joriy likvidlik koeffitsenti	Aylanma aktivlar/Qisqa muddatli majburiyatlar	*(Working Capital) /* Current liabilities
X2	Kapitallashuv koeffitsenti	Uzoq muddatli majburiyatlar+ Qisqa muddatli majburiyatlar/Xususiy kapital	*Book value of Total Liabilities/ Value of Equity*

Z<0- iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizdan kam;

Z>0- iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizdan yuqori;

Z=0 - iqtisodiy nochorlik ehtimoli 50 foizga teng.

Besh faktorli Altman formulasi:

$$Z= 1.2*X1 + 1.4*X2 + 3.3*X3 + 0.6*X4 + X5$$

15.7-jadval

Ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Faktorlar belgisi	**Faktorlar**	**Aniqlanish tartibi**	**MHXS bo‘yicha aniqlanishi**
X1	Aylanma kapitalning aktivlarda salmog‘i	Aylanma kapital/Aktivlar jami	(Working Capital) / Total Assets
X2	Aktivlarning rentabelligi	Sof foyda/Aktivlar jami	Retained Earnings / Total Assets
X3	Operatsion rentabellik	Operatsion foyda/Aktivlar jami	EBIT / Total Assets
X4	Aksiyalarning bozor qiymati	Xususiy kapitalning bozor qiymati/ majburiyatlar	Market value of Equity/ Book value of Total Liabilities
X5	Aktivlar samaradorligi	Tushum/Aktivlar	Sales/Total Assets

Z > 2.9- moliyaviy barqaror zona (yashil zona);

1.8<Z<2.9=0 – noaniqlik zonasi (kulrang zona).

Odatda, Altmanning formulasi yirik firma va kompaniyalar uchun, xususiy korxonalar uchun, noishlab chiqarish korxonalari uchun alohida tartibda qo‘llaniladi.

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashda Altman modelining aniqlik darajasi 90-91 foizni tashkil etadi.

15.8-jadval

Iqtisodiy nochorlik ehtimoli

Ko‘rsatkichlarning aniqlanishi	
Aylanma aktivlar/Qisqa muddatli majburiyatlar	11 683 693 105/1848646840=6,32
Uzoq muddatli majburiyatlar+ Qisqa muddatli majburiyatlar/Xususiy kapital	12312891628/10 124 233 076=1,21
Ikki faktorli formula ***Z_a= -0.3877 — 1.073*6,32 + 0.0579*1,21=-0,3877-6,78136+0,070059=-7,09901***	
Aylanma kapital/Aktivlar jami	11 683 693 105 / 24 276 893 065 =0,4812
Sof foyda/Aktivlar jami	974 038 284 / 24 276 893 065 =0,0401
Operatsion foyda/Aktivlar jami	1 415 400 093 / 24 276 893 065 =0,0583
Xususiy kapitalning bozor qiymati/ Majburiyatlar	10 124 233 076 / 14 152 659 989 =0,7153
Tushum/Aktivlar	5 180 801 340 / 24 276 893 065 =02134
Z_a= 1.2*X1 + 1.4*X2 + 3.3*X3 + 0.6*X4 + X5=1.2*0.4812+1.4*0.0401+3.3*0.0583+0.6*0.7153+0.2134=0.5774+0.05614+ 0.19239+0.42918+0.2134=1.46851	

Zavgren modeli (AQSh).

Z_z = 0.23883 – 0.108*X1 – 1.583*X2 – 10.78*X3 + 3.074*X4 + 0.486*X5 – 4.35*X6 – 0.11*X7

P = 1/(1+e—z):

Bu yerda: R-bankrotlik ehtimoli.

Koeffitsientlar	**Hisoblash formulasi**	**MHXS bo‘yicha**
X1	Zaxiralarning o‘rtacha qiymati / Tushum	Average Inventories / Sales
X2	Debitorlik majburiyatlarining o‘rtacha qiymati / Zaxiralarning o‘rtacha qiymati	Average Receivables / Average Inventories
X3	(Pul mablag‘lari + Qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar) / Aktivlar	(Cash + Marketable Securities) / Total Assets

X4	Aylanma aktivlar / Qisqa muddatli majburiyatlar	Quick Assets /Current Liabilities
X5	Sof foyda / (Aktivlar– Qisqa muddatli majburiyatlar)	Income from Continuing Operations / (Total Assets - Current Liabilities)
X6	Uzoq muddatli majburiyatlar / (Aktivlar – Qisqa muddatli majburiyatlar)	Long-Term Debt / (Total Assets - Current Liabilities)
X7	Tushum / (Sof aylanma aktivlar + Oborotdan tashqari aktivlar)	Sales / (Net Working Capital + Fixed Assets)

Lis modeli. 1972 yilda angliyalik professor tomonidan ishlab chiqilgan. Uni aniqlash formulasi quyidagi ko‘rishda:

Z_l=0,063X1+0,092X+0,057X3+0,001X42

15.9-jadval

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning Lis modeli

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning aniqlanishi	Ehtimollik normasi
X1	Aylanma kapital/ Jami aktivlar	Agar:
X2	Operatsion foyda / Jami aktivlar	Z < 0,037 – bo‘lsa bogkrotlik ehtimoli yuqori
X3	Sof foyda / jami aktivlar	
X4	Xususiy kapital / Qarz kapitali	Z > 0,037 – bonkrotlik ehtimoli past

Angliyalik olimlar Tafler va Tishoular tomonidan bonkrotlikni aniqlashning 4 faktorli formulasi tavsiya etiladi.(1977 yil)

Z_{tt}=0,53X1+0,13X2+0,18X3+0,16X4

15.10-jadval

Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning Tafler va Tishou modeli

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichlarning aniqlanishi	Ehtimollik normasi
X1	Operatsion foyda / qisqa muddatli majburiyatlar	Agar:
X2	Aylanma aktivlar / jami majburiyatlar	Yesli Z > 0,3 – bonkrotlik ehtimoli past
X3	Qisqa muddatli majburiyatlar / jami aktivlar	Yesli Z < 0,2 – bonkrotlik ehtimoli yuqori
X4	Sotishdan sof tushum / jami aktivlar	

Shuningdek, jaxon amaliyotida keng doirada Olson modeli (1980 yil),

Fulmer modeli (1984 yil) Springeyt modeli (1978yil), Konan-Galder modeli (1979 yil), Biver modeli keng foydalaniladi.

15.11-jadval

Bonkrotlikni aniqlashning turli modellari va ularning qiyosiyligi

Aniqlash Formulasi	**Ehtimollik normasi**
Olson modeli Y=-1,3-0,4Y1+6,0Y2-1,4Y3+0,1Y4 -2,4Y5-1,8Y6+0,3Y7-1,7 Y8-0,5Y9	
Y1 = Jami aktivlarning yalpi mahsulot indeksiga nisbati	p=11+e-y formula bo‘yicha hisob-kitob kilinadi
Y2 = Jami majburiyatlar / Jami aktivlar	
Y3 = Ishchi kapital / Jami aktivlar	
Y4 = Joriy majburiyatlar / Joriy aktivlar	
Y5 = jami majburiyatlar jami aktivlardan oshsa 1 ga teng aksincha holatda 0 ga teng deb olinadi	
Y6 = Sof ofyda / jami aktivlar	
Y7 = Operatsion faoliyatdan tushum / jami majburiyatlar;	
Y8 = agar oxirgi ikki yilda foyda salbiy bo‘lsa 1 ga teng, aksincha bo‘lsa 0 ga teng deb olinadi	
Y9 = joriy yil foydasining o‘tgan yil foydasidan farqi/ modelga olingan foydaning joriy va o‘tgan yillar bo‘yicha summasi	
Fulmer modeli Z=5,528A+0,212B+0,073C+1,27D-0,12E+2,335F+0,575G+1,083H+0,894I-6,075	
A = Sof foyda / Jami aktivlar	Pri Z < 0 holatlarda korxona iqtisodiy nochorlik holati mavjud deb qaraladi.
B = Sotishdan sof tushum / Jami aktivlar	
C= Soliq to‘loviga qadar foyda / xususiy kapital	
D = Pul mablag‘lari qoldig‘ining o‘zgarishi/ kreditorlik majburiyatlari	
E = Qarz kapitali / Jami aktivlar	
F = Joriy majburiyatlar/ Jami aktivlar	
G = Moddiy aylanma mablag‘lar / Jami aktivlar	
H = O‘z aylanma aktivlari / Kreditorlik majburiyatlari	
Springeyt modeli Zs=1,03A+3,07B+0,66C+0,4D	
A= O‘z aylanma mablag‘lari / Jami aktivlar	Z < 0,862 holatlarda iqtisodiy nochorligi yuqori deyu baholanadi.
B = Soliqlar va foizlar to‘loviga qadar foyda / Jami aktivlar	
C = Soliya to‘loviga qadar foyda / Joriy majburiyatlar	
D = Sotishdan sof tushum / Jami aktivlar	
Konan-Golder modeli KG=-0,16Y1+0,222Y2+0,87Y3+0,10Y4-0,24Y5	
Y1 = Pul mablag‘lari va debitorlik majburiyatlari /Balans jami	Iqtisodiy nochorlik holati KG indeksi bo‘yicha belgilanadi: - (+0,048) - 90%; - (-0,026) – 70%; - (-0,068) – 50%; - (-0,107) – 30%; - (-0,164) – 10%.
Y2 = Xususiy kapital va uo‘ovmuddatli majburiyatlar / Balans jami	
Y3 =Kredit va qarz foizlari summasi/ Sotishdan sof tushum	
Y4 = Xodimlarga xarajatlar/ soliq to‘lovidan keyingi ko‘shilgan qiymat	
Y5= Soliqlar va foizlar to‘langunga qadaor foyda/ qarz kapitali	

Biver modeli	
Kb. = (So ffoyda + Amortizatsiya) / Qarz kapitali	Kb. > 0,35 – normal; 0,17 < Kb. < 0,3 – nobarqaror; 0,15 < Kb. < 0,16 – krizis
Kt.l. = Aylanma aktivlar / Joriy majburiyatlar	Kt. l. > 2 - normal; 1 < Kt. l. < 2 - nobarqaror; Kt. l. < 1 – krizis
Ke.r. = Sof foyda / Balans jami	6-8% va undan yuqori- normal; 2-5% - nobarqaror; (-22%) dan 1 gacha– krizis
Kf.l. = Karz kapitali / Balans jami	Kf.l. < 35% -normal; 40% < Kf.l. < 60% - nobarqaror; Kf.l. > 80% - krizis
Kp. = (Xususiy kapital – Oborotdan tashqari aktivlar) / Balans jami	Kp. > 0,4 - normal; 0,3 < Kp. < 0,1- nobarqaror; Kp. < 0,1 – krizis

15.6. Bankrotlik taomillari: kuzatuv, tashqi boshqaruv, sanatsiya, tugatishning o‘ziga xos xususiyatlari

Xuquqiy shaxsning bankrotligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda quyidagi taomillar qo‘llaniladi:

Kuzatuv - sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning mol-mulki but saqlanishini ta’minlash, qarzdorning moliyaviy, ahvoli tahlilini o‘tkazish maqsadida qarzdorni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan paytdan e’tiboran keyingi taomilga qadar qo‘llaniladigan taomili;

Sudgacha sanatsiya qilish - qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) yoki uning mol-mulki egalari, kreditorlar va boshqashaxslar tomonidan qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda bankrotligining oldini olish maqsadida ko‘riladigan chora-tadbirlar;

Sudgacha sanatsiya qilish bankrotlik alomatlari yuzaga kelgan taqdirda, qarzdorning rahbari bu haqda qarzdorning muassislariga (ishtirokchilariga), boshqaruv organlariga yoki qarzdorning mol-mulki egasiga yozma shaklda xabar qilishi shart.

Sud sanatsiyasi - sud tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to‘lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini o‘zish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanatsiya qiluvchi boshqaruvchiga o‘tkazmagan holda qo‘llaniladigan taomil;

Sud sanatsiyasi ko‘pi bilan yigirma to‘rt oylik muddatga joriy etiladi, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta’minotini bergan shaxslar kreditorlarning talablarini qondirishi uchun sud tomonidan ko‘pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.

Kelishuv bitimi - taraflarning sud nizosini o‘zaro yon berish asosida tugatish to‘g‘risidagi bitimi.

Tashqi boshqaruv - sud tomonidan bankrotlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rib chiqish chog‘ida tayinlanadigan hamda qarzdorning mol-mulkini boshqarish

vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o‘tkazgan holda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash maqsadida qo‘llaniladigan bankrotlik taomilidir. Sodda qilib aytiladigan bo‘lsa, nochor ahvolga tushgan qarzdorning rahbari o‘rniga shu sohani yaxshi biladigan, iqtisodni, boshqaruv sirlarini chuqur o‘zlashtirgan boshqa kishi muayyan muddatga sud tomonidan rahbar qilib (tashqi boshqaruvchi) tayinlanadi.

Tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan boshlab, qarzdorning rahbari o‘z vazifasidan chetlashtiriladi va uning vakolatlari tashqi boshqaruvchiga o‘tadi. Qarzdorning majburiyatlari bo‘yicha kreditorlarning talablariga, shuningdek penyalarga nisbatan ham moratoriy joriy etiladi (muzlatiladi).

Tashqi boshqaruvchining nomzodini sudga kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi taklif etishi mumkin. Ammo bu nomzodlarni kreditorlar yig‘ilishi ko‘rib chiqadi va ko‘p ovoz olgan nomzodni (bir nechta bo‘lsa) ma’qullashib, so‘ngra ushbu nomzodni tayinlash uchun sudga berishadi.

Tashqi boshqaruvchining nomzodi kreditor, qarzdor, mulkdor, vakolatli davlat organi tomonidan taqdim etilmasa, sud Iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi taklif etgan nomzodni tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi sud tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Tashqi boshqaruv, o‘n ikki oydan yigirma to‘rt oygacha muddatga joriy etiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda quyidagi taomillar qo‘llaniladi:

-kelishuv bitimi;

-tugatishga doir ish yuritish.

Amalda bankrot deb e’lon qilingan korxonalarga nisbatan bir nechta tadbirlar rejasi belgilanadi;

-sanatsiyalash (moliyaviy yordam ko‘rsatish);

-faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirish;

-diversifikatsiya (bir emas bir necha nomenklaturada mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish);

-ixtiyoriy tugatish;

-majburiy tugatish.

Ataylab qilingan va soxta bankrotlik holatlarida bankrotlik to‘g‘risidagi Qonun xujjatlariga muvofiq xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar rahbarlari noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortiladilar.

Bunday g‘ayri qonuniy harakatlarga qarzdor mol-mulkining yoki majburiyatlarining bir qismini yoki hammasini yashirish, qarzdorning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq hujjatlarni yashirish yoki yo‘q qilish, ularni soxtalashtirish, mansabdor shaxslarning yoki qarzdor

mulkdorining shaxsiy manfaatlarini, yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab qarzdorning to‘lovga qobiliyatsizligini oshirish, kreditorga zarar yetkazish maqsadini ko‘zlagan holda boshqa har qanday usul bilan qasddan bankrotlikka olib kelish va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 180 va 181-moddalariga ko‘ra, soxta bankrotlik hamda bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarliklarni ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq kreditorlarning pul mablag‘lari bo‘yicha talablarini to‘la hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig‘imlar, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashga qodir bo‘lmagan korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi. Bunda bankrotlikni sud e’tirof etgan va qarzdorning o‘zi ixtiyoriy ravishda o‘zini tugatish chog‘ida e’lon qilgan bo‘lishi kerak. Sud qarzdor, kreditor va prokuror taqdim etgan bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqadi. Sud bankrotlikni e’tirof etgandan keyin ishonchli (vakolatli) shaxs tugatish komissiyasining kuzatuvi ostida korxonani tugatish, shu jumladan, qarzlarni o‘zish bo‘yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligining o‘ziga xos xususiyatlari. Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to‘g‘risidagi ish, agar qarzdor kreditorlarning pul majburiyatlari bo‘yicha talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir bo‘lmasa, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) majburiy to‘lovlar bo‘yicha tegishli majburiyat mazkur majburiyatlar va (yoki) to‘lovlar bo‘yicha mazkur majburiyat boshlangan kundan e’tiboran olti oy ichida bajarilmagan bo‘lsa, basharti qarzdorga nisbatan bildirilayotgan talablar eng kam ish haqining kamida besh ming karrasi miqdorini tashkil etsa, iqtisodiy sud tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to‘g‘risidagi ish ko‘rilayotganda tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi va (yoki) tegishli vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, xo‘jalik boshqaruvi organi ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida e’tirof etiladi.

Shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi iqtisodiy sud tomonidan kreditorlar yig‘ilishining qarori asosida, bunday qaror bo‘lmasa, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlik, davlat qo‘mitasi, idoraning va xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan, ular qarzdorning majburiyatlari yuzasidan ta’minot bergan taqdirda, joriy etilishi mumkin.

Tashqi boshqaruv rejasi shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona tomonidan mazkur rejani kreditorlar yig‘ilishiga

taqdim etishdan oldin mahalliy davlat hokimiyati organi bilan, davlat mudofaa buyurtmasini amalga oshiruvchi korxonalar bo‘yicha esa vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora va xo‘jalik boshqaruvi organi bilan kelishib olingan bo‘lishi kerak.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining hamda vazirlik, davlat qo‘mitasi, idoraning, xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan ular tomonidan qarzdorning majburiyatlarni bajarishi ta’minoti ta’minlangan taqdirda, shu jumladan davlat kafolatlarini berish yo‘li bilan ta’minlanganda, iqtisodiy sud qarzdorning sud sanatsiyasiga o‘tishi to‘g‘risida, agar ilgari bunday taomil qarzdorga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lmasa, qaror qabul qilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruvi mahalliy davlat hokimiyati organining iltimosnomasi bo‘lgan taqdirda iqtisodiy sud tomonidan uzog‘i bilan bir yil muhlatga uzaytirilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona faoliyatiga investitsiya kiritish, xodimlarni ishga joylashtirish, yangi ish joylarini yaratish yo‘li bilan hamda qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklashning boshqa usullari bilan korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash rejasi tashqi boshqaruvni ushbu moddaning nazarda tutilgan muddatdan ko‘proq muhlatga uzaytirish uchun asos bo‘ladi.

Tegishincha mahalliy davlat hokimiyati organining, vazirlik, davlat qo‘mitasi, idoraning hamda xo‘jalik boshqaruvi organining iltimosnomasiga binoan qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to‘lovlari yuzasidan kafillik berish sharti bilan shaharni tashkil etuvchi korxonaning hamda unga tenglashtirilgan korxonaning tashqi boshqaruv muddati besh yilgacha uzaytirilishi mumkin. Bunday hollarda qarzdor va uning kafili kreditorlar bilan hisob-kitob qilishga ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlardan kechikmay kirishishi shart.

Shaharni tashkil etuvchi qarzdor korxona hamda unga tenglashtirilgan qarzdor korxona tashqi boshqaruv chog‘ida kreditorlarning talablarini qondirish maqsadida mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi korxonani hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki auksion o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Shaharni tashkil etuvchi korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

-shaharni tashkil etuvchi korxona sotilayotgan paytda unda ishlab turgan xodimlarning kamida yetmish foizi uchun ish joylarini saqlab qolish;

-shaharni tashkil etuvchi korxonaning faoliyat sohasi o‘zgartirilgan taqdirda mazkur xodimlarni qayta o‘qitish yoki ishga joylashtirish borasida xaridorning majburiyatlari.

Davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlovchi korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

-davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta’minlovchi korxona mulkiy majmuasining hamda safarbarlik maqsadidagi mol-mulkning belgilangan maqsadi saqlab qolinishini ta’minlash;

-qarzdorning davlat mudofaasiga oid buyurtmalar, davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi sohasidagi ehtiyojlarini ta’minlashga doir ishlarni amalga oshirish bilan bog‘liq shartnomalarni bajarish.

Tabiiy monopoliyalarning subyekti bo‘lgan korxonani tanlovda sotishning majburiy shartlari quyidagilar hisoblanadi:

-tabiiy monopoliyalar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining tartibga solish predmeti bo‘lgan tovarlar yetkazib berish shartnomalari bo‘yicha qarzdorning majburiyatlarini sotib oluvchi o‘z zimmasiga olishga roziligi, ishlab chiqarilayotgan va (yoki) realizatsiya qilinayotgan tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) iste’molchilarning erkin foydalana olishi ta’minlanganligi;

-agar qarzdorning faoliyati litsenziyalanishi lozim bo‘lsa, tegishli faoliyat turini amalga oshirish uchun xaridorda litsenziya bo‘lishi.

Agar shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona tanlov shartlarida sotilmagan bo‘lsa, korxona auksionda sotiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari bankrotligining o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining bankrotligi to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgunga qadar ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudgacha sanatsiya qilish qo‘llanilishi mumkin.

Sudgacha sanatsiya qilish muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo‘lgan bo‘lsa, sudgacha sanatsiya qilish muddati o‘n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasining bankrotligi to‘g‘risidagi ish ko‘rib chiqilayotganida mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonasida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv yetishtirilgan tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilish uchun zarur vaqtni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo‘lgan muddatga joriy etiladi. Bunda kuzatuv taomili muddati uch oydan, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari muddati belgilangan muhlatdan oshib ketmasligi lozim.

Sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvolida yomonlashish sodir bo‘lgan bo‘lsa, sud sanatsiyasi yoki tashqi boshqaruv muddati o‘n ikki oyga

uzaytirilishi mumkin.

Fermer xo‘jaliklariga va yuridik shaxsni tashkil etgan holdagi dehqon xo‘jaliklariga nisbatan tashqi boshqaruv taomili joriy etilmaydi.

Qarzdorning mol-mulkini sotishda (undan o‘zganing foydasiga voz kechishda) sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari qishloq xo‘jaligi korxonasini dastlabki kimoshdi savdosida sotishga mulkiy majmua sifatida qo‘ymog‘i lozim.

Qarzdorning mol-mulkini sotib olishda imtiyozli huquqqa, shuningdek, yerga egalik qilish huquqiga qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan va qarzdorning yer uchastkasiga bevosita tutash yer uchastkasiga egalik qiluvchi shaxslar ega bo‘ladilar. Sud boshqaruvchisi yoki qarzdorning rahbari mazkur mol-mulkni, shuningdek mulkiy huquqlarni sotishda (ulardan o‘zganing foydasiga voz kechishda) mazkur mol-mulk va mulkiy huquqlar qiymatini baholashdan o‘tkazishni tashkil etishi hamda shaxslarga mol-mulkni baholangan qiymatida taklif etishi shart.

Qishloq xo‘jaligi korxonasi bankrotlik oqibatida tugatilgan taqdirda mazkur korxonaga berilgan yer uchastkalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa shaxsga berilishi yoki o‘zga shaxsga o‘tishi mumkin.

Bankning bankrotligining o‘ziga xos xususiyatlari. Bankni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun iqtisodiy sud bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qaytarib olinganidan keyin qabul qiladi.

Qarzdor bank kreditorlarning talablarini qondirishga qodir bo‘lmagan taqdirda yuzaga keladigan munosabatlar hamda banklarning bankrotligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilangan tarzda tartibga solinadi.

Bankka tashqi boshqaruv joriy etilmaydi.

Sug‘urtalovchining bankrotligi. Sug‘urtalovchining bankrotligi to‘g‘risidagi ishda, vounda nazarda tutilganlardan tashqari, sug‘urta faoliyatini tartibga solish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi ham ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotish tashqi boshqaruv jarayonida oshirilishi mumkin. Faqat sug‘urtalovchining o‘zi sug‘urtalovchining mulkiy majmuasini sotib oluvchi bo‘lishi mumkin.

Sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv jarayonida sotilgan taqdirda sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotilayotgan sanadagi sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlar majmuani sotib olgan shaxsga o‘tadi.

Tugatishga doir ish yuritish o‘tkazilayotganida sug‘urtalovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug‘urtalovchi bankrot deb topilgan

sanaga qadar sug‘urta hodisasi yuzaga kelmagan sug‘urta shartnomalarini o‘z zimmasiga olishga rozi bo‘lganda sotilishi mumkin.

Bankni bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizani ko‘rib chiqish uchun iqtisodiy sud bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya faqat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qaytarib olinganidan keyin qabul qiladi.

Iqtisodiy sud sug‘urtalovchini bankrot deb topgan taqdirda kreditorlarning talablari quyidagi tartibda qondiriladi:

-birinchi navbatda sug‘urta qildiruvchilarning hayotni sug‘urta qilish sohasidagi majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;

-ikkinchi navbatda sug‘urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;

-uchinchi navbatda boshqa sug‘urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

-to‘rtinchi navbatda majburiy to‘lovlarni nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha talablar. Mazkur talablar to‘la qondirilganidan keyin ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar va jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha talablari qondiriladi;

-beshinchi navbatda sug‘urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari bankrotligining o‘ziga xos xususiyatlari. Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining bankrotligi qonunda ko‘zda tutilgan tutilgan shaxslardan tashqari, qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi ham ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi taomillarining ushbu Qonun bilan tartibga solinmagan o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozorida investorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlari qonunda belgilab qo‘yilishi mumkin.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilari bankrotligining oldini olish va ularning to‘lov qobiliyatini tiklashning sudgacha taomillarini o‘tkazish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Kuzatuv joriy etilgan paytdan e’tiboran muvaqqat boshqaruvchi o‘zi tayinlangan paytdan boshlab o‘n kunlik muddat ichida o‘zlariga qarashli qimmatli qog‘ozlarni qimmatli qog‘ozlar bozorining qarzdor professional ishtirokchisiga boshqaruvga topshirgan qimmatli qog‘ozlar bozorining investorlariga bankrotlik to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilganligi va muvaqqat boshqaruvchi o‘z huquqini amalga oshira boshlaganligi haqida xabarnoma yuborishi shart. Mijozlarning qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining tasarrufida bo‘lgan qimmatli qog‘ozlari va boshqa mol-

mulki tugatish massasiga kiritilmaydi.

Tashqi boshqaruv yoki tugatishga doir ish yuritish joriy etilgan paytdan e'tiboran mijozlarning qolgan qimmatli qog‘ozlari, agar tashqi boshqaruvchining yoki tugatish boshqaruvchisining mijozlar bilan kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, mijozlarga qaytarilishi lozim.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining tashqi boshqaruvi chog‘ida tashqi boshqaruvchi o‘ziga mijozlar tomonidan boshqaruvga topshirilgan qimmatli qog‘ozlarni mijozlarning roziligi bilan va ularning nomidan qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchisiga topshirishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs bankrotligining tartibga solinishi. Yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning bankrotligi bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risidagi ariza iqtisodiy sudga qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs, kreditor, prokuror, shuningdek davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkin.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risida ariza berish huquqiga kreditorlar ham ega, hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablar, shuningdek shaxsiy xususiyatdagi boshqa talablar qo‘yadigan kreditorlar bundan mustasno.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish taomili amalga oshirilayotganda hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablarni, shuningdek shaxsiy xususiyatdagi boshqa talablarni qo‘yadigan kreditorlar o‘z talablarini taqdim etishga haqli. Mazkur kreditorlarning talablari, agar ular bankrotlik taomili qo‘llanilayotganda bildirilmagan bo‘lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning bankrotligi taomili tugaganidan keyin ham o‘z kuchini saqlab qoladi.

Qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning bankrot deb topish to‘g‘risidagi arizasiga qarzlarni uzish rejasi ilova qilinishi mumkin, rejaning nusxalari kreditorlarga va bankrotlik to‘g‘risidagi ishda

Kreditorlarning e’tirozi bo‘lmasa, iqtisodiy sud qarzlarni uzish rejasini tasdiqlashi mumkin, bu esa bankrotlik to‘g‘risidagi ish yuritilishini uzog‘i bilan ikki oygacha muddatga to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

Qarzlarni uzish rejasida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

rejani amalga oshirish muddati;

qarzdor yoki uning oila a’zolari iste’moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdori;

kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun har oyda yuborish mo‘ljallanayotgan summa miqdori.

Iqtisodiy sud bankrotlik to‘g‘risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga binoan qarzlarni uzish rejasini o‘zgartirishga, shu jumladan uni amalga oshirish muddatini uzaytirishga yoki qisqartirishga, qarzdor yoki uning oila a’zolari iste’moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdorini ko‘paytirishga yoki kamaytirishga haqli.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxs qarzlarni uzish rejasini bajarganligi natijasida kreditorlarning talablari to‘la hajmda qanoatlantirilgan bo‘lsa, bankrotlik to‘g‘risidagi ish yuritish tugatilishi kerak.

Iqtisodiy sudning qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risidagi qarori hamda undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun davlat ijrochisiga yuboriladi. Quyidagilarning mol-mulki, bundan ushbu Qonunga muvofiq tugatish massasiga kirmaydigan mol-mulk mustasno, sotilishi kerak:

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning barcha mol-mulki;

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor maqomini yo‘qotgan jismoniy shaxsning avvalgi tadbirkorlik faoliyatidan olingan mol-mulk. Bunda mol-mulkning, jismoniy shaxsning avvalgi tadbirkorlik faoliyati davrida olingan mol-mulkka kirishi-kirmasligi iqtisodiy sud tomonidan belgilanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligi. Agar qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi va (yoki) o‘z ustav fondini shakllantirmaganligi munosabati bilan tugatilishi to‘g‘risida qaror qabul qilingan yuridik shaxsning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa, bunday yuridik shaxs Qonunda nazarda tutilgan tartibda tugatiladi.

Iqtisodiy sud tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to‘g‘risida qaror qabul qilib, tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligida kuzatuv, sud sanatsiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo‘llanilmaydi.

Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga bo‘lgan o‘z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish to‘g‘risidagi e’lon chiqarilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddat ichida unga taqdim etishga haqli.

15.7. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari

Iqtisodiy nochorlik bizning qonunchiligimizga, respublikamizda bozor munosabatlari rivojlana borib, erkin raqobatga tobora keng yo‘l ochilgan, tadbirkorlarning nochor ahvolga tushib qolishi bilan bog‘liq munosabatlar yuzaga kela boshlagan paytdan boshlab, ya’ni, iqtisodiy nchorlik holatining vujudga kelishini huquqiy jihatdan tartibga solishning zaruriyatning ortishi bilan yangi huquqiy institut sifatida kirib keldi.

Xorijiy davlatlarda bankrotlik instituti katta muammoli masala sifatida tan olinadi. Ularda bu mavzu bir necha yuz yillar davomida o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, ularda bankrotlik bilan bog‘liq munosabatlar ilk bora XVI asrning o‘rtalarida qonun normalari bilan tartibga solina boshlanganligini alohida qayd etish lozim. Ammo, bu normalar ko‘proq jinoiy-huquqiy tusda bo‘lgan. Ya’ni, korxonani bankrotlik holatiga tushirganlik uchun aksariyat hollarda jinoiy javobgarlik belgilangan. Bankrotlikning kelib chiqish sabablari chuqur o‘rganilgan holda u bilan bog‘liq munosabatlar har doim ham jinoiy tusda bo‘lmasligi, ko‘pincha fuqarolik, moddiy-huquqiy munosabatlarga yaqin bo‘lganligi sababli keyinchalik bankrotlik bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarning aksariyat qismi fuqarolik-huquqiy normalarni tashkil qila boshlagan.

Aksariyat xorijiy davlatlarning qonunchiligiga ko‘ra, kreditorlik qarz majburiyatini bajarish muddati boshlangan kunning ertasidan boshlab, korxonani bankrot deb e’tirof etish mumkin. Ya’ni, korxonaning mol-mulki qiymatidan uning qarz majburiyatlari qiymati oshgan bo‘lishi yoki kreditorlarning talablari ma’lum vaqt mobaynida ijro etilmayotgan bo‘lishi ularning qonunchiligida talab qilinmaydi. Ammo shu bilan birga ularda bankrot deb e’tirof etilishi uchun korxonaning kreditorlik qarzining eng oz qiymati belgilab qo‘yilgan. Masalan, AQShda 5 ming dollar, Angliyada 750 funt sterling, Rossiyada eng kam oylik ish haqining 500 (jismoniy shaxslar uchun 100) baravari miqdorida va h. k.

Bankrotlik to‘g‘risidagi chet el tajribalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, bankrotlik to‘g‘risidagi qonunlar asosan ikki yo‘nalishga yoki modelga ega.

Birinchisi; Buyuk Britaniya modeli bo‘lib, bunda bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik bankrotga uchragan korxonaga berilgan qarzlarni egasiga qaytarib berilishini ta’minlashga qaratilgan. Masalaning bunday tarzda qo‘yilishi asosan korxonani tugatish asosida amalga oshiriladi.

Ikkinchi model esa Amerika modeli bo‘lib, bunda qonunchilik bankrotga uchragan korxonani turli chora-tadbirlar yordamida to‘lov layoqatini tiklab, xo‘jalik faoliyatini davom ettirishiga qaratilgan.

Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida ham Bankrotlik to‘g‘risidagi qonunchilik ana shu ikki model asosida rivojlanib, takomillashib bormoqda.

Bankrotlikka oid qonunchilik jahon miqyosida 2 xil yo‘nalishda rivojlanib bormoqda.

Birinchi yo‘nalishning mohiyati shundan iboratki (Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda), bunda bankrotlikka oid qonunchilikning mohiyati asosan nochor ahvolga tushgan korxonani tezroq tugatib (bankrot qilib), uning kreditorlari qarzini qaytarishga qaratilgan bo‘ladi.

Qonunchilikdagi ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha (AQSh, Fransiya va boshqa davlatlarda) rivojlanayotgan davlatlardagi bankrotlikka oid huquq normalarida nochor ahvolga tushgan korxonani imkon qadar saqlab qolib, uni nochor ahvoldan chiqarishga ko‘proq e’tibor beriladi.

Respublikamizning 1994 yilda qabul qilingan «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunida yuqoridagi, ikki yo‘nalishni birlashtirishga qaratilgan huquqiy normalar aks etgan edi. Ammo keyinchalik qabul qilingan qonunlar va qonun osti hujjatlarining mazmuniga e’tibor berilsa, bizda ham bu sohadagi qonunchilikda ikkinchi yo‘nalishning xususiyatlari ko‘proq namoyon bo‘la boshladi, ya’ni, ularda qarzdorni nochor ahvoldan chiqarishga yondashuvlarga ustunlik berilishi seziladi.

Qonunchiligimizning bu yo‘nalish bo‘yicha rivojlanishi iqtisodiy jihatdan o‘rinlidir. Xuddi shu jihatlarni agrar sektorda xo‘jalik sub’ektlarini iqtisodiy nochorlik batqog‘idan qo‘tqarishda qo‘llanilgan chora tadbirlarda ham ko‘rish mumkin. Shu sababli, Respublikamizda “Qishloq xo‘jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi, amaldagi «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonunda aynan qishloq xo‘jaligi korxonalariga oid maxsus huquqiy normalarning kiritilganligi ham bejiz emas. Chunki bu Qonunlarda iqtisodiy nochorlikka yuz to‘tgan qishloq xo‘jalik korxonalarini bankrot deb e’tirof etish xususiyatlari bilan birga bunday korxonalarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning chora-tadbirlari ham aniq belgilab berilgan.

Korxonalar faoliyatining iqtisodiy nochorligini o‘rganishda baholanuvchi indiqatorlar MDH mamlakatlarida quyidagilar tarkiblanadi.

15.12-jadval

Moliyaviy inqirozlarni xavf xatarini aniqlash indikatorlari

Moliyaviy inqirozlarni kuzatish ob’ektlari	Indiqator ko‘rsatkichlari	
	Umumiy ko‘rsatkichlar	Tarkibiy ko‘rsatkichlar

Korxonaning sof pul oqimi	1.Korxona bo‘yicha jami sof pul oqimi 2.Operatsion faoliyat bo‘yicha sof pul oqimi	1.Sof Pul oqimini yetarligi koeffitsenti 2.Pul oqimini likvidlik dkoeffitsenti 3.Pul oqimini samaradorlik koeffitsenti 4.Sof pul oqimini reinvestitsiya koeffitsenti
Korxonaning bozor qiymati	Korxona sof aktivlarining bozor qiymati bo‘yicha summasi	1.Korxonaning bozoor qiymati 2.foydaning kapitallashuvi koeffitsenti bo‘yicha korxona qiymati
Korxona kapitali tuzilishi	1.Xususiy kapital summasi 2.Qarzga olingan kapital summasi	1.Mustaqillik koeffitsenti 2.Kapitallashuv koeffitsenti 3.Moliyaviy barqarorlik koeffitsenti
Korxona moliyaviy majburiyatlari tarkibi	1.Uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 2.Qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar summasi 3.Moliyaviy kreditlar summasi 4.Tovar (tijorat) krediti summasi 5.Hisob kitoblar bo‘yicha joriy majburiyatlar summasi	1.Korxonaning uzoq muddatli va qisqa muddatli majburiyatlari nisbati koeffitsenti 2.Jalb kilingan moliyaviy va tovar kreditlari nisbati koeffitsenti 3.Kechiktirib bo‘lmaydigan harajatlarning jami majburiyatlardagi salmog‘i koeffitsenti 4.Kreditorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsenti, davri
Korxona aktivlari tarkibi	1.Oborotdan tashqari aktivlar (uzoq muddatli aktivlar) summasi 2.Oborot aktivlar summasi 3.Joriy debitorlik majburiyatlari summasi 4.Pullik aktivlar summasi	1.Yuqori likvidlikka ega mablag‘lar bilan ta’minlanish koeffitsenti 2.Real pullik aktivlar bilan ta’minlanish koeffitsenti 3.Joriy likvidlik koeffitsenti 4.Kritik baholash koeffitsenti 5.Mutlaq likvidlik koeffitsenti 6.Oboorot aktivlarning jami aktivlardagi salmog‘i koeffitsenti 7.Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari nisbati koeffitsenti 8.Debitorlik majburiyatlari aylanish davriyligi 9.Moliyaviy jarayonning davriyligi
Joriy harajatlar tarkibi	1.Joriy harajatlarning jami summasi 2.Doimiy joriy harajatlar summasi	1.Joriy harajatlar darajasmi 2.Doimiy harajatlar darajasi 3.Operatsion richag koeffitsenti
Moliyaviy operatsiyalarnning nochorlik zonasi bo‘yicha konsentratsiya darajasi	1.Umumiy havf xatar	1.Kritik xavf xatar koeffitsenti 2.Xalokatli xavf xatar koeffitsenti

Bonkrotlikka qarshi ko‘riladigan asosiy chora-tadbirlar:

- Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati ularda investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha qulay sharoitlarni yaratish;
- Majburiyatlarning (joriy va uzoq muddatli) oshib ketishiga yo‘l

qo‘ymaslik va ularni doimiy nazoratini yo‘lga qo‘yish;

- Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning to‘lov layoqatini taminlash yuzasidan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining muddatini o‘tkazib yubormaslik;
- Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning aylanma mablag‘larini ko‘paytirish;
- Xo‘jalik sub’ektining foydasini rentabelligini oshirish;
- Aktivlarni qayta baholash, haqqoniy baholash, ularning optimal tarkibini shakllantirish choralarini ko‘rish;
- Moliyaviy salohiyatda o‘z mablag‘lari xissasini oshirish choralarini ko‘rish;
- Boshqaruvning sifan menejmentini yo‘lga qo‘yish;
- Kadrlar masalasiga muhim e’tibor qaratish va h.k.

Iqtisodiyot real sektor korxonalarining kapitallashuv darajasini yanada oshirish va moliyaviy barqarorligini mustaxkamlash, iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, ularni boshqaruvining takomillashtirish iqtisodiy isloxotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xo‘jalik subektlarini moliyaviy sog‘lomlashtirish ,ularning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan qator chora tadbirlar ko‘rishni talab etadi. Buning muhim yechimiga kelishda ichki imkoniyatlarni ishga solish doimo ham kutgan natijalarni bermasligi va bu jarayon uzoq davom etishini hisobga oladigan bo‘lsak asosiy manbaa sifatida tashqi manbalarga tayanishga, ularni ishga solishning puxta uylangan strategiyasi va taktik rejasini belgilashni, loyixalarni chuqur tahliliy asoslashni talab etmoqda. Shu bilan bigalikda, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yoki texnik texnologik qayta rivojlantirish afsuski barchada bir xilda kechadigan, yechim topadigan jarayon emas.

Korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish ishlarida Davlat raqobat Ko‘mitasi tomonidan joylardagi maxalliy xokimliklar, tijorat banklari bilan birgalikda kam quvvat bilan ishlayotgan korxonalarni ish xajmini o‘stirish, bo‘sh turgan ob’ektlar negizida yangi faoliyat turlarini yo‘lga qo‘yish shaklida amalga oshirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorliga muhim ahamiyat qaratish lzim. Quvvatlardan foydalanish darajasini oshirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni belgilashda ham shunday yo‘l tutish lozimki bunda birinchi navbatda yangi, innovatsion, raqobatdosh mahsulotlarni yaratishga va ularni keyinchalik xorijga sotish ishlarini yo‘lga qo‘yishni maqsad qilgan, tashqi iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirilgan iqtisodni yo‘lga qo‘yishga muhim ahamiyat berish zarur.

Amalga oshirilayotgan moliyalashtirishlar avvalo tijorat banklarining resurslari xissasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham loyihalar samaradorligini

baholash va uni oqlanishini baholash yuzasidan qator banklar qoshida maxsus guruxlar ish faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

«NBU Investment», «NBU Invest Group», «Asaka Investments», «Agroinvest Recovery» va «PSB Industrial Investments» guruxlari shular jumlasidandir.

Ta’kidlash lozimki iqtisodiy nochor korxonalar negizida yangidan tashkil etilgan korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab 3 yilgacha qo‘shilgan qiymat solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, daromad solig‘i va yagona soliqdan ozod etilganligi, ushbu soliq imtiyozlarining yangi mulkdorlarga ham 3 yilgacha amal qilinishi tartiblari belgilan.

Shuningdek, ular 2019 yil 1 apreliga qadar ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish uchun olib kelinadigan xomashyo, material va butlovchi qismlar bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod qilindi.

Iqtisodi yrivojlangan davlatlarda har yili 5-10 foiz korxona iqtisodiy nochor deb tan olinib ularning ish faoliyati to‘xtatiladi. Lekin O‘zbekiston amaliyoti bu daraja nixoyatda kam. Bankrot deb tan olingan korxonalar soni jami korxonalar sonining 1 foizini ham tashkil etmaydi. Shunday ekan bu bilan nega bunchalimk chuqur qayg‘urishimiz zarur. Bu yechimi juda sodda. Agar bitta korxona iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli yopiladigan bo‘lsa undan faqat shu korxona mulkdorlarigina emas, balki bututn jamoa va butun jamiyat ziyon ko‘radi. Uzi, shundan ham ish bilan bandlik va mahsulot ishlab chiqarish xajmini o‘sishi muammo bo‘lib turgan bir paytda yangilar qatorini hisobdan chiqarilgan eskilar bilan to‘ldirishdan xech kimga naf bermaydi. Shu sababli birinchi navbatda iqtisodiy tanglikka tushgan korxonalarni birinchi navbatda qo‘llab quvvatlash chora tadbirlarini ko‘rish lozim.

Korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirishning aniq chora tadbirlarini ko‘rish mumkin qachongi iqtisodiy, moliyaviy tanglikni yuzaga keltirayotgan sabablarni aniq o‘rganib chiqsak, ularning muhimlarini belgilasak.

To‘lovga qodir bo‘lmagan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bankrotlik mexanizmini shakllantirish – mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim shartidir. Ushbu mexanizm yordamida ayrim samarasiz faoliyatlarni to‘xtatish, noqobil xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tugatish, ijtimoiy jihatdan muhim va daromad keltiradigan korxonalarni saqlab qolish, mulkchilik munosabatlari barqarorligini ta’minlash, ish bilan bandlikni kafolatlash singari hayotiy muhim tadbirlar amalga oshiriladi.

Bankrotlik taomilini qo‘llashdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad muayyan korxonani inqirozdan moddiy va moliyaviy sog‘lomlashtirish yo‘liga o‘tkazish va bu jarayonni imkon qadar tez va mukammal amalga oshirish ekanligini yuqorida eslatdik. Ammo alohida muhim hisoblangan boshqa bir dolzarb masala ham borki, aslida bankrotlikning joriy etilishiga

aynan shu holat sababchi va undan kelib chiquvchi vazifa dastavval ana shu salbiy vaziyatni bartaraf qilishdan iborat. Gap qarzdorlikni tugatish, kreditorlar talabini qondirish xaqida ketmoqda.

Moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar bermaydigan korxonalarni «nolga teng qiymat» bo‘yicha xususiy tadbirkorlarga sotilishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda PF-5022-sonli “Iqtisodiy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish hamda tijorat banklarining ko‘chmas mulk ob’ektlari negizida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon qabul qilindi.

Mazkur Farmon bilan tijorat banklari ular tomonidan avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida mulk sifatida qabul qilingan ko‘chmas mulk ob’ektlari negizida bank va uning boshqaruv kompaniyalarining ishtirok ulushi 100 foizgacha bo‘lgan yangi korxonalar tashkil etish huquqi berildi.

2017 yilning 1 iyulidan boshlab bankrot korxonalarni tijorat banklariga sotish tanlov savdolarida amalga oshirilishi, bunda tijorat banklari o‘rtasida kim oshdi savdolari o‘tkazilmasligi belgilangandi.

Banklar iqtisodiy nochor, zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va ular bo‘yicha xulosalarni xukumat komissiyasiga kiritishi lozim.

Xukumat komissiyasining asosiy vazifalari hamda vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-iqtisodiy nochor, zarar ko‘rib ishlayotgan va past rentabelli korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

-bankrot korxonalarning mulklari hamda avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko‘chmas mulk ob’ektlari negizida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining “yo‘l xaritalari” va tarmoq jadvallarini tasdiqlash;

-konkurs savdolari orqali tijorat banklariga sotilishi belgilangan bankrot korxonalar ro‘yxatini aniqlash;

-tijorat banklari tomonidan korxonani qayta tiklash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etishni ta’minlash majburiyatini qabul qilish sharti bilan tijorat banklariga bankrot korxonalarni sotish bo‘yicha tanlov savdolarining shartlari va natijalarini tasdiqlash;

-bankrot korxonalarning investitsiya majburiyatlarini qabul qilgan holda “nol” xarid qiymatida tijorat banklariga sotish bo‘yicha tanlov

savdolarini o‘tkazish va qaror qabul qilish;

-qabul qilingan investitsiya majburiyatlarining tijorat banklari tomonidan bajarilishi, korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish va avval taqdim qilingan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida tijorat banklari mulkiga qabul qilingan ko‘chmas mulk ob’ektlari negizida yangi ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi hamda ularni keyinchalik yangi mulkdorlarga sotilishi yuzasidan monitoring natijalarini ko‘rib chiqish;

-tijorat banklari tomonidan bankrot korxonalar faoliyatini tiklash va investitsiya kiritish bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlar shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda bajarilmaganda shartnomalarni o‘rnatilgan tartibda bekor qilish yuzasidan qaror qabul qilish;

-tijorat banklari shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda investitsiyalar kiritish va bankrot korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarini bajarmagan taqdirda ushbu bank bilan oldi-sotdi shartnomasini o‘rnatilgan tartibda bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

15.8. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentdan foydalanish

Korxonalarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini zamonaviy moliyaviy menejment asosida olib borish va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish glaballashgan iqtisodiyotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Dunyo bozoriga chiqish, xalqaro kredit olish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun moliyaviy menejmentni joriy qilish va hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish maqsadga muvofiqdir. Chunki, moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishga erishish faqatgina xalqaro standartlarga o‘tish orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni takomillashtirishda tubdan yangi tizimni joriy etish lozim. Bu borada ilg‘or xorij tajribasi bizga qo‘l keladi.

Moliyaviy menejment va hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy qilish orqali- moliyaviy hisobotlar yig‘ish, umumlashtirish, konsolidatsiya qilish hamda ularni haqqoniyligi va to‘g‘riligini ta’minlaydi, olingan moliyaviy hisobotlar milliy va xalqaro moliyaviy kriteriylar asosida tahlil qilinadi, moliyaviy risklarni aniqlanadi hamda tahlil natijalari yuzasidan jamiyat rahbariyati va korxonalarning kuzatuv Kengashlariga ma’lumot va ko‘rsatmalar tayyorlanadi

Tahliliy ma’lumotlar asosida to‘lov qobiliyati, investitsion, kredit, valyuta, inflyatsion, soliq, bankrotlik alomatlari va aniqlangan boshqa moliyaviy risklarni boshqarish, baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bu borada kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ham muhim masala hisoblanadi. Ularning ish shakllari va uslublarini takomillashtirish, ma’suliyatni xis etishi va unga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgartirilishi, rag‘batlantirishning aniq va puxta mexnazmlarini shakllantirish lozim.

Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiy nochorlik, bonkrotlik nima?
2. Iqtisodiy nochorlik instituti maqsadi?
3. Iqtisodiy nochorlikni yuzaga keltiruvchvsi sabablar, omillarni tushuntiring?
4. Iqtisodiy nochorlik kimlarga nisbatan qo‘llanilmaydi?
5. Iqtisodiy nchorlikni davlat tomonidan belgilanishi, tartibga solinishini sabablarini tushuntiring?
6. Korxonalarning moliyaviy sog‘lomlashtirish chora tadbirlariga nimalar kiradi?
7. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob’ektiv zarurligi nimada?
8. Iqtisodiy nochorlikni tahlil qilish maqsadi va vazifalarini tushuntiring?
9. Iqtisodiy nochorlikni tartibga solishning xuquqiy normalariga nimalar kiradi?
10. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalariga nimlar kiradi?
11. Iqtisodiy nochorlikni aniqlashda o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar tizimiga qaysi ko‘rsatkichlar kiradi?
12. Iqtisodiy nochorlikni aniqlashning va baholashning asosiy va qo‘shimcha ko‘rsatkichlarini tavsiyalab bering?
13. Iqtisodiy nochorlikni baholashning milliy va xalqaro tajribalarini tushuntiring, qiyosiy farqini aytib bering?
14. Iqtisodiy nochorlik havf-hatarlarini aniqlashda moliyaviy holat tahlili?
15. Bankrotlikni aniqlashning turli modellari va ularning farqlanishini tushuntiring?
16. Bankrotlik taomillariga nimalar kiradi?
17. Kuzatuv nima?
18. Tashqi boshqaruv nima?
19. Sanatsiya nima?
20. Tugatishda moliyaviy holat tahlili qanday amalga oshiriladi?
21. Korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirga nimlar kiradi?
22. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlariga

nimalar kiradi?

23. Bankrotlikni oldini olishda moliyaviy menejmentning o‘rni qanday?

GLOSSARIY

Analiz - yunoncha «analysie» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «bir butunni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganish» degan ma’noni anglatadi yoki biror jarayonni o‘rganishda umumiylikdan xususiylik sari tadqiq qilish tuShuniladi.

Sintez - yunoncha «synthisie» so‘zidan olinib, umumlashtirish degan ma’noni bildiradi yoki biror ob’ektni (hodisani, jarayonni) o‘rganishda xususiylikdan umumiylik sari tadqiq tuShuniladi.

Deduksiya - tadqiqot yoki biror ob’ektni (hodisani, jarayonni) o‘rganishda umumiylikdan xususiylik sari o‘tilishi tuShuniladi.

Induksiya - tadqiqotni yoki biror ob’ektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylik sari o‘tilishi tuShuniladi.

Boshqaruv tamoyillari - iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.

Boshqaruv tizimi - boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo‘lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o‘zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o‘zgaradi.

Metod(usul) - yunon tilidan olingan bo‘lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni o‘rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o‘rganish usuli.

Metodologiya(uslubiyat) - muayyan fanning predmetini o‘rgatish usuli, unda qo‘llaniladigan yondaShuvlar, usullar majmuasi.

Ichki xo‘jalik rezervlar(imkoniyatlari) - xo‘jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobiy ta’sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta’sirini tugatish tuShuniladi.

Omillar - u yoki bu iqtisodiy ko‘rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tuShuniladi.

Sabab - keng ko‘lamdagi kompleks omillar tizimiga nisbatan qo‘llanilib, kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deyiladi.

Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari - taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog‘lanish, etakchi bo‘g‘inni ajratib qo‘yish, koeffitsientlar, foizlar, o‘rtacha miqdorlar, qayta hisoblash, ko‘rsatkichlarning bajarilish foizi va o‘sish sur’atidagi farq, mutlaq farq kabilar.

Fikrlar hujumi usuli - biror bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxasislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g‘oyalari majmuasidir.

Kompleks tahlil - korxona faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

Funksional qiymat tahlili (F.Q.T) - har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish,

xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunksiya) funksiyalarni bartaraf etish evaziga ichki xo‘jalik rezervlarini axtarib topish va korxona aylanmasiga (oborotiga) solishga qaratilgan tahlildir.

Omilli tahlil - natija ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o‘zida ifoda ettirgan tahlildir.

Moliyaviy tahlil - xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o‘rganishga qaratilgan tahlildir.

Boshqaruv tahlili - korxona ma’muriyati, mulk egasi va mutaxassislari tomonidan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir.

YAlpi ijtimoiy mahsulot - moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiriuvchi ko‘rsatkichlar.

YAlpi mahsulot - tarkibiga tovar mahsuloti qo‘Shuv tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig‘i qo‘Shuv korhonaning o‘zida tayyorlangan yarim - fabrikatlar va asbob - uskunalar kiradi.

Hajm ko‘rsatkichlari - yalpi, tovar, sotilgan, sof va me’yoriy sof mahsulotlar.

Tovar mahsuloti - barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o‘tgan, to‘la butlangan, texnika nazorati bo‘limidan o‘tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

Sotilgan mahsulot - tovarlar iste’molchilarga jo‘natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob - kitob raqamiga o‘tkazilishi tuShuniladi.

Sof mahsulot - tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy faollarning amortizasiyasi summasi o‘rtasidagi farq.

Fond samarasi (qaytimi) - asosiy ishlab chiqarish vositalarining birso‘miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir.

Fond sig‘imi - bir so‘mlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan asosiy ishlabchiqarish vositalarning qiymati.

Materiallar samarasi - moddiy xarajatlarning bir so‘mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko‘rsatadi.

Material sig‘imi - bir so‘m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchunqancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.

Moliyaviy natija - korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellikdarajasida ifodalanaigan yakunidir.

YAlpi foyda - mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tuShum va sotilgan mahsulot tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Operasion foyda(asosiy faoliyati foydasi) - yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operasion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadalr qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan foyda.

Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi) - operasion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo‘shilishi va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo‘lgan foyda.
Soliq to‘lagunga qadar foyda - umumxo‘jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo‘shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo‘lgan foyda.

Sof foyda - soliq to‘lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig‘i va foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlarni chegirilishi orqali aniqlanganfoyda.

Rentabellik - jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko‘rsatkich.

Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi) - korxonaning asosiy va aylanma mablag`lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko‘rsatadi. U sof foydani jami aktivlarni o‘rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Balansni likvidligi - balansdagi likvid bo‘lgan mablag‘larning majburiyatlarni qoplash darajasi tuShuniladi.

Aktivlarni likvidligi - balans likvidligini aksi bo‘lib, vaqt bo‘yicha aktivlarni pul mablag‘lariga aylanishi tushuniladi.

Joriy likvidlik koeffitsienti - u aylanma aktivlarga qo‘yilgan moliyaviy resurslarning necha so‘mi joriy majburiyatlar bir so‘miga to‘g‘ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Muddatli likvidlik koeffitsienti - u pul mablag‘lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Mutlaq likvidlik koeffitsienti - u pul mablag‘larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti - u korxonaning o‘z mablag‘larining xo‘jalik mablag‘lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

Debitor qarzlari - aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag‘larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

Kreditor qarzlari - o‘zga korxonalarning aylanma mablag‘larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

Mehnat omillari - korxonaning ishchi kuchi bilan ta’minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Mehnat vositalari omillari - korxonaning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Mehnat predmetlari omillari - korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta’minlanganligini hamda ulardan foydalanish

samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Ostanaqulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. – T: Talqin. 2008. 424 b

2. I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev, M.E.Pulatov, D.K.Usmanova. Экономический анализ хозяйственной деятелности предприятий. Учебное пособие Tashkent, 2019,b.735

3. I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev, M.E.Pulatov, D.K. Usmanova. Финансовий анализ. Учебное пособие. Tashkent, 2019,b.378

Qo‘shimcha adabiyotlar

4. F.G’.G’ulomova, U.T.Fayziyeva Buxgalteriya hisobini mustaqil o’rganish uchun qo’llanma. - T.: “Norma”, 2018. 1-2-qism.

Axborot manbalari (saytlar)

5. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

6. www. gaar.ru (Xalqaro buxgalteriya standartlari);www. cir.com (Xalqaro Sertifikatli Buxgalter);

M.Q. PARDAYEV, A.N. XOLIQULOV,
T.I. YAHYOYEV

IQTISODIY TAHLIL

darslik

Muharrir: Z. Meliyev
Musahhih: J. Shodmonov
Texnik muharrir: Z.N. Bobodustov

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 30 - yanvardagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (6-sonli majlis bayoni).

© «FAN BULOG’I» nashriyoti, Samarqand - 2024

ISBN: 978-9910-753-56-5

Nashriyot lisenziyasi:
№ 4341-5160-642c-944b-ab74-5062-3969
Nashrga ruxsat etildi: 30.04.2024 y.
© «FAN BULOG’I» nashriyoti, Samarqand sh.
S.Buhoriy ko’chasi, 1-11 uy.

7571

01.05.2024 yilda chop etildi
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 25,18
Buyurtma № 0050A/24 Adadi 100 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.